

2025-yil, sentabr 15-son



ISSN 2021-9752

Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературы – Language and literature teaching» (e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>

“VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!”



*Vatanimiz mustaqilligining 34-yilligi munosabati bilan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni asosida
Taniqli adabiyotshunos va manbashunos olim Vahob Rahmonovni
"Mehnat shuhrati" ordeni sohibi
bo'lgani bilan qutlaymiz!*






DOLZARB MAVZU

Shoxrux TURDIYEV,
Qarshi xalqaro universiteti professori, p.f.d. (DSc)

Shahlo SALIMOVA,
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti
e-mail: salimovashahlo2820@gmail.com



TA'LIM TIZIMIDA EMOTSIONAL XAVFSIZ TA'LIM MUHITINI TA'MINLASHDA OILANING O'RNI

Annotatsiya: maqolada oilaning ta'lim tizimida emotsional xavfsiz ta'lim muhitini ta'minlashdagi o'rni borasidagi tadqiqot natijalari bayon qilingan. Mavzu bo'yicha mahalliy va xorijiy tajribalar o'rganilgan. Ta'lim oluvchilarning emotsional barqarorligini ta'minlashda oila a'zolarining zaruriy xususiyatlari tizimlashtirilgan. Emotsional xavfsizlik nazariyasi va modellari tadqiq etilgan hamda mavzu bo'yicha xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: *emotsiya, xavf, oila, muhit, ta'lim, farzand, tarbiya, emotsional xavfsizlik, sabr.*

Аннотация: в статье изложены результаты исследования роли семьи в обеспечение эмоционально безопасной образовательной среды в системе образование. Изучен отечественный и зарубежный опыт по данной проблематике. Систематизированы необходимые качества членов семьи в обеспечении эмоциональной устойчивости обучающихся. Рассмотрены теории и модели эмоциональной безопасности, а также представлены выводы по теме.

Ключевые слова: *эмоция, безопасность, семья, среда, образование, ребенок, воспитание, эмоциональная безопасность, терпение.*

Annotation: the article presents the results of study on the role of the family in ensuring an emotionally safe educational environment within the education system. Both national and international experiences on the issue have been examined. The essential qualities of family members in maintaining students' emotional stability have been systematized. Theories and models of emotional safety have been analyzed, and relevant conclusions on the topic have been provided.

Key words: *emotion, safety, family, environment, education, child, upbringing, emotional safety, love, patience.*

Kirish. Hozirgi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar negizida ta'lim muassasalari ichida va uning tashqarisida ta'lim oluvchilarning xavfsizligini ta'minlash nafaqat huquqiy va tashkiliy choralarni kuchaytirishni, balki emotsional muhitni barqarorlashtirish, ta'lim oluvchilar shaxsiy daxlsizligini kafolatlash hamda pedagogik jarayonning samaradorligini oshirishning muhim sharti sifatida qaralmoqda. Jumladan, xalqaro amaliyotda zamonaviy ta'lim tizimlarida emotsional xavfsizlik konsepsiyasi global miqyosda dolzarb muammo sifatida e'tirof etilmoqda, chunki ta'lim oluvchilar psixologik zo'riqish, travma va ijtimoiy izolyatsiya kabi omillarga tobora ko'proq duch kelmoqdalar.

Oila ta'lim tizimining asosiy komponenti sifatida ta'lim oluvchilar emotsional mustahkamligini shakllantirishda markaziy rol o'ynaydi. Oilaviy muhitdagi salbiy o'zgarishlar, oilaviy zo'ravonlik yoki e'tiborsizlik ta'lim muassasasi muhitidagi emotsional xavfsizlikka to'g'ridan to'g'ri ta'sir etishi tadqiqotchilar va pedagoglar tomonidan dolzarb mavzu sifatida o'rganilmoqda. Shu bois, oila rolining o'rganilishi nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham zarur

bo'lib, ta'lim tizimini isloh qilishda ta'lim muassasalari bilan oilaviy hamkorlik modellarini ishlab chiqishga asos yaratadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Tadqiqotchilar I.Alqarov, R.Mamatqulova va X.Norqulovlarga ko'ra, oila tarbiyasi bir umr davom etadigan uzluksiz jarayon sifatida – ijtimoiy tarbiyaning bir turi bo'lib, oilaning barcha a'zolari unda faol ishtirok etadilar, bir-birlariga o'z bilim, tajribalarini o'rgatadilar [1, 18].

Ilmiy tahlillar va amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, aynan maktab muhiti ayrim o'quvchilar uchun stress manbai sifatida namoyon bo'ladi, bu esa turli salbiy oqibatlariga, xususan, maktab o'quvchilarida emotsional resurs tanqisligining shakllanishiga olib keladi [2, 1030].

Bir guruh xorijiy olimlar tomonidan "Ilk yoshdagi ta'limda oilaning o'rni: kuzatuvchilar tahliliy hisoboti" nomli hisobotga ko'ra, oilalar bolaning ilk hayot yillarida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu davrda bola jismoniy, kognitiv va emotsional rivojlanish yo'nalishlarida tezkor o'sish va taraqqiyot bosqichlarini boshdan kechiradi. Oila ushbu davrda bolaning asosiy tayanchi


bo'lib, ota-onalar va vasiylar uchun uning o'sishi va rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydigan mehribon, xavfsiz va barqaror muhitni yaratish muhim hisoblanadi [3].

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy maqolani yozish jarayonida biz ta'lim tizimida emotsional xavfsiz ta'lim muhitini ta'minlashda oilaning o'rni nazariy va amaliy jihatdan o'rganildi. Bunda mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, xorijiy va mahalliy tajribalar hamda normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Natijalar aniqligini oshirish maqsadida ota-onalar, pedagoglar va ta'lim oluvchilar o'rtasida suhbat, so'rovnoma va kuzatish metodlaridan samarali foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Inson shaxsini tarbiyalashda oila muhitini o'rni bo'yicha izlanishlar olib borgan tadqiqotchi M.B.Burxanovning fikricha, oila muhiti inson shaxsini tarbiyalab, voyaga yetkazish bilan bir

qatorda, shu tarbiya vositasida uning vujudiga ruhiy, aqliy va axloqiy kuch-qudrat rishtalarini ulaydi, milliy ruh va diniy e'tiqod tuyg'ularini shakllantiradi. Oilaviy tarbiyada milliy an'analar uyg'unligi yaqqol seziladi. Zotan, ularning har ikkalasida ezgulik va bag'rikenglik, totuvlik va hamkorlik, odamgarchilik, andisha va odob, xushmuomalalik, saxiylik va mehmondo'stlik, insof va diyonat, halollik va sabr-qanoat singari fazilatlar ustuvorlik qiladi [4, 46].

Ta'lim oluvchilarning emotsional barqarorligi – bu uning shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvchanligi va ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatining asosi hisoblanadi. Ushbu omillar oila muhitida shakllanishi sababli, oila a'zolarining bir qator psixologik va pedagogik xususiyatlarga ega bo'lishini taqozo etadi (1-rasm).



1-rasm. Ta'lim oluvchilarning emotsional barqarorligini ta'minlashda oila a'zolarining zaruriy xususiyatlari.

Tadqiqotlarimiz natijalaridan aniqlanishicha, oila a'zolarida yuqori darajadagi emotsional intellektning mavjudligi ta'lim oluvchida o'z his-tuyg'ularini anglash, boshqarish va boshqalarning kechinmalarini tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilsa, empatiyaga ega ota-ona farzandning emotsional ehtiyojlarini o'z vaqtida sezadi va unga mos tarzda javob berishi natijasida ta'lim oluvchida ichki barqarorlik va xavfsizlik tuyg'usi mustahkamlanishiga erishiladi.

Yillar davomida farzandlar ota-onalarining ma'lum bir xususiyatlarini o'zlarida mujassamlashtiradilar, jumladan, oila a'zolarining stressli vaziyatlarda muvozanatni

saqlashi va vazminlik ko'rsatishi farzand uchun namuna bo'lib xizmat qiladi. Sabr-toqati barqaror ota-ona o'z farzandiga tashqi muammolarga qaramasdan, emotsional jihatdan barqaror bo'lishni o'rgatadi.

Oilada samimiy, ochiq va hurmatga asoslangan muloqot muhitining mavjudligi farzandning shaxsiy rivojlanishida muhim omil bo'lib, uning o'zini mustaqil namoyon etishi, muammoli vaziyatlarni konstruktiv yo'l bilan bartaraf etish hamda ijobiy munosabatlar qurish ko'nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, kommunikativ madaniyatning ustuvorligi ta'lim oluvchining ijtimoiy faolligini oshiradi va uni psixologik nuqtayi nazardan mustahkamlaydi. Bunday oilaviy muhitda qadriyatga yo'naltirilganlik va mehr-muhabbat alohida ahamiyat kasb etadi. Oila a'zolarining bir-biriga hurmat va e'tibor bilan yondashishi farzandning

o'z-o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. Natijada, qadriyatli va mehrga asoslangan muhitda ulg'aygan farzand o'zini qadrlangan va qo'llab-quvvatlangan deb his qiladi, bu esa uning emotsional muvozanatini ta'minlaydi. Bundan tashqari, oila a'zolarining kundalik hayotida mas'uliyatli qarorlar qabul qilishi, ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarga rioya qilinishi ta'lim oluvchilar uchun bevosita psixologik tayanch bo'lib xizmat qiladi. Chunki ta'lim oluvchilarning emotsional barqarorligi ko'p jihatdan oiladagi yoshi ulug'larning ijtimoiy xulqi va axloqiy namunasiga tayanadi.

Farzand tarbiyasida ota-onaning ijobiy bahosi va rag'batlantiruvchi yondashuvi ham alohida o'rin tutadi. Muvaffaqiyatlarni qadrlash, xatolarga konstruktiv munosabat bildirish va qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining mavjudligi ta'lim oluvchining stressga chidamliligini oshiradi. Natijada, ta'lim oluvchi o'zining shaxsiy qadr-qimmatini anglaydi va o'ziga bo'lgan ishonchi yanada mustahkamlanadi.

Oila va oilada bola tarbiyasi ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy-tarbiyaviy jihatdan g'oyat muhim masalalardan biri bo'lib, unda milliy qadriyatlardan va ayni chog'da umuminsoniy qadriyatlar tamoyillaridan chuqur va har tomonlama foydalanish bilan bog'liq jihatlarni ilmiy-nazariy tadqiq etish mustaqillik va islohotlar davrining muhim talabidir [1, 20].

Emotsional xavfsizlik masalasi ko'plab tadqiqotchilar tomonidan chuqur tadqiq etilgan bo'lib, bu yo'nalishda turli model va nazariyalar ishlab chiqilgan. Bulardan eng mashhurlari "Emotsional xavfsizlik nazariyasi" hisoblanadi. Emotsional xavfsizlik nazariyasi mualliflari E.Kamings va P.Devislar hisoblanib, ular ota-onalar o'rtasidagi nizolar oilaviy emotsional muhitni belgilashini va bolaning emotsiyalarni qanday boshqarishni tadqiq etishgan [5, 101]. Emotsional xavfsizlik nazariyasi dastlab ota-onalar o'rtasidagi ziddiyatlar sharoitida o'sayotgan bolalarda kuzatiladigan moslashuv buzilishlarini izohlash uchun ishlab chiqilgan bo'lsa,

keyinchalik nazariya doirasida maxsus tushuncha "Ijtimoiy himoya tizimi" ilgari surilib, u ota-onalar o'rtasidagi nizolardan kelib chiqadigan xavf belgilarini aniqlash va ularga mos himoya ta'sirlarini ishlab chiqishni izohlaydi. Bu tizim bola uchun "yashirin himoya mexanizmi" vazifasini bajaradi.

Emotsional xavfsizlik – bu psixologik xavfsizlikning tarkibiy qismi bo'lib, insonning mikroijtimoiy muhitdagi emotsional himoyalanganlik tuyg'usini ta'minlaydi. Emotsional xavfsizlik shaxsiy xavfsizlikning bir qismi sifatida qaralib, shaxsning turli xavf-xatarlarni boshdan kechirishi jarayonida shakllangan subyektiv "xavfsizlik hissi" orqali namoyon bo'ladi.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqotlarimizga ko'ra, oilada emotsiyalarni boshqarish qobiliyatining rivojlanishi ta'lim oluvchilarning ota-onalarining emotsiyalarga nisbatan qarashlarini o'zlashtirishi hamda ota-onalar o'z emotsiyalarini qanday boshqarishlari haqidagi tasavvurlarni shakllantirishi orqali namoyon bo'ladi. Agar ota-onalar salbiy emotsiyalarni namoyon etishga yo'l qo'ymasalar va boshqalarning bunday emotsiyalarini ko'tara olmasliklarini namoyish qilsalar, farzandda o'zining g'azab yoki qayg'usini ifoda etmaslik kerak degan qarash shakllanadi. Emotsiyalarni ifodalashni qat'iy taqiqlash farzandning his-tuyg'ularini bostirishga moyilligini kuchaytirsa, ularni nazoratsiz rag'batlantirish tajovuzkorlik va asotsial xulqning rivojlanishiga olib keladi. Ota-onaning neytral va vazmin yondashuvi, ya'ni ta'lim oluvchining salbiy emotsiyalarini qabul qilish, lekin ularga ortiqcha rag'bat bermaslik tamoyili emotsional barqarorlikning eng maqbul shartidir.

Oilaning emotsional tarbiyadagi o'rni ta'lim-tarbiyaning boshqa barcha institutlari faoliyatidan ustun turadi. Oilada shakllangan emotsional tajribalar farzandning ta'lim jarayonida o'zini qanday tutishi, jamiyatda qanday munosabatlarni barpo etishini va eng muhimi, o'zini qanday anglashini belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alqarov I., Mamatqulova R., Norqulov X. "Shaxs va oila tarbiyasining pedagogikasi". –T.: "Fan va texnologiya", 2009, 224-bet.
2. Tusseyev, Mukhamejan & Torybayeva, Jamilya & Ibragim, Kairat & Gurbanova, Arzu & Nazarova, Gaziza. (2021). Ensuring the safety of learning and teaching environments. World Journal on Educational Technology: Current Issues. 13. 1029-1039. 10.18844/wjet.v13i4.6299.
3. <https://childrensalliance.org.uk/wp-content/uploads/2023/09/THE-ROLE-OF-THE-FAMILY-IN-EARLY-YEARS-EDUCATION-FINAL.pdf>
4. Burxanova Mavjuda Bekbutayevna (2025). INSON SHAXSINI TARBIYALASHDA OILA MUHITINING O'RNI. Бюллетень педагогов нового Узбекистана, 3 (2), 43-47. doi: 10.5281/zenodo.14870194.
5. Cummings E.M, Davies P. Children and marital conflict: The impact of family dispute and resolution. New York: Guilford Press, 1994. 195 p.

Parda ALIMOV,
Termiz davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini professori;
Jobir AVRIDDINOV,
Termiz davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini katta o'qituvchisi

ADABIY TA'LIMNI O'QITISHNING AYRIM MUAMMOLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada adabiy ta'lim, ta'lim muassasalarida adabiyot darslarini o'qitishda e'tibor qaratiladigan jihatlar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: *ta'lim, adabiyot, bilim, adabiy tahlil, ta'lim va tarbiya.*

Аннотация: в данной статье рассматривается литературное образование и аспекты, которые необходимо учитывать при преподавании литературы в образовательных учреждениях.

Ключевые слова: *образование, литература, знания, литературный анализ, воспитание и образование.*

Annotation: this article discusses literary education and aspects to be considered when teaching literature classes in educational institutions.

Key words: *education, literature, knowledge, literary analysis, education and upbringing.*

Keyingi vaqtlarda o'qituvchining obro'si, sha'ni-shuhrati tushib ketdi degan muammolar ko'payib ketdi. Ko'pchilik buyuk o'zbek shoiri A.Navoiy o'z shogirdlariga ustoz rutubatida muomala qilganini biladi. Shuni alohida qayd etish kerakki, A.Navoiy hatto ustozining farzandlariga ham yuksak ehtirom ko'rsatgan.

Bizda savodi yetarli, har tomonlama bilimlarga ega o'qituvchilar anqoning urug'i bo'lib qoldi. Ilgari o'qituvchi desa, qishloq hayiqar edi. Endi esa o'qituvchi qishloq davrasidan qochadi. Zukko, bilimdon, astoydil bilimga intiluvchi bolalardan qo'rqadi.

Qisqasi, o'qituvchi o'z nufuzini o'zi ko'tarishi kerak. Chunki xalq davlatimiz hamma sharoitni yaratib bergan.

Biz shu o'rinda maktabda adabiyot o'qitish masalalari hamda adabiyot darsliklarining sifati, adabiyot ta'limiga nuqtayi nazar, hamda asosiy muammo: adabiy ta'limni o'quvchiga qanday yetkazish, ya'ni qanaqa qilib o'quvchiga badiiy tafakkurni, so'z san'atini tushuntirish, go'zallikni asl mohiyatini ochish haqida fikrlarimizni aytishni lozim topdik.

Bolaning maktabda olgan ta'lim va tarbiyasini boshqacha ta'lim va tarbiya usuli bilan almashtirib bo'lmaydigan oliy haqiqatdir. Adabiy ta'limning ilmiy, nazariy, estetik, metodik asoslarini mukammal ishlab chiqish va buni amaliyotga joriy etish bugungi kunning zaruriyatidir. Ba'zan, darslik mualliflari qaysi yozuvchining ijodiga urg'u berishlari, qanday asar o'quvchiga yetkazilishini ma'naviy-estetik va axloqiy hamda tarbiya ahamiyatini dastlab ishlab chiqarishlari, keyin esa darslik ustida o'tirishlari kerak. Bizda ushbu masalani yechishda adabiyot va pedagogika fanini chuqur biladigan nomdor olimlarning fikrlari kerak. Adabiyot darslarida matn ustida ishlash, shunchaki o'qib berish emas, badiiy asarni tahlilga tortish, ana shu jihatda qaysi tomonga ko'proq e'tibor berish kerak. Adabiyot darslarida barcha o'quvchilar ham ushbu fanni bir xil o'zlashtiradi deyish qiyin. Ko'p kitob o'qish, mutolaani

goldirmaslik, adabiy muloqotlar so'z boyligini oshirish notiqlikning muhim shartlaridan biridir.

Adabiy tahlilda eng qulay usul o'quvchilarni har bir matnni o'zlashtirishga erishishdir. Matnda mutolaa jarayonida emotsional holatlarni yuzaga chiqarish, chiroyli o'qishning ta'sirchan yo'llarini topishdir. Toki ma'lum matn hayotning jonli ifodasini so'zda ifodalasin. Quyi sinflardan boshlab so'zning jozibali kuchini o'quvchilar his qilib borsin.

Darsda qo'llangan adabiy tahlil bir-birining egizagi bo'lib qolmasin. Adabiy tahlilda badiiy asarning spesifik xususiyati, janrini hisobga olish kerak. O'qituvchi badiiy asar tahlili davomida o'zi ishtirok etishi, ayrim parchalarni o'zi chiroyli o'qishi lozim. Chiroyli o'qishni talab qilgan o'qituvchi, o'zi chiroyli o'qishi kerak.

Har bir jamiyat va zamon o'ziga mos axloqiy qarashlar majmuasiga ega bo'ladi. Sofoklning "Shoh Edip" tragediyasi maktab darsligiga kiritildi. Unda taqdir azaliy degan g'oya mavjud. Unda shoh o'z onasiga uylanadi degan tushuncha yotadi. Biz esa ana shunday tushunchani o'quvchiga, aqli yetmagan bolaga yetkazdik.

Ana shunday tasodifiy asarlarni kiritmaslik uchun darslik mualliflariga tavsiya berdik, xolos.

Keyingi vaqtlarda rivojlangan mamlakatlarda mutaxassis emas, shaxs tayyorlash vazifasi qo'yilmoqda.

Ya'ni, bitiruvchi kuchli shaxslik fazilatlariga ega bo'lishi, ijodiy fikrlashi, hamma narsaga teran ko'z bilan qarashi lozim. Shaxs bo'lishi uchun o'ziga kerakli bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirib olishi kerak, Pedagogika muhim o'z o'quvchisi shaxsini takomillashtirishni bosh maqsad qilib qo'yadi.

Barcha pedagog va o'qituvchilarga bitta talab: o'quvchi fanni shunchaki o'zlashtirmasin, balki o'quvchining ijodiy fikri kerak. Tayyor qoidalarni o'zlashtirish emas, balki hayotda qanday qo'llay olishlariga ham e'tiborni qaratish kerak. Bizga fikrlaydigan o'qituvchi va fikrlaydigan o'quvchi zarur. Ana shundagina asosiy maqsadga yetamiz. Asrlar

davomida yig'ilib kelayotgan va o'rganilgan pedagogik tajribalarni o'rganish o'niga yangicha pedagogik qarashlarni hayotga tatbiq qilishga mahliyo bo'lib kelyapmiz.

Adabiyot darsliklariga nazar solsak, tez-tez ularning mazmuni o'zgarib ketaveradi. Asli qanday asarlar va adabiy qarashlar o'rgatish kerakligini darslik mualliflaridan boshqa hech kim bilmaydi.

Ta'lim va tarbiyaga bizda davlat miqyosida e'tibor berilmoqda. Davlatimiz rahbari muntazam ravishda ta'kidlab o'tadilar: maktab, o'qituvchi, o'quvchi, ta'lim va sifat.

Mamlakat taraqqiyoti va kelajagi uchun sifatli maktab ta'limisiz erishib bo'lmayligini ko'pchilik biladi. Xuddi non, suv, havo kabi shu masala tushunarli ma'lum maqsadga erishamiz.

O'quvchi o'rganayotgan bilim va ko'nikmalarni hayotga qo'llay olishlari kerak. Ba'zan deraza ortida, sinfda hayot turibdi. Misollarni, xususan, adabiyot darslarida uzoqdan izlaymiz. Yana o'sha o'qitishdagi oqsoqlik, turg'unlik. Ijodkorlikni, o'z ustida ishlashni unutib qo'yamiz. Oqibatda hayotni bilmaydigan, tushunchalarini unda qo'llay olmaydigan katta avlodga ta'lim va tarbiya berib keldik.

Maktabda o'quvchi uchun tafakkurini shakllantirish nutqiy qobiliyatni ma'lum bir me'yorga keltirishda, fikrni paydo bo'lishida va mushohada yuritishda adabiy ta'limning o'rni beqiyosdir. Bu haqida soha mutaxassislari fikrlarini bildiradilar. H.G'.Ne'matov, A.K.G'ulomov va boshqalar o'z fikr-mulohazalarini bayon etdilar. Ko'plab olimlarning fikriga tayanib, adabiyot o'qitishni dolzarb muammosi borligini aytib o'tishni lozim ko'rdik: ijtimoiy, ilmiy va pedagogik omillar. Adabiyot o'qitishda ijtimoiy omil shuki, qaramlikdan qutuldik, biroq mafkura hukmronligiga barham berildi, tayyor qolipdagi fikrlar o'rnini ijodiylik egallay boshladi, boshqacharoq aytganda, erkin fikrlovchi adabiyot paydo bo'lmoqda. Yurakdagi his-tuyg'ularni, nozik insoniy munosabatlarni hamda go'zallikka shaydo adabiyot paydo bo'lmoqda. Adabiyot mafkura quroli sifatida emas, balki qalbdagi ezgu tuyg'ularni ifodasi sifatida qarash shakllanmoqda. Negaki adabiyot ijtimoiy muammolarni hal qilish vositasi emas, badiiy idrok va badiiy tafakkurdir. Unda munosabatlar emas, ko'proq his-hayajon va tuyg'ular munosabati namoyon bo'ladi. Unda ruhiy badiiy idrok bor. Hozirda adabiyotga bo'lgan ilmiy idrok butunlay yangilanmoqda. Adabiyotchiga tuyg'ular, ruhiyat musavviri sifatida qarash kerak. O'quvchiga adabiyot hayot emas, tuyg'udan, hissiyotdan iborat ruhiyat olami ekanligini tushuntirish kerakdir. Adabiyotda ko'proq badiiy to'qima ustunlik qiladi. Shunday bo'lsa-da, bo'rttirilgan, qavartirilgan hayot emas, balki unga ham hayot voqealari asos qilinadi. Endi ko'proq adabiyotdan partiyaviylik, sinfiylik axtarilmaydi.

Adabiyot hayotning shunchaki noturar tasviri emas, balki estetik hodisadir.

Oldingi darsliklar ko'proq tuzumga xizmat qiladigan g'oyalar bilan to'lib toshardi. Ko'proq yozuvchining ijodi emas, balki fuqaroligiga, qanday mukofotlar olganiga diqqat qilinardi. Ba'zi yozuvchilar o'z ijodi bilan sodiq fuqarolikdan chiqib ketishardi. Shubhasiz, ularning ijodiga «zapret» qo'yilardi. Mashhur qalam sohibi A.Qahhor bir so'z uchun qanchalar mashaqqat chekkanini ko'pchilik bilmaydi. Yozuvchi o'z ma'ruzasida (yubiley ma'ruzasi) partiyaning soldatiman deyishi kerak edi. Lekin bu matnga bir so'z qo'shadi: Partiyaning ongli a'zosiman. Ana shu «ongli» so'zi A.Qahhor tomonidan aytilgan kalima unga tuzalmas kasallik, og'ir dard olib keladi.

Adabiyot nazariyasidan olgan ko'nikmalarini, nazariy bilimlarini badiiy asarni o'qish va tahlil qilishda endilikda qo'llash imkoniyati tug'iladi. G'azal haqidagi nazariy ma'lumotni yodlash emas, darsning o'zida qo'llash kerak. Badiiy asardagi sof insoniy fazilatlarni, go'zal tuyg'ularni, nafosatni o'zida singdirgan o'quvchilar jamiyat uchun asqatadi. Chunki ular adabiyotning sof insoniy vazifasini tushunishadi.

Bu esa insonni loqaydlikdan, qalb xastaligidan qutqaradi. Qalb bemorligi uchun adabiyot javobgar ekanligini sira unutmaslik kerak. Adabiyot darslarida o'qituvchi va o'quvchi munosabati pedagogik tamoyillari asosida qurilishi, samimiyat va o'zaro hurmat, o'qituvchining shaxs sifatida o'rni bo'lishi kerak.

Biz adabiy asarlarni mustaqil tahlil qiladigan, mumtoz adabiyoti namunalarini biladigan o'qituvchilar ko'pligiga ishonamiz. Lekin bir vaqtlar yig'ilgan bilimlar zaxirasi bilan ish ko'radigan, u ham ancha eskirgan, o'z ustida ishlamaydigan, mutlaqo o'zgargan adabiyotdagi yangiliklarni bilmaydigan, badiiy asar o'qimaydigan, darslikni o'qib beradigan o'qituvchilar borligiga ishonamiz. Bunday o'qituvchilar o'qitaveradi, lekin natija yo'q. O'quvchilar qalbiga kira olmaydi. Ta'lim zamonaga moslashishni talab qiladi. Lekin ularda bu xususiyat yo'q. Adabiy ta'lim sog'lom metodikani talab qiladi. Xo'sh, buning uchun nima zarur, Biz hozirga qadar g'arb adabiyotshunosligi yutuqlariga tayanamiz. Islom falsafasi odam, axloq, hayot haqidagi qarashlarni o'rganmay keldik. To'g'ri, o'rgandik, lekin maktabga tatbiq etmadik. Buni iloji yo'q edi. Endi esa mavridi kelgan. Har sohada mustaqilmiz.

O'qituvchining oldiga badiiy asarni o'qish hayotiy zaruriyat, ma'naviy ehtiyoj degan fikrni shakllantirish bugungi kunning zaruriyati, ulug' masalalardan biri sifatida turishi kerak. Adabiyot fani maktab zaruriyati emas, hayotiy zaruriyat fani sifatida o'qitilishi kerakdir. Bu esa estetik zaruriyatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adabiyot inson qalbi uchun kurashdir... «Kitob dunyosi», 2013-yil 27-fevral. №4
2. Olimov M. Fojiaiy pafosning ayrim o'ziga xosliklari. «O'zbek tili va adabiyoti» jurnali, 2005 yil, 3-son, 6-bet.
3. Бахтин М. Проблемы поэтики Достоевского. Москва, «Художественная литература», 1971, стр. 205.

Xolmurod XIDIROV,
 O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti,
 siyosiy fanlar nomzodi

XXI ASRDA TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHDAGI MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR

Annotatsiya: mazkur maqolada ta'lim tizimini rivojlantirish jarayonida yuzaga kelayotgan dolzarb muammolar hamda ularni bartaraf etishning asosiy imkoniyatlari yoritilgan. Unda ta'limda sifat, raqamlashtirish, innovatsiyalar, o'qituvchi kadrlar malakasi, moddiy-texnik baza, hamkorlik va xalqaro tajribalarning ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, hozirgi davrda ta'lim sohasidagi islohotlar samaradorligini oshirish va barqaror rivojlanishni ta'minlash yo'llari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, muammolar, imkoniyatlar, ta'lim sifati, raqamlashtirish, innovatsiya, pedagogik kadrlar, moddiy-texnik baza, xalqaro hamkorlik, islohotlar, uzluksiz ta'lim, zamonaviy metodlar.

Annotation: this article highlights the current challenges emerging in the process of developing the education system and the main opportunities for addressing them. It analyzes the importance of quality, digitalization, innovations, qualifications of teaching staff, material and technical resources, cooperation, and international experiences in education. Additionally, ways to enhance the effectiveness of reforms in the field of education and ensure sustainable development in the present era are examined.

Key words: education system, challenges, opportunities, quality of education, digitalization, innovation, pedagogical personnel, material and technical resources, international cooperation, reforms, continuous education, modern methods.

Аннотация: в данной статье освещаются актуальные проблемы, возникающие в процессе развития системы образования, а также основные возможности их преодоления. В ней анализируется значение качества образования, цифровизации, инноваций, квалификации педагогических кадров, материально-технической базы, сотрудничества и международного опыта. Также рассмотрены пути повышения эффективности реформ в сфере образования и обеспечения устойчивого развития в настоящее время.

Ключевые слова: система образования, проблемы, возможности, качество образования, цифровизация, инновации, педагогические кадры, материально-техническая база, международное сотрудничество, реформы, непрерывное образование, современные методы.

Kirish. Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimining rivojlanishi har bir davlatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyotida muhim o'rin tutmoqda. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, bilimga asoslangan jamiyat qurilishi uzluksiz ta'lim sifatini oshirish bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bois O'zbekistonda ham oxirgi yillarda ta'lim sohasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ammo jarayon davomida muayyan muammolar mavjudligi ham sezilmoqda. Mazkur maqolada ana shu muammolarni o'rganish hamda ularni bartaraf etish imkoniyatlarini ilmiy tahlil qilish maqsad qilib olingan.

Bugungi kunda dunyo miqyosida globallashuv jarayonlari, ilm-fan va texnologiyaning jadal rivojlanishi ta'lim tizimini tubdan yangilash va uni yangi bosqichga olib chiqishni talab qilmoqda. Chunki har qanday davlatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyoti bevosita inson kapitali bilan chambarchas

bog'liq bo'lib, bu jarayonda ta'lim sifatining yuqoriligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi ham shuni ko'rsatadiki, innovatsion taraqqiyot, raqobatbardoshlik va barqaror iqtisodiy o'sishning asosi puxta shakllangan ta'lim tizimidir. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekistonda ham ta'lim sohasini rivojlantirish masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanmoqda.

So'nggi yillarda mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, xalqaro standartlarga mos o'quv dasturlarini ishlab chiqish hamda oliy ta'lim muassasalari faoliyatini isloh qilish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, raqamlashtirish jarayonlari, masofaviy ta'lim platformalarining kengayishi, xususiy sektorning ta'lim sohasidagi faolligi, xorijiy universitetlar filiallarining ochilishi va professor-o'qituvchilarning malakasini

oshirishga qaratilgan dasturlar ta'lim tizimida ijobiy o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda.

Shu bilan birga, ta'limda yechimini kutayotgan muammolar ham mavjud. Jumladan, ayrim ta'lim dasturlarining mehnat bozori talablariga to'liq mos emasligi, pedagogik kadrlar malakasining yetarli darajada yuqori emasligi, ayrim hududlarda ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi zaifligi, innovatsion yondashuvlarning keng joriy etilmaganligi ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa yoshlarning raqobatbardoshligi va xalqaro miqyosda o'z o'rnini topish imkoniyatlarini cheklab qo'yadi.

Shunday qilib, ta'lim tizimini rivojlantirish bugungi kunda ikki yo'nalishda — mavjud muammolarni bartaraf etish va yangi imkoniyatlardan samarali foydalanish orqali amalga oshirilishi mumkin. Shu ma'noda, mazkur maqola ta'limni rivojlantirish jarayonida uchraydigan muammolarni tahlil qilish, mavjud imkoniyatlarni ko'rsatib berish hamda ta'lim sifatini oshirishda qo'llanishi mumkin bo'lgan samarali yondashuvlarni ilmiy jihatdan asoslashga qaratilgan.

Asosiy qism. Ta'limni rivojlantirishdagi asosiy muammolarni bir nechta yo'nalishda ko'rib chiqish mumkin. Birinchidan, ta'lim sifati muammosi. Hozirgi davrda umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'limda o'quv dasturlarining zamonaviy mehnat bozori talablariga to'liq mos kelmasligi kuzatiladi. Ikkinchidan, o'qituvchi va professor-o'qituvchilar malakasining yetarli darajada yuqori emasligi, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalana olmasligi ta'lim samaradorligini pasaytiradi. Uchinchidan, moddiy-texnik bazaning yetarlicha rivojlanmaganligi ham dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Shu bilan birga, ta'lim tizimida katta imkoniyatlar ham mavjud. Avvalo, raqamlashtirish jarayonlari ta'lim samaradorligini oshirish uchun keng imkoniyat ochmoqda. Masofaviy ta'lim, elektron kutubxonalar, onlayn platformalar orqali ta'lim olish imkoniyatlarining kengayishi bilim olishda tenglikni ta'minlaydi. Ikkinchidan, davlat va xususiy sektor hamkorligining kuchayishi, xususiy ta'lim muassasalari sonining ko'payishi raqobatni oshirib, sifatni yaxshilashga xizmat qiladi. Uchinchidan, xalqaro hamkorlikning kengayishi, xorijiy universitetlarning filiallari ochilishi va akademik almashinuv dasturlari ta'lim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Ta'lim tizimini rivojlantirishda mavjud muammolar va imkoniyatlarni chuqur tahlil qilish bugungi davrning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki ta'lim nafaqat bilim berish jarayoni, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini belgilovchi eng muhim omillardan biridir. Shu sababli, ta'lim sohasida uchrayotgan

qiyinchiliklarni o'z vaqtida aniqlash va ularni bartaraf etish, shuningdek, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish jamiyat taraqqiyoti uchun zarurdir. Mazkur qismda ta'limni rivojlantirishdagi muammolar va imkoniyatlar bir necha asosiy yo'nalishlarda tahlil qilinadi.

Birinchidan, ta'lim sifatining pastligi va o'quv dasturlarining mehnat bozori talablariga mos emasligi dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Ko'plab o'quv rejalari va dasturlar hali-hanuz nazariy bilimlarga ko'proq urg'u beradi, amaliy ko'nikmalar esa yetarli darajada shakllantirilmaydi. Bu esa yoshlarning oliy ta'lim muassasalarini tamomlagach, mehnat bozorida raqobatbardosh kadr sifatida o'z o'rnini topishini qiyinlashtiradi. Misol tariqasida, xalqaro reytinglarda ko'plab O'zbekiston oliygohlari hali yuqori o'rinlarni egallay olmayotgani, aynan o'quv dasturlari va ilmiy tadqiqotlar samaradorligi bilan bog'liq.

Ikkinchidan, pedagog kadrlar malakasi va innovatsion yondashuvlarning yetarli emasligi ta'lim samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. O'qituvchilarning ko'pchiligi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, innovatsion metodlarni to'laqonli qo'llay olmayapti. Natijada, ta'lim jarayoni interaktivlikdan uzoq bo'lib qolmoqda. Pedagoglarni muntazam ravishda qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslari mavjud bo'lsa-da, ularning amaliy samarasi yetarli emasligi kuzatilmoqda.

Uchinchidan, moddiy-texnik baza va infratuzilma muammolari hamon dolzarbligini yo'qotgani yo'q. Aksariyat ta'lim muassasalarida zamonaviy laboratoriyalar, innovatsion o'quv jihozlari, elektron resurslar yetishmaydi. Qishloq hududlaridagi maktab va bog'chalarda bu muammo yanada keskin ko'zga tashlanadi. Bunday sharoitda ta'lim jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etish qiyinlashadi.

To'rtinchidan, ilmiy-tadqiqot faoliyatining sustligi ham muammolardan biridir. Oliy ta'lim muassasalari faoliyatida ilmiy izlanishlar yetarli darajada rivojlanmaganligi sababli, ilm-fan va ta'lim integratsiyasi kuchsiz bo'lib qolmoqda. Bu esa nafaqat ta'lim sifatini, balki innovatsion taraqqiyotni ham sekinlashtiradi.

Biroq muammolar bilan bir qatorda ta'lim sohasida keng imkoniyatlar ham mavjud. Avvalo, raqamlashtirish jarayonlari ta'lim tizimida yangi ufqlarni ochmoqda. Masofaviy ta'lim platformalari, onlayn kurslar, elektron kutubxonalar ta'lim jarayonini yanada qulay va samarali qilishga yordam bermoqda. Raqamli texnologiyalar orqali o'quvchilar va talabalarning bilim olish imkoniyatlari kengaymoqda, bu esa ta'limda tenglikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, xalqaro hamkorlikning kengayishi ta'limda sifat o'sishiga olib kelmoqda. O'zbekistonda xorijiy universitetlarning filiallari ochilayotgani, qo'shma dasturlar amalga oshirilayotgani va talabalar almashinuvi dasturlarining yo'lga qo'yilgani yoshlarning global tajribadan bevosita foydalanishiga imkon yaratmoqda. Bu esa xalqaro standartlarga mos raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash uchun mustahkam zamin bo'ladi.

Uchinchidan, xususiy sektorning ta'limdagi faolligi sohada raqobatni kuchaytirmoqda. Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari, xususiy maktablar va oliy o'quv yurtlari sonining ortib borishi sifatli ta'lim xizmatlari ko'lamini kengaytiradi. Bu jarayon davlat ta'lim muassasalarini ham yangicha ishlashga undaydi.

To'rtinchidan, davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida ta'limga e'tibor ham imkoniyatlardan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ta'lim sifatini oshirish, ilm-fanni rivojlantirish, yoshlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlar sohani modernizatsiya qilishga yo'naltirilgan. Bu siyosiy irodani samarali amalga oshirish orqali mavjud muammolarni hal etish mumkin.

Demak, ta'limni rivojlantirishda muammolar va imkoniyatlar bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lib, ularni tizimli yondashuv asosida o'rganish va hal qilish zarur. Agar mavjud muammolarni imkoniyatlarga aylantirish bo'yicha izchil strategiyalar ishlab chiqilsa, ta'lim tizimi sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishi mumkin.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimini rivojlantirishdagi asosiy yo'nalishlardan biri bu — o'quv dasturlarini mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirish, innovatsion metodlarni keng joriy

etish hamda o'qituvchilar malakasini oshirishdan iborat. Shuningdek, ta'lim muassasalarini zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish ham zarur. Natijada, ta'lim tizimida sifat ko'rsatkichlari oshadi, yoshlarning raqobatbardoshligi ta'minlanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ta'limni rivojlantirish jarayonida mavjud muammolarni tizimli tahlil qilish va ularni hal etish bo'yicha izchil strategiyalarni ishlab chiqish muhimdir. Zamonaviy imkoniyatlardan samarali foydalanish, innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish hamda xalqaro tajribani mahalliy sharoitga moslashtirish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Demak, ta'limni rivojlantirishdagi muammolarni imkoniyatlarga aylantirish orqali kelajakda barqaror taraqqiyot va raqobatbardosh jamiyatni shakllantirish mumkin.

Ta'limni rivojlantirish jarayonida uchraydigan muammolar — o'quv dasturlarining mehnat bozori talablariga to'liq mos emasligi, pedagog kadrlar malakasining yetarli darajada yuqori emasligi, moddiy-texnik bazaning zaifligi va ta'lim sifatining notekisligi kabi omillar hisoblanadi. Shu bilan birga, mavjud imkoniyatlar — raqamlashtirish jarayonlari, xalqaro hamkorlikning kengayishi, xususiy sektorning faol ishtiroki, zamonaviy innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish va davlat tomonidan amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar ta'lim sifatini oshirish uchun keng sharoit yaratmoqda. Demak, ta'lim sohasida muammolarni tizimli yondashuv orqali imkoniyatlarga aylantirish, barqaror rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish va zamonaviy yondashuvlarni qo'llash orqali mamlakatning kelajak taraqqiyotini ta'minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov, F. (2021). O'zbekistonda ta'lim tizimining rivojlanish istiqbollari. — Toshkent: Fan.
2. UNESCO. (2022). The Future of Education: Global Trends and Opportunities. Paris.
3. Jalilova, M. (2023). "Innovatsion pedagogika va ta'lim sifati". Ta'lim va innovatsiyalar jurnali, №4.
4. World Bank. (2023). Education for Resilience and Growth in Central Asia. Washington.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim sifatini oshirish va ilm-fan rivojini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. 2020-yil.

Durdona MAHKAMOVA,
ToshDO'TAU Nazariy va amaliy tilshunoslik
kafedrasida katta o'qituvchisi

MUSTAQILLIK DAVRI O'ZBEK TERMINOLOGIYASI TARAQQIYOTI BORASIDAGI MULOHAZALAR TAHLILI

Annotatsiya: mustaqillik davrida o'zbek tilining barcha jabhalari, xususan, terminologik tizimida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'ldi. Mazkur o'zgarish va yangilanishlar hamon davom etmoqda. Bu esa terminologiya taraqqiyotini kuzatish, tavsiflash, shu asnoda terminologiya istiqbolini belgilash masalalarini mutaxassislar zimmasiga yuklaydi. Maqolada o'zbek terminologiyasining Mustaqillik yillaridagi taraqqiyotiga doir qator mulohazalar keltirilib, ulardagi umumiy va xususiy jihatlar belgilanadi.

Kalit so'zlar: mustaqillik davri, til taraqqiyoti, terminologiya, terminologik tizim, so'z o'zlashtirish, muqobil topish, so'z ma'nosini tiklash, zamonaviylashuv, jamiyat.

Аннотация: в период независимости произошли существенные изменения во всех аспектах узбекского языка, в частности, в терминологической системе. Эти изменения и обновления продолжают и по сей день. Это возлагает на специалистов задачу мониторинга и описания развития терминологии, а также определения дальнейших перспектив терминологии. В статье представлен ряд наблюдений за развитием узбекской терминологии в годы независимости, выявлены их общие и специфические аспекты.

Ключевые слова: независимость, развитие языка, терминология, терминологическая система, усвоение слов, поиск альтернатив, восстановление значения слов, модернизация, общество.

Annotation: during the period of independence, significant changes occurred in all aspects of the Uzbek language, in particular, in the terminological system. These changes and updates continue to this day. This imposes on specialists the task of monitoring and describing the development of terminology, as well as determining the future prospects of terminology. The article presents a number of observations on the development of Uzbek terminology during the years of independence, revealing their general and specific aspects.

Key words: period of independence, language development, terminology, terminological system, acquisition of words, search for alternatives, restoration of the meaning of words, modernization, society.

Kirish. Tilshunoslar olib borgan kuzatishlardan ma'lumki, xalq ijtimoiy hayotida yuz bergan ba'zi tarixiy o'zgarishlar: ijtimoiy-siyosiy tuzumning almashishi va u bilan bog'liq holda yuzaga keladigan yangi til siyosati, adabiy tilning ijtimoiy vazifalarini yangi tuzum, davr talabiga moslashga intilish va boshqa bir qator omillar adabiy til me'yorlarida ma'lum qarama-qarshi, noturg'un holatlarni yuzaga keltiradi. Ko'pgina xalqlarning mustaqillikka erishishdagi harakati birinchi navbatda til mustaqilligiga erishish uchun kurash olib borishi tarzida namoyon bo'lishi ham xarakterlidir. O'zbekiston mustaqillikka erishish arafasida o'zbek tilining qonuniy huquqini tiklash uchun olib borilgan harakatlar o'zbek tiliga davlat tili maqomining

berilishi, uning qonun bilan mustahkamlangani mazkur ijtimoiy-lisoniy qonuniyat bilan bog'liqdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Til terminologiyasida ro'y beradigan o'zgarishlar hayotda yuz beradigan o'zgarishlar bilan bog'liq holda turli davrlarda turlicha ko'rinishlarga ega bo'ladi. Buni biz O'zbekiston mustaqil respublikaga aylanganidan keyin o'tgan vaqt mobaynida o'zbek terminologiyasida bo'lgan, bo'layotgan o'zgarishlar misolida ham yaqqol kuzatishimiz mumkin, ya'ni O'zbekistonning mustaqilligi sharoitida ham o'zbek tili terminologiyasi shu tilning o'z ichki imkoniyatlari asosida hosil qilinayotgan va o'zga tillardan o'zlashtirilayotgan yangi terminlar hisobiga takomillashib boryapti [1].

O'zbekiston Respublikasi davlat tili haqidagi qonunning 19-moddasida "O'zbekistonda o'zbek xalqining ilm-fan tilini rivojlantirish uchun o'zbek tilida ilmiy-texnik hamda ijtimoiy-siyosiy atamalarni yaratish va rivojlantirish ta'minlanadi" deyilgan. Qonun qabul qilinganidan keyin bu masalaga jiddiy e'tibor berildi. 1991-yil (mustaqillik e'lon qilingan yil)dan emas, balki 1989-yil – o'zbek tiliga "Davlat tili" maqomi berilishi bilan boshlangan desak, mubolag'a bo'lmaydi.

O'zbek adabiy tili taraqqiyotida 80-yillar oxiri va 90-yillar boshida ana shunday jarayon yuz berdi. Mazkur jarayon o'zbek tilida 20-30 yillar (jadidlar davri)da yuz bergan jarayondan keskin farq qiladi. 20-30 yillarda o'zbek tilining imloviy, lug'aviy va terminologik me'yorlarini yangidan belgilash, yaratish muammosi asosiy masala salgan bo'lsa, 90-yillarda sanalgan me'yorlar o'zbek adabiy tilida to'liq shakllangan edi. "Atama"ning ma'nosidan kelib chiqilsa, yuqoridagi kabi masalalarning qo'mita tomonidan ko'rilishi o'rinli. Biroq bu hol qo'mitaning bosh maqsadiga va normativ hujjatlarda belgilangan vazifalariga muvofiq emas. Ayni shu kabi holatlar qo'mitaning tugatilishiga sabab bo'lgan, nazarimizda. 2019-yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Davlat tilini rivojlantirish departamenti tarkibida Atamashunoslik va toponimik obyektlarga nom berish faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi tashkil etilishi [2] va ikki obyektning alohidaligi bo'lim nomida aks etishiga yuqoridagi tarixiy tajriba asos bo'lgani ehtimoldan holi emas.

1998-yilda akademik A.Hojiyev tomonidan nashr etilgan "Termin tanlash mezonlari" risolasida ta'kidlanishicha, "Umuman, o'zga tildan o'zbek tiliga kirgan so'zlarni almashtirish yoki almashtirmaslik, almashtiriladigan bo'lsa, buni qanday amalga oshirish masalasi nihoyatda murakkab bo'lib, bunda juda ko'p narsalarni e'tiborga olish, shu yo'l bilan ish tutish talab etiladi. Bu ishning muvaffaqiyatli bajarilishi uning ijrochisidan ehtiyotkorlik, yuksak bilim, mahorat talab etadi" [3,12]. Akademik A.Hojiyev ruscha-yevropacha so'z va terminlarni o'zbek tiliga o'zlashtirishda, asosan, quyidagi mezonlarga amal qilish lozimligini ta'kidlaydi:

1. Fan, texnika, kasb hunarning biror sohasiga oid tushunchani aniq ifodalovchi so'z o'zbek tilining o'zida bo'lgani, qo'llanib turgani holda ular hech qanday asossiz, ehtiyojsiz, faqat subyektiv sabab

bilan rus tilidagi so'zlarga almashtirilgan bo'lsa, bunday so'zlar qayta tiklanishi kerak. Shu jihatdan *ziyoli, inqilob, jamoa, muharir, nasr, nazm, risola, matn, muallif* kabi so'zlarning iste'molga kiritilishini faqat qo'llab-quvvatlash kerak. 2. Ma'lum bir tushunchani aniq va to'g'ri ifodalaydigan so'z o'zbek tilining o'zida bo'lgani holda yoki shunday so'zni o'zbek tilining materiallari yordamida hosil qilish mumkin bo'lgani holda (bunga e'tibor bermay, uni hisobga olmay yoki sezmay) rus tilidagi so'z qabul qilinavergan bo'lsa, o'zbek tilining o'z imkoniyati ishga solinishi lozim. Ya'ni o'zbek tili imkoniyati asosida hosil bo'lgan so'z ruscha so'zning o'rniga qabul qilinishi kerak. Shu nuqtai nazardan *sovet, faktor, protses, sostav, soyuz* so'zlarini *kengash, omil, jarayon, tarkib, uyushma* tarzida almashtirilishi to'g'ridir. 3. Rus tilidan o'tgan so'zni boshqa so'z bilan almashtirish yoki almashtirmaslikni hal etishda bu so'zning dunyo tillarida qo'llanish-qo'llanmaslik tomoniga ham e'tibor berish kerak. Bunda butun dunyodagi tillar bilan yaqinlashish, ular bilan bir xillikka intilish asosiy yo'ldir. Shunga ko'ra *respublika, demokratiya, aeroport* kabi so'zlarning o'z holaticha qolishi to'g'ridir. 4. Rus tilidan o'tgan so'zni o'zbek tilidagi so'z bilan almashtirish yoki almashtirmaslik masalasida so'zning bir ma'noli va ko'p ma'noli bo'lishiga e'tibor berish lozim. Agar rus tilidan o'tgan so'z ko'p ma'noli bo'lsa va uning barcha ma'nolarini bekam-ko'st ifodalaydigan bo'lsa, o'zlashma so'z shu so'z bilan almashtirilishi mumkin. Masalan, *revolyutsiya* so'zining o'rniga *inqilob* qabul qilingani singari. Agar o'zbek tilidagi so'z rus tilidagi ko'p ma'noli so'zning ayrim ma'nolarinigina ifodalay olsa, uni shu ma'nolaridagina qo'llash lozim, boshqa ma'nosi yoki ma'nolarida esa rus tilidan olingan so'zning o'zi qo'llanaverishi kerak [3,14-16].

"Mustaqillik davri atamaları" risolasi mualliflari quyidagi uch ijobiy jihatni qayd etadilar: 1) o'zbek tili terminologik tizimiga ma'lum ma'noda milliylik, o'ziga xoslik, milliy-lisoniy ruh bag'ishlangan; 2) sho'rolar davrida rus tili ta'sirida noo'rin ravishda iste'moldan siqib chiqarilgan an'anaviy so'z va terminlarni mustaqillik yillarida qayta tiklashga imkon yaraldi; 3) o'zbek adabiy tili tarixiy terminologiyasi bilan zamonaviy terminologiya tizimlari orasidagi me'yoriy an'anaviylik, tadrijiy izchillik xususiyatlari ma'lum darajada tiklandi. Mas., *me'mor, vazir, daha,*

viloyat, tuman, hudud kabi terminlarga me'yoriylik maqomi berildi.

Tahlil va natijalar. O'zbek tili terminologiyasiga milliy ruh bag'ishlash, uni yanada takomillashtirish borasida qilingan ayrim harakatlar ijobiy baholanmaydi. Masalan, ruscha-internatsional so'zlarni boshqa muqobil bilan almashtirish ishiga ko'p holda ularni o'zbek tilidan haydab chiqarish, tozalash tarzida yondashilgan. Olimlar bu holatni "zaruriyatilik, ilmiylikdan ko'ra hissiyot ustun turdi, ya'ni lisoniy-nutqiy zaruriyat, ehtiyoj emas, balki nolisoniy omillar amal qildi", deb baholaydilar [4]. Buning natijasida o'zbek tili terminologik tizimida mavjud har qanday ruscha-internatsional terminga muqobil topishga harakat qilinadi. Oqibatda, 5 *abituriyent* o'rniga *tahsintalab*, *akademiya* o'rniga *baytulhikma*, *kafedra* o'rniga *minbargoh*, *telegrammaga* *shoshilinchnoma* kabi muqobillar taklif qilinadi. "Termin yaratishda, shuningdek, tilda bor bo'lgan biror terminni boshqasi bilan almashtirishda qilingan har bir ishning to'g'ri-noto'g'riligi, maqbul-nomaqbulligi uning terminga qo'yiladigan talabga qay darajada javob berishi bilan belgilanadi" deb yozadi akademik A.Hojiyev. Ya'ni termin fan, texnika, kasb-hunarning biror sohasiga xos muayyan bir tushunchaning aniq va barqaror ifodasi bo'lgan so'z yoki so'z birikmasi hisoblanadi.

Terminologiya va tilning turli sathlari, shuningdek, tilshunoslik doirasida amalga oshgan modernizatsiyalashuv jarayoni borasida tilshunoslar turli ko'rsatgichlarni taqdim qilganlar. Xususan, E.Begmatov O'zbekistonning mustaqillikka erishishi o'zbek adabiy tili va umuman, til hayotida quyidagi muhim o'zgarishlarni keltirib chiqarganini qayd etadi [5]: 1. Mustaqillikka erishgan O'zbekiston davlati o'zining til siyosatini respublikaning mustaqilligi, madaniy hamda mafkuraviy platformasining asosiy bo'g'inlaridan biri, deb bildi uni kerakli qonun va qarorlar bilan mustahkamladi. Natijada, o'zbek tiliga nisbatan har qanday cheklashlarga, tazyiq o'tkazish va mensimay qarashlarga chek qo'yildi; 2. O'zbek milliy tilini chinakam ma'nodagi davlat tiliga ko'tarishga qaratilgan konkret va amaliy ishlar tashkil qilindi. Bunga asosiy dalil lotin yozuvi asosidagi yangi alifboga o'tkazilgani, o'zbek tilining yangi imlo qoidalari tuzilgani, bir qancha

terminologik lug'atlar qayta tuzilgani, ko'p jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati" dunyoga kelgani, o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'limning, ish yuritish, pochta-telegraf va boshqa xil kommunikatsiya sohalari, ilmiy tadqiqot va nashr ishlari, rasmiy va ommaviy yig'inlar, anjumanlarning asosiy tili o'zbek tili bo'lib qolganini keltirish mumkin; 3. O'zbek adabiy tilining ijtimoiy vazifalari, qo'llanish doirasi kengaydi, adabiy til bu boradagi o'zining qonuniy huquqlarini tikladi; 4. Mustaqillik tufayli o'zbek adabiy tili rus tilining kuchli ta'siri va tazyiqidan qutuldi. Og'zaki nutqda noo'rin va keraksiz ravishda ruscha so'z va iboralarni qo'llash holatlari ancha susaydi; 5. O'zbek tilining o'z ichki imkoniyatlari va lisoniy zaxiralaridan kengroq foydalanishga intilish harakati yuzaga keldi; 6. O'zbek tili tarixida iste'molda bo'lgan, keyinchalik qo'llanishdan chiqqan bir qator so'zlarni adabiy tilning turli uslublari ehtiyojiga ko'ra adabiy til me'yoriga kiritish faollashdi: *muxtoriyat*, *ma'muriyat*, *munajjim*, *muloqot*, *devonxona*, *tijorat* va b.; 7. O'zbek tili mustaqillik davrida avvallari iste'molda bo'lmagan bir qator yangi so'z va ilmiy terminlar bilan boyidi; 8. Avvallari so'z yasash imkoniyatlari turli bahonalar bilan cheklab kelingan ba'zi arabcha, fors-tojikcha qo'shimchalarning qo'llanishi ancha faollashdi; 9. Rus tili orqali o'zlashgan bir qator so'zlarni iste'moldan chiqarish, ularni sun'iy yasalgan yoki biror tildan olingan so'zlar bilan almashtirishdek, harakatni til tizimi va amaliyoti qabul qilmadi; 10. Ona tilining o'ziga xos tabiiy xususiyatini, milliy xalqona ruhini tiklash va kamol toptirishga katta e'tibor berildi. Bu o'zbekcha so'zlaganda va yozganda, o'zga til ta'siri va tazyiqi ostida fikrlash odatining endilikda susayib, kishilarning tilni his qilishi, nutqiy didining o'zbek mentaliteti va etiketi talablariga tobora moslashib borayotganida sezilmoqda; 11. Mustaqillik davrida o'zbek tili va tilshunosligi erishgan ulkan yutuqlardan biri jamiyatning tilga e'tibori kuchayganligidir. Adabiy til, uning lisoniy meyorlari til egalarining ma'lum g'amxo'rligi, himoyasiga doimo muhtoj ekanligi hisobga olinsa, bu hol ulkan yutuq. Kishilarning o'zbek alifbosi imlosi, so'z qo'llash sohasi va adabiy talaffuz me'yorlari, savodxonlik, adabiy tilning sofligi, boyligi haqida fikr yuritayotgani, ulardagi ba'zi nuqsonlar, xatoliklarni bartaraf etishni taklif qilayotganliklari buning yorqin misoli.

Bu xususiyatlar O'zbekistonning mustaqillikka erishishi o'zbek adabiy tilining rivoji hamda boyishi uchun katta imkoniyatlar yaratganini ko'rsatadi. Istiqlool davrida o'zbek adabiy tili tizimida ro'y bergan o'zgarishlar, asosan, uchta xususiyatda yorqin ko'rinadi: 1) o'zbek adabiy tilining ijtimoiy vazifalari, qo'llanish doirasi nihoyatda kengaydi va u jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab oldi. 2) o'zbek tili lug'aviy tarkibi yangi so'z va terminlar bilan boyidi, tilning o'z qatlamga oid leksikasining salmog'i ortdi; 3) tilning barcha funksional uslublari birdek rivojlanish yo'liga o'tdi va bu hol o'zbek tili lisoniy vositalarining uslubiy tarmoqlanishi, xoslanishini kuchaytirdi.

O'zbekistonning mustaqillikka erishuvi bilan respublikamiz hayotining barcha sohalarida ro'y bergan katta o'zgarishlar, rivojlangan mamlakatlar bilan aloqalarning tobora kuchayishi juda qisqa vaqt ichida o'zbek tili, xususan, uning leksikasi rivojiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Yuzlab diniy-tasavvufiy atamalarni iste'molga kirib kelishi ayni shu ijobiy ta'sir natijasidir[6]. Shu sababli ham so'nggi yillarda terminlar ham miqdor jihatdan, ham semantik jihatdan katta o'zgarishlarga uchradi. Mustaqillik davri o'zbek tili terminologiyasi leksik o'zgarishlar bilan birga terminlar tadqiqidagi mazmuniy yangilanishlar bo'lgani bilan o'ziga xosdir.

Professor Z.Xolmanova "Boburnoma" leksikasi tadqiqini amalga oshirar ekan, terminologik birliklarni alohida tahlilga tortadi va mustaqillik davrida terminologik tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilgani, shu bilan birga terminologiyada yangi

birliklar tadqiq obyektiga aylanayotganini alohida qayd etadi: "Mustaqillik yozma yodgorliklardagi mazmun-mohiyatni, leksik birliklarni asl holida tadqiq etish imkonini yaratdi. Bobur asarlari, xususan, "Boburnoma" uchun tuzilgan lug'atlarda ifodalanmay qolgan bir qator leksik birliklar, jumladan, diniy terminlarni izohlash mumkin bo'ldi. Tadqiqot jarayonida 300dan ortiq diniy termin va diniy e'tiqod bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi so'zlar ajratildi" [7]

Mustaqillik davri leksikasiga xos ma'no taraqqiyotini tahlilga tortar ekan, tilshunos Y.Odilov istiqlool davri o'zbek tili lug'at tarkibida quyidagi lisoniy o'zgarishlar yuz berganini qayd etadi: 1. Xorijiy tillardan bevosita yoki bilvosita so'zlar olindi. 2. Tilning ichki imkoniyati hamda til egalari ehtiyojidan kelib chiqib, o'zlashma tarkibli yangi so'zlar yasaldi. 3. So'z yoki ibora semantik strukturasi yangi ma'nolar bilan boyidi [8].

Xulosa. Mustaqillik yillarida leksik tizimda ro'y bergan o'zgarishlar haqida ko'plab tilshunoslar fikr bildirib o'tishgan. Bu boradagi qarashlar mazmuniy uyg'unlikka ega, keskin farqlanishlar kuzatilmaydi. Har birida o'ziga xos, boshqa tavsiflarda uchramaydigan unsur alohida ko'rsatilgan. Kuzatilganidek, olimlarning mustaqillik davri o'zbek tili lug'at sathi taraqqiyoti borasidagi fikrlarida mushtaraklik bor. E'tiborlisi, keltirilgan fikrlar uchun tanlangan misollarning aksariyati terminologik tizim birliklari ya'ni terminlar hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida "tildagi o'zgarish va yangilanishlar, avvalo, terminologik tizimlarda aks etadi" degan fikrimizning yaqqol dalilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ҳожиёв А. Терминологиямизни такомиллаштирайлик // Ўзбек тили ва адабиёти. – № 2. – Тошкент, 1995. – Б. 24-28.
2. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrdagi 984-son qarori.
3. Ҳожиёв А. Термин танлаш мезонлари. – Тошкент: Фан, 1996.
4. Бектемиров Ҳ., Бегматов Э. Мустақиллик даври атамалари. – Тошкент: Фан, 2002.
5. Бегматов Э. Ўзбек адабий тилининг мустақиллик даври ривожига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – № 4. – Тошкент, 2006. – Б. 3-9.
6. Мадвалиев А. Ўзбек лексикографиясининг мустақиллик даври тараққиёти // Ўзбек тили ва адабиёти. – № 5. – Тошкент, 2018. – Б. 3-13.
7. Холманова З.Т. "Бобурнома" лексикаси тадқиқи. Филол. фан. док. автореф. – Тошкент, 2009. – Б. 45.
8. Одилов Ё. Мустақиллик даври лексикасида маъно тараққиёти // Ўзбек тили ва адабиёти. – № 2. – Тошкент, 2016. – Б. 41-45.

Oqiljon MAVLONOV,
Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani faxriy o'qituvchisi



TAHLILNI TAHLIL YO'NALISHI (Adabiyot muallimlari e'tiboriga havola)

Annotatsiya: ushbu maqolamizda Alisher Navoiyning mashhur g'azallaridan biri sharhlariga asoslanib shorih qilgan talqinning bizning o'yimiz va tafakkuriy nigohimizdagi tahlil muqobiliga nisbatan noto'g'ri izohlar berilgan, deb fikrlangan o'rinlarga o'z munosabatlarimizni bildirdik.

Kalit so'zlar: tahlilni tahlil, "Qaro ko'zum", laqab, bog'bon.

Аннотация: в данной статье мы выразили своё отношение к тем местам, где, по нашему мнению, интерпретация комментария, основанного на комментариях к одной из известных газелей Алишера Навои, была неверно истолкована по отношению к альтернативному анализу в нашем мышлении и интеллектуальной перспективе.

Ключевые слова: анализ анализа, «Чёрный глаз», прозвище, садовник.

Annotation: in this article, we expressed our attitude to the places where we thought that the interpretation of the commentary based on the comments of one of Alisher Navoi's famous ghazals was misinterpreted in relation to the alternative analysis in our thinking and intellectual perspective.

Key words: analysis of analysis, "Black eye", nickname, gardener.

Bugungi maqolamizda Alisher Navoiyning mashhur g'azallaridan biri sharhlariga asoslanib shorih qilgan talqinning bizning **o'yimiz va tafakkuriy nigohimizdagi tahlil muqobiliga nisbatan noto'g'ri izohlar berilgan**, deb fikrlangan o'rinlarga o'z munosabatlarimizni bildirishni niyatladik. Avvallari tahlilni tahlil usuli munaqqidiy raddiyalarda qo'llanar edi. Endilikda esa ommabop maqola va monografiyalarda ham qo'llanilmoqda. So'nggi yillarda navoiyshunos mutaxassislar Hazrat lirikasida eng ko'p tahlilga tortilgan g'azalini analiz va sintez qilish yo'li bilan bu asarning ideal talqinini yaratish yo'lida izlanishlar olib borib, o'zining umumlashma xarakterga ega (go'yo) mukammal sharhini yaratishga urinayotgani ko'zga tashlanmoqda. Albatta, bunday intilish ham yaxshi, bu ham bir sharhiy orzu... Biroq bizning ideal sharh borasidagi qarashimiz shundayki, hech qachon bir shaxs shoir asarining aynan Navoiy bu g'azalini yozishga asos bo'lgan tarixiy, ijtimoiy va maishiy kechinmalariga xos talqini mazmunini yuzga yuz ochib berolmaydi. Bunday holat hech qachon yuz bermaydi, sodir bo'lishi mumkin ham emas... Buning uchun shorih Navoiy bo'lishi lozim kechadi. Navoiy finomeni takrorlanmas xususiyat, eks faktor hisoblanadi. Shu ma'noda bu g'azalning ideal sharhini yaratishga berilib qolish – "oqilona" mantiqsizlik...

Hali asrlar ekan-ku, eralar o'tsa-da "Qora ko'zum" g'azalining mukammal ilmiy-badiiy talqinini men yaratdim", – deb iddao qilish – fozil olimlik sifati emas.

Gap "Qaro ko'zum" g'azali borasida borar ekan, hali bu asarning turli omillariga borib taqaluvchi tahlil nuqsonlari chiqib kelaveradi. Avvalo, bu asarni mukammal sharhlash uchun shoir o'qigan asarlarni to'liq aniqlab, shorih ham qayta-qayta o'qib chiqishi zarur bo'ladi. Keyingi talab esa Qur'onni bir necha bor tushirish, eng mashhur oyat va suralar tafsirini bilishi, eng mashhur sahih hadislar tarixi va mazmun talqinidan xabardor bo'lishi, shuningdek, Navoiyni ma'naviy oziqlantirgan tajalli nazariyasiga oid adabiyotlardan to'liq xabardor bo'lishi hamda shoirga ma'rifiy saboq bergan, u kishining laduniy tafakkuriga asos bo'lgan o'sha davr valiyalarining asarlarini anglab yetishi, Alisherbekka ilmi kalom va tasavvufdan saboq bergan salaf ustozlarning ham barcha asarlaridan boxabar bo'lishi lozim kechadi. Shu bilan birga tariqat piri Jomiyning ham dunyoqarashi va asarlari bilan obdon tanishishi zarur.

Bu shartlarni uddalab olgach esa, g'azalning yaratilishi ma'naviy-ma'rifiy an'analarga asos bo'lgan tamal tosh: **QARO KO'ZUM** birikmasining qo'llanish va yaratilishiga oid xronologiyani o'rganish, aniqlash hamda mumkin qadar ilmiy ochiqlash

masalasi boshlanadi. Bu birikma arab mumtoz adabiyotida mavjudmi, bunday tasvir-istoraning fors-tojik she'riyatida qo'llanilishi, qadimgi turkiy adabiyot, shu jumladan, qardosh turkiy millatlar: ozarbayjon, qirg'iz, qozoq, qoraqalpoq, uyg'ur va boshqa elatlar lirikasidagi in'ikosi kuzatilmog'i kerak bo'ladi. Navoiy bu g'azalni yigitlik (21 yosh atrofi)da yozgan bo'lsa-da, u o'smirlik chog'i: o'n bir yoshida Mus'haf qiroatini bir necha bor tushirgan edi. Shu tafsilotlar, shoir oilasi maishiy-ma'naviy olami, tarixiy-mafkuraviy muhit, davri ta'limiy usullari asosga olinsa, bu asarni muallif ilmi kalom va o'z davrining so'fizim qarashlarisiz ifodalashi mumkinligi mutlaqo tafakkurga sig'maydi... Demak, davr mafkurasini bilan o'ralashgan navoiyshunoslar o'taveradi, biroq yaxshi niyatda umid qilamizki, qachonlardir avvalo, Tangri irodasi, so'ng qalbiga shoir ishqiy dunyoqarashi muhabbati tushgan, mumtoz adabiyotning chinakam shaydosi bo'lgan biror Ustozning yuqorida biz ta'kidlagan shartlarga muvofiq **maqsadli saboqlari** tufayli arab hamda fors-tojik mumtoz adabiyotidan to'liq xabardor, ilmi kalom va hadisi shariflarni mukammal tafsir eta oladigan fozil-u orif bir shogirdi mahfuziy bitik sabab dunyoga keladikim, u shu tahlilni kashf etadi. U bu talqinni shu g'azalning "mukammal (ideal) sharhini yarataman" deb emas, shunchaki ish orasida zaruriyat yuzasidan muxlislarga yo'l-yo'lakay bir izohlab o'tay, degan maqsadda qoralagan tezislarini sabab o'zi bilmagan holatda zaxiraviy bilimlari inertsiasini hosilasi o'laroq yuzaga keltirib qo'ya qoladi... Inshaalloh. Demak, bugungi chiqishimizda ushbu el suygan g'azalning 40 yildan ortiq davr mobaynidagi muxlisona chiqishlarimiz hamda bu g'azal yuzasidan amalga oshirilgan o'n beshdan ortiq tahlillarni takror va takror kuzatishlarimiz natijasi tufayli yuzaga kelgan sharhiy mulohazalarimiz bilan yosh shorihlarini xabardor etishini ko'zlaganmiz.

Masalan, mukammal talqin sifatida taqdim etilgan bir sharhda birlamchi baytning ikkinchi misrasidan joy olgan vatan so'ziga shunday talqin beriladi: "Vatan so'zida zohirona **oshiyon, harakatsizlik, istiqomat** ma'nolari mujassamlashgan". Bu zohiriy izohda aytilgan "**oshiyon**" so'zi parranda (qushlar)ga nisbatan qo'llanilishi, "harakatsizlik" esa bir o'rinda muqarrar qotib turmoq mazmunini ifodalayotganligi munosabati bilan ushbu yerda qo'llanilishi ko'z qorachig'i harakatiga nisbatan olinganda mutlaqo teskari – paradoks ishlatilgani ko'rinadi. Ko'z mardumagi esa o'z gavhari bilan birga doimiy harakatda bo'lishi uning tabiiy ishi. Unga nisbatan qanday qilib, "harakatsiz" sifatini qo'llash mumkin. Ko'zning harakatsizligi faqat mayyitda uchrashi mumkin, bu ko'z esa o'ta sovuq va nursiz bo'ladi... Endi "istiqomat" so'zi esa odam

yashovchi go'sha – o'lkaga nisbatan qo'llaniladi. Bu yerda esa gap ko'z mardumi – qorachig'i, aniqrog'i gavhari borasida ketmoqda. Demak, bunday holatda "Ko'zim qorachig'ida gavhar kabi o'rnashib ol yoki mardum o'rnini tut", deyilmoqda. Odamlar yashovchi vatan – mamalakatni emas. Bu ma'noni shoir g'azallaridan kuzatsak.

"Ko'zumda ul oy **mardum o'rnini tutti**" (1.437-g'.)

Yo: Ko'zlarim uyidan "**o'zga uyga mehmon aylama**" (11.530-g')

"**Ko'z uyida ani mardumlar ichinda asratay**" (11.578-g')

"**Yuzi bo'lsun yuzima to'sh**, qaddi ham to'sh qaddima" (III-253- g'.)

"**Ko'z ani ko'rgach**, ko'ngil sevdi bu ish bo'lgan zamon" (III-244- g'.)

"O'zni behud, **ko'zni ruxsoringga hayron aylasam**" (III . 433-g'.)

"**Chun hayoling ko'zda mehmon o'ldi** , may qon yosh o'lub" (III -432 –g'.)

" **Ko'zlarimning bog'i serobinda** bir ham o'ynagil" (III-367 – g'.)

"**Ko'z olma ko'zumdinki**, o'lurmen, agar bo'lsang, Bir ko'z yumub ochquncha bu bemordin ayirur" (III.518-g'.)

"**Ola olmag'um ko'z**, o'lguncha gar aylasam nazzora"(III.523-g'.)

"**Yuzungni ko'zima** ham kosh **mehmon qilsang**" (IV-339 – g'.)

"**Ko'zuma qo'ydi qadam**, vah, o'tar xayol aylab " (IV-340 – g'.)

"Ey Navoiy go'yiyo **ul yuz ko'zum oldindadur**" (IV .156 – g'.)

"**Ko'zda mardum bo'l**, ko'ngulda jon yerin tut... (1-487-g'.), – singari iqtiboslarga duch kelamiz.

Ushbu misralardagi qora bilan berilgan so'z birikmalarning barchasida "**vatan**"so'zining ushbu misradagi ikkilamchi ma'nosi: „mardum (gavhar) o'rnini tutmoq ko'z qorachig'ida ko'z gavhari sifatida o'z o'rnini topmoq, egallamoq harakati ma'nosida ekanligi ochiq-ravshan ayonlashmoqda... Aslo: "oshiyon" – qush ini, "harakatsizlik" – bir joyda qotib turmoq, substansiya, "istiqomat" – kishilar yashovchi maishiy o'rin mazmunlarida emasligi ko'rinmoqda.

Endi 2-bayt talqinida esa: "Ko'z qorachig'ida **makon qurgan** yor jamoli **chuqur tomir yozadi**, ko'ngilda **aks-sado beradi**, ko'ngil bog'ini mazhargohga aylantradi...", deyilgan. "Ko'z qorachig'ida **makon qurgan** yor jamoli" izohida ham "makon qurgan" iborasi andak e'tirozli, makon qurish iborasi hayvonlarga nisbatan qo'llanadi – "qashqirlar makoni"singari ... Yor jamoli, odatda:

aks etadi, tasviriy zuhrlanadi yo jilvalanadi, shoir iborasi bilan aytilganida u ko'z gavharida "mardum o'rnini tutadi: gavhar ichida in'ikos etadi, yor qomati – figurasining pozitivini aks ettiradi. U nihol (ko'chat) emaski, **"chuqur tomir yoz (adi) gani**. Keyingi jumlada esa: **ko'ngilda aks sado beradi**, deyilgan. Bu izoh ham ajablanarli... Bu o'rinda jilvalanadi, partavlanadi, zuhrlanadi tarzida talqin etilmog'i lozim edi. Hayotiy kuzatishlarda tog'larda tovush, ovoz aks-sado berguvchi edi. Yor jamoli qanday qilib muallif yozganidek; aks-sado berishi mumkin?? Bu falsafami yo safsata? Yor jamolidan tovush chiqadimi? Yor yuzi sado berib jaranglaydimi?

Bir oz pastroqda esa: "...sening **alpdek** qomating niholi mening jon-u dilim bog'ida yashasin"... talqiniga duch kelamiz. Xalq og'zaki ijodida: Alp-bahodir (bagatir)ku... Alpomish 40-alpning biri edi... Endi nozik nihol yorning jussasini **"alp qomating"** deb sifatlash qay darajada o'rinni?! Nazokatli sharqqa mosmikan? Qiz qomati asarlarda qildek nozik, bir tomchi suv bilan yutgudek, sifto va novcha tasvirlanguvchi edi. Shoirda esa ko'pincha alifga mengzalguvchi timsol edi. Alp-bahodir, bu tasvir er kishiga nisbatan qo'llanuvchi sifatlash. Bizningcha, "alif" va alp boshqa-boshqa mazmunga ega qiyosiy sifatlar.

Keyingi 3-bayt tahlilida kelgan: "hino bog'lamoq" birikmasining asl hamda ko'chma ma'nosi borasidagi uzundan-uzoq va hammaga azaldan ayon tafsilotlar ham, bizningcha keraksiz, mantiqan ortiqcha. Musulmon mamlakatlari kishilariga hino yoki mushk-u anbar kabilarni sharhlash joizmikan? Hina borasida ayollarimizdan so'rang, deb qo'yilsa yetarli edi. Shu baytdagi it obraziga: "...ma'shuqa va oshiq o'rtasida to'sqinlik qiluvchi (raqib demoqchi. O.M.) timsol..." deya izohlanishi ham bu misra uchun mos emas. G'azalning bu 6- misrasida **it deyilganda oshiq o'zini nazarda tutmoqda** raqibni emas, ya'ni: "men itingga jonimning g'amzada (jon) ipini bo'yinbog' (mushkin rasan) qila qol", demoqchi. Tahlilchi o'z talqinida: "Ittinga...jonim iplarini arqon qilib bog'la toki bizning diydorlashuvimizga halaqit bermasin", deya izohlaydi. Halaqit berishiga ko'ra, bu obraz: it raqibga o'xshatilmoqda. Demak, shorih qarashiga ko'ra jon ipini arqon (juda qo'pol qiyos...O.M.) qilib bog'lashi nazarda tutilgan. G'amzada jon ipi shunaqa yo'g'on bo'ladimi? Mutlaqo chalkash bayon...Axir, jon ipi- nomoddiy, it esa moddiy. Qanday qilib nomoddiy narsa bilan moddiy narsani bog'lash mumkin? Bu mantiqsizlik va chalkashlikdan boshqa narsa emas. Bu endi qanday to'qima? Ilmiymi, badiiymi? Bu shorihning o'z to'qimasi. Misra badiiyati va mazmunidan uzoq

bunday sharh talqinning g'azalning mutaxassisona tadqiqiga qanday aloqasi bor?

Yana keyin: "Otingning **tuyog'iga** bag'rim qonidan hino bog'lagin"... talqini keladi. Bu izoh ham g'ayrihayotiy tahlil. Bunday yo'sinda ot tuyog'iga hina qo'yish mumkin emas, shoir bunday ma'noni nazarda tutgani yo'q va hayotda ham otga bunday tarzda xina bog'lash hodisasi sodir bo'lmaydi. Odatda, xina otning tuyog'idan yuqori qismi – **shillikka**, ot yoliga va dumiga surtiladi. Tahlilchi ushbu obrazning ijrosini to'g'ri tushunmagan va, oqibatda, talqin badiiy-mantiqiy izdan chiqib ketgan. Evohki, bunday g'ayritabiiy talqinlar koshki shu bilan tugasa... Olimning "dardparvar nido", "ruhbop chekinish" iboralari ham soxta va sun'iydir. "Ruhbob chekinish" nimasi? Bu sharhlashda yangilikmi? Adabiyot "lirik chekinish"ni biladi, biroq "ruhbop chekinish" yo'q... Nido dardparvar ham bo'ladimi? Qiziq mantiq... Nido dard chekkan g'amzada oshiqni kelib parvarishlaydimi?

4-bayt talqinida: "Ko'hkan – Farhodning laqabi", – izohi keladi; **Laqab** – ko'cha tili leksemasi, bu juda **qo'pol qiyos**, Navoiy orzulagan shunday komil inson timsoliga nisbatan **"laqab"** so'znini qo'llash esa **o'ta qo'pol va dag'al sharhlash**. Shoir o'z binoyini qo'yib ardoqlagan obrazga nisbatan "ko'cha tili tasvirida "laqab" so'zini qo'llash noo'rin. Har bir so'z va obrazning ma'no ko'lamini ochishgina aniq va ideal tahlilni yuzaga chiqarishi mumkin. Bu so'zning ma'nosi nazokat bilan ochilmaganligi tahlil saviyasini buzgan va pasaytirgan. Masalan, ushbu o'rinda "kuniya" so'zi qo'llanilsa, **bu timsolning shoir nazarda tutayotgan sharafi saqlanur edi**. Kitobxon nazarida bu timsol hurmati yanada ortardi. Hech bo'lmaganida shartli "timsoliy taxallusi" iborasi ishlatilsa ham koshki edi...

Shorihning: "Xamir" ifodasi biroz chuqurroq sharhni taqozo etadi", – talqinini o'qib endi; "chuqurroq" sharhni o'qir ekanmizda, deb astoydil berilsangiz, barchasi bizga avvaldan ayon bo'lgan izohlarga to'qnash kelasiz... Bu abzas kirish izohini o'qib endi: "Amerika kashf etiladi ekan-da", deysiz-ku natija esa oddiy qarashlar. So'ng: **"Ayriliq bilan jangda yengilsam"** izohiga duch kelamiz. Bu qanday izoh? Hayotda suvoriylar o'rtasida, sportchilar o'rtasida, yog'iylar bilan jang sodir bo'ladi. Ayriliq bilan ham jang olib boriladimi? Ayriliq: riyozat bilan, sabr bilan, aql bilan, tadbir bilan, oshiqona jidd-u jahd bilan bartaraf etilmasmidi? G'alati mantiq... Ayriliq oshkora jang bilan emas, pinhona irodaviy riyozatlar yo'li bilan yengib o'tilmasmidi?

Yana quyiroqda: "...endi lirik qahramon ma'shuqaning o'zidan **madad so'raydi**", jumlasini keladi. Odatda, pir va avliyolardan madad so'ralguvchi

edi... Bu yerda esa ma'shuqa – qizdan madad istalmoqda. Bu izoh ham hayotiy mantiqqa ko'ra tushunarsiz...

Yana shu bayt talqinida: **“Agar oshiqларingga rahming kelsa**, ular visolingdan bahramand bo'lishlarini istasang”... izohi keladi. Sinchkovlik bilan kuzatsak, bu o'rinda kutilmagan maishiy mazmun to'qib chiqarilgan. Bayt misrasi tarkibida: **“Agar oshiqларingga rahming kelsa”**... degan ma'no beruvchi so'zlar yo'q-ku. Bu sharh qayerdan olindi yoki to'qilgan? **Rahming kelsin** birikmasi g'azal matnining o'zida mavjud so'z va iboralardan chiqib kelib izohlanishi shart emasmi? Tahlilchi 6-baytga qilingan talqinda: “Navoiy **“bog'bon”** – yaratuvchi, **“bog'”** – mavjud borliq, “xazon sipohi” – o'lim lashkarlari timsollarini ijod etadi. Shoir bog'bonga murojaat etarkan, uni bog'ni asrab qolish uchun har qanday chora-yu tadbir ko'rmasin... xazon faslidan, quritish lashkarlaridan omon saqlayolmasligidan ogohlantiradi”, – deydi. Ushbu sharhdan g'alati mantiq kelib chiqyapti. “Bog'bon” – yaratuvchi bo'lsa, o'zi Tangri inoyati bilan bu olam yaralgan bo'lsa-yu, qanday qilib O'zi nizomga keltirgan “Bog'” – **mavjud borliq**ni har qanday chora-yu tadbir qo'llamasin, hatto bu dunyo tomi – osmonini ignaband qilib o'rab olmasin, xazon (quritish) lashkarlaridan omon asrayolmasligi mumkin? Fikriy chalkash ziddiyatli mantiqsizlik kelib chiqayotgan bu tafakkuriy chalkashlik, fikrini boshlashdagi bu mantiqsizlik, ushbu sharh boshlanishidagi talqiniy qarash mutlaqo noto'g'ri boshlanganidan darak berib turibdi. Kim ekan u xazon lashkarlariga chora-tadbir topolmayotgan zot? U asli keyinchalik to'g'ri o'zanga tushib olgan pastroqdagi izohda aytilayotganidek bog'bon (kishi) demoqchi bo'lgan. Lekin bu boshlanma unga jozibaliroq, obrazliroq ko'ringan bo'lsa kerakda. Oqibatda, talqinchi o'zi boshlagan motivni mavhumlashtirishga o'tadi. U dastlabki boshlanmasidagidek “Yaratuvchi” demoqchi bo'ladi-yu, biroq biladi va ikkilanadiki, bu bayt Yaratuvchiga emas, inson – mardumga bag'ishlangan. Natijada, talqinning keyingi davomida o'zi ifodalamoqchi bo'lgan bu g'oya asarning hamma bayti, misrasi, tasviri ifodasi va obrazlariga to'g'ri kelmasligini anglaydi-da, so'ng esa har ehtimolga qarshi, ehtiyoti shart, o'z muhofazasi uchun mazmunini xiralashtirib, mavhumlashtirib mulohazasini: “...shoir bog'bon(sadovnik)ga murojaat etarkan...” jumlasini bilan to'ldiradi. Shuncha fikriy chalkashlikni yuzaga keltirayotgan o'sha **“Bog'bon” – yaratuvchi, “bog'” – mavjud borliq** talqini olib tashlansa, yo biroz isloh qilinsa, shu mantiqiy-fikriy chalkashlik sodir bo'lmas edi. Masalan: “bog'bon” – bog' egasi, uni

parvarishlovchi kishi; bog' – mevali va manzarali daraxtlar, turfa gullar o'stiriluvchi maskan, deya izohlansa, barcha talqiniy chalkashlik tugallanardi. Tadqiqan, talqiniy analiz va sintezlar jarayonida tahlilchi bir nechta sharhlarni kuzatib borganda, biridan olinayotgan fikriy mulohazani tugallamay turib, keyingi sharh matnidagi mulohazalarga berilib ketgan chog'i. Natijada, bir tahlil tagzaminidagi botiniy mohiyatga ko'ra boshlangan munosabat, keyingi muallif maqolasidagi zohiriy – dunyoviy mazmundagi qarashlari bilan aralashib, ketgan bo'lishi mumkin. Oqibatda, shunday bir-biriga ziddiyatli talqin tasviri vujudga kelgan.

Ushbu maqolamizda biz asos qilib olgan va muallifning o'z e'tirofiga ko'ra mufassal hamda mukammal (ideal- namunaviy) tahlil sifatida taqdim etilgan jiddiy ilmiy-ijodiy (sintezlash hosilasi yo'li asosida yozilgan) talqinni asos qilib oldik. Muallif o'z monografiyasi so'nggida ilmiy-ijodiy jamoatchilikka shunday ezgu niyatlarini izhor qiladi: “Biz... taqdiqotimizning qayerlaridadir qiyomiga yetmagan o'rinlar, yanada chuqurroq, batafsilroq, professionalroq tadqiq etishni taqozo qiladigan masalalar qolganini his etib turibmiz... Muhtaram kitobxon! Mazkur monografiya yuzasidan **samimiy fikr-mulohazalaringizni** kutib qolamiz” deya juda orifona va darg'aviy olimona istaklarini bayon qilganliklari bois yuqoridagi samimiy chiqishimizni hozirladik. Lekin bizning bayon usulimizda qo'polroq g'aliz tanqid-u kinoyaviy pichingga xos iboralar, so'z va tafsilotlar uchrasa, bu nuqsonlar kaminaning bayon izhori stiliga emas, shu olimimizning bizning sharhlovimizga bildirgan munaqqidiy munosabatlari ichidan atayin terib olinib foydalanilgan bir namunaviy, go'yo “olimona” munosabat bildirish shablone tarzida qabul qilasizlar. Biz maqolamizdagi **odob doirasidan chiqib qo'llagan har bir so'z va kinoiy iboralarni** mana shu munaqqid ustozimiz chiqishlaridan taqlidiy “o'zlashtirib” istifoda etdik...

Maqolamizda keltirilgan mulohazalar “Qaro ko'zum” g'azalining mukammal talqini sifatida taqdim etilgan namunaviy tahlilga shu asarning 45 yildan ortiq davr mobaynida fanat muxlisi sifatida ushbu g'azalga qilingan har bir sharhni 3–4 marotabadan o'qib kuzatgan va o'rgangan bir oddiy muxlis – qishloq muallimining o'jizona munosabatlari deb bilgaysizlar. Biz o'z maqolamizni o'qituvchiga xos samimiy taklif va sharqona mardumlig' fazilatlariga binoan, Navoiyning har bir ixlosmand muxlisi orzu hamda havas qiladigan hazratona nuktapo'shlikka taqlid qilib, mahmuda axloq doirasida ham yozishimiz mumkin edi. Biroq ko'ngil sultoni bunga yo'l

qo'ymadi... Sababi: biz ba'zi olimlarning husni odobi sabab ozorlangan va ahli om jamoatchilik o'rtasida OAVlari orqali izzai muslim qilingan o'rinlarimiz bor. Shunday **odob doirasidan chiqishib** qilingan **"mardumvashlik"** siylovlari" bizning ham qalbimizni biroz qatirganligi vajdan mana shu o'rtamiyona usulni qo'lladik... Tashakkur...

Aslida domlaniq ushbu tahlili sof mualliflik ishi emas. Shu bahoni domlaniq o'zi monografiyaniq **"so'zboshi"**si yakunida kelgan quyidagi **shaxsiy e'trofiga** yaqqol ifodalagan. "Endilikda "Qora ko'zum"ning mukammal tahlili orzusida edim. Maydonda qator talqinlar turgan holda **mukammal tahlil yaratish jaryonida** ulardan ko'z yumish noto'g'ri va buniq iloji ham yo'q. Ularni chetlab o'tib bu g'azal haqida yangi gap qo'shish barobarida, **mavjud talqinlarga tayangan holda qiyosiy tahlil zaminida** "Qora ko'zum" g'azalini **umumlashtirishga intilamiz**" (9-bet) Demak, ushbu fikrlardan oydinlashishicha, domlaniq muxlisga ideal sharh sifatida taqdim etgan ushbu varianti tahlillarini analiz va sintezlash yo'li bilan yaratilgan **umumlashma bir talqini ekan**.

Fursatdan foydalanib yana shuni ochiqalaymanki, **shu g'azal haqidagi barcha tahlillarini bir joyga to'plab, kitob qilish niyati va orzusi to'g'risida** 2019-yil domlaga raddiyasi tufayli yozgan maktubimda bayon qilgan edim. Markaziy kutubxonalardan olisdaligimiz sababli bu orzumiz hozircha ro'yobga chiqmay turibdi, deb bayon qilgan edim men o'sha xatda. Keyin bu orzumiz haqida raddiya matnida: "Bir g'azalning yetti talqini" nomli kitob hozirlash yo'lida ancha ishlar qilganimizni yozgandim. Unda men sodda bir qishloq muallimi: **"bir g'azal to'g'risida bir kitob – o'ziga xos yangi ijodiy tajriba"** haqida gullamay turishni xayolimga ham keltirmagan ekanman. Domlaga bu to'g'risida avval xat orqali so'ng o'z raddiyamda ham batafsil aytib o'tgandim. Biz bu kitobni tugallolmadik... Domla esa markazdaligi uchun bizning bu g'oyamizni o'zlashtirib undan tezda unumli foydalanib qo'yaqolibdi-da... Mayli Oloh guvoh va ko'rib turibdi. Har qalay hamma harakatlariqizning javobi boqiy Dunyoda...

Yaxshi ham bu g'oyamni Toshkentda yashoyotgan bir aktrisa (bundan 31 yil avval meniq "Qaro ko'zum" g'azalini o'rgatishga oid qo'llanmadan sidirg'a: "kirish" va "xulosa"larsiz maqola sifatida ajratib olinib, keyinchalik "O'qituvchilar gazetasida" chop etilgan maqolamni qo'ldan-qo'lga yetkazib bergan o'quvchim. Bu voqeaga Tangri oldida yolg'iz guvoh – vakilim...) qizimizga tushuntrib," sen bu ishni yakunlab qo'y", deganimizdan so'ng, ming xijolatda u davom ettirib 2020-yil "Mumtoz so'z nashriyoti"da: "A.Navoiyning "Qaro ko'zum" g'azali talqinlari" nomi bilan chop ettirdi. Biz bu nusxadan domlaga ham bitta bergimiz keldiyu ("yu"si bor...) u kishi bizning xatimizga o'z davrida javob bermagani va bu kitobni ham darhol tadqiqot obyektiga aylantirib uning nuqsonlari haqida OAVlarida "o'ziga xos uslubda" **bong urmasinlar**, deb taqdim etmadik. Domla esa: kitobning "Xulosa" qismida; **"Nazarimizda, o'zbek adabiyotshunosligida shu paytgacha ushbu mazmun, tartib va mundarijaga monand kitob yaratilmagan"** deb o'zini o'zi faxriya usulida maqtamoqdalar... Astag'firulloh... **Aslida bunday mazmun, tartib va mundarijaga xos kitob yaratilishining ilk g'oyaviy ijodkorlari biz-ku**, ammo bu kitob yaratilishiga sababchi bo'lgan bizning ilk g'oyamiz borasida ushbu monografiyasida mutlaqo lom-mim demaydilar. Axir bunga Tangri O'zi guvohku... Boqiy dunyoda bunday g'oyaviy o'zlashtirishning fuzalona javobi qanday bo'larkin? Inshaalloh, o'sha kunlar ham muqarrar...

Qonunlarda Insof so'zi yo'q, Sabab shuki – Insof o'zi yo'q...

Noinsofga (foniqlikda) jazo ham yo'q. Qozi ham yo'q, qazosi ham yo'q.

Xulosa sifatida biz shuni alohida ta'kidlaymizki, tahlilni tahlil usuli faqat kinoya va ilmoqli so'zlarga to'la raddiyalardagina emas, so'nggi vaqtlarda monografiya hamda samimiy mulohazalar orqali munosabatlar bildirilgan mulohaza va maqolalarda ham keng qo'llanila boshlaganligi borasida yosh ijodkor hamkasb adabiyot muallimlariga ma'lumot berish, uning namunaviy misolini taqdim etish maqsadida ushbu maqolani tayyorladik.



TILSHUNOSLIK



Gulrux SAYIDOVA,

BuxDU, Filologiya fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR LIRIKASIDA METAFORALARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATI

Annotatsiya: ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur she'riyatiga badiiy va lingvistik jihatdan yondashilib, uning she'rlarida qo'llanilgan metaforalarning xususiyati, o'ziga xos jihatlari, turlari, lingvokulturologik xususiyati tadqiq qilinadi. Bundan tashqari, metaforalarning Z.M. Bobur she'riyatida tutgan o'rni, ahamiyati haqida batafsil ma'lumot berilib, yuqoridagi fikrlarga isbot tariqasida shoir she'rlaridan namunalar keltirilib, tahlil qilinadi. Metaforalar muallif ijodining mazmunini yanada kuchaytirishga yordam bergani maqolada o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: *metafora, an'anaviy metaforalar, individual metaforalar, istiora, antropomorf, sotsiomorf, zoomorf, fitomorf, abiotik, xronomorf va artefaktual metaforalar.*

Аннотация: изучение метафор, их классификаций, типов и форм в классической литературе всегда представляло интерес для специалистов в этой области. В данной статье рассматривается поэзия Захириддина Мухаммада Бабура с художественной и лингвистической точки зрения, а также исследуются природа, уникальные аспекты и типы метафор, используемых в его стихотворениях. Кроме того, дана подробная информация о роли и значении метафор в творчестве З.М. Поэзия Бабура и примеры из З.М. В качестве доказательства вышеизложенных положений цитируются и анализируются стихи Бабура. В статье отражен тот факт, что включение метафоры в творчество З.М. Бобур помог еще больше усилить содержание творчества автора.

Ключевые слова: *метафора, традиционные метафоры, индивидуальные метафоры, аллегория, антропоморфные, социоморфные, зооморфные, фитоморфные, абиотические, хрономорфные и артефактные метафоры.*

Annotation: the study of metaphors, their classification, types and form in classical literature have always been of interest to specialists in the field. This article approaches the poetry of Zahiriddin Muhammad Babur from an artistic and linguistic perspective, and examines the nature, specific aspects and types of metaphors used in his poems. In addition, detailed information is provided on the role and significance of metaphors in Z.M. Babur's poetry, and examples from Z.M. Babur's poems are cited and analyzed as evidence for the above points. The article reflects the fact that the presence of metaphors in Z.M. Babur's work helped to further strengthen the content of the author's work.

Keywords: *metaphor, traditional metaphors, individual metaphors, allegory, anthropomorphic, sociomorphic, zoomorphic, phytomorphic, abiotic, chronomorphic and artifactual metaphors.*

Kirish. Tilning butun bunyodkorlik kuchi nutq go'zalligida namoyon bo'lishi sir emas. Nutqning jozibador va ta'sirchanligini oshirishda iboralar, perifrazalar, bo'yoqdor so'zlar, qanotli jumlar, maqol-u matallar kabi metaforalarning ham xizmati beqiyos. Tilshunoslik tarixida metaforalar qadimdan o'rganilib kelingan va hozirda ham uning yangidan yangi qirralari ko'plab olimlar tomonidan tadqiq qilinmoqda. Metaforalarning tadqiqi tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, bu boradagi dastlabki o'rganishlar Arastu davridan boshlanganini kuzatishimiz mumkin. Aksariyat tilshunoslar mazkur termin tilga ritorika orqali kirib kelgan deb hisoblashadi. Manbalarga ko'ra, "metafora" tushunchasi haqidagi ilk ma'lumot Izokrat tomonidan yaratilgan "Evagorus" asarida uchraydi. Metaforalar borasidagi tadqiqotlarning eng gullab yashnagan davri XX asr boshlariga to'g'ri keldi.

Jahon tilshunosligida A. Richard, Y. Kormak, M. Blek, S. Pepper kabi olimlar metaforaga psixolingvistik jihatdan yondashishdi va metaforalarga xos asosiy xususiyatlarni aniqladilar. Xorij olimlaridan N. D. Arutyunova esa metaforalar xususida keng tadqiqot ishlari olib bordi va ularning funksionalligi to'g'risida muhim ma'lumotlarni berib, mazkur birliklarning qo'llanilishi bilan bog'liq keyingi ilmiy ishlarga yo'l ochib berdi.

O'zbek tilshunoslarini ham metafora borasidagi ilmiy qarashlar befarq qoldirmagan. Xalq tilida, notiqalar, ijodkorlar va hatto so'zamol shaxslar nutqida yaratilayotgan yangidan yangi metaforalar hanuzgacha tadqiqotchilarda bu boradagi ilmiy izlanishlarni davom ettirishni ta'minlamoqda. Mazkur sohadagi jiddiy tadqiqotlar sifatida M. Mirtojyev, Sh. Rahmatullayev, I. Shukurov, D. Xo'jayeva, Z. Tohirova

va R. Yunusovalarning ishlarini alohida sanab o'tish joiz. Shuningdek, Sh. Mahmaraimovanning "O'zbek tili teomorfik metaforalarning qisqacha konseptual lug'ati" qo'llanmasi va G. Qobuljonovanning "Metaforaning sistemaviy lingvistik talqini" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi ushbu yo'nalishdagi o'ziga xos yangilik bo'ldi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Asosiy qism. Metaforalar tadqiqot obyektiga ko'ra bir nechta turlarga ajratiladi. Bular: *antropomorf*, *sotsiomorf*, *zoomorf*, *fitomorf*, *abiotik*, *xronomorf* va *artefaktual* kabilardir (bu sirani yana davom ettirish mumkin).

Antropomorf metafora – afsonaviy qahramonlar, tarixda yashab o'tgan mashhur shaxslar nomlari asosida hosil qilingan metaforadir. Masalan:

O'qi zaxmini ko'rub har yon tanimda el degay

Kim, bu ko'hi dardning ul lolai **Nu'monidur** [12, 25].

Ushbu baytdagi lolayi Nu'mon izofa shaklidagi metaforani yuzaga keltirgan. Manbalarda berilishicha, Imom A'zam laqabi bilan mashhur bo'lgan arab xalifalaridan biri No'mon ibn Sobit ko'ksidan oqqan qondan lola unib chiqadi. Demak, lola gulining paydo bo'lishi No'mon nomi bilan bog'lanadi. Ba'zi ma'lumotlarda esa haqiqatdan ham No'mon degan podsho bo'lganligi va u tog'dan lola olib kelib, parvarish qilganligi uchun lolayi No'mon deb atalgani aytiladi. Shoir ushbu baytda afsonaviy ma'lumotlarga tayangan holda hijron, ayriliqdan azoblangan qalbini lolai Numonga qiyoslaydi. Ya'ni yorning qiynoq o'qlaridan oshiqning butun tanasi azob chekmoqda. Uning dardlari tog'dek. Bu dardlar, bu ayriliqlar oqibatida jismidan qip-qizil qon lola guli singari oqmoqda tasvirlamoqda.

Sotsiomorf metafora – jamiyat bilan bog'liq tushunchalar va ijtimoiy tuzilmalar asosida yaratilgan metafora turi. Jumladan:

G'am cheriki behaddur, chorasi budur, Bobur,

Bodani ko'mak keltur, jomni himoyat tut [12, 20].

Shoirning lirik qahramon tilidan aytishicha, tiriklikning g'am-tashvishlari shu qadar ko'pki, u butun boshli g'am qo'shiniga o'xshaydi. G'am qo'shinining yetkazadigan zarari, keltiradigan tashvishi chekchegarasizdir. Unga qarshi eng yaxshi chora esa boda ichib chalg'imoq hamda boda idishidan himoya tilamoqdir. Fikrimizcha, bu yerda boda "tiriklik mayi" ma'nosida qo'llanilgan.

Zoomorf metafora – insonlarga xos bo'lgan fe'l-atvor yoki xususiyatlarning majoziy obrazlarda, jumladan, hayvonlarda aks etishi:

Boburo, hargiz quloq she'ringg'a ul gul solmadi,

Gulga ne parvoki, yuz faryod qilsa **andalib** [12, 19].

Tushunishimizcha, lirik qahramon guldek go'zal, nafis, ohorliqizga oshiq. Doimgidek mashuqa oshiqning holiga beparvo. Mashuqaning beparvoligidan aziyat chekayotgan oshiq, ya'ni lirik qahramon tilidan "gul ishqida oh chekayotgan bulbul (andalib)ning holi gul uchun beta'sir" ekanligi aytilmoqda. Baytdagi "andalib" metaforasi orqali hijrona yonayotgan oshiq holati tasvirlangan.

Abiotik metafora – insonlardagi biror jihat (xarakter, ko'rinish)ning tabiatdagi jonsiz narsa (quyosh, havo, tuproq kabi)larga qiyoslanishi. Misol uchun:

Xurshid yuzung birla bu kun, ey mahi tobon,

Da'vo gar etar bo'lg'usi kun, so'ngra pushaymon.

[12, 43].

Mumtoz she'riyatda yor go'zalligi jihatidan oyga yoxud quyoshga o'xshatilishi ma'lum. Shuningdek, yorning latofatda tengsiz va yagona ekanligini ta'kidlash uchun ham uni ushbu osmon jismlariga qiyos qilishadi. Yuqoridagi baytda ham shu maqsadni ko'zda tutgan holda mashuqa obrazi quyoshga mengzalgan.

Xronomorf metafora – bu vaqt tushunchasi zamirida shakllangan metafora bo'lib, unda vaqt turli shakllarga, jarayonlarga yoki moddiy obyektlarga o'xshatiladi. Quyidagi baytda buni ko'rishimiz mumkin:

Ey gul, meni zor etmaki, husnung chamanida,

Ko'zni yumub ochquncha bu gulzor topilmas [12, 30].

Bu foni dunyo shunchalik bebahoki, uning qanday tez o'tganini inson ba'zan sezmay qoladi. Odamdagi yoshlik, go'zallik, kuch-quvvat kabi narsalar ham xuddi shunday o'tkinchi va aldamchidir. Shuning uchun ularga ishonib, g'ururlanib bo'lmaydi. Mazkur misralarda ham lirik qahramon yoriga murojaat qilib, o'z husniga ko'p bino qo'ymasligi, bu chiroq o'tkinchiligi va tezda yo'qolishi mumkinligini uqtirishga harakat qilmoqda.

Artefaktual metafora – abstrakt tushunchalar yoki tabiiy hodisalar odamlar tomonidan yaratilgan (sun'iy) narsalar bilan taqqoslanadi va o'ziga xos o'xshatish hosil qilinadi.

Bexato elga otib **g'amza o'qin**,

Bizga yetganda xato qilg'aysen [12, 49].

G'amza – yorning noz-u karashmasi yoki nozli qarashidir. Oshiqlar mashuqasining g'amzasini ko'rganda, ya'ni o'tli nigohini ko'rishganda bir muddat aql-xushlarini yo'qotib qo'yishadi. Go'yoki yaralangandek jonsiz qotib qolishadi. Shu sababli ham ko'p hollarda mumtoz adabiyot vakillari yor g'amzasini o'qqa o'xshatishgan.

Fitomorf metaforalarda kishilarga xos bo'lgan narsa va holatlar o'simliklar orqali aks ettiriladi.

Aniqroq qilib aytganda: “Fitomorf metafora (FM) lar antroposentrik metaforalar sirasida o‘ziga xos mavqeyi bilan ajralib turuvchi, daraxt, o‘simliklar va ularning qismlari nomini anglatuvchi, ya’ni fitonimik leksikaning insonga nisbatan qo‘llanishi natijasida hosil bo‘lgan metaforik nomlanishi bo‘lib, insonning borliq haqidagi bilimlari yaxlitligini ta’minlaydi”[11, 19].

She’riyatda ko‘pincha, yorga nisbatan gul, sarv, shamshod va lola singari metaforalar qo‘llanganini ko‘rishimiz mumkin. Ayniqsa, mumtoz she’riyatda bunday ifodalar ko‘p uchraydi va ular an’anaviy metaforalar hisoblanadi. Bobur ijodida ham xuddi shunday fitomorf metaforalarni uchratishimiz mumkin. Masalan:

Yuzung, **ey sarv**, jonim gulshanining toza gulzori,
 Qading, **ey gul**, hayotim bog‘ining sarvi ravonidir [12, 28].

Ushbu baytda mashuqaning yuzi gulga, qaddi esa sarvga o‘xshatilmoqda. Yorning yuzi, asosan, chiroy jihatidan gulga, qaddi bo‘lsa tikligi jihatidan sarvga qiyoslanadi.

“Yopiq istiorada, ochiq istioradan farqli o‘laroq, istioralanuvchi zikr etilmaydi, balki uning biror sifati, xulq-atvori, uzv-a’zosi izofat sifatida keltiriladi.” Misol uchun:

Oraz-u qaddingni ta’rif etsalar yuz yil, hanuz,
Ey yuzi gul, sarvqad, yuzdin biri aytilmag‘ay [12, 61].

Ushbu baytda yorning yuzi gulga, qaddi esa sarvga qiyoslangan va ikkalasi (o‘xshatilmish va o‘xshamish) ham qo‘llanilgani uchun yopiq istiora hosil bo‘lgan.

Xulosa. Metaforalarsiz nutq jonsiz tan kabitdir yoxud metafora qo‘llanilmagan nutq iforsiz gul kabitdir. Demak, metaforalar nutqning jilosi, ko‘rki va zavq baxsh etuvchi jonidir. Y. Sayidov o‘zining “Jadid badiiy asarlari leksikasi” nomli doktorlik dissertatsiyasida metaforalar haqida shunday deydi: “Haqiqatan ham metaforalar his-tuyg‘u va kayfiyatni aniq, yorqin, ixcham, ta’sirbaxsh tarzda yetkazib berish imkonini beradi. U o‘zining ixchamligi, soddaligi, semantik jihatdan serma’noliligi bilan she’riy matnning qisqa shakliga juda mos keladi va uning badiiyatini oshirishga muhim omil bo‘lib xizmat qiladi”. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, Bobur ijodidagi metaforalar rang-barangligi va ular orqali hosil qilingan go‘zal tasvirlari bilan kitobxon e’tiborini tezda o‘ziga jalb etadi. Uning ijodida nafaqat metaforalar, balki boshqa she’riy san’atlarni ham qo‘llashdan maqsad oddiy bo‘lmay, balki go‘zal badiiy tasvirni yaratish bo‘lgan. Albatta, bu uning kuchli ijodiy mahoratidan yorqin dalolatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. II том. – Т.: Фан, 1983. – 642 б.
2. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. III том. – Т.: Фан, 1983. – 622 б.
3. Аристотел. Поетика. – Т.: Ф. Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – 149 б.
4. Ҳожиаҳмедов А. Шеърӣ санъатлар ва мумтоз қофия. – Т.: Шарқ, 1998. – 160 б.
5. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: Зарқалам, 2006. – 125 б.
6. Mengliyev B. Hozirgi o‘zbek tili. – T.: Tafakkur bo‘stoni. 2018. 202-b.
7. Muqimova G. Fitomorf metaforalarning lingvopoetik, lingvokulturologik xususiyatlari va leksikografik talqini. Filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Buxoro, 2023. 51-b.
8. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. – Т.: Мумтоз сўз, 2010. – 296 б.
9. Сайидов Ё. Жадид бадий асарлари лексикаси. Филол. фанлари доктори... диссер. – Бухоро, 2018. – 304 б.
10. Умурқулов Б. Поетик нутқ лексикаси. – Т.: Фан, 1990. – 109 б.
11. Xolnazarov U. Nasriy nutqda metaforalarning lingvokognitiv, lingvomadaniy xususiyatlari (T. Murod qissalari misolida). Filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Termiz, 2023. 63-b.
12. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Девон. – Т.: Фан, 1993. – 143 б.
13. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1-қисм. – Т.: Ўқитувчи, 1980. – 443 б.

Maxpuza KARAXODJAYEVA,
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
O'zbek va rus tillari kafedrası dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi
E-mail: maxfuza. Karaxodzhaeva. 60@bk.ru

ABDULLA AVLONIY ASARLARIDA MILLIY QADRIYATLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TALQINI

Annotatsiya: ushbu maqolada Abdulla Avloniy merosining lingvokulturologik jihatları milliy qadriyatlar nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Avloniy asarlarida til — faqat aloqa vositasi emas, balki milliy tafakkur, axloq, ma'naviyat va ijtimoiy ongning shakllantiruvchi kuch sifatida talqin etiladi. Muallif asarlarida uchraydigan iboralar, maqollar, kinoyaviy ifodalar va axloqiy ta'limotlar orqali o'zbek xalqining madaniy xotirasi, urf-odatları va estetik ideallari aks etadi. Maqolada ayniqsa "Turkiy Guliston yoxud axloq", "Maktab gulistoni" kabi asarlar lingvokulturologik nuqtayi nazardan o'rganilib, undagi milliy qadriyatlarning hozirgi jamiyatda qanday yangicha mazmunda talqin qilinishi mumkinligi ko'rsatiladi. Shuningdek, bugungi globallashuv davrida yoshlar ongida milliylikni shakllantirishda Avloniy merosining ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: *Abdulla Avloniy, lingvokulturologiya, milliy qadriyatlar, madaniy xotira, til va tafakkur, axloqiy tarbiya, "Turkiy Guliston", o'zbek urf-odatları, madaniy meros, zamonaviy talqin.*

Аннотация: в данной статье лингвокультурологические аспекты наследия Абдуллы Авлони рассматриваются с точки зрения национальных ценностей. В произведениях Авлони язык трактуется не только как средство общения, но и как сила, формирующая национальное мышление, нравственность, духовность и общественное сознание. Через выражения, пословицы, иронические обороты и нравственные учения, встречающиеся в его трудах, отражается культурная память, обычаи и эстетические идеалы узбекского народа. В статье особенно исследуются такие произведения, как «*Turkiy Guliston yoxud axloq*» и «*Maktab gulistoni*» с лингвокультурологической точки зрения, а также показано, как содержащиеся в них национальные ценности могут интерпретироваться в современном обществе. Кроме того, освещается значение наследия Авлони в формировании национальной идентичности у молодежи в эпоху глобализации.

Ключевые слова: Абдулла Авлони, лингвокультурология, национальные ценности, культурная память, язык и мышление, нравственное воспитание, «*Turkiy Guliston*», узбекские обычаи, культурное наследие, современная интерпретация.

Annotation: this article analyzes the linguoculturological aspects of the heritage of Abdulla Avloniy from the perspective of national values. In Avloniy's works, language is considered not only as a means of communication but also as a force shaping national thinking, morality, spirituality, and social consciousness. Through expressions, proverbs, figurative phrases, and ethical teachings found in his works, the cultural memory, traditions, and aesthetic ideals of the Uzbek people are reflected. Particular attention is given to such works as "*Turkiy Guliston yoxud axloq*" and "*Maktab gulistoni*". From a linguoculturological perspective, it is shown how the national values contained in them can be interpreted in modern society. Furthermore, the significance of Avloniy's heritage in shaping the national identity of youth in the era of globalization is highlighted.

Key words: Abdulla Avloniy, linguoculturology, national values, cultural memory, language and thinking, moral education, *Turkiy Guliston*, Uzbek traditions, cultural heritage, modern interpretation.

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamli madaniyat asrida milliy o'zlikni anglash, madaniy xotirani saqlash va avlodlar davomiyligini ta'minlash masalasi O'zbekiston jamiyatida dolzarb vazifalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Yangi O'zbekiston — bu avvalo, milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va ma'naviy uyg'onish ustiga qurilgan jamiyatdir". Shu bois, so'nggi yillarda milliy qadriyatlarni targ'ib qilish, ona tiliga, tarixiy merosga bo'lgan munosabatni mustahkamlash borasida bir qator muhim davlat dasturlari, qonun va qarorlar hayotga tatbiq etilmoqda. Jumladan, "O'zbek tilining davlat tili sifatida nufuzi va mavqeyini oshirishga doir davlat

dasturi", "Ma'naviyatni yuksaltirish va ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish" konsepsiyasi singari hujjatlar milliy madaniyatning, tilning va qadriyatlarning uyg'unligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Bunday ma'naviy-ma'rifiy siyosat kontekstida Abdulla Avloniy merosini, xususan, uning asarlarida aks etgan milliy qadriyatlarni lingvokulturologik nuqtayi nazardan o'rganish dolzarb ilmiy-ahamiyat kasb etadi. Avloniy o'z davrida xalqni jaholatdan najot topishga undagan, til va madaniyat orqali millat ongini uyg'otishga chaqirgan taraqqiyparvar ziyoli sifatida o'zbek pedagogik va badiiy tafakkurining poydevorini yaratgan allomadir. Uning "*Turkiy Guliston yoxud axloq*", "*Maktab gulistoni*"

kabi asarlarida jamiyatning ma'naviy-axloqiy, madaniy-ma'rifiy poydevorini mustahkamlovchi qadriyatlar til vositalari orqali chuqur ifoda etilgan.

Lingvokulturologiya va milliy qadriyatlar:

Nazariy asos va Avloniy merosi bilan bog'liqlik

So'nggi yillarda tilshunoslikda madaniyat va til o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni o'rganishga qaratilgan yangi fanlar kesishmasi – lingvokulturologiya faol rivojlanmoqda. Bu fan tilni shunchaki kommunikativ vosita sifatida emas, balki xalqning madaniy xotirasi, tarixiy tajribasi, dunyoqarashi va ijtimoiy ongini ifodalovchi, kodlovchi mexanizm sifatida o'rganadi. Xususan, til orqali qadriyatlar, urf-odatlar, axloqiy me'yorlar, estetik qarashlar, madaniy stereotiplar jamiyat ongiga singdiriladi.

Metodologiya. Lingvokulturologiyaning asosiy tamoyillaridan biri bu — lingvistik birliklarning (so'zlar, frazeologik birikmalar, matnlar) madaniy konnotatsiyasini tahlil qilishdir. Bunday yondashuv tilni faqat kommunikativ vosita sifatida emas, balki xalqning madaniy xotirasi, ma'naviy qadriyatlari va dunyoqarashining ramziy ifodachisi sifatida o'rganishga imkon beradi. Shu bois, lingvokulturologik metodologiya milliy adabiyot va ma'rifiy merosni chuqur tahlil qilishda samarali usul hisoblanadi.

Ushbu metodologiyada til birliklari — so'z, ibora, maqol, matal va frazeologik konstruksiyalar — o'zbek xalqining tarixiy-madaniy tajribasini kodlovchi belgilar sifatida qaraladi. Shuningdek, lingvokulturologik tahlil jarayonida til vositalari ma'lum madaniy stereotiplar, qadriyatlar tizimi va axloqiy me'yorlarning mazmuni ko'zgusiga aylanadi.

Abdulla Avloniy ijodi aynan shu nuqtayi nazardan boy tadqiqot maydonini ochadi. Uning "Turkiy Guliston yoxud axloq" va "Maktab gulistoni" kabi asarlarida o'zbek xalqining urf-odatlar, axloqiy ideallari, milliy iftixori va ma'naviy qarashlari til vositalari orqali badiiy-didaktik shaklda ifodalangan. Avloniy didaktik matnlarda xalq maqollari, iboralar va hikmatli so'zlarni mahorat bilan qo'llab, ularni yosh avlod tarbiyasida samarali vosita sifatida talqin qiladi.

Metodologik jihatdan ushbu jihat Avloniy asarlaridagi lingvokulturologik birliklarni tahlil qilishga asoslaydi. Bunda frazeologizmlar, hikmatli iboralar va semantik strukturalar madaniy qadriyatlarning ifodasi sifatida o'rganiladi. Shuningdek, lingvokulturologik tahlil til birliklari orqali madaniy kodlash jarayonini, ya'ni xalqning tarixiy-madaniy tajribasining til orqali avlodlarga uzatilishini aniqlash imkonini beradi.

Abdulla Avloniy ijodi ana shu nuqtayi nazardan boy tadqiqot maydonini ochadi. Uning asarlarida o'zbek xalqining **madaniy urf-odatlar, axloqiy ideallari, milliy iftixori** bevosita **til vositalari** orqali ifodalanadi.

Lingvokulturologik yondashuvning muhim tamoyillaridan biri – til birliklarida xalqning qadriyatlari va madaniy stereotiplari qanday ifodalanishini aniqlashdir. Shu nuqtayi nazardan qaranganda, Abdulla Avloniy ijodi

boy tadqiqot manbai sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki Avloniy millat taraqqiyotini, yosh avlodning barkamolligini va jamiyatning ma'naviy yuksalishini til, ta'lim va tarbiya orqali ta'minlash mumkinligiga chuqur ishonadi.

U o'zining "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarida: **"Til — millat ko'zgusi, axloq – yurak oyinasi"** – deb yozadi.

Mazkur hikmatli jumlada til shunchaki nutq vositasi emas, balki milliy tafakkur, axloqiy dunyoqarash va ma'naviy o'zlikning markazi sifatida talqin etiladi. Bu yondashuv tilni lingvokulturologik nuqtayi nazardan o'rganishga asos bo'ladi, chunki til orqali xalqning axloqiy qadriyatlari va madaniy stereotiplari kodlanadi.

Avloniy o'z asarlarida xalq ongida mustahkam joy olgan qadriyatlarni til vositasida ta'sirchan shaklda ifodalaydi. U halollik, poklik, rostgo'ylik, mehnatsevarlik, kattani hurmat qilish va kichikka izzat ko'rsatish, elparvarlik singari qadriyatlarni o'zbek xalqiga xos maqollar, iboralar va hikmatli so'zlar orqali yetkazadi. Masalan, "Halollik – saodat kalitidir", "Rost gap – yurak tozaligi", "Kattani hurmat qilmagan – kichikka rahm qilmas" kabi iboralar xalq axloqiy dunyoqarashining lingvistik shaklga ko'chgan namunalaridir.

Bu kabi tahlil Avloniy ijodida qadriyat va tilning uyg'unligini ko'rsatibgina qolmay, balki lingvokulturologiyaning metodik imkoniyatlarini ham ochib beradi. Til vositasidagi qadriyatlar nafaqat didaktik mazmun kasb etadi, balki ular orqali xalqning tarixiy tajribasi, ijtimoiy ongidagi barqaror tasavvurlar va madaniy stereotiplar avloddan-avlodga uzatiladi.

Demak, Avloniy asarlari lingvokulturologik metodologiya uchun nafaqat nazariy asos, balki amaliy tahlil manbai hamdir. Uning matnlaridagi qadriyat va til uyg'unligi milliy tafakkur shakllanishini va o'zbek xalqining ma'naviy merosini til orqali qanday kodlanganini tadqiq qilish imkonini beradi.

Natija. O'tkazilgan lingvokulturologik tahlillar shuni ko'rsatadiki, Abdulla Avloniy asarlari o'zbek xalqining milliy qadriyatlari, axloqiy-ruhiy ideallari va madaniy stereotiplarini til vositalari orqali uzatishda beqiyos manba bo'lib xizmat qiladi. Avloniy o'z asarlarida qadriyatlarni faqat nazariy tushuncha sifatida emas, balki xalq tilida shakllangan va asrlar davomida barqarorlashgan hikmatli so'zlar, maqollar va frazeologik birliklar vositasida talqin etadi.

Birinchidan, **Avloniy asarlarida qadriyatlarining til orqali badiiy-didaktik ifodasi** yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, "Til – millat ko'zgusi, axloq – yurak oyinasi" degan hikmat nafaqat tilning milliy tafakkurdagi o'rini ochib beradi, balki axloqiy tushunchalarni ham ijtimoiy ong bilan uzviy bog'laydi. Shuningdek, "Halollik – saodat kalitidir" iborasi o'zbek xalqining qadimiy ma'naviy qarashlari, toza va halol mehnatni ulug'lash tamoyilini ifodalaydi.

Ikkinchidan, **frazeologik birliklar xalqning ijtimoiy-madaniy xotirasini aks ettiruvchi madaniy kod**

sifatida namoyon bo'ladi. "Rost gap – yurak tozaligi", "Kattani hurmat qilmagan – kichikka rahm qilmas" kabi iboralar xalq ongida avloddan avlodga o'tib kelayotgan axloqiy mezonlarni ifodalaydi. Bu birliklar o'zida qadriyatlarining semantik qatlamini mujassam etib, til orqali milliy tarbiya va ma'naviyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, **Avloniy qadriyatlarni didaktik matn orqali singdirish usulidan keng foydalangan.** "Turkiy Guliston yoxud axloq" asaridagi mavzular — halollik, mehnatsevarlik, ota-onaga izzat, Vatanga sadoqat — barchasi xalq maqollari, hikmatli so'zlar va iboralar orqali boyitilgan. Bu holat Avloniy merosida til va qadriyatning uzviy uyg'unligini ko'rsatadi. Shu jihatdan uning asarlari lingvokulturologik tahlil uchun keng imkoniyat ochadi.

To'rtinchidan, **qadriyatlar va tilning uyg'unligi zamonaviy kontekstda ham dolzarb ahamiyatga ega.** Avloniy tomonidan ilgari surilgan halollik, mehr-oqibat, elparvarlik, ilmga rag'bat kabi tushunchalar bugungi globallashuv sharoitida milliy ma'naviyatni asrab-avaylash va yosh avlodni tarbiyalashda ham muhim mezon bo'lib qolmoqda. Bu qadriyatlarining til vositasida ifodalanishi ularni yanada ta'sirchan, esda qolarli va hayotiy qiladi.

Shu tariqa, tahlil natijalaridan ko'rinib turibdiki, Abdulla Avloniy asarlarida qadriyatlar va til o'zaro uyg'un holda namoyon bo'ladi. Til birliklari bu qadriyatlarni nafaqat tasvirlaydi, balki ularni mustahkamlaydi va jamiyat ongida barqarorlashtiradi. Avloniy ijodining lingvokulturologik ahamiyati shundaki, u milliy ma'naviyat va qadriyatlarni til orqali uzviy bog'lab, yosh avlodga tarbiyaviy hamda madaniy dastur sifatida taqdim etadi.

Muhokama. Bugungi O'zbekistonda olib borilayotgan **milliy tiklanish va yuksalish siyosati**, ayniqsa, "Yangi O'zbekiston – Uchinci Renessans sari" g'oyasi doirasida Abdulla Avloniyning til va qadriyatlar haqidagi qarashlari yana-da dolzarb tus olmoqda. Til – bu xalqning madaniy identitetini saqlab qoluvchi asosiy vosita, Avloniy esa bu tushunchani o'z davridayoq ilgari surgan allomadir.

Zamonaviy o'quv dasturlarida Avloniy asarlari doimiy manba sifatida kiritilayotgani, davlat tomonidan tashkil etilgan "Ma'naviyat maktabi" hamda ona tili va adabiyot o'qituvchilarining milliy qadriyatlar asosida tayyorlanayotgan metodikalari ham buni yaqqol isbotlaydi. Avloniy til va madaniyat uyg'unligini ilmiy va didaktik jihatdan chuqur tahlil qilgan, bugun esa bu qarashlar zamonaviy lingvokulturologik yondashuvlar bilan o'zaro bog'lanmoqda.

Til xalq ma'naviyatining ko'zgusidir. Ayniqsa, o'zbek tilida uchraydigan frazeologizmlar, maqollar, hikmatli iboralar xalqning asrlar davomida to'plangan hayotiy tajribasini, axloqiy ideallarini va ma'naviy qadriyatlarini saqlab keluvchi madaniy kod sifatida xizmat qiladi. Abdulla Avloniy bu til qatlamini o'z asarlarida mahorat bilan qo'llab, nafaqat o'quvchini axloqqa chorlaydi, balki uni milliy tafakkur olamiga olib kiradi.

Til vositasi sifatida axloqiy qadriyatlar

Avloniy o'z asarlarida milliylikni mustahkamlovchi asosiy qadriyatlarni ko'p hollarda xalq maqollari, iboralar va tasviriyl ifodalar orqali yetkazadi. Bu iboralar nafaqat didaktik vazifani bajaradi, balki o'quvchining ongi va tasavvurida qadriyatni obrazli, esda qolarli shaklda aks ettiradi. Masalan:

- **"Ko'ngilga qarab so'zla, yurakka boradi".**

→ Bu ibora orqali Avloniy shaxslararo munosabatda samimiyat, hurmat va ruhiy ehtiyotkorlikni targ'ib qiladi. Bu nafaqat axloqiy mezon, balki **kontekstual madaniyat normasidir.**

- **"Ota-onani izzat qilgan – elni izzat qiladi".**

→ Bu fikrda qadimgi turkiy va islomiy axloqiy qadriyatlar bilan uyg'unlashgan **milliy tarbiya** modeli gavdalanadi. Til – bu yerda tarbiyaning madaniy tayanchi sifatida namoyon bo'ladi.

- **"Ilm – nur, jaholat – zulmat".**

→ Ushbu ibora orqali Avloniy faqat diniy yoki ma'rifiy g'oyani emas, balki o'z davrining modernistik dunyoqarashini ham tilga singdirgan: bu yerda **bilim — taraqqiyot, tafakkur — erkinlik** ramzidir.

Frazeologik birliklarning madaniy talqini

Lingvokulturologiya nuqtayi nazaridan, har bir frazeologizm — bu **ma'naviy-madaniy konsept**, ya'ni xalq tafakkuridagi qadimiy tasavvurlarning til orqali ifodalanishi. Avloniy asarlaridagi quyidagi frazeologik birliklar ana shunday konseptlarning yorqin namunalaridir:

- **"O'zligingni tanimasang, el ichra yo'qsan"**

— bu yerda **milliy identitet**, ya'ni o'zligini anglash g'oyasi til vositasida jamiyatda o'rningni topish bilan bog'lanmoqda.

- **"Ko'ngil ko'zgusi — so'zdir"** — bu ibora tildagi

ma'naviy-estetik qadriyatlar va ichki ruhiyat o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi.

- **"Hurmat – iymonning pardasi"** — qadriyatlar

va diniy-ma'rifiy yondashuvlarning birligi ochiladi.

"Turkiy Guliston yoxud axloq" asari faqat adabiy emas, balki lingvokulturologik jihatdan ham katta ahamiyatga ega bo'lgan matndir. Asarda har bir axloqiy mavzu muayyan **madaniy kontekstga** asoslanib, o'zbek xalqining o'ziga xos qadriyatlar tizimi orqali yoritiladi. Jumladan:

- Mehr-oqibat va xayrixohlik;
- Kattaga hurmat, kichikka izzat;
- Halollik va poklik;
- Vatanga sadoqat va elparvarlik.

Bu qadriyatlar til vositasi bilan ta'sirli ifoda topadi. Har bir bo'lim o'ziga xos axloqiy, madaniy va ma'rifiy yuklamaga ega bo'lgan iboralar, nasihatlar, hikmatlar bilan mustahkamlangan. Avloniy o'quvchini faqat axloqiy jihatdan emas, balki **madaniy jihatdan ham saviyali inson** bo'lishga chaqiradi. Bu esa zamonaviy lingvokulturologik qarashlar bilan bevosita uyg'unlashadi.

Abdulla Avloniy asarlari o'zbek milliy tafakkuri va ma'naviy-madaniy xotirasining betakror manbai sifatida e'tirof etilishi bejiz emas. Uning asarlarida til — bu oddiy aloqa vositasi emas, balki xalqning tarixiy xotirasi, urf-odati, axloqiy ideallari va estetik qarashlarini mujassam etuvchi qudratli madaniy ko'prik sifatida qaraladi. Ayniqsa, Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" va "Maktab gulistoni" kabi asarlarida keltirilgan maqollar, iboralar, hikmatli so'zlar va frazeologik birliklar xalqimizning ma'naviy qadriyatlarini zamonaviy lingvokulturologik yondashuvlar orqali tadqiq qilish imkonini beradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Avloniy asarlaridagi til vositalari orqali uzatilgan qadriyatlar — halollik, elparvarlik, ilmga rag'bat, insoniylik, hurmat va mehr kabi tushunchalar — bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Aksincha, globallashuv va madaniyatsizlik xavfi kuchayayotgan zamonda bu qadriyatlar yanada muhimroq ma'naviy tayanchga aylanmoqda. Avloniy ilgari surgan g'oyalar bugungi davlat siyosatida — til siyosati, milliy ma'naviyat va ma'rifat siyosati, yoshlarda sog'lom dunyoqarashni shakllantirish strategiyalarida ham bevosita davom etmoqda.

Bu jihatlar lingvokulturologik nuqtayi nazardan qaralganda, Avloniy asarlari o'zbek tilining madaniy semantikasini, ya'ni xalq tafakkurining til vositasidagi aksini o'rganish uchun noyob manba bo'lib xizmat qiladi. Shunday ekan, Avloniy merosini faqat tarixiy yodgorlik emas, balki hozirgi va kelajak avlod uchun tarbiyaviy, madaniy va ilmiy jihatdan faol vosita sifatida o'rganish va targ'ib qilish muhim ilmiy va ijtimoiy vazifadir.

Xulosa. Abdulla Avloniy merosi, xususan uning "Turkiy Guliston yoxud axloq" va "Maktab gulistoni" asarlari, nafaqat o'z davrida, balki bugungi kunda ham milliy qadriyatlarni targ'ib etishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. O'tkazilgan lingvokulturologik tahlillar shuni ko'rsatadiki, Avloniy tilni xalq ma'naviyati va axloqiy dunyoqarashining ko'zgusi sifatida ko'rgan va uning yordamida milliy ongni shakllantirishni maqsad qilgan. Asarlaridagi maqollar, hikmatli so'zlar, frazeologizmlar

va didaktik iboralar o'zbek xalqining ma'naviy-madaniy xotirasini mujassam etgan bo'lib, ular halollik, mehr-oqibat, rostgo'ylik, elparvarlik, ilmga rag'bat, ota-onaga hurmat, Vatanga sadoqat kabi qadriyatlarining lingvistik shaklini yaratgan.

Xususan, Avloniy qadriyatlarni faqat nazariy qarash sifatida emas, balki til birliklari orqali badiiy va didaktik shaklda taqdim etadi. Shu orqali u yosh avlod ongiga ta'sirchan, esda qolarli va obrazli ma'naviy dastur beradi. Til va qadriyat uyg'unligining bu kabi ko'rinishlari lingvokulturologik nuqtayi nazardan qaralganda, xalqning tarixiy tajribasi, ijtimoiy stereotiplari va axloqiy ideallarini avloddan avlodga yetkazuvchi madaniy kod sifatida namoyon bo'ladi.

Avloniy qarashlari bugungi O'zbekiston sharoitida ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Globallashuv, raqamli madaniyat va madaniyatsizlik xavfi kuchayayotgan zamonda Avloniy ilgari surgan qadriyatlar milliy o'zlikni asrab qolishda mustahkam tayanch bo'lib xizmat qilmoqda. "Yangi O'zbekiston – Uchinchi Renessans sari" g'oyasi doirasida tilning davlat tili sifatidagi mavqeyini mustahkamlash, ma'naviyatni yuksaltirish va yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalash siyosati Avloniy merosi bilan bevosita uyg'unlashadi.

Shu sababli, Avloniy asarlarini lingvokulturologik tahlil qilish nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham muhimdir. Bu tahlillar o'zbek xalqining madaniy merosi va axloqiy qadriyatlarini zamonaviy ta'lim jarayoniga singdirish, ma'naviyat va ma'rifat siyosatini boyitish, yoshlarning sog'lom dunyoqarashini shakllantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Demak, Avloniy asarlarining lingvokulturologik xususiyatlarini chuqur o'rganish orqali biz o'zbek xalqining milliy qadriyatlarini nafaqat tarixiy meros sifatida asrab qolish, balki ularni bugungi ma'naviy-madaniy muhitga yangicha mazmunda tatbiq etish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Bu esa o'z navbatida milliy o'zlikni anglash, ma'naviy tiklanish va Uchinchi Renessans sari intilayotgan jamiyatimiz uchun g'oyat dolzarb va zaruriy vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. 96-b.
2. Muxamatova D.X., Dosanov N.X. Abdulla Avloniy asarlarining lingvopoetikasi xususida. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Scientific Journal Impact Factor Advanced Sciences Index Factor. VOLUME 2 | ISSUE 5. 316-317 butler.
3. Nasriyeva Z. I. Abdulla Avloniy asarlarida ma'naviy-ma'rifiy tarbiya g'oyasining aks etishi. // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (ORIENS). – 2021, Vol. 1, Issue 10, 320–324-b. (ISSN 2181-1784).
4. Sultonova Z.F. Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari. Scientific Journal Impact Factor. VOLUME 3 | ISSUE 4 | 2022 ISSN: 2181-1601. 957 p.
5. Sayfullayeva S. Abdulla Avloniy ijodida ma'naviy-ma'rifiy tarbiya masalasi. // International Scientific Journal of Biruni. – 2023, Vol. 2, Issue 2 (May), 117–121-b. DOI: 10.24412/2181-2993-2023-2-117-121.
6. Yo'ldoshev U.R. Badiiy tarjimaning lingvostilistik va lingvokulturologik xususiyatlari. Monografiya. – Samarqand: Samarqand davlat chet tillar instituti nashriyoti, 2022. 170-b.
7. Maslova V.A. Лингвокультурология: учебное пособие. – Moskva: Akademiya, 2001. – 208 c.

ASTRONIMLARNING NOMINATIV XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada astronomlar, xususan, yulduz turkumlarining nomlanish xususiyatlari, turli xalqlarda astronom va kosmonimlarning nomlanishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: *nominativlik, astronomlar, yulduz turkumlari, somon yo'li, transonimizatsiya.*

Аннотация: в статье рассматриваются особенности наименования астрономических названий, в частности созвездий, а также наименования астрономических и космологических названий у разных народов.

Ключевые слова: *номинативный падеж, астрономы, созвездия, Млечный Путь, трансонимизация.*

Annotation: this article discusses the features of naming astronomical names, in particular constellations, and the naming of astronomical and cosmological names in different nations.

Key words: *nominative, astronoms, constellations, Milky Way, transonymization.*

Astronimlarni tasniflash juda qiyin vazifadir, chunki ayni bir tilda ifodalanuvchi astronomlar nomlanish tamoyillari va usullari jihatidan bir xil emas. Bunda dastlab **yulduz va yulduz turkumlarini** onomasiologik tasniflashga harakat qilamiz.

1. Qadimgi turkiy mifologiya bilan aloqador hisoblangan va turkiy mifonimlar va teonimlardan transonimizatsiya¹ natijasida hosil bo'lgan nomlar.

“Qadimdan osmon jismlari, yulduzlar jonli deb tushunilgan”². “O'tmishda tungi salqindan foydalanib karvonlar kompas yordamida adashmay yo'l topganlar. Tajribali sarbonlar tunda *Yetti qaroqchi* yoki *Temir qoziq* yulduziga qarab dunyo tomonlarini aniq belgilaganlar. “*Yetti qaroqchini tanigan yetti tunda adashmas*” maqoli zamirida ham ana shu hayotiy haqiqat bor. Samoda cho'mich shaklida ko'rinuvchi yetti yorug' yulduz haqida ham turli afsonalar yaratilgan. O'zbek tilida *Yetti og'ayni*, *Yetti*

qaroqchi, *Yetagan*, *Katta ayiq*, *Cho'mich*, *Qoziq oti* kabi nomlar bilan, arabcha *Dubbi akbar* deb ataluvchu bu yulduz to'pida aslida yuzdan ortiq yulduzlar aniqlangan bo'lsa-da, o'zining yettita yulduzi bilan mashhur³.

Boshqa bir tadqiqotda esa *Yetagan* “*yetti*” asosga “*-gan*” shaklining qo'shilishi, “*-gan*” lug'atlarda “*kan*” – *xon*, *xudo* shaklida keltirilganligi izohlanadi⁴ (darhaqiqat, izohli lug'atda “*kan*” ning 6 xil ma'nosi sharhlanadi. Shulardan biri “*xon*” dir⁵. Bizningcha, keyingi tahlil leksik-grammatik qoidalarga yaqin).

Yulduzlarni avval zaminda yashab osmonga ko'tarilgan odamlar sifatida tasvirlash dunyo xalqlari astral miflarining eng muhim xususiyatlaridan biridir⁶. *Qizilqum sahrosidagi bir podshoh va uning yetti o'g'li, bir qizining borligi, qizning dushmanlar tomonidan o'ldirilishi, yigitlarning faryodidan tangri ularni yulduzlarga aylantirib qo'yganligi* haqidagi afsonalar mavjud⁷.

Misrada ifodalangan *yetti yalmog'iz* va *yetti ajdaho* ifodalari mifologik tasavvurlar natijasi.

O'zbek afsona va ertaklarida ***Temir qoziq***, ***Oltin qoziq***, ***Qutb yulduzi*** deb nomlanuvchi

1 Bu hodisa rus tilshunosligida “трансонимизация – nomning bir turdan boshqa tur nomiga o'tishi”, – deb ko'rsatilgan. Manba: Подолская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. – Москва, 1978. – С.152-153. Transonimizatsiya tilda atoqli otlardan atoqli ot hosil qilishning alohida bir usuli bo'lib, bunday usulda yuzaga kelgan hosilalar apellyativ leksikadan yasalgan nomlardan ham, derivatsion usulda hosil qilingan nomlardan ham farq qiladi. Manba: Qilichev B. Onomastika. – Buxoro, 2023. 26-bet.

2 Xalqimizda osmonda har kimning “o'z” yulduzi bor deb irim qilinadi. Shu yulduzning odam joni bilan aloqadorligi bilan bog'liq astromifologik qarashlar alohida o'rganilishi zarur bo'lgan masaladir. Bu haqida qarang: Жўраев М. Юлдузлар билан боғлиқ халқ қарашлари ва самовий афсоналар // Улугбек академияси ва олий мактаб. – Тошкент, 1994. – В. 53-54; Ўша муаллиф: Юлдуз учини билан боғлиқ мифологик қарашлар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1996. – № 2. – В. 39-43.

3 Iqtibos manbasi: Жўраев М. Ўзбек фолклориди астрал мифлар типологияси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2021. – № 2. – Б. 21.

4 Iqtibos manbasi: Примов А. “Етти қароқчи” юлдуз туркумининг номланиши // Адабиёт кўзгуси. – Тошкент, 2002. – № 7. – Б. 166-169.

5 Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий. Том II. Ч. 1. – С.Петербург, 1899. – С. 104-105.

6 Жўраев М. Ўзбек фолклориди астрал мифлар типологияси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2021. – № 2. – Б. 26.

7 Жўраев М. Ko'rsatilgan manba. – Б. 27.

yulduzning nomlanishi ham mifologik tasavvurlar bilan bog'liq.

A.Primov *Yetti qaroqchi* yulduz turkumidagi eng yorug' yulduz sanalgan *Qutb yulduzi* haqidagi ma'lumotlarida uning *Temir qoziq*, *Oltin qoziq* kabi bir qancha nomlarga egaligini hamda qadimgi xalqlar uni dunyoning markazi tarzida tasavvur etishganini ta'kidlaydi⁸.

"*Temir qoziq* yulduzi qutbga juda yaqin bo'lganidan yulduzlar go'yo uning atrofida aylanadigandek va bunda u qo'zg'almay turgandek tuyuladi. Shu bois unga *Temir qoziq* (*Oltin qoziq*, *Qutb yulduzi*) deb nom berilgan"⁹.

Bu yulduz (ba'zida **Katta ayiq**, **Kichik ayiq**, **Qutb yulduzi**) *Temir qoziq* astronomi hisoblanib, ikkita asosning birlashtirilishidan hosil bo'lgan: *temir* (*temir*) + *qoziq* (*ustun*). Qirg'iz va mo'g'ul tilida bu yulduz *алтын казык* (*Oltin qoziq*)¹⁰, qoraxoniylar uyg'urlarida *Temur qoziq*, turklarda – *Demir qozuk*, *Demirkazik*, turkmanlarda – *Demir gazik* va boshqa nomlar bilan yuritiladi¹¹.

Adabiy tilimizda *Temir qoziq*ning *Qutb* nomi ham ishlatiladi. Xalqimizda *Qutb* yulduziga nisbatan "*Yetti qaroqchining boshlig'i*" degan ta'rif ham bor:

"*Ana u – Mezon yulduzining dumi, mana bu yulduz – Yetti qaroqchining boshlig'i, mana bu – Hulkar yulduzi. Kecha shu yulduz tikka kelganda, eshak so'yilgan edi* (G'.G'ulom. "Shum bola". 90-bet.).

Somon yo'li. Havo ochiq tunda oddiy ko'zga yorug' yo'l kabi ko'rinadigan yulduzlar turkumi (O'TIL, VI, 707).

Somon yo'li yulduz turkumining etimologiyasi qiziq. Lingvist G.R.Abdullina tadqiqotlarida *Somon yo'lini Iso alayhissalomning yo'li*, *Bibi Maryam yo'li*, *Avliyo Pyotr yo'li*, *Quddusga olib boradigan yo'l*, *Avliyo Jeyms yo'li*, *jannat yo'li* deb ham atalishi, turkiy xalqlarning aksar qismida esa ushbu yulduz turkumini qushlar, parrandalar bilan bog'liq holda nomlanishi (qozoqlarda – *Torna yule*, boshqird tilida – *Qo'sh yo'li*, qirg'iz

xalqlarida – *Qyr kazzary yule*, tatar tilida – *Kiek kaz yule*) aytib o'tilib, O'rta Osiyo davlatlarida esa uni oddiy *Somon yo'li* tarzida nomlanishi, Bukovina, Vengriya, Moldova xalqlari bu turkumni "*Lo'li yo'li*" tarzida atashganlari, shuningdek ayrim joylarda daryo sifatida nomlashlarini ham keltiradi: Chukotka xalqlari orasida *Kumush daryo*, *Changli daryo*, *Samoviy daryo*; Sharqiy Afrika mamlakatlarida *Yulduzli dengiz*. Kavkaz xalqlarida bu yulduz turkumi nomining hayvonot dunyosi bilan bog'lab *Poda yo'li*, chechenlarda ham xuddi shu kabi *ayiq yo'li*¹² kabi nomlanishlari bo'yicha keltirilgan ma'lumotlar ishimiz uchun qimmatli materialdir.

O'zbek afsonalarida esa *Somon yo'li xayoliy qahramonning boshi osmonga tekanda hosil bo'lgan sidiriq*, *aravadan to'kilgan somonning izi* deb tasvirlanadi¹³. Sharqning ko'plab xalqlari *Somon yo'lini* daryo sifatida ko'rishgan va nomlashgan. Arablar "*Nahr daryosi*", hindlar "*Gang daryosi*", xitoyliklar "*Samoviy daryo*", vietnamliklar "*Yulduzli daryo*" va shunga o'xshash nomlar¹⁴.

Bundan tashqari turkiy xalq lahjalarida "*Qush yo'li*", "*Turna yo'li*", "*G'oz yo'li*" kabi atalishlar ham mavjud. Ammo katta hududda "*Somon yo'li*" deb nomlangani manbalardan ma'lum¹⁵.

"*Qush yo'li*" deb atalishiga sabab, qushlarning shu yo'l bilan kirib chiqishidir¹⁶.

Fors-tojik tilida *Rohi Qahkashon – Somon tashuvchining yo'li* nomi bilan ham keltiriladi. "*Kahkashon* so'zi fors tilida "*kah*" – somon, "*kashon*" – tortuvchi so'zlarining birikishidan hosil bo'lgan "*somon tashuvchi*" ma'nosidagi so'zdir. *Kahkashon* yoki *Somon yo'li* deyilishiga sabab afsonalar va asotirlarda shu yo'l orqali tashilgan somon to'kilib somon rangi – oqish rangni hosil qilgan va shunday nomlana boshlagan"¹⁷, "*roh*" esa yo'ldir. O'zbek she'riy matnlarida ham bu yulduzning ifodalarini ko'ramiz:

12 Абдуллина Г.Р., Гайнуллина Г.Д. Наименования небесных тел (на материале башкирского языка) // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – Тамбов, 2014. – № 20. – С. 1141–1145. – URL: <http://e-koncept.ru/2014/54492.htm>

13 Жўраев М. Сомон йўли ҳақидаги ўзбек халқ афсоналарининг мифологик асослари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1996. – №1. – Б. 35-41.

14 Карпенко Ю.А. Названия звездного неба. – Москва: Наука, 1985. – С. 7. <https://www.rulit.me/books/nazvaniya-zvezdnogo-neba-read-323862-6.html>

15 Карпенко Ю.А. Ko'rsatilgan manba. – С. 12.

16 Карпенко Ю.А. Ko'rsatilgan manba. – С. 9.

17 Primov A.I. Ta'lim jarayonida kosmonimlardan foydalanish. – Urganch, 2011. 11-bet.

8 Примов А. "Етти қароқчи" – юлдуз туркумининг номланиши // Адабиёт кўзгуси. – Тошкент, 2002. – № 7. – Б. 168.

9 https://uz.wikipedia.org/wiki/Temir_qoziq

10 Каражаев Ю.Д. О двух тюркских названиях полярной звезды в осетинской космогонии. // Советская тюркология. – Баку, 1989. – № 6. – С. 36.

11 Абдуллина Г.Р., Гайнуллина Г.Д. Наименования небесных тел (на материале башкирского языка) // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – Тамбов, 2014. – № 20. – С. 1141–1145. – URL: <http://e-koncept.ru/2014/54492.htm>

2. Hayvonlar, qushlar, hasharotlarni ifodalovchi leksemalarni onimlashtirish orqali hosil qilingan astronomiklar.

Nominativlik jarayoni ham shartli, faqat ma'lum bir makon va vaqt ichida obyektivlik tushunchasi nominativ ma'noga to'g'ri kelishi mumkin. Yulduzlar har doim ham bir xil joylashuvda turmaydi, ular shaklini ma'lum davr ichida o'zgartirib turishi ham mumkin.

Qadimgi Sharq odamlari samoviy yoritgichlarga qarab manzillar uchun mo'ljall olishda osmonning yorug' yulduzlarini ma'lum bir to'da-guruhlariga ajratib, bu guruhlarini *yulduz*

turkumlari deb ularga turli nomlar berishgan. Ularni nomlashda yorug'ligi, jamlanib turgandagi hosil qilgan shakl o'xshashligi, osmonda ko'rinish vaqti kabi jihatlariga tayangan tarzda nom berishgan. Lug'atlardagi astronomik nomlarga e'tibor bersak, bir qancha osmon jismlarining nomlanishlari jonivor, parranda va hayvon nomlari bilan bog'liq holda atalganligiga guvoh bo'lamiz: *Ilon (yulduz turkumi)*, *Qo'y (Hamal y.t.)*, *Qush yo'li*, *Kaltakesak (y.t.)*, *Katta it (y.t.)*, *Katta ayiq*, *Kentavr (y.t.)*, *Kit(y.t.)*, *Kichik it (y.t.)*, *Kichik asad (y.t.)*, *Kichik ot (y.t.)* *Pegas (Qanotli ot. y.t.)*, *Savr (Ho'kiz. y.t.)*, **Burgut** va boshqalar¹⁸.

18 Jalolov G'. O'zbekcha – ruscha – arabcha – inglizcha astronomik atamalar lug'ati. – Toshkent, 2000. – 92 b.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Жўраев М. Ўзбек фолклорига астрал мифлар типологияси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2021. – № 2.
2. Примов А. “Етти қароқчи ” юлдуз туркумининг номланиши // Адабиёт кўзгуси. – Тошкент, 2002. – № 7. – Б. 166-169.
3. Радлов.В.В. Опыт словаря тюркских наречий. Том. II. Ч. 1. – С.Петербург, 1899.
4. Примов А. “Етти қароқчи ” юлдуз туркумининг номланиши // Адабиёт кўзгуси. – Тошкент, 2002. – № 7.
5. Каражаев Ю.Д. О двух тюркских названиях полярной звезды в осетинской космоимии. // Советская тюркология. – Баку, 1989. – № 6.
6. Абдуллина Г.Р., Гайнуллина Г.Д. Наименования небесных тел (на материале башкирского языка) // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – Тамбов, 2014. – № 20. – С. 1141–1145. – URL: <http://e-koncept.ru/2014/54492.htm>
7. Жўраев М. Сомон йўли ҳақидаги ўзбек халқ афсоналарининг мифологик асослари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1996. – №1. – Б. 35-41.
8. Карпенко Ю.А. Названия звездного неба. – Москва: Наука, 1985. – С. 7. <https://www.rulit.me/books/nazvaniya-zvezdnogo-neba-read-323862-6.html>
9. Primov A.I. Ta'lim jarayonida kosmonimlardan foydalanish. – Urganch, 2011.
10. Jalolov G'. O'zbekcha – ruscha – arabcha – inglizcha astronomik atamalar lug'ati. – Toshkent, 2000. 92-b.

Nasiba RAIMNAZAROVA,
Termiz davlat pedagogika instituti dotsenti

O'ZBEK SHEVALARIDA SO'Z YASALISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada o'zbek shevalarida so'z yasash jarayoni, uning adabiy til bilan umumiy va farqli tomonlari yoritiladi. Dialektal qatlamlarda uchraydigan affiks, qo'shma, juftlash va semantik yasash usullari misollar yordamida tahlil qilinadi. Shuningdek, mahalliy shevalarda saqlanib qolgan qadimiy affikslar va yangi hosila shakllar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: *o'zbek shevalari, so'z yasalishi, affiks, juftlash, semantik yasash, dialektologiya.*

Annotation: this article examines the processes of word formation in Uzbek dialects and highlights their similarities and differences with the literary language. It analyzes affixal, compound, reduplicative, and semantic methods of word formation with illustrative examples. The study also discusses ancient affixes and newly formed lexical units preserved in local dialects.

Key words: *uzbek dialects, word formation, affix, compounding, reduplication, semantics, dialectology.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются процессы словообразования в узбекских диалектах, а также их сходства и различия с литературным языком. Анализируются аффиксальный, сложносоставной, удвоенный и семантический способы словообразования на примерах. В исследовании также обсуждаются древние аффиксы и новые лексические единицы, сохранившиеся в местных диалектах.

Ключевые слова: *узбекские диалекты, словообразование, аффикс, сложение, удвоение, семантика, диалектология.*

Kirish. O'zbek tili boy va qadimiy tarixga ega bo'lib, uning dialektal qatlamlari ham alohida ilmiy tadqiqotga arziydi. Shevalar tilning jonli nutqiy shaklini tashkil etib, adabiy tildan fonetik, leksik, grammatik xususiyatlariga ko'ra farqlanadi. Shulardan biri – so'z yasalishi jarayonidir. Shevalarda so'z yasash usullari adabiy tilga yaqin bo'lsa-da, ayrim farqlar mavjud bo'lib, ular xalqning tarixiy, ijtimoiy va madaniy hayotini yoritishda muhim manba vazifasini bajaradi.

Adabiy til bilan bir qatorda xalq nutqida faol qo'llaniladigan shevalar ham mavjud bo'lib, ular tilning boyliklarini, qadimiy qatlamlarini saqlab qolishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan shevalarda so'z yasalishi jarayonlarini o'rganish, nafaqat dialektologiya, balki tarixiy lingvistika uchun ham dolzarb masaladir¹.

Asosiy qism. O'zbek tilining adabiy shaklida kuzatiladigan affiks yasash, qo'shma so'z yasash, juftlash va semantik yasash shevalarda ham uchraydi. Ammo shevalarda ayrim qo'shimcha va birliklarning o'ziga xos shakllari mavjud.

Affiks yasash adabiy tilda bo'lgani kabi shevalarda ham so'z yasashining eng sarmahsul usuli hisoblanadi. Bunda so'z yasovchi qo'shimchalarni qo'shish orqali yangi so'zlar hosil qilinadi. Adabiy tildan farqli o'laroq shevalardagi ayrim qo'shimchalar faqat ma'lum bir hudud aholisi uchungina tushunarli bo'lishi mumkin.

Buxoro shevasida: *zargar – zargaron* (-on – lar)

Qashqadaryo shevasida: *yig' – yig'loqchi, ayt – aytquvchi;*

Adabiy tildagi -chi, -lik qo'shimchalari bilan bir qatorda shevalarda -g'ir/-gir, -qir/-qur shakllari ham faol ishlatiladi: *suvg'ir* (sug'oruvchi), *o'tinchi* → *o'tingir*.

Ayrim viloyatlarda o'ziga xos affiks va shakllar mavjud. Masalan, Buxoro shevasida -kay/-qay qo'shimchasi ishlatiladi (kulqay, so'rqay). Hudud dialektiga xos ko'plab so'zlar shevalarda o'ziga xos talaffuz va yasash shakliga ega: *dastsho'*, *oshpazak* va h.

Shuningdek ba'zi shevalarda o'zak qism adabiy tilga xos bo'lib, yasovchi qo'shimcha dialektal morfema bo'lishi mumkin yoki aksincha, asos sheva so'zlaridan tashkil topgan holatlar ham kuzatiladi. Shuningdek, ba'zi shevalarda adabiy tilda deyarli qo'llanmaydigan affikslar ham faol ishlatiladi:

-g'ir/-gir, -qir/-qur qo'shimchalari: *suvg'ir* (sug'oruvchi), *o'tingir* (o'tinchi);

-oq/-oqchi qo'shimchalari: *yig'loqchi, sotqoqchi* (sotuvchi)²

Shuningdek ushbu qo'shimchalar badiiy adabiyotlarda ham davr ruhi va qahramon xususiyatlarini ochib berish maqsadida qo'llanilishi mumkin:

– “O'yijon, ko'klamdan beri qo'shnilar bilan gaplashqir bo'ldim”.³

Bu yerda -qir qo'shimchasi yordamida yasalgan “*gaplashqir*” so'zi qo'llangan bo'lib,

-qir qo'shimchasi istak, orzu ma'nolarini ifodalamoqda.

Shevalarda ikki yoki undan ortiq so'zning qo'shilishi orqali yangi ma'no hosil qilish keng qo'llaniladi. Masalan: *qo'tosqorin* (katta qor qatlami), *otoyoq* (ot uchun qilingan yog'och bog'lam), *toshbosh* (ko'pincha «to'qish» yoki «kashta ishlash» degan ma'noda ishlatiladi,

1 G'. Abdurahmonov. O'zbek dialektologiyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1981. 27-b

2 A. Jo'raboev. O'zbek shevalari morfologiyasi. – Toshkent: Fan, 2007. 38-b
3 Hamza. Qorako'z. Toshkent: Adabiyot nashriyoti, 1926. 18-b

mato yoki to'qimalarga ishlatiladigan naqsh), *shirxo'r* (sug'orilganidan keyin hali namligini saqlab turgan tuproq) va boshqalar. Bu usul bilan yasalgan shevalar mamlakatimiz hududida keng tarqalgan bo'lib, ularning tadqiqi bugungi tilshunoslarimiz oldida turgan dolzarb masalalardan biridir.

Shevalarda ko'plab so'zlar juftlash orqali hosil qilinadi. Bu usulda ham fonetik xususiyatlar seziladi: *yig'la-chiqqa* (yig'layvermoq), *tiniq-miniq* (toza, tiniq), *chop-chop* (tez chopish). Ba'zan juftlashda tovush o'zgarishi sodir bo'ladi, bu esa dialektning fonetik xususiyatlarini ham namoyon etadi⁴. Bunda juftlangan so'zlarning birinchi yoki ikkinchi qismida tovush ortishi, almashinishi hodisalarini kuzatishimiz mumkin:

“Bozorchilar har xil *oz-moz* narsalarni so'raydilar”. (A. Qodiriy “Mehrobdan chayon”)

“Odamlar har xil *qora-qura* gaplarni tarqatishar edi”. (“Sarob” romanidan)

Bu kabi fonetik qisqarish yoki o'zgarish orqali so'z yasashi, ayniqsa, Qashqadaryo viloyatidagi shevalarda ko'p uchraydi: ko'p bola – ko'pola, bir nima – birnaqa.

Buxoro, Navoiy, Samarqand shevalarida esa fors-tojik tilining ta'siri yaqqol sezilib turadi: hovuzak, bolaxol, do'zanda va boshqalar.

Dialektal yasashda muhim usullardan yana biri bu semantik so'z yasash usulidir. Bu usul orqali so'zning mavjud ma'nosidan yangi ma'no hosil qilinadi. Tilshunos olimlar N. Mahmudov, A. Nurmonovlarning “Hozirgi o'zbek adabiy tili” kitobida quyidagi misollar keltirilgan:

Farg'ona shevasida ko'r so'zi nafaqat “*ko'zi ojiz*”, balki “*beparvo, e'tiborsiz*” ma'nosida ham ishlatiladi. Buxoro shevasida “*sovuq*” so'zi “*yomon, qo'pol*” ma'nosini ham anglatadi⁵.

Muhokamalar va natijalar. Dialektal so'z yasashi qadimgi qo'shimchalar va so'z yasash modellarini saqlab qoladi. Adabiy til taraqqiyotida unutilib ketgan unsurlar ko'pincha shevalarda uchraydi. Bu orqali o'zbek tilining qadimgi bosqichlarini va boshqa turkiy tillar bilan qiyosiy aloqalarini tiklash mumkin. Turkiy tillar va hatto qo'shni tillar (tojik, rus) bilan aloqalarni aniqlashda dialektal yasama so'zlar muhim. Masalan,

Buxoro shevasida ishlatiladigan “*dastsho*” so'zi (forscha “*dast*” + turkiy “*sho*”) qo'shma yasama so'z bo'lib, ikki til ta'sirini ko'rsatadi. Bu kabi leksemalar boshqa tillar bilan aloqalarni, tarixiy til qatlamlarini ochishga yordam beradi. Shevalarda uchraydigan yasama so'zlar ko'pincha tarixiy qatlamlarni saqlab qoladi. Masalan, qadimgi turkiy davrga oid yasama so'zlar bugungi adabiy tilda yo'qolgan bo'lsa-da, shevalarda yashab qolgan. Masalan,

-g'il qo'shimchasi bilan yasalgan *kelg'il, borg'il* shakllari ayrim hududlarda hanuz ishlatiladi.

Har bir hududdagi o'ziga xos so'z yasash modellari o'sha joyning til xaritasini tuzishda qo'l keladi. Masalan, Xorazmda ishlatiladigan “*yig'itchiq*” so'zi (kichraytirish qo'shimchasi bilan) boshqa hududlarda uchramaydi. Dialektal so'z yasashi orqali hududiy xususiyatlarni aniqlash va til atlaslari yaratish mumkin⁶.

Xulosa. Dialektal so'z yasashi – bu faqat fonetik yoki grammatik farqlar emas, balki xalq tarixini, madaniyatini va tafakkurini o'zida aks ettiruvchi muhim manba. Shu sababli uni o'rganish o'zbek tilshunosligi va umumturkiy tadqiqotlarda alohida ahamiyat kasb etadi. Dialektal so'z yasashi masalalari o'zbek tilshunosligida nafaqat lingvistik, balki tarixiy, madaniy va ijtimoiy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shevalarda saqlanib qolgan qadimgi qo'shimchalar, o'ziga xos yasash modellari va yangi leksik shakllar adabiy til taraqqiyotini, turkiy tillarning umumiy ildizlarini va xalqning tarixiy tafakkurini o'rganishda beqiyos manba bo'lib xizmat qiladi.

Birinchi, dialektal so'z yasashi orqali til tarixining bosqichlarini tiklash, qadimgi turkiy davrga oid morfologik unsurlarni aniqlash mumkin. Ikkinchi, shevalardagi yasama so'zlar leksik boylikni kengaytiradi hamda yangi so'z yasash jarayonida adabiy til uchun manba bo'lib xizmat qiladi. Uchinchi jihati, bunday so'zlar xalqning madaniy qadriyatlarini, dunyoqarashi va ijtimoiy munosabatlarini aks ettiradi.

Shuningdek, dialektal yasama so'zlar qiyosiy-tarixiy tadqiqotlar uchun ham muhim bo'lib, ular orqali turkiy tillar o'rtasidagi aloqalar, shuningdek, o'zbek tilining qo'shni tillar bilan uzviy munosabatlari aniqlanadi. Til atlaslari va lingvogeografik tadqiqotlarda esa mahalliy yasash modellari hududiy farqlarni ko'rsatib beradi.

4 Sh. Shoabdurahmonov. O'zbek tili dialektologiyasi. – Toshkent: Fan, 2010. 46-b
5 N. Mahmudov, A. Nurmonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston, 2012. 65-b

6 Abdurahmonov, A. O'zbek tili dialektologiyasi masalalari. Toshkent: Fan, 1980. 8-b

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'. Abdurahmonov. O'zbek dialektologiyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1981.
2. A. Jo'raboev. O'zbek shevalari morfologiyasi. – Toshkent: Fan, 2007.
3. Sh. Shoabdurahmonov. O'zbek tili dialektologiyasi. – Toshkent: Fan, 2010. 46-b
4. N. Mahmudov, A. Nurmonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston, 2012
5. Jo'raev, N. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. Toshkent: Fan, 1994.

Gulshan ABDURAXMONOVA,
Lingvist

“QORA” LEKSEMASI ISHTIROKIDAGI TOPONIMLAR

Annotatsiya: ushbu maqolamizda “qora” so’zi ishtirok etgan joy nomlari xususida to’xtalamiz. Respublikamizning turli hududlarida joylashgan ayrim tuman, mahalla, qishloq va ovullarning nomlari tarixi, “qora” leksemasining bu hududlarda anglatadigan ma’nolari yoritilgan.

Kalit so’zlar: qishloq, mahalla, qora, Qoraqishloq, Qoracha, Qoradaryo, Qorako’l, Qoraqamish, Qorasuv.

Annotation: and this state speech will be about toponymy with the word “black”. The story is covered and named after some districts, microdistricts, villages and villages located in different regions of our republic, the meaning of the lexeme “black” in these regions.

Key words: village, neighborhood, Black.

Аннотация: в этой статье речь пойдет о топонимах со словом «черный». Освещена история названий некоторых районов, микрорайонов, сел и деревень, расположенных в разных регионах нашей республики, значения лексемы «черный» в этих регионах.

Ключевые слова: село, махалля, Кара, Каракишлок, Карача, Карадарё, Каракул, Каракамыш, Карасу

Bugungi kunda Respublikamiz bo’ylab sayohat qilar ekansiz, turli xil nomdagi tuman, shahar, mahalla, qishloq va ovullarga duch kelasiz. Nomlarning, aynan, o’sha hudud geografiyasi, o’ziga xos jihatlardan kelib chiqib qo’yilishi bejiz emas, albatta. Har bir qishloq, shahar, mamlakatlarning nomlanishi, dengiz, okean, daryo va tog’larning nomlanishi ma’lum bir ma’no, mazmunga ega. Shu jihatdan qishlog’imizning Qoraqishloq, deb atalishi to’g’risida bir necha yil avval tarix kitoblarida o’qib qolmagunimcha men ham keksalarimiz aytgan rivoyatdan boshqa biror bir ma’lumotga ega emas edim.

Qoraqishloq qishlog’i, Ishtixon tumanida, Buyuk Ipak yo’li o’tgan hududda joylashgan. Bu yo’l Toshkent, Samarqand, Buxoroga qatnovchi va ular orqali G’arb bilan Sharqni bog’laydigan karvonlar yaqin yuz yilliklargacha u yoqdan bu yoqqa tinimsiz o’tib turgan ulkan magistraldir.

Qoraqishloq qishlog’i to’g’risida keksalarimiz tilida bir rivoyat bo’lib, go’yo bir vaqtlar to’satdan bu hududda qishloq paydo bo’lib qolgan emish va karvondagilar yangi paydo bo’lgan qishloqni uzoqdan ko’rib, “ana u ko’rinayotgan Qora narsa nima ekan”, deb qiziqishgan, keyin yaqinlashib

kelib bilishsa ko’ringan “Qora” katta qishloq ekan. Shundan buyon bu joy “Qoraqishloq” deb atala boshlangan emish. Lekin “Qora” so’zi bilan bog’liq bir qancha tarixiy faktlar mavjudki, ular haqida to’xtalmasdan turib, qishlog’imiz nomi, ma’nosini to’liq anglash qiyin. VIII-IX asrlarda arablar Qora dengiz atrofidagi hududlarni bosib olganlarida, Qora dengizni bosib oldik deya, keyinchalik Qorako’lni. (Zarafshon daryosining quyilishidan hosil bo’lgan Buxoro viloyatidagi ko’l) bosib olganlarida Qorako’lni ham olishgani to’g’risida xalifalikka, Arabistonga xabarnomalar jo’natishgan “Qora” so’zi keng, ulkan, katta, buyuk, degan ma’nolarni ham anglatadi. Qorako’l nomi ham aynan ko’lning keng va katta ekanligi bilan bog’liq. Qora dengizning ham qora rangga aloqasi yo’q bo’lib, bu dengiz juda ulkan hududni o’z ichiga oladi. Qadimgi turkiy tilda katta-ulkan “qara” shaklida ishlatilgan. Jumladan “Qora mol”- katta, shoxli mol, rangi qora mol emas, “Qora qozon” – to’y-marakasi bir bo’lgan 2-3 ta qo’shni qishloqlar. (rangi Qora qozon emas, balki - katta to’y qozon) “Qorasuv”- sersuv katta ariq va h.k. Qoraqum, Qoraqamish, Qoradaryo, manglayi qora iboralari ham o’sha davrlardan yetib kelgan bo’lsa ajab emas.

Qoraqishloq qishlog'i Respublikamizning turli viloyatlarida mavjud. Bunday nomdagi qishloqlar asosan dehqonchilikka qulay hududlarda joylashgan. Olimlarning ta'kidlashlaricha qayerda Qoraqishloq qishlog'i bo'lsa, o'sha joylarda aholi ko'p bo'lgan va bu joylarda tepalar ham ko'p bo'lgan. Bu hududda yashovchi har bir urug', har bir sulola o'zlari bunyod etgan tepalariga ega bo'lgan. Bu tepalar urush, bosqinchilik, suv toshqinlari sodir bo'lganda qal'a, qo'rg'on vazifasini o'tagan. Ular xavf to'g'risida tepalarga gulxanlar yoqib bir-birlarini ogohlantirishgan. Ular yana tepa etagiga tuproq tashib yassi tepaliklar ham barpo qilishgan va bu tepaliklarda to'y va boshqa marosimlarini o'tkazishgan. Bundan tashqari tepalikning bir chetiga har bir urug' o'zlariga tegishli mayitlarini ko'mishgan. Urush paytlari, bosqinchilik sodir bo'lganda ular mudofaa inshooti sifatida shu tepaliklarga chiqib dushmani qarshi olishgan.

Bugungi kunda qoraqishloqliklar istiqomat qilayotgan hududda 7-8 ta tepa mavjud. Ularning ko'pchiligi o'z nomiga ega. Jumladan: "Kindikli tepa", "Qo'shtepa", "Biytepa", "Changaltepa", "Chorshanbatepa" va h.klar.

Qorako'lni tarixda Paykent, Baykand va Qorako'l, deb ham atashgan. Bir necha ming yillik „Zamon bobo“ madaniyati ham Paykentda joylashgan. Paykent Islom dini kirib kelishidan oldin Turk xoqonliklari davrida saltanat markazlaridan biri bo'lgan. Arab tilida „p“ harfi mavjud bo'lmagani uchun uni Arab manbalarida „Baykand“ deb atay boshlashgan. An-Narshaxiy (X asrda yashab ijod qilgan tarixnavis olim) Paykent haqida quyidagicha yozadi: Baykant (Paykant) — buni shaharlar jumlasidan, deb hisoblaydilar. Baykant aholisi biron kishini Baykantni qishloq, deb atashiga rozi bo'lgan emas. Baykantda katta Masjidi Jome' va oliy imoratlar bo'lgan. 240 hijriy (milodiy 854-855) yilgacha Baykant darvozasi oldida ko'p rabotlar bo'lgan. Baykant aholisining hammasi savdogarlar bo'lgan. Ular Xitoy va dengiz bilan boradigan mamlakatlar bilan savdo qilishgan, juda boy bo'lishgan. Qutayba ibn Muslim Baykand juda mustahkam bo'lgani uchun bosib olishga juda qiynaldi. Arslonxon Muhammad ibn Sulaymon o'z

davrida Baykandni qayta qurishni buyuradi. Shundan so'ng ko'plab oliy imoratlar va Xoqon (Arslonxon) uchun juda hashamatli saroy qurildi. Baykandda juda ko'plab qamishzorlar va suv havzalari tutashgani uchun uni „Keng havza“ deganlar, Qorako'l ham deb atashgan. Qorako'ldagi ko'plab tarixiy obidalar mustabid Qizil imperiya davrida vayron qilindi. 1926-yil 29-sentabrda Buxoro viloyati tarkibidagi tuman sifatida Qorako'l tumani qayta tashkil qilindi.

Qoracha toponimi turli viloyatlarda uchraydi. Shulardan biri Samarqand viloyati Ishtixon tumanida joylashgan „Qoracha“ qishlog'i bo'lib, qora rangga aloqasi bor yoki yo'qligini tekshirib ko'rganimizda „O'zbek tilining izohli lug'atida“ qoracha so'ziga bir nechta ta'riflar berilgan.

Masalan: 1. Qoraga moyil; qorato'r(i), qoramag'iz. Shu payt eshikdan qorachadan kelgan bir bolakay kirib keldi.

2. tar. O'rta asrlarda aholining zodagon bo'lmagan tabaqasi.

3. etn. Ayrim turkiy xalqlarda urug' nomi (masalan, o'zbeklarning qatag'on, laqay, qirq, saroy qabilalari tarkibida qoracha urug'i bo'lgan).

Bizning nazarimizda, tasavvuf tarixida „Qora“ laqabi bilan shuhrat topgan valiy, darveshlar ma'lum bir ma'noda qamlarga vorisdirlar. Chunki „Abu Siyoh, Qora Vali, Zangi ota, Qoracha Ahmad kabi Qora va Zangi avliyo tipi nihoyatda e'tiborlidir. Avliyo ilohiyotchilar orasida ham qoralar bor edi. So'fiylik „qora“ xotinlar o'rtasida ham tarqalgandir“. ¹ Ushbu fikrlarda o'zbekning to'qson ikki urug'idan biri bo'lgan qirq urug'ining tarmog'i — qoracha nazarda tutilgan.

Bundan kelib chiqadiki, qorachaning urug' ma'nosi toponimga ko'proq mos keladi. Bu nomdagi qishloqlar respublikamizning turli hududlarida uchrashi yuqoridagi fikrimizga isbot bo'la oladi. Chunki, o'zbek urug'lari yurtimizning turli hududlariga tarqalib ketgan.

Rus tilshunos olimi A.Kononov qoraso'zining ma'nolarini tadqiq etib, ushbu so'z bilan „katta“, „yirik“, „muhtasham“, „ulug'“, „qudratli“, „kuchli“, „pokiza“, „musaffo“, „quruqlik“, „yer“, „zulmat ko'ki“, „shimol“ kabi mazmunlar ifodalanganligini ko'plab misollar vositasida izohlab bergan. Uning keltirishicha, A.Ja'far o'g'li „Kitobi Dada Qo'rquq“

¹ Ulutog' S. So'fiy nigohida ayol. Istanbul, 1995. 91-93-betlar.

dagi qahramonlarning nomidagi qora sifatlashini jasorat va kuchlilik sinonimi, deb ta'kidlagan.

Biz Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonidagi Farhod dunyoga kelgan paytdagi xoqonning quvonchi tasvirlangan o'rinlarga murojaat qildik.

Xoqonning quvonchi chegarasiz edi. Shu zahoti uch yillik soliqlar bekor qilindi. Chin mamlakatida qancha devor bo'lsa, hammasi nozik va nafis naqshlar solib to'qilgan qora ipak mato yozib bezatilsin, degan buyruq berildi. Bu o'rinda qora rangga e'tibor bering. Gap shundaki, qadimgi zamonlarda qora rang ulug'lik, dabdabalilik, uzoq umrlilik ma'nolarini anglatgan. Shuning uchun shohlar qora libosni ma'qul ko'rganlar. Ajdodlarimiz farzandlariga o'g'il bo'lsa, Qoravoy, Qorajon, Qorabotir, qiz bo'lsa Qorajon, Qoraxon deb ism qo'yganlar. Xalq og'zaki ijodida qora tog', qora suv, qora bog' tushunchalaridan keng foydalanilgan. Bu o'rinda Allohning Makka shahridagi ramziy uyi– Ka'baning ustiga qora baxmaldan yopinchiq qilinganini ham eslasak, ma'qul bo'ladi. Shunday qilib, mamlakatning devorlari bayramona bezatildi. Xaloyiq nima ish qilsa ham tergalmasin, yomon ish qildng, deb

jazolash man qilinsin, degan farmoyish berildi. Xullas, Xoqon uyida tug'ilgan farzand butun mamlakatga shodiyonalik keltirdi.²

"Qora" leksemasining ko'pchilikka ma'lum bo'lgan salbiy semalari, qorong'ulik, qo'rquv, dahshat, yovuzlik kabilaridan tashqari, ijobiylikni ifodalovchi katta, keng, ulkan, buyuk singari ma'nolarni ham anglatishi haqida ayrim toponimlar misolida qisqacha keltirib o'tdik.

Xulosa qilib aytganda, Qadimda turkiylarning dunyoqarashi va fikr olamida oq rangga qaraganda qora rang e'tiborliroq mavqega ega bo'lgan. Shu bois ularning diniy inonchlarida qora so'zi ko'proq o'rin egallagan. "Qora" leksemasi turkiy xalqlarda qadimdan ijobiy ma'nolarda qo'llanilib kelingan. Turkning eski diniy inonchlari bo'yicha qamlar (din yo'lboshchilari) tangri bilan bevosita aloqa o'rnatish darajasida ruhoniyligi kuchli kishilar bo'lishgan. Ilk qam va ulug' yaratuvchining timsoli hisoblangan juft boshli Burgut esa Qora qush deyilgan. Qamlarning ruhlarini tashigan va ular bilan samoviy sayr qilguvchi qushga Qorabadoq nomi berilgan.

² Omonulla Madayev. Navoiy suhbatlari. – Toshkent: O'qituvchi, 2018. 170-171-b.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Haqqulov I. "Yana qora rang talqini haqida" maqolasi. www.kh-davron.uz
2. Matyoqubova T. "Alisher Navoiy hayoti va ilodi".—Toshkent, 2009.64-b.
3. "Ўзбек тилининг изоҳли луғати". –Тошкент, 2008.340-b.
4. Ўтанова С. "Алишер Навоий ғазалиётида ранг символикаси". Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. – Т.: 2007, 11-б.
5. Шомақсудов Ш, Шораҳмедов Ш. "Ҳикматнома". –Тошкент.
6. Omonulla Madayev. Navoiy suhbatlari. – Toshkent: O'qituvchi, 2018. 170-171-b.
7. Ulutog' S. So'fiy nigohida ayol. –Istanbul, 1995. 91-93-betlar.

Эркин МУСАЕВ,
доцент Навоийского государственного университета

ГРАДУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЕ СЕМАНТИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ ГЛАГОЛЬНЫХ ЛЕКСЕМ

Аннотация: основными конкретными единицами семантического яруса языка являются семемы, а основными абстрактными единицами - лексические, словообразовательные и грамматические значения. Семема - это содержательный аналог, семантическая функция словоформы как основной единицы лексико-грамматического яруса.

Ключевые слова: градионимы, семантические единицы языка, глагольные лексемы.

Annotatsiya: semantik darajalanishning asosiy konkret birliklari tilning sememasi, asosiy mavhum birliklari esa leksik, so'z yasalish va grammatik ma'nolardir. Semema – leksik-grammatik darajalanishning asosiy birligi sifatida so'z shaklining mazmunli analogi, semantik vazifasi hisoblanadi.

Tayanch so'zlar: gradionimlar, tilning semantik birliklari, fe'l leksemalar.

Annotation: the main concrete units of the semantic level of language are sememes, and the main abstract units are lexical, word-formation and grammatical meanings. A sememe is a meaningful analogue, a semantic function of a word form as a basic unit of the lexical-grammatical level.

Key words: gradionims, semantic units of language, verbal lexemes.

Словоформе *пишу* соответствует семема 'пишу', словоформе *пишут* - семема 'пишут' и т.д. Структурными компонентами семемы являются семы и семантические множители. Семы - это элементарные, далее не делимые для языкового сознания компоненты семем (например, такие компоненты, как 'быть', 'предмет', 'действие', 'состояние' и т.п.) [1;2;3;4;5;].

Семантические множители - это непосредственно составляющие семы и семемы. Они могут быть и сложными по своему составу. Эти непосредственно составляющими семемы «юноша» являются семантические компоненты «молодой» «взрослый», «мужчина» и «обычно неженатый» (последний компонент имеет факультативный характер).

Таким образом, одна и та же лексема (в сочетании, разумеется, с другими знаковыми средствами языка) может выражать несколько лексических значений (полисемия), и наоборот, одно и то же лексическое значение может выражаться несколькими лексемами и эквивалентными им по функции фразеологизмами (синонимия).

Словообразовательное значение - это в конечном итоге значение словообразовательного аффикса, являющееся частью лексического значения производного слова [1;2;3;4;5;].

Например, приставка *под-* в глаголе *подходить* имеет словообразовательное

значение приближения, приставка *у-* в глаголе *уходить* - значение удаления, суффикс *-тель* в существительном *читатель* - значение действующего лица.

От лексического словообразовательное значение отличается, в принципе, лишь тем (если отвлечься от абсолютно конкретных лексических значений), что его внешнее формальное выражение связано с аффиксальными (а не с корневыми) морфемами и соответствующими деривационными моделями (или формулами, операциями). Более абстрактный характер словообразовательных значений (по сравнению с лексическими) обусловлен прежде всего тем, что они связаны, как правило, с сериями слов, созданных по одной модели, т.е. со словообразовательными типами (*читатель, писатель, издатель* и т.д.) [1;2;3;4;5;].

Поэтому словообразовательные значения, как и грамматические, всегда функционируют как категориальные, т.е. они выражают абстрактное содержание тех или иных семантических категорий и субкатегорий. Иными словами, в состав словообразовательных значений входят лишь категориальные семы, лексические же значения могут включать и некатегориальные семы.

Грамматическое значение - это языковое содержание словоформы, остающееся после вычитания из нее лексического и словообразовательного значений (о положительном определении грамматического

значения см. далее). В словоформе *идем* это значение 1-го лица множественного числа настоящего времени. Во флективных языках грамматические значения имеют, как правило, комплексный характер, т.е. грамматическая семантика словоизменительного аффикса часто бывает представлена несколькими грамматическими значениями, несколькими «граммемами» (как, например, в *идем*)[1;2;3;4;5;].

В пределах лексемной (словесной) парадигмы эти значения дифференцируются. Например, в парадигме *иду ~ идешь ~ идет ~ идем ~ идете ~ идут* дифференцируются значения лица и числа, в парадигме *несу ~ неси ~ буду нести* - значения времени, в парадигме *несу ~ неси ~ неси бы* - значения наклонения. Системы грамматических значений таких парадигм в их единстве с грамматическими формами образуют грамматические категории.

При сочетании простых единиц семантического яруса образуются различные типы простых и сложных семантических синтагм конкретного или абстрактного характера. Сочетания семем, созданные по правилам их семантического согласования, представляют собой простые конкретные семантические синтагмы (*новый дом, ребенок спит* и т.п.). В результате более сложных комбинаций семем и простых семантических синтагм образуются сложные семантические синтагмы (*новый дом + уже + строится -> новый дом уже строится; мы узнали + изъяснительное отношение + новый дом уже строится -> мы узнали, что новый дом уже строится*) [1;2;3;4;5;].

С точки зрения системы языка это, видимо, верно. Так, многие словоформы, особенно глагольные, выражают целый комплекс понятий (к примеру, со словоформой *делает* связаны и понятие о действии, и понятие о действующем лице, и понятие об объекте действия, и понятие о времени, и понятие о числе¹). Однако в конкретном речевом высказывании смысл (по крайней мере,

основное содержание, номинативный его аспект) расчленяется (квантуется) в соответствии с линейной упорядоченностью словоформ.

Абстрактные семантические синтагмы (или семантические модели) возможны, как мы видели, уже на уровне лексикограмматического яруса языка: на уровне неграмматических значений лексем (например, существительное с ЛЗ 'учитель', глагол с ЛЗ 'читать', существительное с ЛЗ 'ученик', существительное с ЛЗ 'книга': *Учитель читает ученикам книгу. ~ Учителя читают ученикам книги*) и на уровне значений грамматических форм: *Отец пишет письмо. ~ Сын читает книгу*), но отвлечения от частей речи такие модели не допускают. Иначе обстоит дело на семантическом ярусе. Здесь возможно полное отвлечение и от общекатегориальных значений (или значимостей) частей речи, и от значений (или значимостей) их грамматических категорий.

Таким образом, семантические категории имеют обычно и самостоятельное словесное выражение в градуальных отношениях (*предмет, лицо, деятель, объект, адресат, действие, состояние, отношение, оценка, поведение* и т.п.).

Вместе с тем они употребляются для конструирования абстрактных семантико-синтаксических моделей (абстрактных синтагм) на уровне семантических классов слов той или иной степени абстракции: «*деятель* – его действие - результат этого действия», «*лицо* - его состояние», «*физический предмет* - его состояние», «*одушевленный предмет* - его поведение - оценка этого поведения» и т.д. грамматические категории могут быть и чисто формальными (например, род, число и падеж у русских прилагательных).

Просьбу, например, можно выразить и формой повелительного наклонения (*Останься*), и словом *прошу* (*Прошу остаться*), и формой сослагательного наклонения в сочетании с определенной интонацией (*Остался бы...*), и т.д.

Литература

1. Воронина, Т.М. (2001). *Образные семантические модели русских глагольных предложений*. Екатеринбург: Уральский государственный университет.
2. Ляшевская, О.Н. (2016). *Корпусные инструменты в грамматических исследованиях русского языка*. Москва: Языки славянской культуры. Рукописные памятники Древней Руси.
3. Плотникова, А.М. (2007). *Метафорическое моделирование семантической деривации глаголов социальных действий и отношений*, Известия Уральского государственного университета. Серия 2. Гуманитарные науки, № (13) 49, 212–222.
4. Рахилина, Е.В. (ред.) (2010). *Лингвистика конструкций*. Москва: Азбуковник.
5. Степанов, Ю.С. (2004). *Константы: Словарь русской культуры*. Москва: Академический Проект.



ADABIYOTSHUNOSLIK

Ismigul NIZOMOVA,
Toshkent shahar Olmazor tumani
298-maktab ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

“MAJOLIS UN-NAFOIS” TAZKIRASIDA USTOZLAR ZIKRI

Annotatsiya: dunyo adabiyoti tarixida hazrat Alisher Navoiyning keng qamrovli ijod olami asrlar oshibidiki, adabiyot ixlosmandlarining qizg'in bahs va munozaralariga sabab bo'lmoqda. Navoiy ijodiga yangicha talqinda sharhlarning bitilishi esa shoir merosiga bo'lgan qiziqishni yanada oshishiga zamin yaratmoqda. Ushbu maqolada benazir zamon allomasi, Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkirasida tasvir etilgan ustoz-shogird masalasi, ustozlik maqomi, shogirdlik mas'uliyati xususida munosabat bildirilgan. Ayni paytda buyuk mutafakkirning yoshlar tarbiyasi, ilm olish yo'lidagi sa'y-harakatlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Xuroson, Hirot, tazkira, an'ana, musohib, ilmi tolib, madrasa.

Annotation: the comprehensive creative world of Hazrat Alisher Navoi in the history of world literature has been causing heated debates and discussions among literature enthusiasts for centuries. The writing of commentaries on Navoi's work in a new interpretation creates the basis for a further increase in interest in the poet's legacy. In this article, the unique scholar of the time, the teacher-student problem described in Alisher Navoi's biographical dictionary “Majolis un-nafois,” the status of teacher, and the responsibility of apprenticeship are discussed. At the same time, the great thinker's efforts in the upbringing of youth and the pursuit of knowledge have been studied.

Key words: Khorasan, Herat, biographical dictionary, tradition, interlocutor, student, madrasa.

Аннотация: в истории мировой литературы обширный творческий мир Хазрата Алишера Навои на протяжении веков вызывает жаркие споры и дискуссии среди любителей литературы. Написание комментариев к творчеству Навои в новой интерпретации создает основу для дальнейшего повышения интереса к наследию поэта. В данной статье выражено отношение к вопросу учитель-ученик, изображенному в антологии Алишера Навои “Маджалис ун-нафоис”, статусу учителя, ответственности ученика. В то же время были изучены усилия великого мыслителя по воспитанию молодежи и приобретению знаний.

Ключевые слова: Хорасан, Герат, тазкира, традиция, собеседник, ученик, медресе.

Buyuk mutafakkir, daho shoir Alisher Navoiy o'z asarlarida zamonasining eng dolzarb masalalarini bayon etgan, teran falsafasi hamda hikmatlari bilan dunyo tamadduniga beqiyos hissa qo'shgan. Adibning ma'naviy boyligi barchamizni hayratga soladi. Adib ijodi millat hayotida katta tarbiyaviy ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Xususan, birinchi prezidentimiz Islom Karimov o'zining “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asarida: “Inson qalbining quvonch-u qayg'usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan kam topiladi. Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg'usi ham bizning ong-u shuurimiz, yuragimizga, avvalo, Navoiy asarlari bilan kirib keladi. Biz bu bebaho merosdan

xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik ko'p bahramand etsak, milliy ma'naviyatimizni yuksaltirishda jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda shunchalik qudratli ma'rifiy qurolga ega bo'lamiz”¹ – degan ta'riflarining o'ziyoq buyuk dahoning ijodi bashariyat ma'naviyati, tafakkuri uchun naqadar zarur manba ekanligiga yana bir bor amin bo'lamiz. Alisher Navoiyning ijodiy merosidan joy olgan ta'lim-tarbiya, ilm-ma'rifat hamda kamolot hosil qilish kabi dolzarb mavzular Navoiyning nafaqat ijodkor sifatidagi qiyofasini, balki ustoz, kezi kelganda shogird maqomidagi insoniy fazilatlarini aks ettirishi bilan ahamiyatga molik hodisa hisoblanadi. Adib qalamiga mansub

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma'naviyat”, 2015.

bir qancha asarlarda, xususan, “Mahbub ul-qulub”, “Vaqfiya”, “Xamsa” tarkibiga kiruvchi dostonlarda, manonqiblarda hamda “Majolis un-nafois” tazkirasida yoshlar ma’naviyati, kasb-u kamoloti xususida batafsil to’xtaladi. Yoshlarga homiylik qilib ularni moddiy va ma’naviy qo’llab-quvvatlaydi.

“Majolis un-nafois” tazkirasida o’z davrining esdalik yodnomasi sifatida, ijod ahli xususida ma’lumot beruvchi manba sifatida qiymatlidir. Bu asarda davr adabiy muhiti, madaniyati, ilm-fani, barcha san’at sohalarining rivoji haqida alohida mulohazalar bildirilganini, har biriga maxsus to’xtab o’tilgani va ayniqsa, ustoz va shogirdlik munosabati, ilm-fan, ma’rifat rivoji haqida Navoiyning o’ziga xos qarashlari mavjudligini ko’rishimiz mumkin.

“Majolis un-nafois” tazkirasida tadqiq etayotgan ustoz va shogirdlik munosabatlarini quyidagicha tasniflab o’rganish mumkin:

1. Har bir majlisda ustozlik maqomi va uning mas’uliyati xususida fikrlar bildirilishi.

2. Majlislarda shogirdlik darajasi va shogird mas’uliyati va burchlari xususidagi adibning qarashlari.

Tazkirada Navoiyning o’ziga xos shogirdlik mas’uliyati maqomi yaqqol ko’zga tashlanadi. Buning misolini “Majolis un-nafois” tazkirasini shayx “Xoja Qosim Anvor zikri bilan” boshlaganida ko’rish mumkin. Bu esa Navoiyning ustoziga bo’lgan hurmat-e’tiborning naqadar baland ekanligiga dalildir. Alisher Navoiy ko’plab zamonasining buyuk shayxlarini o’ziga ustoz deb biladi. Ular bilan muloqotda bo’lmasa-da, ularning ijodiy merosini o’qib-o’rganish orqali o’zini shogird sanaydi. So’fi Olloyor aytganidek: *Agar bo’lmasa yo’l boshlaguvchi pir, Solur bo’yununga shayton domi tazvir.* Mavlono Yahyo Sebak, Darvesh Mansur, Xoja Fazlulloh Abullaysiy, Xoja Yusuf Burxon, Abdurahmon Jomiy kabi ijodkorlar Navoiyning ustozlari hisoblanib, tazkirada bu siymolar zikri alohida qayd etilgan.

“Majolis un-nafois tazkirasida” ustoz-shogirdlik munosabatlarining o’ziga xos jihatlari yoritilganki, buni uchinchi majlis misolida ko’rishimiz mumkin. Xususan, bu majlisda Alisher Navoiy ustoz-shogirdlik munosabatlarini ikki xil ko’rinishda aks ettiradi. Birinchisi adibning ustozga bo’lgan

hurmati va sadoqati, ikkinchisi esa ustoz va shogirdning o’zaro do’stlik va maslakdoshlik, hamfikirlik munosabati. Bu majlisni adib Jomiy ta’rifi bilan boshlaydi. Ustoziga hurmat va ehtirom tuyg’ularini ta’rif-u tavsif etadi.

Ayrim ijodkorlar haqida ma’lumot berilarkan ularning shogirdlari ham zikr qilinadi. Xo’ja Fazlulloh Abullaysiy va Sayid Sharif, Yahyo Sebak va Darvesh Mansur, Abdurahmon Jomiy va Navoiy shu jumladandir. Ayniqsa, Mir Mahdum va Mir Qosimning ustoz-shogirdlik munosabatlari asarda o’ziga xos tarzda bayon etilgan. Mir Mahdum – Hazrati Mir Qosim’ga xalifa va farzand va mahbub masobasida erdi, otasi Makkadin Imom Ali Muso ar-Rizo ziyoratig’a Mashhad’ga keldi, qaytib Nishopurg’a yetganda kadxudo bo’lub mutavattin bo’ldi. Va anga uch farzand tangri inoyat qildi, kichikragi Mir Mahdum erdikim, oti Sayid Muhammaddur, shahrga tahsilg’a keldi va zohir ulumin takmil qilg’on chog’da hazrati Mir Qosimning zuhur va shuhrati vaqti erdi, ul hazrat xizmatig’a yetkach murid va vobasta bo’ldi va hazrat Mir aning tarbiyat va takmilig’a mashg’ul bo’ldilar² [2; 6-7-b].

Yuqoridagilardan ma’lum bo’ladiki: *Kimki, shogirdlikka chin dildan shod, bir kuni o’zi ham bo’lg’usi ustod* (Nosir Xusrav). Ya’ni, ustoz xizmatiga kamarbasta bo’lib, uning tarbiyati va takmilig’a mashg’ul bo’lsa, xizmatlarini qilib duosini olsa, bir kuni unga ham shogirdlari xizmat qiladi degan ma’no anglashiladi.

XV asr ikkinchi yarmi XVI asr boshlarida Hirot adabiy muhitida Navoiyning tutgan o’rni beqiyos. Adib atrofida olimlar, yozuvchilar, san’atkorlar turli sohadagi kishilarni yig’adi. Ularga har tomonlama ko’mak beradi, homiylik qiladi va ijodiy ishlariga rahbarlik qiladi. Turli adabiy kechalar va ilm majlislari tashkil qilinadi. Bundan tashqari, Navoiyning juda ko’p yoshlarni o’z tarbiyasiga olib, ularga moddiy va ma’naviy homiylik qilgani barchamizga ayon. *“Yoshligingda yig’gil bilimni, qarigach sarf qilg’il ani”* hikmati barcha yoshlarga chaqiriq sifatida aytilgandek go’yo. Ilm-fan fazilatini har bir yoshga, jumladan, shogirdlariga, o’rgatadi. Navoiy homiyligida kamol topgan

² Alisher Navoiy Mukammal asarlar to’plami. Yigirma tomlik. O’n uchinchi tom. “Majolis un-nafois”. – Toshkent: “Fan” nashriyoti, 1997. 300-b.

yoshlar qatoriga: Xondamir, Mir Asadulloh, Mir Ahadulloh, Mavlono Shohali, Hojimuhammad, Mirzobek, Vosifiy, Hiloliy, Qulmuhammad, Udiy, Sayfiy va boshqalarni sanab o'tishimiz mumkin. Xondamirning "Makorim ul-axloq", Zayniddin Vosifiyning "Badoye ul-vaqoye", Kamoliddin Behzod tomonidan yaratilgan san'at asarlari bugungacha yetib keldi. Bundan ko'rinadiki, Navoiy ustozlik maqomini har qanday vaziyatda his qila olgan. Shogirdlari g'amida bo'lib, tinchidan kechgan. Ularning ilm-u adabda, fasohatda, balog'atda komil inson bo'lishi uchun harakat qilgan. Va natijada, Navoiyning mehnati, sa'y-harakatlari natijasida yuqorida sanab o'tganimiz o'z davrining buyuklari yetishib chiqdiki, ular yaratgan asarlar bugunga qadar o'lmas manba sifatida avlodlarga xizmat qilib kelmoqda. Tazkirada ilm talabida bo'lgan bir qancha yoshlarning madrasaga kelgani sanab o'tilgan. Bu yoshlar qatoriga Mavlono Behishti, Mavlono Osimiy, Mavlono Asiriddin, Mir Husayn, Mavlono Zoyiriy va Mavlono Koneylarni keltiradi. Navoiy hazratlarining ustozlarga ehtiromi, shogirdlarga munosabati, ilm-ma'rifatga qarashlari "Majolis un-nafois" tazkirasida ma'lum ma'noda aks etadi. Navoiyning ijodini mutolaa qilish davomida ushbu mavzularga ko'p e'tibor qaratilganligiga amin bo'lamiz. Sababi Navoiydek daho ijodkor hamisha shaxs barkamolligi, millat kamoloti uchun xizmat qilgan desak, mubolag'a bo'lmas. Qur'oni karimda ham ilm-ma'rifatga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, Rasululloh sollallohu alayhi

vasallam ham ilm olishga hamisha insonlarni targ'ib qilganlar. Shu jumladan, mutafakkir adib Navoiy ham yoshlar ma'naviyati, ularning ta'lim va tarbiyasi xususida befarq bo'lmaydi. Yana shunisi ham muhimki, adib faqatgina shoirlar haqida emas, balki me'morlar, musiqachilar, hunarmandlar, naqqosh-musavvirilar, ustoz va shogirdlari, tolibi ilmlar, ular egallagan bilimlar haqida to'lqinlanib gapiradi. Bundan tashqari Navoiy tazkirasida ustoz-shogirdlik masalasini kuzatar ekanmiz, tazkirada Navoiyning daho ijodkor bo'lib yetishishida hissa qo'shgan ustozlar siymosi hamda Navoiy tarbiyasida ilm-fan, san'at, adabiyot olamiga kirib kelgan shogirdlar qiyofasi ko'z oldimizga gavdalanadi va bu holat tarixiy manba sifatida tazkiraning ilmiy-adabiy qiymatini oshiradi. Navoiy uchun hamisha kasb-hunar, ilm-ma'rifat hosil qilish, komillik sari harakat qilish muhim hisoblangan. Doimo yoshlarni komillik sari harakat qilishga undagan. O'zi ham hamisha ustozlarini rozi qilish uchun harakat qilgan. "Mahbub ul-qulub" asarida aytganidek:

Shogird agar shayxulislom yo qozi,
 Ustoz andin rozi, tangri rozi [3; 24-b].

Demak, yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqadiki, "Majolis un-nafois" tazkisasi Sharq pedagogikasiga munosib hissa bo'lib qo'shilgan asar sifatida ham qiymatga ega. Adibning axloqiy-ta'limiy, pedagogik qarashlari bugungi kundagi ta'lim-tarbiya jarayonida ham muhim vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: "Ma'naviyat", 2015.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. O'n uchinchi tom. "Majolis un-nafois". – Toshkent: "Fan" nashriyoti, 1997. 300-b.
3. Alisher Navoiy Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. O'n to'rtinchichi tom. "Mahbub ul-qulub". – Toshkent: "Fan" nashriyoti, 1998. 315-b.
4. Rahim Vohidov, Husniddin Eshonqulov. O'zbek mumtoz adabiyot tarixi. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi. Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. 528-b.
5. Internet ma'lumotlari.

M.O XAMDULLAYEVA,
 Samarqand davlat universiteti
 mustaqil izlanuvchisi

“XAZOYIN UL-MAONIY” KULLIYOTIDA SOMATIZMLAR TALQINI

Annotatsiya: maqolada Alisher Navoiy she'riyati timsollari haqida, umuman olganda, mumtoz adabiyot abadiyligini ta'minlagan talqinlar mohiyatini ochib beradi. Jumladan, olimning fikricha, mavzu-mundariyasi bilan ham, obraz-timsollar ko'lamini jihatidan ham butun bir xalqlar badiiy ijodiga tenglashadigan darajada bo'lgan Hazrat Alisher Navoiy she'riyatida Sharq-islom mumtoz she'riyatida ilohiy siymolar, tarixiy-afsonaviy shaxslar, epik qahramonlar badiiy obrazlariga ko'p bora murojaat etiladi.

Kalit so'zlar: *chehra, chehrayi maqsud, uzor, yuz, husn, mashuqa uzvlari, Alloh jamoli*

Аннотация: в статье рассматривается символика поэзии Алишера Навои, в целом раскрывая суть интерпретаций, обеспечивших вечность классической литературы. В частности, по мнению ученого, в поэзии Хазрата Алишера Навои, которая как по своей тематике-содержанию, так и по охвату образов-символов равна художественному творчеству целых народов, в поэзии восточно-исламской классической поэзии много обращений к художественным образам божественных деятелей, историко-легендарных личностей, эпических героев.

Ключевые слова: *лицо, желанное лицо, лицо, лицо, красота, конечности возлюбленного, красота Аллаха*

Annotation: the article discusses the symbols of Alisher Navoi's poetry, in general, revealing the essence of the interpretations that ensured the eternity of classical literature. In particular, according to the scientist, the poetry of Hazrat Alisher Navoi, which, in terms of both its subject-content and the scope of images-symbols, is equal to the artistic creativity of entire peoples, in the poetry of the Eastern-Islamic classical poetry, there are many references to the artistic images of divine figures, historical-legendary figures, epic heroes.

Key words: *face, desired face, face, face, beauty, beloved's limbs, Allah's beauty.*

Kirish. Ulug' mutafakkir, hassos shoir Alisher Navoiy o'z ijodiy faoliyati davomida faqatgina turkiy va forsiy she'riyatning boy tajribalarini o'zlashtirib olish bilan cheklanib qolmadi, balki mavjud an'analarning eng ilg'or jihatlarini yanada yuqori bosqichga ko'tardi, eng muhimi, Sharq she'riyatiga xos badiiyat xazinasini poetik durdonalarning go'zal namunalarini bilan boyitdi.

Ma'lumki, azaldan san'at, xususan, badiiy adabiyotning hamisha dolzarb va umuminsoniy mavzularidan biri sifatida ishq mavzusi tan olinadi. Bunga sabab, ilohiy kitoblarda yozilishicha, Yaratganning o'z yaratilqlarini, avvalo, o'z sevgan bandasi – Muhammad sallallohu alayhi vasallam uchun muhabbat bilan yaratganligidadir. Shu sababli bu mavzuda yaratilgan asarlar qancha vaqt o'tsa hamki, kishilar ong-tafakkuri, qalb-shuurida yashayveradi, xotiradan o'chmaydi.

Ma'shuqaning tashqi ko'rinishi, ya'ni yuz-ko'zi, qosh-qovog'i, kiprigi, burni, og'zi, labi, miyig'i, yonog'i, iyagi, baqbaqasi, bo'yni, ko'ksi, beli, qo'l-oyog'i, kafti, barmog'i, tirnog'i kabi uzvlari oshiqni hayajonga soladi va ushbu hayajon sababchisi bo'lgan go'zallik uzvini ta'riflash ehtiyoji yuzaga keladi. Asl mohiyati "ayollarga xushomad qilish" ma'nosini bildirgan g'azal janri

oshiqqa (shoirga) ma'shuqasi go'zalligini ta'riflash uchun qulay imkoniyat yaratadi [1: 395]. Natijada ma'shuqa hajrida o'rtangan oshiq tomonidan shunday betakror quyma misralar yaratiladiki, beixtiyor oshiq so'z bilan, Unga shoirning 7-8 yoshidan boshlab umrining oxiriga qadar yozgan o'zbekcha she'rlari kiritilgan. Ushbu to'plam tarkibida qariyb 2600 ta g'azal, 210 ta qit'a, 133 ta ruboiy, 86 ta fard, 52 ta muammo, 10 ta muxammas, 10 ta chiston, 13 ta tuyuq, 4 ta mustazod, 5 ta musaddas, 4 ta tarji'band, shuningdek, musamman, tarkibband, qasida, masnaviy, soqiynoma mavjud.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. "Xazoyin ul-maoniy" to'plami zamonasining ma'naviy hayoti haqida Navoiy hazratlari tomonidan yaratilgan o'ziga xos adabiy qomus bo'lib, shoir unga kiritilgan o'z she'rlarida hayotni, insonni, uning oliyjanob tuyg'u va intilishlarini ulug'lagan.

Shubhasiz, Hazrat Navoiyning eng katta ilmiy merosi – "Xazoyin ul-maoniy", ya'ni "Ma'nolar xazinasini" deb nomlangan to'plamidir. Shoir bu to'plamiga 1491-1496-yillarda tartib beradi va uning tarkibiga kirgan to'rt devonni inson hayotining to'rt bosqichiga qiyosan nomlaydi: 1-devon: "G'aroyib us-sig'ar"

– “Yoshlik g‘aroyibotlari”, 2-devon: “Navodir ush-shabob” – “Yigitlik nodirliklari”, 3-devon “Badoye’ ul-vasat” – “O‘rta yoshlik go‘zalliklari”, 4-devon – “Favoyid ul-kibar” – “Keksalik foydalari”. O‘z davridayoq xalq orasida “Chor devon” deb shuhrat qozongan ushbu asar mukammal yig‘ma devon sanaladi.

“Xazoyin ul-maoniy”ning tuzilish tarixini Alisher Navoiyning o‘zi “Xamsat ul-mutahayyirin”, “Munshaot”, “Muhokamat ul-lug‘atayn”, ayniqsa, ushbu to‘plamga maxsus yozgan “Debocha”sida mufassal bayon etgan. O‘zbek she‘riyatida biron ijodkor bunday mukammal devon tuzish darajasiga ko‘tarila olmagan.

Alisher Navoiy “Xazoyin ul-maoniy” to‘plami bilan nafaqat o‘zbek she‘riyatining janr va mavzu doirasini, balki badiiy obrazlar galereyasini ham yanada boyitdi.

Atoqli adabiyotshunos olim U.Qobilov o‘zining “Alisher Navoiy she‘riyati obraz-timsollar ko‘lami tadqiqiga doir” nomli maqolasida Alisher Navoiy she‘riyatining obraz-timsollar olami haqida fikr yuritib, unda Sharq mumtoz she‘riyati, jumladan, Navoiy lirikasi obrazlari ilohiy, adabiy va tarixiy turlarga bo‘lib tahlil etadi [2: 49]. Mutaxassislar Alisher Navoiy g‘azaliyotini uch turkumga, ya‘ni orifona, oshiqona va rindona g‘azallarga ajratishadi [3: 45]. Kuzatishlarimizga ko‘ra, ularning aksariyatida shoir somatizmlardan unumli foydalanadi. Jumladan, mutaxassislar tomonidan o‘z mazmuni bilan butun kulliyotning ochqich – fотиha g‘azali, “Xazoyin ul-maoniy”ga kirish yo‘li sifatida baholangan “G‘aroyib us-sig‘ar” devonidagi dastlabki “Ashraqat min aksi shamsil-ka’si anvor ul-hudo” matla’li g‘azalidayoq shu holat kuzatiladi:

Toki ul maydin ko‘ngul jomida bo‘lg‘ach jilvagar
Chehrai maqsudi mahv o‘lg‘ay ham ul dam moado.

Atoqli navoiyshunos olim A.Rustamovning fikricha, bayt zohiriy va botiniy ma’noga ega, ya‘ni uning zohiriy ma’nosi: “Ul may vositasida ko‘ngul jomida maqsud chehrai - yuzining jilvalanishi bilan undan o‘zga narsalar yo‘q bo‘ladi”, degan so‘zdan iborat. Ichki haqiqiy mazmuni: “Kishi vahdatga erishib, uning ko‘nglida mavjudotning azaliy va abadiy bo‘lgan va ularni bor qilib turgan umumiy jihati jilvalansa, ularning boshqa xususiy bir-biriga qarama-qarshi jihatlari g‘oyib bo‘ladi”, degan fikrdan iborat [4: 15].

Ko‘rinadiki, baytda ko‘rish maqsad qilingan yuz – Alloh jamoli ma’nosidagi chehrai maqsud birikmasida somatizmning qo‘llanishi baytning tasavvufiy mazmunini to‘la ochib berishga xizmat qilgan. Mutaxassislar tomonidan ushbu g‘azal va undan keyingi beshta g‘azal hamd yo‘nalishida deb qayd etilgan.

Kuzatishlarimizdan ma’lum bo‘ldiki, ularning barchasida ham somatizmlar qo‘llanib, ular tasavvufiy

ma’noni tashiydi. Jumladan, “G‘aroyib us-sig‘ar” devonidagi “Zihi husnuzguzuridun tushub har kimga bir savdo” matla’li ikkinchi g‘azal hajm jihatidan odatdagidan yirik – o‘n bir baytli bo‘lib, shoir uning to‘rt baytida, ya‘ni 4- 6- 7- va 11-baytlarida somatizmlardan foydalanilgan. G‘azalning 4-baytida shoir yuz so‘zini qo‘llaydi:

Ne ishka bo‘ldi beorom ko‘zgu aksidek Majnun,
Yuzi ko‘zguksida aksini gar ko‘rguzmadi Laylo.

Baytning umumiy mazmuni uning oldingi g‘azal mazmunining davomi ekanligini ko‘rsatadi, ya‘ni ushbu g‘azalda ham hamd – Alloh vasfi yetakchilik qiladi. Baytning zohiriy (tashqi) ma’nosini quyidagicha talqin qilish mumkin: agar Alloh yuzining ko‘zguksida Layli o‘z aksini ko‘rsatmaganida, Majnun ko‘zgu aksidek bir arzimagan ish uchun beorom bo‘lmasdi. Botiniy ma’nosiga qaraydigan bo‘lsak, agar Majnun (oshiq) Alloh (ma’shuqa – ishq mazhari) yuzi ko‘zguksida Layli o‘z aksini – yuzini ko‘rsatmaganda, ko‘zguda birovning aksini ko‘rishdek bir ish uchun bunchalik oromini yo‘qotmagan, ya‘ni Majnun (jinni) nomini olmasdi. Oshiq – solikning Alloh tajalliysiga yetishish yo‘lida u yaratilgan (ma’shuqa)ning yuzida Yaratganning jamoli aksini ko‘rib, unga, ya‘ni majozga oshiq bo‘ladi. Bu haqiqiy jamolga (Allohga) yetishish yo‘lidagi bir bosqich sanaladi.

G‘azalning 6-7-baytlarida ham ushbu masala – Alloh tajalliysini u yaratgan narsalarda ko‘rish bayon qilinadi. Bunda ham somatizmlar muhim ahamiyat kasb etadi:

Nedin yuz gul ochar ishq o‘tidin bulbul kabi Vomiq,
Yuzingdin gar uzori bog‘ida gul ochmadi Uzro.

Kalomingni agar Shirin labida qilmading muzmar
Nedin bas la’l o‘lur Farhodning qon yoshidin xoro.

Baytlarning zohiriy ma’nosi quyidagicha: Alloh yuzidan Uzro yuzining bog‘ida gul ochilmaganda, ya‘ni Alloh o‘z betakror husnidan Uzroga bermaganida, Vomiq uning ishq o‘tida bulbul kabi yonib kuylashidan gul yuzini qanday qilib ochgan bo‘lardi? Agar so‘zingni Shirin labi zamirida yashirmaganingda, Farhodning qonli yoshidan qattiq tosh la’lga aylanarmidi? Ularda yashiringan botiniy, tasavvufiy ma’noni atoqli navoiyshunos N.Komilov shunday talqin qiladi:

Alloh tajallisi borliqni qamrab olgani, harakatga keltirib turishi, jumladan, inson zoti, uni o‘rab olgan muhit, hayotning balqib, yashnab turishi, tovlanishlar, intilish va talpinishlar, yaralish va buzilishlar, muhabbatning uzilmas torlari-yu, azob-nashidasi – hammasi shu Tajalliyot zuhuridan ekanligi tasvirlanadi. Ammo buni hamma ham idrok etmaydi, vahdat ul-vujudning bu sirini anglagan odam, hayot ma’nosi, insoniylik ma’nosini chuqurroq anglab yetadi, deydi shoir. Shu qudrat, shu kuch Vomiqni Uzroga, Majnunni Layliga, Farhodni Shiringa oshiq qilib qo‘ygan. Chunki

Uzro, Layli, Shirin jamoli – har biri bir mazhar. Ya’ni, tajalliyot nuri aks etgan nuqta, markaz. Vomiq, Majnun, Farhod bu nuqtalarda ilohning nurini ko’rib, unga bexud va beqaror bo’lib talpinadilar, shu mazharga yetishish bilan Allohning o’ziga oshiqliklarini isbotlaydilar, ya’ni, sifatdan Zotga qarab boradilar.

Natijalar va muhokama. Ta’kidlash joizki, Navoiy she’riyatining timsollar olamiga doir fikr va qarashlar aksariyat holda alohida tadqiqot doirasida emas, biron-bir g’azal tahlili jarayonida bildirilgan, yoki umuman Navoiy lirikasiga bag’ishlangan tadqiqotlar tarkibida ifoda etilgan. Vaholanki, ular alohida maxsus tadqiqot doirasida o’rganilishi lozim.

Ey, saffhayi ruxsoring azal xattidin insho,
Debochayi husnunga abad nuqtasi tug’ro.

G’azalning matlasida Allohga murojat-munojot shakliga ega: ey, ibtidosiz qadimiylik xati bilan yuzi sahifalari bunyod bo’lgan, husni kitobining boshlanishida abadiylik muhrini sarlavha qilgan zot. Baytda lirik qahramon Allohning nafaqat zamon va makondan tashqarini, balki zamon va makonni ham qamrab oluvchi, zamon va makonni yaratuvchi azaliy va abadiy Zot ekanligini ta’kidlab, bu Zotning husn-u jamoli, qudrati va yaratuvchiligiga hamd aytib, unga qilgan murojaati o’z aksini topgan.

G’azalning 4-baytida yuz va turra (soch o’rimi, soch) somatizmi qo’llanilgan:

Kun shakli yuzing sajdasidin bo’ldi mushakkal,
Tun turrasi qahrining yelidin bo’ldi mutarro.

Ko’rinadiki, yuz va turra somatizmlari baytning badiiy qimmatini, badiyatini oshirishda katta ahamiyat kasb etgan.

Sun’ung qilibon subhni ul nav’ musha’bid
Kim, mehr o’tin og’zidin etar har nafas ifsho.

Baytda Allohning buyuk yaratuvchanlik xususiyati ulug’langan: Allohning shunday mohirlik san’ati borki, u shu san’ati bilan tongni shu qadar nayrangboz, ko’zboyloqchi qilibdiki, u (tong) har nafas quyosh o’tini og’zidan oshkor qilib turadi. Shoir nazdida tunning kun bilan o’rin almashishining o’ziyoq Yaratganning bir mo’jizasi sanaladi. Albatta, mo’jiza tomoshasiz, tomosha esa ko’zboyloqchisiz bo’lmaydi. Tong otishi

oldidan osmonning shafaq tusga – olovrangga kirishini shoir tomosha paytida tong – ko’zboyloqchining og’zidan olov chiqarishiga qiyoslagan. Bularning hammasi Allohning izniz sodir bo’lmaydi va uning yaratuvchanlik xislatidan darak beradi.

Keyingi baytda Alloh husni tavsifi og’iz somatizmi vositasida davom ettiriladi:

Go’yoki kuyar og’zi ul o’t hirqatidinkim,
Anjumdin o’lur obilalar girdida paydo.

Kishining biror a’zosi, masalan, qo’li biror baxtsiz tasodif tufayli kuyib qolsa, kuygan joyda suvli pufakchalar – qavariqlar paydo bo’ladi. Shoir baytda ana shu hayotiy hodisaga ishora qilib, oldingi baytda zikr etilgan o’sha olov haroratidan go’yo og’zi kuyib, atrofida yulduzlardan suv pufakchalari – qavariqlar paydo bo’lishini ta’riflaydi.

G’azalning sakkizinchi baytida ham yana yuz somatizmiga uning ma’nodoshi *husn* so’zi bilan birga murojaat qilinadi:

Gul yuzida bulbul sening asroringa notiq,
Sham’ o’tida parvona sening husnunga shaydo.

Baytda Allohning qudrati bilan gul yuzining ishqida kuygan bulbul – oshiqning o’z ishq ta’rifini keltirish orqali Yaratgan sirlarini oshkor etishi – ochib tashlashi, Bunda shoir gul – bulbul va sham – parvona timsollarini yonma-yon – parallel qo’llaydi. Zero, bu muvoziylik ishqning boshqacha nomlarini anglatadi.

Xulosa. Ko’rinadiki, tahlil markaziga olingan g’azallarda qo’llangan yuz, ko’z, soch, lab, til kabi somatizmlar shoirning badiiy niyatini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etib, g’azallarining badiiy qimmatini oshirishga ham xizmat qilgan.

Alisher Navoiyning eng yirik lirik merosi – “Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti o’zbek mumtoz she’riyatida somatizmlarning qo’llanishi bo’yicha ham muhim ahamiyatga ega sanaladi. Chunonchi somatizmlar g’azalga estetik ruh bag’ishlash bilan birga, tasvir obyektining timsolini yanada boyitishga, shoir badiiy niyatini yanada aniqroq tasvirlashga xizmat qiladi. “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotiga kiritilgan orifona, oshiqona va rindona ruhdagi g’azallarida somatizmlar haqida ham shunday fikrlarni bildirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Д.Куронов ва бошқ. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademyashr, 2013. 58—395-бетлар
2. Qobilov U. Alisher Navoiy she’riyati obraz-timsollar ko’lami tadqiqiga doir/Alisher Navoiy adabiy va ilmiy merosini o’rganish masalalari. Xalqaro 69-ilmiy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2024. 49-54-betlar.
3. Sirojiddinov Sh. va boshq., ko’rsatilgan manba, 45-b.
4. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 3 том. Фаройиб ус-сиғар. – Т.: “Фан”, 1988. 23-б.
5. Навоий ғазалиёти талқинлари/Тузувчи Н.Жумахўжа. – Тошкент: “O’zbekiston”, 2018. 15-б
6. Нажмиддин Комилов. Маънолар оламига сафар. – Тошкент: “Тамаддун”, 2012.

Islomiddin XOLMURODOV,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti
o'zbek filologiyasi fakulteti tayanch doktoranti

ALISHER NAVOIYNING "HAYRATU-L-ABROR" DOSTONIDAGI HIKOYATLARNING DOSTON KOMPOZITSIYASIDA TUTGAN O'RNI

Annotatsiya: ushbu maqolada Alisher Navoiyning "Hayrat ul-Abror" dostonidagi hikoyatlarning estetik xususiyatlari va tasnifi tadqiq etiladi. Tadqiqot davomida Navoiyning badiiy mahorati, hikoyatlardagi ramziy ma'nolar, tasavvufiy g'oyalar va didaktik unsurlar atroflicha o'rganildi. Hikoyatlar mavzu, g'oya va badiiy xususiyatlariga ko'ra tasniflandi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, "Hayrat ul-Abror" dostonidagi hikoyatlar nafaqat o'z davri, balki bugungi kun uchun ham estetik va ma'naviy ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, "Hayrat ul-Abror", hikoyat, estetika, tasnif, tasavvuf, didaktika, ramz

Аннотация: в этой статье будут рассмотрены эстетические особенности и классификация жалоб в эпосе Алишера Навои «Хайрат уль-Аброр». В ходе исследования были подробно изучены художественное мастерство Навои, символы в жалобах, мистические идеи и дидактические элементы. Жалобы были классифицированы по предмету, идее и художественным характеристикам. По результатам исследования установлено, что жалобы в эпосе «Хайрат уль-Аброр» имеют эстетическое и духовное значение не только для своего времени, но и для сегодняшнего дня.

Ключевые слова: Алишер Навои, «Хайрат уль-Аброр», хикаят, эстетика, классификация, мистика, дидактика, символ

Annotation: this article explores the aesthetic characteristics and classification of the stories in Alisher Navoi's epic "Hayrat ul-Abror". During the study, Navoi's artistic skills, symbolism in stories, mystical ideas and didactic elements were studied in detail. Stories were classified according to their subject, idea and artistic characteristics. According to the results of the study, it was found that the stories in the epic "Hayrat ul-Abror" have aesthetic and spiritual significance not only for their time, but also for today.

Key words: Alisher Navoi, "Hayrat ul-Abror", wisdom, aesthetics, classification, mysticism, didactics, symbol

Ma'lumki, islom olamida xamsachilik an'anasi qariyb IX asr avval boshlangan bo'lsa, ushbu asr davomida yuzlab ijodkorlar tomonidan minglab "Xamsa" asariga javob tariqasida yozilgan asarlar mavjud. Ushbu asarlarning orasida ham nihoyatta mazmunga boy teran mushohadali asarlar ham talaygina. Ana shunday nodir asarlar orasida o'zining beqiyos o'rni bilan ajralib turadigan yana bir "Xamsa" dostoni shubhasizki, Hazrat Navoiy qalamiga manub bo'lgan "Xamsa" asaridir.

Alisher Navoiy „Xamsa“sining falsafiy-didaktik dostoni „Hayrat ul-abror“ asari o'ziga xos kompozitsion butunlikka ega. Bu butunlikni

ta'minlovchi vositalar, tamoyillar mavjud. Dostonning muqaddima qismi –kirishboblari ham o'ziga xos kompozitsiyaga ega.Ya'ni bir bobdan ikkinchi bobga o'tilar ekan, o'quvchi yangi-yangi mazmun qirralarini kashf etib boradi, o'qish davomida turfa hissiy holatlarni boshdan kechiradi, lekin bu hissiyotlarning barisi bir nuqtaga –diniy-ilohiy, ma'rifiy markaz atrofida ekani anglashiladi. Mazkur ilmiy ishimizda dostonning muqaddima qismi obyekt sifatida olinib, undagi ayrim kompozitsiya vositalari tahlili maqsad qilingan.

Kompozitsiya (lot. Compositio –tuzib chiqish, tartibga solish) –aniq g'oyaviy-badiiy

niyat taqozosiga ko'ra badiiy unsurlarning asar to'qimasidan joy olishi, asar qismlari, boblari va epizodlarining o'rinish tartibi, obrazlarning bir tizimga uyushishi, ularning o'zaro muomalamunosabatlarining ifodalanish tarzi, tasvir vositalarining muayyan maqsadga xizmat qilishi, tasvirda muvofiqlik va me'yordir. Qisqasi, kompozitsiya yozuvchi niyati asosida asar badiiy to'qimasining tuzilishi. 1. Kompozitsiya badiiy asarda ijodkor diqqat markazining, uning oldida turgan badiiy vazifaning aniqligi, shunga nisbatan asardagi katta va kichik qismlar hamda obrazlarning joy-joyiga qo'yilishi va ijodkor tomonidan o'sha markaz va badiiy vazifaga nisbatan tasvir me'yori va muvofiqligiga rioya qilishdan iboratdir, deb qarash kerak.¹ Dostondagi maqolotlar hamda ular mohiyatini yoritib beruvchi hikoyatlar shoir g'oyaviy-badiiy niyatini ifodalovchi bir butunlik bo'lsa, asar boblarining o'rinish tartibi ham g'oyaviy ahamiyatga ega. Xususan, bu besh xazina- „Xamsa“ning umumiy g'oyasida Inson omili, uning komilligi asoslari yotar ekan, ushbu insonlik, komillikning negizi uning ko'nglida ekanligi sababidan birinchi dostonning kirish qismida Navoiy insonni, avvalo, uning ko'ngli bilan tanishtirishdan boshlab, ko'ngil hayratlari boblarini kiritgan. Sharq so'z san'atining durdonalari „Kalila va Dimna“ bilan „Ming bir kecha“ asarlari misolida kompozitsion talablarga nazar tashlaydigan bo'lsak, bu qissalar kompozitsion qurilishi jihatidan nisbiy poetik sistema shaklini namoyon etadi. Negaki bu ikki asar bir qarashda hikoyatlar to'plamiga o'xshab tuyulsa ham, turkumga xos mavzu xilma-xilligi, mazmun tarqoqligi, fabulaviy noizchilikdan yiroq, bir butun kompozitsiyaga ega³. „Kalila va Dimna“da qolip-kompozitsiya vazifasini „Kalila va Dimna“ qissasi bajaradi. „Xamsa“ ning birinchi dostoni ham o'ziga xos bir butunlikka ega. Biz o'ylaymizki, „Xamsa“da bu vazifani „Hayrat ul-abror“, „Hayrat ul-abror“ uchun esa bu vazifani uning debocha (kirish boblari) qismi bajargan. Ya'ni bu boblar asar mohiyati haqida yaqqol tushuncha bera oladigan qismlardir. Uch hayrat bobida ko'ngilning malak, mulk, va badan mulki olamidagi sayri va bu sayrlardan tug'ilgan hayrati orqali uning ma'rifati

darajalari oshib boraverishi va natijada u o'zini va Yaratganni tanishi ifodalangan. Hayrat bu hissiy holat. Bejizga Xoja (ko'ngil) hayratdan so'ng Alloh ma'rifatiga erishmaydi. Negaki Yaratganni aql bilan emas, his-tuyg'u bilan anglash, tuyish mumkin. Hislar makoni esa faqat ko'ngildir. Kompozitsiya tushunchasi badiiy asarning barcha sathlariga taalluqli, uning qaysi sathi haqida gap ketmasin, qurilishining ayni shu aspekti diqqat markazida turadi. „Hayratul-abror“ dostonining kirish boblarida asosan, kompozitsiyaning badiiy nutq shakllaridan– hikoyalash va tavsifdan foydalanilgan. Xususan, hamd va munojotlarda tavsif ustunlik qilsa, hayrat boblarida hikoyalash, na'tlarda esa har ikkisi aralash holda kelgan. Asarning kirish boblaridagi kompozitsiya vositalari quyidagilar:

Asar sarlavhasi, lirik kirish, lirik chekinish, lirik xotima Peyzaj Buyumlar tasviri.

Xamsachilik an'anasiga ko'ra, ushbu beshlikning birinchi dostoni so'fiyona-falsafiy, pandona ruhdagi doston. Dostonning kirish boblaridan asar sarlavhasining mazmuni yaqqol bilinib turadi. Yaxshilik bilan nom chiqargan kishilar –Rasuli akramning solih ummatlari Naqshbandiy, Xoja Ahror Valiy, Abdurahmon Jomiy hamda Nizomiy va Xusrav Dehlaviylarning tavsifi doston muqaddimasida bayon etiladi va bu holat dostonidagi maqolot va hikoyatlar uchun ma'lum bir ma'noda ochqich vazifasini o'tagan. Negaki, Navoiy „Saddi Iskandariy“ning xotimasida „Xamsa“ni yozishni qanday boshlagani taassurotlari to'g'risida yozar ekan, „...boshlab ko'nglim rag'bat bilan „Hayrat ul-abror“ni yozar ekanman, u el-ulusni hayratga solib yubordi,“qabilidagi fikrlarni bildiradi. Demak, shoir doston nomlanishida shumuddaoda bo'lgan bo'lsa ajab emas. Lirik kirish, chekinish, xotima. Mazkur boblarda kompozitsiyaning lirik kirish, lirik chekinish va lirik xotima kabi vositalarini kuzatishimiz mumkin. Miqdor jihatidan bu vositalarning qo'llanilishi teng emas. Xususan, lirik kirish o'n sakkizinchi bob –birinchi hayrat bobidagina uchrasa, lirik chekinish o'n to'rtinchi va o'n yettinchi boblardagina mavjud. Lirik xotima esa bu ikkisiga nisbatan ko'proq, ya'ni o'n ikki bobda lirik xotima bor. Bu turlichalikning

¹ M. Qo'shjonov. Hayot va mahorat. –T, 1962.

sababini mumtoz badiiy asarga xos xususiyat deb tushunamiz, albatta. Lirik kirish: (XVIII bob)

Subhdur, ey soqiy, etib mehr fosh,
Tut manga bir jom nechukkim quyosh.
Tong qushi chun berdi payomi sabuh,
N o'sh etayin bir-ikki jomi sabuh.

O'n yettinchi bobda shoir o'quvchiga ko'ngilning tavsifini boshlar ekan, fikridan to'xtab, o'ziga savol berib qoladi, ya'ni fikran chekinadi. Lirik chekinish: (XVII bob)

Eyki, k o'ngul vasfi bayon aylading,
Senbu k o'ngulni ne gumon aylading.

va bu ko'ngil g'uncha emas, qon ekanligi kabi mulohazalarida davom etadi. Ma'lumki, birinchi bobda „Bismillahir rohmanir rohiym“ jumlasining mazmuni kitobat san'ati orqali keng mushohada qilib berilgan, tahlil qilingan. Bob yakuniga kelib ikki qavm –ahli rad va ahli qabul uchun bu oyat harflarining ikki xil ahamiyat kasb etishi aytiladi:

Azmida ul qavmg'a dog' uzra dog',
Qati'da bu xaylg'a bog' uzra bog'.

Bu fikrlarning so'ngida shoir o'zi uchun chiqargan xulosasi lirik xotima hisoblanadi. Chunki unda subyektivlik bor. Lirik xotima:

Istabon, ey xasta Navoiy, navo,
B o'yla safarg'a qilur ersang havo.
Y o'l yomon-u yaxshisidin yema g'am,
Bismilloh, degil-u q o'yg'il qadam

Birinchi munajat, ya'ni uchinchi bob yakunida borliqni yaratishdan asosiy maqsad olamning hikmati va gulto'ji, koinotning mohiyati inson ekanligini alohida iftixor va shukronalik bilan qayd qilib o'tadi va xotima qiladi:

Ayla Navoiyni burun odamiy,
Kim b o'la olg'ay bu haram mahrami.

Dostonning kirish boblarida kompozitsiyaning, asosan, yuqorida ko'rib o'tilgan vositalarini kuzatishimiz mumkin. Buyumlar tasviriga peyzaj tarkibidagi osmon jismlarini –sayyoralar tasvirini, Eram bog'idagi gullar va daraxtlarning tasvirini kiritishimiz mumkin. Demak, bunda buyumlar tasviri kompozitsiya vositasi peyzaj kompozitsiyasi vositasi tarkibida, bir-biriga bog'liq holda, bir-birini to'ldirib kelgan. Bu vositalar doston kompozitsion butunligini ma'lum bir ma'noda ta'minlashga hissa qo'shgan vositalar, tamoyillardir. Bu kompozitsion bo'laklar bir-biri bilan mustahkam aloqada bo'lib, ular mutasavvuf shoirning tasavvufona qarashlarini to'ldirib boradi.

“Hayrat ul -abror” falsafiy didaktik xarakterga ega bo'lib, bu janr Navoiyga qadar ham mavjud edi, ammo aynan Navoiy bu janrda yozilgan mazkur asari orqali janrga o'zgacha jon kirgiza oldi.

Taniqli sharqshunos Bertels “Hayratu-l-abror”ning shu xil jihatlarini ko'zda tutib, “Nizomiy” deb nomlangan monografiyasida quyidagilarni yozgan edi:

“Garchi Navoiy poemasi “Mahzan ul asror”ga javob tarzida yozilgan dostonlarning ko'pchiligi singari so'fiyona rangga ega va undagi tamsillarning syujetlari esa so'fiy avliyolar haqidagi maniqiblardab olingan bo'lsa ham, lekin bu deyish mumkin, Nizomiy “Mahzan ul asrori”ga javob tarzida yozilib, Nizomiy dostoni uchun xarakterli bo'lgan siyosiy o'tkirlikni saqlab qola olgan yagona asardir.”²

2 Ўзбек адабиёти бўстони – Алишер НАВОИЙ ҲАЙРАТУЛ-АБРОР Тошкент Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти 1989

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik. 7-tom. Hayrat ul-abror. – Toshkent: Fan, 1991.
2. Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. –Toshkent: Fan, 1961.
3. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: Movarounnahr, 1996.
4. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1979.
5. G'anieva S. “Hayrat ul-abror”da tasvir va ifoda. – Toshkent: Fan, 1988.
6. Qayumov A. Asarlar. 6 jildlik. 1-jild. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2008.
7. Hasanov S. “Hayrat ul-abror”ning badiiyati va mavzu ko'lami. – Toshkent: Fan, 1981.
8. Семёнов А.А. Алишер Навои. Жизнь и творчество. - Москва: Издательство восточной литературы, 1960.

Maftuna OMONKELDIYEVA,

Mustaqil tadqiqotchi

tur281094@gmail.com

PUBLITSISTIKANING BADIY – ESTETIK IMKONIYATLARI: XAYRIDDIN SULTONOV ASARLARI MISOLIDA

Annotatsiya: mazkur maqolada publitsistikaning badiiy- estetik imkoniyatlari Xayriddin Sultonov ijodi misolida tahlil qilinadi. Yozuvchi ijod yo'li mobaynida publitsistika va badiiy tafakkur uyg'unligini ta'minlashga erishgan. Adib ijod mahsulidan joy olgan asarlarda fakt va voqealar quruq bayondan qochib, badiiy obrazlar, xalqona timsollar, milliy qadriyatlar, xalq hayoti, ijtimoiy haqiqatlar orqali yoritib borilgan. Xayriddin Sultonning til va uslub xususiyatlari ham o'ziga xos bo'lib, unda xalq ichida mashhur bo'lgan iboralar falsafiy umumlashmalar bilan uyg'unlashadi. Natijada publitsistik matn o'quvchini yangi ma'lumot bilan tanishtiribgina qolmay, balki estetik zavq uyg'otadi, ma'naviy poklanishga chorlaydi. Xayriddin Sultonov publitsistik merosida badiiylik va estetik janr imkoniyatlarini kengaytirib, o'zbek publitsistikasini san'at darajasiga ko'targan ijodkor sifatida namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: *publitsistika, obrazlilik, estetik zavq, "Onamning yurti", "Odamlardan tinglab hikoya", "Bobo shunday der edi...", "Onaxonning aytishicha...", "Saodat sohili", "G'ulomgardish".*

Аннотация: в данной статье анализируются художественно-эстетические возможности публицистики на примере творчества Хайриiddина Султонова. В течение своего творческого пути писатель сумел объединить публицистику и художественное мышление. В своих произведениях автор умело избегал сухого изложения событий, передавая социальные истины через художественные образы, народные символы, национальные ценности и повседневную жизнь народа. Стиль и особенности Хайриiddина Султонова уникальны: он сумел сочетать широко распространённые народные выражения с философскими обобщениями. В результате его публицистика не только знакомила читателя с новой информацией, но и дарила эстетическое наслаждение, побуждала к нравственным размышлениям. Хайриiddин Султонов расширил возможности художественных и эстетических жанров, проявив себя как писатель, возведший публицистику до уровня искусства

Ключевые слова: *публицистика, образность, эстетическое наслаждение. "Родина матери", "Слушая людей", "Так говорил дед...", "По словам матери...", "Берег счастья", "Гуломгардиш".*

Annotation: this article analyzes the artistic and aesthetic possibilities of journalism through the examples of Khayriddin Sultanov's creative work. Throughout his carrer, the writer managed to combine journalism with artistic thinking. In his works, the author skillfully avoided a dry narration of events and conveyed social truths trough artistic images, folk symbols, national values, and people's daily lives. Khayriddin Sultanov's style and peculiarities are unique, as he managed to harmonize widely known folk expressions with philosophical generalizations. As a result, his journalistic writings not only introduced the reader to new information, but also evoked an aesthetic pleasure and moral contemplation. Khayriddin Sultanov expanded the opportunities of artistic and aesthetic genres, establishing himself as a writer who raised journalism to the level of art.

Key words: *journalism, imagery, aesthetic pleasure. "Onamning yurti", "Odamlardan tinglab hikoya", "Bobo shunday der edi...", "Onaxonning aytishicha...", "Saodat sohili", "G'ulomgardish".*

Kirish. O'zbek publitsistikasida Xayriddin Sulton o'zining hayotiylikka yaqin, xalqona tili va milliy ruhni yuksaltirishga qaratilgan asarlari bilan ajralib turadi. Uning maqolalari, esselari, turkum kitoblari publitsistikada ma'naviy- axloqiy qadriyatlarni targ'ib qilish, milliy uyg'onish g'oyalarini singdirish, jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni xalqona uslubda yoritib berishga erishgan publitsist yozuvchidir. Xayriddin Sulton – O'zbek adabiyoti va matbuotida atoqli yozuvchi, jurnalist va publitsistlardan biridir. Adibning "Boburiynoma", "Boburning tushlari", "Umr esa o'tmoqda", "Onamning yurti", "Bir oqshom ertagi" kabi kitoblaridagi hikoya, qissa, esselari kitobxonlar e'tiborini qozongan. Adabiyotshunos Umarali Normatov yozuvchi Xayriddin

Sultonov ijodi haqida o'z fikr va mulohazalarini keltirib o'tgan: "Dunyoning siri", "G'ulomgardish", "Qog'oz gullar" "Saodat sohili", "Yozning yolg'iz yodgori", "Ko'ngil ozodadur..." kabi qissa, hikoyalari, "Andisha", "Shoirona", "Boburning tushlari" singari badialari o'tgan asr oxirgi choragi milliy adabiyotimiz taraqqiyotida munosib o'rin egallaydi. Bu asarlar shaxs jumbog'i, inson ruhiyatidagi sirli - sehrli xususiyat, holatlarni alohida bir nazokat bilan teran anglash hamda nafosat tuyg'usiga yo'g'rilgan holda ifoda etish san'ati bilan milliy nasrimizda o'ziga xos hodisaga aylandi" deydi. [1:5] Publitsistika adabiyot predmetining ijtimoiy hayotga eng yaqin bo'lgan janrlaridan biri hisoblanadi. U jamiyatning dolzarb muammolarini yoritish, xalqning ichki dunyosini aks

ettirish, shaxs va zamon o'rtasidagi munosabatlarni ochib berish imkonini beradi. Shu jihatdan publitsistikaning nafaqat informatsion, balki badiiy-estetik ahamiyati ham beqiyosdir.

Asosiy qism. Publitsistika lug'aviy ma'nosidan ham ko'rinib turibdiki, davrning ijtimoiy, siyosiy va boshqa dolzarb masalalariga bag'ishlangan adabiy ijod turidir. Unda publitsist biror - bir voqea - hodisa yoki mavjud muammo yuzasidan aniq fikrni aytadi. Shu bilan birga o'z mahoratini ishga solgan holda, turli xil bo'yoqlardan foydalanib, mushtariylarning hissiyotiga ta'sir qiladi, ongini qitiqlaydi yoki bosh qotirishga chorlaydi. Bir qaraganda publitsistika taroziga ham o'xshaydi. Uning bir pallasida badiiy adabiyot, ikkinchi pallasida esa jurnalistika turadi. Badiiy publitsistik janrlar – ocherk, esse, feleton, pamfletlarda badiiy adabiyot unsurlari ko'zga tashlanadi. Ularda obrazlilikka asoslanib, o'xshatish, mubolag'a, sifatlash kabi badiiy vositalardan keng foydalaniladi. Tahliliy maqola, siyosiy sharhlarda fakt, dalil, tahlil kabi jurnalistik nuqtai nazar namoyon bo'ladi. Ammo bu ikki holatda ham badiiy adabiyot yoki jurnalistik qarashlardan butunlay yiroqlashmaydi. Yuqorida keltirib o'tilgan jihatlar bilan adabiyot va jurnalistika bir - biriga chambarchas bog'langanligi nazarda tutiladi.

Shu bilan birga, u ijtimoiy adolatsizlik, yoshlarning ma'naviy tarbiyasi, jamiyatdagi yangilanishlar haqida ham o'zining teran fikrlarini keltirib o'tgan. Mushtariylarni kitob mutolaasiga olib kirishda yozuvchilardan katta mehnat va yozuvchilik mahorati talab qilinadi. O'qilayotgan asarda rang - baranglik, sodda til, xalqona uslublar bo'lsagina, bu maqsadga erishish oson kechadi. Henri Van Dayk o'zining "Amerika ruhi" maqolasida aytib o'tganidek, "Adabiyot bu – tabiat va hayotning ma'nosini muallif shaxsiyati ta'siri ostida paydo bo'lgan jozibali va qudratli so'zlar bilan, doimiy qiziqish uyg'otadigan badiiy shakllarda talqin qilinadigan asarlardir". [2: 107]

Yozuvchi qissa, hikoyalari uchun, asosan, oddiy odamlarni qahramon qilib olgan. Ularning ruhiy kechinmalarini ishonchli va ta'sirchan gavdalantiradi. "Chollar palatasi" hikoyasida kuz manzarasini yozuvchi bunday tasvirlaydi: "Yonbosh qishloqqa kuz erta tushdi. Kechagi yashilligidan ayrilgan za'faron barglar mungli shivirlab, so'ngsiz hasratini ifoda qilmoqchiday qo'nimsiz tentiraydi. Achchiq izg'irin allaqayerdan qor sharpasini haydab keldi, g'ofil kimsalarni qilichini ko'tarib qish kelayotganidan ogoh etgan kabi birdan qora sovuq tushdi. Odamlar o'tin-ko'mir, issiq kiyim ilinjida yugurib qolishdi, allanechuk yuvosh tortgan nozik-nihol kishilarning tashvishi kuchaydi: seryog'in, namchil havo ko'p dardlarni yangilab yubordi" [3:38]. Xayriddin Sultonovning "Saodat sohili", "Yozning yolg'iz yodgori", "Ko'ngil ozodadur..." qissalarida halollik ulug'lanadi. Bu qissalarning bosh qahramonlari – iymon-e'tiqodli, vijdonli pok kishilar. Hofiz Ko'ykiy, Adash Karvon, G'ulom doimo halol mehnat bilan kun kechiradi, birovlarining haqiga zarracha xiyonat qilmaydi. Ular hech kimni aldamaydi,

boshqalarga ozor yetkazmaydi. Xayriddin Sultonov Hofiz Ko'ykiy, Adash Karvon, G'ulomning ko'ngil kechinmalarini, ularning nohaqlikdan iztirob chekishi, adolat toptalgan paytda beparvo emasligini ishonarli ko'rsatadi. O'quvchi ushbu qissalarning bosh qahramonlari xarakterida yaxshi kishilarning fe'l-atvori, kechinmalari mujassam ekanini darhol payqaydi. Yozuvchi asarlariga xos ushbu xususiyat to'g'risida adabiyotshunos Ibrohim G'afurov shunday deydi: "Xayriddin Sultonov oddiy odamlarning yuraklaridagi ma'naviy boyliklarini, insonni insoniylik darajasida mo'tabar qilib turadigan xislatlarni ochishga alohida diqqat qiladi. Odamning yuragida ma'naviyat gavhari bor. Xayriddin Sultonov o'z asarlarida shu gavharga ziyo tushganlar yoki yana ham, aniqrog'i, inson dili nur taratadigan damlarni tasvirlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi" [4: 272].

Xayriddin Sulton publitsistikasida badiiy - estetik imkoniyatlar quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

1. Obrazlilik – voqelikni badiiy timsollar orqali ifodalash.
2. Xalqona uslub – o'quvchiga sodda, lekin ta'sirchan murojaat qilish.
3. Estetik zavq uyg'otish – kitobxonni nafaqat fikrlashga, balki his qilishga undash.
4. Umumlashma – kichik voqeadan katta xulosa chiqarish, falsafiy mushohada bilan yakunlash. [5: 67]

Xayriddin Sulton publitsistikasining asosiy kuchi, o'quvchilarning qiziqishiga sabab unda keng foydalanilgan obrazlilikda ko'rinadi. Muallif faktlarni shunchaki bayon qilmasdan, balki uni badiiy timsollar orqali ifodalaydi. Metafora, sifatlash, o'xshatish kabi adabiy vositalar keng qo'llaniladi. Bu ijtimoiy - analitik matnda ham estetik ta'sir uyg'otish imkonini beradi. Ko'plab mumtoz adiblarning mashhur asarlari real hayotiy voqealarga asoslangan. Viktor Gyugoning "Xo'rlanganlar" romani bir yepiskop hayotidan ilhomlangan bo'lsa, Turgenevning "Mumu" hikoyasi ham real voqealar asosida yozilgan. Gogolning "Shinel" asari esa do'stlaridan eshitgan latifa ta'sirida yaratilgan. Demak, badiiy asarning hayotiy haqiqatga asoslanishi, uning ommalashishi va o'lmas asarga aylanishida muhim ahamiyat kasb etadi. [6: 3]

Yozuvchining "Onamning yurti" hikoyasida ona va Vatanga bo'lgan cheksiz muhabbatini izhor etadi. Aynan ushbu hikoya ham adibning bolalikdagi xotiralari mahsuli hisoblanadi.

"Shunda men onamning bezovta ko'zlariga tikildim va nigohim qarshisida shovillab yotgan hududsiz bug'doyzorlarni, g'arq gullagan jiydazor bog'larni, zumrad adirlar uzra xandon otib kulayotgan baxtiyor bir qizaloqni ko'rdim! Razzoq deraza oldida jimgina o'tirar, taajjub bilan bizga termilib qolgan edi. ...Qishloqqa yarim kechasi yetib keldik. Hammayoq qorong'i, tog'lar, bog'lar sukutda – go'yo nafasini ichiga yutib, bizni xavotirlanib, intizor kutayotgandek". [7: internet manba]

Ushbu parcha asarning atmosferasini kitobxon ko'z o'ngida namoyon qilib, muallif uslubining obrazlilik va

lirik hissiyotga boyligini aniq ochib beradi. Hajman kichik asar bo'lsa-da, kitobxon olgan xulosalar umrga tatigulik bo'ladi. "Onamning yurti" hikoyasi odamzodning tug'ilib o'sgan, kindik qoni to'kilgan makon, ona quchog'i, milliy qadriyatlar haqidagi chuqur lirizmga boy publitsistik asar hisoblanadi. Asarning tili uning bir nafasda o'qilishining asosiy sabablaridandir. Hikoya voqealari hayotiy ekanligi, muallif bolalik xotiralari, hayoliy tasavvurlari, vatan sog'inchi va ona mehriga ulangan ramziy obrazlar asarning kulminatsion nuqtalari hisoblanadi.

Asardagi asosiy g'oya – Ona yurt. Ammo, bu faqat geografik hudud ma'nosida emas, ma'naviy maskan, orzu va sokinlik, osoyishtalik manbai sifatida ifoda etilgan. Insonning asl ildiziga sodiqligi, milliy qadriyatlarga, ona tiliga mehri asarning o'qishligiga sabab bo'luvchi omillardandir. "U yurtda osmon – osmon emas, mushfiq ona; gullar – gul emas, munis hamshira; u yerda odamlarni xo'roz qichqirig'i emas, bulbul navosi uyg'otadi. Oradan ne bir zamonlar – oltmish olti yil o'tganiga qaramay, onam hamon taqdiriga tan bermas, hamon ufqdan ko'zi va ko'nglini uzolmas, hamon yurtining ta'rifini tildan qo'ymas edi. Biz ham bunga o'rganib qolgan edik". Adib bolalik chog'laridan onasining daragi yo'q bo'lib ketgan yurtining ta'rifini, sog'inchini tinglab o'tkazgan. Shu sababdan bo'lsa ajab emaski, Xayriddin Sultonda Ona, Vatan mavzusidagi asarlari uning oltin sandig'ida alohida mavqega ega.

Markaziy obraz: Ona – Vatan timsolida, yurti bilan uyg'unlashgan mehr manbai sifatida tasvirlanadi. "Xullas, yurtining daragini eshitdi -yu, onam bir kechada yasharib ketdi. Har kecha sirqirab azob beradigan oyog'ining og'rig'ini ham unutgandek bo'ldi. Endi uning yetmish uchga kirganiga hech kim ishonmas, men ham ishonmas edim". Onaning farzandiga o'z vatani haqidagi ertaklari go'yoki alla misoli yangrar edi. Yurtidan ayrilgan ona va uning Vatan sog'inchi yozuvchi tomonidan o'ta nozik hislar bilan tasvirlangan.

Tasvir: Muallif o'z onasining ko'zlariga boqib, keng bug'doyzorlarni, gullagan bog'larni, dasht-u dalalarni ko'radi. Bu orqali Vatan tasviri ona nigohi orqali tasvirlanadi. "Hududsiz bug'doyzorlar", "zumrad adirlar", "xandon otib kulayotgan qizaloq", ona ko'zlarida yurti ko'rish – bu nafaqat ona nigohi, balki yurt nigohidir. Kitobxon asarni o'qir ekan, o'z bolaligi, onasi, vatani haqida mushohada qiladi. Yozuvchining tasvir mahoratini olqishlamasdan iloji yo'q. Kichik hikoya orqali butun millat hayoti, o'y - xayollari, orzu - umidlari ochib berishga erishilgan. "Onamning yurti" deya qayta - qayta takrorlayotgan jumlalar bu muallif onasining qishlog'i emas, bu butun O'zbekiston, ona Vatandir. Ona yurt bu Vatan, ona mehri – milliy qadriyat, ona nigohi esa o'zbek xalqining kelajakka umidvor nigohidir. Asarni bir o'qishda bu umumlashmalarga e'tibor berish mushkul. Shundan bo'lsa kerak, kitobxon har gal mutolaa qilish mobaynida undan o'ziga kerakli xulosalarni oladi. Bu hikoya orqali adib bizga nima demoqchi? Ona yurt faqatgina yer, tuproq, yashab turgan uyingiz emas, balki insonning qalbi, ruhiy

ildizi. Hikoyani o'qisangiz, muallifning gaplarida soddalik, samimiylik seziladi. Bolalik davridagi hayotiy voqealarni tasvirlash orqali katta ma'nolarni ochib bergan. Ona yurtidagi manzaralarni, tabiat hodisalarini tasvirlab vatan sog'inchini ochib beradi. Asarda yana bir muhim anglash shuki, ona vatandan uzoqlashgan inson baribir qalban unga yurakdan bog'liq bo'lib qoladi. Inson uchun eng aziz maskan bu ota - onasi qadami tekkan tuproqdir. Insonning ma'naviy qadr-qimmatini ham, e'tiqodi ham shu yurtidan oziq oladi. Shunday ekan, ona yurti unutgan odam o'zligini yo'qotadi.

Yozuvchining milliy publitsistikaga hissa qo'shgan yana bir asari – "G'ulomgardish" hikoyasidir. Xayriddin Sultonning "G'ulomgardish" hikoyasi inson taqdiri, hayotning o'zgaruvchanligi va qismatning oldindan noma'lumligi kabi mavzularni chuqur yoritadigan asarlardan biri hisoblanadi. Hikoya insonning hayot yo'lida duch keladigan sinovlari, ularning natijasida shakllanadigan ruhiy kechinmalar va ichki kurashlarni tasvirlash orqali falsafiy mazmun kasb etadi. Asarning nomi – "G'ulomgardish" – allaqachon hikoyaning asosiy g'oyasini ochib beradi. "Gardish" so'zi taqdirning uzluksiz harakati, hayotning oldindan bashorat qilib bo'lmaydigan burilishlari bilan bog'liq tushunchalarni anglatadi. Bu atama asar mazmuni bilan hamohang bo'lib, qahramon taqdiridagi o'zgarishlar va uning hayotga bo'lgan munosabatini aks ettiradi. Hikoya bosh qahramonning o'z shaxsiy tajribalaridan kelib chiqib, hayotga bo'lgan qarashlarini shakllantirishi va insoniylik tamoyillarini anglash jarayoni haqida hikoya qiladi. Xayriddin Sultonning bu hikoyasida realistlik yondashuv ustuvorlik qiladi. Asardagi voqealar hayotiy mantiqqa asoslangan bo'lib, unda xalq hayoti, milliy qadriyatlar va tarixiy kontekst sezilarli darajada aks etgan. Yozuvchi hikoya davomida qahramonning ichki kechinmalarini, uning ruhiy olamidagi o'zgarishlarni teran ochib beradi. Bunda monolog va ichki mushohada elementlarining ustalik bilan qo'llanilishi hikoyaning badiiy ta'sirchanligini oshiradi. Qahramonning hayot yo'lidagi kechinmalari orqali insonning o'zligini anglash, adolat va haqiqat tushunchalariga erishish yo'li yoritiladi. Hikoyada konflikt asosan, ichki kechinmalar orqali ifodalanadi. Asarda qahramon hayotiy sinovlar oldida o'zining ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini qayta ko'rib chiqadi, o'zini tahlil qiladi. Uning ichki olami va tashqi dunyo o'rtasidagi ziddiklar hikoyaning asosiy dramatik nuqtasini tashkil etadi. Shunday qilib, hikoyaning syujet qurilishi inson ruhiyati bilan bog'liq o'zgarishlarni yaqqol namoyon etishga qaratilgan. Badiiy tasvir vositalari hikoyaning ifoda kuchini oshirishda muhim o'rin tutadi [8:57]. Xayriddin Sulton o'ziga xos poetik ifodalar, metaforalar va qiyoslashlar orqali hikoyaga estetik jihatdan joziba bag'ishlaydi. Ushbu uslub qahramonning hissiy holatini yanada chuqurroq his etishga yordam beradi. Bunda adabiy-badiiy tilning nafisligi, tasviriy qudrati va emotsional ta'sirchanligi yaqqol seziladi.

"G'ulomgardish" hikoyasi inson hayotining murakkabligi, taqdirning oldindan noma'lumligi va insonning o'zligini anglash jarayoni haqida fikrlashga undaydigan falsafiy asardir. Yozuvchi ushbu hikoya orqali inson ruhiy olamining nozik jihatlarini, hayotiy tajribalar natijasida shakllanadigan ichki kechinmalarini mahorat bilan tasvirlagan. Syujet qurilishi, badiiy tasvir va poetik yondashuvning uyg'unligi hikoyani o'zbek adabiyotidagi muhim asarlardan biriga aylantiradi.

"...Birovlar: "Ko'tarilib ketibdi, mashina olib yurarkan" dedi, birovlar esa: "Ermat sariqning o'g'li ko'mir emas, pul konida ishlarkan", dedi. Kimlardir suyundi, kimlardir kuydi...qishloq unga ko'nikdi – ortiq nomini saqich qilmay qo'ydi" [9: 119]. Keltirilgan lavha orqali o'zbek qishloq hayotidan kuzatuvlar orqali xalqni ramziy tahlil etadi. Asardan keltirilgan parchada o'z kasbidan voz kechmagach, ortga qaytishga majbur bo'lgan inson – Dadamatov atrofdagilarning gap - so'zlari va qishloqdagilar munosabatini tasvirlaydi. Adib Dadamatov misolida hayotda ko'p sinovlarni boshdan kechirgan inson timsoli gavdalandirgan. Qahramonning turmushdagi qiyinchiliklari, bularning barchasini sabr - matonat bilan yengib o'tishi asar voqealari rivojiga asos bo'ladi. Hikoya inson ruhiyati, jamiyatdagi vazifasi hamda hayotga bo'lgan munosabatini ochib beradi. Muallif qahramon Dadamatov timsolida oddiy odamning irodasi, hayot uchun kurashi va matonatini gavdalandiradi. Asarni tahlil qilishda quyidagi uch unsum inobatga olishni taqozo qiladi:

1. Qahramon xarakteri:

Asarda qahramonlar obrazlari xalqona uslubda, sodda tilda yaratilgan. Qahramon oddiy odam bo'lsa-da, uning shaxsiyati orqali jamiyat hayotidagi katta haqiqatlar ochib beriladi. Qahramon mehnatkash, sabrli va hayot sinovlariga bardosh beradigan inson sifatida gavdalandirilgan. "Dadamatov zuvalasi loydan emas, mumdan yasalgan muloyim bir odam". Asarda keltirilgan ushbu jumladan Dadamatov haqida butun bir haqiqat ochib beriladi. Shaharga ketganda, undan so'ng yana ota-

onasi oldiga qaytib kelganda odamlar orasida gullagan gaplarga parvo qilmasligi, gaplar uni qiziqitmasligi qahramon xarakterining asarda aks etganligining guvohi bo'lamiz.

2. Publitsistik unsurlar:

Ushbu hikoyada ham Xayriddin Sultonning publitsistik ruhi seziladi. Muallif hikoya voqealarini faqat badiiy tasvir bilan emas, balki ijtimoiy va falsafiy mulohazalar orqali ham yoritib beradi. Jamiyatdagi adolatsizlik, insonlar orasidagi turli munosabatlar publitsistik ohangda ifoda etilgan. "Begmat Dadamatov marjon shodasidek tig'iz qishlog'imizdan uzilib ketgan birinchi dona edi, shu boismikan, ko'pchilining nazarida allanechuk g'alati, juda oqpadar bo'lmasa hamki, har qalay, darbadar bir kimsa bo'lib ko'rinaradi".

3. Badiiy vositalar:

Badiiy vositalar xalqona iboralar va dialoglar orqali ochib berilgan. "– E, bo'ldi-da, ota, odamni nomuslarga o'ldirdingiz-ku!" kabi ifodalangan xalqona tilni jonli tarzda aks ettiradi. "Assalomualeykum, to'ram!" kabisalomlashish uslubi esa xuddi xalqning samimiy muloqotida bo'lgani kabi o'quvchini voqeaga chuqurroq olib kiradi. "Hoshqom chuvak yuzli" deya cholning tashqi ko'rinishiga ta'rif berish orqali, uning ichki va tashqi olami haqida tasavvur hosil bo'ladi. Bunday ta'riflar obrazni jonli tasvirlashga yordam beradi. "Halol mehnat qilgan odam hech qachon xor bo'lmaydi, mehnatning yuziga qaragan kishi qadr topadi". Berilgan parchada hikoyaning bosh g'oyasini anglab olish mumkin. Xayriddin Sultonning "G'ulomgardish" hikoyasi adib publitsistikasi va badiiy ijodining eng yorqin namunalaridan biri sanaladi. Asar halollik, mehnat, inson qadri, uning bu dunyodagi vazifasi, insoniylikni ulug'lash orqali o'zbek adabiyotida publitsistikaning badiiy-estetik imkoniyatlarini kengaytiradi.

Xulosa. Xayriddin Sultonning publitsistik va badiiy asarlari o'zbek xalqining tarixiy xotirasini, ma'naviy merosini hamda milliy uyg'onish g'oyalarini chuqur ifodalagan bo'lib, ular yoshlar tarbiyasi va milliy ongini shakllantirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ulug'ov A.O'. Xayriddin Sultonning asarlarida hayot hodisalarining aks ettirilishi.
2. Mirzayeva Z., Jalilov K. O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi. "Academic space", 2024.
3. Sultonov X. Saodat sohili. – Toshkent: Adabiyot va san'at.
4. Sultonov X. Umr esa o'taveradi: Hikoyalar. – Toshkent: Yosh gvardiya.
5. Yo'ldoshev Q. Publitsistika va adabiyot. – Toshkent: Fan, 2018.
6. Matyoqubova G.S. Zamonaviy hikoyachilikda syujet yaratish mahorati. www.pedagoglar.org
7. www.ziyo.uz
8. Sabirdinov A.G. Xayriddin Sulton qissalarida badiiy tasvir va syujet. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social science.
9. Sultonov X. G'ulomgardish. – Toshkent: "Sharq" nashriyoti, 2012.

Gulruxsor SUYAROVA,
 Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili
 va adabiyoti universiteti tadqiqotchisi
gulruxsorsuyarova5@email.com

RAUF PARFI ADABIY- ESTETIK QARASHLARINING SHAKLLANISHIDA MILLIY VA QARDOSH XALQLAR SHE'RIYATINING O'RNI

Annotatsiya: ushbu maqolada Rauf Parfi ijodi tadqiq qilinadi. Xususan, uning adabiy-estetik qarashlari shakllanishiga asos bo'lgan milliy va qardosh xalqlar she'riyati tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: *adabiy-estetik qarash, mavzu, g'oya uslub, tadqiq, talqin, tahlil*

Аннотация: в этой статье исследуется творчество Рауфа Парфи. В частности, проанализированы национальный и братский народ, составляющий основу его литературно-эстетических взглядов.

Ключие слова: *литературно-эстетические отрожать, исследование, стиль, тема, идея, интерпретация, анализ*

Annotation: in this article is researched creativity of Rauf Parfi. In particular, the national and fraternal peoples that formed the basis of his literary-aesthetic views are analyzed.

Key words: *literary-aesthetic views, theme, style, idea, research, investigation, analysis*

...shoir yo'qdir, she'riyat yashar.

Rauf PARFI

“Har ikki dunyoni tushungan odam, uchinchi dunyoni – she'riyatni tushunmasligi mumkin”, degan ekan allomalardan biri. Buning sabablari bor, albatta. She'riyatning har ikki dunyodan farqli o'laroq o'z qonun-qoidalari, shakl-shamoyili, obrazli ifodalash usullari bor. Ular insonni sehrlaydi, o'ziga tortadi, zavqlantiradi, shavqlantiradi. Hikmatlariga ishonitiradi, deydi Shukur Qurbon.

Dunyoga haqiqatni izlab keladilar, muhabbat ila qadr topadilar. Ko'ngilning afif va hanif dardi muboragi bilan istiqomat qiladilar. Inson qismati to qiyomat qadar go'zal, yoniq, pok tarona va so'z ila ziynatlidir. “So'zda sehrdan, she'rda hikmatdan bordir”, deb bekorga marhamat qilinmagan-da. Darhaqiqat, bashariyatning ibrat va saboq, umid va ishonch manziliga she'riyat ma'rifati bilan ham boriladi. [5.6-bet].

O'tgan asring 2-choragida adabiyotga dadil, faqat o'zigagina xos odimlar bilan kirib kelgan shoir Rauf Parfi O'zturk (Tursun Parpiyev) o'zining betakror poeziyasi, tarjimalari bilan o'zbek adabiyotida

yorqin o'rin egalladi. She'riyatimiz kelgusiga nazar tashlash uchun ham beixtiyor uning shaxsi va she'riyatiga, favqulodda yaratilargi murojaat qilinaveradi. Rauf Parfi tengdoshlari, hatto ba'zi ustozlariga ham keskin ijobiy ta'sir etgan, ayniqsa, o'zidan keyin bu yo'lga havaslanib chiqib, qismat deb bilgan ijodkorlarga yangi dovonlarni ko'rsatib, she'riyat manzara va manzillarini yashnatgan, maktabdor shoirdir. She'riyatimiz kelgusiga nazar tashlash uchun ham beixtiyor uning shaxsi va she'riyatiga, favqulodda yaratilargi murojaat qilinaveradi. Qisqasi, bu she'riyatni anglash, kashf qilish haqiqiy ma'noda endigina ko'z ochib, tug'ilib kelayotir. Rauf Parfining o'rganish va izlanishlari misolida o'zbek adabiyoti, she'riyati taraqqiyoti, keyingi ikki asr ijtimoiy voqealari bois o'z o'zanlarimizdan chekinishlar va boshqa turli ta'sirlanishlarni ham mushohada qilish mumkin bo'lar.

Rauf Parfining ilk odimlariyoq ustoz shoir va atoqli adabiyotshunos Asqad Muxtorning oq fotihasi

bilan qo'yilgan. "Sharq yulduzi" jurnalining 1966-yil 1-soni "Oq yo'l" ruknida e'lon qilingan maqolada shoir ijodiga yuksak baho berilgan edi.

"Rauf Parfi hech kimnikiga o'xshamagan ovoz bilan kuylay boshladi. Bu – qiyin ijodiy protsess. Lekin Raufning asarlarida bu qiynalish sezilmaydi, u go'yo oson ko'chgandek ravon, tabiiy, samimiy. Bu she'rlarda deklarativlik ham, nasihat ham, illyustratsiya ham, didaktiv yalong'ochlik ham yo'q. Ular shoirning zavq dunyosidan tug'ilgan. Agar bu dunyo toboro kengaysa, to'lqin ura, insoniy ehtiros va grajdanlik hislari bilan yanada boyisa Rauf Parfi shubhasiz hassos shoir bo'ladi".

Rauf Parfi she'riy shakllarning nazmdagi mavqeyi haqida yaxshi xulosalar chiqargan va sonet, rondel, tanka, xokku kabi she'riy shakllarda tadqiqotlar qilgan hamda ular tajribaga aylangan.

Asosan bag'ishlovlar yozilgan sonetda Rauf Parfi bu an'anani o'ziga xos davom ettirib faqat mahbubagagina emas, Vatanga (uch sonetdan iborat "Vatan" uch sonetdan iborat "Og'riq" asarlari), klassiklar va tarixiy shaxslarga "Betxoven", uch sonetdan iborat "Mikelanjelo sevgisi", "Aleksandr Ulyanov"), buyuk san'atkorlar va ular yaratga mashhur obrazlarga (uch sonetdan iborat "Hamlet", "Chingiz Aytmatov") va shu kabi muqaddas insonlarga va ideallarga o'z muhabbatining bag'ishlovlari o'z aksini topgan. Shoirning sonetlariga A. Muxtor ("Qaytish" dagi sonetlarini "san'atkorona ishlangan"), N. Rahimjonov ("Hamlet") yuksak baholaganlar.

Shoir ijodida rondellar ham o'ziga xos o'rin tutadi. Rauf Parfi rondelda "Xayrlashdik...", "Men o'tkinchi...", "Bu xafa kecha kechar..." kabi rondellari bilan she'riyatimizni yana yangi bir shakl bilan boyitdi.

Rauf Parfi tanka shaklida yozgan she'rlarini biroz barmoq vazniga moslashtirganini ko'ramiz:

Sen-la ko'rishmog'im kerak, Albatta – 11 hiyo

Ne uchun? Bilmayman. Albatta kerak – 11 hiyo

Taxminan, men senga – dunyo qorong'u, - 11 hiyo

Dunyo bir bedarddir – kabi so'zlarni – 11 hiyo

Aytmog'im uchun ham keraksan menga – 11 hiyo

Rauf Parfining nafaqat "tanka" va uchliklarida, balki aksariyat she'rlarida xulosa chiqarish o'quvchining o'ziga havola etiladi. Bizning she'rxonlarimiz she'riy shakl talablarini bilmasliklari

bilan bir qatorda, xulosali she'rlarga juda o'rganib qolishgan...

Rauf Parfi lirik qahramonining ma'naviy olami xususida borgan bahsda (1981 – 1982 yillarda "O'zas" da yoritilgan bahs nazarda tutilmoqda) biror munaqqid uning badiiyatiga ham e'tibor qaratish lozimligini, shundan kelib chiqib she'rlarni tahlil etish lozimligini o'rta tashlamadi.

Yuqoridagi tahlillarga qo'shimcha tarzda Rauf Parfining sarbastdagi she'rlari alohida tahlilga tortiladi hamda shoir va Nozim Hikmat uslublarining yaqinligi xususida ham so'z boradi:

Nozim Hikmat:

Otliqlar g'oyib bo'lar

quyosh botar yerda...

Otliqlar, otliqlar, qizil otliqlar,

Otliqlari shamol qanotlilar...

Otlari shamol qanot...

Otlari shamol...

Otlari...

Ot...

Rauf Parfida:

Ikki rang: Oq va qora

Haqiqat va yolg'on.

ey jafokash haqiqat.

Bu san'at,

san'at!

san...

Shuningdek, A. Muxtorning R. Parfi izlanishlari muhitida Nozim Hikmat, Oybek, Garsia Lorka, G'afur G'ulom, Pablo Neruda, Andrey Voznesenskiy, Mahmud Darvesh, Mirtemir kabi dardli, isyonkor va zabardast shoirlar bor, degan fikrlarini keltirib shoirning ijod olami ko'plab jilg'alardan paydo bo'lgan keng bahri ummondan suv ichganligi xususida mulohaza yuritadi. B. Akramovning "Ruhiyat musavviri" [3.48–51-bet] nomli maqolasida shoir she'rlari g'oyasi va o'ziga xos xususiyatlari jihatidan tahlil etiladi. Tahlil ikkiga bo'linib:

1. She'r rag'bat, shoir qismati

2. Orifona nuqtadonliklar

deb nomlangan. Ularda ijodkor ruhiyati akslanmish she'rlarning hazrat Navoiy ijodiga ohangdoshligi, ta'sirlanganligini ochib beradi:

Rom etmas, hech narsa, sahrodir ko'ngil,

Osmonlarga faqat afsona so'zlar

Malomat toshida ochilgan bir gul,

Dam o'tmas qular ul, dam o'tmas bo'zlar.

Ne ajabki, hazrat Navoiy o'zining shoir, orif, oshiq, rind, vali, darvesh, arbob-u sarvar zotlarning timsoli mujassam lirik qahramonini majozlashdirib "malomat bulbuli" deb atagan edi. Rauf Parfi "Shoir she'r aytmogga sen shoshma faqat ulug' Alisherning qutlug' tilinda", kabi g'oyat mas'ul so'ziga amal qilgan holda, ustoz tashbehidan rag'bat olib shoir zotining bardoshda, fidoiylukda benazir ko'nglini "malomat toshidan ochilgan bir gul" deb ta'riflaydi.

...Isyonkor ruh ba'zan umidsiz-mungli (she'riyat uchun bu yorug' safobaxsh umidsizlik!) ohangda ifodalanadiki, bu beixtiyor Navoiy satrini yodga soladi. "Xalqdin navmidlik – yetkurdi rohat ko'ngluma". Bu ajab g'aroyib ziddiyat Rauf Parfida o'zgacha ohang, sajiya kasb etadi:

*Hech narsa yupatmas, shoir, hech narsa,
G'arib baxtiyorlik endi yupatar.*

*ehtimol, nohaqman, ehtimol haqman,
Lekin men muqaddas so'zni izlarman.*

B. Akramov "Ruhiy hilqat timsollari" maqolasida shoirning o'ziga xos ijod olami bilan yanada yaqinroq tanishtiradi. Maqolada:

- shoirning xos tamsillari;
- lirik qahramoni kechinmalari;
- so'z lavhiga chizilgan obraz timsollari;
- she'rlari tahlili

kabilarga diqqatini qaratadi.

Shoir ijodiga munosabat matbuot sahifalarida u haqida e'lon qilingan maqolalarda ko'rinadi, ochiladi.

Rauf Parfi 60-80-yillar sonetnavisligining yirik vakili, shoir haqidagi akademik B. Nazarov va S. Mamajonov fikrlaridan kelib chiqqan holda ijodkor she'riyati zamiridagi haqiqat va adolat tushunchalari falsafiy teranlikda, yuksak poetik usullar vositasida badiiy ko'chim, ramzlar tili bilan kitobxonga yetkazishini hamda o'zga xalqlar she'riyati janrini milliy she'riyat zaminida yuksakka ko'tarishini e'tirof etish mumkin. Rauf Parfi ijodida sonetlar turkumining mukammal namunalari sifatida "Diloromning ko'zlari", "Mikelandjelo sevgisi", "Hamlet", "Muhabbat", "Ona tilim", "Abdurauf Fitrat", "Abdulhamid Sulaymon Cho'lpon", "Ona Turkiston", "Sunbula", "Og'riq", "Qora devor", "Siyovush", "Yo'lovchi", "Sensiz", "Tangri sog'inchi", "Thakurning oxirgi she'ri", "U dunyoga, onamga maktub" she'rlarini keltiradi hamda ayrimlarini tahlilga tortadi. "Ona Turkiston" sonetlar turkumi

tahlilidan xususan, shunday xulosalarga keladi:

"Vatanparvar shoir Rauf Parfi bir asar ichiga millatning yuz yillik o'tmishini joylashga erishgan. Ramzlar, metaforalar vositasida nobop bir tuzum muhitida eng xavfli, o'ta isyonkor g'oyalarni ilgari surgan. She'riyat nuqtayi nazaridan uch zamonni (XIX asr oxiri, XX asr boshlari va 70-yillar) birlashtirish orqali sonet va sonet turkumi imkoniyatlarini kengaytirgan. Turkum ichidagi sonetlarning har birida uchala zamon ham bor. Ular shunday chatishib ketganki, natijada uch sonet bir butun asarga aylangan" [10.106-b.]

N. Rahimjonov shoirning estetikasi, obrazlari, shuningdek, mag'zi xususida fikr yuritib:

– shoirning badiiy asarni baholashdagi nuqtayi nazari she'rdagi so'zning badiiy estetik vazifasini belgilashda;

– erk fenomeni Rauf Parfi estetikasida ijtimoiy-falsafiy kategoriya darajasida badiiy tadqiq etilganligi;

– Haq va haqiqatni oqlash, unga qarshi riyo, makr, zulm kabilarga isyon Rauf Parfi estetikasining mag'zini tashkil etishi;

– Rauf Parfi estetikasidagi badiiy so'z shafqatsiz haqiqatni yoqlashiga ko'ra realizmning taxayyullar asosiga qurilgan timsolli tafakkur yo'nalishiga yangi to'lqin olib kirganligi;

– Shoir talqinidagi ishq – bu tush misoli tutib va yetishib bo'lmas ishq;

– So'zning o'zi, haqiqatning ko'zi Rauf Parfi she'riyatining mag'zi ekanligi.

N. Rahimjonov "Istiqloq va bugungi adabiyot" kitobidan o'rin olgan "Shoir adabiy-estetik qarashlarining shakllanish omillari" maqolasida Rauf Parfi ijodini tadrijiy tarzda tahlilga tortadi hamda uning shakllanish omillari xususida batafsil to'xtaladi. Shoirning 16-17 yoshlaridagi ilk mashqlaridan boshlab hayotining so'nggi yillariga qadar yozilgan she'rlaridagi shoirga xos estetik ideallar masalasiga diqqat qaratadi. Shoirning ma'naviy olami, "kuyinib so'zlashlari"ga e'tibor qaratadi:

"Endi shoirlar yolg'iz olimlar uchun yashaydimi? Birona o'quvchi nima deyotganingizni bilmasa, bu yolg'on umr, yolg'on ijod emasmi? Uning nafi kimga? Hech kim bahra ola bilmagandan keyin?! Xo'p, Navoiyni bilamizmi?.. Bizda Navoiyni anglash madaniyatini bog'chadan boshlash kerak. Navoiyni tushunmagan kimsa bugungi kun odamlarini ham

bilmaydi, tushunmaydi. Men bir oddiy shoir sifatida aytamanki, Navoiyni anglamaslik cheksiz gunohi azim emasmi? Gumrohlikning katta bir ko'rinishi emasmi?!" [5.78-b.].

O.Oltinbek "Rauf Parfining adabiy-estetik qarashlari" maqolasida o'zidan oldingi munaqqidlarning qarashlarida Rauf Parfining adabiy-estetik qarashlari bilan bog'liq maqolalar e'lon qilingan bo'lsa-da, ularda mavzu to'raligicha yoritilmaganligini ta'kidlaydi. N.Rahimjonov maqolalarida esa manba sifatida asosan, shoirning maqola, adabiy suhbat va so'zboshilari asos bo'lganligini aytib, o'z maqolasida shoirning she'riyatini asos qilib oladi. Maqolada Rauf Parfining she'riyatida eng ko'p takrorlanadigan so'z – SO'Z, ijodiy tadrijidagi e'tiborli obraz – qush haqida, ilhomning shoirga ta'siri kabilar xususida so'z yuritib, ijodkor qarashlarida hali ochilmagan adabiy-estetik qarashlarni tahlil etadi. Xususan, qush obrazi shoirning ilk mashqlarida (50-yillar) hali obraz darajasiga ko'tarilmagan bo'lsa-da, u bilan orasida o'xshashlik ko'rishni orzu qilganligi, keyinchalik (60-yillarda) yozilgan she'rlarida qush badiiy obraz darajasiga ko'tarilib, shoirga yaqinlashgani, noma'lum bo'lsa-da, dardli qalb bilan umidli kuylaganligini, 1994-yil yozilgan bir she'rida esa qushcha achchiq kuylay boshlashiga qaramasdan, hamon noma'lumligicha qoladi. Rauf Parfi umrining so'nggi yillarida yozilgan she'rida:

*Yo'q, men qushman, chala so'yilgan qushman,
 Aytilmagan bir so'zim bor bog'zimda.
 deya, shoirning o'zi qushga aylanib qolganligi*

xususida fikr yuritiladi. O.Oltinbek maqolasida shoirning adabiy-estetik qarashlarini tahlilga tortish orqali o'zidan oldingi tadqiqotlarni boyitdi.

O'rganishlar natijasi shuni ko'rsatadiki, shoir fenomeni, uni tahlilga tortish hamma vaqt adabiyot ahli e'tibor va e'tirofida bo'lgan. Rauf Parfi ijodining o'rganilishida shoirning ilk chiqishlarida u haqida yozilgan maqola va taqrizlar, xususan, A.Muxtor va I.Haqqullarning maqola va taqrizlari muhim o'rin tutadi. Garchi dastlabki va keyinroq yaratilgan maqolalarda shoir ijodiga ikki tomonlama yondashuv hollari kuzatilsa-da, ayni davr adabiyotida Rauf Parfining o'ziga xos o'rnini ko'rsatadi.

Mustaqillik davri shoir ijodini o'rganishning yangi ufqlarini ochish bilan birga ijodiga munosib baho berish davri ham bo'ldi. Mustaqillikning ilk kunlaridanoq Rauf Parfi ijodi e'tirof etilib, "Xalqaro Mahmud Koshg'ariy" mukofoti bilan taqdirlandi. Mazkur davrda shoir ijodining badiiyati to'g'risidagi N.Rahimjonov, B.Akramov, O.Oltinbek kabi olimlar tadqiqotlari muhim o'rin tutadi. Uning adabiy-estetik qarashlari N.Rahimjonovning "So'z-ranglar bilan suhbat", "Mahorat qirralari" maqolalarida, O.Oltinbek "Rauf Parfining adabiy-estetik qarashlari" maqolalarida tadqiq etiladi. Shoir ijodiga badiiylik talabi bilan yondashuvlar asosida go'zal tahlillar yuzaga keldi.

Rauf Parfi ijodini o'rganish, nafaqat yakka shoir, balki XX asrning 60-yillaridan boshlangan o'zbek she'riyatining yangilanishini, uning hozirgi kundagi ufqlarini ham ochib berish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Asqad Muxtor Oq yo'l "Sharq yulduzi" jurnali, 1966 / 1
2. Ibrohim Haqqul So'zlar – ruh qanotlaridir "O'zAS" gazetasi 17.06.1988
3. Akramov B. Ruhiyat musavviri // Sharq yulduzi. 1994.1-2 son.
4. Shodmon Otabek So'nggi darvesh "Sharq yulduzi" jurnali 2010 / 3
5. Rahimjonov N. Istiqol va bugungi adabiyot. – T.: O'qituvchi, 2012.
6. Parfi R. Turkiston ruhi. – T.: Sharq nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2013.
7. Oltinbek O. Rauf Parfining adabiy-estetik qarashlari // O'zbek adabiyoti: ta'sir va tipologiya. – T.: "Muharrir nashriyoti", 2013.
8. Olim Oltinbek Bir qushcha sayraydi mening ruhimda "Sharq yulduzi" jurnali 2013 / 4
9. Qurbon Sh. Rauf Parfi saboqlari. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2014.
10. Fayzullayeva O. Guliston davlat universiteti professor-o'qituvchilari va talabalarining XX-XVIII an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani ma'ruzalarining tezislari to'plami. – Guliston, 2004.

Parizoda AXRORXO'JAYEVA,
FarDU mustaqil izlanuvchisi

CHO'L PON – TUYG'ULAR MUSAVVIRI

Annotatsiya: ushbu maqolada Abdulhamid Cho'lponning xotin-qizlar erki, ozodligi hamda ruhiy kechinmalari aks etgan bir nechta she'rlari tahlil etiladi. O'tgan davr xotin-qizlarining turmush tarzi, zomon va inson o'rtasidagi munosabat va buni shoir qay yo'sinda yoritganligi o'rganiladi.

Kalit so'zlar: erk, ozodlik, Turkiston, ijtimoiy hayot, xayol, qiyoslash.

Annotation: this article analyzes several poems by Abdulhamid Chulpan that reflect women's freedom, independence, and spiritual experiences. It examines the lifestyle of women in the past, the relationship between time and man, and how the poet reflected this.

Key words: freedom, liberty, Turkestan, social life, imagination, comparison.

Аннотация: в статье анализируются несколько стихотворений Абдулхамида Чулпана, отражающих свободу, независимость и духовный опыт женщин. Рассматривается образ жизни женщин прошлого, взаимоотношения времени и мужчины и то, как поэт это отражал.

Ключевые слова: свобода, вольность, Туркестан, общественная жизнь, воображение, сравнение.

XX asr boshlarida Turkiston o'lkasi murakkab ijtimoiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlar jarayoniga yuz tutdi. Bu davrda patriarxal tuzumning kuchli ta'siri ostida xotin-qizlar jamiyatda ikkinchi darajali mavqega ega edi. Uarning ta'lim olish, jamiyat hayotida ishtirok etish, o'z fikrini erkin bayon qilish kabi huquqlari juda cheklangan edi. Xotin-qizlarning hayoti asosan urf-odatlar va diniy cheklovlar bilan belgilab qo'yilgan bo'lib, ularning erki haqida ochiq gapirish hatto ijtimoiy norozilik keltirib chiqarishi mumkin edi.

Aynan shunday sharoitda jadid adabiyoti maydonga chiqdi. Jadidlar, jumladan, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon kabi ijodkorlar o'z asarlarida Turkiston jamiyatidagi ijtimoiy tengsizlik, ayniqsa ayollarning huquqsizligi muammosini dadil o'rtaga olib chiqishga harakat qildilar. Ularning asarlarida ayol faqat uyda o'tiradigan, itoatgo'y mavjudlik emas, balki shaxs, inson, fikrlaydigan va his qiladigan mavjudot sifatida tasvirlana boshladi. Jadid adabiyoti orqali xotin-qizlarga nisbatan mavjud bo'lgan qarashlar asta-sekin yangilanib, adabiyot ayol erki va ozodligi g'oyasining tashuvchisiga aylandi.

Ushbu kichik tadqiqotimizda ham ana shu jarayonlar doirasida Abdulhamid Cho'lponning she'riy asarlarida ayollar erki va ozodligi masalasi qay yo'sinda aks ettirilganini tahlil qilamiz.

Cho'lpon jadidlar orasida zamona xotin-qizlari taqdirini eng ko'p yoritgan ijodkor desak ham bo'ladi. Bunga dalillar ham yetarli. Uning she'riy asarlari, hikoyalari, roman hamda dramalarida ham sharqlik ayollarning ruhiy kayfiyati, iztiroblari, ko'ngil kechinmalari, dunyo ko'rish, bilim olish, erk va ozodlikka intilish g'oyalarini sodda, nozik va ishonchli bir shaklda bayon etadi.

Misol uchun shoirning "Sharq qizi" she'rini olaylik. Ushbu she'r shoirning singlisiga bag'ishlab yozgan, ammo shoir singilining nomidan yozish asnosida barcha sharq ayollarining ruhiy dunyosi, xarakteri va kechinmalarini tasvirlaydi. She'rning birinchi misrasidayoq g'amli qora qish yakunlanishi va undan keyin bahor kelishi, bahor kelishi bilan gullarga oshiq bulbullarning sayrash, gullar ham qushlarga nozlanib qarashi, yosh-u qari birdek sevinishi, hamma yer yam-yashil bo'lib, gullarga, go'zallikka burkanishi bilan qarama-qarshi tarzda sharq qizi bularning barchasidan bebahra ekanligi, bahorni ko'rmay

qolishi, bu quvonch, bu kayfiyat, bu yashillik uning qalbi, uning dunyosiga yetib bormasligi, yana ham aniqroq qilib aytganda yetib bordirmasliklari uni iztirobga soladi.

Faqat men bir o'zim, Sharqning bir qizi

Bahor kelganini ko'rmay qolaman.

Uzun, qora qishning ketmasdan izi

Uning do'sti – kuzni kutib olaman...

Shoir boshqalar va Sharq qizining holatini qiyoslash orqali uning ayanchli taqdiri tomon yo'l soladi. Umri faqat qorong'ulik, rangsizlikda o'tib ketayotganini anglatadi. Keyingi misralar orqali esa, qizning holatini, yashash tarzini bosqichma-bosqich yoritib boradi.

Menim uchun yorug' dunyo rohati –

To'rt devor ichida ko'zlar o'ynatmoq,

Menim uchun ulug' shodlik soati –

Telba ko'kragimda o'ylar uyg'otmoq.

To'rt devor ichida diqqanapas bo'lgan qiz faqatgina o'ylar, yorug' umidlar bilan yashaydi. Bir kun bularning barchasi tugashiga ishonadi. Qiz o'y surish vaqtini shodlik soati deydi, xayollari bilan o'zini o'zi ovutadi, xayollari bilan ertangi kunni kutadi. Keyingi to'rtlikda esa Cho'lpon ichidagi bor yashirin dardini to'kadi. Balki she'rning zalvorini shu to'rtlikka yuklaydi:

Men bir Sharq qizimen, Sharqning o'zidek,

Butun tanim, jonim – xayol uyasi,

Mening qora ko'zim kiyik ko'zidek

Belgisiz ovchining o'qin ko'rgusi.

Sharq qizi butun sharqliklarni o'zi kabi xayollar bilan yashaydigan, ertangi kunga faqat umid bilan qaraydigan insonlarga o'xshatadi. Go'yo Sharq xayol bilan tirik, istasa-da, qo'lidan hech

ish kelmaydi, kelsa-da, boshi kundada. Ammo Sharq qizining nigohi o'tkir, aqli raso, u kiyik misoli boshqalar ko'rmagan xavfni ham ko'ra oladi va boshqalarni ham ogohlantiradi. Ushbu she'rda turkistonlik qizlarning ayanch taqdiri, umidsizliklar ichra umidlanishi, qorong'ulik ichra yorug'likka talpinishi hikoya qilinadi.

Cho'lponning "Men va boshqalar" she'ri ham biz yuqorida tahlil etgan she'rimizning mantiqiy davomi desak, yanglishmagan bo'lamiz. Bu she'rda ham boshqalar bilan o'zbek qizi qiyoslanadi. O'zbek qizi mahrumiyatlar ichida, qorong'ulik, taqiqlar ichida yashaydi. Erkdan, ozodlikdan, haq-huquqdan mosuvo. Uning qanoti bor, lekin bog'langan, yayrab yashnashi, ko'nglini yozishi uchun bog'-rog' yo'q, tinglovchisi devor. Turkiston qizining tinglovchisi devor, suyanchi devor. Cho'lpon ushbu she'rda misradan misraga qahramonning ruhiy bosimlarini tadjilantirib boradi.

Erkin boshqalardir, qamalgan menman,

Hayvon qatorida sanalgan menman.

She'r boshdan oxiriga qadar bir o'zbek qizining xo'rsiniqlari, qalb tug'yonlari, isyonlari, ko'nglidagi toshqinu bo'ronlari haqida. Cho'lponning lirik mahorati shundan iboratki, u o'quvchiga olisdagi, his etib bo'lmas, tasavvurga sig'dirib bo'lmas fantaziyalar haqida so'zlamaydi. Xuddi o'quvchi kabi o'spirin, faqat boshqa bir davrda yashagan bir tengdosh o'zbek qizining turmush tarzi, holati, ruhiy kechinmalari haqida obrazli va sodda shaklda yozadi. Shuning uchun ham Cho'lpon yozgan har bir asar kitobxon qalbidan joy olsa ne ajab.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Чўлпон. Яна олдим созимни. – Тошент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991
2. Ражабова Д. Туркистон жадидларининг қарашларида ёшлар ва хотин-қизлар масаласи. Диссертация. – Т., 2003
3. Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маъриат, фидойилик. Тошкент "Маънавият" 2002.324-б.
4. Чўлпон. Асарлар 2-жилд. "Хазина". – Т., 1999.

ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA



Yulduz MAMADIYEVA,

Surxondaryo viloyati Angor tumani 2-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

KORPUS LINGVISTIKASI VA UNING AMALIY AHAMIYATI

Annotatsiya: korpus foydalanuvchilar uchun qulay interfeys va qidiruv tizimiga ega bo'lib, u tadqiqotlar olib borishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Korpus avvalo, nazariy va amaliy tilshunoslikda empirik bazani ta'minlash maqsadida yaratiladi. O'zbek tilining lug'at tarkibi, grammatik qurilishi, stilistikasi, uslubi bo'yicha asosli tadqiqotlar olib borish uchun korpus yirik baza vazifasini bajaradi. Korpus vositasida ma'lum bir so'zning yangi ma'no kasb etgan-etmaganini aniqlash uchun turli davrlardagi qo'llanmalarni solishtirish imkoniyati bor. Korpus til strukturasi o'zgarishlar va uning bugungi holatini aniqlash va kuzatish vositasidir. Maqolada korpus lingvistikasining maqsadi, korpus yaratish afzalliklari va korpus turlari, shu bilan birga, tilshunoslik sohalarini o'rganishda korpusning amaliy ahamiyati xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: korpus lingvistikasi, sintaksis, uslubiyat, til qurilishi, lug'at, leksikografiya, korpus, baza, tarixiy matnlar, zamonaviy matnlar, so'zshakl, matnli korpus, ovozli korpus, parallel korpus.

Аннотация: корпус обладает удобным интерфейсом для пользователей и поисковой системой и служит эффективным инструментом в проведении исследований. Прежде всего цель корпуса состоит в обеспечении эмпирической базы в теоретической и прикладной лингвистике. Для проведения фундаментальных исследований по лексическому составу узбекского языка, его грамматической структуре, стилистике и употреблению корпус выполняет роль большой базы. С помощью корпуса существует возможность сопоставлять справочники разных эпох, чтобы определить, приобрело ли конкретное слово новое значение. Это средство для выявления изменений в структуре языка и мониторинга их текущего состояния. В статье рассматриваются цели корпусной лингвистики, преимущества создания корпусов и виды корпусов, а также практическое значение корпуса в изучении областей лингвистики.

Ключевые слова: корпусная лингвистика, синтаксис, стилистика, строение языка, лексика, лексикография, корпус, база, исторические тексты, современные тексты, формы слов, текстовый корпус, речевой корпус, параллельный корпус.

Annotation: the corpus has a user-friendly interface and a search system, and it serves as an effective tool for conducting research. The corpus is primarily created to provide an empirical basis for theoretical and applied linguistics. For conducting substantial studies of the Uzbek language's vocabulary, grammar, stylistics, and usage, the corpus serves as a large database. The corpus enables comparing texts from different periods to determine whether a given word has acquired a new meaning. The corpus is a tool for identifying and tracking changes in the structure of the language and its current state. The article discusses the aims of corpus linguistics, the advantages of creating a corpus and the types of corpora, as well as the practical significance of corpora in the study of linguistics.

Key words: corpus linguistics, syntax, stylistics, language structure, lexicon, lexicography, corpus, database, historical texts, modern texts, word form, text corpus, audio corpus, parallel corpus.

Korpus lingvistikasi kompyuter lingvistikasining bir tarmog'i bo'lib, kompyuter texnologiyalari yordamida til korpuslaridan foydalanishning yaxlit jihatlarini tadqiq etadi hamda til korpusini yaratish masalalarini o'rganadi. U tildan foydalanishni ifodalovchi yirik hajmli matnlar jamlanmasini tahlil etish vazifasini bajaradi. Ayni shu jihatdan korpus lingvistikasi – bu tabiiy tillarning yirik elektron ma'lumotlar bazasini yaratish, tahlil qilish va ularni lingvistik tadqiqotlar uchun foydalanish imkonini beruvchi fan tarmog'idir. O'zbek tili korpusi bu sohaning asosiy obyekti sifatida o'zbek tilining leksik, grammatik, semantik va pragmatik xususiyatlarini o'rganish uchun asos hisoblanadi. Til korpusi – strukturallashtirilgan, annotatsiyalangan (teglangan) va statistik jihatdan ishonchli matnlar to'plamidir.

O'zbek tili korpusidan turli dialektlar, tarixiy matnlar va zamonaviy matnlar (matbuot, adabiyot, ilmiy asarlar)ni o'z ichiga olgan holda tilning to'liq spektrini aks ettirishda foydalaniladi.

“Korpus nafaqat biz tilda foydalanadigan tizimlarni tashkil etuvchi tizimli elementlar va namunalarni aniqlash uchun, balki ushbu tizimlardan foydalanishimizni xaritalash uchun ham empirik asosdir. Korpuslarni tahlil qilish va boshqa korpuslar bilan solishtirish orqali tildagi o'zgaruvchanlikni samarali o'rganishimiz mumkin. Masalan, tildagi muayyan fonologik, leksik, grammatik, nutqiy yoki pragmatik xususiyatlar qanchalik tez-tez va qayerda sodir bo'lishini korpus tahlili orqali o'rganamiz. So'nggi o'n uch yillikda kompyuterlashtirilgan ma'lumotlar bazalarida saqlanadigan korpuslarni yig'ish va tahlil

qilish korpus lingvistikasi deb nomlanuvchi sohaning yaratilishiga olib keldi". [1;24]

Bundan kelib chiqadiki, korpus – muayyan maqsad yo'lida jamlangan matnlar majmuasini tashkil qiluvchi til birliklarining umumiy to'plamidir. Aytish mumkinki, til korpusi ma'lum tilning belgilangan davrdagi, xilma-xil janr, rang-barang uslub, hududiy hamda ijtimoiy variantdagi matnlarining elektron shakldagi maxsus dasturiy ta'minot asosidagi yig'indisidir. Korpus haqida yuqorida keltirilgan ta'riflar ham u haqida muayyan tilning o'ziga xos xususiyati va variantlarini aks ettiruvchi bir necha belgi asosida tanlab olingan elektron shakldagi matn parchalari, lingvistik tadqiqot uchun asos vazifasini o'taydigan tizim deya xulosa qilishga asos bo'ladi. Til korpusi bugungi kunda jahonda tez taraqqiy etayotgan soha – korpus lingvistikasi mutaxassisleri tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borish, til o'rgatish maqsadida yaratilmoqda. Jahon tillarining juda ko'pchiligi mukammallik darajasi, matnni (ilmiy) qayta ishlash imkoniyati bilan farq qiluvchi o'z milliy korpuslariga ega. Bugungi kunda lingvistik tadqiqot va amaliy topshiriqlar yechimi uchun til korpuslari zamonaviy tilshunoslikning inkor etib bo'lmas ish quroliga aylandi, chunki korpus turli lingvistik topshiriqlarni yechishda tezkor va ishonchli manba bo'lib xizmat qilmoqda.

"Elektron korpusning afzalliklaridan biri – tilda so'zning o'zgarishi, istorizm, neologizm, ma'no kengayishi va torayishi, yangi frazeologizmlarning paydo bo'lishini kuzatish mumkin. Davrlararo tilning boyib borish jarayonini ko'rsatib turuvchi elektron manba bo'lgan til korpuslariga doimiy ravishda yangiliklarning kiritilishi, joylanib turishi inson mehnatini yengillatadi". [2;8] Korpus lingvistikasining sifatida til korpusi ko'riladi. Elektron kutubxona hamda til korpusi bir narsadir degan yangilish fikrlar ham bor. Til korpusi elektron kutubxonadan farqli tarzda muayyan tilni tadqiq qilish, o'rganish va o'rgatish uchun zaruriy, foydali va qiziqarli matnlar to'planishini o'z ichiga oladi. Bunday matnlar esa nafaqat badiiy adabiyot namunasi, balki telefondagi oddiy suhbat yozuvi yoki ijara shartnomasi matni ham bo'lishi mumkin.

Korpusni elektron kutubxonadan ajratib turuvchi yana bir sabab undagi matnning xususiyati va qo'shimcha ma'lumot bilan boyitilganligi bo'lib, bu belgi korpusning alohida qismi – korpus birliklariga yozilgan izohdan tashkil topgan.

Foydalanuvchiga biror so'z kerak bo'lsa, buni odatiy matn muharriri ham topib berishi mumkin. Biroq so'zning grammatik ma'nosi va tuzilishini "tushunuvchi" matn bilan ishlash juda ko'p afzallik va qulayliklarni taqdim etadi. So'zshaklni qidirish kerak bo'lsa, bunday dasturiy ta'minot, ya'ni korpus tadqiqotchi yoki foydalanuvchiga juda katta yordam

beradi. Chunki tadqiqotchi o'z ishi uchun misol topish, ularni raqamli texnologiyalar rivojlanishidan avvalgi davrda kartotekaga ko'chirishga oylab, ba'zan yillab vaqt sarf etgan bo'lsa, bugun kompyuterlashtirilgan davrda dunyo til korpuslari yordamida qisqa vaqtda yuzlab misolni topishga, ular ustida ishlashga erishmoqda. Maxsus qidiruv korpusdan ma'lumot olishga mo'ljallangan bir qancha dasturdan iborat, statistik axborot va qidiruv natijasini foydalanuvchiga qulay shaklda taqdim etadi. Tilda qanday jarayon kechayotganligini aniq tasavvur qilish uchun korpus qamrovini yanada kengaytirish, nafaqat yozma nutq, balki og'zaki nutq materialidan foydalanish kerak bo'ladi. Bunday korpus yordamida til taraqqiyoti natijasida unda sodir bo'lgan va kutilayotgan o'zgarish haqida aniq xulosalar beradi.

Korpus yordamida qidiruv foydalanuvchiga quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

- belgilangan so'zning turli kontekstdagi barcha shakliy ko'rinishlarini topish;
- tilning lug'at tarkibidagi o'rni va variantlarini tahlil qilish;
- belgilangan so'z bilan birikish imkoniyatiga ega so'zlar ro'yxatiga ega bo'lish;
- u yoki bu yozuvchining ayni so'zdan foydalanish chastotasi yoki statistikasini aniqlash;
- so'zning o'z va ko'chma ma'nolari haqida ma'lumot olish;
- leksik qo'llanishining yashirin modeli (imkoniyati) ni ko'rish;
- til taraqqiyotining turli davrida qo'llanish holatini aniqlash;

Korpusdan foydalanishda qulaylikka ega bo'luvchi tilshunoslik sohalaridan biri – leksikografiya bo'lib, unda yirik hajmli lug'atlarni tuzishda korpusning o'rni katta. Unga ko'ra, yaratilayotgan har bir lug'at ishonchli va asosli ekanligi tasdiqlangan bo'lsa, yana bir jihatdan tilning jamiyatda aks etish jarayoni yaqqol namoyon bo'ladi. "Matnni grammatik (morfologik) razmetkalash uchun tilning grammatik lug'ati asos vazifasini bajarishi kerak. Masalan, rus tili milliy korpusi uchun A.A.Zaliznyakning rus tili grammatik lug'ati asos vazifasini bajaradi. Bu lug'at elektron shaklga o'tkazilib, ruscha so'zlarni razmetkalashda ishlatiladi. Lekin o'zbek tili uchun bunday lug'at mavjud emas. Shuning uchun o'zbekcha so'zlarning grammatik elektron lug'atini shakllantirish zaruriyati yuzaga keladi". [3;85] Zamon o'zgargani sayin lingvistik sohalar uchun tezkor va kuchli axborot manbaiga aylanib ulgurmoqda.

Jumladan, korpus leksikografiya tarmog'i uchun muhim o'ringa ega. Chunki lug'atlar korpus vositasida tezkor tuzilishi bilan birga qayta ishlash jarayoni ham ayni uning ichida sodir bo'ladi. Shu bilan birga tilning qo'llanilish davri hamda chastotasini aniqlashda korpus qidiruv tizimi nihoyatda qulay. Tilning lug'at

tarkibidagi o'zgarishlar : arxaizmlar, neologizmlar, istorizmlarni kuzatib borishda korpus aniq va tezkor ma'lumotlarni taqdim etadi. Korpusdagi matnlar qismi quyidagicha tasniflanadi:

- a) asl matn
- b) normalashtirilgan matn
- c) tokenizatsiya qilingan matn
- d) gaplar bo'linishi

So'zlarning leksik-semantik birikish imkoniyati tahlilida korpus metodini qo'llash yangi avlod lug'at, grammatikalari, xususan, turg'un birikmalar lug'atini yaratish imkonini berdi. Korpus yaratilishi, taraqqiy etishi, til korpuslari asri kirib kelishi bilan lug'atshunoslarda so'zlarning qo'llanilish holatlariga doir juda katta matnlar to'plami bilan ishlash imkoniyati paydo bo'ldi.

Korpusning quyidagi asosiy turlari mavjud: (1-jadval)

Matnli korpus	Yozma matnlar to'plami bo'lib, maqolalar, kitoblar, bloglar va boshqalardan iborat to'plam.
Ovozli korpus	Nutq yozuvi yoki transkriptlardan tashkil topgan to'plam.
Parallel korpus	Turli tillardagi tarjimalarni o'z ichiga qamragan to'plam.
Belgilangan korpus	Morfologiya, sintaksis, semantika kabi bo'limlardan iborat to'plam.

Korpus tarkibiga kiruvchi matnlar esa quyidagicha xususiyatlarni o'zida aks ettirishi lozim:

- Alohida bir muallif yoki bir necha yozuvchi asaridan olingan matnlar;
- Ma'lum davr (bir necha o'n yillik yoki yuz yillik) ni qamrab olgan matnlar;
- Belgilangan mavzudagi zamonaviy matnlar;
- Til va jamiyatning bugungi holatini aks ettiruvchi zamonaviy matnlar.

Tadqiqotlar natijasida ma'lumki, korpus lingvistikasi kamida ikki tipdagi korpus ustida amaliyot bajarishi mumkin. Korpuslarning birinchi tipi universal, ular o'zida nutqiy faoliyatning barcha xilma-xilliklarini aks ettirishi bilan xarakterlanadi. Ikkinchi turdagi korpus esa jamiyatda nutqiy amaliyotning ma'lum bir lingvistik yoki madaniy fenomenning odatga aylanishi va aylanganligini aks ettirib, ular ma'lum maqsadda tuziladi. Bunday korpus sifatida maqollar korpusi, gazeta tilida siyosiy metaforalar korpusini aytish mumkin.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, korpus lingvistikasining amaliy ahamiyati tilshunoslikning barcha sohalar uchun muhim baza yaratish imkonini beradi. Ma'lumki, sintaksis tilning jonli qurilishini, so'zlarning o'zaro birikish imkoniyatini tahlil qiladi. An'anaviy tilshunoslikdagi misolni olishda badiiy asar tiliga tayanish tajribasidan ko'ra korpusga tayanish misolning bugungi kun uchun ham ishonarli bo'lishini ta'minlab beradi.

Uslubiyat masalalarini o'rganish jarayonida esa matnning uslubiy xususiyatini tahlil etishda ham korpus yordam beradi. Bu amaliyotni bajarishda matnlarning statistik holati tahlili (matndagi jumlaning uzunligi, bir so'zning boshqa so'z bilan birikish holatining odatiy yoki noodatiyligi)ni aniqlashtiradi. Bu usulda korpus yordamida yozma nutq bilan birga og'zaki nutqni ham o'rganish mumkin bo'ladi. Masalan, ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalarida qila oladi shakli mosmi yoki qiloladi shakli to'g'ri keladimi? Korpusga bu tarzda berilgan savolga u qisqa vaqt ichida qay bir konstruksiyaning ko'proq qo'llanilishini aniqlab beradi. Shunday qidiruv natijasida esa matnlarda ishtirok etgan qiloladi va qila oladi shakllarining necha marta ishtirok etganini aniqlab ko'rsatadi. Mana tilshunoslikda korpus tuzish nima uchun bizga kerak degan savolga javob. Korpuslar odatda, so'zlar frekansiyasini aniqlash, kollokatsiyalarni topish, kontekst orqali so'zlarning ma'nosini o'rganish, til qoidalarini tahlil etish, NLP modellari (til o'rganish, tarjima, ovoqli yordamchi) uchun o'qituvchi ma'lumot qabul qilish maqsadlarida foydalanishda qulaydir. Demak, "O'zbek tili korpusi" turli mavzularda yozilgan matnlardan iborat bo'lib, so'zlar qanchalik tez-tez uchraydi, bir-biri bilan qanday bog'lanishadi kabi savollarga javob berish uchun foydalidir. Ma'lumot o'rinda aytish mumkinki, korpus nafaqat tilshunoslik, balki adabiyotshunoslik va tarix fanlari uchun ham muhim baza bo'lib xizmat qila oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kaxorova N. Corpus linguistics. Academic research in modern science. International scientific - online conference. USA.
2. Sobirova N. Korpus lingvistikasi va parallel korpuslar tavsifi. Maqola. Academic research in educational Sciences. Volume 3. Issue 5. May, 2022.
3. Qarshiyev A., Karimov S., Tursunov M. O'zbek tili milliy korpuslarining dasturiy ta'minot strukturasi va vazifalari. Maqola. "Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechimlar, istiqbollar". Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Vol 1. N-1.2022.

Nodira SAIDOVA,
Qibray tumani 1- o'rta ta'lim maktabi,
ingliz tili o'qituvchisi
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti
mustaqil izlanuvchisi

TEXNIK LEKSIK BIRLIKLARNI TARJIMA QILISHDA YUZAGA KELADIGAN MUAMMOLAR

Annotatsiya: ushbu maqolada texnik leksik birliklarni tarjima qilishda uchraydigan asosiy qiyinchiliklar ko'rib chiqiladi. Xususan, terminologiyani mos sinonimlar bilan ishlatish, tarjima qilishda madaniy va kontekstual farqlarni hisobga olish, ko'p ma'nolilik va sinonimiya qo'llanilganda yuzaga keladigan muammolarni hal qilishga alohida e'tibor qaratilgan. Texnik matnlar o'ziga xos terminologik xususiyatlarga ega bo'lib, bu matnlarni to'g'ri tarjima qilish tilshunoslik mahoratini ham, mavzu bo'yicha mutaxassis bilimini ham talab qiladi. Haqiqiy tarjima holatlaridan kelib chiqqan holda, ushbu muammolar amaliyotda qanday rivojlanayotgani ko'rib chiqiladi va ularni qanday hal qilish bo'yicha takliflar beriladi.

Kalit so'zlar: *texnik tarjima, terminologiya, leksik birlik, ekvivalentlik, tarjima muammolari.*

Annotation: this article examines the main difficulties encountered in translating technical lexical units. In particular, special attention is paid to the use of terminology with appropriate synonyms, taking into account cultural and contextual differences in translation, solving problems arising from the use of polysemy and synonymy. Technical texts have specific terminological features, and the correct translation of these texts requires both linguistic skills and knowledge of the subject specialist. Based on the actual cases of translation, the development of these problems in practice is considered, and proposals for their solution are given.

Key words: *technical translation, terminology, lexical unit, equivalence, translation problems.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются основные трудности, возникающие при переводе технических лексических единиц. В частности, особое внимание уделяется использованию терминологии с подходящими синонимами, учету культурных и контекстуальных различий при переводе, решению проблем, возникающих при использовании многозначности и синонимии. Технические тексты имеют свои терминологические особенности, и правильный перевод этих текстов требует как лингвистических навыков, так и знаний специалиста по данной теме. Исходя из реальных переводческих ситуаций, рассматривается, как эти проблемы развиваются на практике, и даются предложения по их решению.

Ключевые слова: *технический перевод, терминология, лексическая единица, эквивалентность, проблемы перевода.*

Tarjima jarayoni bu – matn yoki nutqni bir tildan boshqa tilga ma'nosini saqlagan holda ya'ni ekvivalentini yetkazishdir. Tarjima madaniyatlararo muloqotning eng muhim shakli hisoblanadi. Asl va tarjima qilingan matn xususiyatlariga ko'ra u badiiy tarjima, ilmiy tarjima va boshqa turlarga bo'linadi. Asl matn qanday aks ettirilishiga qarab, u talqin, moslashuv va sharh kabi shakllarda ham bo'lishi mumkin. Tarjima qadimgi davrlardan boshlab turli qabilalarga mansub odamlar o'rtasidagi o'zaro aloqa va muloqot ehtiyoji tufayli paydo bo'lgan. Uning og'zaki shakli bo'lmish tarjimonlik bugungi kungacha saqlanib qolgan. Vaqt o'tishi bilan tarjimaga qo'yiladigan talablar rivojlanib bormoqda. Biroq, uning ijodiy mohiyati va qayta yaratish san'ati o'zgarishsiz qolmoqda. Tarjimaning ko'lam va taraqqiyoti har bir millatning ma'rifiy darajasiga bog'liq

bo'lib, bu o'z navbatida o'sha millatning ijtimoiy tafakkuriga samarali ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi kunda har bir rivojlangan davlat yuzlab xalqlar tilidan ilm-fan va madaniyatning ko'plab sohalariga oid materiallarni, masalan, lirik she'riyat, axborot maqolalari, texnologik adabiyotlarni o'z ona tiliga tarjima qilmoqda.


Tarjima shunchaki nusxa ko'chirish jarayoni emas, tarjimonning estetik didi tarjima asariga o'chmas iz qoldiradi, ko'pincha bu uning ixtiyoridan tashqarida bo'ladi. Asliyat muallifi hayotda ko'rgan-kechirganlarini badiiy ifodalasa, tarjimon asliyat matni mohiyatini boshqa tilda qayta yaratishga harakat qiladi. Buning uchun asarda ifodalangan voqelikni muallif darajasida chuqur bilish talab etiladi. Tarjima har bir xalqning adabiy qiyofasini belgilashda katta ahamiyatga ega, chunki tarjima tarixi adabiyot tarixi kabi qadimiylidir.

Adabiy ishlab chiqarishning bir turi tarjima bo'lib, u asarni bir tildan boshqa tilga qayta yozish jarayonidir. Millatlararo muloqotning eng muhim vositasi tarjimadir. Badiiy tarjima, ilmiy tarjima va boshqa kategoriyalar asliyat va tiklangan matn xususiyatidan ajratiladi. Tarjima asl nusxasini ko'rsatish hisoblanib, u sharh, tabdil yoki tafsir shaklida bo'lishi mumkinligi aytiladi [1].

Tarjimashunoslik sohaning o'ziga xos amaliyoti, tarixi, tamoyillari va qonuniyatlarini qamrab oladi, tillararo farqlar, o'ziga xos original xususiyatlar va milliy adabiy an'analarni hisobga olgan holda tarjimonlarga tarjima uchun asarlar tanlashda yordam beradi.

Matnni tarjima qilish uchun ishlatiladigan til tarjima tili deb ataladi, bu odatda tarjimonning ona tili[4]. Ingliz tilida tarjima jarayoni 2 xil ya'ni yozma va og'zaki bo'lib, tarjima tillar o'rtasidagi terminologik farqni belgilaydi. Tarjima qilishda matnni tahlil qilish, til va madaniy xususiyatlarni o'rganish, teminologiyani aniqlash va tushunish, grammatik va uslubiy yondashuv, so'zma-so'z yoki erkin tarjima qilish, madaniy moslashtirish, ma'noni tekshirish, uslubiy moslik kabi masalalar rol o'ynaydi.

Tarjimaning bir qancha usullari mavjud bo'lib, tarjimonlar vaziyatga qarab tarjima usullaridan birini tanlaydilar. (1-rasm)



1-rasm. Tarjima usullari [3]

Bevosita (direct) tarjima qilishning bir usuli bo'lib, unda asliy tilidagi so'zlar va tuzilmalarning shakli imkon qadar o'zgartirilmasdan, to'g'ridan to'g'ri tarjima qilinadi. Tarjima tilida asliyat tilidagi o'xshash g'oyalar va tuzilmalar ishlatilishi mumkin bo'lsa, bu yondashuv qo'llaniladi. Ushbu tarjima usullari samarali bo'lishi uchun tillar bir qator jihatlari bilan o'xshash bo'lishi kerak, chunki ular tilda mavjud bo'lgan ko'plab nozik jihatlarni yetkaza olmaydi. Bu usulda tarjimon har bir so'zga alohida e'tibor beradi va ularni so'zma-so'z, ya'ni aynan tarzda boshqa tilga ko'chiradi.

Bevosita (so'zma-so'z) tarjimaning o'ziga xos alohida xususiyatlari shundan iboratki:

- Har bir so'z alohida tarjima qilinadi;
- Jumlaning grammatik qurilishi imkon qadar asliy tilga yaqin bo'ladi;
- Tarjimon tomonidan turli fikrlar qo'shilmaydi, faqat mavjud matnni tarjima qiladi.
- Ko'pincha matnning ohangi, uslubi yoki madaniy konteksti hisobga olinmaydi.

Bu kabi tarjima usulida texnik matnlar aniq va to'g'ri tarjima qilinishi kerak. Tushunchalarni lug'aviy darajada o'rganish uchun foydali, lekin iboralar va

ba'zi jumalarda ma'no buzilishi mumkin. Bu tarjima usulidan texnik matnlar (texnologik, ilmiy) yoki yuridik hujjatlar tarjimasida keng foydalaniladi, chunki bu joylarda aniqlik muhim. Bevosita yoki so'zma-so'z tarjimaning ham o'ziga xos turlari mavjud:

1) O'zlashtirish texnikasi (Borrowing technique) bir tildan so'z olib, uni boshqa tilda qo'llash o'zlashtirish usuli deyiladi. Shuning uchun matnning qolgan qismini tarjima qilishda tarjimon ongli ravishda bitta so'zni qoldirishga qaror qiladi. Ingliz tili boshqa tillardan atamalarni qanchalik tez-tez o'zlashtirishini hisobga olsak, siz buni ingliz tilida tez-tez uchratasiz. Bu tarjima usuli keng tarqalgan so'zlar uchun xosdir. Bu usulda so'z yoki ibora tarjima qilinmaydi, balki aynan yozilgan yoki talaffuz qilingan holicha olinadi. Odatda, boshqa tilda ayni ekvivalent yo'q yoki so'z o'z o'rnida universal bo'lib qolgan bo'lsa, madaniy va ijtimoiyligini saqlab qoladi.

Bu usul yordamida ba'zida fonetik yoki grammatik moslashtirish orqali so'z ozgina o'zgartirilishi mumkin. Shu bilan birga ushbu texnika orqali madaniy rang-baranglik saqlanadi. Terminlar aniq va to'g'ri yetkaziladi va global tushunchalarni keng qo'llaniladi (IT, texnologiya).

Ingliz tilidagi “signal” (сигнал-), “ventilation” (вентиляция), “detector” (детектор), “sprinkler” (спринклер), “evacuation” (эвакуация), “hydrant” (гидрант) kabi terminlar rus tili orqali o'zbek tiliga kirib kelib, ba'zan shu holicha ishlatiladi.

2) Kalkalash usuli (Calque) – Ko'pgina so'zlar boshqa tillarga to'g'ridan to'g'ri tarjima qilinmaydi, shu sababli tarjimonlar kalka usulidan foydalanadilar. Bunda tarjimon tarjima qilinayotgan tilda yangi so'z yoki ibora yaratadi. Ba'zi tillarda muayyan yong'in xavfsizligi terminining to'g'ridan to'g'ri ekvivalenti bo'lmisligi mumkin [2]. Bunday holda, tarjimon ijodiy yondashuv va vaziyatga mos keladigan yechim topishi, terminni ta'riflab berishi yoki yaqinroq ma'noga ega bo'lgan boshqa terminni ishlatishi kerak bo'ladi. Misol uchun;

- “**deflagration**” (rus. «дефляция») termini o'zbek tilida mavjud emas, uning ma'nosi yonishning portlashdan sekinroq bo'lgan turi, unda olov subsonik tezlikda tarqaladi. O'zbek tilida “deflagratsiya” uchun to'g'ridan-to'g'ri ekvivalent mavjud emas va bu termin ko'proq ilmiy va texnik adabiyotlarda ishlatiladi. “Tez yonish, lekin portlash emas” yoki “portlashdan sekinroq yonish” degan tushunchalarni berish orqali ushbu terminga ta'rif beriladi. Kalkalash va ta'riflash orqali terminni ikkinchi tilga o'tkazish mumkin. “Deflagratsiya” tez yonish jarayoni ma'nosini beradi va ushbu termin bilan xodimlar tanish bo'lsa, “deflagratsiya” so'zini ishlatish va unga qo'shimcha izoh berish orqali boshqa til vakillariga tushuntirish mumkin.

3) So'zma-so'z tarjima (ing. literal translation, rus. дословный перевод) – har bir so'z alohida tarjima qilinadi va ko'p hollarda bu usulda tarjima noaniq bo'ladi. Hujjat yoki gapdagi har bir so'zni boshqa tilga aynan, to'g'ridan-to'g'ri, asosiy g'oyani o'zgartirmagan holda tarjima qilish jarayoni so'zma-so'z tarjima deb ataladi. Bu o'rinda so'z tartibi va so'z birikmalari, asosan, asliyat tilidagiga o'xshaydi. So'zma-so'z tarjimaning xususiyatlari quyidagilardan iborat.

– Har bir so'z mustaqil tarjima qilinadi, tarjima matnidagi so'zlar o'z ma'nosining asosiy qismini saqlagan holda birin-ketin tarjima qilinadi;

– Grammatik moslashuvlar kam uchraydi, chunki har bir so'z alohida ko'rib chiqilganligi sababli, ular ba'zan til qoidalaridan chetga chiqadi.

– Bunday yondashuv, ayniqsa, tilning madaniy xususiyatlari bilan bog'liq iboralar, frazeologik birliklar yoki iboralar bilan ishlashda qiyinchilik tug'diradi, shuning uchun natija aniqroq va tabiiy bo'lmisligi mumkin.

– Undan ko'proq lug'atlar yoki muhim atamalarni o'rganishda foydalaniladi.

Ingliz tilidagi “Store **flammable materials** away from heat sources” kontekstini rus tiliga so'zma-so'z “Храните **легковоспламеняющиеся материалы** подальше от источников тепла”, o'zbekcha tarjimasi esa “**Yonuvchi materiallarni** issiqlik manbalaridan uzoqda saqlang” deb so'zma-so'z tarjima qilinadi. Yuqorida misollarda yaqqol ko'rinish turibdiki, so'zma-so'z tarjima qilishda har bir so'zning tub ma'nosi saqlangan bo'lsa-da, ba'zan grammatik muvofiqlik yoki tabiiy ifoda yetishmasligi mumkin. “Yong'in chiqishi” ingliz tilida “fire exit”, rus tilida esa “пожарный выход” degan ma'noni anglatadi, lekin o'zbek tilida “yong'indan chiqish yo'li” iborasi ham ishlatiladi, bu esa to'g'ri tarjimadir.

Bilvosita tarjima usuli (Indirect translation method) ning ham o'ziga xos turlari mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1) Transpozitsiya usuli odatda, turli grammatik tuzilishga ega bo'lgan tillarda kuzatilib, bunda bir grammatik tuzilishdan boshqasiga o'tishni o'z ichiga oladi va tarjimada so'zlar, so'z birikmalari yoki grammatik tarkib qismlarining tartibi o'zgaradi. Ingliz va o'zbek tillari turli til oilalariga mansubligi sababli, ularda grammatik tuzilish ham turlicha. Transpozitsiya usuli aynan ingliz va o'zbek tillarida kuzatilishi mumkin. Ya'ni, tarjima qilinayotgan tilidagi gap yoki jumla qismlari tarjima qilingan tilda boshqa tartibda joylashtiriladi, lekin ma'no saqlanadi.

Umuman olganda, tarjima jarayonida yuzaga keladigan to'siqlarni yengib o'tish ijodiy yondashuvni, tilni maxsus tushunishni, madaniy xilma-xillikka hurmatni va keng lingvistik bilimlarni talab qiladi. Asliyat matnini tarjima tilida to'g'ri, ravon va tabiiy yetkazish, o'quvchi uni tushunishi va undan ma'no topa olishi tarjimonning vazifasidir. Natijada, mukammal tarjima madaniyatlararo muloqotni rag'batlantirish va samarali axborot almashish imkonini beruvchi muhim vositadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Tarjima>
2. Chernev, Alexander; Böckenholt, Ulf; Goodman, Joseph. Choice overload: A conceptual review and meta-analysis. Journal of Consumer Psychology. 2015.
3. Jean-Paul Vinay and Jean Darbelnet A METHODOLOGY FOR TRANSLATION Translated by Juan C.Sager and M.-J.Hamel. 1995.- P 85
4. J.K.Solijonov “Tarjimonlarga tavsiyalar 1-5-qismlar”

Mushtariybonu RASULOVA,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU
1-kurs tayanch doktoranti

ONA TILI TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING O'QIB TUSHUNISH SAVODXONLIGINI BAHOLOVCHI TOPSHIRIQLAR METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya: ushbu maqolada ona tili ta'limida o'quvchilarning o'qib tushunish savodxonligini baholashga qaratilgan mavjud metodik yondashuvlar tahlil qilinadi hamda ularni takomillashtirishga qaratilgan takliflar beriladi. O'qib tushunish jarayoni matnni faqatgina o'qish bilan cheklanib qoluvchi jarayon hisoblanib, ushbu jarayonda uning mazmunini anglash, tahlil qilish hamda baholash, shuningdek, ulardan olingan ma'lumotlardan foydalana olish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Shuningdek, zamonaviy pedagogika va lingvistik yondashuvlarning o'zaro uyg'unligi asosida baholash topshiriqlarini loyihalashning o'ziga xos tamoyillarini ilmiy nuqtayi nazardan baholash ham ushbu maqoladan ko'zlangan maqsad hisoblanadi. Bundan tashqari, o'qituvchilar uchun baholash jarayonida baholash vositalarini tanlash va ularni takomillashtirish borasidagi tavsiyalar ham ushbu maqola tarkibidan o'rin olgan masalalardandir.

Kalit so'zlar: o'qib tushunish savodxonligi, baholash metodikasi, ona tili ta'limi, pedagogika va tilshunoslik, baholash sistemasi, matn tahlili.

Аннотация: в данной статье анализируются существующие методические подходы к оценке понимания прочитанного учащимися в рамках обучения родному языку и даются предложения по их совершенствованию. Процесс понимания прочитанного рассматривается как процесс, ограниченный только чтением текста, и включает в себя способность понимать, анализировать и оценивать его содержание, а также умение использовать полученную информацию. Целью данной статьи является также научная оценка принципов построения оценочных заданий, основанных на взаимосвязи современных педагогических и лингвистических подходов. Кроме того, в статье рассматриваются рекомендации для учителей по выбору оценочных инструментов и их совершенствованию.

Ключевые слова: грамотность понимания прочитанного, методология оценки, обучение родному языку, педагогика и лингвистика, система оценки, анализ текста.

Annotation: this article analyzes existing methodological approaches to assessing students' reading comprehension in native language education and makes suggestions for their improvement. The reading comprehension process is considered a process that is limited to reading the text alone, and in this process includes the ability to understand, analyze and evaluate its content, as well as the ability to use the information obtained from them. Also, the aim of this article is to evaluate from a scientific point of view the specific principles of designing assessment tasks based on the mutual compatibility of modern pedagogical and linguistic approaches. In addition, recommendations for teachers on the selection of assessment tools in the assessment process and their improvement are also among the issues included in this article.

Key words: reading comprehension literacy, assessment methodology, native language education, pedagogy and linguistics, assessment system, text analysis.

Kirish. Barchamizga ma'lumki, ona tili pedagogika va tilshunoslik sohalarining uyg'unligi asosida olib boriladi. Ushbu jarayonda o'quvchilardagi to'rt ko'nikma: eshitish, yozish, o'qish, gapirish ko'nikmalarining rivojlantirilishi o'qituvchilar oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Keltirilgan ko'nikmalarining har biri ustida ishlash borasida ma'lum uslub va yondashuvlar mavjud bo'lib, bizning ushbu maqolamizda bevosita o'qish ko'nikmasi tarkibiga kiruvchi o'qib tushunish savodxonligini baholashga

qaratilgan metodlarni takomillashtirish xususida so'z yuritiladi.

Ona tili ta'limida o'quvchilarning o'qib tushunish savodxonligini baholashga qaratilgan mavjud metodik yondashuvlar, asosan, matnni tushunishning oddiy darajasini aniqlashga qaratilgan bo'lishi yoki faqatgina umumiy mazmunni tushunishga qaratilgan bo'lishi mumkin. Ammo zamonaviy ta'limda matnni o'qish yoki undagi umumiy mazmunni tushunishga qaratilgan baholash mezonlarining o'zi yetarli emas.

Bu jihatdan baholash tizimi o'quvchilarning matni tanqidiy baholash, muallifning ushbu matndan ko'zlangan asosiy maqsadini aniqlash hamda undan yangi xulosalar chiqarish kabi yuqori tafakkurga xos jarayonlarni ham qamrab olishi lozim. Ushbu maqoladan ko'zlangan maqsad ona tili ta'limida o'quvchilarning o'qib tushunish savodxonligini baholashga qaratilgan mavjud metodikalarni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish hamda ularni takomillashtirish borasida o'ziga xos yondashuvlarni taqdim etishdir.

Asosiy qism. O'qib tushunish ko'nikmasi bu murakkab kognitiv jarayon hisoblanib, u matn bilan faol o'zaro aloqani taqozo etadi [1:18]]. Pedagogikada o'qib tushunishning turli bosqichlari ajratiladi. Xususan, *matn mazmuniga yuzaki yondashuv*, ya'ni oddiy tushunish – bu jarayonida matnda keltirilgan ma'lumotlarni aniqlash (kim, nima, qayerda, qachon kabi savollarga javob berish); *chuqur tushunish* – bunda kontekstda bevosita aytilmagan, ammo kontekst mazmunidan kelib chiqib anglashiladigan ma'no, xususan, sabab-oqibat, qiyos, muallif maqsadi, umuman olganda, asardan olinadigan xulosa muhim hisoblanadi. *Kritik, ya'ni tanqidiy tushunish* – bunga ko'ra matnda keltirilgan ma'lumotlarga ilmiy nuqtayi nazardan baholash yoki muallif keltirgan fikrlarni tahlil qilish, dalillarning ishonchligini tekshirish, matndan ko'zlangan maqsad kabilarni qamrab oladi va ular orqali shaxsiy qarashlar shakllantiriladi. *Kreativ tushunish* – bunga ko'ra, olingan ma'lumotlarning yangi g'oyalarga ko'ra asoslanishi, matn asosida uning davomini shaxsiy mulohazalarga muvofiq davom ettirish, matn mazmuniga o'zgartirish kiritish kabi jarayonlar kiradi.

Ona tili ta'limida o'quvchilarning o'qib tushunish savodxonligini baholashga qaratilgan mavjud metodik yondashuvlarning zamonaviy talqini nafaqat o'quvchilarning bilimni aniqlash, balki uning rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga qaratiladi. **Xolislik, ishonchlilik, diagnostika, formativlik** kabi omillar ushbu jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi. An'anaviy ona tili darslarida o'qib

tushunishni baholashda, asosan, quyidagi usullardan foydalaniladi: *matn asosida savol-javoblar* – ushbu jarayon matn mazmuniga oid faktlarni aniqlashga qaratilgan, ammo bu yondashuvda ham o'ziga xos kamchiliklar mavjud bo'lib, unda faqatgina kontekstda keltirilgan ma'lumotlar yuzasidan baholanadi, o'quvchilarning tanqidiy fikrlashiga doir ko'nikmalarni bu yondashuv orqali baholab bo'lmaydi. *Test topshiriqlari orqali baholash* – bu ta'lim sohasida eng ko'p qo'llanayotgan tezkor va ommaviy uslub sanalib, unda matnda keltirilgan informativlar chuqur tushunishga asoslanmaydi va bunda ijodiy baholashni deyarli cheklangan. Matn mazmunini gapirib berish – bu yaxshi yondashuv, unda umumiy asar haqidagi tushunchalarni qayta gapirib berish orqali bilib olish mumkin, biroq bu usulda kontekstga xos bo'lgan kichik detallar e'tibordan chetda qoladi. Umuman olganda, ona tili ta'limida o'qib tushunish ko'nikmalarini baholashga qaratilgan metodlar zamon talablariga mutanosib emasdek, bizning nazarimizda. Sababi, baholashning faqatgina faktlarni yodlashga yoki yuzaki tushunishga qaratilganligi, tanqidiy tahlil, baholash, yaratuvchanlik qobiliyatlarining baholashdan chetda qolishi, baholash jarayoni faqatgina tekshirish uchun qo'llanib, bunda o'quvchilarning aqliy jihatdan rivojlanishiga qaratilgan biror omilning mavjud emasligi, shuningdek, baholash jarayonida multimodal vositalar ishtirokining sustligi, o'qituvchilarda zamonaviy baholash texnologiyalariga doir metodik yondashuvlarning mavjud emasligi ushbu sohaning asosiy kamchiliklari sifatida qayd etiladi[4: 45].

Yuqorida qayd etib o'tganimizdek, ushbu maqolamizdan ko'zlangan asosiy maqsad ona tili ta'limida mavjud baholovchi topshiriqlar metodikasini takomillashtirish hisoblanadi va biz bu borada quyidagi yangi yondashuv va vositalarni taklif qilamiz. O'qib tushunish jarayonida tanqidiy fikrlashni baholashga qaratilgan topshiriqlarni kiritish zamonaviy yondashuvlardan biri sifatida xizmat qiladi, ushbu jarayon quyidagilarni qamrab olishi bilan ahamiyatlidir:

T/r	Tanqidiy fikrlashni baholashga qaratilgan topshiriqlar	Ulardan ko'zlangan maqsad
1	Argument tahlil	Matnda keltirilgan asosiy g'oyani aniqlash, uni matn asosida dalillash, ishonchligini baholash
2	Muallif maqsadini aniqlash	Matnda qayd etilgan muallif maqsadi nima – o'quvchiga axborot berishmi, yangi ma'lumot uzatishmi yoki o'quvchining asardan olingan xulosalarini hayotga tatbiq etishini ko'zlashmi...
3	Kontekstdan o'rin olgan ma'lumotlarni baholash	Matnda keltirilgan faktlar, statistik ma'lumotlar, dalillarning asoslilik darajasini tekshirish

4	Xulosa chiqarish	Kontekst va shaxsiy xulosalar o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash hamda asar asosida xulosa chiqarish
5	Qiyosiy tahlil (imkon qadar adabiyot darslari bilan bog'lagan holda hamda vaqt omilini hisobga olgan holda amalga oshirish maqsadga muvofiq)	Ona tili darslarida keltirilgan tematikaga doir ikki xil matnlarni qiyoslash, ular orasidagi o'zaro o'xshash va farqli xususiyatlarni aniqlash, muallif yondashuvlarini o'zaro qiyosan tahlil qilish.

2.1-jadval. Tanqidiy fikrlashni baholashga qaratilgan topshiriqlar va ulardan ko'zlangan maqsad.

Yoki bo'lmasa zamon bilan hamnafas holda dars jarayoniga *multimodal matnlarni tatbiq qilish* va ularni tahlil qilishga qaratilgan topshiriqlar bilan o'quvchilarga yuzlanish ham ta'lim va zamon uyg'unligiga xizmat qilib, baholash kriteriyalarining takomiliga xizmat qiladi. Globallashuv davrida axborotlar faqatgina matn ko'rinishida emas, balki vizual vositalar, masalan, rasm, grafik, jadval, diagramma, audio va video tasvirlar uyg'unligida jamiyatga uzatilayotganligi dars jarayoniga ham ushbu matnlarni tatbiq etishni talab qiladi. Endilikda o'quvchilar faqatgina kontekstlarni emas, balki axborotning turli shakllarini uyg'un holda tushuna va tahlil qila olishlari kerak. Masalan, grafik yoki jadvallarni tushunish hamda ularda keltirilgan matnli axborotlarni anglash, tushuntira olish (ularda qayd etilgan statistik ma'lumotlarni jadval yoki grafik asosida tushuntira olish ko'nikmalarini rivojlantirish). Ta'kidlash lozimki, IELTS xalqaro ingliz tili test topshiriqlarining ba'zi shakllari ham aynan shu jihatni qamrab oladi, ya'ni jadval yoki grafalarda aks etgan ma'lumotlarni ko'rib, ular haqida keltirilgan qisqa ma'lumotlarni o'qib, o'zlarining shaxsiy mulohazalarini ularda aks etgan ma'lumotlar asosida qisqa va lo'nda bayon qila olish [5: 12].

Ona tili ta'limida o'quvchilarning o'qib tushunish savodxonligini baholashga qaratilgan topshiriqlarga

kreativlik baxsh etish ham dars sifatiga ta'sir etmay qolmaydi, bu jarayonda o'quvchilarga o'qib tushunishga taqdim etilgan matnni davom ettirish yoki o'zgartirishga bog'liq topshiriqlar bilan ishlash ham o'qituvchining metodologik yondashuviga asoslanadi. Yoki o'quvchilarning berilgan matnni qay darajada o'qib tushunganliklarini yanada kengroq anglash uchun ushbu matn asosida shaxsiy fikrlarini ifoda etuvchi ijodiy asar yaratish ham zamonaviy yondashuvlardan biri hisoblanadi.

Shuni ham alohida qayd etish lozimki, ona tili ta'limida o'qib tushunish savodxonligini baholashga qaratilgan topshiriqlarni qamrab olgan baholovchi tizimga xos rubrikalarni ishlab chiqish ham o'qitishning o'ziga xos uslubidir. Bunda har bir baholashga qaratilgan topshiriqlar uchun aniq baholash mezonlarini hamda ushbu jarayondagi xolislik tuzilmasining aks etishi ham o'qish tizimida samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa.Xulosa sifatida aytish mumkinki, o'qib tushunish savodxonligini baholash metodikasini takomillashtirish ona tili ta'limining samaradorligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. O'quvchilarning matnni nafaqat yuzaki tushunishini, balki uni tanqidiy tahlil qilish, baholash va olingan ma'lumotdan ijodiy foydalanish qobiliyatlarini ham baholay oladigan zamonaviy, diagnostik va formativ vositalarni joriy etish zamonaviy pedagogika sohasi oldiga qo'yilgan talablardan biri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Asqarova M. Ona tili va o'qish savodxonligini o'qitish jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishning metodik asoslarini takomillashtirish (PISA va PIRLS misolida). Fil.fan.dok.diss... – Toshkent, 2024.
2. Charles Alderson. Assessing Reading. – Cambridge University Press, 2000.
3. Ismailov A. va boshq. Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash. – Toshkent: Sharq, 2019.
4. Jalilov K. Baholash nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2020.
5. Muxitdinova X.S. O'zbek tilini o'qitish metodikasi (o'zga tilli guruhlarda) Monografiya. –T., 2021.
6. Yo'ldoshev R.A. Ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablarda o'zbek tilini o'qitish metodikasi / Monografiya. –T., 2015.
7. Zakirova M., Ermatova N. Test tuzish metodikasi va ekspertizasi. Uslubiy qo'llanma. – Toshkent, 2016.
8. Балыхина Т.М. Методика преподавания русского языка как неродного (нового) / Учебное пособие. –М., 2007.

TINGLAB TUSHUNISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

Annotatsiya: bugungi kunda chet tillarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Til o'rganuvchi uchun og'zaki nutqni to'g'ri eshitish va anglash real muloqotga kirishishga imkon beradi. So'nggi yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi tinglab tushunish jarayonini o'rgatishda samarali xizmat qilmoqda.

Kalit so'zlar: metodika, o'zbek tili, xorijiy til, tinglab tushunish, mashq, til materiali, raqamli texnologiyalar.

Аннотация: сегодня изучение иностранных языков приобретает все большее значение. Для изучающего язык Правильный слух и понимание устной речи позволяет вступить в реальное общение. В последние годы развитие информационно-коммуникационных технологий эффективно служит обучению процессу понимания на слух.

Ключевые слова: методика, узбекский язык, иностранный язык, понимание на слух, упражнения, языковой материал, технические средства.

Annotation: today, learning foreign languages is becoming increasingly important. For language learners, proper listening and comprehension of spoken language allows them to engage in real communication. In recent years, the development of information and communication technologies has effectively contributed to the learning process of listening comprehension.

Key words: methodology, Uzbek language, foreign language, listening comprehension, exercises, language material, and technical tools.

Hozirda chet elliklarga o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitish dolzarb masaladir. O'zining boy lisoniy merosi va madaniy ahamiyatiga ega bo'lgan o'zbek tili o'qitishning innovatsion uslublarni o'rganish uchun jozibali misoldir. O'zbekistonning rasmiy tili bo'lgan va butun dunyo bo'ylab millionlab odamlar so'zlashadigan til sifatida o'zbek tilini bilish darajasini oshirishning ahamiyati milliy chegaralardan tashqarida ham, madaniy almashinuv, ilmiy izlanishlar va iqtisodiy imkoniyatlarni qamrab oladi. Til o'rganishda 4 ta nutqiy faoliyatning o'z o'rnini bor. Zamonaviy darsliklardagi ma'lumotlarga ko'ra jonli muloqotda tinglab tushunishning ulushi 42 foizdir. Tinglab tushunish – nutqiy faoliyatning retseptiv turi bo'lib, eshitilayotgan nutqni qabul qilish va uning mazmunini tushunishdan iborat. Gapirishni o'rganishdan ko'ra tinglab tushunishga erishish qiyinroq kechadi.

Olimlarning fikriga ko'ra, gapirish va tinglab tushunish og'zaki nutq demakdir. Ona

tilidagi nutqni tinglab tushunishda shakl va mazmun yaxlit ravishda idrok qilinadi, chet tilda ifoda vositasi (til materiali) va ifodalanmish mazmun (matn) uyg'unlashishi qiyinchilik bilan kechadi. Mazmunni ilg'ash (payqash) uchun leksik-grammatik hodisalarni yaxshi o'zlashtirgan, boshqacha qilib aytganda, tinglab tushunishning leksik va grammatik ko'nikmalari puxta shakllangan bo'lishi kerak [2.221].

Tadqiqotchi olim J. Jalolov fikriga ko'ra, tinglab tushunish nutq malakalarini shakllantirish bilan bevosita bog'liq holda olib boriladi. Gapirish, o'qish va yozuvni o'rgatish jarayonida o'quvchilar tinglab tushunish bilan shug'ullanishadi, shu bilan bir paytda til materialini o'rgatishga ham e'tibor berib boriladi. Ushbu metodik usul samaraliroqdir.

Chet til o'qitish metodikasi darsligida tinglab tushunishning muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun quyidagi uch omil nazarda tutiladi. Tinglovchining o'ziga bog'liqlik (eshitish malakasining rivojlanganligi, xotirasi, diqqat

xususiyatlari), tinglash shart-sharoiti (nutq tezligi, til materiali hajmi va shakl hamda so'zlanayotgan nutqning qancha vaqt davom etishi) va nihoyat, qo'llangan materialning lingvistik jihatlari (tinglovchi til tajribasiga mos kelish-kelmasligi) hisobga olinadi.

Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda tinglab tushunishni o'rgatishda axborot texnologiyalaridan foydalanish tavsiya etiladi. Dars jarayonida ta'limiy platformalar, audio-video materiallar, mobil ilovalar, multimedialardan foydalanish tinglab tushunishni shakllantirishda yordam beradi.

Tinglash uchun matn (audiomatn) larni tanlashda yoki yaratishda gap ko'p. O'quvchilarning yoshiga mos, qiziqishini uyg'otadigan, mantiqan aniq, nutqning monolog va dialog shaklini o'z ichiga olgan, axborotga boy audiomatn o'z tinglovchisiga yoqib tushadi. O'quvchiga tinglab tushunish jarayonida quyidagilar o'rgatiladi: so'z va so'z birikmalarining shaklini va grammatik strukturalarni g'ayriushuuriy ravishda farqlay olish; nutq namunasi (jumla)ni tinglab, oldindan fahmlay olish; eshitish xotirasi hajmini o'stirish; o'rganilgan til materialini turli birikmalarda tushuna olish, texnikaviy vositalarga yozilgan nutqni tushunish; bir karra aytilgan fikrni fahmlash; mo'tadil tezlikdagi nutqni tushunish; audiomatnda notanish leksik birliklar bo'lishiga qaramay, uning umumiy mazmun va mohiyatini ilg'ab olish; turli yo'nalishdagi (tasviriy, ertaknamo ko'p planli) audiomatnni tushunish [2.227].

O'zbek tilini o'qitish metodikasi darsligida tinglab tushunishga o'rgatish bosqichlari haqida quyidagi ma'lumotlar berilgan

1. Yo'naltirish va motivatsiya bosqichi. Bu bosqichda nutqiy muloqotni keltirib chiqaradigan vaziyat yaratiladi. Til o'rganuvchilar tinglanadigan matnning nima haqda ekanligiga doir taxminlarini bildiradilar. Keyin ularga matnni tinglashga tayyorlovchi topshiriqlar beriladi, bu mashqlar muloqot vaziyatida to'g'ri yo'l topish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratiladi (matnning nomi, rejasi, ko'rgazmali vositalari, annotatsiyaga qarab uning mavzusi yoki mazmuni haqida taxmin qilish).

2. Mashq qilish bosqichi. Ushbu bosqichda audiomatn tarkibiga kirgan lingvistik material bilan ishlash ko'zda tutiladi. Eshitish qobiliyatini

rivojlantirishga qaratilgan (imitatsiya, almashtirish, aralash, transformatsiya), fonetik, leksik-grammatik mashqlardan foydalaniladi.

3. Birinchi marta tinglash va nazorat. Unda xabarni to'liq tushunish malakalari shakllantiriladi, axborot mashqlari bajariladi (savol-javob, tasdiq va inkor)

4. Ikkinchi marta tinglash va nazorat. Audiomatnni uning tafsilotlari bilan va tanqidiy tushunish maqsadida tinglash ko'zda tutiladi. Bu bosqichda eshitilgan axborotni zichlash, talqin qilish va unga baho berish malakalarini rivojlantiradigan reproduktiv va nazorat mashqlari, pragmatik-muloqot mashqlariga alohida e'tibor qaratiladi [1.125]. Ushbu bosqichlarda video bloglar, subtitrli videolar, sun'iy intellekt asosidagi dasturlar, Ibrat academy kabi mobil ilovalardan foydalanish ijobiy natija beradi.

Darsliklarda tinglab tushunish ko'nikmalarini shakllantirishdagi mashqlarda so'zlarni tinglash, takrorlash, tarjima qilish, yozuvda berilgan ifodasini topish, audioyozuvni tinglab, unga oid savolga berilgan variantlardan to'g'ri javobni topish, dialogni tinglab davom ettirish kabi vazifalar tavsiya etiladi. Ushbu tavsiyalarni amalga oshirishda Google Classroom yoki Microsoft Teams platformalarida darslarni tashkil etish mumkin.

Leksik birliklarni tinglash va ko'rish orqali tanishga yordam beradigan mashqlar sirasiga quyidagilar kiradi:

- o'qituvchi aytgan predmetlarni ko'rsatish;
- o'qituvchi aytgan harakatlarni bajarish;
- tinglangan gapdagi so'zlar miqdorini aniqlash;
- so'zda tushib qoldirilgan harflar yoki harflar birikmalarini topish;
- o'zakka qarab so'z ma'nosini topish;
- qatorda berilgan so'zlardan mavzuga oid so'zlarni tanlash va h.k.[1.92].

Yuqoridagi mashqlarni darslarda hamda masofaviy darslarda ham qo'llash yuqori samara beradi. Jarayonni tashkillashtirishda raqamli texnologiya imkoniyatlaridan unumli foydalanish mumkin.

Zamonaviy texnologiyalar va internet tufayli deyarli har qanday ma'lumotni global tarmoqda topish va tashuvchida yozib olish

mumkin. O'zbek tilini o'qitishning barcha bosqichlarida o'quv videolari mavjud. Birinchi turdagi o'quv materiali to'g'ridan to'g'ri ekrandan o'qitish bilan tavsiflanadi, bu yerda o'qituvchi tuzilmalarning namunalarini namoyish etadi. O'qituvchining vazifasi o'quvchilarning malaka va ko'nikmalarini oshirish uchun o'qituvchining kitobi va yordamchi vositalaridan foydalanishdir.

Ikkinchi turdagi videolarda tilning turli darajalarda qanday ishlatilishini ko'rsatadigan ko'proq ta'lim ma'lumotlari mavjud. Bu, odatda, mazmunan bir-biriga bog'liq bo'lmagan epizodlar bo'lib, unda murakkablik darajasi va nutq funksiyalari hisobga olinadi.

Qo'shiqlar kuchli mnemonik qurilmalar bo'lib xizmat qiladi, so'z boyligini saqlash va talaffuz qilish amaliyotiga yordam beradi. O'zbek qo'shiqlari til o'rgatishga qo'shilsa, o'quvchilarga chinakam lingvistik ma'lumotlar, madaniy tushunchalar va og'zaki nutqni rivojlantirish imkoniyatlarini beradi. Bundan tashqari, musiqaning ritmik tabiati tabiiy til ritmi va intonatsiyani o'zlashtirishni osonlashtiradi, til ravonligining muhim jihatlari. O'qituvchilar tushunarli so'zlari va jozibali ohanglari bo'lgan qo'shiqlarni tanlab, o'quvchilarda aks-sado beradigan unutilmas ta'lim tajribalarini yaratishlari mumkin.

Teatr-darslar nafaqat tarbiyaviy, balki ta'limiy jihatdan ham nihoyatda samaraliligi bilan ajralib turadi. Keyingi vaqtlarda avvallari darsdan tashqari mashg'ulot sifatida o'tkaziladigan ushbu ish turlari dars maqomini olmoqda. Teatr-darslarning boshqa darslardan farqi talabalar professional ijrochilar bilan yaqindan tanishadilar, ularni katta sahnada ko'rib, ijrolarini eshitadilar. Teatr-darslarda talabalar qahramonlar o'zbek tilining jozibasini, adabiy tildagi ifoda shakllarini eshitganlari uchun ta'sir kuchli bo'ladi. Aynan aktyorlar nutqi orqali monologik nutqning qo'llanilishi va xususiyatlari (ifodaviyligi, ta'sirchanligi, mantiqiyligi, sofligi, izchilligi) bilan tanishadilar, tilga bo'lgan qiziqishlari ortadi.[3.70]

Spektakllarni dars xonasida yoki undan tashqarida video yozuvda ko'rish ham ijobiy natija beradi.

Xulosa. Tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalar katta imkoniyatlar yaratadi. Ular o'quvchiga autentik materiallarni erkin topish, interaktiv mashqlar bajarish va mustaqil ravishda tinglash malakasini oshirishga yordam beradi. Shunday qilib, texnologiyalar til o'rganish jarayonini samarali, qiziqarli va natijali qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G.A.Asilova. O'zbek tilini o'qitish metodikasi: darslik. – Toshkent, "PUBLISHING HIGH FUTURE" OK nashriyoti, 2024.
2. J.Jalolov. Chet til o'qitish metodikasi: darslik. – "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi – Toshkent, 2012.
3. Muxitdinova X.S. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish metodikasi: o'quv qo'llanma. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.

Kamola ABDUJABAROVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
mustaqil izlanuvchisi

YANGILIK MATNLARI ASOSIDA TALABALARINING INGLIZ TILIDAGI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH MODELI

Annotatsiya: mazkur maqolada yangilik matnlaridan foydalanish orqali talabalarining ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning samarali usullari tadqiq etiladi. Unda yangilik matnlarining dolzarbligi, mavzularning aktual va hayotiy bo'lishi talabalarni faol muloqotga undashi ta'kidlanadi. Model asosida ingliz tilining to'rt asosiy ko'nikmasi — tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirish — integratsiyalashgan holda rivojlantirilishi mumkinligi asoslab beriladi. Mazkur model o'qitish jarayoniga interaktiv uslublarni joriy etish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish hamda til o'rganishga bo'lgan motivatsiyani oshirishga xizmat qiladi. Ilmiy maqola natijalariga ko'ra, yangilik matnlaridan foydalanish ingliz tili o'rganish jarayonini real hayot bilan bog'lashga imkon berib, talabalar o'rtasida muloqot kompetensiyasini samarali shakllantirishga zamin yaratadi.

Kalit so'zlar: yangilik matnlari, kommunikativ kompetensiya, interaktiv metodlar, til o'rgatish modeli, ta'lim jarayoni, muloqot malakasi, motivatsiya.

Annotation: this article explores effective methods for developing students' communicative competence in English through the use of news texts. It emphasizes that the relevance of news texts, topicality and real-life topics encourage students to engage in active communication. Based on the model, it is argued that the four main skills of the English language - listening comprehension, reading, writing and speaking - can be developed in an integrated manner. This model serves to introduce interactive methods into the teaching process, develop critical thinking and increase motivation for language learning. According to the results of the scientific article, the use of news texts allows connecting the process of learning English with real life, creating a basis for the effective formation of communication competence among students.

Key words: news texts, communicative competence, interactive methods, language teaching model, educational process, communication skills, motivation

Аннотация: в данной статье рассматриваются эффективные методы развития коммуникативной компетенции студентов на английском языке посредством использования новостных текстов. Подчеркивается, что актуальность новостных текстов, злободневность и близость к реальной жизни стимулируют студентов к активному общению. На основе данной модели утверждается, что четыре основных навыка английского языка – аудирование, чтение, письмо и говорение – могут быть развиты комплексно. Данная модель способствует внедрению интерактивных методов в процесс обучения, развитию критического мышления и повышению мотивации к изучению языка. Согласно результатам научной статьи, использование новостных текстов позволяет связать процесс изучения английского языка с реальной жизнью, создавая основу для эффективного формирования коммуникативной компетенции студентов.

Ключевые слова: новостные тексты, коммуникативная компетентность, интерактивные методы, модель обучения языку, образовательный процесс, коммуникативные навыки, мотивация

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida ingliz tili xalqaro muloqot vositasi sifatida o'z ahamiyatini tobora oshirib bormoqda. Axborot texnologiyalari, ilmfan, madaniyat va iqtisodiyot sohalarida bo'layotgan tezkor o'zgarishlar til o'rganish metodologiyasiga yangicha yondashuvni talab qilmoqda. Xususan,

ingliz tilini o'rganayotgan talabalar uchun til ko'nikmalarini nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy, ya'ni kommunikativ mahorat asosida rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kommunikativ kompetensiya deganda, o'rganilayotgan tilni real muloqot sharoitida to'g'ri

va samarali qo'llay olish qobiliyati tushuniladi. Bu kompetensiya faqatgina grammatik bilimlar va lug'at boyligini egallash bilangina cheklanmay, balki ijtimoiy, madaniy va pragmatik omillarni ham o'z ichiga oladi. Shuning uchun ham zamonaviy ta'lim jarayonida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiluvchi o'quv materiallarini tanlash muhim vazifalardan biridir. Shu nuqtayi nazardan qaranganda, yangilik matnlari til o'rganish jarayonida juda muhim resurs bo'lib xizmat qilishi mumkin. Chunki ular dolzarb mavzularni yoritadi, real hayotga yaqin voqealarni o'z ichiga oladi hamda talabalar fikrlashini faollashtiradi. Yangilik matnlari orqali talabalar turli ijtimoiy, siyosiy va madaniy muammolar bilan tanishadi, shu asosda o'z fikrini ingliz tilida ifoda etishga harakat qiladi. Bu esa ularning tanqidiy fikrlashini, til sezuvchanligini va muloqotga tayyorligini oshiradi.

Maqolada aynan shu manbalar – yangilik matnlari asosida ingliz tili bo'yicha kommunikativ kompetensiyani shakllantirish modeli ishlab chiqiladi. Taklif qilinayotgan model orqali talabalar ingliz tilining asosiy ko'nikmalarini (tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirish) integratsiyalashgan holda rivojlantirishlari, shuningdek, turli ijtimoiy mavzularda erkin muloqot qilish malakasini egallashlari ko'zda tutilgan. Ushbu ilmiy izlanish zamonaviy til o'qitish metodikasiga yangicha yondashuvni taklif etadi va o'qituvchilar uchun amaliy qo'llanma vazifasini o'tashi mumkin.

Tahlil va natija. Tilni o'rganish jarayonida kommunikativ kompetensiya – o'rganuvchining til vositasida samarali muloqot qila olish qobiliyati – eng muhim maqsad hisoblanadi. Ushbu tushuncha dastlab D.Hymes tomonidan taklif etilgan va keyinchalik M.Canale va M.Swain tomonidan yanada rivojlantirilgan. Kommunikativ kompetensiya quyidagi asosiy komponentlardan tashkil topadi: grammatik kompetensiya (til qoidalarini bilish), ijtimoiy-lingvistik kompetensiya (tilni madaniy va ijtimoiy kontekstda qo'llash), diskursiv kompetensiya (nutqni izchillik va mantiq bilan tashkil qilish) va strategik kompetensiya (muloqotdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun turli strategiyalardan foydalanish).

Yangilik matnlari – bu zamonaviy hayotiy voqealar va jamiyatdagi o'zgarishlarni yorituvchi axborot vositalaridagi maqolalar va xabarlardir. Bu matnlar talabalarni haqiqiy kontekstga yaqinlashtirib, ular bilan aktual mavzular asosida fikr almashishga imkon

yaratadi. Yangilik matnlari yordamida o'quvchilar nafaqat til ko'nikmalarini oshiradi, balki tanqidiy fikrlash va muloqot madaniyatini ham rivojlantiradi. Shu bois, yangilik matnlarini ingliz tilini o'rgatishda samarali vosita sifatida qo'llash ta'lim jarayonini yanada jonlantiradi.

Ushbu model quyidagi bosqichlardan iborat:

Tayyorgarlik bosqichi: talabalar uchun matn mavzusi bo'yicha asosiy so'zlar va iboralarni o'rganish, mavzuga oid ijtimoiy-madaniy kontekstni tushunishga tayyorlash.

Asosiy o'rganish bosqichi: yangilik matnini o'qish, tushunish va matnga oid savol-javoblar orqali muloqot ko'nikmalarini shakllantirish. Talabalar matndagi faktlar va fikrlarni ajratib o'rganadi, muammolarni muhokama qiladi.

Amaliy kommunikatsiya bosqichi: juftlik va guruhlarda rol o'ynash, bahs-munozara, taqdimot qilish kabi interaktiv mashqlar orqali o'z fikrini erkin ifoda etish.

Refleksiya va baholash bosqichi: o'z faoliyatini tahlil qilish, muloqotdagi ishtirokini baholash va yangi mavzular bo'yicha mustaqil ishlarni amalga oshirish.

Modelni amaliyotda qo'llash natijasida talabalar til ko'nikmalarida sezilarli yutuqlarga erishdi. Ular nafaqat grammatik jihatdan mustahkamlandi, balki og'zaki va yozma nutqda faolroq ishtirok etdi, mavzu yuzasidan mustaqil fikr bildirishi kuchaydi. Yangilik matnlari asosidagi mashg'ulotlar talabalarning tanqidiy fikrlash va interaktiv muloqot qobiliyatlarini rivojlantirdi, ularni real hayotdagi til vaziyatlariga tayyorladi.

Ushbu tadqiqot doirasida yangilik matnlari asosida ishlab chiqilgan kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish modeli oliy ta'lim muassasasida ikki guruh talabalar ishtirokida sinovdan o'tkazildi. Tajribaviy guruhda o'quv jarayoni model asosida tashkil etilgan bo'lsa, nazorat guruhi an'anaviy metodika bilan o'qitildi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, tajribaviy guruhdagi talabalar til ko'nikmalarida aniq ijobiy o'zgarishlarni namoyon etdilar. Ayniqsa, og'zaki nutq faoliyati, ya'ni suhbatlashish, fikr almashish va muhokama qilish ko'nikmalarida sezilarli rivojlanish kuzatildi. Yangilik matnlari yordamida o'tkazilgan mashg'ulotlarda talabalar mavzuni chuqurroq tahlil qilib, matndan olingan ma'lumotlar asosida o'z fikrlarini ravon ifodalashga o'rgandilar. Shuningdek, yangilik matnlari asosidagi darslar talabalarni muloqotga faol

jalb etib, ularning tilga bo'lgan motivatsiyasini oshirdi. Talabalar o'zaro fikr almashish, bahs-munozaralarda ishtirok etish, taqdimot qilish kabi faoliyatlarda faolroq qatnashdilar. Bu esa ularning ingliz tilida mustaqil fikr yuritish va uni erkin ifoda etish qobiliyatlarini rivojlantirdi.

Modelning yana bir ijobiy jihati – talabalar tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini ham rivojlantirishidir. Yangilik matnlari asosida olib borilgan mashg'ulotlar natijasida talabalarda nafaqat til bilimlari, balki voqealarni tahlil qilish, muammolarni aniqlash va yechim taklif qilish qobiliyatlari shakllandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, yangilik matnlari asosida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish modeli ta'lim jarayonida samarali qo'llanilganda, talabalar ingliz tilida real hayotiy vaziyatlarda erkin va faol muloqot qila oladi. Shu bois, mazkur modelni keng miqyosda qo'llash ta'lim sifatini oshirishga va talabalarni xalqaro muloqotga tayyorlashga xizmat qiladi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, yangilik matnlari asosida tashkil etilgan ta'lim modeli talabalarining ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyasini samarali rivojlantirish imkonini beradi. Yangilik matnlari o'quvchilarni real hayotiy vaziyatlar bilan tanishtirib, ularni faol muloqotga undaydi, shu bilan birga til ko'nikmalarini

integratsiyalashgan holda shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur model orqali talabalar nafaqat tilning grammatik va lug'aviy jihatlarini mustahkamlabgina qolmay, balki madaniy kontekstni tushunish, tanqidiy fikrlash va turli kommunikativ vaziyatlarda moslashish kabi ko'nikmalarni ham egallaydilar.

Tajriba sinovlaridan olingan ma'lumotlar yangilik matnlari yordamida olib borilgan darslarda talabalar muloqotda faol ishtirok etgani, fikr almashishda erkinligi va o'z fikrini aniq ifoda eta olish qobiliyatlari sezilarli darajada oshgani haqida dalolat beradi. Shu sababli, ta'lim jarayonida yangilik matnlarni muntazam va tizimli qo'llash o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi hamda ularning ingliz tilida mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, yangilik matnlari asosida ishlab chiqilgan ingliz tili o'qitish modeli zamonaviy til o'rgatish metodikasining samarali vositasi sifatida e'tirof etilishi mumkin. Ushbu modelni oliy ta'lim muassasalarida qo'llash til o'rganish jarayonining sifatini yaxshilash, talabalar kommunikativ qobiliyatlarini oshirish va ularni xalqaro miqyosda muloqotga tayyorlashga xizmat qiladi. Kelgusida ushbu modelni yanada takomillashtirish, yangi interaktiv texnologiyalar bilan integratsiya qilish va turli yosh guruhlari uchun moslashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. ABDUJABBOROVA, K. ZAMONAVIY OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA INGLIZ TILINING O'RNI VA UNING MALAKA DARAJASI TALABLAR. *Наука и инновация*, [S. I.], v. 3, n. 21, p. 17–19, 2025. Disponível em: <https://www.inlibrary.uz/index.php/scin/article/view/106221>. Acesso em: 15 abr. 2025.
2. Абдужабборовва К. Модель развития коммуникативной компетенции студентов в английском языке на основе новостных текстов //Зарубежная лингвистика и лингводидактика. 2025. – Т. 3. – №. 4/С. – С. 82-86.
3. Abdujabborova K. O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA JURNALISTIKA YO'NALISHIDAGI TALABALARIGA INGLIZ TILI O'QITISH AMALIYOTI //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. 2025. – Т. 4. – №. 4. – С. 97-99.
4. Abdujabborova K. XALQARO MEDIA MUHITIDA INGLIZ TILINI BILISH DARAJASIGA QO'YILADIGAN STANDARTLAR VA REAL EHTIYOJLAR //Молодые ученые. 2025. – Т. 3. – №. 21. – С. 14-16.
5. Abdujabborova K. ZAMONAVIY OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA INGLIZ TILINING O'RNI VA UNING MALAKA DARAJASI TALABLAR //Наука и инновация. 2025. – Т. 3. – №. 21. – С. 17-19.
6. Abdujabbarova K. IMPROVING THE EDUCATIONAL PROCESS THROUGH INCREASING COMMUNICATIVE COMPETENCE //Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research. – 2025. – Т. 12. – №. 05. – С. 492-495.
7. K.Abdujabborova. UTILIZING GAMIFICATION IN TEACHING ENGLISH FOR SPECIFIC PURPOSES (ESP) TO ENHANCE ENGAGEMENT AND LEARNING OUTCOMES. (2025). *International Journal of Artificial Intelligence*, 5(05), 996-999.

Dilorom SULTANOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
mustaqil izlanuvchisi

KOMMUNIKATIV USLUB STRATEGIYALARNI QO'LLASH TEXNOLOGIYASI VA MASHQLAR TIZIMI

Annotatsiya: ushbu maqolada kommunikativ uslub strategiyalarini o'rgatish va amaliyotga tatbiq etish texnologiyasi, shuningdek, samarali mashqlar tizimini yaratish tamoyillari tahlil qilinadi. Kommunikativ yondashuv asosida til o'rganishda strategik yondashuvning ahamiyati, o'quvchilar til kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar turlari, ularni tanlash va qo'llash mexanizmlari ilmiy asosda yoritiladi. Maqolada shuningdek, til o'rgatishda interaktiv metodlar, rolda o'ynash, muammoli vaziyatlar orqali muloqotga kirishish kabi usullar samaradorligi tajriba asosida ko'rsatilgan. Natijada, kommunikativ strategiyalarni o'rgatishda kompleks yondashuv va bosqichma-bosqich mashqlar tizimi orqali o'quvchilarning og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirish yo'llari asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: *kommunikativ uslub, til o'rgatish texnologiyasi, strategik yondashuv, mashqlar tizimi, nutq kompetensiyasi, interaktiv metodlar, muloqot strategiyalari, rolda o'ynash, til o'rganish, muammoli vaziyatlar.*

Annotation: this article analyzes the technology of teaching and applying communicative style strategies in practice, as well as the principles of creating an effective exercise system. The importance of a strategic approach in language learning based on a communicative approach, types of exercises aimed at developing students' language competence, mechanisms for their selection and application are scientifically covered. The article also demonstrates the effectiveness of such methods as interactive methods in language teaching, role-playing, and communication through problem situations on the basis of experience. As a result, ways to develop students' oral and written speech skills through a comprehensive approach to teaching communicative strategies and a step-by-step exercise system are substantiated.

Key words: *communicative style, language teaching technology, strategic approach, exercise system, speech competence, interactive methods, communication strategies, role-playing, language learning, problem situations.*

Аннотация: в статье анализируется технология обучения и применения стратегий коммуникативного стиля на практике, а также принципы создания эффективной системы упражнений. В научном плане освещается важность стратегического подхода в обучении языку, основанного на коммуникативном подходе, виды упражнений, направленных на развитие языковой компетенции студентов, механизмы их отбора и применения. Также в статье показана эффективность таких методов, как интерактивные методы обучения языку, ролевые игры и проблемно-ситуативное общение на основе опыта. В результате обоснованы способы развития навыков устной и письменной речи студентов посредством комплексного подхода к обучению коммуникативным стратегиям и пошаговой системы упражнений.

Ключевые слова: *коммуникативный стиль, технология обучения языку, стратегический подход, система упражнений, речевая компетенция, интерактивные методы, коммуникативные стратегии, ролевые игры, изучение языка, проблемные ситуации.*

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida xorijiy tilni o'rganish va uni samarali o'rgatish masalasi dolzarb muammolardan biriga aylangan. Til – bu nafaqat aloqa vositasi, balki inson tafakkuri, madaniyati va

dunyoqarashining ifodasidir. Shu sababli, til o'rgatishda faqat grammatik qoidalarni o'rganish bilan cheklanib qolmasdan, balki muloqotga kirisha olish, fikrni erkin ifoda etish, turli kommunikativ vaziyatlarda mos

strategiyalarni tanlay olish ko'nikmalarini shakllantirish muhim hisoblanadi.

Kommunikativ yondashuv zamonaviy til ta'limining asosiy tamoyillaridan biri bo'lib, u o'quvchilarni til vositasida faol muloqotga undaydi. Ushbu yondashuvda o'rganuvchi markazga chiqarilib, tilni real hayotiy vaziyatlarda qo'llashga urg'u beriladi. Bunda kommunikativ uslub strategiyalarini o'z vaqtida va to'g'ri tanlay olish, ularni mashqlar orqali takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolada kommunikativ uslub strategiyalarini samarali qo'llash texnologiyasi, ularni o'quv jarayonida tatbiq etish yo'llari, shuningdek, tegishli mashqlar tizimini shakllantirish bo'yicha ilmiy-nazariy va amaliy jihatlar tahlil qilinadi. Maqolaning asosiy maqsadi – til o'rgatishda kommunikativ kompetensiyani rivojlantiruvchi strategiyalarni aniqlash va ularni amaliyotga tatbiq etish usullarini ko'rsatishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Til o'rgatishda kommunikativ yondashuvning dolzarbligi ko'plab xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Til o'rganish jarayonida muloqotga asoslangan yondashuv XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab keng miqyosda tatbiq etila boshladi. Xususan, Hymes (1972) tomonidan ilgari surilgan "kommunikativ kompetensiya" tushunchasi ushbu yondashuvning nazariy asosini yaratdi. U tilni o'rganishda faqat grammatik bilim emas, balki uni ijtimoiy va madaniy kontekstda to'g'ri qo'llay olishni ham muhim deb biladi.

Canale va Swain (1980) o'z tadqiqotlarida kommunikativ kompetensiyani to'rt asosiy tarkibiy qismga ajratadi: grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik kompetensiyalar. Ayniqsa, strategik kompetensiya – ya'ni muloqot davomida yuzaga kelgan muammolarni hal qilish uchun qo'llaniladigan til vositalaridan foydalanish – o'rganuvchining faol kommunikatsion qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Mahalliy tadqiqotlarda ham kommunikativ yondashuv va uning metodik asoslari chuqur o'rganilgan. Xususan, Q.Yo'ldoshev, Z.Mamorasulova, M.Jo'rayev kabi olimlar o'z asarlarida til o'rganishda kommunikativ strategiyalarni qo'llashning samaradorligi,

mashqlar tizimini shakllantirishda real hayotiy vaziyatlardan foydalanish, rolda o'ynash, muammoli topshiriqlar orqali o'quvchilarning til ko'nikmalarini mustahkamlash bo'yicha amaliy tavsiyalarni ilgari surganlar.

Shuningdek, Larsen-Freeman (2000), Brown (2007) kabi xorijiy metodistlar til o'rgatishda kommunikativ metodning asosiy tamoyillarini ishlab chiqqan va ularni dars jarayonida qo'llash texnologiyalarini taklif etganlar. Ularning fikriga ko'ra, tilni o'rganish – bu faqat bilim olish emas, balki tajriba orqali tilni “boshdan kechirish” jarayonidir.

Ushbu adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kommunikativ strategiyalarni o'rganish va ularni mashqlar orqali tatbiq etish til o'rgatuvchi uchun muhim metodik vosita bo'lib xizmat qiladi. Ammo har bir strategiyani o'z o'rnida va kontekstda to'g'ri tanlash va moslashtirish o'qituvchidan puxta tayyorgarlikni talab etadi.

Tahlil va natija. Zamonaviy til o'qitish metodikasi tilni faqat bilimlar majmuasi sifatida emas, balki muloqot vositasi sifatida o'rgatishni taqozo etadi. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, kommunikativ yondashuv va uning doirasidagi strategiyalarni o'rgatish zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ajralmas qismidir. Til o'rganish jarayonida o'rganuvchi o'z fikrini erkin va to'g'ri ifoda eta olishi, suhbatdoshi bilan samarali muloqot olib borishi uchun turli kommunikativ strategiyalarni egallashi zarur.

Kommunikativ strategiyalar deganda, til o'rganuvchining muloqot davomida tushunmovchilikni bartaraf etish, kerakli so'z yoki iborani eslay olmagan holatlarda alternativ ifodalarni topish, suhbatni davom ettirish va boshqarish, muloqotda faol ishtirok etish maqsadida qo'llaydigan usul va texnikalari tushuniladi. Bu strategiyalar o'quvchining tilga oid bilimlarini chuqurlashtiradi va uni real muloqotga tayyorlaydi.

Tadqiqotchilar tomonidan bir qancha kommunikativ strategiyalar aniqlangan bo'lib, ular quyidaqilarni o'z ichiga oladi:

Parafrazlash strategiyasi – soʻz yoki ibora esga kelmagan holatda oʻxshash maʼnodagi boshqa soʻzlar yoki jumlar yordamida fikrni ifodalash.

Savol berish strategiyasi – tushunmagan yoki aniqlashtirishga muhtoj bo'lgan fikrni aniqlashtirish uchun savol orqali murojaat qilish.

Xatoni tan olish va tuzatish strategiyasi – o'z nutqidagi xatolikni aniqlab, to'g'rilash yoki uzr so'rash orqali muloqotni davom ettirish.

Kechiktirish strategiyasi – vaqt yutish uchun “let me think”, “how can I say it”, “well” kabi iboralar bilan nutqni kechiktirish.

Imo-ishora yoki tana tili orqali fikr ifodasi – leksik bilim yetishmagan holatlarda harakatlar, mimikalar orqali ma'no yetkazish.

Mazkur strategiyalar o'quvchilarning muloqotga kirishishiga yordam beradi, ularni tilni faqat yodlash emas, balki faol qo'llashga o'rgatadi.

Kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda to'g'ri tanlangan mashqlar muhim o'rin tutadi. Mashqlar quyidagicha tasniflanadi:

Rolda o'ynash mashqlari – ijtimoiy vaziyatlarni (do'konda xarid qilish, restoranda ovqat buyurtma qilish) teatr ko'rinishida bajarish orqali tilni real kontekstda qo'llash.

Muammoli vaziyatli mashqlar – o'quvchilarga biror muammoni (yo'l yo'qotish, mehmon kutib olish) hal qilish topshiriladi.

Juftlikda va guruhda ishlash mashqlari – savol-javoblar, fikr almashish, qarama-qarshi fikrlarni muhokama qilish orqali til amaliyoti olib boriladi.

Intervyu va so'rov mashqlari – o'quvchilar bir-biriga savollar beradi, to'plangan ma'lumotni umumlashtiradi.

Zanjirli suhbat mashqlari – har bir o'quvchi avvalgi fikrga javob beradi va o'z g'oyasini qo'shadi, bu esa muloqotni izchil davom ettirishga o'rgatadi.

Mazkur mashq turlari kommunikativ vaziyatni yaratib, o'quvchilarni faol suhbatdoshga aylantiradi, ularning strategik yondashuvdan foydalanish salohiyatini oshiradi.

Pedagogik tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, kommunikativ strategiyalarni tizimli o'rgatish va ularga mos mashqlarni qo'llash natijasida o'quvchilarning nutq faolligi oshadi, ularda muloqotga kirishishga bo'lgan ishonch shakllanadi. Ayniqsa, rolda o'ynash va juftlikda ishlash mashqlari o'quvchilarning tilni faol o'zlashtirishida yuqori samara beradi.

Xulosa. Zamonaviy til o'qitish metodikasi natijador va faol muloqotga asoslangan kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan bo'lib, bunda kommunikativ yondashuv muhim o'rin tutadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning real hayotiy vaziyatlarda samarali muloqot olib borish malakasi nafaqat tilga oid bilimlar, balki kommunikativ strategiyalarni egallash darajasiga ham bevosita bog'liq. Ana shu nuqtayi nazardan, kommunikativ strategiyalarni o'rgatish va ularni amaliy mashqlar orqali mustahkamlash – til o'rgatish jarayonining markaziy jihatlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Savignon, S. J. Communicative Language Teaching: Linguistic Theory and Classroom Practice. Yale University Press. 2002.
2. Sultonova, D. R. Pedagogik metodlar va kommunikativ kompetensiya. O'zbekiston pedagogika ilmlari, 3(5), 2020.45–52.
3. Sultanova, D. (2025). DIDACTIC FEATURES OF THE PROCESS OF MASTERING A COMMUNICATIVE STYLE. Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations, 1(1), 199–202. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/jmsi/article/view/84196>
4. Sultanova, Dilorom Baxadirovna ROLE OF INTERACTIVE METHODS IN TEACHING ESL LEARNERS // ORIENSS. 2023. №22. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/role-of-interactive-methods-in-teaching-esl-learners>
5. Baxadirovna, Sultanova D. “Teaching Students with Learning Disabilities: Perceptions of a First-Year Teacher.” International Journal on Integrated Education, vol. 4, no. 3, 2021, pp. 305-307, doi:10.31149/ijie.v4i3.1443.
6. Baxadirovna, Sultanova Dilorom. “Teaching students with learning disabilities: Perceptions of a First-Year Teacher.” (2021).



A light pink background with a white plus sign at the top center, a red wavy line at the top right, the text 'TADQIQOTLAR' in bold dark blue in the center, and a white plus sign at the bottom right.

Rahmon XUDOYQULOV,
Renessans ta'lim universiteti assistent-o'qituvchisi, magistr



“JANGNOMAYI ZUFUNUN” ASARIDA SINONIMLARNING QO‘LLANILISHI

Annotatsiya: bu tadqiqotning obyekti “Jangnomayi Zufunun” qissasida joy olgan sinonimlardir. Bu maqola 1911-yilda Mulla Sayyid Hoja Eshonning moddiy qo‘llovi natijasida Kogon (Buxoro) bosmaxonasida chop etilgan “Jangnomayi Zufunun” asariga asoslangan. Turkiy tillar bilan birgalikda arab va fors tillaridan ham keng foydalangan Turkiston xalqining leksikasida so‘z boyligining ortishi va o‘zlashgan so‘zlar natijasida sinonimik qatorning hosil bo‘lishi tabiiy holatdir va bu asarlarda estetik zavq beradigan muhim komponentdir. Sinonimlar esa asar yozilgan davr tilining leksik xususiyatlarini ochishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: “Jangnomayi Zufunun”, frazeologik sinonimiya, diniy sinonimiya, o‘z va o‘zlashgan so‘zlar.

Аннотация: объектом данного исследования являются синонимы, встречающиеся в повести “Джангномаи Зуфунун”.

Настоящая статья основана на произведении “Джангномаи Зуфунун”, которое было издано в Кокандской (Бухарской) типографии в 1911 году благодаря материальной поддержке Муллы Сайида Ходжи Эшона.

В лексике туркестанского народа, который широко использовал арабский и персидский языки наряду с тюркскими, накопление словарного запаса и образование синонимического ряда в результате заимствований являются естественным явлением и представляют собой важный компонент, обеспечивающий эстетическое наслаждение в этих произведениях. Синонимы имеют важное значение для раскрытия лексических особенностей языка периода, когда было написано произведение.

Ключевые слова: “Джангномаи Зуфунун”, фразеологическая синонимия, религиозная синонимия, исконные и заимствованные слова.

Annotation: the object of this research is the synonyms found in the narrative “Jangnomayi Zufunun” This article is based on the work “Jangnomayi Zufunun”, which was printed in the Kogand (Bukhara) printing house in 1911 as a result of the material support of Mulla Sayyid Hoja Eshon.

In the lexicon of the Turkestan people, who widely used Arabic and Persian alongside Turkic languages, the increase in vocabulary and the formation of synonymic series as a result of loanwords are a natural phenomenon and constitute an important component that provides aesthetic pleasure in these works. Synonyms are significant in revealing the lexical characteristics of the language of the period in which the work was written.

Key words: “Jangnomayi Zufunun”, phraseological synonymy, religious synonymy, native and borrowed words.

1. Kirish. Bugungi kunda jahon tilshunosligi nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishga katta e'tibor qaratmoqda. Xususan, so'zlarning ma'nosini o'rganish (leksik semantika) sohasidagi yangi ilmiy kashfiyotlar, lug'atlar tuzish (leksikografiya) jarayoniga katta ta'sir ko'rsatdi. Bu esa sinonimlarni lug'atlarda qayd etish va matn korpuslarida (katta matnlar to'plamida) ularni belgilash kabi muhim masalalarni kun tartibiga olib chiqdi. Dunyo tilshunoslari uchun

sinonimiya masalasi doimo dolzarb bo'lib kelgan. Endi tilshunoslik sinonimlarning nafaqat bir-biriga o'xshashligini, balki ular orasidagi nozik ma'no farqlarini ham chuqur o'rganmoqda. Ushbu yangi yondashuvlar, sinonimlarning hissiy yoki qo'shimcha ma'nolarini (konnotatsiya) va ular orasidagi ma'no darajalarining farqlanishi (graduatsiya) kabi hodisalarning ilmiy isbotlanishiga olib keldi. Bu esa so'zlarning ma'no tahlilida, kichik ma'no bo'laklaridan

umumiy ma'noga o'tishga imkon berdi. Natijada, ushbu tadqiqotlar tilning amaliy va ijtimoiy funksiyasini tushunishga yordam beruvchi yangi natijalarni keltirdi. Bu bo'yicha qator ilmiy ishlar qilingan. V.V.Morkovkin, undan so'ng L.Myorfi, P.Edmonds, G.Xirst, S.Felbaum kabi olimlar tomonidan korpus lug'atlariga doir salmoqli tadqiqot ishlari olib borildi. H.Bergenholts, D.Bosman, F.Hausman, J.Lyons kabi olimlar bu sohada bir qancha ilmiy izlanishlarini taqdim etishgan. O'zbek olimlaridan Sh.Rahmatullayev, E.Begmatov, I.Qo'chqortoyev, R.Rasulov, S.G'iyosov, B.Jo'rayev, R.Safarova, M.Narziyeva, Sh.Orifjonova, Z.Yunusova, H.Saidova, H.Ne'matov, R.Rasulov va boshqa olimlarning ilmiy ishlari o'zbek tili sinonimik sohasining rivojida munosib o'ringa ega. Lekin o'zbek tilshunosligida sinonimlarning lug'atlarda aks etishi masalalariga doir dastlabki tadqiqotlar XI asrda Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida ko'zga tashlanadi.

Sinonimlar – talaffuzi, yozilishi har xil, birlashtiruvchi ma'nosi bir xil (umumiy) bo'lgan, qo'shimcha ma'no nozikligi, emotsional bo'yog'i, qo'llanishi kabi bir qator xususiyatlari bilan o'zaro farqlanadigan so'zlardir (Hojiyev, 1974, s. 3). Leksik sinonimlarning dunyo tilshunosligida o'rganilishi qadimgi Yunoniston antik falsafasidan boshlanadi. Qadimda yunon fanlari ichida notqlik eng muhim fanlardan hisoblangan va yunon faylasuflari har bir notiq stilistika va sinonimiyan chuqur o'rganishi lozimligini qayd etishgan. Bu haqida Platon o'zining "Kratil" asarida Suqrot bilan notqlik xususidagi muammolarga javob izlaydi va stilistika, sinonimiya notqlik uchun muhim sohalar ekanligini ta'kidlaydi. Sinonimiyaga oid ishlar mil. avv. VI-V asrlarda paydo bo'lgan. Xususan, miloddan avvalgi V asrda sinonimlar nazariyasini ishlab chiqqan Prodik omonim va sinonimlarni yaxshi bilish notiq va shoirilar uchun muhim ekanligini qayd etgan edi (Usmonov, 1972, s. 22).

Magistrlik dissertatsiyamning asosiy manbasi hisoblangan "Jangnomayi Zufunun" asaridagi (Khudoykulov, 2025) sinonimlarning qo'llanilishini tadqiq qilish asar yozilgan davr tilining leksik xususiyatlarini yoritishga xizmat qiladi. Eski o'zbek yozuvida yozilgan jangnoma turidagi bu asar kim tomonidan yozilganligi noma'lum. 95 sahifalik asarning so'nggi sahifasida, ushbu jangnomadan tashqari, "hikoya" nomi ostida ikkita latifa va ikkita bayt bor bo'lib, ulardan biri arab tilida. XIX asr oxiri va XX

asr boshidagi Turkiston maydonidagi asarlarda bir tomondan, eski o'zbek tilining til xususiyatlari, boshqa tomondan zamonaviy turkiy tillarga o'tish davrining til xususiyatlari aks ettirilgan. Bu o'tish davrining leksik xususiyatlari chuqur o'rganilmagan qismlardan biridir. O'zbek tili tarixida ma'lum bir davrning lingvistik xususiyatlariga rioya qilish nuqtai nazaridan zamonaviy o'zbek tili xususiyatlarini, shuningdek, eski o'zbek tilining til xususiyatlarini topish muhimdir. Maqolada keltirilgan misollarning matndan qulay shaklda topilishi uchun qavs ichida sahifa va satr nomerlari yozilgan. So'zlar sintaktik shakl yasovchi qismlarsiz bir-biri bilan taqqoslanib tahlil qilingan.

2. Leksik sinonimlar.

Asarda mutlaq sinonimlarga misollar ham ko'plab uchraydi: *aragā* (29/10) ~ *ortagā* (52/15), *ushlap alay* (88/12) ~ *tutup alg'il* (13/12), *keltürüp* (90/4) ~ *alıp kelip* (23/13).

3. Sinonimik qator.

Asarda sinonimik qator a'zolarining asosiga ko'ra bir asosli (*üstidin* (77/19) ~ *üzäsi+g'a* (18/7)), ikki va undan ortiq asosli sinonimik qatorga misollar ham uchraydi: *ana+laridin* (7/12) ~ *aya+laridin* (2/5) ~ *vālidā-i mihribān* (14/8), *mundag' chag'da* (35/1) ~ *bu zamānda* (66/14) ~ *mundag' vaqtda* (27/3), *tāgidā* (30/17) ~ *astida* (81/4) ~ *tübidā* (28/7), *här kündä* (20/12) ~ *kechä kündüz* (7/19) ~ *här zamān* (66/5).

Sinonimik qatordagi so'zlar emotsional bo'yoqdorligiga ko'ra emotsional bo'yoqli va emotsional bo'yoqsiz so'zlarga bo'linishi mumkin (Hojiyev, 1974, s. 4). Tadqiqot mavzumiz bo'lgan matndan o'rin olgan emotsional bo'yoqli so'zlarning sinonimik qatoriga misollar: *jāmāl+lārig'a* (20/10) ~ *yüz+lārig'a* (66/16) ~ *ārā+larini* (27/11), *bīdār qil-* (63/15) ~ *uyg'at-ti* (20/14), *gūmbāz-i dāvrān+gā* (12/6) ~ *āsmān+gā* (39/14), *ko'zig'a yash al-dilar* (79/6) ~ *yig'la-dilar* (35/12).

Tadqiqot obyektimizda yordamchi so'zlar ham sinonimik qator hosil qilgan. Teng bog'lovchilarning sinonimik qatori: *bilä* (83/20) ~ *bilän* (95/5) ~ *ilä* (54/10) ~ *vä* (81/10) ~ *u* (94/12).

Zamon ko'makchilari orasidagi sinonimlik: *o'züngdin burun* (10/10) ~ *o'züngdin ilgäri* (25/2), *üch kündin keyin* (39/18) ~ *bir zamāndin song* (18/14) ~ *müddätidin songra* (8/15) ~ *mundin buyan* (75/7).

Ajratish ko'makchilari orasidagi sinonimlik: *mundin bo'läk* (30/5) ~ *o'zimdin o'zgä* (82/4).

4. Frazologik sinonimiya.

Iboralar va so'zlarning sinonimligiga misollar: **so'zlägäni tilim yoq** **hergiz yüzüm bolmag'ay** (41/2) ~ *uyatmas musän* (89/8) ~ *ibä qılmay* (49/15), *qulaq tut-tılar* (43/2) ~ *eshit-tilär* (43/1), *yetti qat äsmända bolsalar chıqıp alıp tüşürmän ägär zäminni tägidä bolsalar alıp chıqarmän* (47/20) ~ *taparmän* (36/10), *ko'ngil qoy-up* (42/19) ~ *süy-gäni* (71/8), *qach-tı* (6/14) ~ *cüftäk ur-dı* (30/11), *yüz o'gür-düng* (43/3) ~ *kech-ipmän* (38/9).

Iboralarning o'zaro sinonimligiga misollar: *yüz o'gür-düng* (43/3) ~ *bahridın o't-tüm* (73/9), *bigänäni üa'nası ko'nglümni buzdı ve anamnı üa'nası jändın o'ttı* (9/7), *qahrı ve g'azabı keldi* (3/9) ~ *bashıda tütünlär chıqtı* (50/20), **so'zlägäni tilim yoq** **hərgiz yüzüm bolmag'ay** (41/2).

5. O'z va o'zlashgan so'zlar bilan hosil qilingan sinonimlik qator.

Boshqa tillardan so'z olish tilning ifoda etish qobiliyatini orttiruvchi vositalardan biridir. Asarda o'zlashgan so'zlarning mahorat bilan qo'llanilishi natijasida takrorlardan qochilishi qissani yanada ta'sirchan qilgan. Buni quyidagi misollar orqali ko'rishimiz ham mumkin: *küşhädä qıl-dılar* (27/12) ~ *yeship qoy-ay* (63/12), *titrä-di* (30/21) ~ *lärzägä kel-dilär* (28/3), *o'rgät-ti* (24/18) ~ *ta'līm ber-di* (23/4), *qalqan+ını* (11/20) ~ *sipär* (12/2), *sävāl qıl-dı* (4/18) ~ *sor-dı* (14/15), *qın+ıdın* (10/12) ~ *g'ilāf+ıdın* (29/4), *qılıch+ning* (3/12) ~ *shämshīr+im* (3/14), *sīnā+lāring* (10/10) ~ *ko'kräg+ing* (25/2), *qoshun* (15/17) ~ *läshkär+gä* (15/17), *yalbar-ıp* (45/8) ~ *iltimäs qıl-dılar* (55/5), *yaqa+ngni ko'täring* (76/3) ~ *burqa'+nı ko'tärdi* (76/4), *orda+mızg'a* (49/17) ~ *sarāy+ıg'a* (34/17), *hämmä+sini* (77/10) ~ *barcha* (73/10), *jähāz+g'a* (63/1) ~ *kemä+gä* (62/15), *sälāmät* (46/3) ~ *sag'* (95/6).

Asarda turkiy so'zlarning o'zaro sinonimiyasi keng qo'llanilgan: *ket+idä* (16/3) ~ *arqa* (17/21), *sorash-tılar* (79/9) ~ *ko'rüşh-tilär* (73/3), *chong* (49/20) ~ *kättä* (33/10).

Shu bilan birga o'zlashgan so'zlar orasidagi sinonimik munosabatni ham ko'plab uchratishimiz mumkin: *ahd+ıg'a* (74/19) ~ *va'dä+gä* (77/20), *'aşat+larning* (12/6) ~ *shīr* (14/14), *bāng ur-dı* (3/13) ~ *na'ra ur-up* (28/15), *däräk tap-tı* (66/6) ~ *xabär tap-g'anları* (40/3).

Forscha-arabcha so'zlar o'zbekcha fe'llar bilan birikib ham tilimizga o'rnamshgan. Asarda bu kabi ikki

asosga ega bo'lgan fe'llarning bir asosga ega bo'lgan fe'llar bilan ham sinonimlik hosil qilganini ko'plab ko'rishimiz mumkin: *düchär bol-dı* (3/8) ~ *rü-bä-rü bol-dı* (3/12) ~ *yoluq-magay* (23/21), *jüdä bol-up* (33/6) ~ *ayrıl-ıpdur* (71/15), *tüzät-äy* (72/4) ~ *däväsini qıl-mas musen* (73/16), *kengäsh-ıp* (78/9) ~ *maşlahat qıl-dılar* (78/4), *ko'r-üng* (85/7) ~ *tamāshā qıl-g'il* (58/19), *'itimäd qıl-ma* (57/6) ~ *ışhan-ıp* (85/15).

6. Diniy sinonimiya (religious synonyms).

Jamiyatda dinning o'zgarishi ham chetdan so'z olishning muhim sabablaridan biridir. Islomdan avvalgi davrda "Tangri" so'zi qudrat sohibi, ibodat qilnadigan yagona borliqni ifoda etsa, islomdan keyin "Alloh, Iloh, Rob" so'zlari ham ayni ma'nolarni ifoda qiladigan yagona borliqni ifodalaydigan shaklda chetdan so'z olinishi ham din ta'sirini ochiq-oydin ko'rsatmoqda (Özden, 2014, s. 161). "Jangnomayi Zufunun" asarida ham shu misolni keltirishimiz mumkin: *Tängri* (16/9) ~ *Allahu Tā'ālā* (15/9) ~ *Xudāy Tā'ālā* (17/2) ~ *Vācibü'lvücüd+gä* (48/20) ~ *Haqq Tā'ālā+gä* (74/4). Asarda islom dini uchun qilingan jang-u jadallar birinchi planda bo'lgani uchun islomiy atamalar va ifodalar ham ko'plab qo'llanilgan. Bu esa diniy sinonimiyani hosil qilgan. Bunga ba'zi misollar: *gäbr* (15/4) ~ *īmānsız* (15/5) ~ *kāfir+ni* (66/9).

7. Morfologik sinonimiya.

Sinonimlik hodisasi ham dastlab leksik sathda o'rganilgan bo'lsa-da, keyinchalik morfologik va sintaktik sinonimlar ham mavjudligi aniqlandi (Polvonova, 2021, s. 891).

a. lug'aviy shakl yasovchi.

Asarda **-may**, **-mayın**; **-gäni**, **-g'ali**, **-gäli**; **-ip**, **-a**, **-y** ravishdosh qo'shimchalari sinonimlik hosil qilgan. **g'an**, **-gän**, **-qan**, **-kän** va **-r**, **-ar**, **-ur** sifatdosh qo'shimchalari ham o'zaro sinonimlik hosil qilgan.

b. munosabat shakllari.

Qaratqich va tushum kelishigi shakllari o'zaro sinonimlik hosil qilib, qaratqich kelishigini shakllantirgan: **+ning**: *ata+ning* (21/2), *bulut+ning* (67/1) ~ **+ni**: *alar+ni* *oyunlarını* (6/8), *tonguz+ni* *bashını* (58/7). Aksincha, tushum va qaratqich kelishigi shakllarining tushum kelishigini shakllantirganini ko'rishimiz ham mumkin: **+ni**, **+ni**: *qılıch+ni* (88/18), *cho'l+ni* (21/6) ~ **+ning**, **+ning**: *kārīstān* *oyunlar+ning* *bashımızg'a salur* (5/11), *alar+ning* *ko'rmaq keräk dedi* (6/6).

Jo'nalish kelishigi o'z ichida fonetik shakllari bilan sinonimlik hosil qilishi bilan birga (*qazan+g'a* (17/16),

tāxting+a (91/2), *tā Mādīnā+ε keldi* (66/5)); o'rin-payt kelishigi bilan ham (*qay+da barursizlār* (adabiy tilda: *qay+ga barursizlār*) (64/21), *mun+da keltürgil* (adabiy tilda: *bu yer+ga keltürgil*) (47/5)) ifodalanib sinonimlik hosil qilgan, aksincha, o'rin-payt kelishigi jo'nalish kelishigi bilan ifodalangan holatlar ham bor: *ägär 'Alī mundaq vāq'ialarni bilsā бүгүн tang+g'a* (adabiy tilda: *tang+da*) *üstimizgä kelip* (5/10).

Fe'l zamonlarida o'tgan zamonni ifodalash uchun **-di-, -du-, -g'an-, -gän-, -ip-** qo'shimchalari qo'llanilsa, kelajak zamonni ifodalash uchun **--g'ay, -gey, -key-, -kü-** shakllarining qo'llanilishi asarda munosabat shakllari o'rtasidagi sinonimlikka misoldir. Buyruq-istak maylida 1-shaxs birlikda **-ay, -ayin;** 2-shaxs birlikda **-g'il, -gil, -g'in** qo'shimchalari ham o'zaro sinonimlik hosil qilgan.

8. Sintaktik sinonimiya.

Asarda gaplarning sinonimlik hosil qilishini bir qancha misollar orqali ko'rishimiz mumkin: *de-gil* (18/17) ~ *bäyān qılayın* (5/5) ~ *ayg'il* (13/8) ~ *so'zlägil* (5/5) ~ *so'zgä kirdi* (5/5) ~ *so'z qılmagäy* (46/20), *chihrläri za'firāndek bolupdur* (8/4) ~ *g'am birlä sarg'arıpmän* (41/3), *'älämnü yüzini qarang'uluq bastı* (15/10) ~ *kün kech boldı* (58/7), *fıkr qıldılar* (10/15) ~ *ko'nglig'a keldi* (9/13), *oqlar ädä bol-updur* (34/6) ~ *tügän-sün* (34/10) ~ *ish bit-mädi* (12/2), *xalāş qılg'il* (18/19) ~ *äzäd qılg'il* (75/3), *färman qıl-dılar* (26/19) ~ *ämr qıl-ip* (24/1) ~ *buyurdi* (35/18), *rävänä boldılar*

(27/20) ~ *Mādīnā-i Münävvärä yolını tuttılar* (39/19) ~ *co'näy berdilär* (93/9) ~ *ketä ber* (14/19).

9. Sintagma.

Sintagma – nutqning mazmun va ritmo-melodik jihatdan bir butunlikni tashkil etuvchi semantik-sintaktik birlikdir (Hojiyev, 2002. 88-b.). Asarning bir qancha o'rinlarida sinonim so'zlarning sintagma hosil qilganini ko'rishimiz mumkin: *qarang'u kechäsi* (95/12), *tug'aläm* (46/8), *qulaq salıp eshittilär* (83/3), *xıfz qilmaq ve ihtiyät qilmaq lāzım* (61/2), *emdi ikki kälimä so'zni* (19/18), *kälimä aytip musulmān bol dedilär* (13/21), *imān keltürüp musulmān bolsa* (21/15), *bu shähärlärni xarāb qılıp vīrānā qılır* (5/7), *nä g'am bolg'ay nä qayg'u* (31/18).

10. Xulosa. Bu tadqiqotda eski o'zbek tilidan hozirgi o'zbek tiliga o'tish davrining leksik xususiyatlarini ochishga harakat qilindi. Asar qissa janrida bo'lgani sababli estetik ta'sir qiladigan so'z va jumlarlar keng qo'llanilgan, o'z va o'zlashgan qatlamdan so'z olinib qo'llanilishi natijasida takrorlardan qochilgan, so'zning ta'sir kuchini oshirish uchun sintagmalardan foydalanilgan, asar xalq ijodiyotiga oid bo'lgani uchun xalqona iboralar orasidagi sinonimlarni ham ko'rishimiz mumkin. Morfologik sinonimiyada qaratqich shakllarining qaratqich kelishigi vazifasini bajarishi bilan birga tushum kelishigi vazifasida qo'llangani tadqiqotchilarni bu mavzuni chuqurroq tadqiq qilish uchun yo'naltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abjalova, M. (2023). O'zbek tilidagi sinonimlar tasnifi. *Zamonaviy ilm-fan va ta'lim istiqbollari*. – Toshkent: Conference Paper. 352-361-b.
2. Aksan, D. (1999). Anlambilim (Anlambilim Konulari ve Türkçenin Anlambilimi), – Ankara: Engin nashriyoti.
3. Hojiyev, A. (1974). *O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati*. – Toshkent: O'qituvchi.
4. Hojiyev, A. (2002). *Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati*. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
5. Khudoykulov, R. (2025). *Cengnāme-i Zūfūnūn (inceleme, metin, dizin)*. – Ankara. Magistrlik dissertatsiyasi.
6. Özden, H. İ. (2014). Türkiye Türkçesinde Eş Anlamlılık ve Örtmece (Tabu) Kelimelerin Eş Anlamlılık İçindeki Yeri. *KMÜ Sosyal ve Ekonomik Araştırmalar Dergisi*, 160 – 165.
7. Polvonova, B. (2021). O'zbek tilida sinonimiya talqini. *Oriental Renaissance*, 889– 894.
8. Tekin, T. (1997). "Eşanlamlılık ve Kullanılış (I-II)", *Türkoloji Eleştirileri*, – Ankara: Simurg, s. 113–123.
9. Usmonov, S. (1972). *Umumiy tilshunoslik*. – Toshkent: O'qituvchi.
10. Mahkamov N. (1988). *Adabiy norma va pleonazm*. – Toshkent: Fan.
11. Rahmonov G'R. (2019) *O'zbek tilida lug'aviy sinonimiya va graduonimiyaning o'zaro munosabati*: – Farg'ona: PhD dissertatsiyasi.

Go'zaloy SOBIROVA,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
G'arb tillari kafedrası o'qituvchisi,

CHINGIZ AYTMATOVNING “ASRGA TATIGULIK KUN” ASARIDA MILLIY IDENTIKLIK YORITILISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada Chingiz Aytmatovning “Asrga tatigulik kun” asarida madaniyatga singdirilgan tilning o'zni o'rganilib, iboralar, mifologik havolalar va ramziy iboralar sovet hukmronligi davrida Markaziy Osiyo o'ziga xosligini saqlab qolish vositasi bo'lib xizmat qilgani ta'kidlanadi. Yozuvchi romanni sinchkovlik bilan o'qish orqali qahramonlarni madaniy muhitda ildiz otishi, mafkuraviy assimilyatsiyaga qarshi turishi, an'ana va zamonaviylik o'rtasidagi psixologik ziddiyatni aks ettirish uchun til va folklor unsurlaridan qanday foydalanganini ko'rib chiqadi.

Kalit so'zlar: madaniy o'ziga xoslik, milliy identiklik, folklor, ramziylik, tilni saqlash, an'ana va zamonaviylik, etnolingvistika.

Annotation: this article examines the role of the culture-embedded language in Chingiz Aitmatov's “The day lasts more than hundred years” and highlights how phrases, mythological references, and symbolic expressions served as a means of preserving Central Asian identity during the period of Soviet rule. Through a careful reading of the novel, the author examines the roots of the characters in the cultural environment, their resistance to ideological assimilation, and the use of language and folklore elements to reflect the psychological conflict between tradition and modernity.

Key words: cultural identity, national identity, folklore, symbolism, preservation of language, tradition and modernity, ethnolinguistics.

Аннотация: в данной статье рассматривается роль культурного языка в произведении Чингиза Айтматова «Дольше века длится день» и подчеркивается, как словосочетания, мифологические ссылки и символические выражения служили средством сохранения центральноазиатской идентичности в период советской власти. Внимательно прочитав роман, автор исследует корни персонажей в культурной среде, их сопротивление идеологической ассимиляции и использование языковых и фольклорных элементов для отражения психологического конфликта между традицией и современностью.

Ключевые слова: культурная идентичность, национальная идентичность, фольклор, символизм, сохранение языка, традиция и современность, этнолингвистика.

Kirish. Chingiz Aytmatovning “Asrga tatigulik kun” asari sovet davri adabiyotining shoh asari bo'lib, u siyosiy kontekstdan chiqib, madaniy o'ziga xoslik, xotira haqidagi chuqur mulohazaga aylanadi. Qozog'istonning bepoyon dashtlarida bo'lib o'tgan romanda til faqat hikoya qilish vositasi sifatida emas, balki turkiy xalqlar merosini saqlash vositasi sifatida qo'llaniladi. Aytmatov iboralar, mifologik havolalar va madaniyatga singdirilgan so'zlar orqali milliy o'ziga xoslik adabiy makonini yaratadi.

Roman qahramoni Edigey temiryo'lchi bo'lib, uning hayoti O'rta Osiyo zamini va urf-odatlar bilan chambarchas bog'liq. Uning nutqi dafn marosimlari, ma'naviy e'tiqodlar va ajdodlar xotirasiga ishoralarga boy. Bu ifodalar bezak emas – ular uning fe'l-atvori va u yashaydigan dunyoni tushunish uchun juda muhimdir. Jozef Mozur ta'kidlaganidek, Aytmatovning

madaniy o'ziga xos tildan foydalanishi “mafkuraviy bir xillikning sovetcha yondashuviga qarshi nuqta bo'lib xizmat qiladi.” Masalan, Edigeyning o'z do'sti Kazangapni an'anaviy marosimlarga ko'ra dafn etishni talab qilishi shunchaki shaxsiy motam emas, balki madaniy vorisiylikning ramziy ifodasidir. Uning tili og'zaki an'analar asosida shakllangan dunyoqarashni aks ettiradi, bunda so'zlar tarix va e'tiqod yukini anglatib turadi.

Romanning eng yorqin elementlaridan biri manqurt haqidagi afsona – o'zligini unutish va so'zsiz xizmat qilish uchun qiynoqqa solingan odamdir. Asar syujetiga singdirilgan bu mif sovet hokimiyati davridagi madaniy yo'qotishlarning kuchli allegoriyasi vazifasini bajaradi. Manqurt atamasining o'zi yo'qotilgan meros va ko'r-ko'rona itoatkorlik ramzi sifatida postsovet nutqi leksikasiga kirdi. Aytmatovning bu afsonani

qayta hikoya qilishi til jihatidan boy bo'lib, turkiy xalqlar og'zaki eposining konsepti va tuzilishiga tayanadi. Hikoya shunchaki aytilmaydi – ajdodlar xotirasini uyg'otadigan til orqali ijro etiladi. Ateş va So'ylemez ta'kidlaganidek, manqurt “milliy o'ziga xoslikni yo'q qilish va madaniy amneziyaning psixologik oqibatlarini” uchun metafora bo'lib xizmat qiladi.

Qozoq cho'li shunchaki makon emas, balki o'ziga xos xarakterdir. Aytmatovning Sario'zak, Bo'ronli tutashmasi, Sharq-G'arb poyezdlari haqidagi ta'riflari ramziy ma'noga ega. Manzara madaniy o'ziga xoslik tasvirlangan polotnoga aylanadi. “Poyezdlar Sharqdan G'arbgacha va G'arbdan Sharqqa tomon yo'l oladi” kabi iboralarning takrorlanishi qahramonlar va ularning madaniyati duch keladigan g'oyaviy chorrahalarni ta'kidlaydi. Geografiyaning bu lingvistik ramkasi yer va o'ziga xoslik o'rtasidagi chuqur aloqani aks ettiradi. Dasht faqat qahramonlar yashaydigan joy emas, balki ularning tarixi, afsonalari va tili yashaydigan joy. Braun va Lassin ta'kidlaganidek, Aytmatov ushbu hududdan “sovet hayotining yakkalanishi va ma'naviy o'zlikni yo'qotishni ta'kidlash” uchun foydalanadi, shu bilan birga an'anaviy madaniyatning ildizlarini eslatadi.

Etnik xilma-xillikni bostirishga intilgan tuzumda Aytmatovning madaniy o'ziga xos tildan foydalanishi qarshilik ko'rsatish aktiga aylanadi. U rus tilidagi romaniga turkiy iboralar, islomiy havolalar va mifologik motivlarni singdirish orqali sovet mafkurasining bixillastiruvchi kuchlariga qarshi chiqadi. Uning qahramonlari assimilyatsiyaga bo'ysunmaydigan tarzda gapiradi, bu orqali yo'qolishi mumkin bo'lgan lingvistik merosni saqlab qoladi. Bu qarshilik nozik, ammo chuqur. U oshkora siyosiy bayonotlar orqali emas, balki madaniy xotiraning sokin barqarorligi orqali ifodalanadi. Har bir maqol, har bir marosim iborasi, har bir qayta aytilgan afsona unutishdan bosh tortishdir.

Tahlil va natija. Chingiz Aytmatovning “Asrga tatigulik kun” asari o'zbek va butun turkiy xalqlar adabiyotida o'ziga xos o'rin egallagan, falsafiy-teran mazmun kasb etgan asarlardan biridir. Bu asarda yozuvchi insoniyatning umumiy muammolari bilan bir qatorda, milliy identiklik, madaniy meros, xalq ruhiyati va tarixiy xotira kabi muhim masalalarga ham chuqur e'tibor qaratadi.

Asarning bosh qahramoni Edigey obrazi orqali Aytmatov o'z xalqining an'analari, qadriyatlari, urfodatlariga sodiqlikni, tarixiy ildizlarga hurmatni

ifodalaydi. Edigey oddiy temiryo'lchi bo'lishiga qaramay, o'z xalqining o'tmishi, ajdodlari hayoti va qadriyatlariga befarq emas. Uning Qazar mozoriga do'sti Kazangapni dafn etishga bo'lgan urinishlari — bu nafaqat insoniy sadoqat, balki milliy qadriyatlar, o'lim va abadiyat haqidagi tasavvurlarni asrab qolishga intilish timsolidir.

Asarda milliy identiklik masalasi ko'proq afsonalar va xalq og'zaki ijodi orqali yoritiladi. Jumladan, Manqurt afsonasi — bu borada eng muhim timsollardan biridir. Manqurt — o'z o'tmishini, ona tilini, millatini unutgan, bosqinchilar tomonidan ongidan ajratilgan inson obrazi orqali Aytmatov o'z xalqini ogohlantiradi. Bu afsona orqali yozuvchi milliy xotira va identiklikni yo'qotish qanday fojiaiy oqibatlariga olib kelishini ko'rsatadi. Manqurt obrazi bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan — u mustamlakachilik, assimilyatsiya va madaniy yo'qolish xavfi haqida ogohlantiruvchi belgidir.

Asarda cho'l manzaralari, xalqona til, qahramonlarning kundalik hayoti, dafn marosimlari va urfdagi tushunchalar orqali qirg'iz xalqining milliy o'ziga xosligi, an'anaviy dunyoqarashi va hayotga bo'lgan munosabati yoritiladi. Aytmatov bu jihatlarni tasvirlar ekan, bir tomondan sovet mafkurasini bosimi ostida yo'qolib borayotgan qadriyatlarni qayta tiklashga urinadi, ikkinchi tomondan esa global muammolar fonida milliy ongning o'rni va zarurligini ko'rsatadi.

“Asrga tatigulik kun” asari orqali Aytmatov milliy identiklikni nafaqat tarixiy, balki ma'naviy qadriyat sifatida tasvirlaydi. Bu identiklik faqat o'zga kuchlar tahdididan emas, balki zamonaviylik, texnologik taraqqiyot, shaxsiy manfaatparastlik kabi ichki xavflardan ham himoya qilinishi kerakligi haqida o'ylantiradi.

“Asrga tatigulik kun” asarida milliy identiklik masalasi Chingiz Aytmatov tomonidan ko'p qirralik va chuqur falsafiy yondashuv bilan yoritiladi. Asar qahramonlarining hayoti, ular orqali xalq an'analari va qadriyatlari aks ettirilgan. Masalan, Edigey obrazidagi sodiqlik, do'stlik, vatanparvarlik va tarixga hurmat kabi fazilatlar milliy ongning asosi sifatida ko'rsatiladi.

Bundan tashqari, Manqurt afsonasi — milliy identiklikning yo'qotilishi va uning oqibatlarini haqidagi ogohlantiruvchi timsol sifatida xizmat qiladi. Bu afsona orqali Aytmatov milliy xotirani unutish, madaniy ildizlardan uzilish muammosini ko'rsatadi, bu esa

xalqning o'zligini yo'qotishiga olib keladi. Asardagi tabiat va muhit tasvirlari ham milliy ruhiyatni ifodalovchi vositalardan biri bo'lib, ular orqali yozuvchi qirg'iz xalqining tabiat bilan uyg'unligi, uning hayot manbai sifatida qadrlanishini ta'kidlaydi. Ushbu tasvirlar milliy madaniyat va an'analar bilan uzviy bog'liq.

Aytmatovning til uslubi, xalq og'zaki ijodiga yaqinligi milliy identifiklikni ifodalashda alohida o'rin tutadi. Bu uslub orqali yozuvchi xalqning o'ziga xos fikrlash va dunyoqarashini, urf-odatlarini jonli ko'rsatadi. Natijada, asarda milliy identifiklik — bu faqat tarixiy yoki madaniy atributlar majmuasi emas, balki ma'naviy kuch va xalqni birlashtiruvchi omil sifatida ko'riladi. Bu identifiklik insonning o'zligini anglash, ajdodlar merosini qadrlash va kelajak avlodlarga yetkazish bilan bog'liq ekanligi ta'kidlanadi.

Chingiz Aytmatovning "Asrga tatigulik kun" asarida milliy identifiklik mavzusi keng va mazmunli yoritilgan. Asar qahramonlari orqali milliy qadriyatlarning qanchalik muhimligi, ularni saqlash zarurligi va ularga sodiq qolishning inson hayotidagi ahamiyati namoyon bo'ladi.

Milliy identifiklik yo'qotilishi natijasida yuzaga keladigan muammolar — Manqurt obrazida aniq ko'rsatilganidek — xalqning tarixiy ildizlaridan ajralib qolishi, madaniy bo'linish va ma'naviy bo'shliqqa

olib keladi. Shu sababli, milliy xotira va madaniyatni saqlash hamda yosh avlodga yetkazish dolzarb vazifa sifatida namoyon bo'ladi.

Asarda global va zamonaviy muhit sharoitida milliy identifiklikni saqlash qiyinchiliklariga ham e'tibor qaratadi. Bu borada Aytmatov milliy qadriyatlarning zamonaviylik bilan uyg'unlashishi, lekin o'zlikni yo'qotmaslik kerakligini ta'kidlaydi.

Xulosa. Xulosa sifatida aytish mumkinki, "Asrga tatigulik kun" milliy identifiklikni nafaqat madaniy, balki ma'naviy jarayon sifatida ko'rsatadi. Bu asar orqali yozuvchi xalqning o'ziga xosligini qadrlash, uni asrash va kelajak avlodlarga yetkazish zarurligini chuqur ifoda etadi.

"Asrga tatigulik kun" — bu tilning o'ziga xoslikni saqlab qolish qudratining isbotidir. Aytmatovning romani shunchaki hikoya emas — bu madaniy arxiv, xotira va ma'no ombori. Milliy o'ziga xoslik iboralari, ifodalari va afsonalaridan mohirona foydalanish orqali u o'quvchilarga zamonaviylik va milliylik, turli mafkura va bosimlarga qaramay milliy adabiyotini saqlab qolgan turkiy xalqlar qalbini ko'rsatib beradi.

Shu bilan birga, Aytmatov til muloqotdan ko'ra ko'proq narsa — bu qarshilik ko'rsatish shakli, zamonlar ko'prigi va milliy o'zlikning ko'zgusi ekanligini ta'kidlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aytmatov Ch. Asrga tatigulik kun. Tarjima: Asil Rashidov. — Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018.
2. Ateş O'.F., & So'ylemez O. (2022). Abish va Aytmatov manqurtlari: milliy o'zlikni yo'qotishmi yoki aqldan ozish? Marmara Türkiyat Araştırmaları Dergisi.
3. Abdullayeva M. "FORMATION OF ALTERNATIVE VARIANTS IN THE PROCESS OF ARTISTIC TRANSLATION (ON THE EXAMPLE OF A WORK OF "SUCH IS LIFE")." *International Journal of Artificial Intelligence* 1.3 (2025): 1287-1291.
4. Brown K., & Lassin J. (2021). Asrga tatigulik kun: kontekst va muhokama mavzulari. Melikian Center Reading Group.
5. Sobirova G. (2025). Nazariya va amaliyotda tarjima usullari: Qiyosiy sharh. BDU Ilmiy axboroti № 6, iyun, 54-57-bet.
6. G.Sobirova, & L.Raxmonova. (2024). THE LINGUISTIC CASES CONNECTED WITH THE TRANSFER OF MEANING BASED ON METAPHOR IN OLD UZBEK. *PEDAGOGS*, 56(1), 147–151.
7. Абдуллаева М. "Инглиз–ўзбек бадий таржималарида муқобил вариантни шаклланиш ва ривожланиш босқичлари." *Переводоведение: проблемы, решения и перспективы* 1 (2022): 78-81.

Zayniddin TOSHPOLATOV,
Termiz pedagogika instituti o'qituvchisi
Dilshoda ALIYEVA,
Termiz pedagogika instituti o'qituvchisi

XURSHID DO'STMUHAMMADNING "DONISHMAND SIZIF" ROMANIDA MIFOLOGIK OBRAZLARING BADIY TALQINI

Annotatsiya: maqolada romanning turlari qatorida rivojlanayotgan roman-mif haqidagi qarashlar ilgari surilgan, mifopoetik qarashlar ildiziga nazar solingan. Roman mif na'munasi sifatida X.Do'stmuhammadning "Donishmand Sizif" romani tahlilga tortildi, Sizif obrazlar genezisi atroflicha o'rganilgan.

Kalit so'zlar: roman, roman-mif, mif, poetika, mifopoetika, Sizif, Sizif mehnati, obraz, majoz, sayyor syujet, ramz.

Аннотация: в статье выдвигаются представления о романе-мифе, развивающиеся среди типов романа, и рассматриваются корни мифопоэтических представлений. В качестве примера романного мифа проанализирован роман Х.Достмухаммада «Мудрый Сизиф», подробно изучен генезис сизифовых персонажей.

Ключевые слова: роман, роман-миф, миф, поэтика, мифопоэтика, Сизиф, труд Сизифа, образ, метафора, подвижной субъект, символ.

Annotation: the article puts forward views on the evolving novel-myth among the types of novels, looks at the roots of mythopoetic views. As an example of a novel-myth, H. Dostmuhammad's novel "The Wise Sisyphus" was analyzed, the genesis of Sisyphus's images was studied in detail.

Key words: novel, novel-myth, myth, poetics, mythopoetics, Sisyphus, Sisyphus labor, image, metaphor, planetary subject, symbol.

Mifologiya – muayyan xalq tomonidan yaratilgan mifologik tasavvurlarning izchil tartibga solingan tizimi, asotirlar majmuyidir. Masalan, yunon mifologiyasi, hind mifologiyasi, o'zbek Mifologiya Insoniyat ma'naviy taraqqiyotining ilk bosqichi sifatida muhim amaliy ahamiyat kasb etgan mifologiya ibtidoiy madaniyatning negizi, olamni idrok etishning asosiy vositasi, badiiy tafakkurning ibtidosi hisoblangan. Mifologiyaning asosini qadimgi insonlarning koinot, tabiat, inson, samo jismlari, narsa va hodisalarning paydo bo'lishi haqidagi asotirlar tashkil etadi. Mifologiyaning arxaiik qatlami quyosh, oy va yulduzlar to'g'risidagi shamsiy, qamariy va astral miflar, olamning paydo bo'lishi haqidagi samoviy miflar, odamzotning yaratilishi haqidagi antropogenik miflar, qadimiy e'tiqodiy qarashlarni o'zida ifoda etgan totemistik, animistik va kult miflaridan tashkil topgan. "Mif – insonning faqat

o'tmishi, ajdodlarning xayolparastligi emas, balki ularning kayfiyati va o'zi anglab yetmagan, biroq miyada singib yotgan kechinma va taassurotlaridir. Mifga ajdodlarning jo'n xomxayollari yoki cho'pchaklari sifatida emas, inson ruhiyatining in'ikosi sifatida qarash zarur, shu sababli ham mif o'tmish sadosi emas, u kecha, bugun va ertaning mujassami, inson ruhiyatining manzarasidir. Roman janri millat badiiy tafakkurining taraqqiyot darajasini namoyon etadi. Roman janriga xos belgilarni tayin etish borasida o'zbek adabiyotshunosligida ham ancha ishlar qilingan. Agar dastlabki tadqiqotlarda hajmning kattaligi va mavzu janrining asosiy belgilari sifatida qaralgan bo'lsa, keyinchalik romanning mohiyati o'zga unsurlardan ham qidirila boshlandi. Chunonchi, adabiyotshunos professor Dilmurod Qur'onov: "asarda qo'yilgan muammolar ko'lamini janr xususiyatlarini belgilovchi unsur sifatida

olinishi mumkin. Bu jihatdan roman dunyo-yu davrni bilish maqsadiga qaratilgan bo'lsa, qissa markazida qahramon xarakteri, hikoyada esa konkret hayotiy voqea turadi... Ko'ramizki, roman, qissa, hikoya janrlariga mansub asar qahramonlari asarda tutgan mavqeyi, ahamiyati, vazifasi jihatidan farqlanadi. Roman muallifi uchun qahramon vosita – dunyoni anglash (bunisi maqsad) vositasi, qissanavis uchun qahramonning o'zi maqsad (voqea-hodisalar vosita), hikoyanavis uchun voqeaning o'zi maqsad bo'lib qoladi".¹⁰⁴ Olimning roman dunyo-yu davrni bilish maqsadida yaratiladi va uning qahramoni ana shu jarayonning vositasi degan fikri ayniqsa o'rinlidir. Hozirgi kitobxon uslubiy-kompozitsion voqeabandlik, an'anaviy syujet tuzilishi va izchil tahlil, tasvirning maksimal aniqligidan ko'ra borliq ijodkor qalb prizmasidan o'tkazilib hissiy qabul qilingan, fikr-tuyg'ular tasvirida zamon va makon kengligi, muammolar garmoniyasi aks etgan asarlarga ko'proq qiziqmoqda. Adabiyotshunos H.Boltaboyevning yozishicha: "Bu uslubiy hodisaning ildizlari Sharq adabiyotining qadimgi lirizmga boyligi, yuksak romantik talqinda aks ettirilgan xalq ijodi namunalari va boshqalarga borib taqaladi". [Болтабоев Х. Наср ва услуб. –Тошкент: Фан, 1992. 15 6-бет 265]

Bu fikrga qo'shimcha ravishda, o'zbek kitobxoni badiiy didiga G'arb va jahon adabiyotidagi tajribalarning ta'sir etishi ham muayyan rol o'ynamoqda, deb ta'kidlagan bo'lar edik. Aksariyat adiblar romanlarda og'zaki adabiyot an'analari afsona, rivoyat, ertaklarga xos jihatlardan, shartli usul va vositalardan unumli foydalanmoqdalar. Badiiy tasvir tizimidagi shartli obrazlilik, majoz va ramz vositalaridan foydalanib yozuvchi niyatining badiiy asarga ko'chirilishi muhim uslubiy belgidir. Zamonaviy mavzuga bag'ishlangan romanlarda bunday shayton va inson munosabatlarining tasvirlanishi asar syujet qurilishiga afsona va rivoyatlarning olib kirilishi bilan bog'liqdir. Noreal voqealarning bayon etilishi va folklor motivlarining qo'llanilishi bevosita muallif nutqi orqali ham asarga kiritilishi mumkin. Jumladan, Ulug'bek Hamdamning "Isyon va itoat" romanidagi Odam Ato va Momo Havoning taqdiri to'g'risidagi afsona-mif muallif

nutqi orqali asarga singdirilib boriladi. Bu afsona asarning kompozitsion qurilishida muayyan o'rin tutib, qahramonlar hayoti va taqdiriga qiyosan falsafiy mohiyat kasb etadi. Tahlil qilingan zamonaviy romanda biz mif elementlari salmog'ining oshganligini yaqqol ko'rishimiz mumkin. Asar poetikasini tahlilga tortganda mifopoetika elementlari nuqtayi nazaridan yondashishimiz lozim. Ammo so'nggi yillarda shunday romanlar ham yaratilyapdiki, bunday romanlarni to'g'ridan-to'g'ri roman-mif deyishimiz mumkin. X.Do'stmuhammadning "Donishmand Sizif" romanini aynan ana shunday asarlardan biridir. Asarni "roman-mif" deyishga badiiy voqelikning genezisi, epik syujet va motivlar silsilasining shakllanish yo'sinlari hamda obrazlar tizimi asos bo'lgan. Roman yunon folklor syujet tizimiga mansub "Sizif mehnati", "Sizif toshi" haqidagi epik syujetning o'zbek romani doirasiga transformatsiyalanish jarayoni natijasida yaratilgan. "Donishmand Sizif" romanining markazida qadimgi yunon mifologiyasidagi Sizif obrazi turadi. Mifologiyada Sizif do'zax azobiga mahkum etilgan bo'lib, u abadiy katta toshni tog'ning tepasiga chiqarib boradi, biroq tosh yana pastga dumalab tushaveradi. Bu timsol inson umrining, hayot kurashining behuda va mashaqqatli jarayonini anglatadi.

Xurshid Do'stmuhammad bu obrazni qayta talqin etar ekan, uni oddiy azob va befoydalik timsolisifatida emas, balki donishmandlik, tafakkur va izlanish ramzi sifatida tasvirlaydi. Sizifning tosh bilan olishuvi hayotning abadiy ziddiyatlari, insonning ezgu maqsad yo'lida chekkan iztiroblari bilan uyg'unlashtiriladi. Bu romanda kutilmagan voqealar, antiqa holatlar, g'aroyib obrazlar o'ziga xos shakllarda, ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Bir qarashda ulardagi voqealar bizning hayotimizga xos emasdek, qahramonlar, obrazlar bizga notanishdek, ularning xatti-harakatlari ajabtovurdek taassurot uyg'otadi. Yunon afsonalariga qayta-qayta murojaat qildi hamda afsonalarga tayangan holda mutlaqo yangicha poetik tahlil va tadqiq qilishga qo'l urib, "Donishmand Sizif" nomli roman yaratdi. Romanda adib milliy folklor, mumtoz adabiyot an'analari, jahon adabiyoti badiiy ifoda usullaridan keng foydalandi. Bu tasvir usullarining

barchasida sharqona e'tiqodiy asoslarni inobatga oldi. Ma'lumki, yunon dramaturglari Gomer, Esxil, Sofokl, Yevripid asarlarida Sizif obrazi tasvirlangan. Ammo ular bizgacha saqlanib qolmaganligi tufayli ma'lumotga ega emasmiz. Yangi davr adabiyotida Sizif obraziga qiziqishlar ortdi. Nasrda A.Kamyu, F.Merl va tasviriy san'atda Titsian o'z asarlarida bu obrazga murojaat qildi. Yunon afsonalarida Zevs oliy xudo, barcha xudolar va odamlar hukmdori sifatida talqin qilinadi. U Kronos va Reyaning o'g'li bo'lib, afsonaviy mabudlarning uchinchi avlodiga mansub. Zevs Tartarda otasi va ko'plab titanlarni yengib, Olimp tog'ida hukmronlikni o'z qo'liga oladi. Shundan so'ng butun olamni qayta tuzishga kirishadi. Yunon mifologiyasida shamol mabudi Eolning o'g'li sifatida tilga olingan Sizif (Sisif lotincha Sisyphus)-bunyodkor shaxs. U toshlardan Korinf shahrini qurib, unga o'zi shohlik qilgan. Vafotidan so'ng, yer osti zulmat dunyosi-Aidga surgun qilinib, mashaqqatli mehnatga mahkum etilgan. Ilohiy hukmga ko'ra Sizif og'ir xarsangtoshni dumalatib tog' tepasiga chiqarishi lozim edi. Biroq har gal cho'qqiga yetay deganida, yumaloq xarsang pastga yumalab ketaveradi. Mavjud talqinlarga ko'ra, Sizif g'oyatda og'ir, tunganmas va mutlaqo besamar yumush, ya'ni tunganmas azob-uqubatga giriftor etilgan. Shu boisdan, "Sizif mehnati", "Sizif toshi" iborasi ko'pincha mashaqqatli ish va azob-uqubetni anglatadi. Sizif nima uchun bunday azobga mahkum etilgani sababi haqida miflarning turli xil variantlari saqlanib qolgan. Ularning ayrimlarida Sizif mabudlar sirini oshkor qilib qo'ygani aytiladi. X.Do'stmuhammad romanda shu versiyaga asoslangan. Ya'ni u Olimp mabudlari, xususan

Zevsning Sizifga bo'lgan munosabatini dialogik yo'sinda aks ettirgan. Shuningdek, Qadimgi yunon rivoyatlarida Sizif dumaloq toshni tog' cho'qqisiga olib chiqishga intilgan inson sifatida tasvirlanadi. Lekin u harchand urinmasin toshni cho'qqiga olib chiqolmaydi. Rivoyatga ko'ra, toshni cho'qqiga olib chiqishga urinishning o'zi bema'nilikdir. Yozuvchi xuddi ana shu holatni asari asosiga oladi. Sizifning tosh dumalatishdek bema'ni harakatlaridan ma'ni topishga urinadi. Asar qahramoni Sizif har gal pastga qulagan toshni cho'qqi tomon qayta olib chiqar ekan, hayotning mohiyatini yangicha inkishof etadi, idrok qiladi, insonning insoniylik qudratini anglaydi. Shu tariqa oddiy Sizifdan donishmand Sizifga aylanadi. "So'zlash – o'tib borayotgan hozirning sharpalari bo'lsa, sukut – boqiylik, manguilik timsoliga aylanardi uning nazarida. Bamisoli gap sotsa – hozir bilan, sukut saqlasa – abadiyat bilan muloqotga kirishayotgandek sezardi o'zini Sizif. Mulohazalar shuni ko'rsatadiki, X.Do'stmuhammadning Sizif obrazi o'zigacha bo'lgan Sizif obrazlaridan farq qiladi. Gomer Sizif obrazini tasvirlaganda unda ayyorlik, munofiqlik sifatleri yaqqol ko'zga tashlanadi, ya'ni uni ramzan "Ayyor Sizif" deyishimiz mumkin. Xurshid Do'stmuhammadning "Donishmand Sizif" romani mifologik obrazlarni badiiy talqin qilish orqali o'zbek adabiyotida yangicha estetik ufqlarni ochadi. Sizif timsoli milliy tafakkurda qayta o'qilib, insonning azaliy kurashi, ruhiy poklanishi va ma'naviy barkamolligini ifoda etadi. Demak, yozuvchi mifologik obrazlardan faqat adabiy bezak sifatida emas, balki chuqur falsafiy g'oya tashuvchisi sifatida foydalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. –Тошкент: Академнашр, 2010.59-41- б.
2. Болтабоев Ҳ. Наср ва услуб. –Тошкент: Фан, 1992.265- бет

Saxiba SAIDMURADOVA,
TerDPI dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

PSIXOLOGIK TASVIR TAMOYILLARI

Annotatsiya: maqolada o'zbek nasrining iqtidorli vakili Nazar Eshonqulning jahon adabiyoti ilg'or namoyandalarini, modern adabiyoti yutuqlarini, milliy mumtoz adabiyot va xalq og'zaki ijodi namunalarini yaxshi bilishi hamda bularning barchasi uning notakror nasriy asarlarida o'z ijobati, uslubiy jozibadorliklari bilan namoyon bo'lishi, qissa va hikoyalarda badiiy psixologik tasvir tamoyillari borasida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: *estetik ta'sir, psixologik tasvir, psixologik talqin, o'zbek nasri, modern adabiyoti, uslubiy jozibadorlik, psixologik tasvir, psixologik talqin.*

Аннотация: в статье рассматривается известное знакомство талантливого представителя узбекской прозы Назара Эшонкула с передовыми представителями мировой литературы, достижениями современной литературы, образцами национальной классической литературы и народного устного творчества, и как всё это проявляется в его уникальных прозаических произведениях, отличающихся выразительностью и стилистической привлекательностью, а также принципы художественного психологического изображения в его рассказах и повестях.

Ключевые слова: эстетическое воздействие, психологическое изображение, психологическая интерпретация, узбекская проза, современная литература, стилистическая привлекательность, психологическое изображение, психологическая интерпретация.

Annotation: writer Nazar Eshonqul is a talented artist with a unique voice, creative philosophy and aesthetic views in modern Uzbek literature. From the point of view of the method of linguistic analysis of the language of Nazar Eshonqul's stories, the characters of these small genres use unique words and phrases in their speech. This article emphasizes the possibility of observing the specific speech structure, the psychological processes of the ideological, emotional aspects of the work with the help of linguistic means.

Key words: *esthetic views, psychological analysis, linguistic analysis, mental experiences, cognition, linguistic means, the word "dominant", human consciousness.*

Istiqlol davri o'zbek nasri Xurshid Do'stmuhammad, Ulug'bek Hamdam, Isajon Sulton, Shoyim Bo'tayev, Axmad A'zam, G'affor Hotam, Olim Otaxon, Emin Usmon kabi bir qator izlanuvchan iste'dod vakillari bilan boyidi. Nazar Eshonqul ana shu jahon adabiyoti ilg'or tendensiya va uslublari bilan yaxshi tanish ijodkorlar safidagi yozuvchilardan biri.

Nazar Eshonqul 1962-yil Qashqadaryo viloyati Qamashi tumanining Ters ota qishlog'ida tug'ilgan. O'rta maktab ta'limidan so'ng 1981 – 1986-yillarda Toshkent davlat universiteti Jurnalistika fakultetida tahsil olgan. Aspiranturada o'qib, Yozuvchilar uyushmasida, adabiy gazetalarda, universitetda, "Jahon adabiyoti" jurnalida faoliyat ko'rsatadi. 1997-yildan buyon O'zbekiston teleradiokompaniyasida ishlaydi. Uning "Go'ro'g'li yoxud tiriklik suvi" romani, "Urush odamlari", "Temir panjalar", "Momoqo'shiq" kabi qissalari, "Maymun yetaklagan odam", "Ajr", "Og'riq lazzati", "Tobut", "Xayol tuzog'i", "Bevaqt chalingan bong", "Shamolni tutib bo'lmaydi" singari o'nlab hikoyalari o'zining keng o'quvchilar ommasiga ega. Nazar Eshonqul badiiy asarlari bilan birga adabiy, estetik, publitsistik maqolalari bilan ham jahon adabiyoti va san'atining ilg'or vakillari bilan shinalandarlarni tanishtirib kelayotgan teran fikrli olim ham hisoblanadi. Bunda uning "Ijod falsafasi" nomli ikki tomdan iborat kitobi xarakterli misol bo'la oladi. Bu majmualarda badiiy ijodning psixologik talqin bilan bog'liq chuqur mulohazali fikrlari ham o'z ifodasini topgandir.

Nazar Eshonqul jahon adabiyoti ilg'or namoyandalarini, modern adabiyoti yutuqlarini, milliy mumtoz adabiyot va xalq og'zaki ijodi namunalarini yaxshi biladi.

Bularning barisi uning notakror nasriy asarlarida o'z ijobati, uslubiy jozibadorliklari bilan namoyon bo'ladi.

Nazar Eshonqul koreyalik adabiyotshunos olim professor In Gyong Ox bilan suhbatida u tilga olgan ijodkorlar e'tiborni tortadi:

– Bugun siz qaysi o'zbek adiblarining asarlarini dunyo tillariga tarjima qilish kerak deb hisoblaysiz?!

Yuqorida aytganim Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanini. Bu romanda XX asr g'arb adabiyotiga xos modern xususiyatlari yo'q. Bu sof Sharq romani. Unda o'zbek xarakteri, o'zbek oila madaniyati, o'zbek ruhi yaqqol ko'rsatilgan. O'zbekning qalbini, madaniyatini, maqsadini, istagini bilmoqchi bo'lganlarga bu asar yetarli ma'lumot beradi.

Zamonaviy nasrni nazarda tutyapman. Bugungi yozuvchilardan...

– Bugungi yozuvchilardan Sh.Xolmirzayev hikoyalari, M.M.Do'stning "Lolazor", A.A'zamning "Ro'yo", N.Norqobilov, Isajon Sultonning so'nggi qissalarini... Boshqa yozuvchilarda ham tarjima qilsa bo'ladigan asarlar bor. Gap bu asarlarni tushunib, uning oxiri bilan tarjima qilishda. Masalan, men shubhasiz XX asr o'zbek hikoyasining eng yaxshi namunalaridan biri deb biladigan M.M Do'stning "Dasht-u dalalarda" hikoyasini tarjima qilib bo'lmasa kerak, deb o'ylayman. Uning butun ohori o'zbek tilida namoyon bo'lgan. Boshqa tillarda bu ohori yo'qolsa, hikoyaning hech qanday qiymati qolmaydi"

Bu o'rinda Nazar Eshonqulning taniqli o'zbek hikoyanavisi Shukur Xolmirzayev nomini ehtirom bilan ta'kidlagani bejiz emas. Bu ikki yozuvchining badiiy mahorati tizimida psixologik tasvirda, lirik ko'lam yoki

hayot mashaqqatini, fojiasi insoniy taqdirlar talqinida umumiylik, hamohanglik kuzatildi. Sh.Xolmirzayevning "Hayot abadiy" hikoyasi tush psixologik uslubidagi teran asar:

"Shamol qattiq esib, bujmaygan tok barglarini uning ustiga opkelib sochdi. Tongga yaqin shivalab yomg'ir yog'a boshladi. Bu ilk kuz yomg'iri edi. Qovjroq ko'katlar-u daraxtlarning turfa hidi atrofga anqib ketdi. So'ng yomg'ir tinib, havo, ochildi, unda oppoq yulduzlar yarqirab yona boshladi. Atrof shu qadar sokin ediki, hatto yaproqlardan tomgan tomchilarning chakkillashi ham eshitilardi. Shabada esa boshladi. Atrof salqin, birdaniga sovuq tushganday bo'ldi.

Bu ajoyib o'zgarishlarni Nodirgina ko'rmasdi, chunki u tirishib, o'lib yotibdi. Oyoq - qo'lini yozib, ko'zlarini yumib, iyagini ko'tarib bog'lab qo'yadigan birona odam bo'lmaganidan tirishib, kulala bo'lib qoladi - da"

Savxoz bosh agronomining ruhiy qisinish asnosi – uning xotini qizchasini olib ota - onasinikiga achchig'lanib ketgandi, behush yiqilib qoladi – da, tushida o'zining o'lganini ko'radi. Shu tariqa uning ruhiy holatida o'zining motam marosimi, motamga kelgan kishilar manzarasi jonlanadi. Shuningdek, "Proletar"lik – mag'rurlik, to'g'rig'o'ylik, poklik ishorasida ishlatilgan psixologik timsol xarakteriga oid so'z. Bu aslida Nodir agronomning pokdomonlik, ko'nglida g'ubori yo'q ochiqko'ngil inson ekanligining muhim belgisi. Uning ruhiy dunyosida o'zining yaxshi odam ekanligini e'tirof etayotgan kishilar munosabati aks etadiki, bu obraz xayol – umididagi psixologik orzu sanaladi. Darvoqe, u qanday bo'lib o'ldi? O'sha kuni majlisdan tanqid yeb keldi, qaynonasi bilan uy xususida janjallashdi, xotini ketib qoldi, ko'chada itni urib, egasidan dakki eshitdi...

Keyin eshikka chiqqanda, ko'kragiga sovuq shamol urildi. Bu kuz shamoli shunchalik yoqimli, huzurbaxsh ediki. Nodirning xo'rliqi keldi. Keyin bu adolatsizliklarga chidolmay, o'zini achchiq ustiga o'ldirib qo'ydi."

Adabiyotshunos Mirzaaxmad Olimov qayd qilganidek, "Tragik situatsiya o'zida tragik kolliziyanı mujassamlashtirgan, qahramonni xatarli azob - uqubatlarga, iztiroblarga va qaysidir ma'nodagi halokatga duchor etadigan vaziyatdir."

"Har bir personajda, – yozgan edi yozuvchi Valentin Kataev – uni yaratgan ijodkor qalbining zarrasi bor. Qahramonni oddiygina xayolan to'qish yaramaydi, yozuvchi "uning qalbiga kirishi" kerak, unga o'z qalbi va yuragining zarrasini berishi zarur: shundagina yozish

oson, yozgani ishonchli, psixologik jihatdan mazmundor va hayotiy bo'lib chiqadi..." Valentin Katayev bu kabi ijod va ijodkor psixologiyasi bilan bog'liq qiziqarli va jozibali fikrlarini ikki adabiy ustozı Ivan Bunin va Vladimir Mayakovskiyning shaxsiy va ijodiy olami haqidagi "Xayol chechaklari" nomli adabiy - estetik asarida ancha, batafsil talqin qilingan.

Xulosa chiqadiki, qahramonlar ruhiy olamini chinakam ishonchli va hayotiy tarzda talqin qila olish uchun shu yozuvchining o'zi avvalo yetuk ma'naviyat sohibi, psixologik jihatdan hissiyotchan, sezgir, nigohi o'tkir bo'lishi kerak.

Nazar Eshonqul mana shu davr, ayniqsa, istiqlol davri navqiron ijodkorlari safidagi qizg'in izlanishlar bilan adabiyot maydoniga kirib kelgan edi. Nazar Eshonqulning "Maymun yetaklagan odam", "Tobut", "Zulmat saltanatiga sayohat", "To'zon", "Og'riq lazzati" kabi hikoyalarida, "Qora kitob", "Tun panjaralari" qissalarida, "Go'ro'g'li yoxud tiriklik suvi" romani markazida turgan jabrdiyda, ezilgan kishilar obrazlari "Xayol tuzog'i" hikoyasi qahramoni Voqif timsolida ham o'zini namoyon etadi. Bu o'ta tushkun kayfiyatli obrazlar bir qadar modernistik absurd xarakteridagi timsollarni biroz eslatasa-da, bu ezilgan timsollar hayotiy va milliy zaminga ega, totalitar davr boshiga kulfat solgan bandalar tipi sifatida haqqoniylik kasb etadi. Yozuvchining haligi adabiy estetik qarashlari "Xayol tuzog'i" hikoyasida o'z tasdig'ini topgan. U ijodkor shaxs fojiasi, savdoyilikka muhtalo bo'lgan inson qismatining o'kinchi va daxshatini, iste'dodli a'zosini himoya etolmagan va aksincha, insonni telbalikka majbur etgan yovuz muhitning yaramasliklarini tasdiqlashga qaratilgan.

Nazar Eshonqul mazkur hikoyasida nutqiy xarakteristika (yoki muallif nutqi) va ichki monolog psixologik usullaridan unumli foydalangan. "Xayol tuzog'i" hikoyasida izlanuvchan psixolog yozuvchining manerasi o'z - o'ziga dunyo azob - uqubatini sotib olgandek katta g'amiga botgan og'ir qismatli yigitning shakl-shamoyilini yaratishda muallif nutqi, ichki monolog, hatto gallyusinatsiya kabi psixologik usul turlaridan mahorat bilan foydalana olgan.

Monolog va psixologik tasvir uyg'unligi konsepsiyasi Nazar Eshonqulning "Xayol tuzog'i" mazmunidagi yana bir qator asarlarida ham mohirona qo'llangandir. Yuksak izlanishlar natijasi o'laroq yozuvchi Nazar Eshonqul eng avvalo, milliy zamin nuqtai nazaridan betakror yutuqlarga erisha olgan, desak xato bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1 Qarang: Adabiyot inson qalbi uchun kurashdir... "Kitob dunyosi", 2013-yil 27-fevral. №4
2. Xolmirzayev Sh. Hayot abadiy// Xolmirzayev Sh. Bodom qishda gulladi. – T., ASN, 1986, 217-bet
3. Xolmirzaev Sh. Bodom qishda gulladi... 219- bet.
4. Olimov M. Fojiaviy pafosning ayrim o'ziga xosliklari. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, 2005-yil, 3-son, 6-bet.
5. Бахтин М. Проблемы поэтики Достоевского. – Москва, "Художественная литература", 1971, стр. 205
6. Eshonqul N. Ijod – ruhining hurligidir. "Yozuvchi", 1998, 21-yanvar

Nodira SAYFIDDINOVA,
Buxoro, “Nurli kelajak” NTM ning
ona tili va adabiyot o'qituvchisi

RETROSPEKTIV TASVIRDA INSON RUHIYATI IFODASI

Annotatsiya: ushbu maqolada retrospeksiya usuli, uning badiiy asardagi o'rni va bu metodning asar qahramonlari ruhiyatidagi ahamiyati haqida fikrlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: retrospeksiya, “hikoya ichida hikoya”, epizod, Chingiz Aytmatov, “Erta qaytgan turnalar” qissasi, inson ruhiyati.

Аннотация: в статье излагаются размышления о методе ретроспекции, его роли в художественном произведении и значении этого метода в психике персонажей произведения.

Ключевые слова: ретроспекция, «рассказ в рассказе», эпизод, Чингиз Айтматов, повесть «Журавли вернулись рано», человеческая психика.

Annotation: this article presents thoughts on the method of retrospection, its role in a work of art, and the significance of this method in the psyche of the characters in the work.

Key words: retrospection, «story within a story», episode, Chingiz Aitmatov, the story «The Cranes Returned Early», human psyche.

Har bir badiiy asarning yuzaga kelishida yozuvchidan og'ir mashaqqat, kuchli mahorat va chuqur nazariy bilim talab qilinadi. Muallif o'z ijodiy mahsuli hisoblanmish badiiy asarni yozishda, avvalo, unga qattiq ta'sir etgan qandaydir voqeiy hodisaga tayanadi va shu asnodan u o'z ichki kechinmalarini, fikr-mulohazalarini qog'ozga tushiradi. Bu jarayonda yozuvchi badiiy asarning yuzaga kelishida bir qator adabiy usullardan foydalanadi. Shunday usullardan biri bu – **retrospeksiya**dir. Hozirgi zamon adabiyotshunosligida “o'tmishga nazar” tushunchasi uch umummazzmunda ma'lum: **retrospeksiya (retrospekt), flashback, analeps, analepsis**. Har bir tushuncha “kelajakka nazar” ma'nosidagi o'zining antonomik, ya'ni zid juftligiga ega: **retrospeksiya – prospeksiya, flashpoward, analeps – proleps** [1;30-31].

Retrospeksiya (lotinchadan retro- ortga, spectro-qarayman) – o'tmishga murojaat, ma'lum vaqt davomida hayotda bo'lib o'tgan voqealarni fikran tiklash va muhokama qilish. Retrospeksiya – o'tmishga murojaat adabiy termin sifatida ikkita asosiy ma'noda qo'llaniladi: 1) o'tmishdan keltirilgan sahna(epizod); 2) hikoya qilish uslubi [2].

Retrospektiv badiiy asarlarning yuzaga kelishida yozuvchi ma'lum bir voqeiy hodisaga, yoki bo'lmasa o'z xayolotida yaratgan badiiy to'qimaga tayanadi. Yozuvchi yozmoqchi bo'lgan asarining syujetini qurishdan oldin, u, eng avvalo, har bir asar qahramonining ruhiyati, ichki dunyosi, xarakteri va fe'l-atvori bilan yaqindan tanishadi, chuqur tahlil olib boradi va shundan so'nggina olib borgan tahlillariga tayangan holda o'z qahramonlarining psixologiyasini kitobxonga yoritib beradi. Qachonki, kitobxon asar qahramonlarining ruhiyatini qalban his qilsa, shundagina u butun asarni o'qish mobaynida o'sha qahramon bilan yonma-yon turib, uning qalb

iztiroblariga, qayg'uli va quvonchli kunlariga sherik bo'ladi. Shuning uchun ham badiiy asar yaratishda yozuvchidan talab qilinadigan eng asosiy vazifalardan biri bu yozmoqchi bo'lgan har bir qahramonining psixologiyasi, ruhiy olamini oldindan his qilgan holda, aniq, mukammal va ta'sirli tasvirlab berishdir.

Yozuvchi asar syujeti, qahramonlarning ruhiy holatini tasvirlab berishda o'tmish voqealariga ham tayanadi. Bu o'rinda esa u retrospeksiya usulidan unumli foydalanadi. Xususan, buyuk qirg'iz yozuvchisi Chingiz Aytmatov asarlarida psixologizm birinchi o'rinda turadi va uning har bir asarida qahramonlar ruhiyati, ichki dunyosi yuksak mahorat bilan mukammal va ta'sirli tasvirlab berilgan. Masalan uning “Erta kelgan turnalar” qissasini oladigan bo'lsak, bu asardagi har bir qahramonning ruhiyati, ichki dunyosi, xarakter xususiyatlari juda aniq va yorqin ifodalab berilgan. Bunda adib asosan qahramonlarning o'tmish voqealari, ya'ni retrospektiv tasvirlardan foydalangan.

Qissaning bosh qahramoni o'n besh yoshlardagi, 7-sinf o'quvchisi Sultonmurot bo'lib, asarning syujeti asosan uning hayotida sodir bo'lgan voqealar asosiga qurilgan. Yozuvchi asarning boshidan-oxir voqealarini yoritib berishda mana shu qahramonining ruhiy olami, ichki dunyosiga murojaat qiladi va uning boshidan kechirgan mashaqqatli, og'ir kunlarini juda ta'sirli ifodalab bergan. Sultonmurotning hayoti otasi to'urushga ketmagunigacha juda yaxshi edi, ammo la'nati urushning kasofati uning yosh umriga, ayni o'ynab-kulib yuradigan damlariga chang soladi. U doim sinf xonasining oxirgi partasida o'tirib, o'zining shirin xayollari, otasi bilan shaharga borgan paytlarini esga olib, unitilmas xotiralariga g'arq bo'lardi. Sultonmurotning hayotida sodir bo'lgan eng baxtiyor kuni otasi bilan shahar aylangan kuni edi. Asarda bu voqea quyidagicha yoritib berilgan:

“Urushgacha, naq urushdan bir yil oldin bo‘lib o‘tgan edi uning hayotidagi bu unutilmas voqea. O‘shanda ham yoz edi. Pichan o‘rshayotgan edi. Otasi Bekboy o‘sha yili Jambuldan shu yerdagi MTSning neft omboriga yonilg‘i tashirdi. Har bir kolxoz yonilg‘i tashib kelishga transport ajratishi kerak edi. Otasi hazillashib o‘zini o‘zi maqtab qo‘yardi: men, der edi, oddiy aravakash emasman, bahosi yo‘q aravakashman, men uchun, otlarim va aravam uchun kolxoz hukumatdan haq oladi. Men, deydi, kolxoz hamyoniga daromad keltiraman. Shuning uchun buxgalter ko‘rgan joyida otdan tushib salom beradi...”

Shunday qilib, o‘tgan yili endi o‘qish tugab, ta‘til boshlanganida otasi shunday deb qoldi:

— Shaharga birga olib boraymi?

Sultonmurot azbaroyi quvonganidan nafasi bo‘g‘ziga tiqilay dedi. Bo‘lmasa-chi. Otasi uning shaharni ko‘rishni ko‘pdan beri orzu qilib yurganini qayerdan bildiykin? Axir hali shaharda biror marta ham bo‘lmagan. Qoyil ish bo‘ldi-da!” [2; 180-181]

Yuqorida keltirilgan bu retrospektiv tasvirda muallif, asosan, Sultonmurotning otasi Bekboyning qanday inson ekanligi, uning kasbi, fe‘l-atvori, xarakteri, ichki dunyosi va ruhiy olami haqida kitobxonga o‘z tilidan ifodalab bermoqda. Ya‘ni bu retrospektiv tasvirda asar qahramoni Bekboyning psixologiyasida “men”lik tushunchasi, o‘ziga yuqori baho berish xususiyati ustunlik qilinayotganligini kitobxon, ayniqsa, uning quyidagi so‘zlari orqali yaqqol bilib olishi mumkin: *“... men, der edi, oddiy aravakash emasman, bahosi yo‘q aravakashman, men uchun, otlarim va aravam uchun kolxoz hukumatdan haq oladi. Men, deydi, kolxoz hamyoniga daromad keltiraman. Shuning uchun buxgalter ko‘rgan joyida otdan tushib salom beradi...”*

Shaharga borish voqeasida Sultonmurotning ruhiyatini ifodalagan retrospektiv tasvir esa asarda quyidagicha yoritilgan:

“O‘sha kuni, otasi uni o‘zi bilan shaharga olib ketishini aytganida u yer-u ko‘kka sig‘may yurdi. Toqatsizlanganidan, quvonganidan tars yorilib ketguday bo‘ldi, ammo gap shundaki, u bu haqda birovga aytishga jur‘at qilolmasdi. Agar Ajimurot bilib qolsa, katta to‘polon chiqardi: nega Sultonmurotga mumkin-u, menga mumkin emas, nega otam uni o‘zi bilan olib ketadi-yu, meni olib ketmaydi? Shuning uchun ham behad quvonch va ertangi sayohatni kutish tuyg‘ulari ukasi oldida qandaydir aybdorlik hislari

bilan qo‘shilib ketganday edi. Nima bo‘lsa-da, bo‘lajak voqea haqida ukalari va singillariga aytib yuborishiga ozgina qoldi. Judayam aytgisi kelardi. Ammo otasi va ayniqsa onasi bunday qilmaslikni qayta-qayta uqtirardi. Mayli, kichkinalar u yo‘ldaligida bilishsin. Shunday bo‘lgani yaxshi. U ana shu sirni saqlash uchun o‘zini bazo‘r tutib qoldi. O‘lib qolay dedi sir tutaman deb. Ammo o‘sha kuni u shunday serharakat, hammaga shunday sertakalluf, shunday jonkuyar bo‘lib qoldiki, hech qachon bunday qilmagandi. Hamma ishni qilar, hammasiga ulgurur edi” [2; 183]

Bolalar psixologiyasi, ularning ichki dunyosi, ruhiy olami juda ham sof va beg‘ubor bo‘ladi. Bunga biz yuqorida keltirilgan retrospektiv tasvir orqali ishonch hosil qilishimiz mumkin. Parchada muallif Sultonmurotning ichki dunyosini, qalbida kechayotgan hissiy kechinmalarini yorqin va ta‘sirli ifodalab bergan. Sultonmurot uchun otasi bilan shaharga borish, shaharni aylanish uning hayotidagi eng quvonchli hodisa edi. U quvonchdan ichiga sig‘may, hatto uydagi barcha yumushlarini bir zumda bajarib, onasiga tuzukkina dastyor bo‘ladi. Shaharga borish Sultonmurot qalbida cheksiz quvonch uyg‘otishi bilan bir qatorda, bu sirni ukalaridan berkitishi uning vijdonini qiynaydi, o‘zini go‘yoki aybdor, gunohkordek his qiladi. Uning vijdon azobida qiynalishi asarda keltirilgan quyidagi parchada yanada yorqinroq tasvirlab berilgan:

“Eh, ukasini ranjitib qanday noma‘qulchilik qilgan ekan-a. Faqat otasi ishora qilgandan keyingina tushunib yetdi. U mana shunaqa tentaknamo edi, ukalari oldida yarashmagan qiliqlarni qilib yurardi. Mana endi, shaharga boradigan bo‘lganida, ukasi buni bilmaydi, vijdoni shunday qiynaldiki, hatto shu zahoti uning oldiga borib kechirim so‘rashga, nima desa shuni bajarishga tayyor edi” [2; 186]

Xulosa qilib aytganda, retrospektiv tasvirda inson ruhiyati ifodasi badiiy asar sujetida juda muhim ahamiyatiga ega bo‘lib, buni biz Ch. Aytmatovning “Erta qaytgan turnalar” qissasi tahlili asosida yanada aniqroq bilib oldik. Bu asarda keltirilgan har bir psixologik retrospektivlarning ahamiyati, o‘rni, vazifasi muallif tomonidan aniq va mukammal yoritib berilgan, bu esa o‘z navbatida bizga asar syujetini maroq bilan o‘qishga, uning qahramonlari ruhiyatini yaqindan his qilishga katta yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Меркулова М.Г. Ретроспекция: шекспировская модель ретроспекции в «Гамлете» [Электронный ресурс]. URL: // <https://world-shake.ru/ru/Encyclopaedia/3770.html> (Дата обращения: 24.01.2022)
2. Меркулова М.Г. Ретроспекция в английской “новой драме” конца XIX – начала XX века: истоки и функционирование. – М.: Прометей, 2006. – С.30–31.
3. Айтматов Чингиз. *Эрта келган турналар: Қиссалар* – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982. 280-б.

Gulbahor QODIROVA,
Andijon qishloq xo'jaligi va
agrotekhnologiyalar instituti
E-mail: g.qodirova75@gmail.com

QISHLOQ XO'JALIGI TERMINOLOGIYASI KONTEKSTIDA INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA YADRO VA PERIFERIK FREYMLAR BILAN MODALLIK KATEGORIYALARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

Annotatsiya: maqolada ingliz va o'zbek tillarida freymlarning yadro va periferik elementlari bilan modallik kategoriyalari o'rtasidagi semantik bog'liqlik qishloq xo'jaligi terminologiyasi misolida tahlil qilinadi. Charlz Fillmor freym semantikasi nazariyasi asosida modallikning obyektiv va subyektiv turlari, ularning grammatik va leksik vositalar orqali ifodalanishi hamda yadro amallarning majburiy yoki ixtiyoriyligini belgilashdagi roli ochib beriladi. Tadqiqot natijalari tarjima va terminologik izoh ishlarida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: *freym semantikasi, modallik, yadro element, periferik element, qishloq xo'jaligi terminologiyasi.*

Аннотация: в статье исследуется семантическая взаимосвязь между ядерными и периферийными элементами фреймов и категориями модальности в английском и узбекском языках на материале сельскохозяйственной терминологии. На основе теории фреймовой семантики Чарльза Филлмора анализируются объективная и субъективная модальности, их выражение грамматическими и лексическими средствами, а также роль в маркировании обязательности или факультативности действий. Результаты имеют научно-практическое значение для перевода и терминологической работы.

Ключевые слова: фреймвая семантика, модальность, ядерный элемент, периферийный элемент, сельскохозяйственная терминология.

Annotation: the article examines the semantic relationship between core and peripheral frame elements and modality categories in English and Uzbek, with a focus on agricultural terminology. Based on Charles Fillmore's frame semantics theory, it analyzes objective and subjective modalities, their grammatical and lexical realizations, and their role in marking the obligatoriness or optionality of actions. The findings are of scholarly and practical significance for translation and terminological research.

Key words: frame semantics, modality, core element, peripheral element, agricultural terminology.

Kirish. Qishloq xo'jaligi terminologiyasi ko'p asrlik tajriba va milliy madaniyat bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u nafaqat sohaviy leksikani, balki tilning konseptual tizimini ham shakllantiradi. Ingliz va o'zbek tillarida bu soha terminlari ko'pincha freym semantikasiga asoslanadi, ya'ni ularning mazmuni markaziy (yadro) va qo'shimcha (periferik) komponentlardan iborat bo'ladi.

Adabiyotlar sharhi. Freym tushunchasi lingvistikaga amerikalik olim Charlz Fillmor tomonidan kiritilgan bo'lib, u so'z ma'nolarini inson tajribasi asosida shakllangan sxemalar orqali tushuntiradi¹. Fillmor nazariyasiga ko'ra, har bir so'z ortida muayyan

voqea yoki holatga oid bilim tuzilmasi – freym mavjud bo'lib, unda voqeaning zarur ishtirokchilari va sharoitlari mujassamlanadi. Freym semantikasida ma'no yadro (core) va periferik (non-core) elementlarga ajratiladi: yadro elementlar voqeaning konseptual asosini, periferik elementlar esa ikkinchi darajali tafsilotlarni ifodalaydi. Masalan, "sotib olish" freymida xaridor va mahsulot yadro, pul va joy esa periferik komponent hisoblanadi; ular gapda bevosita tilga olinmasa ham freym bilimida mavjud bo'ladi². Demak, gap ma'nosini to'liq tushunish uchun u tegishli freymga tayanadi: so'z ma'nosi tegishli bilim doirasi (freym) orqali idrok etiladi³. Modallik esa muloqot

1 Fillmore C. J. Frame semantics // *Linguistics in the Morning Calm: Selected Papers from SICOL-1981*. Seoul: Hanshin Publishing Co., 1982. – P. 111–112

2 Dahm J. Semantic frame analysis // UNPOP. – URL: <https://www.unpopproject.org/semantic-frame-analysis/>

3 Mansurova N.A. Frame-based terminology of marketing terms // *Academia Globe: Inderscience Research*. – 2022. – Vol. 3, Issue 4. – P.

mazmunini boyituvchi muhim kategoriya bo'lib, u gapga nisbatan munosabatni bildiradi⁴. Sh. Ballining ta'kidlashicha, "Modallik – gapning qalbi, yuragidir", ya'ni modal ma'no gapning ichki ruhini tashkil qiladi va uni ifodalash uchun fe'l va mayl shakllari, intonatsiya, so'roq va buyruq ohangi, hatto imo-ishora va undov so'zlargacha ko'plab vositalar xizmat qiladi⁵. M. Xollidey modallikni muloqotning muhim funksional jihati deb atab, uning yordamida so'zlovchi o'z fikrini ifoda qilish usulini belgilashini ta'kidlaydi⁶. Lingvistika fanida modallik kategoriyasi eng murakkab va serqirra tushunchalardan biri bo'lib, u tilshunoslar va boshqa soha vakillarining diqqat markazida turadi.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil

Tadqiqot jarayonida quyidagi usullar qo'llanildi:

Freym-semantik tahlil – terminlarning yadro (asosiy, majburiy komponentlar) va periferik (qo'shimcha, kontekstga bog'liq komponentlar) qismlarini aniqlash.

Qiyosiy-lisoniy tahlil – ingliz va o'zbek tillaridagi qishloq xo'jaligi terminlarining strukturasi, qo'llanish chastotasi va semantik maydonlarini solishtirish.

Modallik kategoriyasi tahlili – zaruriyat (must, kerak), ehtimollik (may, mumkin), imkoniyat (can, qila oladi), majburiyat (should, lozim) kabi ifodalarning freymdagi o'rni va vazifasini o'rganish.

Korpus tahlili – qishloq xo'jaligi sohasiga oid matnlar (ilmiy maqolalar, texnik hujjatlar, xalqaro standartlar) asosida til birliklarini amaliy kuzatish.

Freym semantikasi kognitiv lingvistika yo'nalishidagi nazariya bo'lib, so'z ma'nosini kengroq bilim tizimining tarkibiy qismi sifatida talqin etadi. Fillmor nazariyasiga ko'ra, har bir so'z yoki ibora ortida uni anglash uchun zarur bo'lgan dunyo haqidagi bilim – freym mavjud⁷. Freym – bu vaziyatning kognitiv modeli bo'lib, hodisaga oid barcha rollar va atributlarni qamrab oladi. Masalan, "fermer bozorda meva sotdi" jumlasini anglash uchun Savdo freymi zarur: sotuvchi, xaridor va mahsulot yadro elementlar, pul va joy esa periferiyani tashkil etadi. Xaridor tilga olinmasa ham, sotish jarayoni u holda mumkin emasligi freym bilimida mantiqan mavjud bo'ladi.

Freym tarkibidagi yadro elementlar (core frame elements) – bu freym mazmunini tashkil etishda konseptual zarur komponentlar hisoblanadi⁸. Fillmor dastlab tarjimayi holida buni tematik rollar sifatida kiritgan, masalan, *agent*, *obyekt*, *manzil* va hokazo⁹. FrameNet loyihasida har bir freymning yadro (majburiy) va periferik (kontekstga bog'liq) elementlari aniqlanadi. Masalan, "xarid qilmoq" freymida xaridor, sotuvchi, mahsulot va pul yadro elementlar, joy, sabab va usul esa periferiyani tashkil etadi¹⁰.

O'zbek tilshunosligida ham freym yondashuvi qo'llanila boshlandi. Masalan, M.Axmedova "ma'naviyat" konseptining freym tahlilida uning asosiy va qo'shimcha ma'no maydonlarini aniqlagan¹¹. D. Ashurova ta'rificha, freym – til birliklari orqali shakllanadigan, oddiy faktlar jamlanmasidan farqli, bog'langan ma'lumotlar va iyerarxik tuzilmalardan iborat bilim modeli¹².

Freym semantikasi ixtisoslashgan soha terminlarini izchil tavsiflash imkonini beradi. An'anaviy terminologiyada jarayon va xususiyatlar e'tibordan chetda qolsa, freymga asoslangan yondashuv ularni ham qamrab oladi. Masalan, qishloq xo'jaligida *ekish*, *o'g'itlash*, *yig'ib-terish* kabi jarayonlar alohida freymlar orqali, ularning *ishtirokchi*, *vosita*, *obyekt*, *vaqt* va *sharoit* kabi elementlari bilan modellashtiriladi. Bu yondashuv freymlararo bog'lanishlarni ochib, termin ma'nosini tizimli tushuntirishga xizmat qiladi¹³. Xususan, P. Faber va hamkorlari terminologik tarmoqlarda sabablilik, natijaviylik hamda qismi-butun munosabatlarini freymlar orqali ifodalashni taklif etadi¹⁴. Shunday qilib, freym semantikasi nafaqat umumtil leksikasini, balki maxsus soha terminologiyasini ham chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

8 Dahm J. Semantic frame analysis // UNPOP. – URL: <https://www.unpopproject.org/semantic-frame-analysis/>

9 Fillmore C. J. The Case for Case. In: Bach E., Harms R. T. (eds.) *Universals in Linguistic Theory*. – New York: Holt, Rinehart and Winston, 1968. – P. 78–79

10 Dahm J. Semantic frame analysis // UNPOP. – URL: <https://www.unpopproject.org/semantic-frame-analysis/>

11 Akhmedova M.B. Frame analysis of "ma'naviyat" concept in the Uzbek language // *Modern problems of philology and linguistics*. – 2024. – No. 4(112). – P. 73–74.

12 Ashurova D.U. Frame analysis in cognitive linguistics: structural and functional perspectives // *Actual Problems of Modern Science, Education and Training*. – 2024. – № 4. – P. 12

13 Mansurova N.A. Frame-based terminology of marketing terms // *Academia Globe: Inderscience Research*. – 2022. – Vol. 3, Issue 4. – P. 100–104.

14 Faber P. Frames as a Framework for Terminology // *Handbook of Terminology*, eds. H. Kockaert, F. Steurs. — John Benjamins, 2014. — P. 18–19.

100–104.

4 Matyakubov O.Q. Qiyosiy tilshunoslikda modallik kategoriyasi: tadqiq va talqin (fransuz hamda o'zbek ertak, naqllari misolida) // *O'zbekistonda xorijiy tillar*. 2024. 10-jild, № 1 (54). 97–116-b.

5 Балли И. Язык и жизнь. — М., 2003. — С. 44–60

6 Halliday M.K. *System and function in language: Selected papers*. Ed. by G.R. Kress. — London: Oxford Univ.Press, 1976. — P. 197.

7 Fillmore C. J. *Frame semantics*. ... 1982. – P. 111–112

Modallik kategoriyasi gap mazmunining voqelikka va subyektga munosabatini belgilab, hukmning haqiqatga daxldorligini yoki so'zlovchi munosabatini ifodalaydi. Umuman, u obyektiv va subyektiv turlarga ajratiladi. Obyektiv modallik fikrning reallikdagi haqiqat, mumkinlik, zaruriyat yoki ehtimoligini bildiradi hamda grammatik (mayl, affiks) va leksik (modal so'zlar, yuklamalar, intonatsiya) vositalar orqali ifodalanadi¹⁵. Masalan, ingliz tilida "may, might" kabi modal fe'llar ehtimollikni ifodalaydi (mumkinligini bildiradi), "must, have to" esa zaruriyat va majburiyatni ifodalaydi (zarurligini bildiradi)¹⁶. O'zbek tilida bu kabi obyektiv modal ma'nolar asosan fe'lining mayl shakllari va modal so'zlar orqali ifodalanadi. Jumladan, buyruq mayli orqali zaruriyat (majburiyat) ifodalanishi yoki so'roq-yuklamalar orqali ehtimollik ifodalanishi mumkin. Kerak, lozim, shart kabi so'zlar o'zbek tilida zaruriyat modal ma'nosini beradi, mumkin so'zi esa imkoniyat (mumkinlik) modal ma'nosini bildiradi¹⁷. Masalan: "Ertaga majlisga kelishing kerak" gapida *kerak* so'zi obyektiv modallikni (zaruriyatni) ifodalab, hukmni haqiqiy qilish shartligini bildiradi. Yoki "Bugun yomg'ir yog'ishi mumkin" gapida *mumkin* so'zi voqea ehtimolini (imkoniyatini) ko'rsatadi.

Subyektiv modallik so'zlovchining fikrga bo'lgan munosabatini, jumladan ishonch, gumon, tasdiq yoki inkorni ifodalaydi. U so'z tartibi, intonatsiya, modal va undov so'zlar, kirish iboralar orqali yuzaga chiqadi. Masalan, "albatta" qat'iy ishonchni, "ehtimol" esa gumonni bildiradi; ingliz tilida esa *probably, certainly, I think* kabi birliklar shu funksiyani bajaradi. Obyektiv va subyektiv modallik ko'pincha birgalikda namoyon bo'lib, ularni aniq ajratish qiyin. Modal birliklar, masalan "kerak" yoki ingliz tilidagi "must", kontekst va ohangga qarab majburiyatni (obyektiv) yoki taxminni (subyektiv) ifodalashi mumkin. Shu bois, modal ma'no vazifa, intonatsiya va keng kontekstga bog'liq ravishda belgilanadi¹⁸.

G'arb tilshunosligida modallik odatda epistemik (ehtimollik, ishonchlilik)¹⁹ deontik (majburiyat, ruxsat)

va dinamik (qodirlik, ichki ehtiyoj) turlarga ajratiladi²⁰. O'zbek tilshunosligida esa kognitiv (bilish jarayoni), impozitiv (ta'sir o'tkazish) va emotiv (hissiy holat) modallik kabi qo'shimcha tasniflar ham mavjud. Umuman, modallik tilning semantik va pragmatik qatlamlarini bog'lab, gap mazmunining reallikka daxldorligi yoki so'zlovchi ishonch darajasini ifodalaydi.

Ingliz tilida modallik asosan modal fe'llar orqali ifodalanadi. Ushbu yordamchi fe'llar ehtimollik, majburiyat va ruxsat ma'nolarini beradi. Asosiy modal fe'llar qatoriga *can, could, may, might, shall, should, will, would, must* va *ought to* kiradi²¹. Ushbu modallar o'ziga xos xususiyatlarga ega: ular shaxslarga ko'ra o'zgarmaydi (masalan, *he can, I can* – hamma shaxsda bir xil), infinitiv shaklda keladi (to bilan emas), va so'z tartibida odatda yordamchi fe'l vazifasini bajaradi (savol va inkorda inversiya, *do-siz inkor* kabi)²². Modal fe'llar gap modalligini belgilab, zaruriyat, maslahat yoki ruxsatni ifodalaydi. Masalan, *must* – kuchli ishonch yoki majburiyat, *should* – yumshoqroq majburiyat yoki maslahat, *may* – ruxsat yoki imkoniyat ma'nosini beradi. Ingliz tilida modal fe'lining turi va konteksti uning obyektiv yoki subyektiv ma'nosini belgilaydi. Masalan, *must* kontekstga qarab epistemik (taxmin) yoki deontik (majburiyat) modallikni ifodalaydi. *Shall* odatda birinchi shaxsda majburiyat yoki rasmiy taklifni, *should* esa maslahat yoki ehtimoliy natijani bildiradi.

Ingliz tilida modallik modal fe'llardan tashqari, modal so'z va iboralar (*probably, possibly, certainly, of course, maybe, I think, I guess*) hamda intonatsiya orqali ifodalanadi. Bunday birliklar gapga ishonch yoki gumon ohangini qo'shadi. Shuningdek, tinish belgisi va so'z tartibi ham modallikka ta'sir qiladi: masalan, "You are coming." xabar ohangida, "You are coming?" esa so'roq va noaniq ishonch ohangida anglashiladi. Ingliz tilida modal fe'llar ko'pma'nolilikka ega bo'lib, bir nechta qarama-qarshi ma'noni ifodalashi mumkin. Masalan, *could* – o'tmishda qodirlik ("I could swim") yoki muloyim buyruq ("Could you open the door?"),

15 Radjapova N. Modal category and modality units // Electronic journal of actual problems of modern science, education and training. 2021. – p. 41.

16 <https://open.lib.umn.edu/voiceshandbook/chapter/4-6-modal-auxiliaries/#:~:text=4,types%20of%20errors%20when>

17 Matyakubov O.Q. Qiyosiy tilshunoslikda modallik kategoriyasi: tadqiq va talqin (fransuz hamda o'zbek ertak, naqlari misolida) // O'zbekistonda xorijiy tillar. – 2024. – 10-jild, № 1 (54). – B. 101–103.

18 Radjapova N.M. The category of modality: objective and subjective modality // Western European Journal of Linguistics and Education. – 2024. – Vol. 2, No. 8. – P. 30–33.

19 Mortelmans T. Modality in cognitive linguistics // The Oxford Handbook

of Cognitive Linguistics / ed. by D. Geeraerts, H. Cuyckens. – Oxford: Oxford University Press, 2012. – P. 869–889.

20 Sweetser E. Modality // From Etymology to Pragmatics: Metaphorical and Cultural Aspects of Semantic Structure. – Cambridge: Cambridge University Press, 2012. – (Cambridge Studies in Linguistics; 54). – P. 45–70.

21 <https://open.lib.umn.edu/voiceshandbook/chapter/4-6-modal-auxiliaries/#:~:text=,types%20of%20errors%20when>

22 Wong M. Modal Verbs // San José State University Writing Center. – Fall 2021. – 4 p. – URL: <https://www.sjsu.edu/writingcenter>

may – ruxsat (“May I come in?”) yoki ehtimollik (“It may rain”) bildiradi. E. Svitserga ko‘ra, epistemik ma‘nolar ko‘pincha deontik yoki dinamik ma‘nolardan metaforik kengayish orqali kelib chiqadi, masalan must majburiyatdan (“You must leave”) taxmin (“He must be sick”) ma‘nosiga o‘tadi²³.

Ingliz tilida modallik fe‘l mayllari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, indikativ neytral, imperativ majburiy, subjunktiv esa xohish-istak yoki ehtimollikni ifodalaydi. Masalan, “If I were a bird...” xayoliy shartni bildiradi. Umuman, modallik bu tilda modal fe‘llar, modal so‘z-iboralar, intonatsiya va sintaksis vositasida ko‘p qatlamli tarzda ifodalanadi.

O‘zbek tilida modallik boy mazmunga ega bo‘lib, alohida modal fe‘llaremas, balki yordamchiso‘zlar va fe‘l shakllari orqali ifodalanadi. Eng ko‘p ishlatiladiganlari: kerak, lozim, shart, mumkin, yarashadi, ma‘qul va ularning inkor shakllari. Masalan, “kerak” – zaruriyatni, “mumkin” – imkoniyatni bildiradi va gapda yordamchi predikat vazifasini bajaradi. O‘zbek tilida modallik asosan fe‘lning mayl kategoriyalari orqali ifodalanadi. Hozirgi adabiy tilda indikativ, imperativ, shart, maqsad va ehtimol-taksir mayllari mavjud bo‘lib²⁴, so‘nggi uchta subjunktiv holatlar sifatida bir guruhga kiritiladi. Mayllar qo‘shimchalar orqali shakllanadi: buyruq mayli (bor!) – majburiyat, shart mayli (-sa) – ehtimollik, istak (-sam, -sin) – xohish, maqsad – niyat modalligini beradi. Buyruq obyektiv zaruriyatni, shart va istak esa ko‘proq subyektiv ehtimol yoki xohishni ifodalaydi.

O‘zbek tilida modallik analitik konstruksiyalar orqali ham ifodalanadi: fe‘lning infinitiv yoki masdar shakliga kerak, lozim, shart, zarur kabi so‘zlar qo‘shilib majburiyat, mumkin esa imkoniyat yoki ruxsat ma‘nosini beradi. Yaramaydi, bo‘lmaydi kabi shakllar esa taqiq modalligini ifodalaydi. O‘zbek tilida modal fe‘l tushunchasiga *bilmoq*, *mumkin bo‘lmoq* kabi birikmalar ham kiradi. Bilmoq qodirlikni (“suzolmayman”, “ko‘tara olmaydi”) bildiradi va ingliz tilidagi *can/able to* modalligiga mos keladi. Biroq bu shakllar asosan og‘zaki nutqda, adabiy tilda esa boshqa vositalar qo‘llanadi.

O‘zbek tilida subyektiv modallik boy bo‘lib, avvalo intonatsiya orqali yuzaga chiqadi: “Borasan” va “Borasan?!” farqi talab, hayrat yoki ishonchsizlikni

belgilaydi. Kirish birliklari (to‘g‘risi, axir, ehtimol, albatta, “rostini aytsam”) so‘zlovchi munosabatini kuchaytiradi. Yuklamalar (-ku, -da, -ya) esa tasdiq, koyinish, hayrat va ta‘kid kabi nozik modal ma‘nolarni beradi; bu niuanslar ko‘pincha inglizchaga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilinmaydi va qo‘shimcha intonatsiya yoki izoh talab etadi (masalan, “I am coming, you know”). Xulosa qilib, o‘zbek tilida modallik asosan fe‘l shakllari va modal birliklar orqali beriladi; ingliz tilidan ifoda vositalari jihatidan farq qilsa-da, har ikki til pragmatik maqsadlar uchun keng modal imkoniyatlarga ega. Endi modallikning freymlar bilan munosabatini, xususan qishloq xo‘jaligi terminologiyasi misolida, ko‘rib chiqamiz²⁵.

Freymlar hodisa yoki vaziyatning kognitiv modeli, modallik esa unga bo‘lgan munosabatni bildiradi. Freym tarkibida ayrim komponentlar majburiy, boshqalari ixtiyoriy bo‘lishi mumkin; modallik esa bu farqni ifodalaydi. Masalan, “ekinlarni sug‘orish” freymida dehqon, ekin maydoni, suv va sug‘orish amali yadro, vaqt, usul, vosita va sabab periferiyani tashkil etadi. “Ekinlarni sug‘orish kerak” jumlasini zaruriyat modalligi orqali yadro amalining majburiyligini ko‘rsatadi. Ingliz tilida bu “Crops must be irrigated regularly” shaklida ifodalanadi²⁶. Must yoki kerak modallari freymning yadro amalini majburiy, may yoki mumkin esa ixtiyoriy sifatida belgilaydi. Masalan, “Ekinlarni sug‘orish kerak” – majburiy amal, “Ekinlarni sug‘orish mumkin” – ixtiyoriy amal. “Urug‘larni ertalab ekish lozim” – vaqt jihatdan majburiy, “ertalab ekish mumkin” – faqat tavsiya. “O‘g‘it berish shart” – majburiy agrotexnik talab, “shart emas” – bu amaldan voz kechish mumkinligini bildiradi.

Natijalar. Tadqiqot quyidagi natijalarni ko‘rsatdi:

Yadro freymlar – Qishloq xo‘jaligi terminlarida yadro freym tushunchaning majburiy semantik komponentlarini o‘z ichiga oladi. Masalan, irrigation (sug‘orish) termini uchun yadro freym “suv manbasi – taqsimlash tizimi – ekin maydoni” elementlarini o‘z ichiga oladi. O‘zbek tilida ham sug‘orish termini shu strukturaga ega.

Periferik freymlar – Bu komponentlar kontekstga qarab qo‘shiladi, masalan, drip irrigation (tomchilatib

23 Bodwell M. B. Review: [Untitled] / Mary Buchinger Bodwell // Journal of Linguistics. – 1993. – Vol. 29, No. 1. – P. 157–163.

24 The Uzbek tense-aspect-modality system // Center for East European and Russian/Eurasian Studies, 2010. – P. 42.

25 Mirzababayeva K.U. Linguistic aspects of modality components in English and Uzbek // Eurasian Journal of Academic Teaching and Research. – 2023. – Vol. 21. – P. 113–115.

26 <https://www.era-environmental.com/blog/saline-agriculture#:~:text=Sustainability%20Focus%3A%20Saline%20Agriculture%20Fields,or%20brackish%20water%20would>

sug'orish) yoki night irrigation (tun bo'yi sug'orish). Bu yerda periferik element texnologiya turi yoki vaqt oraliq'ini bildiradi.

Modallik kategoriyasining roli – Modallik yadro va periferik freymlar o'rtasida pragmatik bog'lovchi sifatida ishlaydi. Masalan, ingliz tilida Farmers must use certified seeds (Fermierlar sertifikatlangan urug'lardan foydalanishi kerak) gapida must zaruriyatni bildiradi va yadro freymga huquqiy talab qo'shadi. O'zbek tilida esa Fermierlar sertifikatlangan urug'lardan foydalanishi kerak bir xil semantik va pragmatik yuklamani beradi.

Modallik va freym elementlari uyg'unlashganda, yadro (majburiy) va periferik (ixtiyoriy) tarkib aniq ko'rinadi. Bu, ayniqsa, ixtisoslashgan matnlarda muhim bo'lib, amallarning zaruriy yoki shartli ekani modallik orqali belgilanadi. Masalan, *"Cotton must be irrigated at least once every 10 days"* – majburiy amal, *"Corn can be planted after the last frost"* – sharoitga bog'liq imkoniyatni bildiradi²⁷. Kognitiv yondashuvda modallik Talmiyning kuch dinamikasi nazariyasi bilan izohlanadi. Must – kuchli majburiy talab, may – to'sqinlik yo'qligi yoki ruxsat, cannot – qat'iy to'sqinlikni bildiradi. Bu model freym'larga tatbiq etilganda, ishtirokchilar o'rtasidagi kuch munosabatlari aniqlanadi: majburiyat – majburlovchi kuch, epistemik modallik esa bilim sohasidagi ishonch va shubha muvozanatini ifodalaydi²⁸.

Freym-modallik aloqasi tarjima jarayonida ham muhimdir. Ingliz tilidagi "should, shall, must" modal fe'llarini o'zbekchaga tarjima qilishda kontekst va freym hisobga olinadi. Masalan, must turli vaziyatlarda *kerak, lozim, shart, majbur bo'l*, hatto ehtimol shaklida ifodalanishi mumkin. Qishloq xo'jaligi matnlarida rasmiy hujjatlarda "lozim" ko'pincha "shall" yoki "must" ga mos keladi, biroq ohang jihatidan yumshoqroq bo'lishi mumkin. Shuning uchun tarjimada madaniy va kontekstual freymlar tahlili zarur²⁹. Ba'zan modal

27 <https://www.ars.usda.gov/ARUserFiles/20540000/k12/irrigation.htm#:~:text=However%2C%20sandy%20soil%20 holds%20less,3%20 cups%20of%20water>

28 https://en.wikipedia.org/wiki/Force_dynamics#:~:text=Aspects%20 of%20force%20dynamics%20have,4

29 Rustamova O., Eshmatova M. Inglizcha-o'zbekcha qishloq xo'jaligi terminlarini tarjima qilishda madaniy omillarning ta'siri // Pedagogics: international research journal. – 2023. – P. 195-209.

ma'no lug'aviy emas, balki madaniy presuppozitsiya orqali anglashiladi. Masalan, "You must rotate crops to maintain soil fertility" jumlasida nafaqat majburiyatni, balki ekin almashlab ekishning ilmiy-agronomik zaruratini ham bildiradi; tarjimada "shart" shaklida berish mazmunni to'liq ochadi. Ijtimoiy nutqda ham modallik yadro va periferiyani belgilaydi. Masalan, "Yomg'ir yog'madi, shuning uchun dalani sug'orishga to'g'ri keldi" jumlasida to'g'ri keldi periferik amalni yadroga aylantirib, majburiyatni bildiradi; ingliz tilida bu "It was necessary to irrigate the field" yoki "We had to irrigate the field" tarzida ifodalanadi³⁰. Shunday qilib, real nutqda so'zlovchi modallik orqali freymdagi voqealarning ahamiyat darajasini belgilab, ularning qaysi biri yadro, qaysi biri periferik ekanini ko'rsatadi.

Xulosa va munozara. Ingliz va o'zbek tillarida freym'larning yadro va periferik qismlari bilan modallik kategoriyalari o'rtasidagi bog'liqlik murakkab, ammo qiziqarli hodisadir. Modallik voqeaga munosabatni belgilab, freym mazmunini to'ldiradi; freym esa modallikni to'g'ri talqin qilishga yordam beradi. Qishloq xo'jaligida sug'orish yoki dorilash majburiy amal sifatida, qo'shimcha chora-tadbirlar esa ixtiyoriy amal sifatida modal vositalar (kerak, shart, must, have to; mumkin, may, can) bilan ifodalanadi. Modal birliklarning mazmuni faqat freym kontekstida to'liq ochiladi. Masalan, "dorini sepish kerak" oddiy tinglovchi uchun majburiyat, agronom uchun esa kasallikning oldini olish ssenariysini bildiradi. Modallik–freym munosabatini o'rganish nazariy jihatdan til mazmunining ko'p qirraliligini, amaliy jihatdan esa tarjima, terminologik izoh va sun'iy intellekt tizimlarida aniq tahlilni ta'minlaydi. Har ikki til grammatik va leksik vositalarda farqlansa-da, kognitiv asosda majburiyat, ehtimollik, ruxsat va xohish kabi konseptlarda o'xshashlik mavjud. Shu bois, tarjimada modal ma'no va uning freym asosini anglash mazmunni to'g'ri yetkazishga xizmat qiladi. Qishloq xo'jaligi misolidagi tahlillar ushbu yondashuvning amaliy ahamiyatini ko'rsatadi; kelgusida huquqiy va texnik matnlar tilida ham bu aloqadorlikni o'rganish foydali bo'ladi.

30 Furmaniak G. A frame-based approach to modality: The case of obligation // Belgian Journal of Linguistics. – 2010. – Vol. 24. – P. 24-26.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fillmore C. J. Frame semantics // *Linguistics in the Morning Calm: Selected Papers from SICOL-1981*. – Seoul: Hanshin Publishing Co., 1982. – P. 111–112.
2. Dahm J. Semantic frame analysis // UNPOP. – URL: <https://www.unpopproject.org/semantic-frame-analysis/>
3. Mansurova N. A. Frame-based terminology of marketing terms // *Academicia Globe: Inderscience Research*. – 2022. – Vol. 3, Issue 4. – P. 100–104.
4. Matyakubov O. Q. Qiyosiy tilshunoslikda modallik kategoriyasi: tadqiq va talqin (fransuz hamda o'zbek ertak, naqllari misolida) // *O'zbekistonda xorijiy tillar*. – 2024. – T., 10.№ 1 (54). 97–116-b.
5. Балли Ш. Язык и жизнь. – М.: Изд-во «Языки славянской культуры», 2003. – С. 44–60.
6. Halliday M. A. K. System and function in language: Selected papers / Ed. by G. R. Kress. – London: Oxford University Press, 1976. – P. 197.
7. Fillmore C. J. The Case for Case // In: Bach E., Harms R. T. (eds.) *Universals in Linguistic Theory*. – New York: Holt, Rinehart and Winston, 1968. – P. 78–79.
8. Akhmedova M. B. Frame analysis of “ma’naviyat” concept in the Uzbek language // *Modern Problems of Philology and Linguistics*. – 2024. – No. 4(112). – P. 73–74.
9. Ashurova D. U. Frame analysis in cognitive linguistics: structural and functional perspectives // *Actual Problems of Modern Science, Education and Training*. – 2024. – № 4. – P. 12.
10. Faber P. Frames as a Framework for Terminology // *Handbook of Terminology* / Eds. H. Kockaert, F. Steurs. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins, 2014. – P. 18–19.
11. Radjapova N. Modal category and modality units // *Electronic Journal of Actual Problems of Modern Science, Education and Training*. – 2021. – P. 41.
12. Radjapova N. M. The category of modality: objective and subjective modality // *Western European Journal of Linguistics and Education*. – 2024. – Vol. 2, No. 8. – P. 30–33.
13. Mortelmans T. Modality in cognitive linguistics // *The Oxford Handbook of Cognitive Linguistics* / Ed. by D. Geeraerts, H. Cuyckens. – Oxford: Oxford University Press, 2012. – P. 869–889.
14. Sweetser E. Modality // *From Etymology to Pragmatics: Metaphorical and Cultural Aspects of Semantic Structure*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2012. – (Cambridge Studies in Linguistics; 54). – P. 45–70.
15. Modal auxiliaries // *Voices Handbook*. – URL: <https://open.lib.umn.edu/voiceshandbook/chapter/4-6-modal-auxiliaries/#:~:text=> .
16. Wong M. Modal Verbs. – San José State University Writing Center, Fall 2021. – 4 p. – URL: <https://www.sjsu.edu/writingcenter>.
17. Bodwell M. B. Review: [Untitled] / Mary Buchinger Bodwell // *Journal of Linguistics*. – 1993. – Vol. 29, No. 1. – P. 157–163.
18. The Uzbek tense-aspect-modality system. – Center for East European and Russian/Eurasian Studies, 2010. – P. 42.
19. Mirzababayeva K. U. Linguistic aspects of modality components in English and Uzbek // *Eurasian Journal of Academic Teaching and Research*. – 2023. – Vol. 21. – P. 113–115.
20. Saline agriculture fields. – URL: <https://www.era-environmental.com/blog/saline-agriculture#:~:text=Sustainability%20Focus%3A%20Saline%20Agriculture%20Fields>.
21. Irrigation in agriculture. – URL: <https://www.ars.usda.gov/ARSUserFiles/20540000/k12/irrigation.htm#:~:text=However%2C%20sandy%20soil%20holds%20less>
22. Force dynamics. – URL: https://en.wikipedia.org/wiki/Force_dynamics#:~:text=Aspects%20of%20force%20dynamics%20have.
23. Rustamova O., Eshmamatova M. Inglizcha-o'zbekcha qishloq xo'jaligi terminlarini tarjima qilishda madaniy omillarning ta'siri // *Pedagogs: International Research Journal*. – 2023. – P. 195–209.
24. Furmaniak G. A frame-based approach to modality: The case of obligation // *Belgian Journal of Linguistics*. – 2010. – Vol. 24. – P. 24–26.

Shaxnoza MURODOVA,
 Qo'qon universiteti mustaqil izlanuvchisi

QISHLOQ XO'JALIGI, XUSUSAN, O'SIMLIKSHUNOSLIK MATERIALLARIGA OID MATNLARNING TILSHUNOSLIKDA O'RGANILISH HOLATI

Annotatsiya: maqolada qishloq xo'jaligi xususan o'simlikshunoslik terminlarining leksik-semantik xususiyatlari tarixiy adabiyotlar misolida o'rganilgan.

Kalit so'zlar: *arxaik termin, stilistika, grammatika, fonetika, nutq faoliyati, diskurs, terminologiya, terjima nazariyasi.*

Annotation: the article studies the lexical-semantic properties of agricultural, and in particular plant science, terms using the example of historical literature.

Key words: *archaic term, stylistics, grammar, phonetics, text in linguistics, discourse, terminology, translation theory.*

Аннотация: в статье исследуются лексико-семантические свойства сельскохозяйственных, и в частности растениеводческих, терминов на примере исторической литературы.

Ключевые слова: *архаичный термин, стилстика, грамматика, фонетика, текст в лингвистике, дискурс, терминология, теория перевода.*

Kirish. Tabiiy fanlar-biologiya, ekologiya, qishloq xo'jaligi, agronomiya kabi sohalarida ishlab chiqilgan matnlar va ularning tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlili dolzarb mavzuga aylanmoqda. Ayniqsa, o'simlikshunoslikka oid matnlar-ilmiy maqolalar, darsliklar, texnologik xaritalar va metodik tavsiyalar o'zining maxsus leksikasi, uslubiy va sintaktik xususiyatlari bilan tilshunoslar uchun muhim tahlil obyekti. O'simlikshunoslik matnlarida ishlatiladigan ilmiy terminlar, ularning tuzilishi, tarjimai, uslubiy jihatlari, hamda ularning kasbiy diskurs doirasidagi o'rni turli tilshunoslik metodlari orqali tahlil etilmoqda. Har bir terminologik tizimning leksik tarkibi boshqasidan farq qiladi, bu esa tilda muhim ahamiyatga ega. S.V.Grineva ta'kidlashicha, "Hozirgi kunda ilmiy va texnik bilimlarning jadal o'sishi shundan dalolat beradiki, yangi so'zlarning 90 %dan ortig'i zamonaviy tilda paydo bo'lib, maxsus leksikani tashkil qiladi. Turli fanlar terminlari sonining ko'payishi tilda tez-tez qo'llaniladigan so'zlar sonining o'sishidan ham oshib ketmoqda. Shuning uchun hozirgi paytda, alohida fanlar (kimyo, biologiya) bo'yicha terminlar soni, tilning maxsus bo'lmagan so'zlari sonidan oshib ketishi mumkin" [3]. Bu esa terminlarning tez rivojlanayotganligini ko'rsatadi. Shunday qilib, maxsus til maxsus terminlardan iborat bo'lib, ularning soni ilmiy sohalar soniga mos keladi. Masalan, qishloq xo'jaligi terminlari. Odatda, ishlatiladigan leksikaga qaraganda, maxsus leksikaning termin sifatidagi o'ziga xosligi, uning cheklangan qo'llanilishi va maqsadi bilan bog'liqdir. O'zbekistonda mavjud

lug'atlarda, asosan, markaziy Osiyoda o'sadigan o'simliklarning nomlari keltirilganligi, hozirda rivojlanib borayotgan davlatimiz uchun yetarli emasligini anglatadi. Lug'aviy birliklarning iste'moldan chiqishi lingvistik va ekstralingvistik omillar bilan bog'liq bo'lib, tilning tabiati va taraqqiyoti qonuniyatlariga asoslanadi. Bu jarayonda ikki asosiy hodisa kuzatiladi: 1. Globallashuv jarayonida eskirgan narsa-hodisa bilan birgalikda, lug'at tizimidan ularni ifodalovchi so'zlar chiqib ketadi va tarixiy so'zlarga aylanadi; 2. Tilning rivojlanish jarayonida obyekt yoki hodisaning mohiyatini to'g'ri ifodalamaslik natijasida lug'aviy birliklar iste'moldan chiqib, ularning o'rnini hodisani to'g'ri ifodalovchi yangi lug'aviy birliklar egallaydi.

Lug'at tarkibining doimiy ravishda boyishi til taraqqiyotining eng asosiy qonuniyatlaridan biridir. Rus tilshunosi E.A.Zemskaya shunday yozadi: "Agar yangi so'z eskisi bilan butunlay bog'lanmagan holda yaratilsa, tilni egallash juda qiyin bo'lib qolishi yoki bu umuman imkonsiz bo'lishi mumkin edi" [4]. Qishloq xo'jaligi, o'simlikshunoslik terminlarini ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishda bir qancha muammolar mavjud bo'lib, asosan, ular terminlarning tarixiy rivojlanish davriga borib taqaladi. Ibn Sino "Qalbga orom berish uchun" bu tilda u tez-tez to'rtliklar yozib turgan [1]. Ammo Ibn Sino "Tib qonunlari" asarini arab tilida yozib tugatgan. O'zbek tiliga tarjima qilishda, jumladan, A.Rasulev, S.Mirzayev, U.Karimov, A.Murodov, A.Qayumov, A.Urinboyev va Q.Munirov kabi olimlarning hissasi katta bo'lgan. Ruscha tarjimada M.A.Salye, U.Karimov, Yu.N.Zavadovskiy,

P.G.Bulgakov, S.Mirzayev va A. Rasulovlar ishtirok etganlar. Abu Ali ibn Sinoning “Kitab ash-shifo” (The Book of Healing) va “Tib qonunlari” (The Canon of Medicine) asari bir qancha tillarda tarjima qilinadi, xususan, urdu tilidan ingliz tiliga Faquir Muhammad Hunzai, Rashida Nurmohamed-Hunzai, Brigma Yanga universiteti olimlari Marmura va E.Maykl kabi olimlar tomonidan tarjima qilinadi.

“Boburnoma” 16-asrdan boshlab hozirgacha dunyoning ko‘p tillari – ingliz, golland, fransuz, fors, nemis, italyan, rus, hind, urdu va boshqa tillariga bir necha marta tarjima qilindi, sharh-izohlar bilan nashr etildi. Yevropadagina emas, balki jahonda birinchi to‘liq nashrini (ingliz tilida) 1826-yilda J.Leyden va V.Erskin amalga oshirdi. F.Talbot esa mazkur nashr asosida 2-marta (1878, 1909) uning qisqartirilgan nashrlarini chop ettirdi. 1921-yilda ingliz sharqshunosi A.Beverij “Boburnoma”ni mustaqil suratda asl nusxadan qayta tarjima qildi. Birgina Angliyaning o‘zida “Boburnoma”

tarjimalari to‘qqiz marta nashr etildi. Keyingi yillarda “Boburnoma”ning professor V.Takston tomonidan AQShda (Kembrij shahri, Garvard universiteti, 1993) hamda ikki jild hajmda, mukammal so‘zlik, ko‘rsatkich va sharhizohlar bilan Yaponiyada (Kioto, 1995-96) ilmiy-tanqidiy matni nashr etildi. Ibn Sino va Bobur asarlaridagi asosiy o‘xshashliklar, har ikkisi ham o‘simlikshunoslik terminlari ustida ish olib borishganliklar va o‘sha davrlarda, asosan, arab, fors tillarida ijod qilishganidadir. Ibn Sino o‘simliklar haqidagi ma’lumotlarni, asosan, kasalliklar bilan qanday hollarda qo‘llanishi haqida aytib o‘tgan. Buyuk ajdodlarimizning asarlarini tarjima qilgan xorijlik olimlarimiz, yuqorida nomlari keltirilgan asarlarni tarjima qilish jarayonida o‘simliklarni sinxron (tilshunoslikda har qanday vaqtda tilni o‘rganadi) va diaxron (tilshunoslikda tarixning turli davrlarida tilni o‘rganadi) tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilib berishgan. Misol uchun:

Arxaik til, Arab yoki Fors tillari (Archaic, Arabic or Persian languages)	O‘zbek tili (Uzbek language)	Lotin tili yoki Qadimgi Ingliz tili (Latin or Old English)	Zamonaviy Ingliz tili (Modern English)
<i>Harmal</i>	Isiriq	<i>Peganum</i>	Wild rue
<i>Safarjal/Hayva</i>	Behi	<i>Cydonia oblonga</i>	Quince
<i>Kuzbura</i>	Kashnich	<i>Coriandrum</i>	Coriander (kashnich urug‘i) (When the plant flowers and turns to seed, the aromatic, lightly floral seeds), Cilantro (barra kashnich), (the name for the serrated leaves and stems of the coriander plant) ^[9]
<i>Yabruh/ Yabruhus-sanam</i>	Mehrigiyoh	<i>M a n d r a g o r a officinarum</i>	Mandrake
<i>Tin/Beyr</i>	Anjir	<i>Ficus carica</i>	Fig

Jadvalda ko‘rinib turganidek ingliz va o‘zbek tillarida o‘simliklarni nomlari, o‘zlarining qadimiy qabul qilinishini saqlab qolmagan va arxaik terminga aylangan. Har bir atama uchun uning semantik maydoni, leksemik taraqqiyoti va kontekstual ishlatilishi yoritilgan. 1. *Harmal – Isiriq – Peganum – Wild rue*. *Leksik manosi (archaik/arab/fors)*: Harmal – arabcha yoki forscha manbada ishlatilgan, diniy yoki marosimiy konnotatsiyaga ega bo‘lgan o‘simlik nomi. *O‘zbekcha nomi*: Isiriq – xalq tabobatida, ayniqsa, ko‘z tegishga qarshi tutatish uchun ishlatiladi. *Lotincha nomi*: Peganum harmala – ilmiy tasnifda ishtirok etuvchi asosiy leksik birlik. *Zamonaviy inglizcha nomi*: Wild rue – yovvoyi ru, ammo haqiqiy “rue” (Ruta graveolens) bilan bog‘liq emas. *Semantik izoh*: Ushbu

atama diniy, etnik va etnofarmakologik kontekstlarda faol ishlatiladi. Semantik jihatdan “tozalash”, “himoya” kabi ma’nolar bilan boyitilgan. 2. *Safarjal / Hayva – Behi – Cydonia oblonga – Quince*. *Arxaik nom*: Safarjal yoki Hayva – fors va arab tillaridan kirib kelgan. *O‘zbekcha shakli*: Behi – xalq orasida ishlatiladigan zamonaviy nom. *Ilmiy nomi*: Cydonia oblonga – qadimiy lotincha nomdan kelib chiqqan. *Inglizcha nomi*: Quince – qadimgi inglizcha “quince” (fransuzcha cooin orqali lotincha cydonia)dan olingan. *Semantik nuqta*: Mazali va dorivor xususiyatlarga ega meva. Semantik maydoni “mevali daraxt”, “oshpazlikda ishlatiladi”, “shifobaxsh” komponentlari bilan kengayadi. 3. *Kuzbura – Kashnich – Coriandrum – Coriander / Cilantro*. *Arxaik nom*: Kuzbura – arabcha

manbada qayd etilgan o'simlik nomi, hozirgi zamonda kam qo'llanadi. *O'zbekcha*: Kashnich – xalq tilida keng ishlatiladi. *Lotincha*: Coriandrum sativum – bu o'simlikning ilmiy nomi. *Inglizcha*: Coriander – urug'i va quritilgan holati uchun. Cilantro – yashil bargli qismi uchun (asosan AQShda). *Semantik tafovut*: Ingliz tilida bu ikki nom semantik jihatdan kontekstga bog'liq. "Coriander" urug' uchun, "cilantro" esa yangi barglar uchun ishlatiladi. O'zbek tilida bunday tafovut mavjud emas, bu semantik torayish yoki ajralishni ko'rsatadi. 4. *Yabruh / Yabruhus – sanam – Mehriyoh – Mandragora officinarum – Mandrake*. *Arxaik nom*: Yabruh yoki Yabruhus – sanam – arabcha yoki qadimiy tibbiyotda qo'llanilgan, sehrli ta'sirga ega deb qaralgan o'simlik. *O'zbekcha nomi*: Mehriyoh – ramziy va xalqona shakl, sevgi va sehr bilan bog'liq semantik yuklamaga ega. *Lotincha*: Mandragora officinarum – qadimiy tibbiy adabiyotda keng qo'llangan ilmiy nom. *Inglizcha*: Mandrake – fantastik va tibbiy matnlarda ko'p uchraydi. *Semantik qamrov*: Sehr-jodudan tortib, og'riq qoldiruvchi va hushdan ketkazuvchi xususiyatlarga qadar keng semantik maydonni o'z ichiga oladi. 5. *Tin / Beyr – Anjir – Ficus carica – Fig*. *Arxaik nom*: Tin yoki Beyr – Qur'onda tilga olingan (Surat at-Tin). *O'zbekcha nomi*: Anjir – xalq tilida keng qo'llanadi. *Lotincha nomi*: Ficus carica – Ficus turkumidagi eng mashhur turlaridan biri. *Inglizcha*: Fig – diniy, madaniy va gastronomik kontekstda ishlatiladi. *Semantik tafsilotlar*: "Sharbatli meva", "ilohiylik", "diniy ramz" kabi semantik maydonlarga ega. Bu terminlar leksik-semantik sistema asosida quyidagi jihatlarida o'rganiladi: *Leksik taraqqiyot*: Qadimiy manbalardan zamonaviy tillarga o'tish jarayonida nomlarning o'zgarishi. *Semantik kengayish va torayish*: Masalan, cilantro va coriander kabi terminlar bir til ichida funksional tafovut hosil qilgan. *Madaniy konnotatsiya*: Ba'zi atamalar (masalan, mandrake, tin) diniy yoki sehrli semantik yuklamalarga ega.

O'.Yoqubov o'zbek tilidagi ilmiy sohalarga oid terminlarning shakllanishi, ijtimoiy funksiyasi va ularning leksik tizimdagi o'rni o'rganilib, o'simlik nomlari kabi biologik terminlarning arabcha va forsha ildizlarga ega ekani ham qayd etilgan. Sh.Rahmatullayev "Hozirgi o'zbek adabiy tili leksikologiyasi" asarida, umumiy leksik taraqqiyot, sinonimiya, omonimiya va semantik maydonlar haqida nazariy asoslarni ishlab chiqqan. Unga ko'ra, terminlar, ayniqsa, o'simlik nomlari – leksik tizimda turli konnotatsiyalar bilan shakllanadi. Q.Ne'matov "O'zbek tilidagi ramziy ifodalar semantikasi" asarida, o'simlik nomlarining xalq og'zaki ijodidagi ramziy ishlatilishi, metaforik ma'nolari, diniy-mistik konnotatsiyalari

(masalan, isiriq, anjir) til semantikasi doirasida o'rganilgan. Shavkat Rahmonov "Arab-fors tillaridan kirgan o'simlik nomlarining semantik integratsiyasi" mavzusida izlanish olib borgan. A.Khodjayev (Xo'jayev A.) – Botanika terminlari va ularning tarjimai bo'yicha tadqiqotlarida, o'zbek tilidagi botanika atamalarining lotincha va ruscha variantlari bilan qiyosiy tahlil qilgan. O'simliklarning nomlarini ko'p tillilikda o'rganilishi: nazariy yondashuvlarini o'rganar ekanmiz, o'simlikshunoslikka oid terminlar tilshunoslikda turli yondashuvlar asosida o'rganiladi: leksikologik, semasiologik, etnolingvistik va tarjimashunoslik yondashuvlari shular jumlasidandir. Xususan, o'simlik nomlari – qadimiy (arxaik), arabcha, forsha, o'zbekcha va zamonaviy inglizcha shakllarda mavjud bo'lib, ularning har biri alohida tarixiy, madaniy va semantik qatlamga ega. Bu borada O'.Yoqubov, Sh.Rahmatullayev, Q.Nematov, M.Tursunov, Sh.Rahmonov, K.To'xtaboyev kabi tilshunoslar o'zbek tilidagi terminlar, ayniqsa, qishloq xo'jaligi va botanika atamaları bo'yicha terminologik tizimni, ularning leksik shakllanishi, sinonimiyasi va konnotatsiyalarini o'rganishgan.

Rus tilshunos olimi A.A.Reformatskiy – Til va terminologiya nazariyasi (rus tilshunosligi asosida) "Vvedeniye v yazykovedeniye" asarida, garchi rus tilshunosligiga oid bo'lsa-da, terminlarning leksik tizimda qanday shakllanishi va ilmiy tilni qanday tashkil etishi haqidagi nazariy asoslarni beradi. "Tib qonunlari" asarining tarjimai va terminlarini tahlil qilishda quyidagi olimlar faol ishtirok etgan: *Gerard of Cremona (XII asr)*: Ibn Sinoning asarini arab tilidan lotin tiliga tarjima qilgan. Bu tarjima orqali harmal, behi, anjir, kashnich kabi o'simlik nomlari G'arb farmakopeyasi tarkibiga kirgan. *Laleh Bakhtiar*: Ibn Sino asarining ingliz tiliga zamonaviy tarjimasida o'simlik terminlarini tibbiy kontekstda tahlil qilib, har biriga izoh bergan (masalan, harmal – Syrian rue; mandragora – mandrake). *E.G.Browne, Pormann & Savage-Smith* singari tadqiqotchilar terminlarni etimologik, farmakologik va semantik jihatdan tahlil qilgan.

"Boburnoma"dagi o'simlik nomlari va ularning ingliz tiliga tarjima qilinishi izlanishning asosiy nazariy qismidir. Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari – tarixiy-biografik manba bo'lishi bilan birga, etnobotanik ma'lumotlar bilan boy. Bu asarda yuzlab o'simlik nomlari tilga olingan: behi, anjir, mehriyoh, kashnich, yabruh va boshqalar. Asarni ingliz tiliga tarjima qilgan olimlar: *Annette Susannah Beveridge (1909)*: Boburnamani Chag'atoy tilidan ingliz tiliga tarjima qilgan. U o'simlik nomlarining har biriga madaniy izohlar bergan: *Behi – quince, Isiriq*

– *wild rue*, *Kashnich* – *coriander* (*cilantro*). Wheeler M. Thackston (2002): Uning tarjimasini yanada ilmiyroq bo'lib, kontekstual va ekologik tafsilotlarga ega. Masalan, u *coriander* va *cilantro* o'rtasidagi semantik tafovutlarni, mandrakening afsonaviy ma'nolarini tahlil qiladi. S.A.Naim: Asarda uchraydigan o'simlik nomlarini ilmiy tasnif (lotincha nomlari bilan) asosida tahlil qilgan va ularni zamonaviy biologik nomlar bilan identifikatsiyalagan. Tarjima jarayonida yuzaga keladigan ayrim terminologik muammolar ham ko'zdan qochirmaslik kerak. Misol uchun: *Sinonimlar va semantik tafovutlar*: Masalan, "*kashnich*" atamasi ingliz tilida *cilantro* (yaproqli qismi) va *coriander* (urug'i) deb ikki xil shaklda ishlatiladi. Bu hol tarjimada leksik tafovutlarni aniq anglatishni talab qiladi. *Ramziy ma'nolarni yo'qotish*: "*Mehrigiyoh*" kabi atamalar simvolik–mistik ma'noga ega bo'lib, ularni oddiygina mandrake deb tarjima qilish yetarli bo'lmaydi. Tarjimon izoh bilan boyitishi kerak. *Madaniy tafovutlar*: *isiriq* (*harmal*) kabi o'simliklar sharqona marosimlarda alohida ahamiyatga ega bo'lsa, g'arb tillarida bu ma'no ko'pincha yo'qoladi. Tib qonunlari" va "Boburnoma" asarlarining ingliz tiliga tarjimasini jarayonida o'simlik nomlari – tarixiy, ilmiy, tibbiy, diniy va madaniy kontekstlar asosida tahlil qilingan. O'simlikshunoslik terminlari tarjimasini – faqat lug'aviy mos ekvivalent topish emas, balki fanlararo, madaniy hamda semantik transformatsiya jarayoni hisoblanadi. O'simlik nomlari qadimdan nafaqat amaliy maqsadda, balki tilshunoslik, farmakopeya, tibbiyot, va etnobotanika sohalarida o'rganilgan terminlar qatoriga kiradi. O'zbek tilida ishlatiladigan ko'plab botanika atamalari – masalan, *behi* (*quince*), *anjir* (*fig*), *kashnich* (*coriander*), *isiriq* (*harmal*), *mehrigiyoh* (*mandrake*) – o'z ildizlarini arabcha, forscha yoki lotincha manbalardan olgan bo'lsa, ularning inglizcha shakllari XVI-XVIII asrlar mobaynida ingliz olimlari tomonidan ilmiy asosda shakllantirilgan.

John Gerard [5] ingliz tilidagi eng birinchi keng qamrovli o'simlikshunoslik asari – *Herball, or Generall*

Historie of Plantes (1597) muallifidir. Bu asarda 1 000 dan ortiq o'simlik tavsifi, ularning xalq tilidagi nomlari, lotincha, arabcha va ayrim hollarda forscha nomlariga bog'langan shakllari ko'rsatilgan. Gerard o'simliklarga tavsifiy terminlar beradi: *Harmal* – *wild rue*, *Cydonia oblonga* – *quince*, *Mandragora* – *mandrake*. U asosan, yunon va arab tabobati manbalariga asoslangan bo'lib, terminlarni xalq og'zaki tiliga moslashtirishga harakat qilgan. Culpeperning [6] *The English Physician* (1649) asari bugungi kunda ham muhim manba hisoblanadi. U o'simliklarning tibbiy xossalarini astrologik tizimga asoslab, ularning nomlanishiga ham alohida yondashadi. Turnerning [7] *A New Herball* asari (1551-1568) o'simlikshunoslikda ilmiy yondashuvning boshlanishi sifatida qadrlanadi. U asarda ko'plab o'simliklar uchun quyidagilarni keltiradi. Bu yondashuv, ayniqsa, O'rta Osiyo va Yaqin Sharq botanikasi bilan bog'liq terminlar uchun muhim bo'lib, *behi*, *yabruh*, *mehrigiyoh* kabi atamalarning ingliz tilidagi muqobillarini topishda asos bo'lgan. Carl Linnaeus [8] (1707-1778) shved olimi bo'lsa-da, uning *Species Plantarum* (1753) asari ingliz tilidagi terminologik tizimga kuchli ta'sir ko'rsatgan. O'simliklarga ikki qismlik nom berish orqali, barcha tillardagi adashuvlarga barham berishga harakat qilgan: *Cydonia oblonga* – *quince* (*behi*); *Ficus carica* – *fig* (*anjir*); *Mandragora officinarum* – *mandrake* (*mehrigiyoh*). Bu usul ingliz olimlari tomonidan tezda qabul qilinib, Gerard va Turner asarlariga kiritilgan.

Xulosa. Qadimgi ingliz olimlarining o'simlikshunoslikka oid ishlari nafaqat biologik tizimlashtirish, balki leksik-semantik tizimni boyitish, xalq og'zaki tilini ilmiy tasnif bilan uyg'unlashtirish va tarjima jarayonlarida muhim rol o'ynagan. Gerard, Culpeper, Turner kabi olimlar arabcha, forscha va xalqona nomlarni ingliz terminlariga uyg'unlashtirib, hozirgi zamonaviy ingliz terminologiyasiga asos bo'lgan. Bu esa o'zbek tilidagi o'simlik nomlarini ko'p tillilik asosida tadqiq qilishda tarixiy-lug'aviy asosni mustahkamlab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ibn Sino. "Tib Qonunlari". 1-jild. – 210 b.
2. Zaxiriddin Muhammad Bobur. "Boburnoma".
3. Гринев С.В. Введение в терминоведение. – М.: Московский лицей, 1989.
4. Земская Э.А. Как делаются слова. – Москва, 1963.
5. John Gerard (1545-1612): "*Herball*" va leksik izohlar.
6. Culpeper (1616-1654): *Tibbiy terminologiya va xalq tabobati*.
7. William Turner (1508-1568): Ilk ilmiy botanik yondashuv.
8. Linnaeusning ta'siri: *Binomial nomenklatura va ilmiy standarti*.
9. <https://www.southernliving.com/food/seasonings/coriander-vs-cilantro>
10. https://uz.wikipedia.org/wiki/Abu_Ali_ibn_Sino

Dilchehra TOSHPO'LATOVA,

Guliston shahri

Guliston davlat universiteti

E-mail: dilchehratoshpolatova9904@gmail.com

FOJIAVIYLIK TASVIRINING O'ZBEK ADABIYOTIDAGI DAVRIY TADRIJI

Annotatsiya: ushbu maqolada fojiaviylik tasvirining o'zbek adabiyotida yoritilishi davriy ketma-ketlikda bosqichma-bosqich tadqiq etiladi. Yusuf Xos Hojibdan boshlangan bu davr XX asrning oxiri Abduqayum Yo'ldoshevning ijodiga kelib tugaydi. har bir davrning o'ziga xos muammosi bo'lganidek, fojiaviylik ijtimoiy muhitdan kelib chiqib, o'z davrining muammosini yoritadi. O'zbek adabiyoti tarixining asosiy qismi islom ta'siri davriga to'g'ri keladi. Bu davr adabiyotida asosiy e'tibor komil inson masalasiga qaratilgan.

Kalit so'zlar: *komil inson, ijtimoiy muhit, Yaratgan vasli, fojiaviylik falsafasi, jadid adabiyoti, shovinistik siyosat, badiiy talqin, ayollarning ta'limi, ma'naviy erksizlik, inson omili, xalq ruhiyati, foni dunyo, ishq ilohiy, millatni uyg'otish.*

Annotation: this article examines the depiction of tragedy in Uzbek literature through a chronological and step-by-step analysis. Beginning with Yusuf Khos Hojib and concluding with the works of Abduqayum Yo'ldoshev at the end of the 20th century, each period reflects its own unique issues, with tragedy emerging from the social environment to highlight the problems of its era. A significant part of Uzbek literary history corresponds to the era influenced by Islam, during which the primary focus was on the concept of the perfect human being.

Key words: *perfect human, social environment, union with the Creator, philosophy of tragedy, Jadid literature, chauvinistic politics, artistic interpretation, education of women, spiritual helplessness, human factor, national spirit, transient world, divine love, awakening the nation.*

Аннотация: в данной статье рассматривается изображение трагичности в узбекской литературе в хронологическом и поэтапном порядке. Этот период начинается с Юсуфа Хоса Ходжиба и заканчивается творчеством Абдукайюма Юлдошева в конце XX века. Каждая эпоха имеет свои уникальные проблемы, и трагичность, исходя из социального окружения, отражает проблемы своего времени. Основная часть истории узбекской литературы приходится на период влияния ислама, в котором основное внимание уделялось вопросу совершенного человека.

Ключевые слова: *совершенный человек, социальная среда, единение с Создателем, философия трагедии, джадидская литература, шовинистическая политика, художественная интерпретация, образование женщин, духовная бессильность, человеческий фактор, дух народа, бранный мир, божественная любовь, пробуждение нации.*

O'zbek adabiyotiga nazar tashlaydigan bo'lsak, har bir davrning o'ziga xos muammosi bo'lganidek, fojiaviylik ijtimoiy muhitdan kelib chiqib, o'z davrining muammosini yoritadi. O'zbek adabiyoti tarixining asosiy qismi islom ta'siri davriga to'g'ri keladi. Bu davr adabiyotida asosiy e'tibor komil inson masalasiga qaratilgan. "Inson qachon komillik darajasiga ko'tariladi va buning uchun nima qilish kerak?" degan savol

asrlar mobaynida odamzodni mushohadaga chorlagan va har bir ijodkor imkon qadar bunga javob berishga harakat qilgan. Ana shu savollarga javob natijasida Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari yuzaga kelgan. "Qutadg'u bilig"dan boshlangan an'ana, o'limning yakun va fojia emas, adabiy dunyoga robita ekanligi, Yaratganning vasliga erishish nafsni yengish orqali amalga oshirishi haqidagi ta'limot Ahmad

Yassaviy hikmatlarida ham, Alisher Navoiy asarlarida ham yuksak badiiy ifodasini topdi.

Hazrat Navoiyning “Xamsa” turkumiga kiruvchi dostonlarida hayot, o‘lim va fojiaiylik falsafasi biz anglaganimizdan ko‘ra teran va jiddiy. Unda faqat yoshlar sevgisining fojiali bayoni yoxud yaxshilik bilan yomonlik o‘rtasidagi kurashning badiiy talqini emas, balki foni dunyoda o‘zligini topish, komillik sari intilish va shu orqali yor vasligi erishishdek masala muhim. Farhod va Shirin yoki Layli va Majnunining muhabbatidagi fojiaiylik ham Navoiy falsafasiga bir niqob, xolos. Tasvirdan asosiy maqsad ishq ilohiyini topishdir. Ishq ilohiyga erishish uchun majoz, ya’ni insoniy muhabbat vosita qilingan. Navoiy fanoga erishuvda adolatni mezon qilib oladi. Chunki inson vasfi adolat tufayli muvozanatda turadi.

Bu borada Iskandar oldiga ikkita bosh chanog‘ini ko‘tarib kelgan darveshning ta’nasi o‘rinlidir. Natijada Iskandar “shohlik abadiy emas, uning oxiri yo‘qlikdan boshqa narsa emas”, degan xulosaga keladi. Alisher Navoiy qahramonlarini qanday maqomda tutmasin, ularning inson farzandi ekanligini nazardan qochirmaydi. Ruhيات iqlimi shu qadar kengki, uni ma’lum bir qolipga solib bo‘lmaydi. Majnunining o‘zi yashayotgan jamiyatni inkor qilishida ilohiy muhabbatga intilishdan tashqari o‘zini inkor qilish istagi ham bor edi. U o‘zi yashayotgan jamiyatga sig‘madi, uni ongli ravishda inkor qiladi. Undan farqli ravishda Farhod – zamonasining ilg‘or kishisi. Mavjud tuzumdan qoniqmaydi, shuning uchun uni isloh etishga hozir. “Hayrat ul-abror”dagi qahramonlarning fojiasi esa egrilik, yolg‘onchilik, baxillik ortidan kelishi chiroyli dalillar bilan isbotlangan. Jumladan, “Sher va durroj”da durroj o‘zining yolg‘oni sabab o‘lim bilan yuzlashgan.

Navoiydan keyingi davr adabiyotida ham fojia tushunchasi ijtimoiy muammolar bilan qorishiq holda tasvirlanadi. Bu davr adabiyotida fojianing manbayi adolatsizlik zahirida yuzaga kelgan bo‘lsa, o‘tgan asrning boshidagi, ya’ni ma’rifatparlik hamda jadid adabiyotida fojianing asosi ilmsizlikka borib taqaladi. Jadid adabiyoti mazmuniga kirib borar ekanimiz, ularda ko‘tarilgan muammolar, ular yechim izlagan uquvsizlik,

ayollarning ta’limi bilan bog‘liq masalalar jamiyatning rivojiga soya solmoqda edi.

XIX asr oxiri XX boshlarida Turkistonda millat taqdiri uchun og‘ir va o‘ta qaltis tarixiy vaziyat vujudga keldi. Bunga sabablar, birinchidan, Rossiya imperiyasi o‘lkamizni bosib olgach, u yerda o‘z mustamlakachiligini mustahkamlash maqsadida aholini ruslashtirish, oddiy xalqni erkidan ayirish, g‘ururini sindirishdek o‘ta shovinistik siyosat olib borganligi, ikkinchidan, musulmon mutaassibligida dunyoviy bilim va taraqqiyotga qarshilik ruhi avj olgani bo‘lsa, yana bir tomondan, xalqimiz o‘z ma’naviyati, huquqi hamda eng asosiysi, erkini qo‘ldan boy berganligi bo‘ldi. Insoniyat tarixida mustamlakachi davlatlar tomonidan istilo qilingan xalqning milliy g‘ururi, ona tili, adabiyoti, asriy an’analardan judo etib, birato‘la mavh etish tendensiyasi ustuvor sanaladi. O‘zligidan judo bo‘lgan xalq oxiri yovning bunday qarashlariga ko‘nikadi. Mana shunday siyosiy vaziyatda xalqning bir guruh ziyolilari millatni uyg‘otishga san’at va adabiyot vositasida harakat qilishdi.

Haqiqatan, xonliklar va mustabid sho‘ro hukmronligi davrida xalq butunlay qoloq va achinarli ahvolga kelib qolganligi, mansab hamda mol-mulk ilinjidagi avlodning podshoh amaldorlari safidan o‘rin olishi, millatning savodsizligi, savodlilarning sho‘ro hukumati siyosatiga xizmat qilganligi, bir yoqadan bosh chiqarmay, o‘z tomiriga o‘zi bolta urishi, o‘zini o‘zi talashi, chegarasi yo‘q boshboshdoqliklar-u g‘aflat uyqusida qolgan o‘sha davr odamlarining ayanchli ahvoliga guvoh bo‘lamiz.

Muxtasar qilib aytganda, Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanidagi Zebi obrazi, Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari” dramasiidagi Mirzo Hamdamboy, Abduqodirboy, Mahmudxon, Sora, Eshon, Zaynab va Maryam obrazlari orqali jamiyatning har tomonlama ravnaq topishida ana shu jamiyatda yashayotgan insonlarning ma’rifatli bo‘lishi naqadar katta rol o‘ynashi aks ettirilgan.

Jadid adabiyoti namoyondalarining qatag‘on qilinishi keyingi davr adiblarini hushyorlikka undadi. Adabiyotga qo‘yilgan senzura ijodkorning erkin ijod qilishiga to‘siq bo‘ldi. Bu davr

adabiyotida insonning mehnati ulug'landi. Sho'ro adabiyotida bosh qahramon faqat kambag'al toifadan olinar, u o'ta aqlli, tadbirkor, qo'rqmas hamda ijobiy fazilatlariga ega qilib tasvirlangandi. Shu boisdan bu davr ijodkorlari davr fojiasini tarixiy qahramonlar orqali tasvirlashga harakat qildilar. O.Yoqubovning "Ulug'bek xazinasini", "Ko'hna dunyo", Pirmqul Qodirovning "Yulduzli tunlar", "Avlodlar dovoni", Oybekning "Navoiy" romanlari ayni shu davr mahsuli sifatida taxiriy ziddiyatlar bilan bir qatorda o'z davri fojiasini ham yoritishga xizmat qildi.

Mustaqillik davri adabiyotida inson omiliga e'tibor boshqa davrlarga nisbatan kuchaydi. Insonning orzu-umidlari, intilishlari, armon va iztiroblari, umuman aytganda, ichki dunyosini tasvirlashga intilish kuchaydi. Ijodiy erkinlik esa mavjud muammolarni bor bo'y-basti bilan ko'rsatishga turtki berdi. O'zbekiston davlati istiqloлга tinch yo'l bilan erishgan bo'lsa-da, dastlabki yillarda o'tish davri qiyinchiliklari, qolaversa uzoq davom etgan mustabid tuzum asoratlari jamiyat taraqqiyotiga, xalqning ruhiyatiga ta'sir ko'rsatdi. Davr adabiyotida ana shu masalalar ham o'z aksini topdi. Adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo'ldoshev bu davr adabiyoti haqida quyidagi qarashlarni bayon etadi: "Istiqloл davri adabiyoti insonni

jo'nlikdan, to'porilikdan, anchayinlikdan qutqardi. Uni murakkablashtirdi, noziklashtirdi, bir xil qarashlar tizimi bilan tushunib ham, tushuntirib ham bo'lmaydigan injiqroq ekanligini ro'y-rost aks ettira boshladi"¹. Yozuvchi tasavvuri muayyan g'oyaga asoslanib, hayotdagi alohida narsalarni buzadi, saralaydi, to'qiydi hamda yangidan ta'sirli va jonli, tabiiy va go'zal, tipik va yaxlit narsa yaratadi. Bu jarayon xarakter va epizodlarni yaratishda ham, qahramon va voqelikning ayrim xususiyatlarini ko'rsatishda ham, yaxlit syujetni yuzaga keltirishda ham sodir bo'ladi. Abduqayum Yo'ldoshev ijodida ham bu jarayon o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishini ko'rishimiz mumkin.

Badiiy haqiqatning asosi hayotdir. Chunki yozuvchining ko'rgan-bilganlari va shaxsiy tajribasi, kechinma va taassurotlari badiiy asarning yuzaga kelishida asosiy omil sanaladi. Yozuvchi hamma vaqt hayotiy fakt hamda hodisalardan turtki olib, badiiy haqiqat kashfi tomon boradi. Ijodkorning mahorati aynan u tanlagan mavzuning ko'lamida emas, obyekt sifatida qaralayotgan voqelik, ya'ni muammoni yoritish, uni bayon etishda yaratgan badiiy uslubida namoyon bo'ladi. Bir qarashda oddiy tuyulgan holat zahirida ulkan fojia yotganligini ijodkorgina ko'ra oladi.

1 Қ. Йўлдошев. Ёник сўз. – Т.: Янги аср авлоди. 2006. – В.17.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Normatov U. Kichik mo'jizalar // O'zAS. – 1982-yil 14-may.
2. Parandovskiy Y. So'z kimyosi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022.364-b.
3. Quronov D. Adabiyotshunoslik lug'ati. –T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.
4. Йўлдошев Қ. Ёник сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006.548-б.
5. Каримов Х. Истиқлол даври адабиёти. –Т.: Yangi nashr, 2010.364-б.
6. Қўшжонов М. Моҳият ва бадият. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 1977.232-б.
7. Назаров Б. Бу сеҳрли дунё. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1980.
8. Yo'ldoshev A. Alvido go'zallik. – Toshkent.: O'zbekiston, 2011.362-b.

Nigora RUSTAMBEKOVA,

Chirchiq DPI mustaqil izlanuvchisi

Toshkent shahar Yashnobod tumani 454-sonli dmtt direktori

IJTIMOY FAOL FUQAROLIK KOMPETENSIYASINING NAZARIY MASALALARI

Annotatsiya: ushbu maqolada ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasining mazmuni, mohiyati hamda uning shakllanishi va rivojlanishiga oid nazariy-metodologik yondashuvlar tahlil qilinadi. Fuqarolik jamiyati barpo etilayotgan sharoitda shaxsning ijtimoiy faol, tashabbuskor, mas'uliyatli va fuqarolik ongiga ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan maqolada mazkur kompetensiya tarkibiy qismlari, ilmiy konsepsiyalardagi yondashuvlar hamda ta'lim jarayonida uni shakllantirish metodlari o'rganiladi.

Kalit so'zlar: *ijtimoiy faol fuqarolik, kompetensiya, fuqarolik jamiyati, shaxs rivoji, ijtimoiy mas'uliyat, metodologik asoslar.*

Annotation: this article analyzes the content and essence of socially active civic competence, as well as theoretical and methodological approaches to its formation and development. In the context of building a civil society, it is crucial for an individual to be socially active, initiative-taking, responsible, and possess civic consciousness. Therefore, the article examines the components of this competence, approaches in scientific concepts, and methods of fostering it in the educational process.

Key words: *socially active citizenship, competence, civil society, personal development, social responsibility, methodological foundations.*

Аннотация: в данной статье анализируются содержание и сущность социально активной гражданской компетенции, а также теоретико-методологические подходы к ее формированию и развитию. В условиях построения гражданского общества важно, чтобы личность была социально активной, инициативной, ответственной и обладала гражданским сознанием. Поэтому в статье рассматриваются составные части данной компетенции, подходы в научных концепциях и методы ее формирования в образовательном процессе.

Ключевые слова: *социально активное гражданство, компетенция, гражданское общество, развитие личности, социальная ответственность, методологические основы.*

Kirish. Hozirgi globallashuv jarayonida jamiyat taraqqiyoti, barqaror demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirish bevosita ijtimoiy faol fuqarolarning yetishib chiqishiga bog'liqdir. Shu bois, ta'lim tizimida shaxsning faqat nazariy bilimlarga emas, balki amaliy faoliyatda o'zini namoyon eta olishiga imkon beruvchi kompetensiyalarni shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi shaxsning davlat va jamiyat hayotida faol ishtirok etish, huquq va burchlarini anglash, ijtimoiy adolat tamoyillariga amal qilish, tashabbus ko'rsatish va mas'uliyatni o'z zimmasiga olish qobiliyatini ifodalaydi.

Bugungi globallashuv va demokratik jarayonlar kuchayib borayotgan sharoitda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini shakllantirish dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Jamiyat taraqqiyoti, davlat

barqarorligi va fuqarolik jamiyati qurilishi bevosita ongli, tashabbuskor, mas'uliyatli va ijtimoiy faol fuqarolarning yetishib chiqishiga bog'liqdir. Shu nuqtayi nazardan, ta'lim tizimi nafaqat bilim beruvchi, balki fuqarolik ongini, huquqiy madaniyatni, ijtimoiy mas'uliyatni shakllantiruvchi muhim ijtimoiy institut sifatida alohida o'rin tutadi.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi shaxsning huquq va burchlarini anglab yetishi, ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etishi, demokratik qadriyatlarni qadrlashi va jamiyat manfaatlariga hissa qo'sha olishini ifodalaydi. Ushbu kompetensiyaning shakllanishi nazariy jihatdan fuqarolik tarbiyasi, ijtimoiy ong va demokratik tamoyillar bilan chambarchas bog'liq bo'lsa, metodologik jihatdan ta'lim jarayonida qo'llaniladigan interfaol usullar, faoliyatga asoslangan yondashuvlar va shaxsga yo'naltirilgan metodlar orqali amalga oshiriladi.

Shu bois, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasining nazariy-metodologik asoslarini tadqiq etish nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki yosh avlodni mustaqil fikrlovchi, tashabbuskor va mas'uliyatli fuqarolar sifatida shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi nazariy jihatdan fuqarolik tarbiyasi, demokratik qadriyatlar, inson huquqlari, ijtimoiy ong va huquqiy madaniyat tushunchalari bilan uzviy bog'liqdir. Pedagogik nuqtayi nazardan u shaxsning ijtimoiy va huquqiy ongini shakllantirish, ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirish, jamiyat hayotida faol ishtirok etishga tayyorlik darajasini bildiradi. Metodologik jihatdan ushbu kompetensiyani shakllantirishda konstruktivizm, faoliyat yondashuvi, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv hamda interfaol metodlardan foydalanish muhim hisoblanadi.

Shaxsda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini shakllantirish quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: bilish (ijtimoiy-siyosiy bilimlar, huquqiy ong), qadriyatli (Vatanga sadoqat, inson huquqlarini hurmat qilish, demokratiya tamoyillari), faoliyatli (jamoatchilik faoliyatida ishtirok etish, muammolarni hal qilishda tashabbuskorlik), shaxsiy-motivatsion (ijtimoiy adolat va mas'uliyatni qadrlash, ijtimoiy hayotda faol bo'lishga intilish).

Metodologik asoslarda fuqarolik kompetensiyasini shakllantirishning zamonaviy shakl va metodlari muhim o'rin tutadi. Bular qatoriga loyiha ishlari, muammoli vaziyatlar, ijtimoiy tadbirlar, interfaol mashg'ulotlar, "debat" va "rol o'ynash" metodlari, shuningdek, xizmat faoliyatiga asoslangan o'qitish (service learning) kiradi. Ushbu metodlar yoshlarning faqat nazariy bilimlarini emas, balki ijtimoiy ko'nikma va malakalarini ham rivojlantiradi.

O'zbekiston Respublikasida yoshlarda fuqarolik kompetensiyasini shakllantirish davlat ta'lim standartlarida ham alohida yo'nalish sifatida belgilangan. Chunki jamiyatda mas'uliyatli, ongli, huquq va burchlarini anglaydigan, demokratik qadriyatlarga sodiq fuqarolarning faol bo'lishi davlatning barqaror rivojlanishi uchun zarur shartdir. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini shakllantirishda nafaqat ta'lim tizimi, balki oilaviy tarbiya, mahalla, jamoatchilik tashkilotlari ham hamkorlikda harakat qilishi talab etiladi. Shuningdek, axborot-kommunikatsiya

texnologiyalaridan samarali foydalanish, yoshlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va ularni amaliy faoliyatga jalb qilish samarali natija beradi.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi nazariy jihatdan shaxsning ijtimoiy ongini, huquqiy madaniyatini va ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirishga qaratilgan pedagogik hamda psixologik yondashuvlar bilan izohlanadi. Bu kompetensiya shaxsning jamiyat hayotida faol ishtirok etishi, o'z huquq va burchlarini anglash, qarorlar qabul qilishda tashabbuskor bo'lish hamda ijtimoiy muammolarning hal etilishida mas'uliyat ko'rsatish imkoniyatlarini o'z ichiga oladi. Shu bois, nazariy adabiyotlarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi shaxsning ijtimoiy-huquqiy bilimlari, qadriyatlari, ko'nikmalari va motivatsion tayyorgarligi uyg'unligida qaraladi.

Metodologik jihatdan mazkur kompetensiyani shakllantirishda bir nechta asosiy yondashuvlar mavjud. Birinchidan, kompetensiyaviy yondashuv ta'lim jarayonida faqat bilim berish emas, balki real hayotiy vaziyatlarda qo'llaniladigan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan. Ikkinchidan, faoliyatga asoslangan yondashuv shaxsning o'z tajribasi asosida o'rganishi, muammolarni mustaqil hal etishi va jamoaviy faoliyatda ishtirok etishini ta'minlaydi. Uchinchidan, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv ta'lim jarayonida har bir o'quvchining qiziqishi, ehtiyoji va individual xususiyatlarini hisobga olish orqali ijtimoiy faol fuqarolikni shakllantirishga xizmat qiladi.

Amaliy nuqtayi nazardan, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasining tarkibiy qismlari bir necha asosiy elementlarni o'z ichiga oladi. Bilimlar komponenti — shaxsning ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, huquqiy normalar va demokratiya tamoyillari haqida yetarli bilimga ega bo'lishini anglatadi. Qadriyatlar komponenti — Vatanga sadoqat, inson huquqlarini hurmat qilish, ijtimoiy adolat va hamjihatlikni qadrlashga yo'naltiriladi. Faoliyat komponenti — shaxsning jamoatchilik ishlarida qatnashishi, ijtimoiy muammolarni hal etishga hissa qo'shishi va tashabbus ko'rsatishi bilan bog'liqdir. Motivatsion komponent esa ijtimoiy hayotda faol bo'lishga ichki ehtiyoj va intilish orqali namoyon bo'ladi.

Ta'lim jarayonida mazkur kompetensiyani shakllantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlardan foydalanish samarali natija beradi. Masalan, "debate" va "munozara" metodlari

yoshlarning erkin fikr yuritish va o'z pozitsiyasini asoslash qobiliyatini kuchaytiradi. "Rol o'ynash" va "muammoli vaziyatlar" metodlari esa ijtimoiy hayotdagi real vaziyatlarni modellashtirish orqali ularda qaror qabul qilish va mas'uliyatni bo'lishish ko'nikmalarini shakllantiradi. "Xizmat faoliyatiga asoslangan o'qitish" (service learning) orqali esa yoshlar o'z bilim va ko'nikmalarini bevosita jamoa hayotida qo'llash imkoniga ega bo'ladi.

O'zbekiston ta'lim tizimida ham ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish davlat ta'lim standartlarining muhim yo'nalishi sifatida belgilangan. Jumladan, umumiy o'rta va oliy ta'lim tizimida fuqarolik tarbiyasi, huquqiy bilimlar, milliy qadriyatlar hamda demokratiya asoslarini o'rgatishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, ta'limdan tashqari ijtimoiy institutlar — oilalar, mahalla fuqarolar yig'inlari, jamoatchilik tashkilotlari ham mazkur jarayonda faol ishtirok etmoqda.

Shunday qilib, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasining nazariy-metodologik asoslari shaxsning ijtimoiy ongini yuksaltirish, huquqiy madaniyatini shakllantirish va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishga tayyorligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, u demokratik jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun zaruriy shart hisoblanadi.

Xulosa. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi shaxsning ijtimoiy va davlat hayotida faol ishtirok etish qobiliyatini ifodalovchi muhim ko'rsatkichdir. Uni shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari pedagogik, psixologik va sotsiologik yondashuvlar uyg'unligiga tayanadi. Bunday kompetensiyaga ega bo'lgan shaxslar jamiyat taraqqiyoti, demokratik

qadriyatlar va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi o'rin tutadi. Shu bois, ta'lim tizimida ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini shakllantirishning nazariy asoslarini yanada takomillashtirish, metodik ta'minotni boyitish va yoshlarni amaliy ijtimoiy faoliyatga keng jalb etish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qoladi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi shaxsning huquq va burchlarini anglab yetishi, jamiyat va davlat hayotida ongli ravishda ishtirok etishi, ijtimoiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi hamda demokratik qadriyatlarni qadrlashi orqali namoyon bo'ladi. Mazkur kompetensiyaning shakllanishi ta'lim tizimi, oilaviy tarbiya va jamoatchilik faoliyatining uzviy hamkorligi asosida amalga oshiriladi.

Nazariy jihatdan u fuqarolik tarbiyasi, ijtimoiy ong va huquqiy madaniyat tushunchalari bilan bevosita bog'liq bo'lsa, metodologik jihatdan kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, interfaol metodlar va faoliyatga asoslangan o'qitish usullari orqali samarali shakllantiriladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, yoshlar ongida ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish ularning mustaqil fikrlashini, tashabbuskorligini va mas'uliyatini kuchaytiradi. Natijada, bunday fuqarolar jamiyatning barqaror taraqqiyotini ta'minlashda, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda va davlatning demokratik institutlarini mustahkamlashda faol ishtirok etadilar. Shu bois, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasining nazariy-metodologik asoslarini yanada chuqurroq tadqiq qilish va uni ta'lim-tarbiya jarayoniga keng joriy etish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish va sifatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. – Toshkent, 2021.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori. – Toshkent, 2022.
3. Nazarov Q. Fuqarolik tarbiyasi: nazariya va amaliyot. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020.
4. European Commission. Key Competences for Lifelong Learning. Luxembourg: Publications Office of the EU, 2019 (2021-yil yangilangan nashr).
5. Ganieva D. Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda fuqarolik tarbiyasining o'rni. – "Pedagogika va psixologiya" jurnali, №4, 2021.
6. UNESCO. Global Citizenship Education: Leadership, Engagement and Action. – Paris, 2021.
7. Johnsson, L. Civic Competence and Democratic Participation among Youth. – Journal of Civic Education, Vol. 3, 2022.
8. Hasanov A. Oliy ta'limda fuqarolik kompetensiyasini shakllantirishning innovatsion yondashuvlari. – "Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar" jurnali, №2, 2023.

Mahliyo SATTOROVA,
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

NAVOIY ASARLARIDA PAYG'AMBARLAR: "XAMSA" DOSTONI MISOLIDA

Annotatsiya: ushbu maqolada Alisher Navoiy "Xamsa" asaridagi payg'ambarlar obrazlari, xususan, Odam (a.s.), Ayyub (a.s.) va Muso (a.s.), Yusuf (a.s.) hamda Muhammad (alayhissalom) kabi payg'ambarlar haqida ham so'z yuritiladi. Ushbu payg'ambarlarning tasvirlari o'quvchiga axloqiy va diniy saboqlarni taqdim etadi, insonni imon va sabr asosida yashashga undaydi. Tahlil davomida, Navoiyning diniy va ijtimoiy qadriyatlarni, insonning kamolotini shakllantirishdagi roli ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, "Xamsa", payg'ambarlar obrazlari, Ayyub (a.s.), Muso (a.s.), diniy saboqlar.

Аннотация: в данной статье рассматриваются образы пророков в произведении Алишера Навои «Хамса», в частности, Адама (а.с.), Айюба (а.с.), Мусы (а.с.), Юсуфа (а.с.) и Мухаммада (мир ему). Эти образы передают читателю нравственные и религиозные уроки, побуждая жить с верой и терпением. В ходе анализа показана роль Навои в формировании религиозных и социальных ценностей, а также в духовном совершенствовании личности.

Ключевые слова: Алишер Навои, Хамса, образы пророков, Айюб (а.с.), Муса (а.с.), религиозные наставления.

Annotation: this article discusses the portrayal of prophets in Alisher Navoi's Khamsa, particularly the figures of Adam (a.s.), Job (a.s.), Moses (a.s.), Joseph (a.s.), and Muhammad (peace be upon him). These depictions offer readers moral and religious lessons, encouraging a life based on faith and patience. The analysis highlights Navoi's role in shaping religious and social values as well as human spiritual perfection.

Key words: Alisher Navoi, Khamsa, images of prophets, Job (a.s.), Moses (a.s.), religious teachings.

Alisher Navoiy "Xamsa" dagi dostonlarda ko'plab payg'ambarlar obrazlariga murojaat qilgan. Bu holat, avvalo, islom dini, xususan, Qur'oni Karim va boshqa muqaddas kitoblarning kuchli ta'siri bilan bog'liq. Shu bilan birga, bu obrazlar Sharq adabiy an'analari davomidir. Navoiy lirik obraz kechinmalari, yor timsoli va uning go'zalliklarini tasvirlar ekan, o'zining falsafiy mulohazalari jarayonida ko'pincha payg'ambarlar timsolidan foydalanadi.

Qur'oni karimda 28 nafar payg'ambar tilga olingan bo'lib, "Anbiyo" surasida ularning aksariyati haqida mufassal ma'lumot berilgan: Is'hoq, Ya'qub, Lut, Nuh, Dovud, Sulaymon, Ayyub, Ismoil, Idris, Zul-kifl, Zunnun, Zakariyo, Iso (alayhimussalom) kabi zotlar shular jumlasidandir. Shu bilan birga, boshqa manbalarda Odam, Ibrohim, Yusuf, Shuayb, Muso, Horun, Yunus, Ilyos, Yahyo va Muhammad (alayhissalom) kabi payg'ambarlar haqida ham so'z yuritiladi. Navoiy

"Xamsa"sida bu zotlarning deyarli barchasiga murojaat etilgan. Masalan, "Xamsa" dostonlarida Odam nomi bir necha bor tilga olinadi. Bu ismlar orqali asosan, Odam Atoga ishora qilinadi. Ayniqsa, "Hayrat ul-abror" dostonining na't qismida Odam Ato tarixiga oid ma'lumotlar keltirilgan. Qur'onda va boshqa diniy manbalarda (masalan, Bibliyada Adam nomi bilan) Odam Atoga bog'liq voqealar — uning tuproqdan yaratilgani, Havo bilan birgalikda jannatda yashagani, iblisning vasvasasi bilan jannatdan chiqarilgani kabi tafsilotlar keng yoritilgan. Odam insoniyatning birinchi vakili, "Abu-l-bashar", ya'ni insonlar otasi deb ataladi. U birinchi payg'ambar sifatida tan olingan. Navoiy "Tarixi anbiyo va hukamo" asarida Odamni "Safiyulloh", ya'ni "Allohning pok quli" deb ta'riflaydi. "Qisasi Rabg'uziy" asarida esa Odamning yaratilishi, jufti Havo bilan hayoti va jannatdan chiqib ketish holatlari keng bayon qilingan. "Saddi Iskandariy"

dostonida esa Navoiy Odam nomi bilan birga “alayhissalom” degan iborani qoʻllaydi, bu esa Odamning paygʻambarlik maqomini anglatadi:

***Ki andinki Odam alayhissalom,
Xilofat saririda tuttu maqom.***

Dostonning XI bobida tarix ilmi haqida soʻz yuritir ekan, Navoiy tarixni Odam Atodan boshlaydi va undan keyingi avlodlar haqida fikr yuritadi. Muhammad (alayhissalom) haqida yozar ekan, Navoiy uni Odam Ato bilan bogʻlaydi. Yaʼni, Muhammad alayhissalom ham Odamning zurriyodi ekani, ular orasidagi rishta va bu holatning diniy manbalarda asoslanganiga urgʻu beradi:

***Basdurur Odamda “alif”, “dol”, “mim”
Barchasi Ahmadda topib izzu shon,
Oʻgʻilda uch harf atodin nishon.***

Bu baytlarda arab harflarining maʼnosi orqali ham Odam va Muhammad (alayhissalom) orasidagi maʼnaviy va ilohiy bogʻliqlik koʻrsatiladi. Har ikkala ismda ham “alif”, “dol”, “mim” harflarining mavjudligi – ular oʻrtasidagi ruhiy va nasliy aloqaning ramziy dalili sifatida talqin qilinadi. Oʻzbek mumtoz adabiyotida, xususan, Alisher Navoiy sheʼriyatida va “Xamsa” tarkibidagi dostonlarda koʻp uchraydigan lirik obrazlardan biri – Yusuf (a.s.)dir. U oshiq va maʼshuqaning ruhiy holati, kechinmalari, ichki iztiroblarini tasvirlashda maʼnaviy timsol sifatida tez-tez tilga olinadi. Yusuf obrazi musulmon xalqlari orasida afsona va rivoyatlarda juda mashhur boʻlib, odatda, uning tengsiz goʻzalligi bilan ajralib turadi. Xalq ogʻzaki ijodi va yozma adabiyotda ham u asosan, Alloh tomonidan berilgan betakror husni, chiroyli qiyofasi orqali tasvirlanadi. Alisher Navoiy asarlarida ham Yusuf (a.s.) nomi katta mehr bilan tilga olinadi. Shoir “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida bu qissaning nihoyatda mashhur va moʻjizalarga boyligi sababli koʻplab buyuk adiblar uni nazm va nasrda goʻzal tarzda bayon etganliklarini taʼkidlaydi. Navoiy Firdavsiy, Jomiy, Masʼud Iroqiy kabi ijodkorlarning ushbu mavzuda mukammal asarlar yaratganini eslatadi¹. Shoirning “Xamsa”sidagi turli qissalarda, masalan, Farhodning kechinmalari, Majnunning holati yoki “Sabʼai sayyor”dagi hikoyatlarda ham Yusuf nomi tilga olinadi. Ayniqsa, “Hayrat

ul-abror”da Meʼroj kechasi tasvirida ham bu obrazga murojaat qilinadi. Yusufning eng asosiy belgisi – goʻzalligi boʻlib, Navoiy uni “bani odam jinsining jamlilrogʻi” deb taʼriflaydi, yaʼni insonlar ichida eng goʻzali sifatida tasvirlaydi. “Sabʼai sayyor”da uchinchi iqlim mehmoni Misr xojasi va uning oʻgʻli Saʼd haqida hikoya qilinir ekan, shunday satrlar keltiriladi: ***Misr shohiga naqdu mol ichra, Yusufi Misrcha jamol ichra.***

Bu misralarda Yusufning ham misrlik ekani, ham goʻzalligi alohida taʼkidlanadi. Qissadan maʼlum boʻlishicha, Yusuf Misrda podshohlik qiladi, elni ocharchilikdan asraydi. Shu sababli, asarda Saʼdning mol-dunyosi va goʻzalligi Yusuf bilan qiyoslanadi. Yusuf qissasining mashhur epizodlaridan biri – akalarining uni adashtirib, sotib yuborishi, soʻng esa uning koʻylagini qonga boʻyab, otasiga boʻri yeb ketdi deb aldashidir. “Qisasi Rabgʻuziy”da bu holat yanada batafsil bayon etilib, Yusufni quduqqa tashlagan akalar bir boʻrini olib kelib, uni aybdor qilishadi.

Biroq Alloh inoyati bilan boʻri tilga kirib, haqiqatni aytadi – Yusufni yemaganini va qonli koʻylak uni tuhmat bilan bogʻlash uchun ishlatilganini fosh qiladi. Alisher Navoiy “Xamsa”da turli paygʻambarlar obrazlariga murojaat qilar ekan, Ayyub (a.s.)ga alohida toʻxtalib, u sabr va bardosh timsoli sifatida tasvirlanadi. Qurʼoni Karim va tafsirlarda Ayyub paygʻambar Rum yurti fuqarosi boʻlgani, boyligi va koʻp farzandli ekani, soʻngra boshiga ogʻir musibatlar tushganiga qaramay, sabr qilgani bayon qilinadi. U mol-mulki, farzandlari va sogʻligʻidan ayriladi, biroq hech qachon shikoyat qilmaydi. Navoiy, shuningdek, “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida ham Ayyub (a.s.) hayoti, sabrli tabiati va Tangri rahmati bilan yana barcha neʼmatlarga erishgani haqida hikoya qiladi. Hamda Suriya, Falastin, Misr va Oʻrta Osiyoda Ayyub nomi bilan bogʻliq quduq, buloq va toshlar mavjudligi eslatiladi. “Hayrat ul-abror” asarining oʻn uchinchi maqolatida Navoiy haqiqiy insoniylik haqida fikr yuritir ekan, Ayyub (a.s.) sabrini misol qilib keltiradi. U kishi boshiga tushgan musibatlarga chidaydi, biror kishiga yomonlik tilamaydi. Shoir bu fikrni asoslash uchun Ayyub haqidagi hikoyatni keltiradi: unda bir oʻgʻri Ayyubning uyiga lahim orqali kirib, mol-mulkni oʻgʻirlamoqchi boʻladi. Ayyub esa

¹ Alisher Navoiy. Tarixi anbiyo va hukamo. 112-116-betlar.

unga mehribonlik bilan eshikni ochib beradi. Bu mehribonlikdan ta'sirlangan o'g'ri tavba qiladi va to'g'ri yo'lga qaytadi. Shuningdek, "Xamsa"da boshqa payg'ambarlar qatorida Muso (a.s.) obrazi ham ko'p uchraydi. Muso ismi Qur'oni karimda 136 marta tilga olingan. Bu obrazni tushunish uchun Muso qissasini bilish zarur. Qur'oni karim, Injil, "Qisasi Rabg'uziy" va boshqa manbalarga ko'ra, Muso Misrda Isroil farzandlari qavmidan tug'iladi. Fir'avn tomonidan yangi tug'ilgan o'g'il bolalar o'ldirilayotgan bir davrda, onasi uni qamishzorlarga yashiradi. Fir'avning qizi uni topib olib, saroyga olib keladi va unga "Muso" – "suvdan tortib olingan" degan ma'nodagi ismni beradi.

Badiiy asarlarda Muso obrazining aynan shu mo'jizakorlik, jasorat va xaloskorlik jihatlari yoritiladi. Uning obraziga Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Hofiz Xorazmiy, Sakkokiy, Navoiy va boshqa mumtoz adiblar asarlarida tez-tez duch kelamiz. "Xamsa"da Qorun nomi ham tez-tez namoyon bo'ladi. Qur'oni karimning "Qasas" surasi, "Ankabut" surasida Qorun nomi, uning qilgan ishlari xususida gap boradi. "Qasas" surasida yozilishicha, Qorun Muso qavmidan bo'lib, kibr-u havoga beriladi. U ega bo'lgan xazinalar kaliti "bir jamoatga ham og'irlik qilardi". Qorun bu davlat Alloh ehsoni ekanligini inkor etib, "faqat o'zidagi bilim sababligina" unga erishganini aytib, hovliqmalik qiladi. "... Bas, biz (Qorunni) ham, uning hovli-joyini ham (yerga yutdirdik)"². Bu qaydlardan Qorunning

behad xazinaga ega ekanligi, kibrga berilib, butun mol-mulki bilan yer yutganligi anglanadi. Mumtoz adabiyotda ham Qorun, avvalo, ana shu tomonlari bilan namoyon bo'ladi. Agar bu obraz "Hayrat ul -abror"da o'zining behisob xazinasi, johilligi, xalq e'tiboridan qolishi kabilar bilan tasvirlansa, "Farhod va Shirin"da "yuz ganji Qorun" tarzida boshqa obrazlarga qiyos, yerosti xazinalari sohibi ekanligi bilan namoyon bo'ladi. "Sabbayi sayyor"da ham mislsiz xazinasi, bu ganjni boshqalar davlatiga qiyoslash, bir o'rinda esa "Xamsa"ni Qorun ganjiga o'xshatish bor. "Saddi Iskandariy"da "tamavvulda Qorun edi" jumlasini bor. "Tamavvul" – mulkdorlik, boylik. "Farhod va Shirin"da shunday bayt bor:

G'animat ko'rdi har yon haddin afzun,

O'kulgon har taraf yuz ganji Qorun.

("Farhod va Shirin". 112-bet)

Alisher Navoiy "Xamsa" asarida turli payg'ambarlar obrazlarini juda mukammal va ma'naviy jihatdan boy tarzda tasvirlaydi. Ushbu obrazlar orqali shoir insonning oliy fazilatlari, sabr-toqat va iymon kuchini namoyon etadi. Ayyub (a.s.) sabrning timsoli sifatida, Muso (a.s.) esa xaloskor sifatida ko'rsatiladi. Navoiy payg'ambarlar obrazlari orqali insonni yuksak axloqiy me'yorlar va iymon asosida yashashga da'vat etadi. Shu bilan birga, uning asarlarida payg'ambarlarning yashash tarzlari va ulug' fazilatlari hamda ulardan olingan saboqlarning jamiyatdagi o'rni ko'rsatiladi. Bu obrazlar nafaqat diniy, balki axloqiy va ijtimoiy jihatdan ham katta ahamiyatga ega bo'lib, insonning ruhiy kamolotiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Navoiy, A. Xamsa. – Toshkent: O'zbekiston Nashriyoti, 1984.
2. Navoiy, A. Hayrat ul-abror. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2000.
3. Qur'oni Karim. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Matbuot va axborot agentligi, 1992.
4. Rabg'uziy, Qisasi Rabg'uziy. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1987.

Hulkar RAHMATOVA,
*“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros
 xalqaro universiteti tayanch doktoranti*

“BOBURNOMA” ASARIDA ICHIMLIK TURLARINING INGLIZCHA TARJIMALARDAGI SEMANTIK O‘ZGARISHLARI VA LINGVOKULTUROLOGIK JIHA TLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada “Boburnoma” asarining inglizcha tarjimalarida uchraydigan ichimlik turlarining lingvokulturologik va semantik jihatlari tahlil qilinadi. Asarda uchraydigan gastronomik terminlarning madaniy xususiyatlari, tarjima jarayonida yuzaga kelgan semantik o‘zgarishlari hamda ma’no siljishlari ilmiy asosda o‘rganilgan. Tadqiqot natijalari Sharq va G‘arb madaniyatlarining o‘zaro taqqoslanishiga imkon beradi va tarjimashunoslik sohasiga yangi yondashuvlar olib kiradi.

Kalit so‘zlar: *Boburnoma, tarjima, ichimlik turlari, semantika, lingvokulturologiya, may, basit, chog‘ir, sharbatchi.*

Annotation: this article analyzes the linguocultural and semantic aspects of drink names in the English translations of Baburnama. The study examines the cultural features of gastronomic terminology, identifies semantic shifts and changes in meaning that occur during the translation process. The findings contribute to the comparison of Eastern and Western cultures and introduce new approaches to the field of translation studies.

Key words: *Baburnama, translation, beverages, semantics, linguoculturology, may, basit, chogir, sharbatchi.*

Аннотация: в данной статье анализируются лингвокультурологические и семантические особенности наименований напитков в английских переводах произведения Бабурнаме. Рассмотрены культурные аспекты гастрономической терминологии, выявлены семантические изменения и смещения значения, возникшие в процессе перевода. Полученные результаты способствуют сопоставлению восточной и западной культур и вносят новые подходы в переводоведение.

Ключевые слова: *Бабурнаме, перевод, напитки, семантика, лингвокультурология, май, басит, чофир, шарбатчи.*

Bugungi globallashuv davrida tarixiy-madaniy merosni chuqur o‘rganish va uni boshqa xalqlarga yetkazish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Sharq adabiyoti durdonalaridan biri sanalgan “Boburnoma” nafaqat siyosiy-tarixiy voqealar bayoni, balki xalqning turmush tarzi, taom va ichimlik madaniyatini ham yoritib beruvchi noyob manba sifatida qadrlanadi. Asarda uchraydigan gastronomik, xususan, ichimlik turlari bilan bog‘liq terminlar o‘sha davrning ijtimoiy hayoti, marosimlari va urf-odatlarini aks ettiradi. Ularning ingliz tiliga tarjima jarayonida ko‘plab semantik o‘zgarishlar, ma’no torayishi yoki kengayishi, shuningdek, madaniy ko‘chish holatlari kuzatiladi. Bu esa, o‘z navbatida, Sharq va G‘arb madaniyatlarining o‘zaro taqqoslanishiga imkon yaratadi.

Jahon adabiyoti va manbashunosligida muhim hamda noyob yodgorlik, memuar va tarixiy-ilmiy asarlar anchagina bo‘lib, bunday asarlarning mazmun-mohiyati yangi an‘analarni shakllantirish, har bir xalq adabiyotining o‘ziga xos jihatlari namoyon etishdan iboratdir. “Boburnoma” jahon

adabiyoti va tarixida alohida o‘rin egallagan memuar asar hisoblanadi. Asarning dunyo miqyosida shuhrat qozonishiga sabab nafaqat undagi voqealarning tarixiy aniqligi, balki o‘zbek xalqining boshqa xalqlar bilan adabiy-madaniy aloqalar tarixini yoritishi va ilmiy dalillarga boy mustahkam badiiy-ilmiy asosda yaratilganidir. Ushbu asar nodir tarixiy manba bo‘lish bilan birga, fanlarning turli sohalarini qamrab oluvchi qomusiy kitob sifatida ham ahamiyatlidir. Unda Bobur yashagan davrning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayoti, o‘sha davrda ijod qilgan shoirlar, tarixiy shaxslar hamda hududlarning geografiyasi, ularning kelib chiqish tarixi va nomlari yorqin badiiy shaklda ifodalangan.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, “Boburnoma” asari bo‘yicha turli tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsa-da, undagi ichimlik turlarining inglizcha tarjimalardagi semantik o‘zgarishlari va lingvokulturologik jihatlari alohida ilmiy tahlil etilmagan. Shu bois mazkur tadqiqot tarjimashunoslik va lingvokulturologiya fanlariga yangi ilmiy natijalar kiritishga xizmat qiladi.

Har bir millat va xalqni boshqa xalqlardan farqlab turuvchi o'ziga xos milliy-madaniy xususiyatlari mavjud bo'lib, ular urf-odatlar, milliy an'analar, nutq madaniyati hamda muloqot uslublarida yaqqol namoyon bo'ladi. Ushbu jarayonlarda gastronomik terminlar muhim o'rin egallaydi. Tilning oziq-ovqat va ichimliklarga oid lug'at boyligi ma'lum davrda jamiyat hayotida kechgan ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy o'zgarishlarning o'ziga xos ko'zgusi sifatida qaraladi. Shu bois har qanday tilda xalqning an'analari va urf-odatlarini aks ettiruvchi ko'plab gastronomik terminlar shakllanadi. Mazkur terminlarning ko'pchiligida milliy-madaniyat va til orqali dunyo manzarasini ifodalovchi lingvokulturologik xususiyatlar mujassamdir.

Xususan, "Boburnoma" asarida uchraydigan ichimlik nomlari ham nafaqat o'sha davr gastronomik leksikasining namunasi, balki xalqning ijtimoiy-maishiy hayoti, bazm madaniyati va madaniy aloqalarini yorituvchi muhim lingvokulturologik birliklar hisoblanadi. Inglizcha tarjimalarda bu terminlarning qanday aks etishi esa semantik o'zgarishlarni, tarjimonning madaniyatlararo qarashini hamda ichimlik atamalarining milliy koloritini qay darajada saqlab qolishini tahlil qilish imkonini beradi.

Gastronomiyaga oid so'zlar o'zbek tili lug'aviy boyligining muhim qatlami hisoblanadi. U o'zbeklarning milliy fazilatlarini o'zida aks ettiradi. Shu o'rinda "gastronomiya" atamasi haqida qisqacha to'xtalib o'tsak. "Gastronomiya" etimologik jihatdan ikkita yunoncha so'zdan "gastros" – oshqozon va "nomos" – qoida yoki tartibga solish degan ma'noni anglatadi[1]. Bundan tashqari, gastronomiya oziq-ovqat tayyorlash va umuman inson ovqatlanishining hissiy fazilatlarini kashf qilish, tatib ko'rish, tajriba qilish, tadqiq qilish, tushunish va yozishni o'z ichiga oladi. Shuningdek, u ovqatlanishning kengroq madaniyat bilan qanday bog'lanishini o'rganadi.[2,354]

Hozirgi kunda tillarni milliy-madaniyat, milliy-madaniyatni esa til nuqtayi nazaridan ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy manbalarga asoslangan holda tadqiq etish zaruriyati sezilmoqda. Bu borada hozirgi zamon tilshunosligida til birliklari xususiyatlarini tadqiq qilishga lingvomadaniy yondashuv juda o'rinlidir. Lingvomadaniy yondashuv munosabatning milliy xususiyatini o'zida aks ettiruvchi vositalar tizimida ta'sir etadigan omillar majmuyini o'z ichiga oladi va bilishning o'sishi qanday yuz berishini kuzatadi. Shuningdek, bu madaniyat va til o'rtasidagi o'zaro munosabatning tilshunoslikda doimiy mantiqiy rivojlanishidir.[3,21] Birinchi navbatda, lingvomadaniy munosabatning asosiy o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib berish uchun hozirgi zamon tilshunosligida

"lingvokulturologiya" termini ostida nima tushunilishini aniqlash zarur bo'ladi. Ushbu ilmiy sohaga katta qiziqish tug'ilganligi sababli uning turli xususiyatlarni ifodalaydigan ta'riflar soni ko'payadi. V.V. Vorobiev lingvokulturologiya bu – tizimli uslublar hamda madaniy tuzilish yordamida madaniy va lisoniy birliklarning asosiy tuzilishi jarayonini aks ettiruvchi til va madaniyatning o'zaro munosabati hamda bog'liqligini o'rganuvchi, umumlashtiruvchi tipdagi kompleks ilmiy soha deb hisoblaydi.[4,4]

"Boburnoma"ni tilshunoslik asari deb ham qarash mumkin. "Vaqoye" muallifi til ilmining eng qiziqarli sohalarini – etimologiya, fonetika xususida o'ta jozibali va teran ilmiy kuzatishlarini bayon qiladi.[5,10] Asar bir necha xalqlarning tarixi, urf-odati, adabiyoti va boshqa sohalarini o'rganishimizda ishonchli manba sifatida xarakterlanadi. Bu xususiyat ichimlik turlariga ham daxldordir. "Boburnoma" asarida ichimliklarga oid terminlardan *chog'ir*, *may*, *suv*, *basit*, *sharbat*, *sharob*, *ichkilik*, *qaynatma* kabi nomlar uchraydi. Asarning asl nusxasida asosan mast qiluvchi ichimlik *chog'ir* atamasi bilan ifodalangan bo'lsa, asarning tabdilida u ko'pincha *may* yoki *sharob* shaklida beriladi. [5,10] Shu bilan birga, *suv* so'zi juda ko'p marta qo'llanib, ayrim hollarda ichimlik suvi ma'nosida, boshqa o'rinlarda esa daryo, buloq yoki tabiiy manbalarga ishora qilishda ishlatiladi. Bu jarayon "Boburnoma"dagi lingvokulturologik qatlamni yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda "Boburnom"da ichimliklarning aksariyatini mast qiluvchi turlari tashkil etadi: *chog'ir*, *may*, *araq* kabilar. Bundan tashqari, asarda mast qiluvchi gastronomik terminlardan *basit*, *ma'jun* kabilarni ham uchratish mumkin.

Boburnoma o'z davrining tarixiy manbasi sifatida nafaqat siyosiy va harbiy voqealarni, balki saroy hayoti va madaniy odatlarni ham aks ettiradi. Asarda Sulton Ahmadning ichimlik va ovqatlanish odatlari tafsilotlari orqali uning shaxsiy xarakteri, ijtimoiy munosabatlari va o'sha davr saroy madaniyatining nozik jihatlari ochib berilgan. Ayniqsa, ichkulukka tushar, *chog'ir* va *basit* kabi atamalar uning odatlarini va ichimlik madaniyatini o'rganish uchun lingvokulturologik jihatdan qimmatli ma'lumotlar beradi.

Asarning asl matnida muallif Sulton Ahmadni quyidagicha tasvirlaydi: *Gohikim ichkulukka tushar erdi, yigirma-o'ttiz kun payo-pay ichar erdi. Gohikim, chog'irdin chiqar erdi, yana yigirma-o'ttiz kun ichmas edi. Bir o'lturg'on bila majlisda gohi bir kecha-kunduz o'lturur edi, yaxshi ichar edi. Chog'ir ichmas kun-lari basitni guzaro yeyar erdi. Tabiatig'a imsok g'olib edi, kamsuxan va odmi kishi erdi, ixtiyori beklari ilgida edi.* [6,32]. Bunda *ichkulukka tushar* ifodasi Sulton

Ahmadning ichishni boshlashi va uning davomiyligini bildiradi. L-E bu soʻzni “drinking wine” [7,32], A.B esa “settled down to drink” deb [8,34], W.T esa “He was a good drinker” [9,53] deb tarjima qilgan. Bu tarjimalar orqali koʻriladiki, atamaning faqat soʻzma-soʻz maʼnosi emas, balki ichish jarayonining davomiyligi va tartibi ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, chogʻir soʻzi L-E tarjimasida oddiygina wine deb berilgan boʻlsa, A.B va W.T kontekstual maʼnoni hisobga olib, ichishning davomiyligi va tartibini taʼkidlaydi. Bu koʻrsatadiki, tarjimada madaniy va ijtimoiy kontekstni saqlash lingvistik jihatdan katta ahamiyatga ega.

Basit atamasi esa Sulton Ahmadning ichmaydigan kunlarda ovqatlanish odatini bildiradi. L-E: pungent substances, A.B: ate without conviviality, W.T: take his meals casually deb tarjima qilgan. W.T “parsimony” (tejamkorlik) degan tarjimasida asl kontekstni toʻliq aks ettirmaydi, chunki basit soʻzi ularning ovqatlanish uslubi va ijtimoiy interaksionalardan qochishini bildiradi, nafaqat moddiy tejamkorlikni.

Lingvokulturologik tahlil shuni koʻrsatadiki, tarjimalar orasidagi farqlar tarjima qiluvchining yondashuvi bilan bogʻliq: Leyden-Erskin koʻproq leksik ekvivalensiyaga urgʻu beradi, Annette Susannah Beveridge esa kontekstual va pragmatik tafsilotlarni saqlaydi, Wheeler Tekston esa baʼzan soʻz maʼnosini notoʻgʻri umumlashtiradi. Shu bilan birga, ichimlik va ovqatlanish odatlari Sulton Ahmadning xarakteri – mehribon, kam soʻzli, ijtimoiy odatlariga eʼtiborli – haqida qoʻshimcha maʼlumot beradi.

“Boburnoma”da uchraydigan *sharbatchi* leksemasi toʻgʻridan-toʻgʻri ichimlik turini emas, balki kasb-hunar egasini bildiradi. Biroq mazkur atama “sharbat” soʻzidan yasalgan boʻlib, uning semantik ildizi bevosita ichimlik bilan bogʻliq. Demak, soʻzning lugʻaviy tarkibi va morfologik tuzilishi unda ichimlik turining izini saqlab qoladi. Shu boisdan ham, garchi “sharbatchi” shaxs nomi sifatida qoʻllangan boʻlsa-da, ichimlik turlari lingvokulturologik tahlilida mazkur birlikni alohida qayd etish ilmiy jihatdan asosli hisoblanadi: *Mirzo bila Muhammad Quli qavchin Hasan sharbatchi bila kirdilar*. [6,32]. Tarjimachilar ushbu soʻzni turlicha talqin etishgan:

1. L-E – “sherbetchi” [7,62]: Bu variant asl soʻz shaklini maksimal darajada fonetik moslashtirish orqali berilgan. “Sherbetchi” shakli tarjimonning ekzotik koloritni saqlab qolish va oʻquvchini Bobur zamoniga yaqinlashtirish istagini koʻrsatadi. Bu usul lingvokulturologik jihatdan “sharbat”ning madaniy xosligini asrab qolishga xizmat qiladi.

2. Annette Susannah Beveridge – “sherbet-server” [8,62]: Beveridge soʻzni izohli shaklda tarjima qiladi.

“Sherbet” orqali ichimlik nomi, “server” orqali kasb-hunar ifodalanib, gʻarb oʻquvchisiga tushunarli qilib berilgan. Biroq bu yondashuv asl matndagi milliy koloritni biroz susaytiradi, chunki “server” zamonaviy inglizchada oddiy xizmatkor maʼnosida qoʻllanadi va Bobur davridagi sharbatchining bazmdagi alohida ijtimoiy mavqeyini toʻliq aks ettira olmaydi.

3. W.Tekston – “sharbatchi” [9,71]: Bu variant esa asl soʻz shaklini transliteratsiya orqali berib, oʻziga xos milliy-madaniy koloritni toʻliq saqlab qolishga intiladi. Bunday yondashuv lingvokulturologik jihatdan eng adekvat hisoblanadi, chunki u nafaqat ichimlikka, balki sharbatchi shaxsiga xos boʻlgan tarixiy-madaniy konnotatsiyalarni ham oʻquvchiga etkazishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, Leyden-Erskinning “sherbetchi” shakli koloritni, Beveridgening “sherbet-server” shakli tushunarlilikni, Tekstoning “sharbatchi” shakli esa milliylikni ustun qoʻyadi. Shu orqali koʻrinadiki, “sharbatchi” soʻzining tarjimalari turli lingvokulturologik yondashuvlarni namoyon etadi: biri milliy koloritni, biri oʻquvchi uchun qabul qilish osonligini, yana biri esa ilmiy aniqlikni taʼminlashga xizmat qilgan.

Bundan tashqari, 1. Asliyatdagi ibora: *Buxoro chogʻirlari*[6,72]. soʻz birikmasi haqida ham tahlil qilsak, “Chogʻir” — Bobur davrida ishlatilgan ichimlik nomi, asosan may (vino) yoki xamirga oʻxshash spirtli ichimlik.“Buxoro” esa toponim (shahar nomi), bu yerda sifatlash vazifasida ishlatilgan, yaʼni “Buxoroga xos, u yerdan kelgan chogʻir”. Shunday qilib, ibora nafaqat ichimlik turini, balki uning madaniy manbasini (Buxoro shahrining oʻsha davrdagi vinochilik obroʻsini) ham bildiradi. Bunda Leyden-Erskine tarjimasida: *wine of Bokhara* [7,85], Semantik jihatdan: soʻzma-soʻz tarjimaga yaqin, “wine” = chogʻir, “of Bokhara” = Buxorodan. Lingvokulturologik jihatdan Leyden-Erskine “wine” soʻzini ishlatib, uni oʻquvchiga tushunarli qiladi, lekin “chogʻir”ning Bobur zamonidagi oʻziga xos konnotatsiyasini (sharqona bazm madaniyati, diniy qarashlar bilan bogʻliqligi) yoʻqotadi. Yevropalik oʻquvchi uchun esa oddiygina “Buxoro vinosi” sifatida qabul qilinadi. A.Beveridge tarjimasida: *Bukhara wine*[8,83], semantik jihatdan: biroz ixchamroq. “wine of Bokhara” oʻrniga “Bukhara wine” ishlatilgan. Bu shakl ingliz tilida adjektiv + noun (Bukhara + wine) sifatida tabiiyroq eshitiladi. Lingvokulturologik jihatdan esa yana ham tijorat mahsuloti yoki brend nomiga oʻxshab ketadi: “French wine”, “Italian wine” kabi. Natijada oʻquvchi Buxoroni Sharqdagi vino ishlab chiqaruvchi mashhur hudud sifatida tasavvur qiladi, lekin “chogʻir”ning asl turkiy-

madaniy o'ziga xosligi bilinmay qoladi. W.Thackston (Tekston) tarjimasi: Bukhara wines[9,87] semantik jihatdan: ko'plik shaklda ishlatilgan ("wines"). Bu esa turli xil navlari bor degan ma'noni beradi. Bu tarjimada Buxoro faqat birgina ichimlik emas, balki vino ishlab chiqarish markazi sifatida tasvirlanadi. Lingvokulturologik jihatdan: Sharqona manzara o'rniga, G'aribona tasnif va iqtisodiy nuqtayi nazar yaqqolseziladi. "Wines" — fransuz, italyan vinolari kabi kategoriyaga tushadi. Aslyatda "Buxoro chog'irlari" faqat ichimlik emas, balki Bobur davridagi Sharqona bazm va adabiy-madaniy muhit ramzi. Leyden-Erskine (wine of Bokhara) — tarixiy matnni soddalashtirib, o'quvchiga tushunarli qiladi, ammo madaniy o'ziga xoslikni yetarlicha aks ettirmaydi. A.Beveridge (Bukhara wine) — ixcham va tabiiy tarjima, lekin "Sharqona ruhiyat"ni "G'aribona vino" tasavvuriga almashtiradi. W.Thackston (Bukhara wines) — iqtisodiy-tovar ma'nosini kuchaytiradi, Buxoroni vino markazi sifatida ko'rsatadi, lekin chog'irning asl turkiy

va diniy-madaniy konnotatsiyasi yo'qoladi. Demak, lingvokulturologik jihatdan "chog'ir"ni oddiy "wine" bilan almashtirish Sharqona bazm madaniyatini G'aribona vino an'alariga moslashtirib qo'ygan, natijada aslyatdagi Sharqona kolorit (o'ziga xoslik) ancha kamayib qolgan. Asarda bu va boshqa o'xshash misollarni ko'plab uchratish mumkin. Ularni inglizcha tarjimalar bilan solishtirish Sharqona bazm va ichimlik madaniyatining ingliz tilida qanday talqin etilganini, madaniy qadriyatlar tarjima jarayonida qanday o'zgarishini ko'rsatib beradi.

Xulosa qilib aytganda, "Boburnoma" asari o'z davrining ijtimoiy-siyosiy hayoti, urf-odatlarini, madaniy qadriyatlari bilan bir qatorda, o'sha davrda iste'mol qilingan turli ichimliklar haqida ham muhim ma'lumot beradi. Asarda uchraydigan "chog'ir", "sharbat", "may" kabi atamalar nafaqat ichimlik turini bildiradi, balki ular orqali Sharqona bazm madaniyati, diniy-axloqiy qarashlar, gastronomik an'analarning ham in'ikosini ko'rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://en.m.wikipedia.org/wiki/Gastronomy>
2. Kivela, J. va Crotts, J.C. (2006). Turizm va gastronomiya: Turistlarning maqsadni qanday boshdan kechirishiga gastronomiyaning ta'siri. Mehmondo'stlik va turizm tadqiqotlari jurnali, 30 (3), P. 354-377
3. Evsyukova T.V. Lingvokulturologiya. Uchebnik. 2-e izdanie. — M.: Izd "Flinta" 2014 g. — 21 s.
4. Воробьев В.В. Лингвокультурология. Учебник. — М.: Изд РУДН. 2006 г. — 47 с.
5. Zahiriddin, Muhammad Bobur Бобурнома. Ҳозирги ўзбек тилига табдил қилганлар: Ваҳоб 79 В Раҳмонов, Каромат Муллахо'яева. — Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2019. 440 b. SBN 978-9943-25-707-8
6. UO'K: 821.512.133-3 KBK: 84(50')1 B-79 Bobur, Zahiriddin Muhammad Zahiriddin Muhammad Bobur / Boburnoma: — T.: «IJOD-PRESS», 2019. 576 b. ISBN 978-9943-5814-9-4
7. King L, Leyden J. & Erskine W. Memoirs of Zehir-ed-Din Muhammed Baber, Emperor of Hindustan. — London, 1826. Annotated and revised ed. by L.King, 2 Vols., — Milford, 1921. 480 p.
8. Beveridge A.S. The Bābur-nāma in English (Memoirs of Babur), Translated from the original Turki Text of Zahiru'ddin Muhammad Babur Padshah Ghazi by Annette Susannah Beveridge, 2 Vols., — London, 1922; Repr, in one Volume, — London, 1969; — New Delhi, 1970; — Lahore, 1975. — 472 p.
9. The Baburnama. Memoirs of Babur, Prince and Emperor, Translated, edited, and, annotated by Wheeler. M., Thackston. — New York & Oxford, 1996. — 460 p.

“ALPOMISH” DOSTONIDA QIPCHOQ LAHJASIGA XOS DIALEKTAL UNSURLAR

Annotatsiya: ushbu maqolada xalq ogʻzaki ijodi durdonasi “Alpomish” dostonining til xususiyatlari, uning oʻzbek adabiy tili va qipchoq shevalariga munosabati masalasi oʻrganilgan. Doston tilidagi qipchoq lahjasiga xos til faktlari tahlil qilingan, leksik, fonetik, grammatik xususiyatlari aniq namunalar asosida mufassal yoritilgan.

Kalit soʻzlar: doston tili, qipchoq dialekti, tovush mosligi, tovush tushishi, tovush ortishi, assimilyatsiya, metateza, eliziya, adabiy til.

Annotation: this article highlights the linguistic features of the epic “Alpomish”, the vocabulary richness of the epic, the relationship of the epic language and the Kipchak dialect with the literary language. Phonetic, grammatical, lexical similarities between the language of the epic “Alpomish” and the Kipchak dialect are compared, proven by examples.

Key words: language of epic, Kipchak dialect, sound compatibility, sound fall, sound gain, assimilation, metathesis, ellization, literary language.

Аннотация: в статье рассматриваются языковые особенности эпоса «Алпомиш», богатство словарного состава эпоса, взаимосвязь эпического языка и кыпчакского диалекта с литературным языком. Сравниваются фонетические, грамматические и лексические сходства между языком эпоса «Алпомиш» и кыпчакским диалектом, доказанные на примерах.

Ключевые слова: язык эпоса, кыпчакский диалект, звуковая сочетаемость, звукопадение, звукоусиление, ассимиляция, метатеза, эллизация, литературный язык.

“Alpomish” – qadimiy dostonlardan biri boʻlib, unda mardlik, qahramonlik, vatanparvarlik, sevgi-muhabbat, turli elat va xalqlar oʻratasidagi oʻzaro aloqalar kuylanadi. Muayyan xalq haqida toʻliq tasavvur hosil qilish uchun uning milliy ruhini his qilish lozim. Ushbu doston oʻzbek xalqining milliy ruhini anglash borasida tengsiz asardir. “Alpomish” oʻzbek xalqining tarixini, madaniyatini, turmush tarzini, qadriyatlarini, anʼana, urf-odatlarini va maʼnaviyatini badiiy sanʼat orqali aks ettirgan va ogʻzaki ijodda muhrlangan xalqning hujjati, “pasporti” dir.

“Alpomish” xalq ogʻzaki ijodining namunasi sifatida tili sodda, ravon, xalqona tilda yaratilgan asar. Dostonda oʻzbek tilining qipchoq lahjasiga xos xususiyatlar aks etgan. Sababi, aksariyat xalq dostonlari qipchoq dialektida ijro etilganidir. Shu jumladan, “Alpomish” dostonining ham mukammal

varianti qipchoq lahjasi vakili, Samarqand viloyati Bulungʻur tumanida tugʻilib yashagan Fozil Yoʻldosh oʻgʻliga tegishli.

Dostonning til xususiyatlarini oʻrganish uning adabiy til va shevalarga munosabatini belgilash imkoniyatini beradi. Jumladan, doston tili va qipchoq dialektlariga xos soʻz shakllari va soʻz birikmalarida umumiy, bir xil shakllarni koʻrish mumkin. Masalan, keling soʻzi *ken* (*keng*) tarzida, boʻling soʻzi *bon* (*boʻng*) tarzida qoʻllanilishi yoki olib keling birikmasi *apken* (*apkeng*) tarzida qoʻllanishini koʻrsatish mumkin. Doston tili va qipchoq dialekti oʻrtasidagi umumiyliklar talaygina va bular haqida quyida soʻz yuritiladi.

Maqolada qipchoq lahjasidagi shevalar leksikasi va “Alpomish” dostonida qoʻllangan dialektal soʻzlar adabiy til hamda boshqa oʻzbek shevalaridagi muqobillari bilan qiyoslanadi.

Asar tili	Qipchoq dialekti	Adabiy til	Shahar tipidagi shevalar
ulʼi	ulʼi	oʻgʻli	oʻyli
šūjtib	šūjtib	shunday qilib	šünäqqib
bežaj	bežaj	juda	juda
ätäštirmäq	ätäštirmäq	unashtirmoq	unäštirmoq
sendäjyačaq	sendäjčayan//senča:n//senčayan	senday	sändäj

nasaq	nasaq//nasay	-	-
kūjav nōkār	kijāv nōkār	kuyov navkar	kūjāv novkār
belgili	belgili	boshi bog'liq, unashtirilgan	žāvāp berilgān, bāšī bājlanān
čečā	čečā, jānqā	kelinoyi, yanga	kennāji
taza	taza	juda, rosa	rāsā, jūdā
šündājyača	šündājčiyin//šunča:n	Shunday	šūndej
orlašmaq	oralašmaq	raqobat qilmoq, tortishmoq	tārtišmaq
žijärmān	žijärmān	yig'arman	jijärmān
ōtirik	ōtirik	yolg'on, cho'pchak	jālyān, čōpčāk
enā	enā	ona	āji, ona
ājnāltirib	ājnāltirib	aylantirib	ājlanirib
baʻyanayʻi	baʻyanayʻi	boyagi	bājāgi
qīčab	qīčap	tez-tez	tez-tez
asant	asant	oson	āsān
ājdāhār	ājdāhār	ajdarho	āzdāhā
čāš	čāš	soch	sāč
miñ qojlī baj	miñ qojlī baj	juda boy; baxtli odam ma'nosida	-
žavčī	žavčī	sovchi	sāvčī

“Alpomish” dostoni tili sof qipchoq lahjasiga xos. Sababi yuqorida aytilganidek, doston qipchoq lahjasi vakillari tomonidan kuylanganidir. Bu umumiylikni doston tilining fonetik, grammatik va leksik jihatdan adabiy tildan farq qilib, qipchoq dialektidagi soʻzlar bilan umumiylikni kasb etishida koʻrish mumkin. Bu umumiyliklar, ayniqsa, lab garmoniyasining mavjudligi, soʻz boshidagi *j>ž* mosligi, *h* undoshining tushirib qoʻllanilishi, *j* undoshining koʻp oʻrinlarda orttirilib talaffuz qilinishi va kelishik qoʻshimchalarining dostonda ham shevada ham bir xil ekanligida koʻrish mumkin. Masalan, *j>ž* mosligi: *žol* (yoʻl), *žūr* (yur), *žilājmān* (yigʻalayman), *žijipti* (yigʻibdi); *s>č* mosligi: *čāč* (soch), *čāčmā* (sochma), *čišxān* (sichqon), *čāčāx* (sochiq); *t>d* mosligi: *dovīš* (tovush), *dorba* (toʻrva); *f>p* mosligi: *pārištā* (farishta), *lap* (lof), *pal* (fol), *pi:l* (feʻl), *pa:m* (fahm). Yana ayrim fonetik xususiyatlarda ham sheva bilan oʻxshashlik kuzatiladi.

Tovush tushishi: *sarī* (sariq), *qurī* (quruq), *ilī* (iliq), *daš* (dasht), *goš* (goʻsht) *Qalmaq barib*, *qonsam Čilbir dāšigā*. Qazanda qajnagan širbaz *goš emās*. Boʻgʻin qisqarishi: *qip* (qilib), *bop* (boʻlib), *qājdān* (qayerdan)

Arz aytgani hāmmā senā kelādi, Čiqimīnñi qājdān tapīb berādi. Ōz elimdā siyīndī *bop* žūrgūnčā, Bolak žūrtā kūn ōtkāzip bolmajmī? Mehnātkāš dehqannī bārī kelādi, Bajlarnī ūstidān arz *qip* tūrādi. Tovush orttilishi. Koʻrsatish olmoshlarida *I* tovushi orttirilishi: *ul bul*, *šul* kabi: *Qajsī žūrtān bunda kepti, bilājin, Ul bajlaryā qattiq azab berājin. Sen ketār bolsaq Qalmaq žūrtigā, Bul elātni qalar deb hām yam žemā. J(y)* tovushining orttirilishi ham kuzatiladi: *xudaj, sarpaj* kabi. Assimilyatsiya: *dāvlātdi* (davlatni), *māqsāddi* (maqsadni). *Xuda bergān bekkā mūdāj dāvlātdi, Šūndāj bolīb tapdī murad-māqsāddi*. Metateza: *ājnālmāq* (aylanmoq) *Köp ājnālib endi būndā tūrmāgin, Qimīz joqdīr, ōziñni hālāk qilmāgin*. Elliziya: *Baydačilgan gūliñ keldi, Čāmāndā būlbūliñ keldi. Bek ākāmnī kōrājik, deb, Čečāmdalīb kelājik, deb*.

Grammatik jihatdan ham doston tili va qipchoq dialekti oʻrtasida umumiyliklar talaygina. Oʻtgan zamon *-di* qoʻshimchasi soʻroq shaklida tushib qoladi. Bu xususiyat qipchoq dialektidagi shevalar uchun ham xosdir. Masalan, *Altajčilik joldan kūjāv bolamī, Šūndan kelib seniñ qizīñ alamī, Kelsā bul alplardan*

aman qalamī?! Qipchoq shevalarida ham aynan bu holat kuzatiladi: Šol āpkegānim bolama? (Shu olib kelganim bo'ladimi?)

Ko'rsatish olmoshlarida ham qipchoq shevalari bilan umumiy holatlarni uchratish mumkin: *mana shu ko'rsatish olmoshining dostonida mūnā ko'rinishida, u, bu, shu olmoshlarining ul, bul, šul* shaklda qo'llangan. Masalan, *Šul zaman bajbičā žetib kelādi, Bul kāmpirgā mehribanlik qilādi. Fārzāndlārim mūnā eldā zorabar.*

Tushum kelishigi *-ni* qo'shimchasining qipchoq shevalariga xos bo'lgan *-di, -ti* assimilyativ variantlari doston tilida faol qo'llangan. Masalan, *Mal žetmāsā berāj Bārčīn qizimdi, Hāli hām bir azad qilgīn ozimdi. Žānim balam, ešit ajtgan datimdi, Sen kelib kōrāsān osgan jūrtingdi.* Shevada: *Paqat ozimdi ojlayanimda kōrārdi.* (Faqat o'zimni o'ylaganimda ko'rar eding).

Jo'nalish kelishigining ham ba'zi o'rinlarda egalik affiksalaridan keyin qo'llanuvchi *-a, -ā* varianti ko'zga tashlanadi: *Öz ākāmā qandaj zakat berājin, Öz ākāmā özim zakat bergānčā, Bašqa žürtdā siyīndi bop žürājin.* Shevada qo'llanilishi: *Qolīma berip ketti* (Qo'linga berib ketdi) *Bašīma kemā:n bālā qamadī* (Boshimga kelmagan balo qolmadi).

Qipchoq shevalarida sonor: *m, n, ŋ* undoshlaridan keyin chiqish kelishigining *-nan* shaklida qo'llanilishi doston tilida ham kuzatiladi: *Ešitgin, qalmaqlar, ajtgan tilimnān, Meni alar kelmās senin qolīnnan, Badbaxst qalmaq, qalma kelgān žolīnnan.*

Buyruq maylining I shaxs birlikda *-ajīn, -ājin* affiksi orqali ifodalanishi ham umumiylik kasb etadi (adabiy tilda *-aj* affiksi qo'llaniladi). *Nimā deb sōzlāsān, men hām qilājīn, Toqsan qora qojīm bardir, berājin.* Shevada: *Birār nārsā tovajīn, apparip berājin šūñqā.* (Biror narsa topay, oborib beray shunga). Buyruq maylining I shaxs ko'plikdagi shakli ham adabiy tildagi *-ajlik* affiksidan farqli ravishda, *-ajīq, -ājik* shaklida uchratish mumkin: *Eldān elni xob bir žūrib kōrājik, Bundan türib endi birgā žōnājik, Qonyīrat elni Bajbōrigā berājik. Xuda dejik, žārātgāñā žilājik, Nar*

kesar almasnī belgā čalājik. Shevada: *Šū išti birgā qilājik* (Shu ishni birga qilaylik). Buyruq maylining II shaxsida ham umumiylik hosil bo'ladi. *Qīmiz bersān meniñ kōñlim tapīlar, Berāvajsan, ajīm, ne bolar?* (*berāvaj~bera qol*). Shevada: *kelāvaj* (kela qol), *barāvaj* (bora qol)

Doston tilida yordamchi so'z turkumlaridan *bilan* ko'makchisining *-man* shakli uchraydi: *Qaražannīñ vaqtīn xušlab türājin, Qizīnman ikkovin birgā qilājīn. Žāpsār žarib Čilbir čōligā qarādī, Bajčibarmān Qaražannī kōrādī.* So'roq yuklamasi *-mi* qo'shimchasining *-ma* shaklda qo'llanilishi ham kuzatiladi. Qipchoq dialekti tipidagi shevalar uchun ham bu variantning qo'llanilishi xos. Dostonida: *Eliññ rāsīmī šūndāj bolama, Mūsafirni kōrsā bajlab ürāmā.* Shevada: *Žigit dijānām šunča:n bolama?* (Yigit degan ham shunday bo'ladimi)

Xulosa shuki, doston tilida, asosan, qipchoq shevalariga xos dialektal unsurlar aks etgan. Jadvalda keltirilgan so'zlarning, deyarli barchasi, shakl va ma'no munosabatiga ko'ra doston tili va qipchoq shevalarida bir xil, aynan qo'llanadi. Ayrim so'zlardagina kichik farqlar kuzatiladi, xolos. Ushbu mushtaraklikning sababi dostonning faqat qipchoq vakillari tomonidan ijro etilishi emas, balki qipchoq lahjasining ham, dostonning ham juda qadimiyligida deb tushunish lozim. Qipchoqlar ham xuddi "Alpomish" dostoni kabi o'zbek xalqi hayotida juda muhim va tarixiy ahamiyatga ega.

Dostonning tilidagi fonetik, grammatik va leksik mushtarakliklar bilan birga undagi turli marosim, urf-odatlar hozirda ham qipchoq tipidagi sheva vakillari hayotida bardavomligi ayni haqiqatdir. Masalan, to'y kuni bo'ladigan "to'qqiz tovoq" marosimi boshqa dialekt vakillarining turmush tarzida uchramasligi ma'lum, ammo bu marosim qipchoq vakillarining barchasi uchun hali ham, to'y marosimining muhim, ajralmas bir qismi sifatida amalda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alpomish. – Toshkent: O'zbekiston, 1992.
2. Doniyorov X. Qipchoq dialektlarining leksikasi. – Toshkent: Fan, 1979.
3. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Navro'z, 2016.175-b.
4. Reshetov V.V., Shoabdurahmonov Sh. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1978.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 tomlik. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat nashriyoti, 2006.

Guzal SHODIYEVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Xorijiy til nazariyasi va amaliyoti kafedrası o'qituvchisi
 E-mail: gozalshodiyeva0@gmail.com

SIYOSIY DISKURSNING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada siyosiy diskursning zamonaviy jamiyatdagi o'rnini, uning asosiy xususiyatlari va funksional jihatlari keng yoritiladi. Siyosiy diskurs hokimiyat, qonunchilik, boshqaruv va ijtimoiy munosabatlarda asosiy kommunikativ vosita sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, uning manipulyatsiya, ideologiya targ'iboti, konfliktlarni aks ettirish, obraz yaratish va auditoriyaga moslashuv kabi jihatlari ilmiy tahlil qilinadi. Maqolada G'arb va Sharq olimlarining qarashlari, xususan, van Dijk, Fairclough, Chilton, Habermas kabi nazariyotchilarning konsepsiyalari hamda o'zbek olimlari tadqiqotlari asosida siyosiy diskursning dolzarb muammolari yoritilgan.

Kalit so'zlar: *siyosiy diskurs, funksional xususiyatlar, nutqiy akt, manipulyatsiya, ideologiya, auditoriya, ritorika.*

Аннотация: в данной статье рассматривается роль политического дискурса в современном обществе, его основные характеристики и функциональные особенности. Политический дискурс определяется как главный коммуникативный инструмент в сфере власти, законодательства, управления и социальных отношений. Особое внимание уделяется вопросам манипуляции, продвижения идеологии, отражения конфликтов, создания образов и адаптации к аудитории. В работе анализируются взгляды западных и восточных исследователей, в частности ван Дейка, Ферклафа, Чилтона, Хабермаса, а также труды узбекских ученых.

Ключевые слова: политический дискурс, функциональные особенности, речевой акт, манипуляция, идеология, аудитория, риторика.

Annotation: this article examines the role of political discourse in modern society, highlighting its main characteristics and functional aspects. Political discourse is considered as the primary communicative tool in power, legislation, governance, and social relations. Furthermore, features such as manipulation, ideological promotion, representation of conflicts, image creation, and audience adaptation are analyzed. The article discusses the concepts of Western and Eastern scholars, particularly van Dijk, Fairclough, Chilton, Habermas, as well as Uzbek researchers, to shed light on the urgent problems of political discourse.

Key words: *political discourse, functional features, speech act, manipulation, ideology, audience, rhetoric.*

KIRISH. Siyosiy diskurs zamonaviy jamiyatning ajralmas qismi bo'lib, hokimiyat, qonunchilik, boshqaruv va ijtimoiy munosabatlar kabi sohalarda muhim rol o'ynaydi. Siyosiy jarayonlarning mohiyatini anglashda nutqning shakllari, maqsadlari va ta'sir ko'rsatish usullari alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois siyosiy diskursni o'rganish siyosatshunoslik, tilshunoslik, sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya kabi ko'plab fanlar kesishgan nuqtada amalga oshiriladi. Siyosiy diskurs keng ma'noda siyosiy munosabatlar va hodisalarning kommunikativ ifodasi bo'lib, u siyosiy aktyorlar tomonidan ijtimoiy va iqtisodiy maqsadlarni amalga oshirish uchun qo'llaniladi.

Siyosiy diskurs zamonaviy jamiyatning ajralmas qismi bo'lib, hokimiyat, qonunchilik, boshqaruv va ijtimoiy munosabatlar kabi sohalarda muhim rol o'ynaydi. Siyosiy jarayonlarning mohiyatini anglashda nutqning shakllari, maqsadlari va ta'sir ko'rsatish usullari alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, siyosiy diskursning tahlili va tavsifi siyosatshunoslik,

tilshunoslik, ijtimoiy psixologiya kabi ko'plab fanlar kesishgan nuqtada turadi.

Siyosiy diskurs keng ma'noda siyosiy munosabatlar va hodisalarning kommunikativ ifodasi bo'lib, u siyosiy aktyorlar tomonidan ijtimoiy va iqtisodiy maqsadlarni amalga oshirish uchun qo'llaniladi. Bu jarayon rasmiy va norasmiy shakllarda bo'lishi mumkin: parlament yig'ilishlari, ommaviy nutqlar, muzokaralar, matbuot anjumanlari, saylov kampaniyalari yoki ijtimoiy tarmoqlar orqali olib boriladigan muloqotlar.

Van Deyk (Teun A. van Dijk) kabi olimlarning fikriga ko'ra, siyosiy diskurs nafaqat nutqiy faoliyat, balki hokimiyat, tengsizlik, nazorat va boshqaruv kabi ijtimoiy munosabatlarni aks ettiruvchi jarayondir. Ushbu diskursda til vositalaridan samarali foydalanish orqali siyosiy g'oyalar va qadriyatlar ommaga yetkaziladi.

Siyosiy diskurs quyidagi asosiy xususiyatlarga ega bo'lib, ular siyosiy kommunikatsiyaning samaradorligini va ijtimoiy ta'sirini belgilaydi:

1. Ma'lumot va hokimiyatning uzatilishi.

Siyosiy diskursning asosiy vazifalaridan biri – siyosiy liderlar va tashkilotlar tomonidan axborotni uzatish orqali hokimiyatni amalga oshirishdir. Bu jarayonda siyosatchilar o'z qarashlari, qarorlari va strategiyalarini ommaga yetkazib, ularga ta'sir o'tkazish imkoniyatini qo'lga kiritadilar. Ushbu nutqlarda hokimiyatning qonuniyligi, fuqarolarning huquq va majburiyatlari ham ko'rsatiladi.

2. Manipulyatsiya va ta'sir ko'rsatish. Siyosiy diskurs ko'pincha manipulyatsiya qilish imkoniyatiga ega. Siyosiy aktyorlar tilning imkoniyatlaridan foydalangan holda jamoatchilik fikrini shakllantiradilar. Masalan, mavhum yoki atayin noto'g'ri talqin qilingan so'zlar, bir tomonlama dalillarni keltirish yoki voqealar mazmunini buzib ko'rsatish orqali ijtimoiy ongga ta'sir ko'rsatilishi mumkin.

3. Rasmiy va norasmiy kontekst. Siyosiy diskurs rasmiy va norasmiy kontekstlarda yuzaga keladi. Parlament majlislari, qonunchilik yig'ilishlari va hukumat anjumanlari kabi joylarda rasmiylik yuqori darajada bo'ladi. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar yoki matbuot orqali berilgan murojaatlar ko'pincha norasmiy ko'rinishda bo'lib, ommaboplik va sodda til uslubi qo'llaniladi.

4. Siyosiy ideologiyalarni ifodalash. Har bir siyosiy diskurs muayyan ideologiyaga asoslanadi. Masalan, demokratik yoki avtoritar boshqaruv shakllarida siyosiy maqsad va qadriyatlar nutqda ifodalanadi. Liberalizm, konservatizm yoki sotsializm kabi siyosiy oqimlar o'ziga xos terminlar va konseptlarni targ'ib qiladi.

5. Konflikt va qarama-qarshilikni aks ettirish. Siyosiy diskurs ko'pincha qarama-qarshiliklarni, raqobatni va ijtimoiy ziddiyatlarni aks ettiradi. Siyosiy partiyalar o'zaro tanqid, bahs va tortishuvlar orqali o'z pozitsiyalarini himoya qilishga va raqiblarni zaiflashtirishga harakat qiladilar. Shu tariqa, jamoatchilik muayyan siyosiy masalalar bo'yicha turli nuqtayi nazarlarni bilib oladi.

6. Til strategiyalari va obrazlar yaratish. Siyosiy diskursda til strategiyalari va obrazlarni yaratish muhim rol o'ynaydi. Siyosiy liderlar ko'pincha o'zlarining g'oyalarini ramzlar, metaforalar va emotsional chaqiriqlar orqali ifodalaydilar. Bu usul ommani ishonitirish va esda qolarli nutq yaratish uchun qo'llaniladi.

7. Auditoriyaga moslashuv. Siyosiy aktyorlar o'z nutqlarini auditoriyaga moslashtiradilar. Turli ijtimoiy guruhlar, yosh va millat vakillari uchun turlicha nutq uslubi va muloqot strategiyalari qo'llanilishi mumkin. Masalan, yoshlarga murojaat

qilishda ko'proq zamonaviy jargon va texnologik mavzular ishlatiladi.

Siyosiy diskursning tahlili qadimdan mavjud.

G'arbning klassik ritorika an'analari turli davrlarda jamoat notiqchilari tilni ishonitirish va ta'sir ko'rsatish vositasi sifatida qanday qo'llanganliklarini tizimlashtirib kelgan. Grek va Rim madaniyatida insonlar o'zlarining gapirish qobiliyati va jamiyatda guruh bo'lib yashash odati orqali boshqa mavjudotlardan ajralib turadigan ijtimoiy mavjudotlar sifatida ko'rilgan.

Ritorikaning asosiy vazifasi esa nutq orqali odamlarni ishonitirish, ularni maqsadga erishishga yo'naltirish va ijtimoiy tartibni mustahkamlash bo'lgan. Shu sababli, qadimdan buyon siyosiy nutq va diskurs jamiyatni boshqarishning muhim vositasi sifatida shakllangan va rivojlangan.

Masalan, *Tsitseron* kabi yozuvchilar uchun nutq kuchini rivojlantirish fuqaroning asosiy burchi hisoblangan. Boshqalar esa bu kuchni aldov va haqiqatni buzishning asosi deb bilganlar. XVIII asr Yevropasida yangi ilmiy tafakkur egalari tilning imkoniyatlariga nisbatan chuqur shubha bilan qaray boshladilar. Natijada, til orqali ishonitirish va ifodalash shakllarini o'rganuvchi ritorika fani o'z mavqeini yo'qota boshladi. Biroq, notiqchilar, siyosatchilar, va'zxonlar hamda savdogarlar o'zining tabiiy ritorik qobiliyatlaridan avvalgidek foydalanishda davom etdilar. Media portlashi tufayli jamoatchilik bilan aloqalar va "spin" (axborotni manipulyatsiya qilish) shaklidagi ritorik amaliyot hozir yanada markaziy rol o'ynamoqda.¹

XX asrning ikkinchi yarmida tilshunoslik katta yutuqlarga erishdi. Bu, asosan, tilning barcha inson ongining ajralmas qismi ekanligini anglash orqali sodir bo'ldi. Chomskiyning ta'siri va u bilan bog'liq bo'lgan generativ til modeli shubhasiz katta ahamiyatga ega edi. Ushbu tadqiqot savollari asosan, ilmiy edi. Bu shuni anglatmaydiki, ushbu an'ana tarafdori bo'lgan tilshunoslar AQSh va Yevropada ichki va tashqi siyosat masalalarida o'z ovozlari ko'tarmaganlar. Biroq, ularning tadqiqot kun tartibida insonning til qobiliyati va uning ijtimoiy tabiati o'rtasidagi bog'liqlikni nazariy jihatdan tushuntirishga yo'naltirilgan maqsad bo'lmagan. Til qobiliyati ko'pincha, sintaksis bilan bog'liq tarzda ko'rilgan va boshqa aqliy qobiliyatlardan ajratilgan holda tasavvur qilingan.

XX asrning ikkinchi yarmida tilshunoslik juda katta rivojlandi. Olimlar tilni inson ongining ajralmas, tug'ma qismi sifatida ko'rib, uni chuqurroq o'rganishga kirishdilar. Ushbu rivojlanishda,

¹ Chilton, Paul A. (Paul Anthony) *Analysing political discourse : theory and practice*//2004. 10-b.

ayniqsa, Noam Chomskiy va uning generativ til modeli katta rol o'ynadi. Chomskiy til qobiliyatini ko'pincha sintaksis, ya'ni gap tuzilishi bilan bog'lab, boshqa aqliy qobiliyatlardan ajratgan holda tahlil qildi. Uning tadqiqotlari ilmiy savollarni o'rganishga yo'naltirilgan bo'lsa-da, bu yo'nalishda faoliyat olib borgan tilshunoslar siyosatga kamdan-kam murojaat qilishgan.

Biroq, boshqa olimlar tilning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi rolini alohida o'rganishni davom ettirdilar. Masalan, Frankfurt maktabi va tanqidiy nazariya tarafdorlari – Benjamin, Adorno, Horkxaymer, Markuze, Habermas, Styuart Xoll va Burdye kabi mashhur olimlar – til, siyosat va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilishda yetakchi bo'ldilar. Ular tilning qanday qilib hokimiyat va ijtimoiy adolat masalalarida muhim rol o'ynashini ko'rsatib berdilar.

Angliyada bu yo'nalishdagi tadqiqotchilar, jumladan, Fowler va Kress kabi tilshunoslar "Tanqidiy tilshunoslik" sohasini rivojlantirdilar. Ularning izidan turli ijtimoiy va siyosiy muammolarga qiziqqan boshqa olimlar, "Tanqidiy Diskurs Tahlili" deb nomlangan tadqiqot maktabini yaratdilar. Bu maktabning asosiy vakillari Mey, Fairclough, van Dijk, Vodak va boshqalar bo'lib, ular tilni ijtimoiy hodisa sifatida ko'rib, uni ijtimoiy adolatsizliklarga qarshi kurash vositasi sifatida qo'lladilar.

Ushbu olimlar irqchilik, tengsizlik va boshqa ijtimoiy muammolarni tahlil qilishda tilning kuchli qurol ekanligini namoyon etdilar. Ular tilni oddiygina gaplashish vositasi sifatida emas, balki hokimiyat, siyosat va ijtimoiy hayotda ta'sir ko'rsatish mexanizmi sifatida ko'rdilar. Shu sababli, ularning maqsadi til

orqali jamiyatdagi turli adolatsizliklarni fosh etish va ularga qarshi kurashish bo'ldi.

Biroq haligacha diskurs tahlilchilarining genotsid, zulm va ekspluatatsiya kabi global muammolarga jiddiy ta'sir ko'rsata olishi noma'lum. Shunga qaramay, ularning ishi insoniyatning ijtimoiy muammolarini chuqurroq tushunishga va ijtimoiy adolat uchun kurashda yangi imkoniyatlar yaratishga xizmat qilmoqda.

Tilshunoslikdagi generativ inqilob til va inson aqli haqida chuqurroq o'ylashga turtki berdi. Bu o'zgarish, ayniqsa, 1980-yillarda yangi yo'nalishga aylanib, boshqa aqliy qobiliyatlar bilan tilning aloqasini o'rganishga yo'naltirilgan edi. Shimoliy Amerika va Yevropadagi olimlar (*Fillmore, Langacker, Lakoff, Turner va boshqalar*) bu borada yetakchi bo'lib, tilni makon, idrok va boshqa tushunchalar bilan bog'liq holda o'rgandilar. Ayniqsa, kognitiv tilshunoslik tushunchaviy metafora va aralashma kabi nazariyalarni rivojlantirib, ijodkorlik va tafakkurning qanday ishlashini tushuntirib berdi.

Xulosa. Siyosiy diskurs jamiyatda nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy-siyosiy, mafkuraviy va kognitiv vazifalarni bajaruvchi murakkab hodisadir. U hokimiyatni legitimlashtirish, jamoatchilik fikrini shakllantirish, qadriyatlarni targ'ib qilish, ijtimoiy nazoratni ta'minlash kabi asosiy funksiyalarga ega. Diskursning samaradorligi esa uning strategik tashkil etilishi, auditoriyaga moslashtirilishi va ritorik vositalardan oqilona foydalanishga bevosita bog'liq. Shunday qilib, siyosiy diskursni o'rganish nafaqat lingvistik nazariya, balki ijtimoiy hayotni chuqur anglash uchun ham muhim ilmiy-amaliy yo'nalishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Chilton, P. (2004). *Analysing Political Discourse: Theory and Practice*. – London: Routledge.
2. Fairclough, N. (1992). *Discourse and Social Change*. – Cambridge: Polity Press.
3. Fairclough, N. (1995). *Critical Discourse Analysis: The Critical Study of Language*. – London: Longman.
4. Makarov, M. L. (2003). *Osnovy teorii diskursa*. – Moskva: Gnozis.
5. van Dijk, T. A. (1997). *Discourse Studies: A Multidisciplinary Introduction*. – London: Sage.
6. van Dijk, T. A. (2006). *Politics, Ideology and Discourse*. Elsevier.
7. Isoqova, F. Sh. qizi. (2023). Siyosiy diskursning o'ziga xosliklari (Ingliz va o'zbek tili misolida). *Kelajak Bunyodkori*, 3(1), 45–52.
8. Rasulov, Z. (2022). Nutqiy tuzilmalar: axborot-diskursiv turlar. *BuxDU Ilmiy axborotlari*, 5(2), 67–72.
9. Mansurova, X. A. qizi. (2021). Zamonaviy tilshunoslikda diskurs tadqiqotlari va yondashuvlari. *Interscience*.

Orzigul FAYZULLAYEVA,
Navoiy davlat universiteti
orzigulfayzullayeva0@gmail.com



OKSIMORON – POETIK INDIVIDUALLIKNI TA'MINLOVCHI VOSITA SIFATIDA (Nodira Nazar ijodi misolida)

Annotatsiya: ushbu maqolada badiiy matnda uchraydigan oksimoron hodisasi va uning ilmiy adabiyotlardagi tahlili hamda badiiy matnda, xususan, o'zbek adabiyotining yosh vakilasidan sanalgan Nodira Nazar ijodi misolida tahlil qilingan. Oksimoron hodisasining antitezadan farqi haqida fikr yuritilgan. O'zbek tilshunosligida oksimoron mavzusida qilingan ilmiy tadqiqotlar o'rganilib, badiiy matndan olingan misollar orqali dalillangan.

Kalit so'zlar: *oksimoron, antiteza, semantika, leksema, stilistika, lingvopoetika, antonim.*

Аннотация: в данной статье анализируется феномен оксюморона в художественном тексте и его исследование в научной литературе, а также применение в художественном тексте, в частности, на примере произведений Нодиры Назар, молодой представительницы узбекской литературы. Обсуждаются различия между явлениями оксюморона и антитезы. Научные исследования темы оксюморона в узбекской лингвистике изучены и проиллюстрированы примерами из художественного текста.

Ключевые слова: *оксюморон, антитеза, семантика, лексема, стилистика, лингвопоэтика, антоним.*

Annotation: this article analyzes the phenomenon of oxymoron in a literary text and its analysis in scientific literature, as well as in a literary text, in particular, on the example of the work of Nodira Nazar, a young representative of Uzbek literature. The difference between the phenomenon of oxymoron and antithesis is discussed. Scientific research on the topic of oxymoron in Uzbek linguistics is studied and substantiated by examples taken from a literary text.

Key words: *oxymoron, antithesis, semantics, lexeme, stylistics, linguopoetics, antonym.*

Adabiyot ilmida oksimoron hodisasi mavjud bo'lib, biri ikkinchisini inkor etadigan, bir-biriga mantiqan zid bo'lgan ikki tushunchani ifodalovchi so'zlar o'zaro qo'shib qo'llaniladi [6;57]. Oksimoron grekcha so'z bo'lib, "o'tkir, lekin bema'ni" degan ma'noni bildiradi. Ayrim adabiyotlarda "okkazonal birikmalar", "noodatiy birikmalar" yoki "g'ayriodatiy birikmalar" deb ham yuritiladi [1;38,47]. Bunday birikmalar individualligi, yangiligi orqali tasvirning ekspressivligini kuchaytiradi. Masalan: Qayg'uli shodlik, sokin hayqiriq, jimjit chinqiriq, oppoq tun kabi birikmalar oksimorongga misol bo'la oladi.

"Badiiy nutqda so'zlarning o'zaro bog'lanish qonuniyatlari adabiy tildagiga qaraganda birmuncha chekinadi. So'zlarning o'zaro qo'shilish chegaralari kengayadi. Chunki badiiy nutqda so'zlarni ko'chma ma'noda qo'llash tendensiyalari juda kuchli. So'zlarni ko'chma ma'noda qo'llaganda esa ularning bog'lanishidagi kechinishlar deyarli yo'qoladi. Masalan, qora kuch, ohang oqmoqda, totli yil va shu kabi birikmalardagi so'zlar aynan o'z ma'nosida tushunilsa, bu birikmalar mutlaqo bemantiq bo'lib tuyuladi. Ammo ular badiiy nuqtai nazaridan juda mantiqli va obrazlidir. Shuning

uchun badiiy asar tilini obyektiv borliq hodisalari bilan konkret mutanosibligi nutqayi nazaridan baholash asossiz va noto'g'ridir" [1;39].

"Oksimoron antitezaning bir ko'rinishi hisoblanadi va bir-biriga tamoman zid bo'lgan so'zlar birlashtirilib, yangi bir ma'no keltirib chiqariladi" [3;42]. Oksimoron va antitezaning farqi shundaki, antitezada qarama-qarshi tushunchalar birgalikda qo'llanmaydi. A.Hojiyevning "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati"da oksimoronga quyidagicha ta'rif bergan: "Oksimoron (yun. oxymoron- farosat bilan, lekin bema'ni) mantiqan biri ikkinchisini inkor etadigan, bir-biriga qarama - qarshi bo'lgan ikki tushunchani (ma'nosi bir-biriga zid bo'lgan ikki so'zni) o'zaro qo'shishdan iborat uslubiy figura; badiiy adabiyotda ifodalilik, obrazlilik kabi maqsadlarda keng qo'llanadi" [2;74].

O'zbek tilshunosligida oksimoronning badiiy matnda tutgan o'rni yuzasidan ayrim tadqiqot ishlari ham amalga oshirilgan. Xususan, D.Zayniddinovaning "Rus va o'zbek tillarida g'ayriodatiy birikmalar" mavzusidagi dissertatsiyasida rus va o'zbek tillaridagi badiiy vositalar tahlil qilingan. Bundan tashqari, S.Umirova tomonidan "O'zbek she'riyatida lingvistik vositalar va poetik individuallik (Usmon Azim she'riyati misolida)" nomli dissertatsiyada ham oksimoron haqida batafsil to'xtalib o'tilgan. Dissertatsiyada Usmon Azim ijodida eng ko'p uchraydigan olov hamda muz ziddiyatiga alohida to'xtalgan [5;103].

Iliq bahorlarning rangi sarg'aydi,

Ko'ngilga tutashdi osmon-u falak.

Sen bor lahzalardan ketgim kelmaydi-

Halakman, halak.

Bilamizki, bahor yoshlik, yasharish, yaxshilik, go'zallik fasli. Bahorga har doim qarama-qarshi yonda kuz fasli turadi. Kuz umr yakuniga qiyoslanadi. Kuzda barglar sarg'ayib, xazonga aylanadi. Xuddiki, bahordan kuzgacha bir umr kabi. Bahorda tug'ilgan barglar kuzda jon taslim qiladi. Ammo biz tahlilga olgan misralarda bahor ranglarining sarg'ayishi zimdan ayriliq, firoq ma'nosini anglatmoqda.

Bahorga begona bo'lib tuyg'ular,

Yomg'irlar ostida yig'laydi kulgu...

Tarjima qilolmay qalbini hayot,

Qo'l siltab qo'yadi notavon do'stga.

Odatiy antitezaga qaraganda oksimoron kuchli ta'sir kuchiga ega. Shu sababli ham oksimoronni badiiy matnga olib kirish oson ish emas, chunki yuqoridagi ma'lumotlarda qayd etganimiz kabi oksimoron bema'ni, ammo farosat bilan qo'llanishni talab etadi. Aytishimiz mumkinki, bunday uslubiy figuralar badiiy matn qiymatini yanada ko'taradi. Yomg'irlar ostida kulguning qolishi hamda shu yomg'irga qo'shilib kulgu ham yig'lashi noodatiy ajoyib o'xshatishni vujudga keltirgan.

Yolg'onday bu dunyo borligi,

Misli zulmat bilmaganday chek.

Malol kelar kenglik torligi,

Har bir lahza qo'rqinchli tushdek.

Ushbu misralarda fikr qaratilgan obyekt bu – dunyo. Dunyo biz yashab turgan makon. Makonda makonsiz qolish oksimoronning ajoyib ifodasi bo'lgan. She'rda insonning mavjudlik oldida o'zligi, tashqi kenglik ichida ichki torligi, borliqning yolg'onligi, vaqtning (lahzaning) dahshatli sur'ati singari falsafiy fikrlar mujassam. Bu jihatdan u ekzistensializm g'oyalarini o'zida mujassam etadi.

Bitsin umrim,

Bitsin ko'nglim-

Sensiz har ne bo'layotgan...

Xudo dedim, dunyo dedim seni istab,

Hech bermadi...

Men yashadim-

Tirik-o'lgan. [4;55]

She'rda "tirik o'lgan" iborasi oksimoron sifatida ishlatilgan bo'lib, bu orqali insonning jismoniy jihatdan tirik bo'lsa-da, ruhiy tomondan o'zligi go'yoki o'likka ishora qiladi. Bu orqali shoira hayotga bo'lgan qiziqishning yo'qligi ifodasini kuchaytirib tasvirlagan. Oksimoronlar insonning ichki iztiroblarini, ruhiy tushkunlik holatini chuqur ifodalash imkoniyatiga egaligi bilan boshqa tasvir vositalaridan ustun turadi.

Seni yo'qotdimmi?

Yo'q, yo'q "Ha" dema!!!

Itimos rost alda,

Alda rostakam. [4;68]

She'rda ishlatilgan "yo'q" , "ha" , "alda", "rost" leksemalari asosiy ma'no yukini olgan

so'zlardir. "Yo'q" va "Ha" o'rtasidagi ziddiyatli qarama-qarshilik shoirning ichki qarorini yo'qotganligining ifodasidir. Lirik qahramon sevgan insonini yo'qotganini sezsa-da, bu haqiqatni qabul qilishni istamaydi. "Rost alda" iborasi esa bir-biriga nisbatan semantik qarama-qarshi mazmunga ega. Lirik qahramon rost haqiqatdan ko'ra, og'riqsiz yolg'onni tanlaydi. Buni esa insonning psixologik himoya mexanizmi deyishimiz mumkin.

Ona, yuragimni tuqqansiz qanday?

Makonsiz dunyomda ulg'aydim, yo Rab,

Azonda uyquga yengilgan tanday!

Endi- chi, kechikkan umr izmida

Og'ir pushmonlarga cho'kyapman bir-bir.

Nodira chindan ham qizingizmidi?

Yo'q!

Sukut – shovqinlarning eng buyuk dodi!

Jimman... [4;70]

Shoira ushbu misralarda inson qalbidagi og'riq, afsus, yolg'izlik va sukut orqali ifodalangan chuqur ichki holatni tasvirlaydi. Lirik qahramon hayotda o'z o'rnini topolmagan, makonsiz, ma'nosiz borliqda ulg'aygani aytilmoqda. Ona bilan bog'liq achchiq savollar, o'tmishdagi

pushaymonlik, tavba ohangidagi yolvorish va nihoyat, sukunatga cho'kkan shovqin she'rning g'oyaviy markazida turgan.

Ko'chaga chiqasan-

Yana o'sha Kuz...

Yomg'ir kula boshlar ustingdan nogoh.

[4;72]

Bu she'r tabiat manzarasi vositasida ichki ruhiy holatni badiiy ifodalashga xizmat qiladi. Kuz – xotira, yolg'izlik, yo'qotish; yomg'ir – ko'z yoshi, sovuqlik ramzidir. Yoshli ko'z bilan kulish ifodasi esa oksimoronning ajoyib ifodasi bo'lib xizmat qilgan.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, badiiy asarda oksimoron bu semantik ziddiyatga asoslangan badiiy san'at vositasi bo'lib, ikki qarama-qarshi tushunchaning birikuvidan hosil bo'ladi. Ushbu hodisa obrazli tafakkurning mahsuli sifatida matnga emotsional chuqurlik, falsafiylik, inson ruhiyatining murakkabligini ifodalashga xizmat qiladi. Shu bois ushbu hodisa zamonaviy adabiyotda ham, klassik she'riyatda ham o'quvchining fikrlash doirasini kengaytirishga xizmat qiluvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonov X., Mahmudov N. So'z estetikasi. – Toshkent: Fan, 1981.
2. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent, 2002.
3. Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.
4. Nazar N. Had. – Toshkent: Akademnashr, 2022.
5. Umirova S. O'zbek she'riyatida lingvistik vositalar va poetik individuallik: Filol. fanlari d-ri... diss. – Samarqand, 2010.
6. Yo'ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. – Toshkent, 2010.



Shahnoza MAJIDOVA,
 Termiz davlat pedagogika instituti,
 F.f.f.d (PhD) katta o'qituvchi
 majidovashahnoza59@gmail.com

OYKONIMLARDAGI RANG BILDIRUVCHI SO'ZLAR (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)

Annotatsiya: maqolada sifatlar, ayniqsa, rang-tus ifodalaydigan birliklar kamdan-kam holatlarda o'z asl denotativ ma'nosida uchrashi, Surxondaryo viloyati hududidagi oq va qora komponentli toponimlarning katta qismida rang ma'nosi bilan aloqador bo'lmagan ma'nolar ifodalanganligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: *nom, atoqli ot, joy nomi, geografik obyekt, etnonim, etnotoponim, etimologiya, rang, belgi, urug', qavm, qabila, qishloq, aholi punkti.*

Аннотация: в статье рассматривается тот факт, что прилагательные, особенно единицы, выражающие цвет, редко встречаются в своём первоначальном денотативном значении, а также то, что большинство топонимов с белым и чёрным компонентами в Сурхандарьинской области выражают значения, не связанные со значением цвета.

Ключевые слова: *имя, имя собственное, топоним, географический объект, этноним, этнотопоним, этимология, цвет, признак, род, народ, племя, село, поселение.*

Annotation: the article discusses the fact that adjectives, especially units expressing color, rarely occur in their original denotative meaning, and that the majority of toponyms with white and black components in the Surkhandarya region express meanings unrelated to the meaning of color.

Key words: *name, proper noun, place name, geographical object, ethnonym, ethnotoponym, etymology, color, sign, clan, people, tribe, village, settlement.*

Surxondaryo viloyati toponimiyasida geografik nomlar tarkibida ot, fe'l, sifat kabi so'z turkumlariga oid birliklar faol qo'llansa, ravish, olmosh, son kabi turkumlarga mansub so'zlar kam qo'llanadi. Ushbu qismda toponimlar tarkibida qo'llanadigan oq, qora, qizil, sariq, ko'k kabi lug'aviy birliklar, ularning semantikasi, etimologiyasi xususida fikr yuritamiz. Mazkur birliklar toponim tarkibida ham rang bildirishga xizmat qiladimi, degan savolga javob berishga harakat qilamiz. Oq so'zi ishtirokidagi toponimlar. Oq so'zi izohli lug'atda o'n bir ma'noda qo'llanishi ko'rsatilgan: 1) qor, sut, paxta rangidagi (oq doka, oq qog'oz, oq non); 2) oq tusga moyil, tiniq (oq badan, oq tanli); 3) oqlik (sut-qatiq ma'nosida); 4) aroq (so'zlashuv tilida); 5) chor Rossiyasi podshosiga tegishli; uning tarafdori; 6) oxirgi, toza (oqqa ko'chirmoq); 7) gunohsiz, sha'niga dog' tushmagan kishi; to'g'ri, haqiqat; 8) oqargan tuk (sochning oqi); 9) ko'zning qorachiqni o'ragan tiniq rangli, shaffof qismi; 10) ba'zi kasalliklar natijasida ko'z qorachig'ida paydo bo'ladigan oqish dog',

parda; 11) tuxumning oqsil moddasi¹. Ko'rinadiki, ushbu so'z tabiatdagi rang, shaxs, predmet va hodisa bilan bog'liq ma'nolarda qo'llanadi. Shuningdek, oq so'zi toponimlar tarkibida ham tez-tez ko'zga tashlanadi. Ko'plab toponimlar tarkibidagi oq so'zi rang ma'nosiga egami? Yoki boshqa ma'nolarda ham qo'llanadimi? Ushbu savollarga quyidagi tahlillar orqali javob beramiz. Surxondaryo viloyati toponimiyasida oq so'zi ishtirokidagi bir qancha joy nomlari mavjud: Oqjar (Boysun t. Boshrobot mah.), Oqmasjid (Boysun t. Temirdarvoza mah.), Oqsaroy (Denov t. Yangiobod mah.), Oqtapa (Jarqo'rg'on t. Oqtapa mah.), Oqtom (Qumqo'rg'on t. Oqtom mah.), Oqbilol (Uzun t. Tomchi mah.), Oqqo'rg'on (Sho'rchi t. Oqqo'rg'on mah.).

Oqmasjid. Boysun tumanidagi aholi yashash punkti. Ushbu toponim mahalliy aholi tilida Oqmachit deb yuritiladi. Toponim hududdagi

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А.Мадвалиев таҳрири остида. 5 жилдлик. 3-жилд. –Т.: “Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. –Т., 2006. 175-176-б.

masjid nomidan shakllangan. Tarkibi: oq+masjid. T.Nafasovning qayd etishicha, bino, imoratlarga nisbatan oq so'zi rang ma'nosini bildirmaydi. Davlat (xonlik, beklik, to'ralik) tomonidan qurilgan masjid, saroy, qo'rg'on, rabotlar nomiga oq so'zi qo'shilganda davlat, hukumat, hokimiyat, katta, ulkan, buyuk; hashamatli, salobatli ma'nolarini anglatgan. Buxoroda 16-19-asrlarda xonlik farmoyishi, ruxsati yoki hashar yo'li bilan qurilgan machitlar oqmachit – Oqmachit atalgan. Oq so'zi xonlikka qarashli ekanligiga, hajm jihatdan katta ekanligiga ishora². Demak, Oqmachit toponimidagi oq komponenti hajm ma'nosida reallashgan. Bu qurilgan inshootning ulkanligi yoki keng maydonni egallaganini ko'rsatishi ham mumkin. Mo'g'ullar davlatining markazi sanalgan Oq O'rda Oltin O'rdaning bir qismi bo'lib, Jo'jixonning o'g'li O'rdaxon nomi bilan bog'liq. Ehtimol, Oq O'rda uchun ham rang bilan bog'liq bo'lmagan ma'no asos bo'lgandir. Oq masjid atamasi bilan O'zbekistondagi ikkita me'moriy yodgorlik nomlangan³ deya sharh berilgan.

Qora so'zi ishtirokidagi toponimlar. Tilimizda ko'p qo'llanadigan qora so'zining o'ndan ortiq ma'noda ishlatilishi "O'zbek tilining izohli lug'ati"⁴da qayd etilgan. Lekin aytish lozimki, toponimlar tarkibida qo'llanilgan qora so'zining ma'nosi lug'atda berilmagan. Xo'sh, biz qora so'zining toponimiyada qanday ma'nolarda kelganligini kuzatamiz? Ushbu so'z toponimlarda tekislikdagi kichik balandlik, do'ng joy, kichik tepa, ko'p, zich, qalin (bog', daraxt so'zlari bilan bog'langanda), ko'p miqdordagi suv (qorabuloq), yuksak, katta (qorako'l) va boshqa ma'nolarni ifodalaydi. Demak, aytish lozimki, lug'atda bayon etilgan izohlar vositasida qora komponentli toponimlarni sharhlash imkonsiz. Shunisi muhimki, qora komponentli toponimlarning aksariyati o'z qatlamga mansub. Bu holatni, bizningcha, qora so'zining turkiy tillarga mansubligi bilan izohlash mumkin. Qora so'zi toponimiyaning turli sohalarida uchraydi. Bular sirasiga Qoraxon -2 (Termiz t. Qoraxon mah.), Qorabog' (Angor

t. Qorabog' mah.), Qoraqir (Angor t. Qoraqir mah.), Qorasuv (Angor t. Gulzor, Qorasuv mah.), Qoralang (Denov t. Surxon mah.), Qoraxon (Denov t. Qoraxon mah.), To'pqora (Jarqo'rg'on t. Dehqonobod, Guliston mah.), Qoratog' (Uzun t. Kichik Joncheka mah.) va b.

Qorabog'. Ushbu toponim ikki qismdan iborat (qora+bog'). Xalq tilida sharhlanishiga ko'ra, qora so'zi bog', daraxt so'zlari bilan qo'llanganda ko'p, zich, qalin kabi ma'nolarni ifodalaydi hamda qorabog' – "ko'p daraxti bo'lgan", "daraxtlar zich joylashgan makon" kabi ma'nolarni yuzaga keltiradi. Qorabog' toponimi haqida fikr yuritgan A.Geybullayev Ozarbayjondagi Garabag/ Garabax nomi pecheneglarining garabag etnonimidan ekanligini asoslab bergan⁵. Demak, Qorabog' toponimini etnonim asosida shakllangan deb aytish mumkin. Ma'lumki, etnonimiyada qora so'zi alohida e'tiborga loyiq sanaladi. Chunki ko'pgina etnonimlar tarkibida qora so'zi uchraydi. Chunonchi, qora, qoraabdal, qorabag'anali, qorabuvra, qorabo'riq, qoralar, qoramang'it, qoranyaman, qorasiyroq, qoraxoni, qoracha, qora chivar, qoraqalpoq, qoraqursoq, qoraqo'yli, qoraqo'ng'iroq, qorag'osmoq, qorag'ursak⁶. Surxondaryo toponimiyasidagi qora komponentli nomlarning aksariyati etnonimlar asosida shakllanganligini inobatga olib, biz quyida ana shu toponimlarning ayrimlariga alohida to'xtalamiz.

Qoraxon. Manbalarda qayd etilishicha, Ko'lobda yashovchi arablarning sholbof urug'iga qarashli tarmoq nomi – qoraxoni deb atalgan⁷. Shuningdek, oqqipchoqlarning jag'altoy urug'iga qarashli tarmoqlardan birining nomi ham qoraxon deb yuritilgan. Shu sababli aytish mumkinki, qoraxon/qoraxoni etnonim sanaladi.

Qoralang. Mahalliy xalq tilida Qarolang deb yuritiladi. Yuqorida turkiy mo'g'ul tillaridagi qora/ qara – tepa, balandlik, tiklik ko'lami kichikroq bo'lgan do'nglik kabi ma'nolarda qo'llanishini qayd etgan edik. Balki tepa borligi uchun Qoralang/Qaralang deb nomlangan bo'lishi mumkin.

2 Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. Қашқадарё вилояти қишлоқлари номининг тадқиқи. –Т.: Мухаррир. 2009. 197-б.

3 Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 12 томлик. 6-том. –Т., 2003. 615-б.

4 Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдди. 5-жилд. –Т.: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2008. – 335-337-б.

5 Гейбуллаев Г.А. Топонимия Азербайджана. –Баку, 1986. С. 145.

6 Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. –Т.: Наврўз, 2017. 101-103-б.

7 Овезов Ж. К истории племени мурчали// Труды ЮТАКЭ, т.5. – Ашхабад, 1955. С.113.

Sariqamish Boysun tumani Dashtig'oz mahallasidagi aholi yashash manzili bo'lib, sariq – rang, qamish – o'simlik. Turkiy tilda sari (sariq) ma'nosida bo'lib, sovetlar tomonidan suv quyilishidan oldingi qurigan havzadagi loy va tuzning sariq rangiga ishora qilib nomlangan.

Ko'ktosh Sherobod tumani Bog'io'bod mahallasidagi aholi yashash manzili. Ko'k – rang, tosh – narsa. Hududda toshlarning rangiga nisbat etib shunday nomlangan.

Surxondaryo toponimiyasida qizil so'zi bilan bir qancha nomlarni uchratishimiz mumkin: Qizilgul (Sherobod t. Hakimobod mah.), Qizilolma (Sherobod t. Bog'io'bod mah.), Qizilolma (Sherobod t. Qizilolma mah.), Qizilqaloq (Bandixon t. Polvontosh mah.), Qiziljar (Boysun t. Sayrob mah.), Qizilnavr (Boysun t. Qizilnavr mah.), Qizildehqon (Denov t. Navbahor mah.), Qizilgul (Denov t. Qizilgul mah.), Qiziltepa (Oltinsoy t. Gulchechak mah.) va b.

Qizilnavr. Qizil – rang, navr – toshloq joy. Hudud qizil rangli toshlar ko'proq joy bo'lganligi uchun shunday nomlangan.

Rangni bildiruvchi so'zlar tarkibiga ola so'zini ham kiritish mumkin. Muzrabot tumanida Olachopon mahallasi bor. Bu nomning kelib chiqishi quyidagicha: Ikki morfemadan iborat: ola + chopon (< chobon). Chopon – avra bilan astar orasiga paxta solinib qavilgan, issiq ustki kiyim. O'zbek tiliga arab tilidan o'zlashgan.

Muqanna g'oyalarining targ'ibotchilari, u boshliq xalq kurashi ishtirokchilari oq kiyim va oq tug' (bayroq)li bo'lganligi ma'lum. Harbiy kiyimning bir xil rangda bo'lishi strategik-siyosiy ahamiyatga ega. Oqto'nli, oqtug'li, olachoponli, oqchoponli so'zlarining yaralishi harbiy-siyosiy turmush bilan bog'liq. Olachopon – harbiylar kiyimi, kishilar guruhiga laqab bo'lib qolgan. Jalolrlarning olachopon degan urug'i ham bo'lgan⁸. Etnonim gidronimga ko'chgan. *Toqchibuloq* Boysun tumani Panjob qishlog'idagi buloq. Toqchi urug'iga mansub kishilar buloq yaqinida yashashgan va shu buloq suvidan foydalanishganligiga ko'ra shunday nomlangan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, toponimlar tarkibidagi turli so'zlar doim ham o'z asl ma'nosida qo'llanavermaydi. Sifatlar, ayniqsa, rang-tus ifodalaydigan birliklar kamdan-kam holatlarda o'z asl denotativ ma'nosida uchraydi. Buxoro viloyati hududidagi oq va qora komponentli toponimlarning katta qismida rang ma'nosi bilan aloqador bo'lmagan ma'nolar ifodalangan. Rang-tus ma'noli so'zlar, ayniqsa, etnonimlar asosida shakllangan toponimlarda umuman qo'llanilmagan. Etnonimlar tarkibida qadimda rang ma'nosi ifodalangan bo'lsa-da, ular tayyor holda toponimga o'tganligi uchun morfemalarga ajratilmaydi.

⁸ Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1988. 141-б.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nafasov T. O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1988. 141-b.
2. Qorayev S. Geografik nomlar ma'nosi. – T.: O'zbekiston, 1978. 193-b.
3. Do'simov Z., Tillayeva M. Toponimika asoslari. – T., 2002. 82-b.
4. Nafasov T. Qashqadaryo qishloqnomasi. Qashqadaryo viloyati qishloqlari nomining tadqiqi. – T.: Muharrir. 2009. 197-b.

Nigora JO'RANAZAROVA,
Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi;
Najibullo SAYFULLAYEV,
Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

FRAZELOGIZMLARNING BOLALAR ADABIYOTIDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya: ushbu maqolada bolalar adabiyotida iboralarning asosiy, o'ziga xos jihatlari haqida misollar asosida tushuntirib berildi. Bolalar adabiyotida iboralarning ahamiyatli jihatlari misollar asosida tushuntirib berildi. Bolalar adabiyotida iboralarning asosiy xususiyatlari – bu ularning sodda, tushunarli, obrazli, tarbiyaviy va milliy bo'lishidadir. Iboralar nafaqat matnga badiiylilik bag'ishlaydi, balki bolaning til o'zlashtirishiga, estetik didining shakllanishiga, axloqiy qarashlarining rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *ibora, obrazlilik, badiiy ifoda, milliylik va folklor, axloqiy, tarbiyaviy.*

Аннотация: в данной статье на примерах рассматриваются основные особенности идиом в детской литературе. Главные особенности идиом в детской литературе заключаются в их простоте, понятности, образности, воспитательности и национальном колорите. Идиомы не только придают тексту художественность, но и оказывают большое влияние на усвоение языка ребенком, формирование эстетического вкуса и развитие нравственных воззрений.

Ключевые слова: *идиома, образность, художественная выразительность, народность и фольклор, мораль, воспитание.*

Annotaton: this article explains the main, specific aspects of idioms in children's literature using examples. The main features of idioms in children's literature are that they are simple, understandable, figurative, educational and national. Idioms not only give the text artistic quality, but also have a great impact on the child's language acquisition, the formation of aesthetic taste, and the development of moral views.

Key words: *idiom, figurativeness, artistic expression, Nationality and folklor, moral, educational.*

Bolalar adabiyoti shakl va mazmun jihatdan rang-barangdir. Mustaqillikdan keyingi yillarda adabiyotning boshqa sohaları bilan bir qatorda bolalar adabiyotida ham yangilanish bo'ldi. Bolalar adabiyoti — yosh avlodning ma'naviy-ma'rifiy, estetik hamda axloqiy tarbiyasida muhim o'rin tutuvchi adabiy janrdir. Ushbu adabiyotning mazmuni, tili, uslubi va badiiy vositalari bolalar dunyoqarashiga mos holda yaratiladi. Ayniqsa, bolalar adabiyotida qo'llaniladigan **iboralarning** (frazelogizmlar, so'z birikmalari, iboraviy ifodalar) o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ular bolalar tafakkuriga moslashtirilgan, o'qilishi oson, obrazli va hayotiy bo'lishi lozim.

1. Tushunarli va sodda iboralar. Bolalar adabiyotida iboralar, asosan, **sodda va tushunarli** bo'lishi kerak. Bolaning til imkoniyatlari va dunyoqarashi hali shakllanish bosqichida bo'lganligi sababli murakkab, ko'p qatlamli frazeologizmlar o'rniga hayotiy, tez anglashiladigan iboralar tanlanadi. *Misol: "ko'z tegmasin", "yuragi orqaga tortdi", "tili kalimaga kelmadi" kabi iboralar bolaning his-tuyg'ularini ifodalashda ishlatiladi.*

2. Obrazlilik va badiiy ifoda. Iboralar yordamida bolalar adabiyotida obrazlilik kuchaytiriladi. Ayniqsa, qahramonlarning holati, his-tuyg'ulari, harakatlari iboralarda obrazli tarzda ifodalanadi. Bu esa bolalarning tasavvurini kengaytiradi va adabiyotga

qiziqishini oshiradi. *Misol: "og'zi qulog'ida", "ko'zlari chaqnadi", "tili kalimaga kelmadi" kabi iboralar obrazli va jonli ifodadir.*

3. Tarbiyaviy yo'nalishdagi iboralar. Bolalar uchun yozilgan asarlarda iboralar ko'pincha **axloqiy, tarbiyaviy** mazmunga ega bo'ladi. Ularda mehr-oqibat, halollik, mehnatsevarlik, rostgo'ylik kabi qadriyatlar ifoda etiladi. *Masalan: "yolg'onning yuzi qora", "halol bo'l – halol topasan" kabi iboralar yosh kitobxonda ijobiy fazilatlarni shakllantiradi.*

5. Milliylik va folklor unsurlari. Bolalar adabiyotidagi iboralar ko'pincha **milliy ruhda**, xalq maqollari, topishmoqlari, ertaklari va dostonlaridagi ifodalar asosida shakllantiriladi. Bu esa bolaning milliy ongini, tilga muhabbatini shakllantirishga xizmat qiladi. *Masalan: "Sabr qil – sariq oltin", "Mehnat qil – meva yey" kabi iboralar xalq donishmandligidan olingan.*

Bolalar adabiyotida iboralarning asosiy xususiyatlari – bu ularning sodda, tushunarli, obrazli, tarbiyaviy va milliy bo'lishidadir. Iboralar nafaqat matnga badiiylilik bag'ishlaydi, balki bolaning til o'zlashtirishiga, estetik didining shakllanishiga, axloqiy qarashlarining rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Shu bois yozuvchi yoki shoir bolalar uchun asar yaratishda iboralarni ehtiyohtkorlik bilan, bolaning yoshi va tafakkuriga mos ravishda tanlashi lozim.

Bolalar adabiyoti lingvopoetikasiga oid tadqiqotlar (Z.Ibrohimova, N.J.Yarashova, D.A.Sobirova, Z.Sh. Ashurova) amalga oshirilgan¹.

Bolalar adabiyoti — o'ziga xos maqsad, uslub, til va mazmunga ega bo'lgan adabiy yo'nalishdir. U bolaning yoshiga, psixologik rivojlanishiga, estetik didiga va aqliy imkoniyatlariga mos tarzda yaratiladi. Bunday adabiyotda ishlatiladigan **til vositalari**, ayniqsa **iboralar**, nafaqat matnni badiiylashtirish, balki bolaning til o'zlashtirishi, his-tuyg'ulari, axloqiy qarashlarini shakllantirishda ham katta ahamiyatga ega.

Bolalar uchun mo'ljallangan badiiy asarlarda iboralar ko'p hollarda xalq og'zaki ijodiga tayanadi, ular o'zida ma'naviy-axloqiy g'oyalarni mujassam etadi, o'quvchining e'tiborini tortadi va obrazli fikrlashga o'rgatadi. Quyida bolalar adabiyotidagi iboralarining asosiy xususiyatlarini kengroq ko'rib chiqamiz.

Bolalar tili kattalarnikiga nisbatan soddaroq va cheklanganroq bo'ladi. Shu sababli bolalar adabiyotida ishlatiladigan iboralar **tushunarli, oddiy tuzilgan, aniq semantik mazmunga ega** bo'lishi kerak. Murakkab frazeologizmlar yoki ko'p ma'noli iboralardan ko'ra, bolaning dunyoqarashiga mos, amaliy hayotga yaqin iboralar tanlanadi.

Misollar:

- “Ko'ngli cho'kdi” — qayg'urdi;
- “Ko'zlari yiltilladi” — quvondi, hayajonlandi;
- “Qo'rqinchli tush ko'rdi” — ruhiy holatini ifodalaydi.

Bunday iboralar bolaning til imkoniyatlarini kengaytiradi, so'z boyligini oshiradi va badiiy nutqni o'zlashtirishga yordam beradi.

“Sariq devning o'limi” asarida **frazeologik** birikmalarning qo'llanilishiga misollar²: 1. Kerak bo'lsa, men **qo'ydek yuvosh** bo'laman, kerak bo'lsa, tulkidek ayyor bo'laman, sharoit taqozo qilsa, sherdek hamla qilaman... Oralarida bittasi sal **oq ko'ngil**roq... o'shandan ish chiqishi mumkin. (61-bet)

Qo'ydek yuvosh iborasi bo'sh, bo'shang, rahmdil ma'nolarini berayapti. Bu ibora “qo'y og'zidan cho'p olmagan bola” iborasiga sinonim bo'la oladi.

¹ N.Yarashova. Bolalar adabiyoti tilining lingvokognitiv, lingvopsixologik tadqiqi. Filologiya fanlari doktori (DSc) dis....avtoref. – Samarqand, 2023. 85-b.

² Xudoyberdi To'xtaboyev. Sariq devning o'limi. «Yangi asr avlodi», 2017-yil.

Oq ko'ngil – halol, pok, toza qalbli ma'nolarini beryapti.

2. — Uch oy yoningda saqlaysan-u, qanaqa pullar ekanligini bilmaysanmi? O'rozvoy, ko'rib turibmanki, halol, rostgo'y yigitsan, yolg'on gapirib o'rganmagansan. Shuning uchun ham **ko'zingni olib qochyapsan**. Ko'zlaring esa, hamma gapni aytib turibdi. (62-bet)

Ko'zingni olib qochyapsan – turli holatda ishlatilishi mumkin. Misol uchun, hayajondan, uyatdan, yolg'on gapirganda ishlatiladi. Bu yerda qahramon yolg'on gapirib o'rganmaganligi uchun uyatdan ko'zini olib qochgan.

3. Men o'rtoq Ro'ziyevga tuhmat uyushtirilganidan xabardorman. Odil emas, kazzob, muttaham u, **uchiga chiqqan** poraxo'r u. Shahar savdo inspeksiyasiga ham, drujinachilarga ham tuhmat qilgan. Bechoralar tekshirgani kelgani bezillashadi. (65-bet)

Uchiga chiqqan – haddan tashqari, juda ham ko'p degan ma'noni bildirib, haqorat, bo'rttirish ma'nosida kelyapti.

O'zbek bolalar adabiyotida iboralar ko'pincha **xalq og'zaki ijodi** manbalaridan olingan. Bu iboralar orqali bolaga **milliy qadriyatlar, an'anaviy tarbiya, ona tilining boyligi** singdiriladi. Milliy ruhdagi iboralar yordamida bola o'zligini anglaydi, milliy madaniyatga bo'lgan hurmat tuyg'usi ortadi, o'z tili, urf-odati va qadriyatlari bilan faxrlanadi.

Bolalar adabiyotida iboralarining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. **Sodda va tushunarli** bo'lishi;
2. **Obrazlilikni** ta'minlashi;
3. **Tarbiyaviy-axloqiy** g'oyalarni yoritishi;
4. **Ritmik va esda qolarli** bo'lishi;
5. **Milliylik va folklor** unsurlarini o'zida aks ettirishi.

Shunday ekan, bolalar uchun asar yozayotgan adiblar iboralarni juda ehtiyotkorlik bilan tanlashi, ularning bola psixologiyasi, tafakkuri, madaniy muhitiga mos kelishiga alohida e'tibor berishlari zarur. Zero, har bir ibora bolalar dunyoqarashining shakllanishida g'oyat muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xudoyberdi To'xtaboyev. Sariq devning o'limi. “Yangi asr avlodi”, 2017.
2. Xudoyberdi To'xtaboyev. “Besh bolali yigitcha”. “Yangi asr avlodi”, 2009.
3. N.Yarashova. Bolalar adabiyoti tilining lingvokognitiv, lingvopsixologik tadqiqi. Filologiya fanlari doktori (DSc) dis....avtoref. – Samarqand, 2023. 85-b.

Doniyor ERGASHEV,
Chirchiq Davlat Pedagogika universiteti ingliz tili o'qituvchisi,
"Alfraganus University" nodavlat oliy ta'lim tashkiloti
"Fakultetlararo chet tillar" kafedrasining ingliz tili o'qituvchisi

TALABALARDA LINGVISTIK KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH ORQALI TIL SATHLARINI O'ZLASHTIRISH METODIKASI

Annotatsiya: mazkur maqolada talabalarida lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish orqali til sathlarini o'zlashtirish metodikasi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Til o'rganish jarayonida fonetik, leksik, grammatik va pragmatik sathlarni izchil egallashning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlar — kommunikativ metod, interfaol mashg'ulotlar, zamonaviy axborot texnologiyalari va amaliy topshiriqlardan foydalanishning samaradorligi asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish talabalarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy nutqiy ko'nikmalarini ham mustahkamlaydi hamda ularni turli kommunikativ vaziyatlarda muvaffaqiyatli muloqot qilishga tayyorlaydi.

Kalit so'zlar: *lingvistik kompetensiya, fonetik sath, leksik sath, grammatik sath, pragmatik sath, metodika, kommunikativ yondashuv, interfaol mashg'ulot, talaba.*

Annotation: this article provides a scientific analysis of the methodology for mastering language levels through the development of linguistic competencies in students. The importance of consistently acquiring phonetic, lexical, grammatical, and pragmatic levels in the language learning process is highlighted. Additionally, the effectiveness of methodological approaches that foster the development of linguistic competencies - such as the communicative method, interactive classes, modern information technologies, and practical tasks - is substantiated. The research results demonstrate that developing linguistic competencies not only strengthens students' theoretical knowledge but also enhances their practical speech skills, preparing them for successful communication in various communicative situations.

Key words: *linguistic competence, phonetic level, lexical level, grammatical level, pragmatic level, methodology, communicative approach, interactive training, student.*

Аннотация: в данной статье с научной точки зрения анализируется методика освоения языковых уровней посредством развития лингвистических компетенций у студентов. Освещается важность последовательного овладения фонетическим, лексическим, грамматическим и прагматическим уровнями в процессе изучения языка. Также обоснована эффективность использования методических подходов, способствующих развитию лингвистических компетенций - коммуникативного метода, интерактивных занятий, современных информационных технологий и практических заданий. Результаты исследования показывают, что развитие лингвистических компетенций укрепляет не только теоретические знания студентов, но и их практические речевые навыки, а также подготавливает их к успешному общению в различных коммуникативных ситуациях.

Ключевые слова: *лингвистическая компетенция, фонетический уровень, лексический уровень, грамматический уровень, прагматический уровень, методика, коммуникативный подход, интерактивное занятие, студент.*

Kirish. Globalizatsiya davrida xorijiy tillarni mukammal bilish talabalarning nafaqat kasbiy, balki shaxsiy muvaffaqiyati uchun ham zaruriy shartdir. Tilni samarali o'zlashtirishning asosiy

omillaridan biri lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdir. Lingvistik kompetensiya fonetik, leksik, grammatik, sintaktik va pragmatik sathlarni to'liq o'zlashtirishni talab etadi. Shu

bois til o'rganishda bosqichma-bosqich metodik yondashuvlar qo'llanilishi talab etiladi.

Bugungi kunda ta'lim tizimida talabalarning xorijiy tillarni puxta o'zlashtirishi dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Global axborot makonida samarali muloqot qilish, ilmiy hamkorlikni rivojlantirish va kasbiy faoliyatda muvaffaqiyat qozonish uchun lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Tilni o'zlashtirish jarayoni bir nechta bosqichlarni — fonetik, leksik, grammatik va pragmatik sathlarni puxta egallashni talab qiladi. Shu bois talabalarda lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish orqali til sathlarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan metodik yondashuvlarni ishlab chiqish va ta'lim amaliyotiga joriy etish zarurdir.

Lingvistik kompetensiya til birliklarini bilish va ulardan to'g'ri foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishni anglatib, talabalarning muloqotda o'z fikrini aniq, ravon va uslubiy jihatdan to'g'ri ifodalashiga yordam beradi. Shuningdek, lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va kommunikativ madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan ushbu mavzu nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega bo'lib, zamonaviy ta'lim jarayonida til o'rgatishning metodik asoslarini takomillashtirishda muhim ilmiy yo'nalish hisoblanadi.

Asosiy qism. Til sathlarini o'zlashtirish jarayonida lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirishning metodik asoslari quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

Birinchidan, fonetik sathni o'zlashtirish orqali talaffuz, urg'u va intonatsiya ustida ishlash talab qilinadi. Bu jarayonda fonetik mashqlar, tovushlarni taqqoslash, audio matnlardan foydalanish samarali natija beradi.

Ikkinchidan, leksik sathni o'zlashtirishda so'z boyligini kengaytirish, sinonim va antonimlardan foydalanish, mavzuli lug'atlar bilan ishlash muhimdir. Til o'rganuvchi talabalar so'zlarni kontekstda qo'llash orqali ularning semantik ma'nolarini chuqur anglaydi.

Uchinchidan, grammatik sath tilning asosiy tuzilishini egallashga xizmat qiladi. Grammatik kompetensiyani shakllantirishda qoida-mashqlar bilan cheklanmasdan, interfaol metodlar, rolli

o'yinlar va muloqot asosida grammatik shakllarni mustahkamlash samaralidir.

To'rtinchidan, pragmatik va kommunikativ sathni rivojlantirish jarayonida talabalar turli ijtimoiy vaziyatlarda til birliklaridan foydalanishni o'rganadilar. Masalan, muloqotda uslubiy moslikka rioya qilish, rasmiy va norasmiy vaziyatlarda so'zlashish madaniyatini shakllantirish talab etiladi.

Metodik yondashuvlarda kommunikativ metod, kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'lim, zamonaviy AKT vositalaridan foydalanish, audio-video materiallar asosida mashg'ulotlar tashkil qilish katta ahamiyat kasb etadi.

Amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar natijasida talabalar fonetik jihatdan to'g'ri talaffuz qilish, leksik boylikni kengaytirish, grammatik tuzilmalarni mustaqil qo'llash va turli muloqot vaziyatlariga moslashish qobiliyatini egallaydilar. Natijada, til sathlarini egallash jarayoni tizimli, samarali va izchil kechadi.

Talabalarda lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish orqali til sathlarini o'zlashtirish jarayoni uzluksiz va izchil metodik yondashuvni talab qiladi. Lingvistik kompetensiyaning mohiyati til birliklarini bilish, ulardan nutqiy muloqotda to'g'ri foydalanish, shuningdek, turli kommunikativ vaziyatlarga moslashish qobiliyatidan iboratdir. Bu jarayonni samarali tashkil etish uchun til o'rganishning asosiy sathlari — fonetik, leksik, grammatik va pragmatik darajalarning har biri alohida metodik yo'nalish asosida o'zlashtirilishi lozim.

Avvalo, fonetik sathni egallash tilni o'rganishda boshlang'ich bosqich hisoblanadi. Talaffuz, urg'u va intonatsiyani to'g'ri shakllantirish uchun maxsus fonetik mashqlar, tovushlarni taqqoslash, she'r va matnlarni ovoz chiqarib o'qish, audio-video materiallar asosida ishlash keng qo'llaniladi. Fonetik kompetensiyani mustahkamlash talabaning nutq ravonligini oshiradi.

Ikkinchi muhim bosqich — leksik sathni o'zlashtirishdir. Lug'at boyligini kengaytirish, so'z birikmalarini to'g'ri ishlatish va sinonimik qatlamni bilish talabalarning tilni faol qo'llash imkoniyatini yaratadi. Mavzuli lug'atlar, dialog va rolli o'yinlar,

interfaol mashqlar orqali so'zlarning semantik imkoniyatlarini chuqur o'rganish samaradorlikni oshiradi.

Grammatik sath esa til tuzilishining asosi bo'lib, uni mukammal o'zlashtirish nazariy bilimni amaliy qo'llash bilan uyg'unlashgan holda olib borilishi kerak. Grammatik qoida va mashqlarni mustaqil bajarish bilan bir qatorda, kommunikativ mashg'ulotlar, matn tahlillari va yozma topshiriqlar grammatik kompetensiyani rivojlantirishda samarali hisoblanadi.

Shuningdek, pragmatik va kommunikativ sathni shakllantirish talabalarning tilni real muloqot vaziyatlarida qo'llashini ta'minlaydi. Rasmiy va norasmiy nutq uslublarini farqlash, turli ijtimoiy vaziyatlarda so'zlashish odobini o'rganish, suhbat, munozara, nutqiy chiqishlar tashkil etish bu bosqichning ajralmas qismi hisoblanadi.

Metodik yondashuvlarda kommunikativ metod, kompetensiyaga asoslangan ta'lim, interfaol mashg'ulotlar va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish talab etiladi. Tilni o'rganishda multimediya vositalari, mobil ilovalar va virtual muloqot maydonchalari talabalar til kompetensiyasini yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish orqali til sathlarini o'zlashtirishning samaradorligi metodik yondashuvlarning to'g'ri tanlanishi va ularni tizimli qo'llashga bog'liq. Natijada, talabalar nafaqat tilning nazariy asoslarini, balki uning amaliy qo'llanilish jarayonlarini ham mukammal o'zlashtiradilar.

Xulosa. Talabalarda lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish orqali til sathlarini o'zlashtirish nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, balki amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda ham muhimdir. Bu jarayon bosqichma-bosqich va izchil metodika asosida olib borilganda talabalarning tilni egallash darajasi sezilarli darajada yuksaladi. Shuningdek, kommunikativ metodlar, innovatsion texnologiyalar va interfaol mashg'ulotlardan foydalanish til o'rgatishda eng samarali vosita hisoblanadi.

Talabalarda lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish orqali til sathlarini o'zlashtirish metodikasi samarali ta'lim jarayonini tashkil etishda muhim omil hisoblanadi. Lingvistik kompetensiya fonetik, leksik, grammatik va pragmatik sathlarni egallashni o'z ichiga olib, talabalarni nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko'nikmalar bilan ham ta'minlaydi. Shu jarayonda bosqichma-bosqich metodik yondashuv, interfaol mashg'ulotlar, kommunikativ metod va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish talabalarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishi va samaradorligini oshiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, lingvistik kompetensiyalar rivojlangan talabalar chet tilida muloqot qilish, o'z fikrini ravon ifodalash va turli kommunikativ vaziyatlarga moslashishda yuqori natijalarga erishadilar. Demak, lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish orqali til sathlarini o'zlashtirish talabalarning kasbiy va shaxsiy rivojida ham muhim o'rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xudoyberdiyeva, M. "Til sathlarini o'zlashtirishning metodik asoslari." *Pedagogika va psixologiya jurnali*, 2021. №3.
2. Mamatqulova, Z. "Til o'rganishda leksik sathni egallash metodlari." *Filologiya masalalari*, №2.2023.
3. Tursunova, G. *Kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'limda lingvistika*.— Toshkent, 2023.
4. To'xtayeva, L. "Til o'rganishda fonetik kompetensiya ahamiyati." *Innovatsion pedagogika jurnali*, №1.2024.

Nurjamol IRXANOVA,
Etnopsixologiya ixtisosligidan falsafa doktori
Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil izlanuvchisi

MAXSUS MAKTAB O'QITUVCHILARINING STRESSGA BARDOSHLILIGI

Annotatsiya: ushbu maqolada maxsus maktablarda faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarning stressga bardoshlilik darajasi, unga ta'sir etuvchi psixologik va kasbiy omillar, shuningdek, stressni yengib o'tish strategiyalari tahlil qilingan. Tadqiqotda maxsus maktab pedagoglari an'anaviy muassasalardagi o'qituvchilarga nisbatan ko'proq stressga duch kelishlari va bunga mos ravishda turli darajadagi bardoshlilik namoyon qilishlari aniqlangan. Stressga bardoshlilikni oshirishda emotsional barqarorlik, kasbiy tayyorgarlik, ruhiy salomatlikni qo'llab-quvvatlovchi muhit muhim omil sifatida ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: stressga bardoshlilik, maxsus ta'lim, o'qituvchi, ruhiy salomatlik, psixologik bosim, stress boshqaruvi.

Аннотация: в данной статье анализируется уровень стрессоустойчивости учителей, работающих в специализированных школах, влияющие на него психологические и профессиональные факторы, а также стратегии преодоления стресса. В исследовании было обнаружено, что педагоги специальных школ испытывают больше стресса, чем учителя в традиционных учреждениях, и, соответственно, проявляют разный уровень толерантности. В качестве важных факторов повышения стрессоустойчивости указаны эмоциональная устойчивость, профессиональная подготовка, среда, поддерживающая психическое здоровье.

Ключевые слова: стрессоустойчивость, специальное образование, учитель, психическое здоровье, психологическое давление, управление стрессом.

Annotation: this article analyzes the level of stress resistance of teachers working in special schools, the psychological and professional factors influencing it, as well as strategies for overcoming stress. The study revealed that teachers in special schools experience more stress than teachers in traditional institutions and, accordingly, demonstrate varying degrees of resilience. Emotional stability, professional training, and a supportive environment for mental health are indicated as important factors in increasing stress resistance.

Key words: stress resistance, special education, teacher, mental health, psychological pressure, stress management.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchilarning kasbiy stressga duch kelishi keng tarqalgan holatga aylangan. Biroq, ayniqsa **maxsus ta'lim muassasalarida** faoliyat yuritayotgan pedagoglar og'irroq psixologik yuklama ostida ishlaydi. Ular har kuni turli nogironlik darajasiga ega bo'lgan bolalar bilan muloqot qilishadi, ularning emotsional va intellektual holatiga moslashishadi, ota-onalar va jamoatchilik bilan murakkab aloqalarni olib borishadi. Bu holatlar o'qituvchilarda stress, charchoq va ruhiy zo'riqishni keltirib chiqaradi. Shunday sharoitda o'qituvchilarning **stressga bardoshlilik** ularning professional barqarorligi va shaxsiy farovonligining muhim omiliga aylanadi.

Maqolada maxsus maktab o'qituvchilarining stressga qanday munosabatda bo'lishlari, bu stressni

qanday yengib o'tishlari hamda bardoshlilik darajalarini aniqlovchi omillar tahlil qilinadi. Shuningdek, ilgari o'tkazilgan tadqiqotlar bilan solishtirma tahlillar orqali mummo chuqurroq yoritiladi.

Metodlar

Tadqiqot Toshkent shahri va viloyatlaridagi 3 ta maxsus maktabda olib borildi. Jami **35 nafar o'qituvchi** ishtirok etdi. Ular turli fanlardan dars beruvchi, kamida 1 yillik tajribaga ega pedagoglar edi. Tadqiqot quyidagi usullar asosida tashkil qilindi:

- **“Stressga bardoshlilik darajasi” testi.**

Bu metodika orqali o'qituvchilarning stress holatiga nisbatan ichki tayyorgarliklari, reaktivligi, psixologik barqarorligi baholandi.

- **“Coping-strategiyalar” savolnomasi**

(R. Lazarus asosida). Stressni qanday yondashuvlar

bilan boshqarish (muammoga yo'naltirilgan, emotsional reaksiya, passivlik) aniqlandi.

- **Yarim tuzilgan intervyular.** O'qituvchilarning kasbiy faoliyatidagi stress omillari va ularning shaxsiy yondashuvlari haqida ma'lumot olindi.

- **Kuzatuv va holat tahlili.** Dars jarayonida o'qituvchilarning hissiy reaksiya va o'zini tutish holatlari qayd etildi.

Statistik tahlil uchun **deskriptiv statistikalar, o'rtacha ko'rsatkichlar va korrelyatsion tahlil** usullari qo'llanildi.

Natijalar.

Tadqiqot natijalariga ko'ra:

- O'qituvchilarning 60% dan ortig'i **o'rta darajadagi stressga bardoshlilik** ko'rsatgan.

- Stress omillari sifatida eng ko'p tilga olinganlar: **tashkiliy yuklama, o'quvchilarning og'ir emotsional holati, ota-onalar bilan ziddiyatli munosabatlar va psixologik yordam yetishmasligi.**

- Stressni boshqarishda pedagoglarning asosiy yondashuvlari:

- 45% — **muammoga yo'naltirilgan faol strategiyalar** (masalani tahlil qilish, maslahatlashish, rejalashtirish)

- 30% — **emotsional yondashuvlar** (hissiy bo'shashish, yig'lash, norozilik)

- 25% — **passiv strategiyalar** (sukut, ichga yutilgan stress)

- Emotsional intellekti yuqori bo'lgan o'qituvchilar stressni ko'proq konstruktiv usullarda yengishga moyil ekani kuzatildi.

Muhokama.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, maxsus ta'lim muassasalarida ishlovchi o'qituvchilar boshqa pedagogik muhitdagilarga nisbatan murakkabroq

stress omillariga duch keladi. Ularning hissiy bardoshlilik, kasbiy motivatsiyasi, hamkasblar bilan o'zaro yordam tizimi mavjudligi stressni yengib o'tishda muhim omillardan hisoblanadi. Shuningdek, ichki psixologik resurslarga ega, o'z his-tuyg'ularini boshqara oladigan o'qituvchilarda stressga bardoshlilik yuqoriroq darajada ekanligi kuzatildi.

Bu holat ilgari o'tkazilgan xalqaro tadqiqotlar, xususan **Goleman (1995)** tomonidan ilgari surilgan emotsional intellekt va kasbiy muvaffaqiyat o'rtasidagi bog'liqlik nazariyasi bilan hamohangdir. Shuningdek, **Maslach (2001)** tomonidan olib borilgan burnout sindromi haqidagi tadqiqotlar o'qituvchilarda stressni erta aniqlash va u bilan kurashish zaruriyatini tasdiqlaydi.

Xulosa va tavsiyalar

Tadqiqot natijalariga asosanib, quyidagi xulosalar va tavsiyalarni bildirish mumkin:

- Maxsus maktab o'qituvchilarining stressga bardoshlilikini oshirish uchun **doimiy psixologik yordam** va **emotsional salomatlikni qo'llab-quvvatlash dasturlari** zarur.

- O'qituvchilarni **stress boshqaruvi bo'yicha treninglarga** jalb etish, **emotsional intellektni rivojlantirish** bo'yicha mashg'ulotlar tashkil qilish lozim.

- Maktab psixologlari faoliyati faollashtirilib, o'qituvchilar bilan individual ishlash tizimi yo'lga qo'yilishi kerak.

- Rahbarlar tomonidan o'qituvchilarga nisbatan **adolatli va qo'llab-quvvatlovchi muhit** yaratish stress darajasini pasaytirishga xizmat qiladi.

- Hamkasblar o'rtasida **emotsional yordam va tajriba almashish** muhitini shakllantirish stressni kamaytiradi va jamoaviy ruhni mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Goleman D. (1995). *Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ*. Bantam Books.
2. Lazarus R., Folkman S. (1984). *Stress, Appraisal and Coping*. Springer Publishing.
3. Maslach C., Jackson S. (2001). *Burnout in the Teaching Profession*. Educational Research Journal.
4. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi qonuni, 2020.
5. Toirova G. T. (2022). *Pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar*. – Toshkent.

Nilufar TURSUNOVA,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Yaponshunoslik oliy maktabi
Katta o'qituvchisi
lilytt1986@gmail.com

INKOR KATEGORIYASINING MODALLIK VA BAHOLASH KATEGORIYALARI BILAN O'ZARO ALOQALARI

Annotatsiya: maqolada inkor kategoriyasining tilshunoslikdagi o'rni, uning modallik va baholash kategoriyalari bilan aloqasi tahlil qilingan. Inkor nafaqat grammatik vosita, balki semantik, pragmatik va kognitiv hodisa sifatida qaraladi. Tadqiqotda inkorning shubha, ehtimol, yumshatish, empatiya yoki tasdiq ma'nosini ifodalash imkoniyatlari ko'rsatib berilgan. Shuningdek, litota kabi "tasdiqni ifodalovchi inkor" hodisalari ham yoritilgan. Muallif inkor va tasdiqning dialektik bog'liqligini, ularning presuppozitsiya bilan aloqasini tahlil qilib, inkorni ko'p funksional va universal hodisa sifatida baholaydi.

Kalit so'zlar: *inkor, tasdiq, modallik, baholash, semantika, pragmatika, presuppozitsiya, litota, "tasdiqni ifodalovchi inkor".*

Аннотация: в данной статье отрицание рассматривается как грамматическое, семантическое, когнитивное и прагматическое явление. Автор показывает, что оно может выражать сомнение, вероятность, эмпатию, смягчение или даже утверждение. Особое внимание уделяется феномену «утверждающего отрицания» (например, литота). Подчеркивается диалектическая взаимосвязь отрицания и утверждения, а также их связь с presupпозицией. В результате категория отрицания представлена как универсальное и многоплановое явление современной лингвистики с богатым функционально-семантическим потенциалом.

Ключевые слова: *отрицание, утверждение, модальность, оценка, семантика, прагматика, presupпозиция, литота, отрицание выражающее утверждение.*

Annotation: the article examines the category of negation and its relation to modality and evaluation. Negation is analyzed not only as a grammatical device but also as a semantic, cognitive, and pragmatic phenomenon. It may express doubt, probability, empathy, mitigation, or even affirmation. Special focus is given to the phenomenon of "affirmative negation" (e.g., litotes). The study highlights the dialectical relationship between negation and affirmation and its connection to presupposition. Ultimately, negation is evaluated as a universal and multifunctional category of modern linguistics with wide theoretical and practical significance.

Key words: *negation, affirmation, modality, evaluation, semantics, pragmatics, hypothesis, litotes, "showing proof of negation".*

Inkor kategoriyasi lingvistikada ko'p qirrali, dinamik va ko'p darajali semantik tizimni tashkil etadi. Uning asosida mantiqiy inkor yotadi, ammo tildagi inkor lingvistik vosita sifatida nafaqat mantiqiy qarama-qarshilikni, balki qator ma'no va funksiyalarni ham qamrab oladi. Grammatik inkor fe'l yoki predikatning maxsus inkor formalari (masalan, rus tilida "ne", o'zbek tilida "-ma/-mo", yapon tilida "nai" "-ない") orqali amalga oshiriladi va jumla mazmunini rad etishga xizmat qiladi. Ammo lingvistik inkor faqat grammatik qavatda cheklanib qolmaydi, balki ko'pincha turli implitsit, ya'ni yashirin va qo'shimcha ma'nolar shaklida ham namoyon bo'ladi.

Grammatik inkor odatda, eksplitsit (ochiq) shaklda gapning asosiy ma'nosini rad etsa, inkor tushunchasi

ko'pincha modallik, ehtimollik, kamchilik, yo'qlik, shart yoki boshqa semantik-pragmatik elementlar orqali ham ifoda topadi. Ya'ni, tildagi ba'zi konstruksiyalar to'g'ridan to'g'ri inkorni anglatmasa-da, mantiqiy-fikriy jarayonda "mavjud emaslik", "bajarilmaganlik", "yetishmovchilik" kabi salbiy mazmun shakllantirishi mumkin. Misol tariqasida, ingliz tilida "hardly", "scarcely", "little", "few" kabi so'zlar to'g'ridan to'g'ri inkor bo'lmasa-da, nutqda yoki fikriy jarayonda salbiy-implitsit inkor vazifasini bajaradi.

Shu tarzda, inkorning lingvistik konsepti tilda nafaqat morfologik yoki sintaktik ko'rinishlarda, balki kognitiv va semantik tizimlarda ham namoyon bo'ladi. Inkor va modallik o'rtasidagi chuqur integratsiya shuni ko'rsatadiki, ayrim grammatik inkor

ko'rsatkichlari kontekstual sharoitga qarab modal (ehtimol, gumon, shubha) yoki baholovchi (empatik, muloyimlashtiruvchi, kinoyali) funksiyalarga ega bo'lishi mumkin.

Modallik tilshunoslikda subyektiv munosabatni, voqelikka baho berishni, haqiqat yoki ehtimollikni ko'rsatuvchi ilmiy kategoriya sifatida qaraladi. Klassik grammatikada va zamonaviy lingvistikada modallik va inkorning o'zaro munosabatiga turlicha yondashuvlar mavjud: *Avtonom yondashuv*: Inkor va modallik mustaqil, alohida kategoriyalar bo'lib, bir-biriga to'g'ridan to'g'ri bog'liq emas (S.A.Vasileva, V.Z.Panfilov). *Inkorni modallikka tobe etish*: Ayrim nazariyalarda inkor modallikning bir ko'rinishi, ya'ni rad etish, shubha, ehtimol, tasdiqsizlikni ko'rsatuvchi element sifatida qaraladi (V.G.Admoni, A.Vejbiska, O.Yespersen)¹. *Integratsiya va muvozanatli yondashuv*: Inkor va modallik mustaqil, ammo o'zaro bog'liq va nutqda bir-birini to'ldiruvchi, ayrim hollarda interferensiyasi kuzatiladigan kategoriyalar hisoblanadi²(I.V. Andreyeva, V.V. Juravleva, O.I. Moskalskaya).

Tilshunoslikda ustuvor qarash shuki, inkor va modallik bir-biridan mustaqil bo'lsa-da, ko'plab grammatik va semantik holatlarda birgalikda namoyon bo'ladi. Masalan, shart, ehtimol, shubha yoki amalga oshmaganlikni bildiradigan modal konstruksiyalarda inkor ma'nosi to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita shaklda paydo bo'ladi.

Inkor kategoriyasi semantik-pragmatik qiymatga ega bo'lib, nutqda faqat rad etish emas, balki subyektning munosabati, bahosi va ekspressiv emotsiyasini ham namoyon qiladi. Inkor grammatik ko'rsatkichlari orqali empatik, shubhali, yumshatuvchi, ehtiyotkorlik, yoki kinoyali ma'nolar yuzaga kelishi mumkin.

Ayrim hollarda, inkor formalari baholash va modallik ko'rsatkichlari bilan sintezlashgan bo'ladi. Masalan, inkorli konstruksiyalar yumshatuvchi ma'noda ("unchalik yomon emas", "uncha faol emas" va h.k.), kinoya yoki ikkilamchi ma'noda ishlatilishi mumkin. Bunday hollarda inkor vositasi gapning to'g'ridan to'g'ri mazmuni emas, balki subyektiv, ekspressiv yoki emotsional yukni namoyon qiladi.

Tilshunoslikda inkor kategoriyasi grammatik, semantik, kognitiv va pragmatik jihatdan ko'pqirrali

integratsiyaga ega. U nafaqat mustaqil grammatik vosita, balki boshqa muhim til kategoriyalari – modallik va baholash tizimlari bilan dinamik va murakkab o'zaro aloqalarga kiradi. Zamonaviy lingvistik tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, inkor kategoriyasining funksiyalari va ma'nosi nutqda faqat grammatik yoki mantiqiy rad etish bilan cheklanmaydi; u nutq subyekting munosabati, shubhasi, muloyimligi, ehtiyotkorligi yoki ekspressiv (empatik, kinoyali, yumshatuvchi) bayonini ham qamrab oladi.

Bu lingvistik kompleks integratsiya inkor kategoriyasining to'liq funksional-semantik portretini shakllantiradi va uni zamonaviy tilshunoslikning ko'pqirrali, universal va amaliy qiymatga ega fenomenlaridan biriga aylantiradi.

Tilshunoslikda inkor va tasdiq kategoriyalari ma'no va funksiya jihatdan qarama-qarshi, biroq uzviy bog'liq kategoriyalar sifatida talqin qilinadi. Bu dialektik qarama-qarshilik inson fikrlashining universal asoslaridan biri bo'lib, har qanday til tizimida inkor va tasdiq muntazam ravishda bir-biriga qarshi qo'yiladi. Inkor – tasdiqqa nisbatan semantik belgilangan, maxsus marker orqali ifodalanadigan a'zo (markerlangan), tasdiq esa nomarkerlangan holat hisoblanadi³.

Inkorning semantik asosini tahlil qilar ekan, olimlar uni faqat grammatik vosita emas, balki fikrning mazmun va maqsadga muvofiqdigi, nutqdagi umumiy baholash tizimiga ham bog'liq deb qaraydi. Ayniqsa, inkor va tasdiq kategoriyalari bir-birini shartli va mazmun jihatdan to'ldiruvchi, ko'pincha bir butun semantik maydonning ikki polyusi sifatida namoyon bo'ladi⁴.

Presuppozitsiya – bu til birligida to'g'ridan to'g'ri aytilmagan, ammo ma'no jihatdan zarur hisoblangan ma'lumotdir. Masalan, "U kelmadi" jumlasini olsak, unda "u kelishi kutilgan edi" mazmuni mavjud. Inkor va presuppozitsiya bir-biri bilan chambarchas bog'langan: inkor formasi aksar hollarda ma'lum bir holat yoki harakat realligiga nisbatan kuzatiladigan kutilgan tasdiqni nazarda tutadi. Shu tariqa, inkorli gaplarda aslida tasdiq variantlari fonidagi semantik farqlar, presuppozitsiya orqali yuzaga chiqadi. Ayrim mualliflar, masalan, Ye.V. Paducheva ta'kidlashicha, "Inkor o'z

1 Вежбицка А. Семантические примитивы. – М.: Наука, 1972.

2 Андреева И.В. К вопросу о взаимодействии модальности и отрицания // Вопросы языкознания. 1974. №5. С. 23–30.

3 Падучева Е.В. Семантические исследования: presupпозиция и утверждение. – М.: Наука, 1985.

4 Айзенштадт Э.И. Значение категории отрицания в языке // Вопросы языкознания. 1949.

semantikasini ijobiy gapning presuppozitsiyasi bilan bog'liq holda amalga oshiradi⁵.

Lingvistikada inkor va tasdiq kategoriyalarining munosabati haqida turli nazariy yondashuvlar mavjud. Ayrim olimlar inkorni tasdiqqa to'liq bo'ysunuvchi, ya'ni uning "soyasi" sifatida ko'radi⁶, boshqalar esa inkorni mustaqil semantik va funksional kategoriya sifatida baholaydi⁷. O'z navbatida, aksariyat tadqiqotchilar bu ikki kategoriyaning dialektik bog'liqligi, ya'ni ular bir-birini inkor qiluvchi, bir paytning o'zida bir-birini to'ldiruvchi jarayon ekanini e'tirof etishadi (Ayzenshtadt, Vladimirskaia, Orlova, Paducheva va boshqalar).

Lingvistik foydalanishda ba'zi inkor formalari to'g'ridan to'g'ri inkor ma'nosini anglatmay, aksincha, tasdiq mazmunini ifoda etadi. Bu holat "Tasdiqni ifoda etuvchi inkor" (TII) hodisasi sifatida ma'lum. Bunday konstruksiyalarda formal inkor orqali ifoda qilingan ma'no — tasdiq mazmuniga ega bo'ladi. Litota — bunday semantik mexanizmlarning yorqin namunasidir.

Litota bu — tilda ma'lumotni normalashtirish yoki yumshatish, ya'ni qandaydir fakt yoki holatning kuchini

kamaytirish uchun qo'llaniladigan inkor formasidir. Masalan, "u yaxshi emas" jumlasini kerakli kontekstda "u yomon" ma'nosiga tenglashib ketadi yoki ingliz tilidagi "not bad" ifodasi amalda "yaxshi" ma'nosini beradi. Bu borada O.A. Prokofeva "Litota TII shakli bo'lib, inkoriy belgini yumshatadi va inkorni tasdiqlash vositasiga aylantiradi" deb ta'kidlaydi⁸. TII — tasdiqni ifoda etuvchi inkor — bu grammatik jihatdan inkor bo'lgan, ammo semantik va pragmatik jihatdan tasdiq ma'nosini anglatuvchi konstruksiyadir. TII holatlarida til birligida formal inkor bo'lsa-da, voqelikda gapning ma'nosi tasdiq mazmunini anglatadi. Bunday konstruksiyalarni ajratib ko'rsatish, ularni tahlil qilish va turkumlashtirish lingvistikada funksional-semantik yondashuvning muhim yo'nalishlaridan biridir.

Yuqoridagi tahlildan ko'rinib turibdiki, inkor kategoriyasi faqat tasdiqni yo'qqa chiqarish bilan cheklanib qolmaydi, balki ko'p hollarda presuppozitsiya, tasdiq va boshqa ma'nolarni ifoda etishning samarali mexanizmiga aylanadi. Ayniqsa, IIT holatlari (litota va boshqa qurilmalar) tilning funksional-semantik salohiyatini kengaytiradi, gapni yumshatish, empatizatsiya qilish va muloqotdagi ko'pqirrali ma'nolarni aniqlashtirishga xizmat qiladi.

5 Падучева Е.В. Семантические исследования: presupпозиция и утверждение. — М.: Наука, 1985. С.93

6 Карри Х. Логика и язык. — М., 1969.

7 Вежицка А. Смысл и структура грамматики. — М., 1972.

8 Прокофьева О.А. Функционально-семантические особенности категории отрицания в современном английском языке. — Пятигорск, 2001. С.55.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Андреева, И. В. (1985). *Категория отрицания в русском языке*. —Москва.
2. Йеспersen, О. (1924). *The philosophy of grammar*. —Лондон: Allen & Unwin.
3. Лайонс, Ж. (1977). *Semantics* (Vol. 1–2). —Кембриж: Cambridge University Press.
4. Москальская, О. И. (1981). *Грамматика текста*. —Москва: Высшая школа.
5. Панфилов, В. З. (1968). *Категория отрицания и её функции*. —Москва.
6. Падучева, Е. В. (1985). *Высказывание и его соотносённость с действительностью*. —Москва: Наука.
7. Прокофьева, О. А. (2002). *Литота и её семантические возможности*. —Санкт-Петербург.
8. Васильева, С. А. (1979). *Модальность и отрицание в современном русском языке*. —Ленинград.
9. Wierzbicka, A. (1980). *Lingua mentalis: The semantics of natural language*. —Нью-Йорк: Academic Press.
10. Орлова, И. А. (2005). *Отрицание в функциональной грамматике*. —Москва.

Xosiyat TOSHTEMIROVA,
Tadqiqotch

INGLIZ TILSHUNOSLIGIDA CHAQIRIQ VA DA'VAT MAZMUNIDAGI AFORIZMLARNING O'RGANILISHI

Annotatsiya: mazkur maqolada ingliz tilshunosligida chaqiriq va da'vat mazmunidagi aforizmlarning lingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Aforizmlar jamiyatdagi ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash, kishilarni faoliyatga undash va motivatsiya berishda muhim nutqiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqotda ingliz tilidagi da'vat ohangidagi aforizmlar mazmuniy-pragmatik jihatdan o'rganilib, ularning sintaktik va semantik tuzilishi, qo'llanish konteksti va diskursiv funksiyalari ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: *ingliz tilshunosligi, aforizm, chaqiriq, da'vat, pragmatika, diskurs, semantika, sintaksis.*

Annotation: this article analyzes the linguistic features of aphorisms in the content of appeal and invitation in English linguistics. Aphorisms are an important speech tool in strengthening spiritual and moral values in society, encouraging people to action and motivating them. The study studies aphorisms in the English language in a substantive-pragmatic way, showing their syntactic and semantic structure, context of use and discursive functions.

Key words: *english linguistics, aphorism, appeal, invitation, pragmatics, discourse, semantics, syntax.*

Аннотация: в данной статье анализируются лингвистические особенности афоризмов в содержании призыва и приглашения в английской лингвистике. Афоризмы являются важным речевым средством, способствующим укреплению духовных и нравственных ценностей в обществе, побуждению людей к действию и мотивации их действий. В исследовании афоризмы английского языка рассматриваются в субстантивно-прагматическом аспекте, раскрываются их синтаксическая и семантическая структура, контекст употребления и дискурсивные функции.

Ключевые слова: *английская лингвистика, афоризм, призыв, приглашение, прагматика, дискурс, семантика, синтаксис*

Kirish. Aforizmlar, qisqa va mazmunli fikrlar bo'lib, ko'pincha hayotning turli jabhalarini ifodalaydi. Ingliz olimlari aforizmlarni o'rganishda tarixiy, madaniy va falsafiy kontekstlarni e'tiborga olishadi. Ular, asosan, aforizmlarning ta'siri va roli, ularning til va adabiyotda o'rni hamda inson psixologiyasidagi ahamiyatini o'rganishga qaratilgan. Ingliz tilida aforizmlarni o'rganish tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, 17-asrda Fransis Bekon va Jon Dryden kabi mutafakkirlar aforizmlarning jamiyatdagi rolini ta'kidlashgan. Ular aforizmlarni hayot tajribasi va aqidalarini ifoda etishning samarali vositasi sifatida ko'rganlar. Shuningdek, 18-asrda Jozef Addison va Riçard Steele "The Spectator" jurnali orqali aforizmlar va ularning ijtimoiy muloqotdagi ahamiyatini yanada rivojlantirdilar.

Asosiy qism. Keyinchalik, 19-asr va 20-asrlarda ingliz adabiyotida aforizmlarga bo'lgan qiziqish kuchaydi. Oscar Wilde, Samuel Johnson va George Bernard Shaw kabi adabiyot namoyandalari

aforizmlarni o'z asarlarida keng qo'llaganlar. Wilde ning "Aforizmlar" to'plami, ayniqsa, qisqa va mazmunli fikrlar bilan boy bo'lib, ularning kulgili va kashfiyotchilik jihatlarini ta'kidlaydi. Samuel Johnson esa, o'zining "A Dictionary of the English Language" asarida ko'plab aforizmlarni kiritgan, bu esa ularning tarqalishiga va o'rganilishiga xizmat qilgan. Ingliz olimlari aforizmlarni o'rganishda ularning tilshunoslik, psixologiya va falsafa bilan bog'liqligini ham inobatga olishadi. Aforizmlar, o'z navbatida, insoniyatning umumiy tajribasini ifodalaydi va qaysi madaniyatda paydo bo'lgan bo'lsa, u yerda o'ziga xos qiyofaga ega bo'ladi. Shuning uchun, aforizmlarning o'rganilishi ko'plab sohalarni qamrab oladi va bu jarayon zamon o'tishi bilan yanada kengayib boradi.

Natijada, ingliz olimlarining aforizmlarni o'rganishi nafaqat ularning madaniy va ijtimoiy ahamiyatini belgilaydi, balki zamonaviy adabiyot va tilshunoslikda yangi yo'nalishlarni ham ochadi.

Aforizmlar, qisqa, lekin mazmunli shaklda, insoniyatning falsafiy va axloqiy qadriyatlarini aks ettiradi va bu ularning o'rganilishini yanada tezlashtiradi.

Ingliz tilshunoslari tomonidan aforizmlar bir qancha tilshunoslar tomonidan o'rganilgan va biz e'tiborga loyiq bo'lgan bo'lgan bir nechta asarlarni tahlil qildik. Bunday ishlardan biri Jonatan E. Edwardsning aforizmlarning til va fikrlashdagi ahamiyatini chuqur o'rganishga bag'ishlangan "*Aphorisms: A Study of Their Cognitive and Pragmatic Functions*"¹ nomli dissertatsiyasi hisoblanadi. Ushbu dissertatsiyaning ilmiy yangiligi shundan iboratki, aforizmlar kognitiv va pragmatik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Edwards aforizmlarning murakkab g'oyalarni soddalashtirishdagi, madaniyat va ijtimoiy kontekstlar orqali axloqiy qadriyatlarni yetkazishdagi ahamiyatini ko'rsatadi. U, shuningdek, aforizmlarning kommunikativ roli, ijtimoiy aloqalar va fikrlarni yetkazishdagi funksiyalarini muhokama qiladi.

Tadqiqot, aforizmlarning zamonaviy kommunikatsiyadagi o'rne va ularning tilshunoslik, psixologiya va madaniyatshunoslik sohalaridagi ahamiyatini ta'kidlaydi. Edwardsning asari aforizmlar bo'yicha mavjud nazariyalarni kengaytiradi va ingliz va o'zbek tillaridagi chaqiriq va da'vat mazmunli aforizmlarni o'rganishimda qimmatli manba vazifasini o'taydi. Jonatan E. Edwards aforizmlar sohasida, xususan, lingvistika va adabiyot tadqiqotlari bilan mashhur bo'lgan olimdir. U aforizmlarning til tuzilmalari, funksiyalari va madaniy ahamiyatlarini tarixiy va zamonaviy kontekstda o'rganishga bag'ishlangan. Edwardsning interdisipliner yondashuvi lingvistika, falsafa va adabiyot nazariyasini birlashtirib, aforizmlarning inson kommunikatsiyasidagi ahamiyatini chuqur tushunishga yordam beradi.

Edwards mazkur ishida aralash uslubdan foydalanadi, bu esa sifatlari va miqdoriy tadqiqot usullarini birlashtiradi. U ko'plab aforizmlarni o'rganish uchun korpus lingvistikasidan foydalanadi, bu esa aforizmlarning foydalanishidagi o'zgarish va tendensiyalarni aniqlashga yordam beradi. Ushbu metodologiya uning tadqiqotining empirik mustahkamligini oshiradi va aforizmlarning

lingvistik xususiyatlarini tushunishga imkon beradi.

Shuningdek, Emily J. O'Konorning "*The Pragmatics of Aphorisms: A Study of Their Function and Use in Contemporary English*"² asari aforizmlarning zamonaviy ingliz tilidagi muloqotdagi ahamiyatini pragmatik jihatdan o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda aforizmlarning ijtimoiy kontekstda qanday ishlatilishi, muloqotda qanday funksiyalarni bajarishi va ularning kommunikativ rolini aniqlashga qaratilgan. O'Konnor, aforizmlarning qisqa, lekin ma'nodagi chuqurligini va ularning fikrlarni taqdim etishdagi samaradorligini tahlil qiladi. Ushbu asar zamonaviy kommunikatsiyadagi aforizmlarning ahamiyatini ko'rsatish bilan birga, ularning til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqligini ham ochib beradi. Tadqiqot tilshunoslar va adabiyotshunoslar uchun aforizmlar haqidagi mavjud nazariyalarni kengaytirishga yordam beruvchi yangi yondashuvlarni taqdim etadi va o'zbek tilidagi aforizmlar ko'rib chiqilishi va ingliz tili bilan qiyoslanishida muhim manba hisoblanadi.

Emily J. O'Konorning "*The Pragmatics of Aphorisms: A Study of Their Function and Use in Contemporary English*" asari aforizmlarning zamonaviy ingliz tilidagi muloqotdagi pragmatik jihatlarini o'rganishga qaratilgan muhim tadqiqotdir. Ushbu asarning ilmiy yangiligi quyidagi jihatlardan iborat:

1. *Pragmatik tahlil yondashuvi.* O'Konnor, aforizmlarni pragmatik jihatdan tahlil qilib, ularning muloqotdagi ahamiyatini va foydalanuvchilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlardagi rolini aniqlaydi. U, aforizmlarning nafaqat ma'no, balki kontekstga qarab qanday ta'sir ko'rsatishini ham o'rganadi.

2. *Aforizmlarning funksiyalari.* Asar aforizmlarning muloqotdagi turli funksiyalarini – masalan, hikmatni taqdim etish, fikrlarni qisqacha ifodalash, hissiyotlarni yetkazish va ijtimoiy normalarni belgilash kabi jihatlarini chuqur o'rganadi.

3. *Zamonaviy muloqotdagi rol.* O'Konnor, aforizmlarning zamonaviy kontekstda, xususan, ijtimoiy tarmoqlarda qanday ishlatilishini va ularning muloqot jarayonida qanday ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Bu, aforizmlarning yangi

1 Jonathan A. Edwards. "The Intersection of Aphorisms and Social Media: Communication in the Digital Age", University College London, 2021.

2 Emily J. O'Konnor "The Pragmatics of Aphorisms: A Study of Their Function and Use in Contemporary English", University of Birmingham, 2012

kommunikativ muhitda qanday moslashayotganini tushunishga yordam beradi.

4. *Misol va tadqiqotlar*. Tadqiqot jarayonida turli misollar va tadqiqotlar keltiriladi, bu esa aforizmlarning tushunilishi va qabul qilinishidagi o'zgarishlarni ko'rsatadi. O'Connor, zamonaviy aforizmlarning tahlili orqali yangi aforizm yaratish jarayonini ham o'rganadi.

Aforizmlar sohasida ish olib borgan tilshunos Sarah L. Johnsonning *"The Role of Aphorisms in Language and Thought: A Cognitive Linguistic Perspective"*³ dissertatsiya ham o'rganilib chiqildi. Asarda aforizmlarning til va fikrlashdagi ahamiyati kognitiv lingvistika nuqtayi nazaridan o'rganiladi. Tadqiqotda aforizmlarning qanday qilib fikrlarni qisqacha ifodalash, ma'noni yetkazish va muloqot jarayonida ijtimoiy normalarni belgilashdagi roli ta'kidlanadi. Johnson, aforizmlarning murakkab fikrlarni oddiy va samarali tarzda yetkazishdagi qobiliyatini o'rganib, ularning zamonaviy muloqotdagi funksiyalarini ham ko'rsatadi. Asarda keltirilgan misollar va empirik tadqiqotlar aforizmlarning kognitiv jarayonlarda qanday ta'sir o'tkazishini aniqlashga yordam beradi. Ushbu asar ingliz va o'zbek tillaridagi chaqiriq va da'vat mazmunidagi aforizmlarni o'rganishda amaliy va nazariy ko'mak berdi.

Sarah L. Johnsonning *"The Role of Aphorisms in Language and Thought: A Cognitive Linguistic Perspective"* asarining ilmiy yangiligi quyidagi jihatlardan iborat:

1. Kognitiv lingvistika yondashuvi: Johnson aforizmlarni kognitiv lingvistika nuqtayi nazaridan tahlil qilib, ularning til va fikrlash jarayonlaridagi o'rni va ahamiyatini yangi yo'nalishdan ko'rsatadi. Bu yondashuv aforizmlarning murakkab fikrlarni ifodalashdagi samaradorligini tushunishga yordam beradi.

2. Til va fikrlash o'rtasidagi bog'lanish: asarda aforizmlarning til orqali fikrlarni qanday shakllantirishi va aks ettirishi haqida chuqur tahlil olib boriladi, bu esa til va fikrlash o'rtasidagi bog'liqlikni yanada aniqroq ko'rsatadi.

3. Kognitiv jarayonlar: Johnson tadqiqotida aforizmlarning kognitiv jarayonlardagi o'rni va ularning muloqotdagi qobiliyatini o'rganib, fikrlarni

tushunish va taqdim etishda qanday rol o'ynashini muhokama qiladi.

4. Interaktiv tahlil: u aforizmlarni tilshunoslik va psixologiya nuqtayi nazaridan interaktiv tahlil qiladi, bu esa o'rganish jarayonini yanada boyitadi va yangi nazariyalar yaratishga yordam beradi.

5. Praktiki qo'llanilishi: Johnsonning asari aforizmlarni ta'limda, madaniyatda va kundalik muloqotda qanday foydalanishni o'rganish bo'yicha amaliy tavsiyalar beradi, bu esa til o'rganishda va fikr almashishda aforizmlardan qanday samarali foydalanish mumkinligini ko'rsatadi.

J. Masonning *"Aforizmlar: qisqa shakllar nazariyasi"*⁴ asari aforizmlarni alohida adabiy shakl sifatida tushunishga muhim hissa qo'shadi. Ushbu kitobda Mason aforizmlarning tabiati, xususiyatlari va til hamda adabiyotdagi funksiyalarini o'rganadi. Muallif aforizmlarni umumiy haqiqatlar yoki prinsiplarni ifodalovchi qisqa bayonotlar sifatida ta'riflaydi, ularning aqliy, paradoksal va axloqiy jihatlari bilan ajralib turishini ta'kidlaydi.

Mason aforizmlarning muloqotdagi ko'plab maqsadlariga xizmat qilishini, ular donolik, madaniy qadriyatlar va ijtimoiy normalarni yetkazuvchi vosita sifatida harakat qilishini ta'kidlaydi. U kontekstning aforizmlarning ma'nosi va ta'sirida qanday ahamiyatga ega ekanligini ajratib ko'rsatadi, chunki ularning qisqaligi ko'pincha o'quvchilardan yoki tinglovchilardan izohlovchi harakatlarni talab qiladi. Aforizm va uning auditoriyasi o'rtasidagi bu interaktiv munosabat Masonning tahlilida markaziy mavzu hisoblanadi.

Kitobda aforizmlarning lingvistik xususiyatlari, ularning sintaktik va semantik tuzilmalari o'rganiladi. Mason aforizmlarni ularning qiziqarli va samarali bo'lishiga yordam beruvchi ritorik uslublarga asoslanib tasniflaydi, masalan, antitezis, alliteratsiya va parallelizm. U shuningdek, aforizmlarning tarixiy rivojlanishini ko'rib chiqadi, ularning qadimgi falsafiy an'analaridan to zamonaviy foydalanishgacha bo'lgan ildizlarini izlaydi.

Bundan tashqari, Mason aforizmlarning kognitiv jihatlarini ko'rib chiqadi, ularning inson kognitsiyasi tizimida qanday ishlashini muhokama qiladi. U aforizmlarni murakkab g'oyalarni soddalashtirilgan shaklda yetkazishda foydalanish mumkinligini ta'kidlaydi, bu esa ularni keng auditoriyaga

³ Sarah L. Johnson *"The Role of Aphorisms in Language and Thought: A Cognitive Linguistic Perspective"*, University of Leeds, 2012.

⁴ Mason, J. *Aphorisms: A theory of the short form*. – New York: Routledge, 2004

tushunarli va aloqador qiladi. Ushbu kognitiv nuqtayi nazar aforizmlarning qanday qilib turli muloqot shakllarida, jumladan, adabiyot, siyosat va kundalik suhbatlarda saqlanib qolishining sabablari haqida tushunishni oshiradi. Mason kitob davomida turli madaniyat va davrlardan mashhur aforizmlarning ko'plab misollarini keltiradi, ularning adabiy ahamiyati va moslashuvchanligini ko'rsatadi. Ushbu misollarni tahlil qilib, u aforizmlar qanday qilib ularni shakllantirgan jamiyatlarning qadriyatlari va e'tiqodlarini aks ettirishi mumkinligini namoyish etadi, bu esa madaniy normalar va falsafalar uchun ko'zguga aylanadi.

Masonning Aforizmlar: "Qisqa shakllar nazariyasi" asari aforizmlarni chuqur va izchil o'rganishni taqdim etadi, bu esa til va adabiy tahlil uchun qimmatli asoslarni taklif etadi. Aforizmlarning muloqotdagi ko'p qirrali roli va ularning kognitiv jihatlarini o'rganishi bu asarni til, adabiyot va madaniyatning kesishgan joylariga qiziqqan olimlar va talabalari uchun muhim manba sifatida belgilaydi va o'z navbatida, chaqiriq va da'vat mazmunli aforizmlarni ma'noviy jihatdan tahlil qilishga yordam beradi.

L. Davisning "*Falsafiy aforizmlar: Tanqidiy tahlil*"⁵ asari aforizmlarni, ayniqsa, falsafiy kontekstda chuqur o'rganishga qaratilgan muhim bir tadqiqotdir. Ushbu kitobda Davis aforizmlarning o'ziga xos xususiyatlari, tuzilishi va ularning muloqotdagi rolini tahlil qiladi. U, aforizmlarning qisqa va aniq shaklda murakkab g'oyalarni ifodalash qobiliyatini ta'kidlaydi. Davis, asarning kirish qismida, aforizmlarni o'rganishning muhimligini va ularga bo'lgan qiziqishni oshirish zarurligini ko'rsatadi. U, aforizmlarning tarixiy va madaniy

kontekstlari, shuningdek, ularning falsafiy g'oyalari va tushunchalari bilan bog'liqligini muhokama qiladi. Bu nuqtayi nazardan, aforizmlar insoniyatning tafakkur tarixi va axloqiy qadriyatlarining aks-sadosi sifatida qabul qilinadi.

Kitobning asosiy qismida Davis aforizmlarni tahlil qilishda turli metodologik yondashuvlarni qo'llaydi. U, aforizmlarning til va ma'no jihatlarini o'rganib, ularning qanday qilib ko'plab ma'nolarni o'z ichiga olishi va yangi g'oyalarni keltirib chiqarishi mumkinligini ko'rsatadi. Davis aforizmlarning o'ziga xos til xususiyatlarini, jumladan, simbolizm, metafora va ironiya kabi ritorik vositalarni tahlil qiladi. Shuningdek, Davis aforizmlarni falsafiy nuqtayi nazardan o'rganadi, ularda aks etgan g'oyalarni tanqidiy ravishda ko'rib chiqadi. U, aforizmlarning mantiqiy strukturasi va ularning hayotiy ma'nosi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganadi. Kitobda keltirilgan misollar orqali, u aforizmlarning inson hayotidagi roli va ularning axloqiy va falsafiy qadriyatlar bilan bog'liqligini yoritadi. Davisning "*Falsafiy aforizmlar: Tanqidiy tahlil*" asari, shuningdek, zamonaviy aforizmlarning ijtimoiy va madaniy kontekstlarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, aforizmlarning xalqaro va madaniy farqliliklari haqida fikrlarni taqdim etadi. U, aforizmlarning turli madaniyatlarda qanday shakllanishini va ularning muloqotdagi ahamiyatini ko'rsatadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Davisning asari aforizmlarni chuqur va ko'p qirrali tahlil qilishga yordam beradi. U, aforizmlarning falsafiy, lingvistik va madaniy jihatlarini o'rganishga qaratilgan muhim bir manba hisoblanadi. Ushbu asardagi madaniy jihatlarini o'rganish orqali ingliz va o'zbek tillaridagi chaqiriq va da'vat mazmunidagi aforizmlarni qiyoslab o'rganishda ko'mak beradi.

5 Davis, L. *Philosophical Aphorisms: A Critical Analysis*. – Oxford: Oxford University Press, 2010

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jonathan A. Edwards. "The Intersection of Aphorisms and Social Media: Communication in the Digital Age", University College London, 2021.
2. Emily J. O'Connor "The Pragmatics of Aphorisms: A Study of Their Function and Use in Contemporary English", University of Birmingham, 2012
3. Sarah L. Johnson "The Role of Aphorisms in Language and Thought: A Cognitive Linguistic Perspective", University of Leeds, 2012.
4. Mason, J. *Aphorisms: A theory of the short form*. – New York. Routledge, 2004
5. Davis, L. *Philosophical Aphorisms: A Critical Analysis*. – Oxford: Oxford University Press, 2010

Malika IZOMOVA,
Alfraganus universiteti
xorijiy filologiya fakulteti o'qituvchisi

INGLIZ BADIY ASARLARIDA HISSIY HOLATLAR VA ULARNING NOVERBAL AKS ETTIRILISHI

Annotatsiya: ushbu maqola ingliz badiiy asarlaridagi personajlarning hissiy holatlari va ularning noverbal ifoda etilish usullarini tadqiq etishga bag'ishlangan. Tadqiqot turli xil noverbal kommunikatsiya shakllarini, jumladan, yuz ifodalari, imo-ishoralar, gavda holati, intonatsiya va boshqa paralingvistik vositalarni tahlil qiladi, bular yozuvchilar tomonidan qahramonlarning ichki olamini yetkazish uchun qo'llaniladi. Noverbal elementlarning badiiy obraz yaratishdagi roli va ularning o'quvchilarning asarning hissiy mazmunini idrok etishiga ta'siriga alohida e'tibor qaratilgan. Maqolada turli davrlar va janrlarga mansub ingliz badiiy adabiyotining vakillik namunaviy tanlovini tahlil qilishga asoslangan.

Kalit so'zlar: *noverbal kommunikatsiya, hissiy holatlar, ingliz badiiy adabiyoti, paralingvistik vositalar, yuz ifodalari, imo-ishoralar, badiiy obraz, personajning psixologik tasviri, adabiyotshunoslik, stilistik tahlil.*

Аннотация: данная статья посвящена исследованию эмоциональных состояний персонажей в английских художественных произведениях и способов их невербального выражения. В исследовании анализируются различные формы невербальной коммуникации, включая мимику, жесты, позы, интонацию и другие паралингвистические средства, которые используются писателями для передачи внутреннего мира героев. Особое внимание уделяется роли невербальных элементов в создании художественного образа и их влиянию на восприятие читателями эмоционального содержания произведения. Статья основана на анализе репрезентативной выборки английской художественной литературы различных периодов и жанров.

Ключевые слова: *невербальная коммуникация, эмоциональные состояния, английская художественная литература, паралингвистические средства, мимика, жесты, художественный образ, психологический портрет персонажа, литературоведение, стилистический анализ.*

Annotation: this article is devoted to the study of emotional states of characters in English literary works and the methods of their nonverbal expression. The research analyzes various forms of nonverbal communication, including facial expressions, gestures, body posture, intonation, and other paralinguistic means that are employed by writers to convey the inner world of their characters. Special attention is paid to the role of nonverbal elements in creating artistic imagery and their impact on readers' perception of the emotional content of the work. The article is based on the analysis of a representative sample of English fiction from various periods and genres.

Key words: *nonverbal communication, emotional states, English fiction, paralinguistic means, facial expressions, gestures, artistic imagery, psychological portrayal of character, literary studies, stylistic analysis.*

Badiiy adabiyotda noverbal ifoda vositalari – bu yozuvchining so'zlardan tashqari, matnning vizual va strukturaviy elementlari (tinish belgilari, sukut, takrorlash, tipografik usullar, bo'shliqlar) orqali o'quvchiga his-tuyg'u, kayfiyat va chuqur ma'nolarni yetkazish uslubidir. Bu vositalar og'zaki nutqdagi mimika va intonatsiyaning o'rnini bosib, adabiy asarni yanada ta'sirli qiladi. Badiiy adabiyotda noverbal ifoda vositalari, asosan, so'zlardan tashqari his-tuyg'ular, fikrlar va ma'nolarni yetkazish

uchun ishlatiladigan barcha uslublarni o'z ichiga oladi. Bu vositalar esa quyidagilardan iborat: **Tavsif** – (mualliflar qahramonlar va muhitni tasvirlash orqali hissiyotlarni va kayfiyatni ifodalashadi. Masalan, tabiatning go'zalligi yoki qorong'u xonalar qahramonning ruhiy holatini aks ettirishi mumkin). **Simvolizm** – (noverbal ifodalar ko'pincha simvollar orqali ifodalanadi. Misol uchun, qora rang ko'pincha qayg'u yoki yo'qotishni, oq rang esa poklik yoki yangi boshlanishni anglatishi mumkin). **Jestlar va**

mimikalar – (qahramonlarning harakatlari va yuz ifodalari ularning ichki hissiyotlarini aks ettirishi mumkin. Masalan, qahramonning qo'lini qaltiratishi yoki tabassum qilishi uning his-tuyg'ularini ochib beradi). **Musiqa va ovoz** – (badiiy asarlarda musiqaning o'rni ham muhim. Musiqa yoki ovozlarning hissiyotni kuchaytirishi yoki muhitni yaratishi mumkin). **Makon va atmosfera** – (asarning joylashuvi va atrof-muhit hissiyotlarni ifodalashda katta rol o'ynaydi. Qorong'u va yopiq joylar qo'rquv yoki izolyatsiyani, ochiq va yorqin joylar esa erkinlik va baxtni anglatishi mumkin). **Vaqt va ritm** – (vaqt o'tishi va voqealar rivoji ham noverbal ifoda vositasi sifatida ishlatiladi. Tez yoki sekin rivojlanayotgan voqealar o'quvchining hissiyotlariga ta'sir qiladi). Badiiy adabiyotda noverbal ifoda vositalari o'quvchilarga qahramonlarning ichki dunyosini, hissiyotlarini va muhitni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Noverbal kommunikatsiya nazariyasining asoschisi Albert Mehrabian (1971) o'z klassik ishida inson muloqotining 55 foizi tana tili, 38 foizi ovoz toni va faqat 7 foizi so'zlar orqali amalga oshirilishini isbotlagan. Bu nazariya keyinchalik adabiyotshunoslikda ham qo'llanila boshlandi. O'zbek adabiyotshunosligida bu sohada N.Qosimov (2020) muhim hissa qo'shgan. U "Ingliz romanlarida psixologik tasvirning til vositalari" nomli tadqiqotida noverbal elementlarning stilistik funksiyalarini tahlil qilgan va ularning badiiy tasvir yaratishdagi samaradorligini ko'rsatgan.

Ekman va Friesen (1969) tomonidan ishlab chiqilgan yuz ifodalari kodlash tizimi (FACS) adabiy matnlarni tahlil qilishda ham qo'llanila boshladi. Ushbu tizim asosida M.Rashidov (2021) o'zbek va ingliz adabiyotlarida hissiyotlarning noverbal ifodalanishi bo'yicha qiyosiy tadqiqot o'tkazgan. E.T.Hall (1966) proksemika nazariyasini yaratib, shaxslar orasidagi masofa va fazoviy munosabatlarning psixologik ma'nolarini ochib bergan. Bu g'oyalar keyinchalik badiiy matnlardagi personajlar o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilishda keng qo'llanila boshladi.

Bugungi zamonaviy adabiyotshunoslikda personajlarning ichki psixologik holatlarini ifoda etishda noverbal elementlarning o'rni tobora ortib bormoqda. *"Adabiy matndagi noverbal belgilar o'quvchining hissiy idrokiga bevosita ta'sir ko'rsatadi*

va matn tushunilishini chuqurlashtiradi" (Mehrabon, A., & Gofurov, B. 2019) Bu masala ayniqsa, ingliz badiiy adabiyotida muhim ahamiyatga ega, chunki bu an'anada psixologik realizm kuchli rivojlangan. E.Kordi (2018) o'z tadqiqotida badiiy asarlardagi noverbal kommunikatsiyaning kognitiv jihatlarini o'rganib, uni *"matnning yashirin qatlami"* deb atagan. Olimning fikricha, yozuvchilar tomonidan qo'llaniladigan noverbal vositalar nafaqat personaj xarakterini ochib beradi, balki butun asar mazmuniga chuqur ma'no bag'ishlaydi (Kordi, 2018, p. 87).

Ingliz badiiy adabiyotida yuz ifodalari personaj hissiyotlarini ifodalashning eng kuchli vositalaridan biri hisoblanadi. Dickens (1860) "Buyuk umidlar" romanida Pipning hissiy holatlarini tasvirlashda mimikadan mohirona foydalangan: *"Uning yuzida achchiq tabassum o'ynadi, go'yo ichidagi og'riqni yashirishga harakat qilayotgandek"* (p. 234). Tarjimashunos olim N.Qosimov (2020) ta'kidlashicha, ingliz yozuvchilarida yuz ifodalarini tasvirlashda rang-barang leksik vositalar qo'llaniladi, bu esa o'quvchida jonli tasavvur hosil qiladi. Ayniqsa, ko'zlar tasviri orqali personajning eng nozik hissiy o'zgarishlari uzatiladi. Shu bilan bir qatorda ingliz romanlarida qo'l harakatlari va imo-ishora tasvirlari ham keng qo'llaniladi. Lawrence (1928) "Lady Chatterley's Lover" asarida personajlarning qo'l harakatlari orqali ularning ichki ziddiyatlarini aks ettirgan. O'zbek tilshunos olimi M. Rashidov (2021) bu borada ta'kidlaydiki, ingliz adabiyotida qo'l harakatlari nafaqat hissiyotni, balki ijtimoiy maqomni ham ifodalaydi. Virginia Woolf (1925) esa o'zining "Mrs. Dalloway" romanining bosh qahramoni Clarissa Dallowayning qo'l barmoqlari bilan o'ynashi harakati uning asabiy holatda ekanligidan darak berishini juda nozik tarzda tasvirlab berdi. Bu yerda yozuvchi kichik harakat orqali katta psixologik voqelikni ochib beradi.

Bundantashqari tana holati va umumiy harakatlar ingliz adabiyotida personaj xarakteristikasining muhim qismidir. Hall (1966) nazariyasi bo'yicha, gavda holati shaxsning ichki holatini aks ettiradi. Jane Austen (1813) "G'urur va noto'g'ri qarash"da Elizabeth Bennetning tik yurishi uning mustaqil xarakterini, Mr. Darcyning og'ir qadamlari esa uning mag'rurligini ifodalaydi.

Noverbal ifoda vositasining yana bir turi bu ovoz toni va intonatsiya hisoblanadi. Garchi yozma adabiyotda ovozni eshitish mumkin emas bo'lsa-da, ingliz yozuvchilari intonatsiya va ovoz tonini tasvirlab berishda ajoyib mahoratga ega. Kordi (2018) ta'kidlashicha, bu usul orqali o'quvchi xayolan personajning ovozi "eshitadi". Dickens asarlarida turli ijtimoiy qatlamdagi odamlarning gapirish uslubi va ovoz toni orqali ularning ijtimoiy holati aniq ko'rsatiladi. "Oliver Twist" romanida Faganning g'ichirildigan ovozi, Bill Sykes-ning qo'pol toni va Nancy ning yumshoq gaplashi har birining xarakterini ochib beradi.

XXI asringlizadabiyotidanoverbalelementlarning qo'llanilishi nisbatan yangicha shakllarni yaratdi. M. Rashidov (2021) ta'kidlashicha, zamonaviy mualliflar an'anaviy noverbal vositalardan tashqari, texnologik muhit ta'sirida yangi ifoda vositalarini ham qo'llaydilar. Ian McEwan, Zadie Smith kabi zamonaviy ingliz yozuvchilari esa noverbal kommunikatsiyani tasvirlashda psixologiya va neyrologiya yutuqlaridan foydalanadilar. Bu yangi yondashuv personajlarning ichki dunyosini yanada aniq va ilmiy asosda ochib berishga yordam beradi.

Xulosa .Badiiy adabiyotda noverbal ifoda vositalari yozuvchining so'zlardan tashqari his-tuyg'u va ma'nolarni yetkazish uchun qo'llaydigan kuchli vositalardir. Albert Mehrabian nazariyasi asosida inson muloqotining 55% tana tili orqali amalga oshirilishi isbotlangani adabiyotshunoslikda ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek adabiyotshunoslari N.Qosimov, M.Rashidov va E.Kordining tadqiqotlari noverbal elementlarning stilistik funksiyalari va kognitiv jihatlarini ochib bergan. Ingliz adabiyotida Dickens, Lawrence, Virginia Woolf, Jane Austen kabi klassik yozuvchilar yuz ifodalari, qo'l harakatlari, tana holati va ovoz toni orqali personajlarning ichki dunyosini mohirona tasvirlagan. XXI asr ingliz adabiyotida Ian McEwan, Zadie Smith kabi zamonaviy mualliflar psixologiya va neyrologiya yutuqlaridan foydalanib, noverbal kommunikatsiyani yanada ilmiy asosda tasvirlashga erishgan. Noverbal ifoda vositalari nafaqat personaj xarakterini ochib beradi, balki butun asar mazmuniga chuqur ma'no bag'ishlaydi va o'quvchining hissiy idrokiga bevosita ta'sir ko'rsatib, matnni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Austen, J. (1813). *Pride and prejudice*. T. Egerton.
2. Dickens, C. (1860). *Great expectations*. Chapman & Hall.
3. Dickens, C. (1838). *Oliver Twist*. Richard Bentley.
4. Ekman, P., & Friesen, W. V. (1969). The repertoire of nonverbal behavior: Categories, origins, usage, and coding. *Semiotica*, 1(1), 49-98.
5. Hall, E. T. (1966). *The hidden dimension*. Doubleday.
6. Kordi, E. E. Badiiy matnlarda noverbal kommunikatsiyaning kognitiv asoslari. *Filologiya masalalari*. 2018. 3(2), 82-95-b.
7. Lawrence, D. H. (1928). *Lady Chatterley's lover*. Tipografia Giuntina.
8. Mehrabon A. & Gofurov B. Adabiy matndagi noverbal belgilarning pragmatik xususiyatlari. *Til va adabiyot ta'limi*. 2019. 8(4), 156-167-b.
9. Mehrabian, A. (1971). *Silent messages*. Wadsworth.
10. Qosimov, N. Ingliz romanlarida psixologik tasvirning til vositalari. *O'zbek tili va adabiyoti*. 2020. 6(3), 45-58-b.
4. Rashidov, M. (2021). O'zbek va ingliz adabiyotlarida hissiyotlarning noverbal ifodalanishi: qiyosiy tahlil. *Jahon tillari universiteti xabarlar*, 2(4), 78-89.
5. Woolf, V. (1925). *Mrs. Dalloway*. Hogarth Press.

Madina XURSANDOVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti stajyor-tadqiqotchisi
madinaxursandova058@gmail.com

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI URF - ODATGA OID SO'ZLARNING LINGVISTIK VA MADANIY TAHLILI

Annotatsiya: biz ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi urf - odatlarni ifodalovchi birliklarning lingvomadaniy o'ziga xosliklarini ko'rsatib, tahlil qilishga, ayniqsa, to'y marosimlari va ularni tashkillash mobaynida u bilan bog'liq urf - odatlarni ko'rsatishga, ularning semantik tabiati, lingvistik-madaniy xususiyatlarini yoritishga, o'xshashlik va farqli tomonlarini nazariy tahlil qilishga harakat qildik. Maqolaning vazifasi o'zbek va ingliz tillarida to'y marosimlarini ifodalovchi leksemalarning lisoniy va madaniy xususiyatlarini tadqiq etish, ularning lisoniy-semantik mohiyatini oydinlashtirish, ularning farq va o'xshash tomonlarini aniqlash hamda nazariy tahlil qilishdan iborat.

Kalit so'zlar: *lingvokulturologiya, tilshunoslik, an'ana, urf - odat, e'tiqod, marosimlar, madaniyat, qiyosiy tahlil, to'y.*

Аннотация: в этой статье мы покажем и проанализируем в данной статье мы попытались проиллюстрировать лингвокультурные особенности и провести анализ лексических единиц репрезентирующих узбекские и английские традиции, особенности свадебных обрядов и традиций ритуалов, связанных с организацией свадьбы от начала до конца в обеих культурах. Задачами данной статьи является исследование лингвокультурологических особенностей лексем, репрезентирующих узбекский и английский свадебные обряды, выяснение их лингвосемантической природы, выявление их различий и сходств и теоретический анализ.

Ключевые слова: *лингвокультурология, языкознание, традиция, обычай, верование, обряды култура, сравнительный анализ*

Annotation: in this article we tried to illustrate linguocultural peculiarities and analysis of the lexical units representing Uzbek and English traditions, especially wedding ceremonies and rituals related to organizing the wedding from beginning to the end in both cultures. Tasks of this article is researching the linguistic and semantic nature to identify their differences and similarities and theoretically analyze them.

Key words: *linguoculturology, linguistics, tradition, custom, belief, rituals, culture, comparative analysis, wedding.*

Kirish. (Introduction). Har bir xalqning urf-odatlarini, marosimlari va an'analari ularning milliy-madaniy merosi va hayot tarzi haqida boy ma'lumotlar beradi. Ushbu urf-odatlarini aks ettiruvchi til birliklari, ya'ni leksik elementlar, xalqning tarixiy tajribasi, qadriyatlarini va dunyoqarashining ifodasi sifatida o'ziga xos ahamiyatga ega. Xalq madaniyatining aksariyat qismi til orqali avloddan avlodga o'tadi va shu sababli tilni o'rganish nafaqat lingvistik jihatdan, balki madaniy nuqtai nazardan ham muhimdir.

O'zbek va ingliz tillari o'rtasidagi urf-odatlarini ifodalovchi leksik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlarini tadqiq qilish tilshunoslik va madaniyatshunoslikning kesishgan nuqtasida joylashgan masala hisoblanadi. Har ikkala xalqning turli tarixiy, madaniy va ijtimoiy sharoitlari ularning urf-odatlariga ham, ularni ifodalovchi til birliklariga ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgan. Ushbu leksik birliklarni solishtirish orqali turli madaniyatlar

va tillar o'rtasidagi o'xshashliklar va farqlarni aniqlash, shuningdek, madaniyatlararo muloqotni chuqurlashtirish mumkin.

Mazkur tadqiqot o'zbek va ingliz tillarida urf-odatlarini ifodalovchi leksik birliklarni lingvistik tahlil qilish orqali ularning milliy-madaniy mazmunini ochib berishga qaratilgan. Bu jarayonda ushbu leksik birliklarning semantik tarkibi, ularning tarjimadagi talqini va madaniyatlararo muloqotdagi roli chuqur o'rganiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. (Literature review). Bugungi kunda tilshunoslik ilmida yangi sohalarining vujudga kelishi matn, til muammolari bilan bog'liq masalalarning yechimini topishda katta samara bermoqda. Jumladan, hozirgi kun tilshunoslari semantika, kognitologiya, lingvokulturologiya, psixolingvistika, sotsiolingvistika kabi ko'plab til o'rganishga oid yangi yo'nalishlarga tayanib ish ko'rmoqdalar. Shulardan eng dolzarb ahamiyatga

ega bo'lganlaridan biri, "til va madaniyatning uzviy aloqadorligini, uning shakllanishi va rivojlanishini o'zida aks ettiradigan hodisalar – til va madaniyatni birgalikda o'rganadigan alohida ilmiy soha – lingvokulturologiyadir" [1,15]. Insonning bilish faoliyati bilan shug'ullanadigan kognitiv lingvistikaning markaziy tushunchalaridan biri bo'lgan "konsept" atamasi lingvokulturologiyada ko'p qo'llaniladigan unsur ekanligi, P. Dilbarxon Abdullajon qizining "Zamonaviy tilshunoslikda konsept tushunchasi" maqolasida ko'rsatib o'tilgan [2,78]. Kognitiv tilshunoslik – til va ong o'rtasidagi munosabatlar muammolarini, dunyoni konseptualashtirish va turkumlashtirishda tilning rolini, kognitiv jarayonlarda va inson tajribasini umumlashtirishda, insonning individual kognitiv qobiliyatlari bilan bog'liqligini, til va ularning o'zaro shakllarini o'rganadigan tilshunoslik yo'nalishi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Tilshunoslikda ko'p qirrali tushunchalardan biri konsept lotin tilidagi "conceptus" so'zining so'zma-so'z tarjimasi bo'lib, XX asrning birinchi choragida rus faylasufi S. Askaldov tomonidan ilmiy munosabatga kiritilgan. O'tgan asrning 80-yillarigacha tushuncha so'ziga sinonim sifatida ishlatilgan bo'lsa, 90-yillardan boshlab qo'llanila boshladi, bugungi kunda esa keng qamrovga ega ekanligini kuzatish mumkin. Shuningdek, konsept termini matematik logika, madaniyatshunoslik, psixologiya kabi fanlarda ham faol qo'llanilmoqda. Y. S. Kubryakova ta'kidlaganidek, "konsept" termini tafakkur, anglash, ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash kabi muammolar bilan shug'ullanuvchi kognitiv psixologiya hamda kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya fanlari uchun "soyabon" vazifasini o'taydi. Til inson ongida konseptni ifodalovchi va shakllantiruvchi vositalardan biridir. Konsept inson aqliy dunyosidagi madaniyatning asosiy yacheykasidir. Konseptlar inson ongida nafaqat so'zning lug'aviy ma'nolari asosida, balki shaxsiy hamda butun bir xalqning madaniy-tarixiy tajribasidan kelib chiqib paydo bo'ladi. Tajriba qancha boy bo'lsa, konseptning chegarasi shunchalik keng bo'ladi. Aynan shunday holatda konsept o'zini har tomonlama namoyon eta oladi. Zotan, konsept dunyoni bilish va u haqida o'z tasavvuriga ega bo'lish demakdir. Oddiy tushuncha va konsept o'zining farqli va o'xshash tomonlariga ega. Tushuncha moddiy borliqdagi narsa-hodisalarning eng muhim belgilarini ifodalasa, konsept ularning yuzaki (o'ta muhim bo'lmagan) tomonlarini ham ifodalay oladi. Tushuncha so'z orqali ifodalanadi, lekin tushuncha va so'z aynan bir narsa emas. Tushuncha biror

sinfga kiruvchi predmetlarni umumlashtirish va bu predmetning umumiy va farqlovchi belgilari majmuasi asosida shakllanadi. Konsept mental tuzilma bo'lib, u turli tarkibdagi va ko'rinishdagi bilimlar kvanti yoki umumlashmasidir. Konseptlar inson ongida shakllanadigan turli kategoriyalarning asosini tashkil qiladi, konseptning asosini tashkil qiluvchi predmet obrazi yetarlicha aniq va ikkilamchi o'rinni egallagan bo'laklari mavhumlikka ega bo'lishi bilan birgalikda, ular yagona negiz atrofida o'zaro munosabatga kirishib birikadilar. Shu sababli konsept tarkibining tizimiy xarakterga ega ekanligini e'tirof etish ma'quldir. Uning tizimiy xususiyatlari tuzilish jihatidan murakkab tartibli bo'lishida va bir butun mental tuzilma sifatida idrok qilinishida namoyon bo'ladi. Konsept bir tomondan insonning mental dunyosiga kirs, boshqa bir tomondan inson konsept yordamida madaniyatga kirib, unga ta'sir ham ko'rsatishi mumkin. Jumladan, N. Mahmudovning "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab", L. Uzoqovanning "O'zbek va ingliz tillaridagi "to'y" leksemasi bilan bog'liq birliklarning lingvokulturologik tadqiqi" kabi maqolasi, ingliz olimlaridan Bradford Jones yetti yillik izlanishlari davomida "to'y" konseptiga oid birliklarning ro'yxatini ommaga tushunarli tarzda tuzib chiqqan. Taniqli buyuk adibimiz Tohir Malik ta'biri bilan aytganda: "To'y – orzu-havaslarga yetilgan saodatli damlardir" [3]. To'y o'zbek madaniyatida millat bilan bog'liq tarzda qadimdan mavjud bo'lgan, xalqning turmushi bilan bog'liq o'ta e'zozlanadigan urf-odatlarini o'z ichiga olgan, qadriyat darajasiga ko'tarilgan muhim marosimdir. "O'zbek tilining izohli lug'ati" da: "to'y konsepti ko'pincha bazm, tomoshalar bilan o'tkaziladigan ba'zi marosimlarning umumiy nomi. 1. Qudalar o'rtasidagi kelishuvga muvofiq kuyov tomonidan qiz tomonga beriladigan pul, sarp, masalliq va shu kabilar majmui. 2. Biror voqea-hodisaga bag'ishlab ziyofat va o'yin- kulgular bilan o'tkaziladigan tantanalar" ekanligi ko'rsatib o'tilgan [2]. To'y konseptini ingliz va o'zbek tillarida semantik strukturalari hamda lingvokulturologik jihatdan tahlil qilib quyidagi o'xshashliklar va farqlar yuzaga kelganligini kuzatishimiz mumkin: O'xshashliklar: 1) unashtiruv marosimi – engagement party; 2) nikoh to'yi – wedding ceremony; 3) aqqa to'yi – a sip and see party; 4) xatna to'yi – newborn circumcisions (judayam shaxsiy fikrga qarab xatna qilinadi yoki yangi tug'ilgan chaqaloqda biror kasallik bo'lsa ham bu marosim o'tkaziladi); 5) uy to'yi – housewarming party; 6) ekin to'yi – harvest festival... To'y konseptining nikoh to'yi bilan bog'liq leksik maydonidagi o'xshash va farqli jihatlar, o'xshashliklar: 1) kelin va kuyov – bride and groom; 2) qo'lini so'ramoq – to proposal; 3) to'y -

wedding; 4) kuyovjo'ra – bestman; 5) kelinning do'sti – bridesmaid; 6) nikoh va'dasi – marriage vows... Farqlar: Ingliz madaniyatida qadimdan mavjud: 1) flower girl – to'y kuni kelin-kuyov yonidan gul sochib ketuvchi qiz; 2) ring bearer – uzuklarni olib chiqadigan odam, odatda, yosh bolalar; 3) wedding bells – to'ydan so'ng ikki yosh rasman oila qurganligini ifodalovchi qo'ng'iroqlar... O'zbek madaniyatida mavjud: 1) kelin salom – to'ydan so'ng kelinni kelganda ko'r, sepini yoyganda ko'r ma'nosida o'tkaziladigan marosim [4]; 2) charlari – to'ydan so'ng o'tkaziladigan, kelin va kuyovning ota-onalari bir-birlarini yanada yaqindan tanishlari va suhbat qilishlari uchun o'tkaziladigan marosim... va shu kabi ko'plab ham tilshunoslik ilmi uchun, ham ikki xalq vakillariga qiziqarli ma'lumotlarni ko'rishimiz mumkin. Ingliz madaniyatida to'y marosimi bilan ma'no jihatidan bog'liq bo'lgan bir nechta frazeologik birliklar, maqollar, iboralar va mashhur so'zlar mavjud:

- 1) As soon as I saw you, I knew a grand adventure was about to begin!
- 2) I want to be your favourite hello and your hardest goodbye!
- 3) You don't marry the person you can live with - you marry the person you can't live without!
- 4) To love and be loved is to feel the sun from both sides!
- 5) Love doesn't consist of grazing at each other, but in looking outward together in the same direction!
- 6) Where there is love, there is life!
- 7) The highest happiness on earth is the happiness of marriage!
- 8) Happiness and confidence are the prettiest things you can wear on your wedding day!
- 9) Wedding vows should include that do you promise to always help him or her find his or her stuff that is right in front of him or her!
- 10) Be completely humble and gentle, be patient, bearing with one another in love!

O'zbek madaniyatida ham qadimdan to'y marosimi bilan bog'liq bir qancha iboralar, maqollar va frazeologik birliklar mavjud:

- 1) Kelinning keldisi yaxshi, to'yning bo'ldisi yaxshi.
- 2) To'y ginasiz bo'lmas.
- 3) To'y siltovi bilan to'n bitar.
- 4) To'y – to'nliniki.
- 5) To'yga borsang burun bor, burun borsang o'rin bor.
- 6) To'yga borsang to'yib bor, yomonliging qo'yib bor.
- 7) To'yga – qo'shiq, azaga – yig'i.
- 8) To'yganga – to'y, to'ymaganga – tomosha.
- 9) To'ylikning to'ycha tashvishi bor, uylikning uycha tashvishi bor.
- 10) To'yning bo'ldi – bo'ldisi qiziq.
- 11) O'g'ilning to'yi – o'yin, qizning to'yi – qiyin.
- 12) Qo'y semizi – qo'ychidan, to'y tamizi to'ychidan.
- 13) Har kim to'ygan to'yini maqtar.

Xulosa va takliflar (Conclusion/ Recommendations). Xulosa qilib aytganda, kognitiv tilshunoslik obyekti inson ongi, tafakkuri va uning mental jarayon va holatlarini birgalikda o'rganish bilan shug'ullanuvchi alohida ilmiy soha sanaladi. U anglash va bilimlar, inson faoliyati davomida olamni anglash jarayonlari haqidagi fandir. Kognitiv tilshunoslikning tayanch tushunchalaridan biri bu konsept hisoblanadi. Konseptlar xalqning ongida jamoa merosi sifatida, uning ma'naviy mulki, madaniyati sifatida namoyon bo'ladi. Aynan jamoa ongi (fikri) konseptning yashovchanligini ta'minlovchi muhim vositalardan biri sanaladi. Ko'rib chiqilgan tahlillar natijasida shuni aytish mumkinki, ikkala madaniyatda ham to'y konsepti muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ingliz urf-odatlarining bajarilishiga qat'iy turishi, o'zbek milliy urf-odatlari o'z o'rnini yo'qotmaganligi bilan ajralib turadi. To'y konsepti juda keng tushuncha bo'lib, lisoniy manzarada turli leksik, paremiologik va sintaktik vositalarni ham o'z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Odilov A.A. (2021). Lingvokulturologiya fanining yuzaga kelish tarixi. Scientific progress, volume 2, (page 1376-1379).
2. Pirnazarova D. A. (2022). Zamonaviy tilshunoslikda konsept tushunchasi. Tafakkur manzili, (146–148-b.)
3. Tohir Malik (2017) Teng - tengi bilan baxtlidir. Sharq-ziyo-zakovat nashriyoti, 2017 (495, 5).
4. N.Qurbonnazarovanning Surxondaryo vohasi to'y marosimi etnografizmlarining semantik va lingvomadaniy tadqiqi. – Termiz, 2021.15-b.

Shohista TOHIRJONOVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Roman-German filologiyasi fakulteti,
Fransuz tili amaliy fanlari kafedrası katta o'qituvchisi
Elektron pochta manzili: @Shohista7700

FRANSUZ TILINI O'RGATISH VA TARJIMA QILISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Annotatsiya: ushbu maqola fransuz tilini o'rgatish va tarjima jarayonlarida qo'llaniladigan zamonaviy innovatsion yondashuvlarni tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqot davomida digital texnologiyalar, interaktiv o'quv usullari, kommunikativ yondashuvlar va zamonaviy tarjima texnikalarining ta'lim samaradorligiga ta'siri o'rganilgan. Maqolada fransuz tili o'qituvchilari va tarjimonlar uchun amaliy tavsiyalar berilgan, shuningdek, an'anaviy va innovatsion usullarning qiyosiy tahlili amalga oshirilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, innovatsion yondashuvlarning qo'llanilishi talabalarning til o'rganishdagi motivatsiyasini oshiradi, tarjima sifatini yaxshilaydi va o'quv jarayonini yanada samarali qiladi. Maqolada keltirilgan tavsiyalar oliy ta'lim muassasalarida fransuz tili kafedralarida qo'llanilishi mumkin.

Kalit so'zlar: fransuz tili, innovatsion yondashuvlar, til o'rgatish metodikasi, tarjima nazariyasi, digital texnologiyalar, interaktiv usullar, kommunikativ yondashuv, o'quv samaradorligi, zamonaviy pedagogika, lingvodidaktika.

Annotation: this article is devoted to analyzing modern innovative approaches used in French language teaching and translation processes. During the research, the impact of digital technologies, interactive teaching methods, communicative approaches, and modern translation techniques on educational effectiveness was studied. The article provides practical recommendations for French language teachers and translators, and also conducts a comparative analysis of traditional and innovative methods. The research results show that the application of innovative approaches increases students' motivation in language learning, improves translation quality, and makes the learning process more effective. The recommendations presented in the article can be applied in French language departments of higher educational institutions.

Key words: French language, innovative approaches, language teaching methodology, translation theory, digital technologies, interactive methods, communicative approach, learning effectiveness, modern pedagogy, linguodidactics.

Аннотация: данная статья посвящена анализу современных инновационных подходов, применяемых в процессах обучения французскому языку и переводу. В ходе исследования изучено влияние цифровых технологий, интерактивных методов обучения, коммуникативных подходов и современных техник перевода на эффективность образования. В статье даны практические рекомендации для преподавателей французского языка и переводчиков, а также проведен сравнительный анализ традиционных и инновационных методов. Результаты исследования показывают, что применение инновационных подходов повышает мотивацию студентов в изучении языка, улучшает качество перевода и делает учебный процесс более эффективным. Рекомендации, представленные в статье, могут быть применены на кафедрах французского языка в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: французский язык, инновационные подходы, методика преподавания языка, теория перевода, цифровые технологии, интерактивные методы, коммуникативный подход, эффективность обучения, современная педагогика, лингводидактика.

Kirish. XXI asrda globallashuv jarayonlari natijasida xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Fransuz tili dunyoning eng muhim xalqaro tillaridan biri sifatida alohida ahamiyatga ega va aynan mana shu sababga ko'ra uni o'qitishda zamonaviy yondashuvlarni qo'llash

zaruriyati paydo bo'ldi. Til o'qitishning an'anaviy usullari asosan grammatik strukturalar va lug'at boyligini kengaytirishga qaratilgan bo'lsa, zamonaviy lingvodidaktika kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishni birinchi o'ringa qo'yadi (Гальскова, 2000).

Innovatsion yondashuvlarning joriy etilishi fransuz tilini o'qitishda yangi imkoniyatlarni ochadi. Bu yerda digital texnologiyalar, interaktiv metodlar va kommunikativ yondashuvning ahamiyati katta. Fransuz tili metodikasi bo'yicha taniqli olim Christian Puren (2009) ta'kidlaganidek, "zamonaviy o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o'quv jarayonini tashkil etuvchi va yo'naltirib turuvchi bo'lishi kerak". Tarjima sohasida ham innovatsion texnologiyalarning ta'siri sezilarli. Kompyuter tarjimasi, tarjima xotiralari (Translation Memory) va sun'iy intellekt

asosidagi yordamchi dasturlar tarjimonlarning ish samaradorligini oshirmoqda (Алексеева, 2004). Biroq, bu texnologiyalarning to'g'ri qo'llanilishi va inson omilining saqlanib qolishi muhim masala bo'lib qolmoqda.

Metodologiya. Ushbu tadqiqot sifat va miqdor metodlarining kombinatsiyasi asosida olib borildi. Tadqiqot O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti va Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti bazasida amalga oshirilgan.

1-jadval.

Tadqiqot metodlari va ishtirokchilar

Metod	Ishtirokchilar	Davomiyligi	Maqsad
So'rov	120 ta talaba	3 oy	Digital vositalardan foydalanish darajasini aniqlash
Intervyu	15 ta talaba	2 oy	Innovatsion metodlar samaradorligini baholash
Tajriba	60 ta talaba	6 oy	An'anaviy va innovatsion usullarni taqqoslash
Kuzatuv	10 ta dars	1 oy	Amaliy qo'llanilishini tahlil qilish

Tadqiqotda ishtirok etgan talabalar 3 guruhga bo'lini:

1. **Nazorat guruhi** (20 ta talaba) – an'anaviy metodlar qo'llanildi.

2. **Eksperimental guruh A** (20 ta talaba) – digital texnologiyalar integratsiyalandi.

3. **Eksperimental guruh B** (20 ta talaba) – to'liq innovatsion yondashuv qo'llanildi.

Kommunikativ yondashuv asoslari – kommunikativ yondashuvning asoschisi Dell Hymes (1972) tomonidan ishlab chiqilgan kommunikativ kompetensiya tushunchasi zamonaviy til o'qitish metodikasining poydevori hisoblanadi. Bu yondashuv tilni nafaqat til tizimi, balki muloqot vositasi sifatida qarashni nazarda tutadi. Fransuz tilshunosi Sophie Moirand (1982) kommunikativ kompetensiyani quyidagi komponentlarga ajratgan: *lingvistik kompetensiya* – (grammatik va leksik bilimlar); *diskursiv kompetensiya* – (matn yaratish va tushunish

ko'nikmalari); *referensial kompetensiya* – (dunyoviy bilimlar) va *sotsiokultural kompetensiya* – (madaniy kontekstni tushunish).

Zamonaviy fransuz metodisti Françoise Demaizière (2005) TICE (Technologies de l'Information et de la Communication pour l'Enseignement) konsepsiyasini ishlab chiqdi. Bu yondashuv axborot-kommunikatsiya texnologiyalarinitilo'qitishgakompleksintegratsiyalashni nazarda tutadi. Digital vositalar klassifikatsiyasi:

1. *Interaktiv doska va multimedia proyektorlar.*
2. *O'quv dasturlari va mobil ilovalar.*
3. *Virtual reallik va augmented reallik texnologiyalari.*
4. *Online platformalar va LMS tizimlari.*
5. *Sun'iy intellekt yordamchi dasturlari.*

Rus olimi I.A. Giniatullin (2009) digital texnologiyalar til o'rganish motivatsiyasini 40% gacha oshirishi mumkinligini isbotlagan. Bu ko'rsatkich, ayniqsa, yoshlar orasida yuqori ekanligi qayd etilgan.

Tadqiqot natijalari va tahlil

2-jadval.

Turli metodlar bo'yicha o'zlashtirish darajasi (%)

Ko'nikma turi	Nazorat guruhi	Eksperimental A	Eksperimental B
Eshitib tushunish	65%	78%	85%
Gapirish	58%	72%	82%
O'qish	72%	85%	92%
Yozish	61%	74%	80%
Grammatika	69%	79%	83%

Natijalar shuni ko'rsatadiki, innovatsion metodlarni qo'llagan guruhlarda barcha ko'rsatkichlar sezilarli darajada yaxshilangan. Eng yuqori natija to'liq innovatsion yondashuvni qo'llagan B guruhida qayd etilgan.

Motivatsiya dinamikasi (6 oylik davr)

Nazorat guruhi:  65%
 Eksperimental A:  78%
 Eksperimental B:  89%

Eng yuqori motivatsiya darajasi eksperimental B guruhida qayd etildi, bu yerda to'liq innovatsion yondashuv qo'llanilgan. Talabalar digital vositalar, interaktiv o'yinlar va virtual reallik texnologiyalarini ishlatishdan katta qiziqish bildirdilar.

Xulosa. Ushbu tadqiqot fransuz tilini o'rgatish va tarjima sohasida innovatsion yondashuvlarning ahamiyatini yaqqol ko'rsatdi, ya'ni, a) **samaradorlik sezilarli oshdi** – innovatsion metodlar qo'llanilgan guruhlarda til ko'nikmalari 15-27% gacha yaxshilandi. Bu juda katta ko'rsatkichdir; b) **talabalar qiziqishi ortdi** – digital vositalar va interaktiv metodlar tufayli motivatsiya 65% dan 89% gacha ko'tarildi. Bu degani, talabalar darsga zavq bilan kelishmoqda; d) **zamonaviy texnologiyalar samarali** – virtual reallik, mobil ilovalar, onlayn platformalar kabi vositalar til o'rganishni tezlashtirdi va osonlashtirdi.

Tadqiqot davomida talabalarning fransuz tilini o'rganishga bo'lgan motivatsiyasi muntazam o'lchanib borildi. Quyidagi diagramma motivatsiya o'zgarishini ko'rsatadi:

Bu tadqiqot shuni isbotladiki, agar biz an'anaviy **“grammatika-tarjima”** usulidan voz kechib, zamonaviy kommunikativ metodlar va digital texnologiyalarni qo'llasak, natija ancha yaxshi bo'ladi. Talabalar nafaqat grammatikani yodlaydi, balki haqiqiy hayotda fransuzlar bilan gaplashishni o'rganadilar. Bu faqat fransuz tili uchun emas – boshqa xorijiy tillar uchun ham qo'llanilishi mumkin. Digital davr talabi shuki, biz ham zamonaviy bo'lishimiz kerak.

Xulosa qilib aytganda, agar ta'lim tizimimiz innovatsion yondashuvlarni qabul qilsa, O'zbekiston yoshlari dunyoning istalgan burchagida erkin muloqot qila oladigan darajaga yetishadilar. Bu esa mamlakatimizning xalqaro maydondagi obro'sini oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алексеева, И. С. (2004). Введение в переводоведение. – Москва: Издательский центр «Академия».
2. Гальскова, Н. Д. (2000). Современная методика обучения иностранным языкам. – Москва: АРКТИ.
3. Гиниатуллин, И. А. (2009). Использование информационных технологий в обучении иностранным языкам. – Казань: Издательство КФУ.
4. Demaizière, F. (2005). Méthodologie de la recherche didactique en environnement multimédia. – Paris: Didier.
5. Hymes, D. (1972). On communicative competence. In J. Pride & J. Holmes (Eds.), Sociolinguistics (pp. 269-293). Harmondsworth: Penguin Books.
6. Moirand, S. (1982). Enseigner à communiquer en langue étrangère. – Paris: Hachette.
7. Puren, C. (2009). Variations sur la perspective de l'agir social en didactique des langues-cultures étrangères. – Paris: CLE International.
8. Жўраев, Р. К. (2018). Хорижий тилларни ўқитишда замонавий методлар. Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент: ЎДЖТУ.
9. Мирзаахмедова, Ш. С. (2020). Француз тилини ўқитишда инновацион технологиялар. Таълим тизимида инновацион ёндашувлар журналы, 2(4), 45-52.
10. Расулова, М. У. (2019). Француз тили грамматикасини ўқитишда интерфаол усуллар. – Тошкент: «Фан» нашриёти.
11. Хакимова, Н. Б. (2021). Рақамли технологиялар ёрдамида франсуз тилини ўқитиш. Хорижий филология журналы, 3(78), 112-119.

Muborak MADRAXIMOVA,
Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatika universiteti
Roman-german tillari kafedrasida o'qituvchisi
muborak27@inbox.ru

O'ZBEK VA ITALYAN TILLARIDA "QO'RQUV" IFODALOVCHI TIL BIRLIKLARNING PAREMIYALARDA AKS ETISHI

Annotatsiya: mazkur ilmiy maqolada o'zbek va italyan tillarida "qo'rquv" konseptini ifodalovchi paremiyalar qiyosiy tahlil qilinadi. Maqolada paremiyalar psixolingvistik, semantik, morfologik va sintaktik jihatdan tahlil etilib, ularning gap shaklidagi va so'z birikmasi shaklidagi namunalari ajratib ko'rsatilgan. Qo'rquvni ifodalovchi frazeologik birliklar insonning psixofiziologik holati, emotsional tajribasi, madaniy tafakkuri va til manzarasi bilan chambarchas bog'liq ekanini asoslab beriladi. Har ikki tilda qo'rquv holati tana a'zolari (yurak, til, nafas, oyoq) va hayvon obrazlari (quyon, it) orqali metaforik ifodalanadi.

Kalit so'zlar: *paremiyalar, frazeologik birliklar, metafora, animalizmlar, xalq og'zaki ijodi, til va madaniyat.*

Аннотация: данная статья посвящено сравнительному анализу паремий, выражающих концепт страха в узбекском и итальянском языках. В статье проводится психолингвистический, семантический, морфологический и синтаксический анализ паремий, представленных как в виде устойчивых словосочетаний, так и в форме законченных предложений. Установлено, что выражение страха тесно связано с психофизиологическими состояниями человека, эмоциональным восприятием и культурными особенностями. В обоих языках страх часто метафорически передаётся через части тела (сердце, дыхание, язык, ноги) и образы животных (например, заяц, собака).

Ключевые слова: *паремии, фразеологические единицы, метафора, анимализмы, народное устное творчество, язык и культура.*

Annotation: this article presents a comparative analysis of proverbs and phraseological units expressing the concept of fear in Uzbek and Italian languages. The article examines these paremias from psycholinguistic, semantic, morphological, and syntactic perspectives. Proverbs and idioms, both in sentence and phrase form, are analyzed in terms of their structure and meaning. The findings show that expressions of fear are closely related to human psychophysiological states, emotional experiences, and cultural perceptions. In both languages, fear is often conveyed metaphorically through parts of the body (heart, breath, tongue, legs) and animal imagery (e.g., rabbit, dog).

Key words: *paremias, phraseological units, metaphor, animalisms, language and culture.*

Hozirgi zamon tilshunosligida paremiyalar va umumiy paremiologiya nazariyasiga bag'ishlangan tadqiqotlar ko'p bo'lishiga qaramay, ushbu yo'nalishda hali yechimini kutayotgan muammolar mavjudligi kuzatiladi. Ulardan biri — paremiyalarning tizimli tasnifi mavjud emasligidir. K.Banokina bu o'rinda aksariyat mavjud frazeologik lug'atlarda paremiyalar faqat alifbo tartibida berilgan bo'lib, bu ularning chuqur tahlilini cheklashini ta'kidlaydi. Olim paremiyalarni ilmiy asosda tasniflash zaruratidan kelib chiqib, psixolingvistik mezonlar asosida paremiyalar tasnifini ishlab

chiqish, paremiyalardagi ko'p ma'nolilik (polisemiya) mezonlarini belgilash, qo'rquv konseptini ifodalovchi so'zlashuv va xalq og'zaki nutqiga xos paremiyalar korpusini shakllantirish g'oyalarini ilgari suradi.

Paremiyalar barqaror frazeologik birliklar bo'lib, ular tarkibiga maqollar, maqolga o'xshash iboralar, matallar hamda aforizmlar kiradi.

Paremiyalar tili — xalq ongida shakllangan jamoa tajriba va emotsional baholashlarning timsolidir. "Qo'rquv"ni ifodalovchi paremiyalar psixolingvistika nuqtayi nazaridan inson psixikasi va nutqiy faoliyatining o'zaro ta'siri

natijasida vujudga kelgan barqaror til birliklaridir. Bu turdagi paremiyalar insonning hissiy holati, psixofiziologik reaksiyalari va kognitiv jarayonlari bilan bevosita bog'liqdir.

Tadqiqot jarayonida paremiyalar sintaktik tuzilish prinsipi asosida tahlil qilindi. Natijada, gap shaklida qurilgan o'zbek va italyan tillaridagi paremiyalar aniqlanib, ular "frazologik birliklar" yoki "to'liq frazeologizmli gaplar" guruhiga kiritildi. Ushbu guruhga kiruvchi paremiyalarga quyidagi misollarni keltirish mumkin:

O'zbek tilida, a) yuragi shuv etdi: *bo'yin qiyshaytirib papiros tutatdi. Gugurtcho'pni yelkasi osha otdi. Yuragim shuv etdi.* (T.Murod, Otamdan qolgan dalalar. 279-b)

b) joni halqumiga keldi: *joni halqumiga keldi. To'xta, qayt! Nima bu? deb qichqirdi Farmonov, yomg'irdan paltosi shalobbo bo'lib ketgan, sal qaltirar edi.* (A.Muxtor, Chinor. 416-b)

v) nafasi qisilmoq: *nafasim qisilganini sezdim.* (X.To'xtaboyev, Mungli ko'zlar, 131-b)

Italyan tilida: a) *La paura si mescolava alla rabbia; l'anticipazione si fondeva con il terrore. Ogni battito del suo cuore ... notte.* (qo'rquvdan yurak urishi tun edi) (B.Pierce. Lascia che Svanisca)

b) *Le venne un nodo allagola. Le si riempirono gli occhi di lacrime e voltò subito lo sguardo per evitare che gli altri se ne accorgessero.* (Joni halqumiga keldi) (M.Banks, Dopo la tempesta)

c) *Il suo grido era così ... rimase senza fiato. Lo studiò, impugnando la mia spada.* (nafasi siqilib qolgan) (L.Jones, Il Destino del Lupo)

Bundan tashqari, so'z birikmasi shaklida ifodalangan o'zbek va italyan tilidagi paremiyalar ham alohida ajratib ko'rsatildi. Misollar:

O'zbek tilida: a) quyon yurak (zaif yurakli odam haqida); *Yigit deb yurganlaringni qarang, birgina qarsakdan cho'chib, ortga chekindi. Aslida u quyon yurak ekan.*

b) na tirik, na o'lik (hushidan ketgan, vahimaga tushgan holat); *Yig'lab-yig'lab charchadi. Na u yashayotgan odamday edi, na butkul o'lib ketgan. Na tirik, na o'lik — yarmi azob, yarmi jimjitlik ichida yashardi.*

2.Italyan tilida: a) *Essere spaventato a morte* – o'lim darajasida qo'rqib ketmoq (og'zaki nutqda); *Avevamo paura da morire quando ci siamo persi nel bosco.*

b) *Stare sulle spine* – qattiq xavotirda bo'lmoq, "ignalar ustida" o'tirgandek holat. *Ero sulle spine in attesa dei risultati dell'esame.*

O'zbek va italyan tillaridagi fe'lli (verbal) paremiyalar

Fe'lli (verbal) paremiyalar	
O'zbek tilida	Italyan tilida
Jonim chiqib ketdi	Mi si è gelato il sangue (<i>Qonim muzlab ketdi</i>)
Qo'rqib hushimdan ketdim	Sono svenuto dalla paura (<i>Qo'rquvdan hushimni yo'qotdim</i>)
Qo'rqqanidan titradi	Ha tremato dalla paura
Qo'rqib qotib qoldi	È rimasto paralizzato dalla paura
Yuragi orqaga tortdi	Il cuore si è ritirato (<i>Yuragi orqaga tortildi</i>)
Yuragi hovliqdi	Il cuore ha avuto un sussulto (<i>Yurak hapqirdi</i>)

Jadvaldagi paremiyalar barqaror iboralar bo'lib, ular xalqning emotsional psixologiyasi va tajribasi asosida shakllangan. O'zbek va italyan tillaridagi bir qancha paremiyalar tana

a'zolari orqali metaforik ifodalanadi (masalan, yurak, qon, oyoq, qo'l, nafas). Har ikki tilda qo'rquv harakat, holat yoki sezgi orqali ifoda etiladi.

O'zbek va italyan tillaridagi belgilovchi (adverbial) paremiyalar

Ravishdoshli (adverbial) paremiyalar	
O'zbek tilida	Italyan tilida
Rangi oqargan, oqarib ketgan	<i>Diventare bianco come un lenzuolo</i> (choyshabdek oqarib ketmoq)

Tili kalimaga kelmaslik	<i>Perdere la lingua della paura</i> (qo'rquvdan tilini yo'qotmoq)
Qaltiragan	<i>Tremare come una foglia</i> (bargdek qaltiramoq)
Oyoq-qo'li bo'shashgan	<i>Sentirsi mancare le gambe</i> (oyoqsizlikni his qilmoq)
Ko'zlari olayib ketgan	<i>Sgranare gli occhi dalla paura</i> (qo'rquvdan ko'zlarini katta ochmoq)

O'zbek va italyan tillarida qo'rquv ko'pincha tana reaksiyalari, rang, harakat, holat orqali berilishi aniqlandi. Bunda ko'p hollarda metafora shaklida tana a'zolari (ko'z, yurak, oyoq, til) orqali qo'rquv aniq tasvirlanadi. Psixolingvistik jihatdan bu paremiyalar insonning qo'rquvga bo'lgan tabiiy javobi va madaniy ifodasini aks ettiradi.

Vahima holatida bo'lish, vahimada yashash so'z birikmasi tuzilishiga ega bo'lgan paremiyalar o'z navbatida ikki guruhga bo'lindi:

1. So'z birikma shaklida qo'rquv ifodalovchi paremiyalar, ya'ni frazemalar, metaforik birikmalar,

2. Gap shaklida qo'rquv ifodalovchi paremiyalar, bularga maqol, matallar kiradi.

So'z birikmalari ko'pincha metaforik, obrazli bo'lib, psixik reaksiyani ifodalaydi. Gapli tuzilmalar esa aksariyat hollarda shaxsiy tajriba va madaniyatga xos psixofiziologik holat bilan bog'liq bo'ladi. Har ikkala tilda ham qo'rquv somatik belgilar (titroq, yurak urishi, hushdan ketish) bilan ifodalangan bo'lib, bu uning emotsional intensivligini ko'rsatadi. Italyan tilida "teriga g'oz chiqishi", "yurak og'izda bo'lishi" kabi iboralar orqali ko'rgazmali (visual) obraz yaratiladi, bu esa ko'rgazmali tafakkur ustunligini ko'rsatadi.

Mazkur muammo bo'yicha e'tiborga molik tadqiqotlar orasida paremiyashunos olim G.L. Permyakovning nazariyalari diqqatimizni tortdi. Paremiyalarning jiddiy va chuqur tahlili unga ularni aniq tavsiflash hamda maqol va matallarning turli yo'nalishlardagi tasniflarini ishlab chiqish imkonini bergan. Ta'kidlash lozimki, olim o'z tasnifida maqol va matallar bilan bir qatorda qisqa iboralarining boshqa shakllarini ham kiritgan bo'lsa-da, amaliy tahlilda faqat maqol va matallargina ko'rib chiqilgan. Demak, bizning tadqiqotimizdagi barqaror iboralar G.L. Permyakov tomonidan "turli xil til klishelari" deb atalgan atamaga to'g'ri keladi.

Zamonaviy tilshunoslar paremiyalogiyani keng talqin etadilar. Tadqiqotchilar fikricha, biror

til birligi matnda yoki og'zaki nutqda qayta-qayta ishlatilish xususiyatiga ega bo'lsa, u paremiyalar qatoriga kiradi. Bunga maqollar, matallar, qanotli iboralar kabi aforizmlar hamda ayrim frazeologik birikmalar ham kiradi. E.Osheva agar til birliklari doimiy takrorlanishga moyil bo'lsa, frazeologik iboralarni ham paremiyalarning doirasida ko'rib chiqish mumkin, deya e'tirof etadi.

Paremiyalar tarkibiga to'liq gap shaklida ifodalangan maqollar hamda gap parchasini tashkil etuvchi matallar kiradi. Umuman olganda, paremiyalar – bu nutqiy qoliplar hisoblanadi.

Paremiyalar orasida eng ko'p ishlatiladigani va eng ko'p o'rganilgani bu — maqoldir. Aksariyat tadqiqotchilar fikriga ko'ra, maqol grammatik jihatdan gapga teng keladi: u oddiy so'z birikmasidan kichik bo'la olmaydi va ayni paytda gapdan kattaroq ham bo'la olmaydi. Bu holatda gap deganda sodda va murakkab gaplar ham nazarda tutiladi.

Shu bilan birga, maqollar tashqi tuzilmasining soddaligiga qaramay, juda murakkab hodisa sanaladi. Shu sababli hozirgacha ilmiy doiralarda maqolning yagona va umumiy tan olingan ta'rifi mavjud emas. V.I. Dal ham tadqiqotida "maqol", "matal", "qanotli ibora" kabi tushunchalarni aniqlashtirish zarurligini aytib o'tgan va ularni qanday talqin qilish bo'yicha bir to'xtamga kelish lozimligini yozgan. Olim maqollarda ritorikaning metafora, allegoriya, gipérbola, metonimiya, sinekdoxa, kinoya, qarama-qarshilik, ma'noning o'zgartirilishi, ko'p ma'nolilik, personifikatsiya, shartli ifoda, tushirib qoldirish, ochiq aytmaslik kabi usullar, shuningdek, xalq og'zaki ijodining qo'shiq va ertak janrlariga xos bo'lgan "o'lchovli va ohangdor shakl"ni tadqiq etgan.

Maqollar grammatik jihatdan sodda tuzilishiga qaramay, murakkab va ko'p qirrali til hodisasi sanaladi. Paremiologik birlik sifatida ular mantiq, tilshunoslik, psixolingvistika kabi fanlar nuqtayi nazaridan ham o'rganilishi mumkin. Barcha paremiya turlariga xos bo'lgan umumiy

xususiyatlar quyidagilardir: 1) andozalikka asoslanganligi (klishe'lik); 2) qisqa, chuqur ma'no anglatishi (aforistiklik); 3) amaliy ahamiyatga egaligi (foydalilik); 4) inson markazida turganligi (antropotsentriklik).

Ayniqsa, maqollarga xos bo'lgan bir qator maxsus belgilar ham mavjud: 1) xalq og'zaki ijodiga mansubligi; 2) qadimiy kelib chiqishi bilan birga bugungi kunda ham dolzarbligi; 3) obrazlilik va ramziy ma'no (metaforiklik); 4) majoziy ifoda (allegoriklik); 5) ko'p ma'nolilik va umumlashtirishga moyillik; 6) tarbiyaviy mazmun (senteziya, ya'ni axloqiy saboq berish); 7) badiiylilik, poetik ifoda; 8) kuchli emotsional ifoda; 9) ixchamlik va lo'ndalik; 10) ma'no va tuzilish jihatidan yakunlanganlik.

Har bir tilning lingvistik manzarasi o'ziga xos. Shu bois, qo'rquv o'zbek tilida ko'proq *xushi* kabi ma'naviy tushunchalar orqali ifodalanar ekan, italyan tilida esa *sangue* (*qon*) komponenti keng qo'llaniladi: "*hushidan ketdi*", "*far gelare il sangue*" esa qo'rquvdan qon muzlash darajasiga yetadi.

Bu farqlar mentalitet va madaniyatga bog'liq bo'lsa-da, umumiy semantik asoslari mavjudligi sababli ular orqali xalq tafakkuridagi o'xshashliklar ochiladi.

Hayvonlarga oid paremiyalar odatda inson xatti-harakati yoki xulqini hayvon obrazlari orqali baholaydi. Animalizmlar quyidagi xususiyatlarga ega: 1) hayvon nomining bevosita qo'llanishi; 2) u orqali inson ifodalanishi (metaforik holatda); 3)

baholovchi ma'no (masalan, qo'rqqoq, dangasa, makkor kabi). Masalan: *ichini it tatalaydi – Rodersi dentro. Chumchuqdan qo'rqqan tariq ekmaydi – Chi ha paura del lupo non entri nel bosco.* (*Bo'ridan qo'rqadigan o'rmonga kirmasin.*) Ko'plab animalizmlar odamlar uzoq yillar davomida hayvonlar bilan bevosita yashaganidan va ularning xatti-harakatlarini kuzatganidan kelib chiqqan. Masalan, *quyon* deyarli barcha tillarda qo'rquv va jur'atsizlikning timsoli bo'lib xizmat qiladi: "*qo'rquvdan qaltiramoq, quyondek bo'lmoq*". Bu kabi iboralar orqali o'zbek va italyan madaniyatlaridagi xalq tasavvurlarining yaqinligi va arxaik hayot tajribalari til orqali saqlanib qolganini ko'rish mumkin.

Qo'rquvni ifodalovchi paremiyalar semantik tahlili shuni ko'rsatadiki, o'zbek va italyan tillarida qo'rquv turli vositalar bilan tasvirlanadi: bu — inson tanasi qismlari (somatizimi), hayvonlar (animatizmlar) yoki tabiat hodisalari orqali ifodalanadi. Masalan, rus tilida "terisi muzday junjukdi", italyan tilida esa "farvenire i brividi" kabi birikmalar qo'rquvni kuchli holatda tasvirlaydi.

Qo'rquvni ifodalovchi paremiyalar til va madaniyat o'ziga xosliklarini yoritadi, ammo ular orasida universal semantik motivlar (masalan, tananing reaksiyasi, hayvon obrazlari orqali qo'rquvni ifodalash) mavjud. Bu birliklar xalq og'zaki ijodining emotsional-funksional darajasini ko'rsatadi va psixolingvistik yondashuvda chuqur tadqiq qilishga loyiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Банокина К.О., Романюк М.Ю. О классификации паремий, содержащих компоненты семантического поля «страх» в русском и английском языках // ВЕСТНИК Оренбургского государственного университета №1 (176)/январь`2015. – С.25-32.
2. Пермяков Г.Л. Основы структурной паремиологии / Г.Л. Пермяков. – Москва: Наука, 1988.
3. Ошева Е. Паремиологическое пространство: дискуссионные вопросы / Е. Ошева // Исследовательский журнал русского языка и литературы. – 2013 – № 1(1).
4. Даль В.И. «Пословицы русского народа» 1984.
5. Хаитова Ф.С. Паремии в лингвистике // ИЛМИЙ AXBOROTNOMA FILOLOGIYA, 6-son 2022. 89-93-b.

Zulayxo NISHANOVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Roman-german fakulteti, ispan tili amaliy fanlar kafedrasida
stajor-o'qituvchisi
El. pochta: zulaykhonishanova@gmail.com

ISPAN TILINI O'RGANISH JARAYONIDA MADANIYATNING ROLI: LINGVISTIK VA ANTROPOLOGIK ASOSLAR

Annotatsiya: ushbu maqolada ispan tilini o'rgatish jarayonida madaniyatning o'rnini, uning lingvistik va antropologik asoslari yoritilgan. Til va madaniyat o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, til o'rganish jarayonida milliy qadriyatlar, madaniy an'analar va ijtimoiy me'yorlarni hisobga olish samaradorlikni oshiradi. Shuningdek, O'zbekistonda ispan tili o'qitish tajribasi misolida madaniy komponentning ahamiyati ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *ispan tili, madaniyat, lingvistika, antropologiya, til o'qitish, kommunikativ yondashuv.*

Annotation: this article highlights the role of culture in the process of teaching the Spanish language, as well as its linguistic and anthropological foundations. Language and culture are interconnected, and taking into account national values, cultural traditions, and social norms during language learning increases effectiveness. In addition, the importance of the cultural component is demonstrated using the example of teaching Spanish in Uzbekistan.

Key words: *Spanish language, culture, linguistics, anthropology, language teaching, communicative approach.*

Аннотация: в данной статье рассматривается роль культуры в процессе изучения испанского языка, а также её лингвистические и антропологические основы. Язык и культура взаимосвязаны, и учет национальных ценностей, культурных традиций и социальных норм в процессе изучения языка повышает эффективность. Кроме того, показано значение культурного компонента на примере преподавания испанского языка в Узбекистане.

Ключевые слова: *испанский язык, культура, лингвистика, антропология, преподавание языка, коммуникативный подход.*

Kirish. Bugungi globallashuv davrida xorijiy tillarni o'rganish nafaqat lingvistik kompetensiyani, balki madaniy kompetensiyani ham shakllantirishni talab etmoqda. Til va madaniyat bir-biridan ajralmas hodisalar bo'lib, ular o'rtasidagi o'zaro ta'sir xorijiy til o'rgatishda muhim metodologik asoslardan hisoblanadi. Ispan tili dunyoda eng ko'p tarqalgan tillardan biri bo'lib, uni o'rganish jarayonida ispan xalqlarining turmush tarzi, urf-odatlar, qadriyatlari va ijtimoiy xususiyatlarini o'quvchilarga yetkazish katta ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Til — bu madaniyatning asosiy tashuvchisidir. Ispan tilini o'rgatishda fonetika, leksika va grammatik strukturani o'rgatish bilan bir qatorda, frazeologizmlar, maqol va matallar, nutq odatlari ham e'tiborga olinishi kerak. Masalan, Ispaniya va Lotin Amerikasidagi ispan tili variantlari o'rtasidagi leksik tafovutlar madaniy farqlarni ham aks ettiradi.

Tilshunoslikda antropologik yondashuv tilni jamiyatning ijtimoiy-madaniy hayotidan ajratmagan holda o'rganishni nazarda tutadi. Ispan xalqlarining turmush tarzi, diniy bayramlari (masalan, **Semana Santa, Día de los Muertos**), milliy taomlari va musiqiy an'analari o'quvchilarga nafaqat tilni, balki xalqning dunyoqarashini ham anglash imkonini beradi.

Ispan tilini o'rganishda madaniyatning roli juda

muhimdir va bu jarayon lingvistik va antropologik asoslarga ega. Madaniyat til o'rganishda so'zlar va grammatikadan ko'ra kengroq ma'noga ega bo'lib, u yerda til o'zining kontekstini, urf-odatlar, qadriyatlarni, an'analarni va tarixiy voqealarni o'z ichiga oladi. Bu so'zlar va jumalarning ma'nosini chuqurroq tushunishga yordam beradi, shuningdek, madaniy farqlar tilni o'rganish jarayonida yuzaga keladigan noaniqliklarni kamaytiradi. Masalan, turli mamlakatlarda o'ziga xos so'z birikmalari va shevalar mavjud bo'lib, ularni bilish samarali muloqotni ta'minlaydi.

Lingvistik antropologiya til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni o'rganadi va tilning inson tajribalari, ijtimoiy munosabatlar va madaniy ifodalardagi rolini tahlil qiladi. Madaniyat tilni shakllantiradi va til orqali madaniy qadriyatlar avloddan avlodga yetkaziladi. Shunday qilib, til madaniyatning ajralmas qismi bo'lib, uni o'rganish tilni yanada samarali o'zlashtirishni ta'minlaydi.

Madaniyatni o'rganish jarayoni musiqa, kino, adabiyot, an'anaviy bayramlar va kundalik hayotdagi madaniy hodisalarga jalb qilinish orqali kuchayadi. Masalan, ispan tilida qo'shiqlarni tinglash, kino va seriallarni ko'rish, mahalliy bayramlarda qatnashish til o'rganishni yanada jonli va tabiiy qiladi.

Ushbu ma'lumotlar madaniyat va til o'rganish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushunishga yordam beradi va ispan tilini o'rganishda madaniyatning ahamiyatini ko'rsatadi. Ispan tilini o'rgangan paytda madaniyatning o'rni juda muhimdir, chunki til va madaniyat ajralmasdir. Til nafaqat so'zlar va grammatikadan iborat, balki u odamlarning qadriyatlari, an'analari, urf-odatlar, ijtimoiy normalari va tarixiy voqealarini o'zida aks ettiradi. Madaniyatni tushunish tilni chuqurroq va samaraliroq o'rganishga yordam beradi, ayniqsa, turli ispan tilida so'zlashuvchi mamlakatlardagi sheva va iboralar farqlarini to'g'ri anglash uchun muhimdir.

Lingvistik antropologiya tilni madaniy kontekstda o'rganish orqali til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qiladi va til orqali jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, qadriyatlari va tarixini o'rganishga yordam beradi. Madaniyat va til bir-birining qamrovi bo'lib, til madaniyatni uzatish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Ispan tilini o'rganishda madaniyatga sho'ng'ish — musiqa, kino, adabiyot, bayramlar va kundalik hayotdagi madaniy tajribalar — tilni yanada jonli va amaliy o'rganishga ko'maklashadi. Bu orqali o'rganuvchi tilning ohanglari, talaffuzi, leksikasi va iboralarini real kontekstda egallaydi.

Natijada, ispan tilini samarali o'rganish uchun lingvistik va antropologik asoslarni tushunib, madaniyat bilan uzviy bog'liqlikni qabul qilish juda zarurdir.[7]

Ispan madaniyatini aks ettiruvchi lingvistik xususiyatlar quyidagilardan iborat:

Ispan tilidagi frazema va iboralar madaniyatning turli jihatlarini yoritadi, jumladan tarixiy voqealar, ijtimoiy munosabatlar va an'analar. Ushbu frazemalar til sohibining tafakkurini va madaniy xotirasini ifodalaydi.

Pragmatik xususiyatlar, ya'ni tilning muloqot vaziyatida qo'llanishi, madaniyatga xos nutq odatlari va ijtimoiy munosabatlarni aks ettiradi. Masalan, xushmuomalalik, hurmat ko'rsatish shakllari ispan tilida muhim o'rin tutadi.

Ispan tilining leksik tizimi madaniyat bilan chambarchas bog'liq bo'lib, o'zida ijtimoiy va madaniy qadriyatlarni aks ettiruvchi maxsus so'zlar va

terminlarni o'z ichiga oladi.

Ispan tilida ayrim so'zlarning ma'nosi va ishlatilishi madaniy kontekstga bog'liq bo'lib, bu tilning madaniy tafakkurni aks ettirishda muhim rol o'ynashini ko'rsatadi.

Ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish tilning kommunikativ funksiyasini to'liq anglash uchun zarur va bu madaniyat bilan mustahkam bog'liqdir.

Shunday qilib, ispan tilidagi lingvistik strukturalar va nutq hodisalari madaniyatning ijtimoiy-historik, etnik va kommunikativ jihatlarini amalga oshiradi va ta'riflaydi. [6]

O'zbekistonda xorijiy tillarga qiziqish ortib borayotgan bir paytda ispan tili ham alohida o'ringa ega bo'lib bormoqda. Universitetlarda ispan tilini o'qitishda madaniy komponentni kuchaytirish, talabalarni xalqaro loyihalar, almashinuv dasturlari va onlayn platformalar orqali ispan tilida muloqot qilishga jalb etish samarali natijalar bermoqda. Shu jihatdan, madaniyatni integratsiyalash til o'rganishni yanada tezlashtiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ispan tilini o'rganishda madaniyatning roli beqiyosdir. Til va madaniyat o'zaro bog'liq bo'lib, ularni birgalikda o'rgatish xorijiy til o'qitish samaradorligini oshiradi. Lingvistik va antropologik asoslarni hisobga olish orqali o'quvchilar nafaqat tilni, balki xalqning mentaliteti, qadriyatlari va hayot tarzini ham o'zlashtiradi.

Lingvistik va antropologik asoslarda, til nafaqat aloqa vositasi, balki madaniyatni, xalqlarning qadriyatlarini, an'analarini va dunyoqarashini aks ettiruvchi tizim sifatida ko'riladi. Ispan tilini o'rgangan kishi, shu tilda so'zlovchi xalqlarning madaniyati, urf-odatlar, ijtimoiy hayoti va fikrlash tarzini ham o'rganadi. Madaniyatni tushunmasdan tilni chuqur anglash mumkin emas, chunki tilning leksik, grammatik va pragmatik qatlamlari madaniy kontekstda to'la ma'noda ochiladi. Bundan tashqari, madaniyat til o'zaro muloqotning ijtimoiy-madaniy muhitini shakllantiradi va til o'rganishda madaniy kompetentlikni rivojlantirish talab etiladi. Demak, til o'rgatishda madaniyat komponentiga alohida e'tibor qaratish zamonaviy ta'limning dolzarb vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kramersch, C. (1998). *Language and Culture*. Oxford University Press.
2. Claire Kramersch. (2009). *The Multilingual Subject*. Oxford University Press.
3. Костомаров, В. Г., & Верещагин, Е. М. (1990). *Язык и культура*. – Москва.
4. Risager, K. (2006). *Language and Culture: Global Flows and Local Complexity*. Multilingual Matters.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi qarorlari va me'yoriy hujjatlari.
6. <https://lib.bimm.uz/items/download/8398>
7. <https://my-spanish-dictionary.com/the-role-of-culture-in-learning-spanish-an-in-depth-guide/>

Nurali ESHPO‘LATOV,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
stajor o‘qituvchisi



XITOIY TILIDA JISYANGYUY (吉祥语)LARNING MA‘NO TURLARIGA KO‘RA TASNIFI: BAXT, QUVONCH, MARTABA- BOYLIK, UZOQ UMR, FAZILAT, TINCHLIK VA RANG RAMZLARI

Annotatsiya: maqolada hozirgi xitoy tilidagi jisyangyuy (吉祥语) semantik yo‘nalishlar bo‘yicha tizimli ravishda tasniflanadi va ularning ishlatilish mexanizmlari izohlanadi. Tadqiqot bazasi sifatida marosim matnlari, kundalik tabriklar, chunlian (春联) yozuvlari, klassik manbalar hamda izohli lug‘atlardan tuzilgan kichik korpusdan foydalanildi. Tahlil yetti asosiy guruhni qamrab oladi: baxt, quvonch, martaba – boylik, uzoq umr, fazilat, tinchlik va rang ramzlari. Amaliy jihatdan, maqola tarjima va o‘qitishda “domen – ramz – homofoniya” yondashuvini qo‘llashni taklif etadi.

Kalit so‘zlar: jisyangyuy, semantik tasnif, homofoniya, rang – raqam timsoli, marosim nutqi, domen – ramz – homofoniya, xitoy tili.

Аннотация: статья предлагает системную семантическую классификацию цзисяньюй (吉祥语) современного китайского языка и описывает механизмы их функционирования в реальных коммуникативных ситуациях. Эмпирическая база включает обрядовые тексты, повседневные поздравления, весенние парные надписи (春联), классические источники и толковые словари. Анализ охватывает семь доменов: счастье, радость, карьера и богатство, долголетие, добродетель, мир/благополучие и цветовую символику.

Ключевые слова: цзисяньюй; семантическая классификация; омофония; цветовая/числовая символика; обрядовая речь; домен-символ-омофония; китайский язык.

Annotation: this article presents a systematic semantic classification of jisyangyuy (吉祥语) in modern Chinese and explicates how these expressions function across real-life contexts. The dataset combines ceremonial texts, everyday greetings, spring couplets (春联), classical sources, and explanatory dictionaries. Seven domains are examined—happiness, joy, career and wealth, longevity, virtue, peace, and color symbolism. Findings indicate that jisyangyuy operate as stable communicative formulas due to their brevity, rhythmic patterning, visual symbolism, and sound-based associations.

Key words: jisyangyuy; semantic classification; homophony; color/number symbolism; ritual speech; domain – symbol – homophony; Chinese language.

Kirish. Jisyangyuy (吉祥语) — xitoy jamiyatida ezgu niyat, baraka va yaxshi alomatlarni ifodalash uchun ishlatiladigan ixcham til birliklari. Ular to‘y, Yangi yil, ish boshlash, uyga ko‘chish, safarga chiqish kabi hayotiy vaziyatlarda tabrik va tilak shaklida qo‘llanadi. Bu iboralarning kuchi qisqaligi, ritmik ohangi va ko‘rgazmali timsollar (rang, raqam, hayvon, predmet) bilan bog‘lanishida namoyon bo‘ladi; shu sababli ular yodda qoladi va marosimiy nutqda tez taniladi.

Mavjud lug‘at va manbalarda [2; 3] “吉/祥” belgilari xayrli alomat va omad ma‘nolari bilan izohlanadi; zamonaviy nutqda ham mazkur semantik yadroning barqarorligi saqlanib qolgan. Jisyangyuy orqali jamiyat kutgan ijobiy holatlar [8:92] “formulaga

solingan” til shaklida ifodalanadi: masalan, tinchlik, farovonlik yoki yuksalish kabi qadriyatlar aniq va ixcham iboralar bilan yetkaziladi.

Ushbu ishda jisyangyuy semantik yo‘nalishlar bo‘yicha tizimli ko‘rinishda yoritiladi. Tahlil markazida yetti guruh turadi: baxt, quvonch, martaba–boylik, uzoq umr, fazilat, tinchlik va rang ramzlari. Har bir guruhda uch tarkibiy qatlam izchil ko‘rsatiladi: 1) yadro mazmun, 2) timsoliy asos (rang/raqam/hayvon/predmet), 3) ovoz o‘xshashlikka tayanuvchi holatlar (homofoniya). Shu uchlik iborani to‘liq anglash va to‘g‘ri qo‘llashga yordam beradi.

Tadqiqot materiali sifatida marosim matnlari, kundalik tabriklar, chunlian (春联) yozuvlari, klassik

manbalar hamda izohli lug'atlar tanlandi. Tahlil oddiy va amaliy yo'l bilan olib borildi: biror ibora qaysi guruhga mansub ekani belgilanadi, uning timsoli va ehtimoliy homofonik bog'lanishi izohlanadi, keyin esa odatiy qo'llanish vaziyati ko'rsatiladi. Bunda ortiqcha nazariy yuklama berilmaydi; asosiy e'tibor mazmunni tushunarli tarzda xaritalashga qaratiladi.

Maqolaning amaliy foydasi shundaki, jis yangyularni o'qitish va tarjimada "domen-ramz-homofoniya" uchligiga tayangan izohlar tez va aniq tushunishga yordam beradi. Masalan, boylik domenidagi ibora rang (qizil), raqam (8) yoki hayvon/predmet timsoli bilan bog'lanib kelsa, tarjimada ayni signallarni qisqa izoh bilan berish kommunikativ ekvivalentlikni oshiradi. Shu tarzda tuzilgan tasnif o'qituvchilar, tarjimonlar va madaniyatlararo muloqot bilan ishlovchi mutaxassislar uchun qulay qo'llanma vazifasini bajaradi.

Maqsad va vazifalar

Hozirgi xitoy tilida jis yangyularning (吉祥语) semantik turlarini tizimli tahlil qilish, ularning ramziy asoslari va homofoniya mexanizmlarini ko'rsatish hamda marosimiy va kundalik nutqda qo'llanishini yoritish.

Vazifalar:

1. Jis yangyularni asosiy semantik guruhlariga ajratish: baxt, quvonch, martaba-boylik, uzoq umr, fazilat, tinchlik va rang ramzlari.
2. Har bir guruhning yadro ma'nosini va ramziy asoslarini (hayvon, rang, raqam, predmet) izohlash.
3. Homofoniya orqali yuzaga keladigan ma'no kuchayishini misollar bilan ko'rsatish.
4. Marosimiy va kundalik nutqda qo'llanish xususiyatlarini tavsiflash.
5. Tarjima va ta'lim jarayonida "domen-ramz-homofoniya" yondashuvining amaliy ahamiyatini asoslash.

Usullar:

Material – marosim nutqlari, kundalik tilaklar, chuntian (春联) matnlari, klassik manbalar va izohli lug'atlardan namuna yig'ildi.

1. Tavsifiy tahlil – jis yangyuy birliklari ularning qo'llanish vaziyati va semantik mazmuniga ko'ra o'rganildi.
 2. Semantik guruhlash – birliklar yetti asosiy guruhga ajratildi: baxt, quvonch, martaba-boylik, uzoq umr, fazilat, tinchlik, rang ramzi.
- Homofoniya – ovoz o'xshashlikka asoslangan birliklar (masalan, 鱼余, 蝠福) qayd etildi.

Natija va mulohazalar

Quyidagi kuzatuvlar kichik, lekin maqsadli yig'ilgan materialga tayangan. Har bir guruh bo'yicha iboralarning asosiy mazmuni, ular bilan bog'langan timsollar va hayotiy qo'llanish joylari qisqa izohlar bilan beriladi. Izohlar marosimiy vaziyatlar, kundalik tabrik va yozuvlarda ko'p uchraydigan shakllardan olingan.

Baxt (福) guruhi

Baxt g'oyasi [7:116] Xitoy tilidagi tilaklarda

"ishlarning barakali ketishi" sifatida talqin qilinadi. Xitoyda ko'pchilik uylar eshigida bayram payti teskari yopishtirilgan 福 belgisi uchraydi: teskari yozish va "keldi" so'zining ovoz o'xshashligi birlashib, "baxt yetib keldi" degan ma'no tug'diradi. Baliq suratlari bilan birikkan matnlar esa mo'lichilik timsolini ifodalaydi. Tovush o'xshashligiga suyanadigan iboralar (masalan, 年年有余) odatda qizil rang, chiroqlar va bayramiy bezaklar bilan ko'rinadi. Kundalik hayotda ular sovg'a yorlig'i, devor yozuvi yoki kichik tabrik kartochkalarida ham uchraydi: 万事如意, 福星高照 va shu kabi. Baxt va osoyishtalik ko'pincha birgalikda tilanadi, shuning uchun 平安 so'zi ishtirokidagi formulalar ham bu guruhda tez-tez ko'rinadi.

Quvonch (喜) guruhi

Quvonch matnlari yaxshi xabar bilan bog'liq vaziyatlarda faol ishlatiladi: nikoh, farzandli bo'lish, ko'chish yoki ishda muhim bosqichni yakunlash. To'y bezaklarida ikki karra yozilgan 囍 belgisi deyarli doimiy ramzga aylangan. Do'kon yoki ofis ish boshlaganda yoziladigan 开业大吉, savdo yurishiga qaratilgan 生意兴隆, daromad oqimiga ishora qiluvchi 财源广进 kabi iboralar ijobiy ohang yaratadi. Bunday matnlar yorqin ranglar, gul va lenta bilan birga qo'llanib, quvonch kayfiyatini vizual ravishda ham mustahkamlaydi.

Martaba-boylik (禄/财) guruhi

Mazkur guruhda ikki yo'nalish ajraladi: xizmat pillapoyalaridan ko'tarilish hamda moddiy farovonlik. Tarixiy qatlamda 禄 xizmat haqi va mansab bilan bog'liq bo'lgani uchun, tovush jihatdan yaqin bo'lgan 鹿 timsoli [5; 6] bilan birga tilga olinadi. Imtihon natijasi, lavozimdagi yuksalish yoki ishda yangi bosqich oldidan 步步高升, 前程似锦, 金榜题名 kabi iboralar qadri baland. Moliyaviy baraka tilashda esa 恭喜发财, 财源滚滚, 富贵荣华 ko'p uchraydi. Amaliy maydonda bular tabrik plakati, lentali gul, qizil konvert va reklama sarlavhalarida keng tarqalgan.

Uzoq umr (寿) guruhi

Uzoq umr mavzusi kattalarga hurmat va iliq tilak sifatida namoyon bo'ladi. Turna, toshbaqa [4] va maxsus "umr shaftolisi" (寿桃) bilan bog'liq tasvirlar bu qatlamning eng tanish belgilaridir. Tabriklarda 长命百岁, 寿比南山, 松鹤延年 kabi formulalar ishlatiladi; ba'zan sog'liq va xotirjamlikni ham qo'shib tilashadi: 福寿康宁. Uzoq umrga doir matnlar ko'pincha yubiley tortlari, bezak taxtachalari va devor yozuvlarida ko'rinadi; ranglar tinch ohangda, lekin bayramona detallar bilan uyg'unlashtiriladi.

Fazilat (德) guruhi

Fazilatga oid tilaklar shaxsning axloqiy qiyofasini ulug'laydi: poklik, halollik, so'zda turish, mehnatsevarlik. Bunday iboralar ustoz, rahbar, ilm ahli yoki kekxa avlod vakillariga nisbatan ishlatilganda ayniqsa mos tushadi. 高风亮节, 德才兼备, 诚实守信 kabi formulalar tavsiyanoma va minnatdorchilik matnlarida ham uchraydi. Bu iboralar nafaqat shaxsga

nisbatan duoyi xayr, balki jamiyatda qadrlanadigan mezonlarni eslatish vazifasini ham bajaradi.

Tinchlik–osoyishtalik (安/平安) guruhi

Tinchlikka doir iboralar ko‘lami keng: yo‘lga chiqayotgan odamga qisqa tabrik (一路平安), oilaviy inoq hayot (家和万事兴) yoki kengroq ijtimoiy farovonlik (国泰民安). Bayram xatlarida va yangilik yetkazish payti yoziladigan qisqa shakllar – masalan, 平安喜乐 – ko‘ngilni xotirjam qiluvchi ohangga ega. Bunday matnlar odatda ko‘zga tez ilashadigan, lekin sokin dizayndagi yozuvlar bilan birga keladi; sayohat oldidan yuboriladigan xabarlar va esdalik sovg‘alarida ko‘p ko‘riladi.

7. Rang ramzlari guruhi

Ranglar tez anglashiladigan signal sifatida ishlaydi. Qizil – bayram va omad ramzi: 开门红, 满堂红, 红红火火 kabilar yangi ish boshlanishi yoki mavsum ochilishida ko‘p qo‘llanadi. Sariq tarixan yuqori maqom bilan bog‘langan; tez yuksalishni bildiruvchi 飞黄腾达 iborasi shu qatlamdan. Binafsha ohang baxtli alomatni eslatadi: 紫气东来; oq rang esa tarixan motamga yaqin bo‘lsa-da, hozir kontekstga qarab neytral ko‘rinish ham oladi. Raqamlar ham alohida ishora beradi: 8 tovush jihatdan “yuksalish” so‘ziga yaqinligi bois omadiy son sifatida, 6 ishlarning “silliq” ketishiga ishora sifatida, 9 esa “uzoq davom” ma’nosida talqin qilinadi. Shu sababli telefon, narx va manzil yozuvlarida 6 va 8ga moyillik uchraydi; uzun umr tilaklarida 9 bilan bog‘liq ifodalar qulay keladi. 4 esa tovush o‘xshashligi sababli ko‘pincha chetlab o‘tiladi.

Umumiy mulohazalar:

a) guruhlar ajratilgan bo‘lsa-da, ular amalda bir-birini to‘ldiradi: baxt bilan tinchlik, boylik bilan quvonch, uzoq umr bilan fazilat ko‘pincha yonma-yan tilanadi. Shu bois iboralar aralash qo‘llanganda ham mazmun bo‘linib ketmaydi, balki umumiy ijobiy ohang kuchayadi;

b) timsol va tovushning birga ishlashi xabarni aniqroq yetkazadi. Baliq surati bilan yozilgan 年年有余, teskari yopishtirilgan 福, 鹿/禄 yoki 蝠/福 singari juftliklar ko‘rish va eshitishni bir paytda faollashtiradi, natijada ibora tez esda qoladi;

d) qisqa va ritmik shakl – asosiy sabab: to‘rt bo‘g‘inli qoliqlar, takroriy ohang va uyg‘un bo‘g‘inlar

iborani bannerdan yoki yorliqdan o‘qiyotganda ham oson qabul qilinadigan qiladi. Shu tufayli ular reklama, tabrik kartasi, qadoq dizayni va marosim matnlarida samarali;

e) amaliy tavsiya: tarjimada iboraning domeni (masalan, boylik), unga mos timsol (rang, raqam, hayvon) va kerak bo‘lsa, tovush o‘xshashligi alohida ko‘rsatib berilsa, mazmun to‘liqroq yetadi. Masalan, 年年有余 uchun “har yili mo‘l-ko‘l bo‘lsin” deb berish bilan birga baliq rasmini eslatish, o‘quvchi yoki tinglovchi uchun signalni kuchaytiradi;

f) yangi yo‘nalishlar: hududiy urf-odatlar, mavsumiy bayramlar va reklama matnlarida yangicha shakllar paydo bo‘lmoqda. Kelgusida korpus yig‘ib, qaysi ibora qaysi mavsumda ko‘proq ishlatilishini, qaysi rang va raqam kombinatsiyalari samaraliroq ekanini taqqoslash foydali bo‘ladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, jisyangyuylar (吉祥语) xitoy tilida yetti asosiy semantik guruhga birlashadi: baxt, quvonch, martaba–boylik, uzoq umr, fazilat, tinchlik va rang ramzlari. Har bir guruh hayvon, rang, raqam yoki predmet bilan bog‘langan timsollar orqali mustahkamlanadi, homofoniya esa ularning mazmunini yanada kuchaytiradi.

Jisyangyuylarning eng muhim xususiyati — ular qisqa, ritmik va formulasimon shaklda [1] bo‘lib, marosimiy nutqda ham, kundalik muloqotda ham keng qo‘llanadi. Masalan, 年年有余 (“har yili mo‘l-ko‘l bo‘lsin”) baliq timsoli bilan, 恭喜发财 (“boyib keting”) esa qizil konvert an’anasi bilan birga ishlatiladi. Bu ularning ko‘p qatlamli semantik va ramziy tabiatini ko‘rsatadi.

Amaliy jihatdan, “domen–ramz–homofoniya” asosida yondashish iboralarni tushuntirish va tarjima qilishda samarali bo‘lib, o‘quvchi va tinglovchiga mazmunni to‘liqroq anglashga yordam beradi. Shuningdek, jisyangyuylar xalq ongida ijobiy qadriyatlarni ifodalovchi barqaror birlik sifatida o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Kelgusida hududiy variantlar, zamonaviy qo‘llanilish va korpus asosida miqdoriy tahlil qilish tadqiqot doirasini yanada kengaytirishi mumkin. Shu bilan birga, jisyangyuylarni o‘qitishda va tarjimada tematik xaritalardan foydalanish eng samarali amaliy yo‘l bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Eshpo‘latov A.N. Hozirgi zamon xitoy tilida jisyangyuylarning semantik-stilistik tadqiqi: magistrlik dissertatsiyasi. – Toshkent: TDSHU, 2024.

2. 《现代汉语词典（第七版）》. 北京: 商务印书馆, 2016.

3. 《汉语大词典》. 上海: 汉语大词典出版社, 1986–1998. 12 т.

4. 许慎. 《说文解字》. 北京: 中华书局, 1963.

5. 《礼记》. 北京: 中华书局, 1999.

6. 《尚书》. 北京: 中华书局, 1997.

7. 赵日新. 试论吉祥语 // 语文学刊. 1997, №6, c. 112–116.

8. 薛维哲. 吉祥语的性质与功能 // 齐齐哈尔大学学报(哲学社会科学版). 2001, №3, c. 88–92.

Zumrad ABDURAHMONOVA,
Chirchiq davlat pedagogika
universiteti mustaqil izlanuvchisi.
Abduraxmonovazumrad4@gmail.com

QASHQADARYO VILOYATI ZIYORATGOH NOMLARINING ETIMOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada onomastika sohasining alohida bir bo'limi toponimlarda oid Qashqadaryo viloyatida joylashgan rasmiy ziyoratgoh nomlari va ulardan ayrimlarining etimologik xususiyatlari xususida bahs boradi. Mazkur onomastik birliklarni to'plash, o'rganish va tasnif qilish o'zbek xalqining yashash tarzi, urf-odatlar, an'analari mahsuli sifatida xalqimizning tarixi, tili, madaniyati hamda etnografiyasi haqida boy ma'lumotlarni beradi, tilshunoslikka oid manbalarni boyitadi.

Kalit so'zlar: *geografiya, tarix, etnografiya, Ibrohim ota, Imom Mo'yin an-Nasafiy, Nazarbobo.*

Annotation: this article discusses the names of official shrines located in the Kashkadarya region, a separate section of the field of onomastics, toponyms, and the etymological features of some of them. The collection, study, and classification of these onomastic units, as a product of the lifestyle, customs, and traditions of the Uzbek people, provides rich information about the history, language, culture, and ethnography of our people, and enriches linguistic sources.

Key words: *geography, history, ethnography, Ibrahim Ota, Imam Mu'in an-Nasafi, Nazarbaba.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются названия святынь Кашкадарьинской области, представляющие собой отдельный раздел ономастики, топонимики, и этимологические особенности некоторых из них. Сбор, изучение и классификация этих ономастических единиц, являющихся продуктом быта, обычаев и традиций узбекского народа, дают богатую информацию об истории, языке, культуре и этнографии нашего народа, обогащают лингвистические источники.

Ключевые слова: *география, история, этнография, Ибрагим Ота, Имам Муин ан-Насафи, Назарбаба.*

O'zbekistonda din masalalari va ziyorat turizmining rivojlanishiga asosiy e'tibor mustaqillikka erishgandan keyin boshlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi "Turizm tarmog'ini jadal rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4095-son Qarori, 2021-yil 9-fevralda "O'zbekiston Respublikasi ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6165-son Farmoni [1], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-apreldagi "Turizm va sport vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori [2], 2021-yil 24-fevralda Vazirlar Mahkamasining "Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 100-son Qarori kabilarning qabul qilinishi madaniy meroslarga bo'lgan qiziqish ortishiga olib keldi.

Jahonda ham nafaqat siyosiy, balki ilm-fan doirasida ham toponimlar masalasi tilshunoslik, geografiya, tarix, etnografiya, sotsiologiya, lingvokulturologiya fanlarining noyob, boy tarixiy, milliy-madaniy, ijtimoiy axborotlarni tashuvchi lisoniy birlik sifatida qaralmoqda. Toponimlarning turlari, ularning lug'aviy ma'noviy, nomlanish, yasaliish va tuzilish xususiyatlari borasida muhim amaliy ishlar olib borilmoqda va onomastika doirasidagi tajribalar to'planmoqda.

Bugungi globallashuv, fanlar integratsiyasi toponimik birliklarning barcha tiplarini to'plash va ularni nominatsion-motivatsion, etimologik, struktural, areal, qiyosiy-tarixiy, tipologik-tasnifiy, sotsiolingvistik, lingvokulturologik aspektlarda ko'rib chiqish onomastikaning dolzarb masalasiga aylanmoqda. Xususan, ziyoratgoh nomlarini o'rganish, ularni targ'ib

qilish, xalqimizning avloddan-avlodga meros bo'lib kelayotgan muqaddas qadamjolar tarixi, etimologiyasi, lingvistik xususiyatlarini bilishga intilishi bu nomlarning tadqiqini talab qiladi.

“Tarixiy manbalarning ko'rsatishicha, ziyoratgohlarning shakllanishi va me'morchiligi IX-XII asrlarda, asosan, somoniylar davrida alloma va avliyolar qabrlari gumbazsimon uslubdagi maqbaralar qurilishi bilan boshlangan bo'lsa, maqbaralar atrofi masjid, azon aytiladigan minora, suvdan foydalanish uchun hovuz, tahoratxona, ba'zi joylarda tasavvuf vakillarining chilla saqlashi, ibodat qilishlari uchun chillaxonalar, hatto madrasalar ham bo'lgan. Shuningdek, vohada islom madaniyatining arxitektura me'moriy uslub namunalarini birlashtirgan yodgorliklar Amir Temur va temuriylar davrida bunyod etilgan”[3]. Qashqadaryo vohasida temuriylar davri bilan bog'liq ziyoratgohlar aksariyatni tashkil etsa-da, X-XIV asrlarga doir ziyoratgohlar arxitekturasida undan oldingi asrlarda shakllangan va aholining ziyorat va ibodat maskaniga aylanib qolgan tarixiy-me'moriy yodgorliklar ham mavjud. Bunga Qarshi tumani Qovchin qishlog'idagi *Abul Mu'iyin Nasafiy* (XI-XVII asrlar), Koson tumani Pudina qishlog'idagi *Qusam shayx* (XI-XIII asrlar), Kasbi tumani Kasbi qishlog'idagi *Sulton Mir Haydar* (XIII-XVI asrlar), Qamashi tumani Katta Langar qishlog'idagi *Langar ota* (XVI-XVII asrlar) yodgorlik majmuyi nomi bilan bog'liq ziyoratgohlar misol bo'ladi.

S.N.Jurayeva “O'zbekistonning janubiy hududidagi ziyoratgohlar tarixi va ularning mahalliy aholi hayotida tutgan o'rnini” ishida Qashqadaryo viloyatida allomalar, sahobalar, sayyidlar va mahalliy ulamolarning mavjud 67 ta ziyoratgohlaridan tasavvuf ta'limoti vakillari (8 ta), islom olamida fan va hadisshunoslik ilmi rivojiga hissa qo'shgan ulamolar (3 ta), avliyo, pir darajasidagi allomalar (5 ta), xo'ja, sayyid va sahobalar (10 ta), tarixiy shaxslar nomi bilan (6 ta), adabiyot fani rivojiga hissa qo'shgan olimlar (1 ta), afsona va rivoyat, joy nomlari (3 ta) bilan bog'liq, shaxsi aniqlanmagan yoki rasmiy ma'lumotlar saqlanmagan hamda mahalliy aholigagina ma'lum bo'lgan 31 ta ziyoratgohlar aniqlangan [4].

Biz kadastr hujjatlarida [5] keltirilgan Qashqadaryo viloyatida joylashgan ziyoratgohlarni o'rganib chiqqanimizda unda quyidagi ziyoratgoh nomlari keltirilgani ma'lum bo'ldi: Xalifayi Navro'z, Qabri Oxund, Oqsuv, Xo'ja Hasanota, Suqorota, Xo'jailimkoni, Xo'ja Ne'matullo, Doniyorshayx, Hazrati Bashir (Qashqadaryo viloyati Kitob tumani); Abu Yusuf, Xo'jailg'or, Chillabuloq, Bobo Shodi Shayx, Xo'jagulmomo, Sadirota, Darxonmomo, Makkasaidota, Saxovat, Mavmudxon avliyo, Shodi Shayx Valiy, Xo'ja Buzrukota, Sherozi tepaligi, Usmontepa, Toshmozor, Tezobota, Jamolota, Ko'k Tiktohsota, Ko'ktoshota, Beshtoshota, Tollibuloq, Xo'jailg'orota, Mallaxon (Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumani); Xalfabobo, Qadamjo (Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumani); Nishonota, Besharcha, Arslonbob, Sa'd ibn Abu Vaqqos ota, Chashma (Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumani); Nazarbobo, Imom Muhammad Sadr Islom, Murodbaxshota, Ibrohimota, Hazrati Sulton Mir Haydar (Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumani); Qusamshayxota (Qashqadaryo viloyati Koson tumani); Abu Ubayda ibn al-Jarroh (Qashqadaryo viloyati Qarshi shahri); Abul Mu'in an-Nasafiy, Abu Bakr Shayx Shibliy, Hazrati Sulton, Yettiyug'ota (Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani).

Zamonaviy dunyoda tarix, madaniyat, til, ma'naviyat sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida madaniy meros muammolariga murojaat qilish asosiy masalalardan biriga aylandi. Zero, madaniy meros va u bilan bog'liq jarayonlar (til, qadriyatlar, din, yodgorliklar) davlat va jamiyatning rivojlanishi, xalqning milliy boyligi saqlanishi va kelajak avlodning faxr bilan ulg'ayib tarbiyalanishi milliylikning muhim elementi hisoblanadi.

Viloyatdagi diqqatga sazovor joylardan, ziyoratgohlar, mustaqillik yillarida davlatimiz tomonidan turizm sohasiga berilayotgan e'tibor bilan qayta tiklangandi. Biz ushbu maqolamizda ayrim ziyoratgoh nomlarining nomlanish etimologiyasini keltiramiz.

Ibrohimota – Kasbi tumanidagi ziyoratgoh nomi. Afsonalarga ko'ra, *Ibrohim ota* tasavvufning Turkistondagi taniqli vakili bo'lgan Xoja Ahmad

Yassaviyning (XII asr) otasidir. Tumandagi ziyoratgoh shu nom bilan atalgan.

Imom Mo'Yin an-Nasafiy Majmuasi – Qarshi tumani Qovchin qishlog'idagi ziyoratgoh nomi. Qashqadaryo zaminining ulug' allomalardan, dunyo fanlari rivojlanishiga o'zining salmoqli hissasini qo'shgan, ayniqsa Movarounnahrning fiqh (islom huquqshunoslik) ilmi miqyosidagi katta o'rin tutgan Moturidiya kalom maktabini atoqli namoyondalaridan biri buyuk olimlar oilasiga mansub yirik faqih Abul Mu'yn an-Nasafiy 1027-yil Nasaf shahrida tug'ilgan. Bu kishining tug'ilgan maskani bugungi kunda ziyoratgoh joydir. Shu kishi nomi bilan atalgan.

Nazarbobo – Kasbi tumanidagi ziyoratgoh nomi. Tarkibi: *Nazar+bobo*. Nazar – arabcha, ko'rish qobiliyati, ko'rish, nigoh, ko'z nigohi. (Nazar erkaklar ismi) Allohning yoki aziz avliyolarning nazari tushgan, ularning muruvvati bilan tug'ilgan farzand ma'nosida, shukronalik ifodasi sifatida Nazar ismi qo'yilgan. Nazar ismli kishi yeridagi yoki shu kishi yashagan joydagi ziyoratgoh – Nazarbobo.

Abu Bakr Shayx Shibliy – Qarshi tumanidagi ziyoratgoh. Abu Bakr Shayx Shibliy to'g'risida ma'lumotlar juda kam saqlangan bo'lib, bu zot zamonasining buyuk allomalaridan bo'lgan iroqlik Mansur Halloj bilan zamondosh bo'lgan. Shayx to'g'risidagi to'liqroq ma'lumotlar

H.Homidiyning "Ko'hna sharq darg'alari" kitobida keltirilgan. Ziyoratgoh nomi shu kishining nomi bilan atalgan.

CHillabuloq – Yakkabog' tumanidagi ziyoratgoh nomi. Tarkibi: *chilla + buloq*. Chilla (f-t) – yosh bolaning qirq kunlik chaqaloqligi davrida badaniga chiqadigan yara, toshma; umuman, katta yoshli odamlarda ham chiqadigan yara turi. *Chillabuloq* – suvi shifobaxsh, yarani tuzatadigan minerallari bo'lgan suvli buloq. Ziyoratgoh nomi insonlar uchun foydali suv maskani bo'lgan joyga ko'ra nomlangan.

Xo'ja Shamsiddin Halvoni – Qarshi tumani Qovchin qishlog'idagi ziyoratgoh nomi. Bu ziyoratgoh Qarshi tumanining To'raqul qishlog'ida joylashgan. U yerda Hazrati Shayx nomi bilan mashhur Imom Shamsiddin Muhammad Halvoniyning maqbarasi bor. Nom tarkibi: *xo'ja+Shamsiddin+halvoni*. Kasbi holva tayyorlovchi bo'lgan. Shunga ko'ra halvoni laqabi qo'shilgan.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda ziyoratgoh nomlari tilshunoslar, etnograflar, folklorshunoslar, psixolog, sotsiolog, tarixchi, turizm sohasi, hattoki tibbiyot xodimlari uchun ham tadqiqot obyekti bo'la oladi. Bu esa ziyoratgoh nomlarining lingvistik tahlilini olib borish shart ekanligini ko'rsatib, eng avvalo, tilshunoslar uchun dolzarb vazifa yuklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 9 февралдаги "Ўзбекистон Республикаси ички ва зиёрат туризмини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Фармони. Электрон манба: <https://lex.uz/docs/5315060>.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 6 апрелдаги "Туризм ва спорт вазирлиги фаолиятини ташкил этиш тўғрисида"ги Қарори. Электрон манба: <https://www.lex.uz/docs/5356603>.
3. Roemer H.R. The successors of Timur. The timurid and Safavid periods, in the Cambridge history of Iran. Vol. VI. Eds. P.Jackson & L.Lockhart. – Cambridge: Cambridge University Press, 1986. P. 98.
4. Джураева С.Н. Ўзбекистоннинг жанубий ҳудудидаги зиёратгоҳлар тарихи ва уларнинг маҳаллий аҳоли ҳаётида тутган ўрни. Доктор. дисс...авторе – Тошкент, 2021, 9-б.
5. <http://geonames.kadastr.uz>

RUS VA INGLIZ PAREMIOLOGIYASIDA “YAXSHILIK” VA “YOMONLIK” TUSHUNCHALARINING METAFORIK MODELLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada rus va ingliz paremiologiyasida “yaxshilik” va “yomonlik” tushunchalarining metaforik modellari e'tibor qaratiladi. Tahlil kognitiv lingvistika va G.Lakoff, M.Jonson, Z.Koveches hamda N.D.Arutyunova tomonidan ishlab chiqilgan metafora nazariyalariga tayangan holda amalga oshirilgan. Har ikki tildagi maqollar taqqoslab o'rganilgan bo'lib, ular quyidagi umumiy metaforalarni aks ettiradi: “yaxshilik – yorug'lik”, “yomonlik – zulmat”, “yaxshilik – issiqlik”, “yomonlik – sovuqlik”, shuningdek, “yaxshilik – urug'”, “yomonlik – begona o't”. Maqolada tananing sezgi tajribasi va madaniy omillar har ikki madaniyatda axloqiy tasavvurlarning asosini tashkil etishi ta'kidlanadi, shu bilan birga milliy tafakkur va madaniy xususiyatlarga bog'liq farqlar ham mavjudligi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: konsept, metafora, yaxshilik, yomonlik, maqollar, paremiologiya, kognitiv lingvistika, madaniy model.

Annotation: the article explores metaphorical models of the concepts “good” and “evil” in Russian and English paremiology. The analysis is based on cognitive linguistics and metaphor theories developed by G.Lakoff, M.Johnson, Z.Kövecses, and N.D.Arutyunova. The study compares proverbs that reflect universal metaphors such as “good is light”, “evil is darkness”, “good is warmth”, “evil is cold”, and “good is seed”, “evil is weed”. It is shown that bodily and cultural experience forms the basis of moral conceptualization in both cultures, though some differences emerge due to mentality and national worldview.

Key words: concept, metaphor, good, evil, proverbs, paremiology, cognitive linguistics, cultural models

Аннотация: в статье рассматриваются метафорические модели концептов «добро» и «зло» в русской и английской паремиологии. Анализ основан на когнитивной лингвистике и теориях метафоры, разработанных Г.Лакоффом, М.Джонсоном, З.Ковечесом и Н.Д.Арутюновой. Пословицы обоих языков изучаются в сопоставительном плане, отражая следующие распространённые метафоры: «добро – свет», «зло – тьма», «добро – жар», «зло – холод», а также «добро – семя», «зло – сорняк». В статье подчёркивается, что чувственный опыт тела и культурные факторы составляют основу моральных концептов в обеих культурах, а также показывается наличие различий, связанных с национальным мышлением и культурными особенностями.

Ключевые слова: концепт, метафора, добро, зло, пословицы, паремиология, когнитивная лингвистика, культурные модели.

“Yaxshilik” va “yomonlik” tushunchalari nafaqat axloqiy va diniy tizimlar asosini tashkil etuvchi, balki kundalik til amaliyotini ham chuqur egallagan fundamental konseptlardir. Maqollar xalq og'zaki ijodining til birliklari sifatida xalqning jamoaviy tajribasi hamda barqaror etnomadaniy dunyoqarashlarini o'zida mujassam etadi. Rus va ingliz paremiyalaridagi “yaxshilik” va “yomonlik” konseptlarini tahlil qilish orqali inson tafakkurining universal xususiyatlarini hamda bu tushunchalarning milliy-madaniy ifodalanishiga xos o'ziga xosliklarni aniqlash mumkin. Ushbu maqolada aynan shu mavhum kategoriyalarni til orqali anglash va ifodalashda xizmat qiluvchi metaforik modellar alohida e'tibor markaziga olingan.

Tahlilning asosi sifatida kognitiv lingvistikaning asosiy tamoyillari, xususan, G.Lakoff va M.Jonson

(Lakoff & Johnson, 1980) tomonidan ishlab chiqilgan konseptual metafora nazariyasi olindi. Ularning yondashuviga ko'ra, metafora – bu oddiygina uslubiy vosita emas, balki insonning mavhum tushunchalarni aniq sezgi va tajriba orqali anglashiga imkon beruvchi kognitiv mexanizmdir [9, 27-bet]. Masalan, yaxshilik va yomonlik kabi konseptlar ko'pincha yorug'lik, issiqlik, harakat, kasallik kabi sezgi tajribalari orqali metaforalashtiriladi.

Mahalliy lingvistik an'analar doirasida ushbu g'oyalarga yaqin yondashuvlar N.D.Arutyunova, V.Z.Demyankov, Ye.S.Kubryakova va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan. Masalan, Arutyunova (1990) metaforani haqiqatni, jumladan axloqiy va etik kategoriyalarni, tasniflash va ifodalash vositasi sifatida ko'radi. [1, 15-bet]. Kubryakova (1996) esa konseptlarni madaniyat, xotira va til orqali shakllangan

dunyo manzarasi bilan chambarchas bog'liq aqliy tuzilmalar sifatida ta'kidlaydi [3, 32-bet].

Tadqiqotning empirik bazasini nufuzli leksikografik manbalardan olingan 100 ta ruscha va 100 ta inglizcha maqol tashkil etdi. Tahlilda komponentli, kontekstual va taqqosloviiy usullar, shuningdek, kognitiv modellashirish elementlari qo'llanildi.

Metaforik modellarning qiyosiy tahlili.

1. Yaxshilik – yorug'lik / yomonlik – zulmat.

Ushbu universal metafora har ikki madaniyatda mavjud bo'lib, insoniyatning arxetipik tajribasiga tayanadi. Yorug'lik – hayot, xavfsizlik, bilim, haqiqat va umid bilan bog'lanadi. Aksincha, zulmat – johillik, qo'rquv, o'lim, adashish va yovuzlik bilan tenglashtiriladi. Bu qarama-qarshi tushunchalar turli xalqlarning diniy, falsafiy va folkloriy an'analari o'z aksini topgan. Xususan, xristian madaniyatida Xudo ko'pincha yorug'lik bilan bog'lanadi ("Men – dunyoning nuriman"), shayton esa zulmat bilan.

Rus tilidagi maqollar:

- Добро не тонет, зло не плавает. (*Yaxshilik yetmaydi, yomonlik bitmaydi*)
- Светлое дело добру служит. (*Yaxshi ish – nurli yo'l*)
- Свет да любовь – счастье и покой. (*Mehr bor joyda fayz bor*)
- Не зажечь свет злу – сам в нём погрязнешь. (*Yomonga yaqinlashsang, balosi yuqar, qozonga yaqinlashsang – qorasi*) [2].

Ingliz tilidagi maqollar:

- Darkness cannot drive out darkness; only light can do that. (*Tosh bilan urganni osh bilan ur*)
- The sun shines on the just and the unjust alike. (*Yaxshi ish – nurli yo'l*)
- Light is the symbol of truth. (*Mehr bor joyda fayz bor*)
- Better to light a candle than to curse the darkness. (*Yaxshilik qilmasang, yomonlik ham qilma*)

G.Lakoff va M.Jonsonning (1980) konseptual metafora nazariyasi asosida, bu yerda quyidagi model yaqqol ko'rinadi: axloqlilik – yorug'lik / axloqsizlik – zulmat.

Bu yerda yorug'lik haqiqatni ochib beruvchi va insonni yo'naltiruvchi mezon sifatida namoyon bo'ladi. Yaxshilik faol kuch sifatida tasvirlanadi, u zulmatni yenga oladi – xuddi yorug'lik qorong'ulikni tarqatgandek.

Bu paremiyalardagi yorug'lik shuningdek, halollik, ochiqlik va adolat ramzi sifatida ham talqin qilinadi. Rus tilida "светлый" (yorug'), "ясный" (aniq, ravshan), "лучистый" (nur sochuvchi) kabi so'zlar odatda ijobiy ma'noda qo'llaniladi. Xuddi shuningdek, ingliz tilidagi "light" va "bright" so'zlari ham ijobiy ohangga ega. Aksincha, zulmat – bu yashirin, yolg'on, tahdidli narsalarning timsolidir. Bu yovuzlikka nisbatan shakllangan tushunchaga

mos keladi, ya'ni yovuzlik odatda, yashirincha yoki soyada harakat qiladi.

Rus maqollarining o'ziga xos jihati shundaki, yaxshilik ko'pincha ichki nur bilan bog'lanadi – masalan, "yorug' ish", "yorug' qalb" kabi ifodalar orqali. Bu esa yaxshilikning axloqiy-ma'naviy o'lchovda anglanishini ta'kidlaydi. Ingliz maqollarida esa ko'proq umuminsonga xos yondashuv uchraydi: yorug'lik hamma uchun kerak, insonning axloqiy bahosidan qat'i nazar (masalan: "*The sun shines on the just and the unjust alike*" O'rmonga o't ketsa ho'lu quruq baravar yonadi). Bu esa dunyoni obyektivroq tasavvur qilishga asoslangan yondashuvni ifodalaydi.

2. Yaxshilik – issiqlik / yomonlik – sovuqlik.

Issiqlik va sovuqlikning yaxshilik va yomonlik timsoli sifatidagi metaforik qarama-qarshiligi insonning kundalik idrokida chuqur ildiz otgan bo'lib, uning atrof-muhit bilan tanaviy tajribasiga asoslanadi. Issiqlik – qulaylik, xavfsizlik, g'amxo'rlik va hissiy yaqinlik bilan bog'liq bo'lsa, sovuqlik – begonalik, befarqlik, dushmanlik va hattoki shafqatsizlik ramzi sifatida qabul qilinadi.

Rus tilidagi maqollar:

- ▶ Доброе слово и кошке приятно. (*Yaxshi so'z bilan ilon inidan chiqar*)
- ▶ Сорееет доброе сердце – не страшен и холод. (*Mehribon yurak isitadi – sovuq ham qo'rqinchli emas*)
- ▶ С тёплым сердцем и зима не злая (*Ko'ngli issiq odamga qish ham yumshoq keladi*) [4].

Ingliz tilidagi maqollar:

- ▶ A kind word warms for three winters. (*Yaxshi so'z bilan ilon inidan chiqar*)
- ▶ Cold heart breeds cruelty. (*Mehribon yurak isitadi – sovuq ham qo'rqinchli emas*)
- ▶ Warm hands, warm heart. (*Qo'li iliqning ko'ngli ham iliq bo'ladi*)
- ▶ There is no warmth in a frozen soul (*Sovuq yurakdan issiqlik chiqmaydi*) [7].

Bundan tashqari, har ikki til madaniyatida issiqlik nafaqat yaxshilikni, balki boshqalarga hamdard bo'lish, rahm-shafqat ko'rsatish va o'zgalarning taqdiriga befarq bo'lmaslik qobiliyatini ham anglatadi. Rus tilida tez-tez ishlatiladigan "тёплый человек" iborasi nafaqat jismoniy, balki ruhiy ilqlikni ham bildiradi. Ingliz tilida esa bu ma'no "warm-hearted", "kind-hearted" so'zlari orqali ifodalanadi.

Sovuq esa, o'z navbatida, hissiyotning yo'qligi, yopiq tabiat va befarqlik sifatida qabul qilinadi. Ingliz tilida "cold-blooded" (shafqatsiz) iborasi, rus tilida esa "холодный человек" (sovuqqon odam), "холодная душа" (sovuq qalb) kabi ifodalar shu ma'noda qo'llanadi.

Shunday qilib, issiqlik-sovuqlik metaforasi shaxsning axloqiy sifatlarini tasniflashda kuchli madaniy til vositasi hisoblanadi. U shuni ta'kidlaydiki, yaxshilik hissiy ishtirokni talab qiladi, yomonlik esa befarqlik yoki hissiy loqaydlik bilan bog'liq bo'ladi.

Shu bois bunday model shaxslararo va axloqiy munosabatlar sohasida ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Yaxshilik – urug‘ / yomonlik – begona o‘t / kasallik. Ushbu metaforada yaxshilik va yomonlik hayot dalasiga ekilgan urug‘larning natijasi sifatida qaraladi. Yaxshilik – foydali, hosildor urug‘ga o‘xshatiladi; u hosil berishi uchun vaqt, g‘amxo‘rlik, mehnat va sabr talab etadi. Yomonlik esa begona o‘t yoki kasallikka qiyoslanadi – u oson paydo bo‘ladi, tez tarqaladi va agar nazorat qilinmasa, barcha qimmatli narsalarni bosib ketishi yoki yo‘q qilishi mumkin.

Rus tilidagi maqollar:

▶ Что посеешь, то и пожнёшь. (*Nima eksang, shuni o‘rasan*)

▶ Зло как сор, быстро растёт. (*Yomonlik begona o‘tdek tez o‘sadi*)

▶ Посеешь добро – пожнёшь дружбу. (*Osh bilan urganni, tosh bilan ur*)

▶ Добро растёт долго, а зло – как трава у дороги. (*Yaxshilik sekin unadi, yomonlik yo‘l bo‘yidagi o‘tdek o‘sadi*) [2].

Ingliz tilidagi maqollar:

▶ As you sow, so shall you reap. (*Nima eksang, shuni o‘rasan*)

▶ Evil weeds grow apace. (*Yomonlik begona o‘tdek tez o‘sadi*)

▶ Sow good seeds and good things will grow. (*Osh bilan urganni, tosh bilan ur*)

▶ The roots of evil run deep [5]. (*Yaxshilik sekin unadi, yomonlik yo‘l bo‘yidagi o‘tdek o‘sadi*)

Bu yerda Koveches (Kövecses, 2002) **hayot – dala, harakatlar – urug‘**, axloqiy amallar esa – tabiiy aylanishning bir qismi” [8, 29-bet] deb atagan metaforik model namoyon bo‘ladi. Bu kontekstda yaxshilik doimiy “parvarish” talab qiladigan narsa sifatida qabul qilinadi – uni “ekish”, “sug‘orish”, “himoya qilish” kerak, shundagina u ildiz otib meva beradi. Yomonlik esa begona o‘t yoki kasallikka tenglashtiriladi – u o‘z-

o‘zidan paydo bo‘ladi, tajovuzkor va vayronkor bo‘lib, uni yo‘q qilish zarur.

Tabiatga oid metaforalar juda obrazli va universal xususiyatga ega. Ular umumiy insoniyatning dehqonchilik tajribasiga tayanadi, shu bois turli madaniyatlarda tushunarli va ahamiyatli hisoblanadi. Bu holatda yaxshilik – mehnat, sa’y-harakat va faoliyat natijasi bo‘lsa, yomonlik – e’tiborsizlik, beparvolik va axloqiy maydonga loqaydlik oqibatidir.

Bundan tashqari, bu maqollarda sabab–oqibat aloqasi aniq ko‘rinadi: inson qanday ish qilsa (“nima eksa”), shunday natija oladi (“shuni o‘radi”). Bu g‘oya insonning o‘z harakatlari va axloqiy tanlovi uchun mas’uliyatini ta’kidlaydi. Ingliz an’anasida bu g‘oya Injilga borib taqaladi (masalan, Galatiyaliklarga maktubda: “For whatever a man sows, that he will also reap.” – Galatiyaliklarga 6:7), rus madaniyatida esa u dehqon ongida va folklorda chuqur ildiz otgan [6, 54-bet].

Shunday qilib, **yaxshilik – urug‘ / yomonlik – begona o‘t** modeli ongli axloqiy mehnatning ahamiyatini va axloqiy bo‘shliq xavfini ta’kidlaydi. Bu konseptualizatsiya yaxshilik ongli tanlov va mehnat talab qilishini, yomonlik esa ko‘pincha sezilmay kirib kelib, vayronkorlik qilishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Rus va ingliz paremiologiyasidagi yaxshilik va yomonlikning metaforik modellarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ular bir tomondan universal konseptual sxemalarga ega, ikkinchi tomondan esa madaniy-tarixiy kontekst ta’sirida shakllangan farqlarga ega. Eng ko‘p uchraydigan modellarga “yorug‘lik – zulmat”, “issiqlik – sovuqlik”, “urug‘ – begona o‘t” va “kasallik – sog‘lik” kiradi. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, yaxshilik va yomonlik metaforalari asosiy sezgi va ijtimoiy tajribalarga tayanadi, bu esa kognitiv metafora nazariyasi bilan mos keladi. Bunday tadqiqotlar nafaqat milliy dunyoqarashni chuqurroq anglashga, balki madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Арутюнова Н. Д. Логика и метафора. – М.: Наука, 1990.
2. Даль В. И. Пословицы русского народа. – М.: Художественная литература, 1986.
3. Кубрякова Е. С. Язык и знание: на пути получения знаний о языке. – М.: Языки русской культуры, 1996.
4. Мокиенко В. М. Большой словарь русских пословиц. – СПб.: Союз, 2001.
5. Bruno J. *Emotional Metaphors and Cultural Universals* // *Journal of Linguistic Anthropology*. 1999.
6. Burke K. *The Rhetoric of Religion: Studies in Logology*. – Berkeley: University of California Press, 1969.
7. Fergusson R. *The Wordsworth Dictionary of Proverbs*. – Wordsworth Editions, 1996.
8. Kövecses Z. *Metaphor and Emotion: Language, Culture, and Body in Human Feeling*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2002.
9. Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.
10. Speake J. (ed.). *The Oxford Dictionary of Proverbs*. – Oxford: Oxford University Press, 2015.

Mahfuzaxon XOMIDOVA,
*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti doktoranti*
mahfuzaxon.xomidova@mail.ru
ORCID ID: 0000-0002-3559-0448

INTERTEKSTUALLIKNING ANTROPOSENTRIK PARADIGMADAGI O'RNI VA TADQIQI

Annotatsiya: bugun tilshunoslikdagi har bir hodisa antroposentrik paradigma doirasida tadqiq qilinmoqda, shu jumladan, matnga xos bo'lgan kategoriya va xususiyatlar ham inson omili bilan bog'liq holda keng o'rganilmoqda. Matnning barcha turlariga xos bo'lgan intertekstuallik hodisasi ham antroposentrizm va uning yo'nalishlari bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki matn bevosita muallif va o'quvchi bilan aloqador ekan, uni inson omilisiz tahlil, tadqiq qilishning imkoni yo'q. Bu hodisaning psixolingvistik, pragmatik, kognitiv va lingvokulturologik jihatlarini o'rganilishi kerak bo'lgan muhim masalalardan hisoblanadi. Shu bois jahon va o'zbek tilshunosligida ayni aspektga bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan va bu izlanishlar hali ham davom etmoqda. Mazkur maqolada intertekstuallikning antroposentrik tilshunoslik doirasidagi tadqiqi umumiy tahlilga tortiladi, undagi asosiy jihatlariga e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: *antroposentrizm, matn, intertekstuallik, psixolingvistika, pragmatika, lingvokulturologiya, inson omili.*

Annotation: today, every phenomenon in linguistics is studied within the framework of the anthropocentric paradigm, including the categories and features inherent in the text, which are widely studied in connection with the human factor. The phenomenon of intertextuality, which is inherent in all types of text, is also closely related to anthropocentrism and its directions. Since the text is directly related to the author and the reader, it is impossible to analyze and study it without the human factor. The psycholinguistic, pragmatic, cognitive and linguocultural aspects of this phenomenon are important issues that need to be studied. Therefore, a number of studies have been carried out in this aspect in world and Uzbek linguistics, and these studies are still ongoing. In this article, the study of intertextuality within the framework of anthropocentric linguistics is subjected to a general analysis, and attention is paid to its main aspects.

Keywords: *anthropocentrism, text, intertextuality, psycholinguistics, pragmatics, linguoculturology, human factor.*

Аннотация: сегодня каждое явление в лингвистике изучается в рамках антропоцентрической парадигмы, включая категории и признаки, присущие тексту, которые широко изучаются в связи с человеческим фактором. Явление интертекстуальности, присущее всем видам текста, также тесно связано с антропоцентризмом и его направлениями. Поскольку текст непосредственно связан с автором и читателем, его анализ и изучение невозможны без человеческого фактора. Психолингвистические, прагматические, когнитивные и лингвокультурные аспекты этого явления являются важными вопросами, требующими изучения. Поэтому в мировой и отечественной лингвистике был проведен ряд исследований в этом аспекте, которые продолжаются до сих пор. В данной статье будет проанализировано изучение интертекстуальности в рамках антропоцентрической лингвистики, с акцентом на ее основных аспектах.

Ключевые слова: *антропоцентризм, текст, интертекстуальность, психолингвистика, прагматика, лингвокультурология, человеческий фактор.*

Kirish. Intertekstuallik tushunchasi XX asr ikkinchi yarmidan boshlab adabiyotshunoslik va tilshunoslikda muhim ilmiy kategoriyalardan biriga aylana boshladi. Matnlarning o'zaro bog'liqligi, avvalgi matnlarga ishoralar, boshqa madaniy va ijtimoiy kontekstlar bilan aloqasi — bularning barchasi intertekstuallik doirasida o'rganiladi. Y.Kristeva intertekstuallik atamasini

birinchi marta 1966-yilda fanga kiritgan [Кристева Ю. 2004, 427-454]. Olima bu tushunchani M.Baxtinning dialogik nazariyasi asosida ishlab chiqqan. Keyinchalik intertekstuallik lingvistik hodisa sifatida dunyo olimlari tomonidan ham keng tadqiq qilina boshlandi.

Matnlarning o'zaro aloqasi, ma'lum matn ichida boshqa davr, muallif yoki xalqqa oid o'zga matn

hamda uning parchalari uchrashi, ya'ni intertekstuallik hodisasi faqatgina filologlarni emas, balki faylasuf, etnograf, madaniyatshunoslarni ham juda qiziqitirgan. Hatto intertekstuallik haqidagi qarashlar qadimiy mutafakkirlarning asarlarida ham uchraydi. Xususan, Aristotel notiq nutqidagi begona nutq parchasi va badiiy matndagi o'zga matn elementlari haqida fikr bildirgan. U aynan bu hodisani intertekstuallik termini bilan atamagan bo'lsa-da, intertekstuallik mohiyati haqida to'g'ri fikr bildirgan [Аристотель, 2000. 347]. Intertekstuallik yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda asosan, uning genezisi, xususiyatlari va turlari masalasiga ko'proq urg'u beriladi. Biz ushbu maqolada intertekstuallikning antroposentrik tilshunoslikdagi o'rni va tadqiqi masalasiga qisqacha munosabat bildiramiz.

Asosiy qism. Jahon tilshunosligida intertekstuallik an'anaviy matn kategoriyasi va tahlil tamoyillaridan biri sifatida keng o'rganilgan. Badiiy matn doirasida keng tadqiq qilingan. Shuningdek, funksional nutq uslublarining boshqa turlarida uchraydigan intertekstuallik ham atroflicha tadqiq qilingan.

Bugungi zamonaviy tilshunoslik antroposentrik paradigma asosida rivojlanmoqda. Aynan shu ilmiy asosdan kelib chiqib, intertekstuallik til – Inson nuqtayi nazaridan turib keng o'rganilmoqda. Intertekstuallik yuzasidan amalga oshirilgan yondashuvlarning barchasida inson omilining tilga ta'siri bevosita birinchi o'rinda turadi. Y. Lotman bu borada o'zining qarashlarini ilgari suradi:

Referensatsiya nazariyasiga ko'ra, intertekstuallik ikki referentning (obyektning) o'zaro aloqasini belgilaydi.

Ma'lumot berish nazariyasiga asoslanib baholaganda esa intertekstuallik bu – nafaqat yagona matn, balki uning ichidagi boshqa bir matn haqida ham ma'lumot, axborot tashish uchun xizmat qiladigan til hodisasidir.

Semiotik nazariyaga ko'ra esa intertekstuallikni ma'noga egalik, ma'no bildirish terminlari bilan qiyoslash mumkin, ya'ni intertekstuallik bir belgining boshqa bir belgi bilan bir sistema hosil qilishi, bog'lanishidir.

Semantik yondashuvga ko'ra esa biror matn mazmunining boshqa havolalar bilan berilishi bu intertekstuallikdir [4:148].

Madaniy omilga ko'ra esa intertekstuallikda umumiy madaniy semiotik belgilar namoyon bo'ladi. Ya'ni bunda muallif va kitobxon o'rtasidagi etik, etnik umumiylik nazarda tutiladi.

Y. Lotmaning har bir yondashuvi juda asosli bo'lib, intertekstuallik yuqorida berilgan barcha yo'nalishlarda

kompleks tahlil qilinishi, o'rganilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki unda Lotman sanab o'tgan referentlik, semiotik, semantik, etnik, madaniy jihatlarining hammasi birlashadi. Bu esa matn va uning yaratilishi, qabul qilinishi, tushunilishi uchun ham muallifga, ham o'quvchiga zarur bo'lgan omillardir.

Dunyo tilshunosligida intertekstuallikning asosan lingvokulturologik jihatlarini ko'proq tadqiq qilingan, ba'zi tadqiqotlarda esa qisman pragmalingsvistik va psixolingsvistik va kognitiv jihatlarini ham yoritilgan

Psixolingsvistik nuqtayi nazardan intertekstuallik inson ongida boshqa matn, obraz, tajriba va kontekstlarni chaqiradigan til birliklari sifatida namoyon bo'ladi. Jerome Bruner o'z tadqiqotida hikoya qilish va anglash jarayonida intertekstual signallarni qanday qabul qilishni o'rgangan. Y. Muratovning "Интертекстуальность как одна из текstopорождающих категорий" nomli tadqiqotida aynan uning matn hosil qilishdagi o'rni yoritilgan.

Rus psixolingsvisti A. Potebnyaning ta'kidlashicha [3:8-9], til insonlarga dunyoni bilishda yordam beradi. Bunda esa bevosita poetik obrazlar muhim o'rin tutadi. Insoniyatga avvaldan ma'lum bo'lgan afsona va miflar, maqol, matallar ularning ongida alohida poetik obraz sifatida shakllangan bo'ladi. Matn ichida ularning intertekst sifatida kelishi esa kishining lisoniy xotirasiga ta'sir qilib, matn mazmunini idrokini qulaylashtiradi. Yana bir olim A. Popovich badiiy matn ikkita o'q asosida harakatlanishini qayd etadi. Bularning birinchisi gorizontaal o'q bo'lib, u operativ (tezkor) o'q deb ataladi. Uning tarkibiga so'zlar, syujet, kompozitsion qurilish va boshqalar kiradi. Ikkinchisi vertikal o'q bo'lib, u matn ichida boshqa matn parchasini namoyon qiladi. Badiiy matn tabiatini, "iqlimini" o'zgartiradi, ma'lum bir davrga yo'nalish beradi, ko'rsatadi. Bizningcha, ana shu vertikal o'q matndagi intertekstuallik tamoyilining asosi, ya'ni intertekstning aynan o'zidir.

Shuningdek, Mark Turnerning kognitiv nazariyasi ham intertekstual aloqalarni tadqiq qilishga yordam beradi. U kognitiv lingvistika va inson tafakkuri asoslari, jumladan, metafora, hikoya tuzilmalari va tilning tushunishga ta'siri haqida keng ko'lamda tadqiqotlar olib borgan. Quyida uning kognitiv qarashlari haqida asosiy jihatlar keltirilgan:

Konseptual integratsiya (Conceptual Blending Theory) – bu nazariya Mark Turner va Gilles Fauconnier tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib [5], inson tafakkurining ijodiy jihatlarini tushuntirishga qaratilgan. Asosiy g'oya shuki: inson tafakkuri turli konseptual sohalarni birlashtirib, yangi g'oyalar va ma'nolar yaratadi. Masalan, metaforalar, hazillar, hikoyalar va yangiliklar

ko'pincha ikki yoki undan ortiq tajriba sohalarining integratsiyasi (blending) orqali hosil bo'ladi. M. Turnering shu fikrlari bevosita intertekstuallikning kognitiv jihatlari haqida fikr yuritishimiz mumkin. V. Kalenich intertekstuallikning kognitiv va pragmatik xususiyatlari haqida fikr bildirgan [7]. Olim mass mediadagi intertekstuallik bo'yicha tadqiqot olib borib, uni kognitiv kategoriya sifatida baholaydi.

A. Xalilova bir nechta maqolalarida intertekstuallik va kognitiv tilshunoslik aloqasiga munosabat bildirgan [6: 86-87].

Pragmalingvistik yondashuv. So'zlovchining nutqiy maqsadi va auditoriyaning interpretatsiyasi intertekstual bog'lanishlarda muhim o'rin egallaydi. Reklama, siyosiy nutqlar, media matnlarda intertekstual elementlar adresant va adresat o'rtasida yashirin aloqa vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bu yondashuvda intertekstuallik — kommunikativ maqsad bilan ishlatilgan iqtibos, kinoya, konnotatsiya yoki madaniy ishora sifatida ko'riladi. Masalan, reklama, siyosiy nutq, publitsistikada intertekstual elementlar ko'pincha ishonirish, ta'sir o'tkazish, auditoriyani jalb qilish maqsadida ishlatiladi. Tadqiqotchilar T. van Deyk — diskurs va kontekst o'zaro aloqasida matnlararo bog'liqlikni tahlil qilgan. P.Chilton siyosiy nutq va intertekstual aloqalarni o'rgangan. A.B.Borisenko Семиотика интертекстуальности tadqiqotida intertekstuallikning pragmatik xususiyatlariga to'xtalgan. M.Panagiotidou ham pragmatika va intertekstuallik aloqasi haqida to'xtalgan

Diskursiv tahlil va intertekstuallik. Bu yo'nalishda ham dunyo tilshunosligida qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Intertekstuallikni bevosita diskursiv hodisa ekanligi M.Baxtinning dialogizm g'oyalariga tayanadi. Bu yo'nalishdagi eng asosiy fikrlar N. Fairclough tadqiqotlarida uchraydi. Olim matn tahlilini diskursiv

tahlilning bir qismi sifatida qaraydi va intertekstuallikni ayni shu matn tahlili sifatida baholaydi. Shuningdek, olimning intertekstuallik va diskursiv tahlilga bag'ishlangan boshqa tadqiqotlari ham mavjud.

Lingvomadaniy yondashuvda intertekstual birliklar — milliy madaniyat, tarixiy xotira va diniy qadriyatlarni aks ettiruvchi belgilar sifatida tahlil qilinadi.

Masalan, muqaddas kitoblardan iqtiboslar — madaniy konnotatsiyali intertekstual birliklar sifatida baholanadi. Frazologik birliklar, tarixiy shaxslar til orqali madaniy xotirani faollashtiradi. Amerikalik olim K. Kramsh — til va madaniyat o'zaro aloqasi kontekstida intertekstuallikni o'rgangan. Intertekstuallikni madaniyatlararo kontekstda tahlil qilish lingvomadaniyatshunoslik sohasida keng tarqalgan. Bu yondashuvda matnlar o'zaro madaniy kodlar almashinuvi orqali bog'lanadi. Rus tilshunosligida intertekstuallikning asosan lingvokulturologik jihatlari o'rganilgan. T.Litvinenko, E.Neshkova, E.Luchinskaya kabi rus olimlarining tadqiqotlarida intertekstuallik lingvomadaniy hodisa sifatida tahlil qilingan. Asosan badiiy matnlar tadqiq obyekti qilib olingan. Dissertatsiya va maqolalarda uning lingvomadaniy jihatlari turli nutq uslublari misolida tadqiq qilingan. Shuningdek, intertekstuallik amaliy jihatdan adabiy tahlil, tarjimashunoslik, reklama tilshunosligi, kinotahlil kabi sohalarda ham faol qo'llaniladi.

Xulosa. Intertekstuallik matn ichida matn parchasi bo'lib kelib, shunchaki uning struktur jihatini tashkil qilmaydi. Bu hodisa bevosita matn yaratuvchisining til bilish darajasi, madaniy kodlari, dunyoqarashi haqida ham xabar beradigan asosiy vositadir. Intertekstuallikning shu jihatlari uni lingvomadaniy, psixolingvistik, pragmalingvistik hodisa sifatida ham o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аристотель. (2000). Поэтика. Риторика [Текст]/ Аристотель. — СПб. Азбука. — С. 347.
2. Крстева Ю. (2000). Бахтин, слово, диалог и роман. Французская семиотика: От структурализма к постструктурализму. — М., 2000. — С. 427-457. <http://www.philology.ru/literature1/kristeva-0disseratt0.htm>
3. Кузьмина Н. А. (1999). Интертекст и его роль в процессах эволюции поэтического языка.
4. Лотман Ю. М. Текст в тексте Текст. / Ю. М. Лотман // Избранные статьи в трех томах. — Т. 1: Статьи по семиотике и типологии культуры. — Т.: «Александра», 1992.
5. Turner M., G.Fauconnier. Conceptual Blending, Form and Meaning
6. Халилова А. (2016). Интертекстуальность как когнитивная категория художественного текста. Иностранная филология: язык, литература, образование, 1(1 (58), 82–87.
7. https://www.researchgate.net/publication/249712799_Linguistic_and_Intertextual_Analysis_Within_Discourse_Analysis
8. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S089858989290004G>

Zahro XOLIQOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
O'zbek tili (10.00.01) ixtisosligi 2-kurs tayanch doktoranti
zakhrokholikova@gmail.com

KONSEPT IZOHI BILAN BOG'LIQ TADQIQOTLAR TAHLILI

Annotatsiya: bu maqolada konsept so'ziga izohlar va tilshunoslar fikrlari tahlil qilingan. Maqolada tavsifiy metoddan foydalanilgan. Konsept tushuncha bilan sinonim sifatida ishlatiladi. Tushuncha konseptdan xususiyoq bo'lib, konsept ensiklopedik, semantik ma'no ifodalaydi. Konsept orqali bilimlar saqlanib avlodlarga yetkaziladi.

Kalit so'zlar: *til, idrok, mantiq, mental birlik, semantika, konsept, konseptual tahlil.*

Аннотация: в этой статье анализируются комментарии к слову «концепт» и мнения лингвистов. В статье использован описательный метод. Концепт используется как синоним понятия. Понятие более узкое, чем концепт, а концепт выражает энциклопедическое и семантическое значение. Через концепты знания сохраняются и передаются последующим поколениям.

Ключевые слова: *язык, восприятие, логика, ментальная общность, семантика, концепт, концептуальный анализ.*

Annotation: this article analyzes comments on the word concept and the opinions of linguists. The article uses a descriptive method. The concept is used as a synonym for the concept. The concept is more specific than the concept and expresses a conceptual encyclopedic, semantic meaning. Through the concept, knowledge is preserved and passed on to generations

Keywords: *language, perception, logic, mental unity, semantics, concept, conceptual analysis*

Kirish (Introduction). Kognitiv tilshunoslikda eng asosiy o'rganiladigan muammo – bu konseptdir. Chunki kognitiv tilshunoslik – dunyoning lisoniy tasvirida muayyan konseptning mohiyati va dunyo voqealari bilan bog'liqligini o'rganuvchi fan bo'lsa, konsept kognitiv tilshunoslik fanining asosiy kategoriyalaridan biri bo'lib, madaniyat va inson o'rtasidagi aloqa o'rnatuvchi elementdir. “Konsept” termini o'tgan asrning 90-yillaridan beri tilshunoslikda keng qo'llanilib kelinmoqda. Shunga qaramasdan konsept tushunchasi hali-hamon bitta umumiy izoh yoki talqinga ega emas. Konseptlarning o'rganilishi bo'yicha eng atoqli tilshunoslaridan biri S. A. Askoldov hisobladi. U konseptga “bu bir tur yoki boshqa turdagi tushunchalar haqida fikrlash jarayonini o'zida aks ettiradigan birlikdir” deb izoh bergan.¹

¹ Аскольдов С.А. Концепт и слово// Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология. — М.: Academia. 1997. С.267—280.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). D. S. Lixachev o'zining “Konseptosfera russkogo yazika” ilmiy ishida konseptni so'zning lug'at ma'nosi va insonning o'z milliy qarashlari bilan to'qnashuvi natijasida hosil bo'ladigan fikrlash jarayonining mahsuli deb ta'riflaydi².

Y. Komarov o'zining nomzodlik ishida konseptning mazmun strukturasiga ko'ra leksik ma'nodan katta ekanligini alohida ta'kidlaydi. Buning sababi sifatida konseptning mental hodi-sa ekanligi bilan izohlaydi.

Y. Shvedova “Konsept bu – tushuncha ekanligi, bu tushuncha ortida esa ijtimoiy yoki subyektiv tarzda anglanuvchi, inson hayotining muhim moddiy, aqliy, ruhiy tomonini aks ettiruvchi, o'z tarixiy ildizlariga ega bo'lgan, xalqning umumiy tajribasini aks ettiradigan mazmun turishi”ni qayd etadi.

² D. S. Lixachev “Концептосфера русского языка”.

N. Arutyunova esa konseptni ham mental birlik, ham tafakkur elementi sifatida talqin etib, uning olam va odam o'rtasidagi madaniy unsur ekanligini izohlaydi.³

Y. S. Kubryakova konseptni "mental tuzilma va turli tarkibdagi va ko'rinishdagi bilimlar jamlanmasi yoki umumlashmasi" ekanini ta'kidlaydi. S. G. Vorkachev esa "Konsept – tildagi o'z ifodasi va lingvokulturologik spetsifikasiga ega tushuncha, tasavvur va bilimlar to'plamidir" – deydi⁴

S. G. Vorkachev esa "Konsept – tildagi o'z ifodasi va lingvokulturologik spetsifikasiga ega tushuncha, tasavvur va bilimlar to'plamidir" – deydi.⁵

O'zbek tilshunosligida ham "konsept" tushunchasi turli talqinga ega. Masalan, Sh. S. Safarov "moddiy dunyo idroki ayni paytda idrok etilayotgan predmet – hodisalar haqida tushunchaning tug'ilishini, keyinchalik ushbu tushuncha mental namuna – konsept sifatida shakllanib, moddiy nom olishi" ni ta'kidlaydi.⁶

O'. Q. Yusupov konseptni "tashqi yoki ichki dunyodagi biror-bir narsa yoki hodisa haqidagi ongimizdagi bilimlar majmuasi, u haqidagi obrazlar va unga bo'lgan ijobiy, salbiy, neytral munosabatlar, ya'ni baholashlardir" deb belgilaydi. Tushuncha va konseptni farqlash maqsadida olim quyidagicha fikr bildiradi: "Konsept bilan tushunchani aysbergga o'xshatish mumkin. Agar konsept aysberg bo'lsa, uning suvdan chiqib turgan qismi tushunchadir" ⁷.

D. U. Ashurova esa konseptni mantiqiy, milliy xususiyatga ega bo'lgan bir hodisa sifatida talqin qilib, shu konseptning negizini aynan shu o'rganilayotgan predmet yoki hodisa haqidagi bilim tashkil qilsa, ifodalanishini esa til vositalari (leksik, frazeologik, paremiologik va h.k) ning mutanosibligi tashkil qilishini aytadi ⁸.

3

4 Kubryakova Ye. S. O kognitivnoy lingvistike i semantike termina "kognitivniy" // Vestnik Voronezhskogo gosudarstvennogo universiteta Seriya: Lingvistika i mejkulturnaya kommunikatsiya. – Voronej, 2001. 90-s.

5 Vorkachev S. G. Lingvokonseptologiya i mejkulturnaya kommunikatsiya: istoki i seli // Filologicheskiye nauki, 2005. – №4.

6 Safarov Sh. S. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006, 91-b.

7 Yusupov O'. Q. Ma'no, tushuncha, konsept va lingvokulturrema atamallari xususida // Stilistika tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlarida: Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2011. 49-b.

8 Ashurova D. U. Svyaz vuzovskix kursov s sovremennimi napravleniyami lingvistiki // Filologiyaning dolzarb muammolari: Ma'ruza tezislari. –

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Atoqli tilshunos, professor G'. M. Hoshimov konseptga quyidagicha ta'rif beradi: "Konsept, bu – tafakkurda kechuvchi biri-biri bilan chambarchas bog'liq nafaqat ikki muhim jarayon (konseptualizatsiya (konseptuallashtirish) va kategorizatsiya (kategoriyallashtirish) ning natijasi bo'lib sanaladi, balki unga qo'shimcha yana bir qator muhim (psixologizatsiya, kognitivatsiya, sotsiologizatsiya, (lingvo) semantizatsiya, sotsiolektizatsiya, stilizatsiya (dialektizatsiya, variantizatsiya va idiolektizatsiya kabi) jarayonlarning pirovard natijasidir va u yaxlit konseptual/kognitiv semantika sifatida lingvistik semantikaning kognitiv asosini tashkil etadi hamda unda til birligi o'zining semantik sig'imi bilan bog'liq holda ma'lum darajada (qisman) aks etadi". Professor konseptni murakkab idrokiy voqelik, ya'ni tilda verbal (va kerak hollarda noverbal) vositalar orqali voqelantiriluvchi hodisa sifatida murakkab ichki tashkil etuvchilardan iborat deb hisoblaydi. Olimning fikricha, u o'ziga xos tashkil etuvchilarni o'z ichiga olgan shajaraviy tarkibga ega va tilda gapiruvchilar o'rtasida barcha so'zlovchilar tomonidan belgi(lar) orqali moddiylashtiriladi hamda barchaga umumiy bo'lgan bir ma'no sifatida qabul qilinadi. Shunday qilib ma'no verbal belgi orqali voqelantiriladi, kalitlashtiriladi, kodlashtiriladi, parollashtiriladi, me'yorlashtiriladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Konseptual tahlil, birinchi navbatda, uning tadqiqot yo'nalishi bo'lib xizmat qiladigan konseptosfera bilan bog'liq. Konseptosfera tushunchasi kognitiv tilshunoslikda muhim ahamiyatga ega. Zero, konseptlarga uning asosiy birliklarini tashkil qiladigan bilim sohasi sifatida qaraladi.⁹

Konseptni, avvalo, uni ifodalashning leksik vositalari orqali o'rganish mumkin bo'lsa-da, konseptual tahlil va so'zning semantik tahlilini

Toshkent, 2008, 11-b.

9 Maxsudova Nargiza Aslonbekovna, KONSEPTLARLARNI TALQIN QILISH VA TAVSIFLASH USULLARI. INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "INNOVATIVE APPROACHES IN STUDY OF THE LANGUAGE, LITERATURE, TRANSLATION, TOURISM AND CULTURAL HERITAGE ON THE SILK ROAD", MAY 3-4, 2024 ORCID ID 0009-0003-4325-7789 <https://doi.org/10.5281/zenodo.11085829>

farqlash juda muhimdir. Ma'no bilan bog'liq maqsad va vazifalar jihatidan aniq o'xshashligiga qaramay, bu ikki yondashuvni biroz qarama-qarshi deb hisoblash mumkin. Leksik semantika lingvistik shakldan semantik tarkibga rivojlanadi, konseptual tahlil esa ma'no birliklaridan ularni ifodalovchi lingvistik shakllarga o'tadi. Semantik tahlil so'zlarning ma'nosini aniqlashtirishga yordam beradi, konseptual tahlil esa dunyo haqidagi bilimlarga asoslanadi. Lingvistik fikrni tushunish konseptual tahlilda juda muhimdir. V.I. Postovalovning fikricha, tilshunoslikda konseptual tahlil jarayoni odatda, konseptning leksikografik tavsiflarda qanday namoyon bo'lishini o'rganish yoki so'zlarning paydo bo'lishi va tarqalishini aniqlashdan boshlanadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, konsept, konseptologik tahlil qilish tilshunoslikka nima uchun kerak degan savol tug'ilishi mumkin. Tildagi so'zlarni konsept sifatida o'rganish tilning amaliy ahamiyatini ochib beradi. Uning xarakteri, dunyoqarashi, xotirasi, tajribasi, bilimi, idrokini ko'rsatadi. Bunda konsept asosiy qurol bo'lib xizmat qiladi. Uni tahlil qilish tildagi so'zlarni yaxshiroq o'rganishga, tilning jamiyat uchun xizmat qilish rolini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, u til birliklarini ko'p qirrali hodisa sifatida ko'rib chiqadi, ya'ni har bir til birligi sinchkovlik bilan o'rganilishi lozim.¹⁰

¹⁰ Z.Xoliqova. Kognitiv yondashuv va uning mohiyati. TAMADDUN NURI jurnali 12.2024. UDK:81-13 <https://orcid.org/0009-0009-3402-8363.181-bet>

Foydalanilgan adabiyotlar (References):

1. Аскольдов С.А. Концепт и слово// Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология. – М: Academia. 1997. С.267–280.
2. Kubryakova Ye. S. O kognitivnoy lingvistike i semantike termina “kognitivniy” // Vestnik Voronejskogo gosudarstvennogo universiteta Seriya: Lingvistika i mejkulturnaya kommunikatsiya. – Voronej, 2001. 90-s.
3. Vorkachev S. G. Lingvokonseptologiya i mejkulturnaya kommunikatsiya: istoki i seli // Filologicheskiye nauki, 2005. – №4.
4. Safarov Sh. S. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. 91-b.
5. Yusupov O'.Q. Ma'no, tushuncha, konsept va lingvokulturema atamallari xususida // Stilistika tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlarida: Ilmiy amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2011. 49-b.
6. Ashurova D. U. Svyaz vuzovskix kursov s sovremennimi napravleniyami lingvistiki // Filologiyanning dolzarb muammolari: Ma'ruza tezislari. – Toshkent, 2008. 11-b.

Ikromjon JO'RABOYEV,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek
tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
juraboyevikromjon5@gmail.com

IMOM G'AZZOLIY ILMIY MEROSINING TAVSIFI

Annotatsiya: G'azzoliy tasavvuf va irfonda falsafa ilmi yutuqlarini dadillik bilan qo'lladi. "Ihyou ulumid-din" kitobidagi nafs haqidagi fikrlarida falsafiy ohang juda kuchli. Alisher Navoiy "Nasoyim-ul muhabbat"da yozishicha, G'azzoliyning "Javohiru-ul-Qur'on" va "Mishkotu-ul-anvor" asarlari atoqli avliyolar, so'fiylarning xonaqohlarida asosiy saboq kitoblaridan hisoblangan.

Kalit so'zlar: G'azzoliy, tasavvuf, Nizomiya, Muxtasar, Kimiyoi saodat.

Аннотация: Газали смело применял достижения философии в суфизме и мистицизме. Его размышления о душе в книге "Ихью улумид-дин" имеют ярко выраженный философский тон. Алишер Навои писал в "Насайму-уль-мухаббат", что произведения Газали "Джавахиру-уль-Куран" и "Мишкоту-уль-анвар" считались главными учебниками в домах выдающихся святых и суфиев.

Ключевые слова: Газали, суфизм, Низами, Мухтасар, Алхимия счастья.

Annotation: Ghazali boldly applied the achievements of philosophy in Sufism and mysticism. His thoughts on the soul in the book "Ihyou ulumid-din" have a very strong philosophical tone. Alisher Navoi wrote in "Nasayimu-ul-muhabbat" that Ghazali's works «Jawahiru-ul-Qur'an» and "Mishkotu-ul-anwar" were considered the main textbooks in the homes of prominent saints and Sufis.

Key words: Ghazali, Sufism, Nizami, Mukhtasar, The Alchemy of Happiness.

Kirish. To'liq ismi Muhammad ibn Muhammad ibn Ahmad Tusi Abu Homid G'azzoliy. U Tus viloyatining (hozirgi Mashhad) Tobaron nomli shaharida 450-hijriy sanada tavallud topgan. [1: 185]

G'azzoliy o'zining 55 yillik qisqa umrida juda barakali ijod qildi. 100 dan ortiq asar unga nisbat beriladi. Ibn Sino, Beruniy, Forobiy singari ulug' salafkari kabi G'azzoliy ismi ham ayrim mualliflar uchun o'z fikrlarini uning nomidan aytilish va tarqatish uchun qulay vosita bo'lgan. Shu sababdan, G'azzoliyga nisbat beriladigan asarlarning barchasini ham unga mansub deb bo'lmaydi. [2: 176]

Asosiy qism. Misr olimi Abdurahmon Badaviy G'azzoliyga nisbat beriladigan barcha asarlar ro'yxatini tuzib, ularga qisqacha tasnif ham bergan. "Kimiyo saodat" kitobi o'zbek tiliga tarjima qilib nashr etildi. "Ihyou ulumid-din" kitobidan bir nech qismi o'zbek tiliga tarjima qilinib, alohida kitob holida nashr etildi. Quyida unga nisbat beriladigan asarlaridan unga mansubligida shubhasi yo'q, shuningdek, falsafiy-irfoniy asarlar turkumiga kirmagan asarlarining qisqacha tavsifini beramiz:

Al-iqtisod fil-e'tiqod – Nishopurdagi "Nizomiya" madrasasida mudarrislik faoliyati bilan mashg'ul bo'lgan davrda yozilgan. Ushbu asar kalom ilmiga oid bo'lib, Imom ul-Haramayn Juvayniyning "Kitob ul-irshod" kitobi ta'sirida yozilgan. G'azzoliy ushbu kitobda imon masalasini donishmand bir ash'ariy mutakallim sifatida Imom ul-Haramayn va Boqiloniy kabi turli dalillar bilan isbotlaydi. O'ziga xos shijoat va teranlik bilan bu masalaga oid bo'lgan barcha shubha va gumonlarni bartaraf etib, tug'ilishi mumkin bo'lgan biror savol yo muammoni nazardan qochirmaydi.

Al-basit – fiqh ilmida G'azzoliyning birinchi kitobi hisoblanadi. Ushbu kitobni u Nizomulmulk bilan xizmat

qilib yurgan paytlarida ko'zga ko'ringan faqihlar bilan qilgan munozaralari natijasi o'laroq yozib tugatgan. Unda fiqhiy masalalar shofei mazhabi nuqtai nazaridan tahlil va talqin etiladi.[3: 220]

Tuhfat ul-muluk – fors tilida yozilgan bo'lib, zamon hukmdorlariga bag'ishlangan. Unda G'azzoliy salb yurishlarining mohiyati, salbchilarning asl maqsadini fosh etadi. Kitobning ahamiyati shundaki, u salbchilarga qarshi kurashish faqat jehod emas, balki vatanparvarlik va xalq tinchligi yo'lidagi kurash, mustaqillik va erkinlik yo'lidagi adolatli urush sifatida baholaydi.

Xulosat ul-muxtasar – fiqh ilmiga oid bo'lib, unda Abu Muhammad Juvayniyning "Muxtasar" kitobini qisqa tarzda bayon etadi.

Ad-durrat ul-foxira – bu kitob ham Asin Palagios tomonidan G'azzoliyga mansubligi shubha ostiga olingan. [4: 157] Kitob Tusda uzlatga chekingan davrda yozilgan bo'lib, esxatologik xarakterga ega. Unda qabr azoblari, o'limdan keyingi hayot, ruh va badanning ahvoli haqida yozilgan. Mazkur risola o'zbek tiliga tarjima qilinib, "O'limni eslash kitobi" nomi bilan "Mutarjim" nashriyoti tomonidan chop etilgan.

Risolat at-tayr – "Qushlar haqidagi risola" G'azzoliyning adabiy-allegorik usulda yozilgan risolasidir. Unda olimning irfoniy qarashlari majoz tariqida bayon etilgan. Risolada yigirmadan ortiq Qur'on oyatlari va hadisdan iqtiboslar mavjud. [5: 88]

Ar-risalat al-qudsiyya – sunniy aqiydalar majmui bo'lgan ushbu risola Shom va Baytulmuqaddasda yozilgan bo'lib, keyinroq G'azzoliy bu risolani "Qavoyid ul-aqoyid" nomi bilan "Ihyo ul-ulum ad-din" tarkibiga kiritdi.

Shifo ul-g'alil – fiqh usuli ilmida yozilgan risola bo'lib, unda asosan, fiqhning ikki usuli (metodi) – qiyos va ta'til haqida bahsi yuritiladi. Ushbu asarni Nizomulmulk qo'shinida xizmat qilgan davrlarida yozgan bo'lib, yozgan yili aniq emas. Kitobning ayrim ishoralariga ko'ra, u ustoz Imomul-Haramayn Juvayniy vafotidan so'ng nihoyasiga yetgan. Ushbu kitob ilm ahli orasida katta e'tirofga sabab bo'ldi. Jumladan, Sharaf Mas'udiy Imom Faxr Roziy bilan qilgan bir ilmiy munozarada ushbu kitobga bir necha marta murojaat qilib, fikrlarini G'azzoliy keltirgan dalillar bilan asoslashga harakat qilgan.

Faysal ut-tafriqa – G'azzoliyning ushbu risolasi kufr va imon masalasiga bag'ishlangan. Ushbu risolada imon masalasi nazariy jihatdan keng yoritilgan bo'lib, har bir fikr Qur'on oyati va hadis orqali dalillantrilgan. Iymon masalasida G'azzoliy faqat diniy asoslarni inobatga oladi. U bu masalada taassub va imon o'rtasidagi farqni juda teran nazar bilan ochib bergan. Dindorlik hali mo'minlik emasligi to'g'risidagi fikrlari o'rta asrlar ijtimoiy hayotida juda katta jasorat hisoblanadi. Shuningdek, aqidaviy yo'nalish ahlari va ular o'rtasidagi kelishmovchiliklar to'risidagi mulohazalar ham alohida diqqatga sazovor.

Kimiyo saodat – mashhur "Ihyou ulum ad-din" asosida fors tilida yaratilgan eng go'zal obidalaridan hisoblanadi. Ushbu asarda G'azzoliy "Ihyou ulum ad-din"da bayon etilgan masalalarni mo'jaz va ixcham tarzda bayon etadi. Salb yurishlari ayni avjiga chiqqan pallada mazhabiy tarafdashlik ham din, ham davlat ishlariga katta xatar ekanligini dildan his etgan G'azzoliy mo'taziliya ta'limotining yirik namoyandasi bo'lgan Sohib ibn Abbod so'zlaridan namunalar keltiradi, shofeylik va hanafiylik mazhabi aslida bir-birini to'ldiruvchi ta'limotlar ekanligiga alohida urg'u beradi, hattoki Qadimgi Yunon faylasufi Arastu so'zlarini hikmat deya baholaydi. Bu esa, o'z navbatida, xilof ilmi asoslarini asosiy me'yor sifatida qabul qilgan ayrim olimlarning qattiq e'tiroziga sabab bo'lgan. Jumladan, uning maslakdoshi Abdulg'ofir Forsiy ushbu kitob G'azzoliy obro'siga ancha putur yetkazganini taassuf bilan qayd qilgan. Shunga qaramasdan, "Kimiyo saodat" shuhrati Markaziy Osiyo mintaqasida juda katta shuhrat qozongan. Jumladan, saljuqiylar sulolasining bosh vaziri Faxrulk mulk mazkur kitobni bir necha marta mutolaa qilganligi to'g'risida ma'lumotlar ham mavjud. Ushbu kitob XIX asrda o'zbek tiliga tarjima qilingan.

Al-mustasfo fiy usul il-fiqh – ushbu kitobni G'azzoliy Nishopurdagi "Nizomiya" madrasasida mudarrislik qilgan

davrida hijriy 503-sanada yozib tugatgan. Mazkur kitob ham "Shifou - al - G'alil" kabi fiqh usuli ilmida yozilgan. G'azzoliy fiqhiy masalalarni hal etishda ushbu kitobda mantiq ilmidan keng foydalangan. Shuni ham aytib o'tish kerakki, mantiq qadimgi Yunon falsafiy maktablarning tafakkur mahsuli bo'lganligi sababli, shar'iy bilimlarda tatbiq etilmasdi. G'azzoliy "Ilmni Chinda bo'lsa ham izla" hadisiga amal qilgan holda dadillik bilan qiyos va istehson usullarini qo'llashda mantiqiy qonuniyatlarni inobatga olish foydadan xoli emasligini ko'rsatgan.

Mishkot ul-anvor – mazkur risola "Nur" surasining "Allohu nur us-samovoti val-arz" so'zlari bilan boshlanadigan oyati tafsiriga bag'ishlangan. Shuningdek, unda Allohning yetmish qavatli nur hijobi borligi to'g'risidagi hadisi ham keng tahlil etilgan. "Mishkot ul-anvor" G'azzoliyning ishroq nazariyasi hamda neoplatonizm ta'limotidan juda yaxshi xabardor bo'lganligini ko'rsatadi. G'azzoliy nur va zulmat masalasini ushbu risolada keng va atroflicha tahlil qilib, o'zining ontologik qarashlarini bir oyat tafsiri orqali bayon etishga erishgan. [6: 143]

Al-maqсад ul-asno fiy sharhi asmo ul-husno – mazkur kitob Allohning go'zal ismlari va bu ismlar zamirida yashiringan hikmatlar to'g'risida bahs yuritadi. Kitob Bag'doddagi "Nizomiya" madrasasi talabalari iltimosi bilan yozilgan.

Mizon ul-amal – mazkur risola zo'hdlik va axloq masalalariga bag'ishlangan. G'azzoliy zuhd odoblari va uning axloq masalalari bilan uyg'unligini ko'rsatish bilan birga, solih amalning mohiyati, qaysi amallar ezgu amal hisoblanishi, qaysi solih amallar oxirtda ham insonga foyda keltirishi va qaysi amallar tashqi tomondan ezgu amal ko'rinishi bilan aslida oxirtda hech qanday foyda keltirmasligini ko'rsatib o'tgan.


Al-vajiz – fiqh ilmiga oid bo'lib, bu asar islom fiqhi tarixida eng muhtasham obidalaridan hisoblanadi. G'azzoliy "Al-Vajiz"da fiqhiy masalalarni sharhlash bilan bir qatorda xilof ilmiga oid masalalarni ham yoritib beradi va shu orqali mazhablar o'rtasidagi fiqhiy-nazariy ixtiloflarning mohiyatini ochib beradi. Unda barcha fiqhiy masalalar shofeylik va hanafiylik mazhabi bo'yicha qanday hukmga ega ekanligi ko'rsatib o'tilgan. Ma'lum bo'ladiki, G'azzoliy ikki mazhabni ham puxta o'zlashtirib, mujtahidlik darajasiga yetishgan zotlardan bo'lgan.

"Al-Vajiz" bugun ham Misrdagi mashhur "Al-Azhar" universitetining asosiy darsliklaridan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Tasavvuf haqida tasavvur. – Toshkent: Movarounnahr, 2004. 185-bet.
2. Grigoryan S.N. Iz istorii filosofii Sredniy Azii i Irana YII-XII vekov. – Moskva. 1966. 176-bet
3. Hoji Abdulg'ofur Razzoq. Tariqatga yo'llanma (Naqshbandiya ta'limoti asosida). – Toshkent: Movarounnahr, 2004. 220-bet.
4. Storn Ch.A. Persidskaya literatura v trex chastyax. – Moskva: Nauka, 1972. 157-s.
5. Boltaboyev H. Islom tasavvufi manbalari. – Toshkent: O'qituvchi, 2005. 88-bet.
6. Usmonov T. Tasavvuf tarixi. – Toshkent: Istiqol, 1999. 143-bet.

Marjona RAHIMBOYEVA,
BuxDPI tayanch doktoranti



AHMAD DONISHNING TA'LIMiy G'OYALARI VA ULARNING BUXORO PEDAGOGIK TARAQQIYOTIGA TA'SIRI XUSUSIDA

Annotatsiya: ushbu maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yashab ijod etgan islohotparvar mutafakkir Ahmad Donishning maktab va madrasa ta'limi bilan bog'liq ilg'or pedagogik qarashlari tahlil qilinadi. Uning an'anaviy ta'limni ichki tuzilmasi, ilmiy-ma'naviy saviyasiga doir nazariy tahlil asoslari hamda bu tizimning tanazzul va zaiflik sabablari mohiyati ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, tadqiqotda mazkur tizimni sifat jihatidan o'zgartirish va rivojlantirish xususidagi g'oyalari va fikrlari ilmiy-nazariy tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *Tarixi Xumoyun, Mirroti Ibrat, maktab islohoti, axloqiy-estetik qarashlar, reaksionerlar, pedagogik-psixologiya, ma'rifatparvar, tahlil va kuzatish.*

Аннотация: в статье анализируются прогрессивные педагогические взгляды мыслителя-реформатора Ахмада Дониша, жившего и творившего в конце XIX – начале XX веков, на школьное и медресенное образование. Излагаются основы его теоретического анализа внутренней структуры традиционного образования, его научного и духовного уровня, сущности причин упадка и слабости этой системы. В исследовании также дан научно-теоретический анализ его идей и размышлений о качественном изменении и развитии этой системы.

Ключевые слова: *Тарихи Хумаюн, Мирроти Ибрат, школьная реформа, морально-эстетические взгляды, реакционеры, педагогическая психология, просветительство, анализ и наблюдение.*

Annotation: this article analyzes the progressive pedagogical views of the reformist thinker Ahmad Donish, who lived and worked in the late 19th and early 20th centuries, regarding school and madrasah education. The foundations of his theoretical analysis of the internal structure of traditional education, its scientific and spiritual level, and the essence of the causes of the decline and weakness of this system are indicated. The study also provides a scientific and theoretical analysis of his ideas and thoughts on the qualitative change and development of this system.

Key words: *Tarixi Humayun, Mirroti Ibrat, school reform, moral and aesthetic views, reactionaries, pedagogical psychology, enlightenment, analysis and observation.*

Kirish. Ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlaridan va pedagogika tarixi tajribasidan kelib chiqadiki, inson hayoti yagona avlodlar zanjirining bo'g'inidir. Ya'ni, inson ijtimoiy-madaniy an'analar makonida yashaydi, bu uning fe'li, xulq-atvori, intilishlari, qadriyatlari va manfaatlarining shakllanishiga sezilarli ta'sir qiladi. Zero, "millat yoshlarini yorug' kelajagini ta'minlash, shu maqsadda bilim va tajribani safarbar etish"¹ bugungi davr pedagogikasining ham maqsadidir.

Aytish joizki, Sharq olimlarining 70-yillarga qadar maxsus pedagogik-psixologik fikrlarini o'rganish

alohida tadqiqot mavzusi bo'lmagan. Ammo hayotiy tajriba va ta'limning tabiati, o'tmish madaniyat tarixi tajribasi Sharq mutafakklilarining boy merosidan ta'lim-tarbiyaning ko'p qirralarini izlashni va o'rganishni taqozo etdi.

Asosiy qism. Tarixning turli davrlarida yashab ijod etgan, o'z ijodiy faoliyatini jamiyat tarbiyasiga bag'ishlashga kirishgan ayrim buyuk mutafakklilar ijodida ham o'z davri hukmdorlariga ta'lim va nasihatlar bilan ta'sir o'tkazish istagini kuzatish mumkin. Agar bu bir tomondan, hukmdorlarning ko'rsatma va tarbiyaga muhtojligidan dalolat bersa, ikkinchi tomondan, o'sha davrdagi alloma va mutafakklilarning yuksak mavqeyi va nufuzining to'g'ridan-to'g'ri tasdig'idir. Bunday buyuk shaxslar qatoriga, masalan, G'azzoliy, Keykovus,

¹ Mirziyoyev Sh.M. "Bilimli avlod-buyuk kelajakning, tadbirkor xalq-farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir". O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutq. 2018-yil, 7-dekabr.

Shayx Sa'diy, Nizomulmulk, Jomiy, Alisher Navoiy, Ahmad Donish va boshqa turli davr mutafakkirlari kiradiki, ularning shoh va hukmdorlarga bergan nasihat va ko'rsatmalari har bir xalq madaniyatining rivoji va yuksalishida katta rol o'ynagan.

Biz yuqorida sanab o'tgan olim-mutafakkirlarning har birining axloqiy-estetik qarashlarining ahamiyati va rolini aniqlash alohida tahlil va kuzatishni talab etadi.

Bu holatlar, bizning fikrimizcha, ishimizning dolzarbligi, ahamiyati va zaruratini belgilaydi.

Ahmad Donishning pedagogik qarashlari ta'lim va tarbiya tizimini tubdan o'zgartirishni o'z oldiga vazifa qilib qo'ygan Sharl Furry, Robert Ouen, Anri Sen-Simon kabi pedagoglar ta'limoti bilan bir xilda turadi. Adibning pedagogik va islohotchilik faoliyati haqida uning hayotligidayoq turli qarashlar bo'lib, bu munozarali bahslar avj olishiga sabab bo'ldi, vafotidan keyin ham bu holat so'nmadi. Buni turli bayonotlar tasdiqlaydi.

Mutafakkirning zamondoshlari keyinchalik bu savollar Sadridin Ayniy asarlarida tahlil, mahalliy va xorijiy adabiyotshunos olimlarning tadqiqotlari mavzusi bo'lganligini ta'kidlaydi. Sadridin Ayniyning sa'y-harakatlari, targ'iboti va yordami tufayli 30-yillarning boshlarida professor E.E.Bertels Ayniy ma'lumotlariga tayangan holda "Tojik adabiyoti tarixi bo'yicha tadqiqot ishlarining ahvoli" nomli maqola yozar ekan, Ahmad Donishni butun sobiq ittifoq xalqiga o'zining butun buyukligi bilan tanishtirdi. Keyinchalik, Ahmad Donish asarlarini o'rganishni davom ettirib, Bertels E.E. 1936 yilda "Ahmad Kalla asarlarining qo'lyozma nusxalari" sarlavhali tadqiqot nashr qildi².

Sotim Ulug'zoda 40-yillarda "Tojik adabiyoti namunalari" (1940) va "Ahmad Donish" (1946) ikki asarida mutafakkirning ayrim ijtimoiy-siyosiy qarashlarini tahlil qilib, birinchi marta Ahmad Donish shaxsiga nisbatan "ma'rifatparvar" atamasini qo'llagan.

Akademik A.Bogouddinovning "Tarixi ijtimoiy-siyosiy fikr; tojik xalqi XIX asr 2-yarmi" (1950), "Tojik falsafasi tarixi ocherklari" (1960) monografiyalari³ va B.G'ofurovning maqolalari, I.Mo'minov, M.Dinorshoyev, G'.Ashurovlar Ahmad Donishning ijtimoiy-siyosiy va falsafiy qarashlarini o'rganishga bag'ishlangan.

2 Бертелс Э. Э. Ахмади Кале асарларининг қўлёзмалари. Тож материаллари. СССР Фанлар Академиясининг асослари, 3-жилд, - Москва, Наука. 1936, Б-10-28.

3 Богоутдинов А.М. Тожик фалсафаси тарихи очерклари - Душанбе, 1961. -Б-332 .

Buxoroda o'tgan asrlarda maktab va madrasalar uchun maxsus qurilgan binolar ko'p bo'lgan, lekin Ahmad Donish ta'biri bilan aytganda, "madrasa hujralari suv tashuvchilarning eshaklari va baqqollarning bug'doy omborlari uchun somon omboriga aylangan"⁴.

Sodixojai Gulshaniyning "Tarixi Xumoyun" asaridagi ma'lumotlarga ko'ra, Buxoroda toshdan qurilgan 199 ta madrasa mavjud bo'lib, ularda 50 ming talaba ko'p sinflarda tahsil olgan⁵. Abdurauf Fitrat o'z inshosida "Hind sayyohi qissasi"da Buxoroda 200 ga yaqin madrasa borligi aytilib, ulardan 72 tasini nomlari bilan sanab o'tadi⁶.

Sharifjon Maxdum Sadri Ziyo o'zining 204 ta madrasani sanab o'tgan "Muqaddas Buxorodagi madrasalar nomlari ro'yxati" deb nomlangan risola yoki katalogida ham har bir madrasaning nechta hujrasi bo'lganligi, shaharning qaysi joyida va hukmronligi davrida batafsil ma'lumot berilgan. amirlardan qaysi biri qurilgan.

Sadri Ziyoning yozishicha, eng yirik madrasalarda 147 tagacha hujra (hujra) bo'lgan. Ularning eng kichigi 8-9 ta va 1 madrasada 2 ta hujra (hujra) bo'lgan. 20 dan ortiq hujrali madrasalar soni 60 taga yetdi; 20 ta madrasada 50 dan ortiq hujra bor edi . Sadri Ziyo katalogida 223 ta masjid nomi ham keltirilgan⁷.

Madaniyat, siyosat va iqtisodga oid yangiliklar ommaga ko'proq kirib kela boshladi. Biroq mutaassiblar har qanday yangilik va erkin fikrni taqiqlashni talab qilib, bu jarayon tarafdorlarini bid'atchi va kufr, deb e'lon qildilar.

Madrasalarning hujralarini sotib olish va sotishdan katta foyda olgan ayrim mutaassib "ulamolar" – maktab islohotining ashaddiy muxoliflari aldangan xalqni ma'rifatparvarlarga qarshi qo'yishga urindilar.

Mutaassiblar nafaqat foydali va dunyoviy ilmlarni maktab va madrasalarning o'quv dasturlaridan chiqarib tashladilar, balki yuqori martabali reaksionerlar ko'magida ilmga tashna o'quvchilarning mustaqil ravishda boshqa kitoblardan bilim olishlariga, hatto yopiq kutubxonalardan ham har tomonlama to'sqinlik qildilar. O'sha davrning mashhur ma'rifatparvarlaridan biri Said Ahmad Adji "Taqlid ko'zgusi" ("Mirroti Ibrat") asarida o'z davrining ta'lim va tarbiya uslubini quyidagicha ta'riflaydi;

4 Ahmadi Donish. Tanlangan badiiy asarlar - Dushanbe: Irfon, 1976. 350-bet .

5 Abdulloev Sh. Afkori maorifparvari va ozodfikry: (Ma'rifat va erkin fikrlash). Dushanbe, 1994.150-bet .

6 Fitrat Abdurauf. Bayonoti sayyohi hindi "Sadoi Sharq", 1988, 6-son, 20-57-betlar.

7 Ashurov G.A., Dinorshoyev M.D. Ahmad Donishning tarbiyaviy ijtimoiy falsafasi haqida // Fanlar akademiyasi xabarlarlari Toj. SSR. Jamiyatlar, fanlar bo'limi. 1978.-№3.-S. 49 - 59.

“Hamma vaqt morfologiya va sintaksisni o‘rganishga bag‘ishlangan va bir kunda bir donolikni o‘zlashtirib, ular o‘zlarini o‘yinga topshirishadi. Kun davomida faqat bitta fan o‘qitiladi. Va ular haftada uch kun dam olishadi”. Biroq, Ahmad Donish singari hamma ham mustaqil ta’limga ega emas edi. Va shuning uchun ko‘plab maktab o‘quvchilari va talabalar darsdan ta’til olib, o‘g‘rilik, ovchilik va ichkilikbozlik bilan shug‘ullanishdi.

Ahmad Donish madrasa shogirdlarining haqiqiy hayotidan bir epizodni hikoya qiladi, ular ilmiy hayajonda bir-birlarini tinglamay turib, o‘zlarining haq ekanini isbotlardilar. Yozuvchi esa uzoq kuzatishlardan so‘nggina ular arab tili fan tili yoki yo‘qligi haqida bahslashayotganliklarini, bu tilning boshqa tillardan nafisligining ustunligini isbotlaganliklarini aytadi. Ularning ko‘pchiligi ilm tili faqat arab tili ekaniga, bu tilni yaxshi bilgan odamgina olim deyish mumkinligiga qat’iy amin edilar.

Buyuk mutafakkir, arab, turkiy va tojik tillarining chinakam bilimdoni o‘zining mantiqiy tuzilgan dalillari bilan tiniq tilda talabalarga ularning uzoq davom etayotgan bahslarini to‘g‘ri hal etish yo‘lini aniq tushuntirib berdi: “Bizda bo‘lgani kabi fan va ta’limni faqat bir tilga bog‘lab bo‘lmaydi, ularning yutuqlarini barcha tillarda tasvirlash va aks ettirish mumkin.

Donish o‘z vaqtida nafis soddaligi va tushunarligiligi bilan ajralib turadigan o‘zbek va tojik tilini fan tili deb atagan. Uning bu so‘zlari o‘sha vaqtdagi madrasa talabalari va bugungi vatanparvar, milliy g‘ururga to‘lgan, ilm-fanga fidoyi bugungi yoshlarga xayrixoh va

ayni paytda ibratli javob, shuningdek, soxta olimlarga o‘ziga xos javob edi. O‘zbek va tojik tilining buyukligi va qadimiyligini tushunishdan uzoq bo‘lgan o‘sha davr bunday teyran fikrlash Ahmad Donishga xos edi.

Insonparvar pedagog Ahmad Donish xalqqa din odamlarning mahrumlik va zohidlikka bo‘ysunishi uchun emas, balki odamlarning axloqiy va ma’naviy jihatdan kamol topishi, madaniy va moddiy qadriyatlarga ega bo‘lishi uchun mavjud bo‘lishi haqidagi g‘oyani ommaga yetkazishga harakat qilgan. U ilohiyot ilmi qotib qolgan qo‘rg‘on emas, balki zamonga mos ravishda rivojlanib, o‘zgarib borishiga shubha qilmaydi: “... chunki Xudoning Kalomi hamisha tirik va daraxt kabi meva beradi, doim foyda keltiradi”.

Shuningdek, hayotiy zarurat bo‘lsa, shariatga ko‘ra ba’zi amr va nizomlar tafsir va sharhga tortiladi. Donish pedagog-yo‘lboshchi sifatida zudlik bilan yechim topishni talab qiladigan muhim diniy muammolardagi ko‘plab murakkab tugunlarni yechishda mardlik, qat’iyat va ehtiyotkorlik bilan harakat qiladi. U diniy harakatlarda ham, kundalik hayotda ham asossiz va mantiqsiz taqlidlarni umuman qabul qilmaydi.

Xulosa. Xulosa shuki, mutafakkir oliy ma’lumotli shaxsni tarbiyalashning turli muammolarini nafaqat nazariy mulohazalar, balki real hayotdan misollar keltirish, sarguzasht, hikoya va rivoyatlar, she’riy asarlar yaratish orqali ham tahlil qiladi va o‘z nuqtayi nazarini ifodalaydi. Ahmad Donishning pedagogik va islohotchilik merosi Sharq, xususan, O‘rta Osiyo xalqlari madaniyati va maorif tarixida alohida o‘rin tutib, muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. “Bilimli avlod-buyuk kelajakning, tadbirkor xalq-farovon hayotning, do‘stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir”. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutq. 2018-yil. 7-dekabr.
2. Бертелс э. Э. Аҳмади Кале асарларининг қўлёзмалари. Тож материаллари. СССР Фанлар Академия-сининг асослари, 3-жилд, – Москва, Наука. 1936, 10-28- б.
3. Богоутдинов А.М. Тожик фалсафаси тарихи очерклари – Душанбе, 1961. 332-б.
4. Ahmadi Donish. Tanlangan badiiy asarlar. – Dushanbe: Irfon, 1976. 350-b.
5. Fitrat Abdurauf. Bayonoti sayohi hindi “Sadoi Sharq”, 1988, 6-son, 20-57-betlar.
6. Ashurov G.A., Dinorshoyev M.D. Ahmad Donishning tarbiyaviy ijtimoiy falsafasi haqida // Fanlar akademiyasi xabarleri Toj. SSR. Jamiyatlar, fanlar bo‘limi. 1978.-№3.-S. 49 - 59.

Gulchiroy IBROHIMOVA,
 FarDU 1-kurs tayanch doktoranti



SHUKUR SA'DULLA ERTAKLARIGA JAHON ADABIYOTI TA'SIRI

Annotatsiya: ushbu maqolada o'zbek bolalar adabiyotining taniqli namoyandasi Shukur Sa'dullaning adabiy ertaklari tahlil qilinadi. Sh. Sa'dulla ijodida jahon bolalar adabiyoti, ayniqsa, Karlo Konnodining "Pinokkioning sarguzashtlari" asari bilan o'zaro bog'liqlik, syujet va obrazlar o'xshashligi, lekin milliy ruhda qayta ishlangani yoritiladi.

Kalit so'zlar: *Shukur Sa'dulla, adabiy ertak, jahon adabiyoti ta'siri, Pinokkio, Kachalpolvon, tarjima, milliy obraz, bolalar adabiyoti, o'zbek folklori, askiyabozlik.*

Аннотация: в данной статье анализируются литературные сказки известного узбекского детского писателя Шукура Саидуллы. Особое внимание уделено влиянию мировой детской литературы, в частности сказки Карло Коллоди «Приключения Пиноккио».

Ключевые слова: *Шукур Саидулла, литературная сказка, влияние мировой литературы, Пиноккио, Качалполвон, перевод, национальный образ, детская литература, узбекский фольклор, аскиябозлик.*

Annotation: this article explores the literary fairy tales of renowned Uzbek children's writer Shukur Sa'dulla. It highlights the influence of world literature, especially Carlo Collodi's *The Adventures of Pinocchio*, on Sa'dulla's work.

Key words: *Shukur Sa'dulla, literary fairy tale, influence of world literature, Pinocchio, Kachalpolvon, translation, national character, children's literature, Uzbek folklore, traditional puppet theatre.*

Shukur Sa'dulla o'zbek bolalar adabiyoti rivojiga o'zining asarlari bilan ulkan hissa qo'shgan ijodkordir. U bolalar adabiyotida adabiy ertak janrida barakali ijod qilgan bolalar yozuvchisi hisoblanadi. "Adabiy ertak — bu muallif tomonidan yozilgan, aniq bir shaxs nomidan chiqqan, badiiy asar hisoblangan ertak turidir. U xalq og'zaki ijodidan farqli o'laroq, yozma tarzda yaratilgan bo'ladi va odatda, yozuvchining g'oyaviy-ma'naviy qarashlarini ifodalaydi."¹ "Adib 30-50-yillar oralig'ida ellikdan ortiq xalq ertagini bolalarga moslashtirib, qayta ishlaydi va kichkintoylarga tortiq etadi."² Shukur Sa'dullaning "Tulki bilan turna", "Maqtanchoq quyon", "Ayyor tulki", "Ikki sandiq", "Yoriltosh", "Uch tulki", "Qarg'aboy", "Ohanrabo" singari ertaklari kichkintoy kitobxonlar qalbidan joy olgan. Shukur Sa'dulla mazkur ertaklarini yaratishda nafaqat o'zbek folklori namunalariga, xalq ertaklariga, balki jahon bolalar adabiyoti namunalariga, ulardagi obraz, syujet, motivlarga tayangan va ijodiy ta'sirlangan.

Shukur Sa'dulla Ilyos Muslim bilan hamkorlikda bolalar shoiri S.Marshakning "She'r va ertaklar" asarini tarjima qilgan. Bundan tashqari, H.K.Andersen, N.A.Nekrasovning ertaklarini, L.Tolstoy va B.Jitkovning hikoyalarini, bolalar shoirlari M.Kvitko, A.Barto, M.Mirshakar, O.Berdiyev, M.Fayzulina she'rlarini, V.Lebedov-Kumachning yoshlik taronalari, B.Gorbatovning "Bo'ysunmaganlar", V.Osayevaning "Vosyok Trubachev va uning o'rtoqlari" qissalarini,

Korney Chukovskiyning "Doktor Voyjonim" asarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Bolalar adibining bunday mohirona tarjimalari uning ijodiy kamolotida muhim bosqich bo'ldi.

Shukur Sa'dulla "Kachalpolvon yoxud yog'och qo'g'irchoqning sarguzashtlari" ertak-qissasini italyan bolalar yozuvchisi Karlo Konnodining "Pinokkioning sarguzashtlari" qissasini tarjima qilish jarayonida ijodiy ta'sirlanib yozgan. "Adabiy ta'sir" "(ruschadan kalka: литературное влияние) — adabiy jarayonda tabiiy ravishda va qonuniyat maqomida mavjud bo'lgan, badiiy tafakkur rivojida muhim ahamiyatga molik hodisa. Adabiy ta'sir adabiy-badiiy hodisalarning zamon va makondan qat'i nazar, o'zaro aloqada yashashi oqibati o'laroq voqe bo'ladi. Demak, adabiy ta'sir bitta milliy adabiyot yoki adabiyotlararo aloqalar, bir davr adabiyoti yoki turli davrlar adabiyoti doirasida ham kuzatiladi. Shunga ko'ra adabiy ta'sirning ko'lami va darajasi turlicha (umumiy va shaxsiy) bo'lib, ular bir qator omillarga bog'liqdir".³

K. Konnodi va Sh. Sa'dulla asarlarini o'zaro qiyoslaydigan bo'lsak, ikki asar bosh qahramonlari ham yog'ochdan yasalgan qo'g'irchoq bo'lib, ba'zi o'xshashliklarga ega bo'lsa-da, ular bir-biridan anchayin farqli. "Karlo Konnodining "Pinokkioning sarguzashtlari" asari 1883-yilda yozilgan bo'lib, unda Geppetto ismli duradgor tomonidan yasalgan yog'och qo'g'irchoqning boshidan kechirganlari, sho'x va quloqsiz qo'g'irchoqdan

¹ Internetdan olindi.

² Jamilova B. O'zbek bolalar adabiyoti. "Noshir", 2019, 39-b.

³ Quronov D. va boshqalar // Adabiyotshunoslik lug'ati. — Toshkent: Akademnashr, 2010. 16-b.

haqiqiy bolaga aylanish jarayoni hikoya qilinadi.⁴ Asar XIX asr Italiyasining siyosiy-ijtimoiy holatiga ishora qiladi. Mehnatkash, ammo juda kambag'al duradgor Geppetto butun yupun Italiya xalqi timsoli edi. Aldoqchi tulki Bazilio va mushuk o'sha davr Italiyasida avj olgan o'g'rilik, tovlamachilikni ko'rsatib beradi. Asar bosh qahramoni Pinokkio aslida u mamlakatning timsoli edi. U goh uyoqqa, goh buyoqqa yurar va doim xato qilardi. Asarda yana italiyaliklarga xos yumor, mehnatsevarlik kuylanadi.

Ushbu asar ta'sirida yozilgan Shukur Sa'dullaning "Kachalpolvon" ertak-qissasi ham ba'zi jihatlariga ko'ra Pinokkioni eslatadi. Unda ham bosh qahramon yog'och qo'g'irchoq bo'lib, butun ssenariyuning atrofida birlashadi. Ammo Pinokkiodan farqli o'laroq, Shukur Sa'dullaning Kachalpolvoni ayni vaqtda xarob holatda yashayotgan qo'g'irchoqlar mamlakati mehnatkashlarining orzu-umidlarini o'zida mujassam etadi. U asarda misli ko'rilmagan pahlavon, oqil yigit sifatida tasvirlanadi. Pinokkio esa haqiqiy oddiy bola. U xato qiladi. Aldanadi. Yana xato qiladi. Oxir-oqibat xatolaridan xulosa chiqarib, haqiqiy insonga aylanadi. Shu o'rinda Fairyning unga aytgan gaplari butun dunyo bolalariga aytilgandek:

- Kechgacha uyga qayt. Pinokkio.
- Men va'da beraman. Bir soatda qaytaman.
- Ehtiyot bo'! Bolalar va'da beradilar. Ammo osonlikcha unutadilar.

— Men boshqa bolalarga o'xshamayman.⁵

Pinokkio ham bola edi. Xuddi boshqa bolalar kabi va u yana xato qiladi. K. Konnodidan farqli ravishda, Shukur Sa'dulla qahramoni ideal tasvirlanadi (besh kunligida yurib ketishi, kun sayin o'sishi, aqlbovar qilmas kuch, zakovati).

Yozuvchi oddiy xalqning nochor hayotini ko'rsatish, ularga dalda bo'lish bilan birga, ularni talayotgan boylarning, hokimlarning, din peshvolarining chirkin yuzlarini ochadi. Bu esa asarning XX asr sovet mafkurasi ta'siri ekanini sezish mumkin. Shunday bo'lsa-da, asar bolalarga milliy an'analar, urf-odatlarini singdirishga uringani bilan qadrlidir. "Chaqaloqni yomon ko'zdan asrab-avaylasin deb o'rab-chirmash", "besh kunligida butun xalqni chaqirib osh qilish, qo'y so'yish" kabi udumlar, jarchilik, askiyabozlik kabi kasblar faqat o'zbekka xosdir. Ijodkorning ushbu asari boshidan oxirigacha ushbu ruhni sezish qiyin emas. "Kachalpolvon"dagi har bir detal milliylikka ishora qiladi. Asarda salbiy qahramonlar odobsiz, xunuk va ochko'z

inson sifatida ifodalanadi. Xususan, boylarning ziyofati tasvirlanar ekan, "yog'li qo'llar etik qo'njariga artildi" yoki Iso avliyoning kiyimi "ityoqa" deb aytiladiki, bu ularning fe'li va tashqi ko'rinishi naqadar mutanosib ekanidan dalolat beradi. Asarda juda ko'p milliy o'yinlar, qo'shiqlar aytiladi: "Chittigul", "Chuchvara qaynaydi, Otang menga bermaydi" kabi. Shukur Sa'dulla ushbu asarni xalq orasida mashhur bo'lgan Polvon Kachal obrazi ta'sirida ham yaratgan. **"Polvon kachal**, Kachal polvon — o'zbek an'anaviy qo'g'irchoq teatrining qahramonlaridan biri. U, asosan, qo'g'irchoq teatrining qo'g'irchoqlar qo'lga kiyib o'ynatiladigan "Chodir jamol" turi tomoshalarida qatnashgan. Polvon kachal tomoshalari 14-asrdan boshlab xalq orasida mashhur bo'lib kelgan. Polvon kachalning bosh qismi yog'ochdan yasaliib, egniga ko'ylak, chopon, boshiga do'ppi (qalpoq) kiydirilgan. Qirra burun, baroqqosh, oddiy xalq vakili sifatida namoyon bo'lgan. Qo'g'irchoqboz Polvon kachal qo'g'irchoq'ini o'ng qo'li barmoqlariga qo'ndirib harakatga keltirgan. Bizgacha turli variantlarda "Polvon kachal sarguzashtlari" komediyasi yetib kelgan. Komediya ko'pincha uch ko'rinishli bo'lgan: birida Polvon kachalning Bichaxon ismli qizni sevib qolishi, uchrashuvi va uylanishi, ikkinchisida o'z iti tomonidan talanishi, uchinchisida Polvon kachal bilan Sudxo'r o'rtasidagi to'qnashuv aks ettirilgan. Polvon kachal ham kulgili holatlarga tushib qoluvchi, fe'l-atvori ham ziddiyatli qahramon. U butun ziddiyati, ijobiy va salbiy belgilari bilan hayotiy, xalqchildir. U hamisha xushchaqchaq hodisa hayotida uch-ragan to'siqlarni yengib o'tgan, yomon amaldor va sudxo'rlarni fosh etgan, adolat va rostgo'ylikni himoya qilgan".⁶ Asar o'zbek xalqining qadimiy san'ati- askiyabozlik, dor o'yinlarini qadr-qimmatini ko'rsatib beradi. Yosh avlodga xalq og'zaki durdonalarimiz yetib kelishiga xizmat qiladi.

Ikki asarda ham hayvonlar insonlarga do'st, ko'makchi sifatida keladi.

"Pinokkio" asaridagi hayvonlar	"Kachalpolvon" asaridagi hayvonlar
Tulki	Chumoli
Kit	Kaklik
Salyangoz	Kapalak
Baliq	Ninachi

Ko'rinib turibdiki, ikki asardagi o'zaro farqlar nafaqat voqealar rivoji, obrazlarda, xususan, hayvonlarda ham yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bu shubhasiz, ikki xalqning o'z iqlimi, sharoiti, turmush-tarzi bilan bog'liqdir.

⁶ https://uz.wikipedia.org/wiki/Polvon_kachal

⁴ <https://en.wikipedia.org/wiki/Pinocchio>

⁵ Adventures of Pinocchio. C.Collodi.Ginn Company. 1904. P.152

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jamilova B. O'zbek bolalar adabiyoti.
2. Qur'onov D. va boshqalar // Adabiyotshunoslik lug'ati. — Toshkent: Akademnashr, 2010. 16-b.
3. <https://en.wikipedia.org/wiki/Pinocchio>
4. Adventures of Pinocchio. C.Collodi. Ginn Company. 1904. P.152

Matluba RAYIMJONOVA

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
rayimjonova89@mail.ru

RAUF PARFI SHE'RIYATINING CHASTOTALI LUG'ATINI TUZISH TAMOYILLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada O'zbekiston xalq shoiri Rauf Parfi she'riyatining leksik xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan raqamli chastotali lug'at loyihasi haqida so'z yuritiladi. Lug'at asosida shoirning muayyan leksemalarni qanday chastotada va poetik kontekstda qo'llagani tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari Rauf Parfi uslubini lingvistik va leksikografik nuqtayi nazardan chuqurroq anglash, shuningdek, boshqa ijodkorlar bilan qiyosiy tadqiqotlar olib borishda asos vazifasini o'taydi.

Kalit so'zlar: *chastotali lug'at, konkordans, poetik leksika, leksikografiya, okkazional birliklar.*

Annotation: this article discusses a digital frequency dictionary project aimed at studying the lexical features of the poetry of Rauf Parfi, a People's Poet of Uzbekistan. Based on the dictionary, the analysis focuses on the frequency and poetic contexts in which the poet uses specific lexemes. The research findings provide a foundation for a deeper linguistic and lexicographic understanding of Rauf Parfi's stylistic approach and serve as a basis for conducting comparative studies with other literary figures.

Key words: *frequency dictionary, concordance, poetic lexicon, lexicography, occasional units.*

Аннотация: в данной статье рассматривается проект цифрового частотного словаря, направленный на изучение лексических особенностей поэзии народного поэта Узбекистана Рауфа Парфи. На основе словаря проводится анализ того, с какой частотой и в каком поэтическом контексте поэт использует определённые лексемы. Результаты исследования служат основой для более глубокого понимания стиля Рауфа Парфи с лингвистической и лексикографической точек зрения, а также представляют собой базу для проведения сравнительных исследований с другими авторами.

Ключевые слова: *частотный словарь, конкорданс, поэтическая лексика, лексикография, окказиональные единицы.*

Kirish. Chastotali lug'at so'zlarning (so'z shakllari, so'z birikmalarining) nutqda qo'llanish miqdori haqida ma'lumot beruvchi manba. Lug'at tilda u yoki bu grammatik konstruksiya qaysi chastota bilan qo'llanganligini hisoblash imkonini ham beradi¹.

Chastotali lug'atning vazifasi – so'zlarning deyarli bir qator ro'yxatining qiyosiy chastotasini ko'rsatishdan iborat bo'lib, lug'atning eng muhim qismlari quyidagilardan iborat:

1) chastota miqdori kamaygan holda joylashgan so'zlarning umumiy ro'yxati va shu so'zlarning takrorlanish sonini ko'rsatadi;

2) ro'yxatga kiritilgan nutqning qismlarida (masalan, har qanday nutqning barcha qismlari uchun bo'lmagan) individual shakllar chastotasi (masalan, biror so'z shakli biror yilda 610 marta);

3) chastotani alifbo tartibida ko'rsatadigan so'zlarning umumiy ro'yxatini o'z ichiga oladi.

Chastotali lug'atlar tilshunoslikning bir necha sohalarini rivojlantirishda juda ahamiyatlidir. Lug'at tuzish ishlarida texnologik yondashuvlarning keng

qo'llanilishi leksikografiya sohasini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Rus tilshunosi ta'kidlashicha, *"leksikografik jarayonlarning kompyuterlashtirilishi lug'atlarni tayyorlash va nashr qilishni tezlashtirdi, yengillashtirdi hamda arzonlashtirdi, lug'at tarkibini va asbob-uskunalarini boyitdi hamda yangiladi"*². Shuningdek, ular tilning faol va nafaol qatlamlarini ajratishda katta ahamiyatga ega. Kompyuter lingvistikasi va sun'iy intellekt sohasida chastotali lug'atlar tilni modellashtirish, mashina tarjimasini, avtomatik matn tahlili hamda nutqni tanish tizimlarida tayanch ma'lumotlar bazasini shakllantirishga xizmat qiladi. Til o'qitish metodikasi nuqtayi nazaridan esa, chet tilini o'rganuvchilar uchun eng zarur so'zlarni aniqlash, o'quv qo'llanmalarini yaratishda muhim manba sifatida qo'llaniladi. Bundan tashqari, chastotali lug'atlar stilistika va adabiyotshunoslikka oid tadqiqotlarda muallif uslubini ochib berish vositasi ham hisoblanadi. Muayyan yozuvchi yoki shoirning

¹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Chastotali_lug'at

² Воронцова И.А. Современные практики англоязычной онлайн-лексикографии // Верхневолжский филологический вестник. 2022. № 1 (28). С.187

soʻz qoʻllash chastotasini aniqlash orqali uning leksik-semantik xususiyatlari, badiiy va individual uslubini tadqiq qiladi. Muallif chastotali lugʻatlarini tuzish yozuvchi tili va uslubini tahlil qilishning anʼanaviy va ayni paytda istiqbolli usuli hisoblanadi³. Leksikaning statistik tuzilishi badiiy idiolektning oʻziga xos xususiyatini belgilovchi koʻrsatkichdir. Soʻz qoʻllashning miqdoriy koʻrsatkichlari poetikaning oʻziga xosligi haqida aniqlik kiritadi. T.A. Chernysheva fikriga koʻra, “shaxs tomonidan til vositalarining maqsadli tanlanishi va ularning qoʻllanish chastotasi muayyan til vositalariga murojaat qilishning qonuniyatlarini aniqlash imkonini beradi va shu tariqa idiosstil tuzilishini namoyon qiladi”⁴. Demak, statistik metodlar badiiy matnni tadqiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi. Jahon tilshunosligida chastotali lugʻatlar tuzish XX asr boshlaridan boshlab rivojlana boshlandi. 1920–1930-yillarda ingliz, nemis va rus tillarida ilk badiiy va publitsistik matnlar asosida chastotali lugʻatlar tuzildi. Keyinchalik bu anʼana mustahkamlanib, kompyuter lingvistikasi taraqqiyoti bilan yanada takomillashdi.

Bugungi kunda internet tarmogʻida yozuvchi va shoirlarning leksikasini statistik tahlil natijalarini aks ettiruvchi koʻplab leksikografik loyihalarni uchratish mumkin. Ingliz tilidagi leksikografiyadan misol sifatida Shekspir asarlari uchun yaratilgan chastotali lugʻat va konkordansni (*Concordance of Shakespeare's complete works*)⁵ keltirish mumkin. Bu holatda shoir ijodiga bagʻishlangan portal haqida, chunki lugʻat qismi bilan birga Shekspirning asarlari ham joylashtirilgan hamda mustaqil ishlash uchun kalit soʻzlarni kengaytirilgan qidiruv tizimi (Advanced search) mavjud. Rus leksikografiyasi doirasida yaratilgan loyihalardan biri shoir F.I.Tyutchev tilining chastotali lugʻat-konkordansi boʻlib⁶, u maxsus ishchi guruh saytidagi internet-portalga joylashtirilgan. Mazkur sayt boy va rang-barang kontentga ega boʻlib, bu uning ilmiy qiymati yuqoriligini koʻrsatadi. Shuningdek, internet tarmogʻida baʼzi yozuvchilar tilining bosma lugʻatlari elektron versiyasi ham oʻrin olgan. Masalan, XX asr boshida chop etilgan mashhur Gomer lugʻati⁷ bugungi kunda internetda ham mavjud. Rus tilida

ijod qilgan yozuvchi va shoirlarning lugʻatlaridan esa M.Lermontov tilining chastotali lugʻati⁸ Fundamental elektron kutubxona saytida taqdim etilgan. Pushkin asarlarining konkordansi barcha sheʼriy satrlarning toʻliq matnini oʻz ichiga oladi. Pushkin tilidagi har bir soʻzning maʼnosining barcha eng kichik soʻz shakllari bu holatda har qanday lugʻatdek toʻliq namoyon boʻladi. Bunday uygʻunlik Pushkin ijodini oʻrganayotgan har bir tadqiqotchi uchun zarur boʻlib, Amerikaning Pushkin ijodi bilan shugʻullanganlar tomonidan yaratilgan⁹. Bundan tashqari rus ijodkorlaridan F.Dostoyevskiy, Griboyedov, Sergey Yesenin, S.Aksakov, qozoq ijodkorlaridan M.Avezovning “Abay yoʻli” romani (4 kitob) tilining chastotali lugʻati yaratilganligi haqida ilmiy maqolalar, konsepsiyalar mavjud boʻlsa-da, biroq internet tarmoqlaridagi saytlarda ochiq resursli lugʻatlari uchramaydi. Bu tadqiqotchilar uchun biroz noqulayliklar tugʻdiradi.

Oʻzbek tilshunosligida chastotali lugʻatlar yaratish boʻyicha bir qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, S. Rizayev tomonidan tuzilgan “Oʻzbek sovet bolalar adabiyoti tilining chastotali lugʻati” 1964–1974-yillarda chop etilgan badiiy asarlar asosida yaratilgan boʻlib, 100 ming soʻzli korpusga tayangan va 26 752 soʻz shaklini oʻz ichiga olgan. 1981-yilda R. Qoʻngʻurov hamda S. Karimovlar “Zulfiya poeziyasining lugʻati. Konkordans” asari nashr etildi. 1986-yilda S.Rizayev va N.Boʻronovlarning “A.Qahhor “Sinchalak” povesti tilining chastotali lugʻati” nomli tadqiqoti chop etildi. Keyinchalik, D.Oʻrinboyeva tomonidan “Oʻzbek xalq dostonlari tilining chastotali lugʻati”(2006) yaratilgan boʻlib, unda “Alpomish”, “Ravshan”, “Rustamxon” dostonlari asosida 28 499 soʻz shakli statistik tahlil qilingan. B.Yoʻldoshev, D.Oʻrinboyeva hammuallifligida oʻzbek xalq dostonlari (“Alpomish”, “Ravshan”, “Rustamxon”) matni asosida yaratilgan chastotali izohli frazeologik lugʻat mazkur asarlarda qoʻllangan mingga yaqin frazeologizmlarni, ularning variantlari va maʼnodosh shakllarini oʻz ichiga oladi. Lugʻatda frazeologik birliklarning xalq dostonlari tilida uchrashi chastotasi hamda izohlari keltirilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi frazeologizmlarning statistik xususiyatlarini hamda grammatik tabiatini tavsiflashdan iborat. Ushbu lugʻat oʻzbek xalq ogʻzaki ijodi tilini, xususan frazeologik qatlamini oʻrganishga

7 Homeric Vocabularies: Greek and English Word-Lists for the Study of Homer. URL: <https://archive.org/details/homericvocabular00owenrich/page/32/mode/2up>

8 Частотный словарь языка М.Ю. Лермонтова / под ред. В.В. Бородин, А.Я. Шайкевича // Лермонтовская энциклопедия. М.: Сов. Энцикл., 1981. С. 717–774. URL: <http://feb-web.ru/feb/lermenc/lre-lfd/lre/lre-7172.html>

9 Shaw, J. T. Pushkin: A Concordance to the Poetry. Madison: University of Wisconsin Press. Retrieved from https://books.google.com/books/about/Pushkin_a_concordance_to_the_poetry.html

3 Большакова Г.Н. Об использовании идей А.К. Жолковского в современной идиостилистике // Лингвистика и поэтика. М., 2005. № 2. С. 97–103.

4 Чернышева Т.А. Идиостиль: лингвистические контуры изучения // Вестник Череповецкого государственного университета. 2010. № 1. С. 30–34.

5 Concordance of Shakespeare's complete works. Available at: <https://www.opensourceshakespeare.org/concordance/>


6 Частотный словарь-конкорданс словоформ языка Ф.И. Тютчева // Тютчевiana // URL: <https://ruthenia.ru/tiutcheviana/stihi/freq/freq.html>

qiziquvchi keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan bo'lib, internet tarmog'ida elektron nashridan foydalanish mumkin.

Metod va tadqiqot materiali. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi, bir tomondan, poetik idiolektning leksikografik tavsiflashning ilmiy istiqbolli bilan, boshqa tomondan esa, shoir Rauf Parfi ijodiga o'quvchilar va tadqiqotchilarning doimiy yuqori qiziqishi bilan belgilanadi. Rauf Parfi ijodini tadqiq etish jarayoni shoirning faoliyat davridayoq boshlanganini alohida qayd etish lozim. Bugungi kunga qadar uning ijodiy merosining turli jihatlarini yuzasidan ilmiy izlanishlar davom etmoqda. Mazkur mavzuga oid bir qator tadqiqotlar, ilmiy maqolalar hamda kitoblar yaratilgan. Shoir ijodi xususida N.Rahimjonov, O.Shodmonov, R.Rahmat, A.Ulug'ov, M.Xolova, O.Oltinbek kabi adabiyotshunos va tanqidchilar o'z ilmiy asarlari hamda maqolalarida fikr bildirgan. Rauf Parfi ijodi, she'rlari adabiyotshunoslik yo'nalishida, shu bilan birga tilshunoslik yo'nalishida ham bir qator izlanishlar obyekti bo'lib kelmoqda. Shoir ijodi tilshunoslikning badiiy matn tahlili, lingvopoetika

nuqtayi nazaridan turli aspektlarda o'rganilmoqda. Jumladan, M.Dedaxonovning "Modern she'riyatda ma'no ko'chirishining lingvokognitiv aspekti (Rauf Parfi ijodi misolida)" nomzodlik dissertatsiyasi, S.Muminov va X.Gopirova hammuallifligidagi "Rauf Parfi she'riyatining lingvopoetikasi", R.Saidova hamda G'.Murodovlar hammuallifligidagi "Badiiy matnda belgi munosabati" monografiyasi shular jumlasidandir. Shu omillarni hisobga olgan holda, Rauf Parfi she'rlari lug'ati yaratilishi tabiiy va zaruriy hodisa ekani haqida asosli xulosaga kelish mumkin. Chastotali lug'at tuzishning ahamiyati ham olingan materiallarning vakillik darajasini tasdiqlaydi hamda shoir tili va uslubini tahlil qilish, shuningdek, qiyosiy tadqiqotlar o'tkazishda keng imkoniyatlar yaratadi.

Hozirgi kunda "**Rauf Parfi she'riyatining raqamli chastotali lug'ati**" ustida ish olib borilmoqda. Lug'at materiali sifatida shoir tomonidan 1954—2004-yillari yozilgan adabiyotshunos Olim Oltinbek tomonidan jamlangan ikki jildlik "Tanlangan asarlar" I jildidagi 574 ta she'r tanlab olindi. Tadqiqotning "vakillik korpusi" 38355 ta so'z shaklidan iborat.



Rauf Parfi leksik merosini o'rganishda miqdoriy va qiyosiy-taqqoslash turlarini birlashtirgan kompleksli metodikadan foydalanildi. Lug'atni tuzish jarayonida standartlashtirilgan ma'lumotlarni qayta ishlash usullari qo'llanmoqda. Korpusning tokenizatsiyasi (ya'ni orfografik so'zlarga ajratilishi) va so'z shakllarini sanash Python dasturlash tili yordamida (mualliflik kodi orqali) amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, lug'at materiallarining grammatik jihatlarini tahlil qilish maqsadida so'z turkumlarini aniqlash qo'lda amalga oshiriladi, chunki elektron tizimlar bunday hollarda ba'zan xatoga yo'l qo'yishi mumkin (masalan, iboralar yoki so'z turkumlari omonimligini hisobga olmaydi). Leksikografik ishning asosiy bo'limlari quyidagilardan iborat:

1. So'z shakllarining chastotali lug'ati
2. Alifbo-chastotali lug'at

3. Okkozional so'zlar lug'ati
4. Leksikaning statistik tuzilishi.

Ta'kidlash joizki, lug'at loyihasining saytida multimedia ma'lumotlari va qidiruv oynasi ham mavjud. Lug'atning har bir qismi sharhlarga muhtoj bo'lib, ularning ayrimlari mazkur ilmiy maqola doirasida yoritilgan.

Natijalar va tahlil. Tadqiqotga kiritilgan 574 ta she'r 38355 so'z shaklidan iborat bo'lib, chastotasi yuqori bo'lgan so'z shakllari quyidagilar: "bir" 493 marta, "bu" 409 marta, "men" 391 marta, "sen" 372 marta, "va" 209 marta, "ham" 201 marta. Tadqiqotda hamma so'z turkumi doirasidagi so'zlar qamrab olingan. Eng chastotasi yuqori bo'lgan so'z "bir" leksemasidir. Alisher Navoiyning "Xamsa" dostoni uchun tayyorlangan konkordansda ham "Hayrat-ul

abror” va “Farxod va Shirin” dostonlarida bir soni ko‘p qo‘llanganligi aniqlangan¹⁰. Bundan tashqari shoir so‘zlarni vazn va qofiya talabi bilan turli shakllarda ishlatadi. Masalan, “qoqmoq” leksemasi quyidagi shakllarda uchraydi: qoqar — 3 marta, qoqarak — 1 marta, qoqay — 1 marta, qoqib — 2 marta, qoqilsa — 1 marta, qoqmay — 2 marta, qoqmaysan — 1 marta, qoqsa-da — 1 marta, qoqtirmaslar — 1 marta. Shoirning 1956-yil “Bahorda” deb nomlangan she’rida “qoqmoq” fe’lining qoqarak tarzida uchrashi shoirning qofiya talabi bilan o‘zgartirgan varianti hisoblanadi. “Keling, kapalak, Qanot qoqarak. Sizga bog‘, gulzor, Ko‘m-ko‘k bedazor”. Bunday okkozional yasalmalar, shoir uslubiga xos so‘z shakllari ko‘p bo‘lib, tadqiqotimiz uchun tuzilgan lug‘at bu leksemalarni o‘rganish va tadqiq qilishimiz uchun yordam beradi.

Bizningcha, shoir lirik she’riyatida muntazam va barqaror ishlatiladigan leksemalar nafaqat statistik jihatdan, balki kontekstual izoh bilan ham berilishi lozim. Matn esa so‘zning ma’nosini aniqlashtirish, uning semantik va sintaktik aloqalarini ko‘rsatish, ba’zi hollarda esa polisemiya (ko‘p ma’nolilik)ni ham yoritish imkonini beradi. Yuqorida tahlilga tortilgan “qoqmoq” leksemasi ham bir necha ma’noda ishlatiladi. O‘z ma’nosida: “Tashqarida shovullar shamol, Derazamni qoqar betoqat”-bunda “urib

ovoz chiqarmoq, taqillatmoq” ma’nosida qo‘llangan. “Qosh qoqib o‘ynarmish hatto cho‘chqalar, Tuyalar o‘ynarmish cho‘zgancha bo‘yin” misrasida esa qoqmoq leksemasining “biror a’zoni silkitmoq, qimirlatmoq” ma’nosi oydinlashadi. Ko‘chma ma’noda esa: “Nechun, sen itlarga yoqmaysan, Ehtimol, tuzukroq boqmaysan, Quloq qoqmaysan...” –“quloq solmaslik” ma’nosi, “Bayon Helenasi turar eshikda. Mijja qoqtirmaslar unga tun bo‘yi..” “uxlamaslik”, “ko‘z yummaslik” ma’nosida qo‘llanilgan. Shunday qilib, konkordans nafaqat so‘zning chastotasini, balki matnini ham beradi. Bu esa miqdoriy tahlildan sifat tahliliga o‘tish imkonini beradi, ya’ni poetik matnlarning badiiy ma’nolarini aniqlashga yordam beradi.

Xulosa. Rauf Parfi she’rlarining raqamli chastotali lug‘ati shoirning lug‘aviy merosini tahlil qilish uchun turli xil ma’lumotlarni taqdim etadi, bu bizga shoir ishlatgan lingvistik vositalar va badiiy olamning xususiyatlari o‘rtasidagi munosabatni aniqlash va obyektivlashtirish imkonini beradi, shuningdek, shoir tilining chastotasi va lug‘ati ma’lumotlarining yanada tizimli bo‘lishini ta’minlaydi. Ta’kidlash joizki, yaratilayotgan leksikografik loyiha shoir Rauf Parfining she’riy tizimini integrativ lug‘at tavsifining ilk tajribasi bo‘lib, bugungi kunda “Rauf Parfi she’riyatining raqamli chastotali lug‘ati” shakllangan tamoyilga ega va loyihani ishga tushirish ishlari amalga oshirilmoqda.

¹⁰ Umarov E. Alisher Navoiyning “Xamsa dostonlari konkordansi”. –T.: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2016.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Воронцова И.А. Современные практики англоязычной онлайн-лексикографии // Верхневолжский филологический вестник. 2022. № 1 (28). С.187
2. Большакова Г.Н. Об использовании идей А.К. Жолковского в современной идиостилистике // Лингвистика и поэтика. М. 2005. № 2. С. 97–103.
3. Чернышева Т.А. Идиостиль: лингвистические контуры изучения // Вестник Череповецкого государственного университета. 2010. № 1. С. 30–34.
4. Concordance of Shakespeare’s complete works. Available at: <https://www.opensourceshakespeare.org/concordance/>
5. Частотный словарь-конкорданс словоформ языка Ф.И. Тютчева // Тютчевiana // URL: <https://ruthenia.ru/tiutcheviana/stihi/freq/freq.html>
6. Homeric Vocabularies: Greek and English Word-Lists for the Study of Homer. URL: <https://archive.org/details/homericvocabulary00owenrich/page/32/mode/2up>
7. Частотный словарь языка М.Ю. Лермонтова / под ред. В.В. Бородина, А.Я. Шайкевича // Лермонтовская энциклопедия. М.: Сов. Энцикл., 1981. С. 717–774. URL: <http://feb-web.ru/feb/lermenc/lre-lfd/lre/lre-7172.html>
8. Shaw J.T. Pushkin: A Concordance to the Poetry. Madison: University of Wisconsin Press. Retrieved from https://books.google.com/books/about/Pushkin_a_concordance_to_the_poetry.html
9. Брановский С.П. Лексикографическое описание поэтической системы Бориса Рыжого: квантитативный аспект. Канд. филол. наук (PhD) дисс. – Калининград, 2024
10. Umarov E. Alisher Navoiyning “Xamsa” dostonlari konkordansi. -Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2016.
11. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. Tahrir hay’ati: M. Jo‘rayev va boshq. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2006

Dinoraxon TO'G'ONOVA,
TOSHDOTAU 1-bosqich tayanch doktoranti

XXI ASR O'QUV KO'NIKMALARINI ADABIYOT O'QITISH JARAYONIDA RIVOJLANTIRISH: SHEKSPIRNING "HAMLET" TRAGEDIYASI MISOLIDA

Annotatsiya: ushbu maqolada XXI asr ta'limida zarur bolgan 4K modeli — kritik fikrlash, kreativlik, kommunikatsiya va kollaboratsiya — nazariy asoslari va ularni adabiyot fanida rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Ingliz adabiyotining buyuk namoyandasi Uilyam Shekspirning "Hamlet" tragediyasi misolida 21-asr o'quv ko'nikmalarini shakllantirish yo'llari ochib berilgan. Asardan olingan parchalar asosida o'quvchilarda tanqidiy tafakkur, ijodiy yondashuv, bahs-munozara olib borish, jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha amaliy metodlar taklif etilgan.

Kalit so'zlar: 21-asr ko'nikmalari, 4K modeli, Shekspir, Hamlet, adabiyot ta'limi, kritik fikrlash, kreativlik, kommunikatsiya, kollaboratsiya, innovatsion metodlar.

Аннотация: в данной статье рассмотрены теоретические основы модели 4К — критическое мышление, креативность, коммуникация и коллаборация — как ключевых навыков XXI века, а также их развитие на уроках литературы. На примере трагедии Уильяма Шекспира «Гамлет» показаны пути формирования данных компетенций у учащихся. На основе отрывков из произведения предложены практические методы развития критического мышления, творческого подхода, навыков дискуссии и командной работы.

Ключевые слова: навыки XXI века, модель 4К, Шекспир, Гамлет, критическое мышление, креативность, коммуникация, коллаборация, инновационные методы.

Annotation: this article examines the theoretical foundations of the 4C model — critical thinking, creativity, communication, and collaboration — as essential 21st-century skills, and their development in literature teaching. Using William Shakespeare's tragedy Hamlet as an example, the article explores ways of fostering these competencies in students. Practical methods are proposed to develop critical thinking, creative approaches, discussion, and teamwork skills through selected excerpts from the play.

Key words: 21st-century skills, 4C model, Shakespeare, Hamlet, critical thinking, creativity, communication, collaboration, innovative methods.

Kirish. XXI asr insoniyat taraqqiyotining, ilm-fanning, zamonaviy texnologiyalarning yangi bosqichi bo'lib, unda ta'lim tizimidan talab qilinadigan asosiy vazifa – o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy yondashuvga undash, o'z fikr-mulohazalarini erkin ifodalashga va jamoada, guruh uyushmalarida ishlashga tayyorlashdir. Shu sababli ta'limda 4K modeli (kritik fikrlash, kreativlik, kommunikatsiya va kollaboratsiya) alohida ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. O'quvchilarda yuqoridagi 4 muhim ko'nikmalarni rivojlantirishda adabiyot predmeti muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ta'lim jarayonida 4K modelini samarali qo'llash orqali o'quvchilar:

- Tanqidiy va tahliliy fikrlashni o'rganadilar
 - Takrorlanmas va ijodiy g'oyalar yaratish qobiliyatiga ega bo'ladilar;
 - Shaxsiy fikrini erkin, lo'nda va asosli bayon eta oladi;
 - Jamoada ishlash, boshqalar fikrini tinglash, fikrga qarshi fikr bildirga olish va murosaga kelish madaniyatini egallaydilar.
- O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida ham so'nggi yillarda bu yondashuvga alohida e'tibor qaratmoqda. "Yangi O'zbekiston – taraqqiyot strategiyasi"da [1:416] o'quvchilarda zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish, globallashtirish jarayoniga

mustaqil tayyorlash, jamiyatda raqobatbardosh shaxs sifatida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilangan. Qonun loyihalarini, Prezident farmonlarini inobatga olgan holda, maktab ta'limida, xususan, adabiyot fanida XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish masalasi nihoyatda muhim. Adabiyot mutolaa qilish orqali inson tarbiyalanadi. Asarlar qalb va tafakkurini boyitadigan fan sifatida o'ziga xos o'rin tutadi. Badiiy asarlar orqali o'quvchilar qahramonlar haqida ma'lumotga ega bo'libgina qolmay, balki hayotiy saboqlar, axloqiy xulosalar oladi. Maktab yoshidagi kitobxonlarga ingliz adabiyotini o'qitish orqali ularda madaniyatlararo muloqot ko'nikmasini rivojlantirish, ularni global dunyoqarashga ega bo'lishga undaydi.

Buyuk ingliz dramaturgi, dunyo tan olgan yozuvchi Uilyam Shekspirning asarlari bu borada yuqori o'rinni egallaydi. Uning "Hamlet" tragediyasi – inson qalbi, vijdon azobi, adolat va axloq o'rtasidagi to'qnashuv haqida falsafiy asar bo'lib, uni o'quvchilarga o'qitish mobaynida 4K kompetensiyalarini shakllantirish mumkin. Asardagi qahramonlarning qarama- qarshiliklari, murakkab qarorlari va ijtimoiy muammolarni hal etish jarayonlari o'quvchilarga chuqur tahlil qilish, ijodiy yondashish, bahs- munozara yuritish va jamoaviy ishlash imkonini beradi.

Asosiy qism. Ta'lim sohasi tadqiqotchilari Trilling va Fadel [2: 77] XXI asr o'quv ko'nikmalarini quyidagi to'rt asosiy blokda jamlagan:

1. Kritik fikrlash va muammolarni hal qilish – voqealarga turli nuqtayi nazar bilan qarash va ularni asosli tahlil qilish, mantiqiy xulosa chiqarish, dalillar bilan ishlash.

2. Kreativlik – yangi g'oyalar paydo qilish, innovatsion, zamonaviy usullar ko'rsatish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish.

3. Kommunikatsiya - o'z fikriga ega bo'lish, kerakli vaqtda erkin va ravon nutq so'zlay olish, fikrni mantiqiy va asosli ifoda etish.

4. Kollaboratsiya – jamoada ishlash, hamkorlikda murosaviy qaror qabul qilish, turli fikrlarga hurmat bilan yondashish.

Adabiyot ta'limining asosiy vazifasi – o'quvchilarda ma'naviy barkamollikni rivojlantirish, asarlar o'qish jarayonida estetik

didni, mustaqil fikrlashni va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishdir.

Shekspirning "Hamlet" tragediyasi kitobxonlarni diqqat bilan o'qishga, chuqur tahlil qilishga undaydigan asardir. Asardagi asosiy konflikt – Hamletning otasini o'limi bilan boshlanadi va bu qirollikdagi adolatsizlik bilan davom etadi. Asarni kritik tahlil jarayonida o'quvchilar quyidagi savollar ustida bahs olib borishlari mumkin:

- Hamletning mashhur monologi:

"To be, or not to be: that is the question"
 ("Bo'lish yoki bo'lmaslik- ana masala") [3:124]

Bu parcha o'quvchilarni insonning hayot va o'lim haqidagi falsafiy qarashlarini tahlil qilishga undaydi. Kritik fikrlashni rivojlantirish maqsadida shu o'rinda o'quvchilarni savolga tortish mumkin. Savol: Hamletning hayotni davom ettirish yoki azoblardan qochish qarori – bu shaxsiy tanlovmi yoki ijtimoiy mas'uliyatmi? Hamletning otasining o'chini olish qarori axloqiy jihatdan to'g'rimi? Asar voqealari bugungi zamon bilan aloqadorligi bormi? Kreativlikni oshirish maqsadida buni yangicha ruhda ijodiy topshiriq sifatida taqdim qilish ham mumkin. Masalan, "Texnologiyadan foydalanish yoki undan voz kechish" kabi mavzularda esse yozish ham mumkin.

"What a piece of work is man! How noble in reason, how infinity in faculty; in form and moving how express and admirable..." ("Inson naqadar ulug' mavjudot! Aqlda naqadar oliyjanob, imkoniyatlarida naqadar cheksiz...). O'quvchilar bu parcha orqali insonning yuksak aql- idroki va Alloh tomonidan berilgan cheksiz imkoniyatlarini tahlil qilish bilan bir qatorda, Hamletning ichki iztiroblarini ham o'rganadi.

Kreativlikni asarlar orqali o'rganishda ularga ijodiy topshiriqlar berish mumkin:

Hamletning onasiga qilgan murojaati: "Frailty, the name is woman!" ("Zaiflik – sening isming ayol!").

Dars davomida ushbu jumlaning bugungi kundagi gender tenglik bilan bog'lab tahlil qilsa bo'ladi. Misol uchun, hozirgi davrda ayollar jamiyatdagi faoliyati va kuchini aks ettiruvchi alternativ matn yozish topshirig'i beriladi.

Kommunikatsiya konsepsiyasiga Hamlet va Goratsio o'rtasidagi dialogdan parchani misol

keltirish mumkin. Hamlet "There are more things in heaven and earth, Horatio, Than are dreamt of in your philosophy". ("Osmon va yerda, Goratsio, sening falsafangda tasavvur qilinmagan narsalar ko'p".) Quyidagi dialog orqali o'quvchilar falsafiy qarashlarni taqqoslab bahs- munozara qilishi mumkin. Natijada ularning muloqot madaniyati va dalillash ko'nikmalari rivojlanadi.

Hamletning ona Gertruda bilan suhbat: "You can not call it love; for at your age, the heyday in the blood is time, it is humble. And waits upon the judgment". (Buni sevgi deb bo'lmaydi. Sevgi endi aqlga bo'ysunadi.) Jamoaviy tahlil jarayonida o'quvchilarga savol taqdim qilinadi. Qaror qabul qilish uchun yosh muhimmi, yoki tajriba? Bu mashq orqali ularda dalillash, muloqot qilish va turli fikrlarni tinglash ko'nikmasi rivojlanadi.

Kollaboratsiya ya'ni hamkorlikda ishlashda Hamletning adolat uchun kurashi: "The time is out of joint: O cursed spite,

That ever I was born to set it right!

("Zamon buzilgan: naqadar la'natli taqdir, uni tiklash uchun men tug'ildim!").

Bu parcha orqali guruhlariga ijodiy topshiriq beriladi:

- Birinchi guruh Hamletning adolat uchun kurashini qo'llab- quvvatlaydi. Asardan parcha, misol va asos bilan xulosa beradi.
- Ikkinchi guruh uning shaxsiy qasos olish qarorini tanqid qiladi.
- Uchinchi guruh esa bu voqeani bugungi zamondagi korrupsiya va adolatsizlik muammolari bilan bog'laydi.

Hamletning qotillik haqidagi so'zi:

"Murder most foul, as in the best it is;

But this most foul, strange and unnatural" [4:320].

("Qotillik – har doim jirkanch, ammo bu qotillik naqadar g'ayritabiiy va qabih").

Loyiha: guruhlar Hamletning otasi qotilligi yuzasidan sud jarayonini sahnalashtiradi.

- Birinchi guruh Kladusni himoya qiladi;
- Ikkinchi guruh uni ayblaydi;
- Uchinchi guruh esa hakamlik qiladi.

Bunday ko'rinishdagi topshiriqlar o'quvchilarda hamkorlikda ishlash ko'nikmasi bilan birgalikda, ularda fikrlash qobiliyatini ham o'stiradi.

Bir asarni tahlil qilish jarayonida 4K ko'nikmalarini teng rivojlantirish adabiyot predmetining bugungi kundagi vazifasi hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim metodlari va innovatsion yondashuvlardan foydalangan holda asarlarni turli yo'sinda tahlil qilish mumkin:

- Role play (rol o'ynash) – sahna qo'yish orqali asarni anglash.
- Debatlar – qahramonlarning qarorlari ustida bahs –munozara.
- Creative writing – monologlarni qayta yozish. Bu usul tanqidiy fikrlashni o'stirishda xizmat qiladi.
- Digital storytelling – video, podkast va taqdimotlar orqali ijodiy talqin [5: internet manbaa].

Xulosa.XXI asr ta'limi o'quvchilardan nafaqat bilimga ega bo'lishni, balki mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv, samarali muloqot va hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini talab qilmoqda. Shu sababli 4K modeli bugungi kunda ta'lim jarayonining ustuvor vazifalaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Shavkat. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022.416-bet.
2. Trilling, B., Fadel, C. (2009). 21st Century Skills: Learning for Life in Our Times. Jassey- Bass.
3. Vilyam Shekspir. Hamlet. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1983
4. Shakespeare, W. Hamlet. The Arden Shakespeare, 2016.
5. Dewey J. Democracy and Education. New York: Macmillan, 1916.

Mastona ABDIXOLIQOVA,
ToshDO'TAU tayanch doktoranti

ADABIY TA'LIMDA XALQ OG'ZAKI IJODINI O'RGANISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya: maqolada bugungi kunda xalq og'zaki ijodining adabiy ta'limdagi o'rni, ahamiyati va dolzarbligi tahlil qilinadi. Xalq og'zaki ijodi namunalari orqali o'quvchilarning badiiy-estetik didi, tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalari hamda bugungi zed avlod vakillarining milliy qadriyatlarga hurmatini shakllantirishning pedagogik asoslari yoritilgan. Shuningdek, adabiy ta'limda xalq og'zaki ijodini o'qitishdagi mavjud muammolar tahlil qilinib, ularni bartaraf etish bo'yicha metodik tavsiyalar berilgan. Ushbu maqola adabiy ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: *adabiy ta'lim, xalq og'zaki ijodi, pedagogik muammo, ijodiy va tanqidiy fikrlash, metodik tavsiya, ta'lim metodlari.*

Аннотация: в статье анализируется роль, значение и актуальность устного народного творчества в литературном образовании на сегодняшний день. Через образцы устного народного творчества освещаются художественно-эстетические вкусы учащихся, навыки критического и творческого мышления, а также педагогические основы формирования уважения к национальным ценностям у представителей сегодняшнего поколения зед. Также проанализированы существующие проблемы обучения устному народному творчеству в литературном образовании и даны методические рекомендации по их преодолению. Эта статья служит для повышения качества литературного образования.

Ключевые слова: *литературное воспитание, устное народное творчество, педагогическая проблема, творческое и критическое мышление, методические рекомендации, методы воспитания.*

Annotation: the article analyzes the current importance, significance and relevance of folk oral literature in literary education. The pedagogical foundations of the formation of students artistic and aesthetic taste, critical and creative thinking skills, and respect for national values of today's generation of representatives through examples of folk oral literature are highlighted. Also, the existing problems in teaching folk oral literature in literary education are analyzed and methodological recommendations are given to eliminate them. This article serves to improve the quality of literary education.

Key words: *literary education, folk oral culture, pedagogical problem, creative and critical thinking, methodological recommendations, educational methods.*

Bugungi axborotlashgan va raqamlashtirilgan ta'lim tizimida o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini yuksaltirish, ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash salohiyatini rivojlantirish muhim vazifalardan biridir. Xalq og'zaki ijodi namunalari adabiy ta'lim jarayonida o'rganish bugungi kundagi zamonaviy o'quvchilarga milliy qadriyatlarni singdirish, ularning fikrlash qobiliyatini, estetik dunyoqarashini kengaytirish va madaniy merosga, insonlarga bo'lgan hurmatini oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Xalq og'zaki ijodi – millatning ko'p asrlilik ma'naviy boyligi, tarixiy xotirasi, an'anasi va tajribasini ko'rsatuvchi merosdir. Ushbu asarlar orqali xalqning urf-odatlarini, tafakkuri, madaniyati, ma'naviyati, orzu-umidlari, dunyoqarashi o'z ifodasini topadi. Shu bois, bugungi kunda xalq og'zaki ijodini adabiy ta'limda samarali va interaktiv usullarda o'qitish pedagogik muammo sifatida ilmiy tadqiqotlarni talab qiluvchi dolzarb masaladir.

Ushbu maqolada xalq og'zaki ijodini adabiy ta'lim jarayonida samarali o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari, amaliy ahamiyati va metodik yondashuvlari tahlil qilinadi.

Xalq og'zaki ijodi namunalari maqollar, topishmoqlar, tez aytishlar, qo'shiqlar, ertaklar va dostonlarni qamrab oladi. Har bir janrda xalqning dunyoqarashi, ma'naviy va ma'rifiy qadriyatlari namoyon bo'lgan.

Maktab ta'limida xalq og'zaki ijodi namunalari o'rganish o'quvchilarda quyidagilarni shakllantiradi:

1. Ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini yanada rivojlantiradi.
2. Ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasini va o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi.
3. Millatning madaniy merosini qadrlashni va ularni chuqurroq anglashga yordam beradi.

Pedagogik jihatdan xalq og'zaki ijodi namunalari

o'quvchilar bilan ishlashda samarali metodik namuna bo'lib xizmat qiladi. Negaki, xalq og'zaki ijodi namunalari o'quvchilarni nazariy va amaliy bilimlar bilan boyitadi. Shu bois, xalq og'zaki ijodini tizimli va mazmunli o'rganish adabiy ta'limning asosiy yo'nalishlaridan biridir.

Xalq og'zaki ijodini adabiy ta'limda samarali o'qitish o'qituvchidan nazariy, metodik, didaktik bilimlar va o'ziga xos yondashuvni talab etadigan dolzarb masaladir. Hozirgi kunda umumta'lim maktablarida xalq og'zaki ijodini o'qitish bilan bog'liq muammolar mavjud:

1. Darslik va o'quv-metodik qo'llanmalarning yetarli emasligi: Xalq og'zaki ijodi namunalarini darsliklarda berilishida yoshiga mos ravishda to'liq berilmaganligi, ayrim hollarda qisqartirilganligi.

2. Ma'naviy va madaniy meros haqida o'quvchilarga yetarlicha bilimlar berilmaganligi: Xalq og'zaki ijodini o'qitishda kompetensiyaviy yondashuvning yo'qligi, faqatgina dars jarayonida o'rgatilyotganligi.

3. Zamonaviy metodlarning qo'llanilmasligi: Zamonaviy texnologiyalar va innovatsion metodlar yordamida darslar tashkil qilinmayotganligi, o'quvchilar diqqatini darsga jalb qilinmayotganligi.

4. Ijodiy va tanqidiy yondashuvning sustligi: dars jarayonida o'quvchilarga tayyor matnni yodlatish bilan cheklanilyotganligi va o'quvchilarni faolligini oshiruvchi ijodiy yondashuvning yo'qligi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun o'qituvchilar zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanishi, darslarni kreativ va samarali tashkil etishi, xalq og'zaki ijodi namunalarini o'quvchilarga soddadan murakkabga asoslangan holatda qiziqarli tarzda yetkazishi talab qilinadi. Shu yo'l bilan bugungi zamonaviy o'quvchilarni mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqadigan bo'lsak, darsning metodik tomoni qanday tashkil qilinishi kerak, degan savol paydo bo'lishi, tabiiy. Xalq og'zaki ijodini o'qitishda quyidagi metodik yondashuvlarni taklif sifatida bermoqchimiz:

1. Soddadan murakkabga asoslangan yondashuv: o'quvchilarni xalq og'zaki ijodi janrlari bilan tanishtirish, har bir janrga misollar keltirish va har birini tahlil qilib berish.

2. Dars jarayonida interaktiv metodlarni qo'llash: "Mosini toping", "Kim chaqqon-u, kim epchil", "Adashtirdim, topingchi?" kabi usullar orqali o'quvchilarni diqqatini darsga jalb qilib, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish.

"Mosini toping" usuli

Ushbu usulda topishmoqlar va topishmoqlarning javobi aralash holda beriladi. O'quvchilar topishmoqlarning javobini topishadi.

No	Topishmoqlar	Chalkash javoblar	Chalkash javob nomlari	To'g'ri Javoblar
1	Boshi taroq, dumi o'roq.	A	Quyosh	D
2	Bir qop un, ichida ustun.	B	Xarita	E
3	Bir parcha patir, olamga tatir.	D	Xo'roz	F
4	Shahari bor, odami yo'q, Daryosi bor, suvi yo'q.	E	Jiyda	B
5	Kunduz kuni o'chirib, Tunda yoqa olmaysan. Yoniga bo'lmas borib, Usiz yashay olmaysan.	F	Oy	A

Javoblari:

3. 1. D 2. E 3. F 4. B 5. A

"Kim chaqqon-u, kim epchil" usuli


"Kim chaqqon-u, kim epchil" usulida "Uch og'a-
ini botirlar" ertagida berilgan turli rangdagi otlar
obrazining tahlilini amalga oshiramiz.

O'quvchilarga otlarning tanlanishi va ranglarida
nima ma'no borligini izohlab berish topshirig'i
beriladi. Bu topshiriqni bajarishda o'quvchilar o'z

mustaqil fikrlariga tayangan holda javob berishlari
aytiladi. O'quvchilar ertakni o'qib chiqqanliklari
uchun quyidagicha javoblarni berishlari mumkin:

Qora ot – otlarning eng qo'rqmasi va yaxshi
chopag'oni va tishlong'ichi. Ukalarini xavf-u xatardan
saqlasin deb, uni to'ng'ich farzandimga berdim.

Saman otning manglayida yoki to'rttala oyog'ida
oq qashqasi bo'lsa, u otlarning eng yaxshisi va abjiri,
sadoqatlisi bo'ladi. Uni o'rtancha o'g'limga berdim.



Ko'k ot agar uning dumi qora bo'lsa, otlarning eng yaxshisi bo'ladi. Uni g'irko'k ham deyishadi. Sakraganda 40 metrgacha sakraydi. Uni kenja o'g'limga berdim.

Yuqoridagi javoblarni o'quvchilar kitobdagi ma'lumotlarga tayangan holda aytadilar. Lekin qiziquvchan va uddaburon o'quvchi bizning hayolimizga kelmagan javobni aytishi mumkin. Bu topshiriqda mustaqil fikrlar asosida javob bergan guruh yuqori ball bilan rag'batlantiriladi.

3. Multimedia vositalaridan foydalanish: xalq og'zaki ijodi namunalari asosida tayyorlangan video, audioyozuvlar, animatsiyalar elektron testlarni dars jarayoniga kiritish. Raqamli resurslardan unumli foydalanib dars sifatini oshirish.

4. Amaliy topshiriqlar va ijodiy ishlarga asoslanib dars tashkil qilish: o'quvchilarni ijod qilish orqali ertak, hikoya yozishga undash. Muzeylar va folklor

namunalari to'plash uchun ekskursiyalar tashkil qilish.

Yuqoridagi metodik tavsiyalar orqali o'quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirib, xalq og'zaki ijodi namunalariga bo'lgan qiziqishini oshirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, dars jarayonida zamonaviy usullarni unumli va o'z o'rnida qo'llash orqali ta'lim tizimidagi natijalar anchagina samarali bo'ladi. Bunday usullarning o'ziga xos xususiyatlari, vaqtning unumdorligini oshirish, ijobiy natijalar berishi, qolaversa, bir tomonlama dars o'tishdan cheklanishni taqozo etadi. O'qituvchi o'z ishida axborot texnologiyalari va zamonaviy usullardan foydalanishi o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, dars davomida zerikmasdan faol ishtirok etishiga zamin yaratadi. Zamonaviy usullardan dars davomida o'rinni foydalanilsa kutilgan maqsadga erishiladi. Bunda o'qituvchidan ijodkorlik, tashabbuskorlik, bilimdonlik talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Madayev O., Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. –T.: 2010.
2. To'xliyev B., Niyozmetova R. va b. Til va adabiyot ta'limining zamonaviy texnologiyalari. – T.: Toshkent, 2011.
3. Q.Yo'ldoshev, B.Qosimov, V.Qodirov, J.Yo'ldoshbekov.7-sinf adabiyot darsligi. –T.:2017.
4. Muhamedova S, X., Abdullayeva M, D., Yuldasheva Sh, Sh., Eshmatova Y, B. O'zbek tili va adabiyoti ta'limida zamonaviy axborot texnologiyalari. – T.: 2018.
5. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – T.: Barkamol fayz media. 2018.
6. Niyozmetova R. Uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek adabiyotini o'rganish metodikasi. Monografiya. – T.: Fan, 2007.
7. Rajabova I. Adabiyot darslarini interfaol usullarda tashkil etish. – T.: Tamaddun, 2010.
8. To'xliyev.B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: "Alisher Navoiy" nomidagi O'zMK, 2012.
9. Neil Selwyn. Education and Technology: Key Issues and Debates. – Continuum. New York, 2011.
10. Husanboyeva Q. Adabiyot o'qitish metodikasi va muammoli ta'lim. O'quv-metodik qo'llanma. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo,2022.
11. Djamaldinova Sh. Maktab adabiy ta'limida xalq og'zaki ijodi namunalarini muammoli metod asosida o'rganish//Phd ilmiy darajasini olish uchun yozilgan avtoreferat. – Toshkent, 2022.

Mahmuda SOBITOVA,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
1-kurs tayanch doktoranti



ADABIY TA'LIMDA VIZUAL YONDASHUV FOYDALANISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada adabiy ta'lim jarayonida vizual yondashuvdan foydalanishning pedagogik va psixologik xususiyatlari ilmiy nuqtayi nazardan tadqiq etiladi. Zamonaviy pedagogikada bugungi kunda tatbiq etilayotgan innovatsion usullar o'qitish samaradorligini oshirish, o'quvchilarning anglash qobiliyatlarini rivojlantirish, tahlil va talqin jarayonlarini bajarishda, asosan, vizualizatsiyaga asoslanilmoqda. Maqolada ta'lim jarayonida vizual vositalardan foydalanishning o'quvchilarning idrok, xotira, diqqatiga hamda ularning ularning tanqidiy fikrlarining yuksalishiga nisbatan ta'siri tadqiq etiladi. Shuningdek, vizual vositalarni adabiy ta'limga joriy etishda o'ziga xos metodik yondashuvlar taqdim etilib, mavjud muammolar va ularga mos yechimlar keltirib o'tiladi.

Kalit so'zlar: *adabiy ta'lim, vizual yondashuv, pedagogik xususiyat, psixologik xususiyat, tafakkur, kognitsiya, metodika.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются педагогические и психологические особенности использования наглядного подхода в процессе литературного образования с научной точки зрения. Инновационные методы, используемые в настоящее время в современной педагогике, в основном основаны на визуализации для повышения эффективности обучения, развития навыков понимания у учащихся, анализа и интерпретации. В статье рассматривается влияние использования наглядных средств в образовательном процессе на восприятие, память, внимание учащихся и развитие их критического мышления. Также представлены конкретные методические подходы к внедрению наглядного подхода в литературное образование, обозначены существующие проблемы и пути их решения.

Ключевые слова: *литературное образование, наглядное образование, педагогическая особенность, психологическая особенность, мышление, познание, методология.*

Annotation: this article studies the pedagogical and psychological features of using a visual approach in the process of literary education from a scientific point of view. Innovative methods currently used in modern pedagogy are mainly based on visualization in order to increase the effectiveness of teaching, develop students' understanding skills, and perform analysis and interpretation processes. The article studies the impact of using visual aids in the educational process on students' perception, memory, attention, and the development of their critical thinking. Also, specific methodological approaches to introducing visual aids into literary education are presented, and existing problems and appropriate solutions are presented.

Key words: *literary education, visual approach, pedagogical feature, psychological feature, thinking, cognition, methodology.*

Kirish. Ma'lumki, zamonaviy ta'lim tizimi, asosan, o'quvchilarning axborot qabul qilish, ularni qayta ishlash va foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishga diqqat qiluvchi innovatsion metodlarga tayanadi. Ayniqsa, adabiy ta'limda o'quvchilarning kognitiv bilimlarini oshirish,

tafakkur olamini boyitish maqsadida qo'llanuvchi innovatsion yondashuvlar o'ziga xos ahamiyatga ega omil sifatida baholanadi. Adabiy ta'limda uzatilgan ma'lumotlarni chuqur tushunish, tahlil qilish va zavq olish kabi mezonlarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etib, ular

ayrim yondashuvlariga ko'ra an'anaviy ta'lim metodlaridan farq qiladi. An'anaviy ta'lim metodlari, ko'pincha, matnga asoslangan bo'lib, bunda o'quvchilarning individual xususiyatlari tanlangan metodikaga mos bo'lmasligi mumkin. Bugungi globallashuv zamonida internet tarmog'ining yanada taraqqiy etishi an'anaviy ta'lim metodlarining "urfdan qolishiga" sabab bo'lmoqda. Joriy etilayotgan zamonaviy metodlar esa "so'nggi rusum"dagi model sifatida yosh avlod ta'lim-tarbiyasida asosiy omil sifatida xizmat qilmoqda.

Vizual yondashuv – bu adabiy ta'lim jarayonida tanlangan mavzuni o'qitishda foydalaniladigan turli grafik, tasviriy va audio-vizual vositalardan foydalanish jarayonini qamrab oluvchi yondashuv sanaladi. Vizual yondashuv orqali quyidagilarga erishish mumkin:

- o'quvchilarning darsga qiziqishini oshirish;
- tanlangan adabiy tushunchalarni idrok etish;
- uzatilgan axborotlarni eslab qolish qobiliyatining yaxshilanishi.

Bizning ushbu maqolamiz ham bevosita adabiy ta'limda vizual yondashuv xususida bo'lib, ularning pedagogik va psixologik xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan asoslanadi. Ularning ta'lim jarayonidagi samaradorligi xususida ma'lumot beriladi.

Asosiy qism. Adabiy ta'limda vizual yondashuvlarning samarali jihatlari qator tadqiqotlarda e'tirof etilgan. Xususan, *Allan Paivio* tomonidan ilgari surilgan dual-koding nazariyasida keltirilgan ma'lumotlarni bevosita adabiy ta'limga joriy etish mumkin [8; 120]. Ushbu nazariyaga ko'ra, inson miyasi axborotlarni ikki xil, ammo o'zaro bog'liq tizimlar orqali qayta ishlaydi, ular ikki jihatga asoslanadi: verbal va noverbal. Agar uzatilayotgan axborot ham verbal, ham vizual shaklda tadqim etilsa, u har ikki tizim tomonidan qayta ishlanib, miyada kuchliroq bog'lanish hosil qiladi hamda bu jarayon ma'lumotlarning xotirada uzoq vaqt saqlanib qolishiga yordam beradi. Adabiy ta'limda asar o'qilganda (verbal) va uning mazmuni vizual jihatdan qabul qilinganda u xotirada uzoqroq muddat saqlanib qolishi va eslab qolishning osonlashishiga yordam berishi mumkin.

Kognitiv yuk nazariyasi ham adabiy ta'lim

jarayonida vizualizatsiyani amalga oshirishni tatbiq etishga qaratilgan nazariy yondashuvlardan biridir [7]. Bu nazariya o'quvchilarning asosiy xotirasi cheklangan imkoniyatlarga ega ekanligi, agar uzatilayotgan axborot murakkab va yomon tashkil etilgan bo'lsa, o'quvchining kognitiv yuki ortadi va bu ma'lumotni qabul qilish jarayonini og'irlashtiradi. Vizual vositalar, xususan, rasm, video, audiotasvir vositalari murakkab ma'lumotlarni soddalashtirib, uning o'quvchi tomonidan tushunarli shaklda qabul qilinishiga yordam berib, kognitiv yukni kamaytiradi va u o'zlashtirish jarayonini yaxshilaydi. Masalan, ushbu nazariyani adabiy asardagi murakkab syujet yoki qahramonlar tasvirini badiiy so'z vositasida emas, balki vizual vositalar orqali tasvirlash asardagi kognitiv yukning yengillashiga xizmat qiladi.

1. Adabiy ta'limda vizual yondashuvdan foydalanishning pedagogik xususiyatlari

Adabiy ta'limda vizual yondashuvlardan foydalanish o'ziga xos pedagogik va psixologik xususiyatlariga ega[5]. Xususan, qahramonlar tasviri, voqealar syujetini aks ettirishda vizual materiallar o'quvchilar ongida obraz va muhitni o'quvchining tasavvurida aniqroq shakllantiradi. Masalan, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asaridagi Kumush obrazining tahlilini ko'rib chiqsak. Asarda Kumush obraziga quyidagicha ta'rif beriladi: "...quyuq jinggila kiprik ostidagi timqora ko'zlari bir nuqtaga tikilganda, nimadir bir narsani ko'rgani kabi... qop-qora kamon, o'tib ketkan nafis, qiyig' qoshlari chimirilganda, nimadir bir narsadan cho'chigan kabi... to'lg'an oydek g'uborsiz oq yuzi bir oz qizilliqg'a aylanganda, -kimdandir uyalg'an kabi... Shu vaqt ko'rpani qayirib ushlagan oq nozik qo'llari bilan latif burnining o'ng tomonida tabiatning nihoyatda usta qo'li bilan qo'ndirilg'an qora xolini qashidi va boshini yostiqdan olib o'turdi..." Asar tili XX asrga xos yo'singa ega bo'lib, muallif tomonidan keltirilgan bu tavsif dual-koding nazariyasidagi verbal vositaga yaqqol misol bo'la oladi, sababi, portret so'z yordamida ifoda etilgan. Ushbu tasvirni vizualizatsiya asosida o'quvchilarga axborot sifatida uzatish vizual yondashuvga misol bo'ladi, buni quyidagi chizma asosida ko'rib chiqamiz:

Miya (kognitiv jarayon)

“...quyuq jinggila kiprik ostidag‘i timqora ko‘zlari bir nuqtag‘a tikilganda, nimadir bir narsaniko‘rganikabi... qop-qorakamon, o‘tib ketkan nafis, qiyig‘ qoshlari chimirilganda, nimadir bir narsadan cho‘chigan kabi... to‘lg‘an oydek g‘uborsiz oq yuzi bir oz qizilliqg‘a aylanganda, kimdandir uyalg‘an kabi... Shu vaqt ko‘rpani qayirib ushlagan oq nozik qo‘llari bilan latif burnining o‘ng tomonida tabiatning nihoyatda usta qo‘li bilan qo‘ndirilg‘an qora xolini qashidi va boshini yostiqdan olib o‘lturdi [10; 65].



Verbal vosita orqali axborot uzatish

Vizual vosita orqali axborot uzatish

Yuqorida keltirilgan jadvaldan ko‘rinib turibdiki, miyadagi kognitiv jarayonlar bir uzatma asosida, ya‘ni (yo verbal, yo vizual tasvir orqali uzatilganda) qabul qilish jarayonida qisman murakkablik yuzaga keladi (asar tili va voqealar aks etgan davr nuqtayi nazaridan) va bu kognitiv yukka sabab bo‘ladi, biroq uzatilayotgan ma‘lumotga integratsion yondashuvning joriylanishi (bir vaqtning o‘zida ham verbal, ham vizual vositalardan foydalanish) kognitiv yukni kamaytiradi.

Shuningdek, dars jarayonida, xususan, adabiy ta‘limda asarning asosiy mavzusi, unda ilgari surilgan g‘oya va mavjud ramziy obrazlarni vizual yondashuv asosida tahlil qilish o‘quvchilar uchun abstrakt tushunchalarni konkretlashtiradi. Bu jarayonga vizual yondashuvning o‘ziga xos shakli hisoblangan intellektual xaritalarni (mind map) joriy etish ham adabiy ta‘limga xos innovatsiya sanaladi [2; 51]. Intellektual xaritani quyidagi misol asosida tahlil qilamiz


“O‘tkan kunlar” romani asosida intellektual xarita yaratish

Yuqorida keltirilgan xaritani dars jarayoniga tatbiq etish asardagi voqeliklar haqida umumiy tasavvur hosil qilishga yordam berib, ushbu metodning pedagogik jihatlarni namoyon etadi.

Vizualizatsiya o‘quvchilarga nafaqat mavjud ma‘lumotni qabul qilish, balki uni qayta ishlash, baholash va o‘z nuqtayi nazarlarini vizual shaklda ifodalash imkonini beradi. Masalan, asardagi qahramonning ichki dunyosini aks ettiruvchi kollaj yaratish orqali o‘quvchilar tanqidiy tahlil va ijodiy sintezni amalga oshiradilar. Matndagi ma‘lumotlar asosida yangi vizual hikoyalar yaratish kreativlikni rivojlantiradi.

II. Adabiy ta‘limda vizual yondashuvdan foydalanishning psixologik xususiyatlari.

Adabiy ta‘limda vizual yondashuvdan foydalanishning pedagogik xususiyatlari mavjud bo‘lishi bilan birgalikda, psixologik jihatlari ham e‘tirof etiladi. Xususan, har bir o‘quvchi alohida individ hisoblanib, adabiy ta‘lim jarayonida ularning xarakter xususiyatlarini inobatga olgan holda dars jarayonini tashkil etish samarali yondashuv sanaladi. Yuqorida qayd etilgan dual-koding nazariyasi vizual ma‘lumotlarni verbal ma‘lumotlarga nisbatan tez va oson yodda saqlanishiga yordam beradi. Bundan tashqari, vizual materiallar inson kognitsiyasining tabiiy ravishda tasvirga nisbatan yuqori moyilligiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Ranglar, shakllar, turli tasvirlar o‘quvchilarning diqqatini tortib, ularning konsentratsiyasini uzoq vaqt davomida ushlab turishga xizmat qiladi.



Verbal vositalarga nisbatan vizual materiallar kuchliroq hissiy reaksiyaga ega. Qahramonlarning tashqi ko'rinishi, mimikasi, voqelik o'quvchida empatiya hissining rivojlanishiga yordam beradi. Yuqorida nomi keltirilgan kognitiv yuk nazariyasi vizual tasvirlarning nafaqat pedagogik xususiyatlariga, balki psixologik xususiyatlariga ham aloqadordir. Bunda to'g'ri tanlangan vizual vositalar ma'lumotlarni samarali qabul qilishga yordam beradi va o'quvchilarda bu jarayon kognitiv yukning kamayishiga xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa sifatida aytish mumkinki, adabiy ta'limda vizual yondashuvdan foydalanish zamonaviy pedagogikaning muhim

yondashuvlaridan biridir. Ushbu maqolada tahlil qilingan pedagogik va psixologik xususiyatlar vizualizatsiyaning adabiy ta'limdagi beqiyos ahamiyatini tasdiqlaydi. Dual-koding nazariyasi, kognitiv yuk nazariyasi kabi ilmiy asoslar vizualizatsiyaning insonning bilish jarayonlariga ijobiy ta'sirini baholaydi. Vizual yondashuvni adabiy ta'limga samarali joriy etish o'quvchilarning adabiy asarlarga bo'lgan qiziqishini oshiribgina qolmay, ularning matnni tahlil qilish, baholash va undan yangi ma'nolar yaratish kabi yuqori darajadagi kognitiv ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Bu esa o'quvchilarni zamonaviy axborot jamiyatida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga tayyorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva A. Adabiy ta'limda innovatsion yondashuv. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Bookmany print, 2024. 222-b.
2. Dunn R. Teaching Secondary Students Through Their Individual Learning Styles: Practical Approaches for Grades 7-12. Allyn and Bacon, 1993.
3. G'oziyev E. Psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2008. 105-b.
4. Husanboyeva Q., Niyazmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent, 146-b.
5. Levidov A. Avtor – obraz-chitatel. – Leningrad, 1983. 350-b.
6. Matchonov S. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar. – Toshkent: O'qituvchi, 1996. 50-b.
7. Mayer R. Multimedia Learning (2nd ed.). Cambridge University Press, 2009.
8. Paivio A. Mental Representations: A Dual Coding Approach. Oxford University Press, 1986.
9. Qambarova S. "Muallif pozitsiyasi"ni o'rganish – badiiy asarni tushunish omili sifatida. "Pedagogik mahorat" ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2023, №4
10. O'tkan kunlar, Abdulla Qodiriy // www.ziyouz.com

Nigora BOTIROVA,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU
 1-kurs tayanch doktoranti



SHUKUR XOLMIRZAYEVNING “OT EGASI” ASARINI ZAMONAVIY METODLAR ASOSIDA O'QITISH

Annotatsiya: ushbu maqolada o'zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri Shukur Xolmirzayevning “Ot egasi” hikoyasini ta'lim muassasalarida zamonaviy yondashuvlar asosida o'qitish xususida so'z yuritiladi. Asarga an'anaviy yondashuv badiiy asar mazmunini tushunish, uning tub mohiyatini anglashga qaratilsa, zamonaviy metodlar asosida o'qitish uning asl mazmunini anglashga ko'maklashishi bilan birgalikda qahramonlarning ruhiy olami hamda o'quvchilarning individual xususiyatlarini ham tadqiq etishni maqsad qiladi. Maqola zamonaviy metodlar asosida ushbu hikoya tahliliga qaratilib, o'quvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini oshirish, asarga hissiy-estetik yondashuvlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: *adabiyot ta'limi, hikoya janri, zamonaviy metodlar, faol o'qitish, multimodal yondashuv, individual xususiyat.*

Аннотация: в данной статье рассматривается преподавание повести «Владелец коня» Шукура Холмирзаева, одного из выдающихся представителей узбекской литературы, в образовательных учреждениях на основе современных подходов. В то время как традиционный подход к изучению произведения направлен на понимание его содержания, фундаментальной сущности, преподавание по современным методам призвано помочь постичь его истинный смысл, а также изучить духовный мир персонажей и индивидуальные особенности учащихся. В статье особое внимание уделяется анализу этой повести на основе современных методов, что способствует развитию у учащихся навыков критического мышления и эмоционально-эстетического восприятия произведения.

Ключевые слова: *литературное образование, жанр рассказа, современные методы, активное обучение, мультимодальный подход, индивидуальные особенности.*

Annotation: this article discusses the teaching of the story “The Horse Owner” by Shukur Kholmirezayev, one of the great representatives of Uzbek literature, in educational institutions based on modern approaches. While the traditional approach to the work is aimed at understanding the content of the work of art, its fundamental essence, teaching based on modern methods aims to help understand its true meaning, as well as to study the spiritual world of the characters and the individual characteristics of students. The article focuses on the analysis of this story based on modern methods, which helps to improve students' critical thinking skills and develop their emotional and aesthetic approaches to the work.

Key words: *literary education, story genre, modern methods, active teaching, multimodal approach, individual characteristics.*

Kirish. Barchamizga ma'lumki, badiiy adabiyotda zamonaviy metodik yondashuvlarni qo'llay bilish o'qituvchining bilim, malaka, ko'nikmasiga bog'liq bo'lishi bilan birgalikda o'quvchilarning individual xususiyatlarini ham qamrab olish imkoniyatiga ham ega bo'lishi lozim. Ana shu jihatlarga ega bo'lgan metodologik yondashuvlar dars sifatining oshishiga xizmat qilishi bilan birgalikda adabiyot ta'limining samaradorligini yuksaltiradi, o'quvchilarning darsga nisbatan qiziqishini oshiradi. Bizning ushbu maqolamiz ham bevosita adabiyot ta'limida zamonaviy metodologik yondashuvlarni qo'llash xususida bo'lib, Shukur Xol-

mirzayevning “Ot egasi” maqolasi tadqiqot obyekt sifatida tanlab olindi hamda ushbu hikoyaga mos zamonaviy metodlarning o'ziga xos jihatlari maqola davomida yoritib berildi.

Shukur Xolmirzayevning “Ot egasi” asari hikoya janrida yozilgan bo'lib, adabiy ta'limda hikoya janriga xos asarlarni o'qitishda o'ziga xos yondashuvlar mavjud. Hikoya badiiy adabiyotdagi ixcham janr sanalib, asarning hajman kichikligi, qahramonlar sonining ozligi bilan boshqa epik asarlardan ajralib turadi. Q. Husanboyeva ta'biri bilan aytganda, “Epik asarlar sirasiga kiruvchi hikoya – o'quvchi uchun

tushunarli, ixcham asar. Hikoyaning qulayligi hajmi uncha katta bo'lmagani holda bayonning yorqinligi, kompozitsiyaning unchalik murakkab emasligi, personajlar sonining kamligi, yozuvchi diqqatining bir qahramon shaxsiga qaratilganligi va hokazo jihatlar bilan asoslanadi" [5, 132]. Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, adabiyot ta'limida hikoya janrini o'qitishda zamonaviy metodlarni tanlashda o'ziga xos jihatlarni ham e'tiborga olish lozim, ya'ni o'quvchilarning yosh xususiyatlari, xarakteri kabi omillar ham zamonaviy usullarni tanlashda ehtiyotkorlik joizligini anglatadi. Umuman olganda, ushbu asar uchun tanlangan metodologik yondashuvlar har tomonlama mukammal, har jihatdan o'quvchilar individualizmiga xos bo'lishi maqsadga muvofiq.


Asosiy qism. Bugungi globallashuv zamonida o'quvchilarning axborot qabul qilish uslublari, qiziqish doiralari dars jarayonida an'anaviy metodlardan chekinish joizligini ko'rsatmoqda. Sababi, an'anaviy o'qitish metodlari tanlangan asarlarning to'liq mohiyatini o'quvchilarga yetkazishda yoki ularning hissiy-empirik xususiyatlarini e'tiborga olishda talabga javob bermasligi mumkin. Tadqiqotimiz bevosita Shukur Xolmirzayevning "Ot egasi" hikoyasi bilan bog'liq bo'lganligi sababli ushbu maqolada yuqorida keltirilgan barcha jihatlarni e'tiborga olgan holda zamonaviy yondashuvlarni taqdim etamiz:

1-metod. "4K" metodi (umumlashma metod).

Ushbu metodga ko'ra, 4 ta yondashuv bir vaqtning o'zida jamlanadi: kreativlik (creative thinking),

tanqidiy fikrlash (critical thinking), kommunikatsiya (communication), kooperatsiya (collaboration). 4K metodi orqali o'qituvchi tomonidan mavzuga xos jihatlar keltirilgan metodga moslanadi, masalan, ijodiy topshiriqlar berilib, 4K elementlarining uyg'unlashuvi hosil qilinadi, ulardagi kreativlik ko'nikmalari shakllantiriladi, asarga tanqidiy ruhga yondashilib, o'quvchilardagi tanqidiy fikrlash qobiliyatlari o'stiriladi, shuningdek, asar asosida muloqot qilish ulardagi kommunikatsiyani o'stirsa, jamoaviy aloqalar kooperatsiyaga misol bo'la oladi [3, 75]. Ushbu metod umumlashma metod hisoblanib, uning tarkibidagi kompetensiyaviy tuzilmalarni rivojlantirish uchun o'ziga xos metodlar tanlab olish mumkin (4K metodi tarkibida shakllantiriladi). Masalan, 4K metodi tarkibidagi kreativlik ko'nikmasining rivojlantirilishi uchun "Intellectual xarita" metodidan foydalanish mumkin (bu o'qituvchining zamonaviy yondashuviga bog'liq) [4; 68]. Quyida ushbu metodga xos jihatlarni "Ot egasi" asari asosida ko'rib chiqamiz.

Ushbu yondashuvlar o'smirlarning nazariy bilimlarni hayotda qo'llashiga, mustaqil fikrlovchi va mas'uliyatli shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Ular oilaviy munosabatlarni anglab, hayot sinovlariga tayyor bo'lib boradilar hamda baxtli oila qurishga intiladilar. Shunday yondashuvlar o'smirlar uchun sog'lom hayotiy poydevor yaratadi.

O'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda innovatsion yondashuvlar – bu zamonaviy pedagogika va texnologiyalar asosida shakllangan, an'anaviy ta'lim uslublaridan tubdan farq qiluvchi, yoshlar ehtiyojiga moslashgan yangi avlod ta'lim

metodlaridir. Bunday yondashuvlar axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), raqamli resurslar, onlayn platformalar, interaktiv o'yinlar, hayotiy vaziyat simulyatsiyalari, role-play (rol o'ynash), loyiha asosida o'qitish (project-based learning) va muammoli ta'lim kabi uslublarni o'z ichiga oladi.

“O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da ko'rsatilishicha, Innovatsion quyidagicha mazmun va tushunchalarga ega: “Innovatsiya (ingl. “innovationas” – kiritilgan yangilik, ixtiro) 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar; 2) ilmiy-texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalaridagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo'llanishi” [3].

Mazkur yondashuvlar o'smirlarning oilaviy hayotga tayyorlanishini faollashtiradi va ularning ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarini – muloqot, empatiya, murosaga kelish, qaror qabul qilish va nizolarni hal etish kabi amaliyot orqali shakllantiradi.

Innovatsion yondashuvning yana bir muhim jihati – bu bilim berish jarayonini nazariy ma'lumotlardan hayotiy tajriba va real kontekstga yaqinlashtirishidir. Masalan, virtual oila modellari yaratish, raqamli ssenariylar yoki ijtimoiy eksperimentlar orqali yoshlar turmushda yuz berishi mumkin bo'lgan voqeiklarga psixologik va axloqiy jihatdan tayyorlanish imkoniga ega bo'ladi. Bu esa ularda ongli munosabat, barqaror dunyoqarash va mas'uliyatli hayot tarzini shakllantiradi.

Qisqasi, innovatsion pedagogik yondashuvlar bilimni “berish” emas, “bilish”, anglash, his qilish

va faol ishtirok orqali o'zlashtirishga qaratilgan. Bu esa o'smirlarning nafaqat nazariy jihatdan, balki real hayotda ham oilaviy munosabatlarga tayyor bo'lishlarini kafolatlaydi.

Xulosa qilib aytganda, o'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda nazariy-ilmiy va innovatsion pedagogik yondashuvlar samarali tarbiya va ta'lim jarayonini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Nazariy-ilmiy yondashuvlar – psixologiya, pedagogika, sotsiologiya kabi fanlarga tayanadi hamda o'smirlarning shaxsiy, ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishini chuqur o'rganishga yo'naltirilgan. Innovatsion yondashuvlar esa axborot texnologiyalari, interaktiv mashg'ulotlar va amaliy loyihalar orqali bilimni hayotga tatbiq etish imkonini yaratadi. Bu ikki yondashuvning uyg'unligi yoshlarda ongli turmush qurish, mas'uliyatni his etish, munosabatlar madaniyati va hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishga zamin yaratadi. Shuning uchun zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonida ushbu yondashuvlarni kompleks qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi **takliflarni** berish mumkin:

- o'quvchi simulyatsiya, test va videodarslar yordamida turli oilaviy rollarni sinab ko'radigan raqamli platforma yaratish;
- maktab va kollejlarda multimedia qurilmalari orqali turmush mashqlari, byudjet tuzish va muloqotni o'rgatuvchi laboratoriyalar tashkil etish;
- “Ideal oila” kabi mavzularda teatrlashtirilgan bahs va rol o'yinlari orqali yoshlarda mas'uliyat va tanqidiy fikrlashni shakllantirish;
- o'qituvchilarni yangi metodlar va AKTga asoslangan interfaol o'qitish usullarini o'rgatuvchi kurslar orqali qayta tayyorlash.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. – Toshkent: “Hilol-Nashr”, 2013. 504-b. 343-b.
2. <http://jarchi.kz/bola-tarbiyasi-va-ota-onaning-obrusi/>
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Zebuniso-Konigil / 4-tom. Bosh tahrir hay'ati a'zolari: M.Aminov va b. – T.: “O'zbekistan milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. 169-bet.
4. Zritneva Ye.I. Semevedenie / Ye.I. Zritneva, N.P. Klushina. – M.: VLADOS, 2016. - 246 s.
5. Nishonova S.R. Oila psixologiyasi va bolalar tarbiyasi. – T.: “Fan”, 2019.

Mushtari ESHONQULOVA,
Termiz davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

MALAKAVIY AMALIYOTDA UCHRAYDIGAN MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada malakaviy amaliyot jarayonida uchraydigan muammolar va ularning samarali yechimlari ilmiy tahlil qilindi. Tadqiqot davomida kuzatish, suhbat va taqqoslama tahlil metodlaridan foydalanilib, talabalar va amaliyot rahbarlarining fikrlari o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, amaliyot jarayonida nazariya va amaliyot o'rtasidagi tafovut, tashkiliy kamchiliklar, metodik qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi hamda talabalar psixologik muammolari eng dolzarb masalalar sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, mentorlik tizimi joriy etilgan hamda ta'lim muassasalari bilan ishlab chiqarish korxonalari o'rtasida muntazam hamkorlik mavjud bo'lgan holatlarda amaliyot samaradorligi sezilarli darajada oshishi aniqlandi.

Kalit so'zlar: malakaviy amaliyot, tashkiliy muammolar, metodik qo'llab-quvvatlash, psixologik omillar, mentorlik tizimi, ta'lim – ishlab chiqarish integratsiyasi.

Annotation: this article provides a scientific analysis of the problems encountered in the process of qualification practice and their effective solutions. During the study, methods of observation, conversation, and comparative analysis were used, and the opinions of students and practice supervisors were studied. The results showed that in the process of practice, the discrepancy between theory and practice, organizational shortcomings, lack of methodological support, and psychological problems of students are manifested as the most pressing issues. At the same time, it was established that the effectiveness of practice increases significantly in cases where a mentoring system is implemented and there is regular cooperation between educational institutions and production enterprises.

Key words: qualification practice, organizational problems, methodological support, psychological factors, mentoring system, educational-production integration

Аннотация: в данной статье научно проанализированы проблемы, возникающие в процессе квалификационной практики, и их эффективные решения. В ходе исследования были использованы методы наблюдения, беседы и сравнительного анализа, изучены мнения студентов и руководителей практики. Результаты показали, что в процессе практики наиболее актуальными вопросами являются разрыв между теорией и практикой, организационные недостатки, отсутствие методической поддержки, а также психологические проблемы студентов. В то же время было установлено, что эффективность практики значительно повышается при внедрении системы наставничества и наличии регулярного сотрудничества между образовательными учреждениями и производственными предприятиями.

Ключевые слова: квалификационная практика, организационные проблемы, методическая поддержка, психологические факторы, система наставничества, интеграция образования и производства

Kirish. Malakaviy amaliyot oliy ta'lim jarayonining eng muhim bosqichlaridan biri sifatida talabalarning nazariy bilimlarini real kasbiy faoliyat bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Ta'lim jarayonida o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni amalda qo'llash, kelajakdagi kasbiy faoliyat uchun zarur tajriba to'plash, shuningdek, mehnat bozoriga tayyor mutaxassis sifatida shakllanishda amaliyotning roli beqiyosdir. Shu bois, malakaviy amaliyot talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va mustahkamlashda, ularning mustaqil faoliyat yuritish qobiliyatini oshirishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Biroq amaliyot jarayoni hamisha ham kutilgan samarani bermaydi. Chunki amaliyot o'tkaziladigan tashkilotlar bilan oliy ta'lim muassasalari o'rtasida hamkorlikning yetarli darajada rivojlanmaganligi, amaliyot dasturlarining ishlab chiqarish talablari bilan to'liq mos kelmasligi, shuningdek, talabalarda kasbiy faoliyatga oid psixologik va motivatsion muammolar mavjudligi jarayon samaradorligini pasaytiradi. Bundan tashqari,

amaliyot o'tkaziladigan joylarda metodik rahbarlikning yetishmasligi va baholash tizimidagi kamchiliklar ham talabalarni o'z bilim va ko'nikmalarini to'liq namoyon etishiga to'sqinlik qiladi. Shu nuqtayi nazardan, malakaviy amaliyotda uchraydigan muammolarni aniqlash va ularning samarali yechimlarini taklif etish zamonaviy ta'lim tizimi uchun dolzarb masala hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili.

Malakaviy amaliyotning ta'lim jarayonidagi o'rni haqida ko'plab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar fikr bildirgan. Dewey (1938) tomonidan ilgari surilgan tajriba asosidagi o'qitish nazariyasi o'quvchilarni amaliy faoliyatga jalb etish orqali ularning bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash zarurligini ta'kidlaydi. Kolb (2015) esa "tajribaviy o'qitish modeli"ni ishlab chiqqan bo'lib, bunda bilim olish jarayoni to'rt bosqich: konkret tajriba, refleksiya, abstrakt tushuncha va faol eksperiment orqali amalga oshirishini asoslagan. Bu model bugungi kunda malakaviy amaliyotning ilmiy-metodik asoslarini shakllantirishda

keng qo'llanmoqda. Eraut (2007) esa o'quvchilar real mehnat muhitida bilim olish jarayonida rasmiy va norasmiy o'rganish shakllarini ajratib ko'rsatgan. So'nggi yillarda xalqaro miqyosda ham ushbu masala keng muhokama qilinmoqda. UNESCO (2020) hisobotida ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini mustahkamlash, talabalarni amaliy faoliyatga jalb etishda dual ta'lim tizimi samarali natija berishini ko'rsatgan. Shu bilan birga, OECD (2019) ma'lumotlariga ko'ra, malakaviy amaliyot jarayonida nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash mamlakatlarning mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim omil hisoblanadi.

Metodologiya.

Mazkur tadqiqotda kuzatish, suhbat va taqqoslama tahlil metodlaridan foydalanildi. Malakaviy amaliyot jarayonida ishtirok etgan 50 nafar talaba va 10 nafar amaliyot rahbari bilan suhbat o'tkazildi. Olingan ma'lumotlar mavjud ilmiy manbalar bilan qiyoslandi va umumlashtiruvchi xulosalar chiqarildi.

Natijalar va muhokama.

Tadqiqot davomida olingan kuzatishlar va suhbat natijalari shuni ko'rsatdiki, malakaviy amaliyot jarayonida ko'plab qiyinchiliklar mavjud bo'lib, ular talabalarining kasbiy tayyorgarligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Eng avvalo, talabalar nazariy bilimlar bilan amaliy faoliyat o'rtasida sezilarli tafovut borligini qayd etdilar. Masalan, pedagogika yo'nalishida tahsil olayotgan bir talaba o'tkazilgan suhbatda dars jarayonida o'rgangan metodik nazariyalarini amaliyot o'tkazilayotgan maktabda qo'llashga qiynalganini, chunki u yerda mavjud sharoit va o'quvchilarning darajasi nazariy modellardan farq qilganini ta'kidladi. Shunga o'xshash holat iqtisodiyot yo'nalishida tahsil oluvchi talabalar orasida ham kuzatildi: ular universitetda o'rgangan hisob-kitob uslublarining ishlab chiqarish korxonalarida qo'llanayotgan zamonaviy dasturiy ta'minotlardan farq qilishi sababli dastlabki bosqichlarda katta qiyinchiliklarga duch kelishdi. Metodik muammolar ham keng tarqalgan. Suhbat o'tkazilgan talabalar orasida deyarli yarmi amaliyot rahbarlari tomonidan yetarlicha metodik ko'mak olmaganini qayd etdi. Bu esa, talabalar faoliyatida ishonchsizlik va xatolarning ko'payishiga olib kelgan. Bir amaliyotchi talaba o'z tajribasini shunday ifodalagan: "Menga rahbarim ishning natijasini talab qildi, ammo qanday uslubda bajarishni tushuntirmadi. Natijada birinchi haftalarda ko'p vaqtim samarasiz o'tdi". Bu kabi

holatlar talabalarining amaliy jarayondagi motivatsiyasini pasaytirganini kuzatish mumkin.

Psixologik qiyinchiliklar ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, yangi jamoaga kirib borish jarayonida talabalar o'zini noqulay his qilgan, ba'zilar esa o'z bilimlariga shubha qilgan. Masalan, tibbiyot yo'nalishi talabasi bilan suhbatda u ilk bor bemor bilan muloqot qilganida hayajon kuchli bo'lganini va xatolarga yo'l qo'ygani, biroq vaqt o'tishi bilan tajribali mutaxassislar yordamida bunday qiyinchiliklarni yengib o'tganini aytib o'tdi. Demak, psixologik qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining mavjudligi talabaning tezroq moslashishiga yordam beradi. Tadqiqot davomida ayrim ijobiy tajribalar ham aniqlandi. Masalan, axborot texnologiyalari sohasida amaliyot o'tayotgan talabalar mentorlik tizimi joriy etilgan korxonalarda faoliyat olib borishdi. Bu tizimda har bir talaba tajribali dasturchi yoki muhandis bilan juftlashtirilgan bo'lib, ular jarayon davomida amaliy topshiriqlarni bajarish, xatolarni tahlil qilish va yangicha yondashuvlarni o'rganishda bevosita yordam oldilar. Natijada bunday talabalar nafaqat kasbiy malaka, balki mustaqil yechim topish ko'nikmasini ham rivojlantirdi. Shu asosda aytish mumkinki, mentorlik tizimi malakaviy amaliyot samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Shuningdek, ta'lim muassasalari bilan ishlab chiqarish korxonalari o'rtasida mustahkam hamkorlik mavjud bo'lgan holatlarda amaliyot samarasi yuqori bo'lgani kuzatildi. Masalan, muhandislik fakulteti talabalarining amaliyoti bir necha yil davomida bir xil zavodda muntazam yo'lga qo'yilgan bo'lib, zavod rahbariyati talabalar uchun maxsus dastur ishlab chiqqan. Ushbu dasturda nazariy bilimlarni amalda qo'llash uchun bosqichma-bosqich topshiriqlar berilgan va yakunda talabalar o'z loyihalarini taqdim etgan. Natijada, ushbu talabalar keyinchalik o'sha korxonaga ishga qabul qilingan hollari ham kuzatilgan..

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, malakaviy amaliyotni faqat nazariy bilimlarni sinovdan o'tkazish vositasi sifatida emas, balki talabaning shaxsiy va kasbiy rivojlanishida muhim bosqich sifatida tashkil etish lozim. Agar bu jarayon tizimli va puxta rejalashtirilsa, ta'lim muassasalari zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardosh, malakali va ijodkor mutaxassislarni tayyorlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu sababli, malakaviy amaliyotga oid mavjud muammolarni hal etish va ilg'or tajribalarni joriy etish nafaqat ta'lim tizimi, balki butun jamiyat taraqqiyoti uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dewey, J. (1938). Experience and Education. Kappa Delta Pi.
2. Kolb, D. A. (2015). Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development (2nd ed.). Pearson Education.
3. Kolb, D. A. (1984). Experiential Learning Theory and Learning Styles.
4. Eraut, M. (2007). Formal and informal learning in the workplace.
5. UNESCO. (2020). Global Education Monitoring Report: Inclusion and Education. UNESCO.
6. OECD. (2019). OECD Reviews of Vocational Education and Training: Estonia. OECD Publishing.

Gullola AHMADOVA,
Andijon davlat universiteti tadqiqotchisi
gullolaahmadova26@gmail.com

BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqida uchraydigan kamchilik va xatolar, ularni bartaraf etish yo'llari hamda rivojlantirish usullarining metodikasi haqida fikr va mulohazalar olib borilgan bo'lib, maqolada nutqning turlari hamda nutqiy malakaning shakllanishi kabi bosqichlar ham ko'rib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *boshlang'ich ta'lim, ona tili fani, nutq turlari, og'zaki nutq, yozma nutq, pedagogik texnologiyalar.*

Annotation: this article presents ideas and comments on the shortcomings and errors in the speech of primary school students, ways to eliminate them, and the methodology of development methods. The article also considers the types of speech and stages such as the formation of speech skills.

Key words: *primary education, native language science, types of speech, oral speech, written speech, pedagogical technologies.*

Аннотация: в статье представлены идеи и комментарии относительно недостатков и ошибок в речи учащихся начальной школы, способов их устранения и методики развития. Также рассматриваются виды речи и этапы формирования речевых навыков.

Ключевые слова: *начальное образование, родное языкознание, виды речи, устная речь, письменная речь, педагогические технологии.*

Bugungi globallashuv davrida inson kapitalining poydevori bo'lgan ta'lim tizimi oldiga yangi vazifalar qo'yilmoqda. Ular orasida bolani mustaqil fikrlovchi, erkin nutq sohibi sifatida shakllantirish, og'zaki va yozma muloqotda aniq, mantiqiy ifoda bera olishiga imkon yaratish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Boshlang'ich sinflarda ona tili darslari aynan mana shu vazifani bajaradi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchining shaxsiy rivojlanishi, fikrlash faoliyati, til madaniyati va nutqiy kompetensiyasining shakllanishida ona tili darslarining o'rni beqiyosdir. Ayniqsa, nutqni rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar, interaktiv mashg'ulotlar, ijodiy yondashuvlar bolada og'zaki va yozma ifoda qilish ko'nikmalarini erta bosqichdan boshlab shakllantiradi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich ham: "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz" [1;14] – degan nutqlarida ham aynan yosh avlodni yanada barkamol qilib tarbiyalashga qaratilgan deya olamiz.

Boshlang'ich ta'lim — bu o'quvchilarning shaxs sifatida shakllanishida muhim bosqich hisoblanadi. Ayniqsa, bu davrda nutqni rivojlantirish, fikrni erkin bayon etishga o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Ona tili darslari aynan shu maqsadga xizmat qiluvchi asosiy fanlardan biridir.

Nutqni rivojlantirish ona tili darslarining ajralmas qismidir. Bu yo'nalishda olib boriladigan ishlar o'quvchilarning nafaqat til bilimi, balki tafakkuri, dunyoqarashi, ijodkorligi va ijtimoiy faolligini ham oshiradi. O'qituvchi metodik jihatdan

to'g'ri yondashgan taqdirda har bir o'quvchining individual nutq salohiyati yuksaladi.

Ona tili fani esa bular orasida eng asosiy va muhim sanaladi. O'quvchining bilimi, dunyoqarashi rivojlana borgan sari, uning nutqi va tafakkuri ham muttasil o'sib boradi. Ravon, ixcham, ta'sirli nutq tinglovchiga huzur bag'ishlaydi. Maktabning asosiy vazifalaridan biri o'z o'quvchilarini ana shunday so'zlashga o'rgatishdir. Maktab o'qituvchilarining, birinchi navbatda, ona tili o'qituvchisining vazifasi o'quvchilar nutqidagi nuqsonlarning oldini olib, nutqini sheva ta'siridan, har xil so'zlar ta'siridan tozalash va adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda so'zlashga o'rgatishdir. O'quvchilar nutqiga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat:

1. Nutqning nutq sharoitiga mosligi. Nutq sharoiti deganda nutq yaratilayotgan paytda so'zlovchi va tinglovchining sharoiti tushuniladi. Masalan, so'zlovchi bitta, tinglovchi ko'p bo'lsa, so'zlovchining baland ovoza to'xtam (pauza)larga rioya qilib, fikrni izchil va bir-biriga bog'liq ravishda bayon qilishi talab etiladi. Bunday nutqning o'ziga xos ko'rinishi o'quvchining nazariy masalalarni yoritish yoki uy topshiriqlarini bajarish jarayonidagi javoblarida, ma'lum bir mavzuni sinfda, biror yig'inda ochib berishdagi nutqida o'z aksini topadi. Nutq sharoitining muhim tarkibiy qismlaridan biri so'zlovchining tinglovchilar saviyasini hisobga olishi hamdir.

2. Nutqning mazmundorligi. O'quvchi nutqi nutq sharoitiga mos tushsa hamda uning o'zi bilgan va xabardor bo'lgan voqea-hodisalarni og'zaki va yozma shakllarda bayon qilsagina mazmunli bo'ladi. Aniq dalillar, o'quvchining shaxsiy kuzatish yoki taassurotlari, his-tuyg'ulari asosida yuritgan fikrlari o'zgalar diqqatini o'ziga tortadi.

3. Nutqning mantiqan to'g'ri, aniq va izchil bo'lishi. Nutqda har bir fikr mantiqan asoslangan bo'lsagina, uning ta'sirchanligi ortadi. Bu har bir o'quvchidan narsa, voqea-hodisaga sinchkovlik bilan qarash, ularning har biriga to'g'ri baho bera olish, shu yo'l bilan nutqni muntazam va izchil qurish, uni isbotlay bilishni talab etadi. O'quvchi fikrni bayon etayotganda bir fikrni ikkinchisi bilan mantiqan to'g'ri bog'lay olishi, mavzuga aloqador bo'lgan asosiy fikrlarni ikkinchi darajali fikrlardan farqlay bilishi, qaytarilgan takror fikrlarga yo'l qo'ymasligi kerak.

4. Nutqning boy va rang-barang bo'lishi. Nutqning boy va rang-barangligi, avvalo, fikrni bayon qilishda o'zbek tilining leksik imkoniyatlari: ma'nodosh, uyadosh va qarama-qarshi ma'noli so'zlardan, tasviriy ifoda va iboralardan, maqol va matallardan, ko'chma ma'noli so'zlardan, o'xshatish, sifatlash kabi badiiy til vositalaridan keng va o'rinli foydalanishda namoyon bo'ladi.

5. Nutqning grammatik jihatdan to'g'ri qurilgan bo'lishi. O'quvchi so'z, so'z birikmasi va gaplarni bir-biriga bog'lash, kelishik va egalik qo'shimchalarini o'rinli qo'llash, gapning ega va kesimini moslashtira bilish kabi malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi shart.

6. Nutqning ohangdor, ta'sirli bo'lishi. Ohang o'quvchi nutqining ta'sirchanligini oshirish vositasi sanaladi. O'quvchi har bir she'riy yoki nasriy asarni ohangdorlikka amal qilgan holda, sintagmalarga rioya qilib, mantiqiy uni to'g'ri qo'llab o'qishi zarur.[3; 5]

Yuqorida keltirilgan usullar o'quvchilarning darsda faolligini oshirish bilan birga bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yengillashtirish va mustahkamlash, nutq o'stirishga yo'naltirilgan har bir mashg'ulotni qiziqarli tashkil etishga xizmat qiladi. Jamiyatimizni erkinlashtirish g'oyasi bevosita ta'lim jarayonida o'z ifodasini topib, uni yangidan tashkil qilish va mazmunini o'zgartirish, yanada insonparvarlashtirish, ijtimoiylashtirish va demokratlashtirish asosida ta'minlanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san'atimiz ham, albatta, bo'ladi".

Nutqiy rivojlanish jarayonini A.N.Leontev quyidagicha tavsiflaydi: Nutqni «rivojlantirish jarayoni bola lug'atining va so'zlarning assotsiatsiya asosida bog'lanishining ortishida ifodalanadigan miqdoriy o'zgarishlar jarayoni emas, balki sifat jihatidan o'zgarish jarayonidir, zero, u fikrlash va ong rivojlanishi bilan ichki bog'langan holda so'zning barcha

funksiyalari, tomonlari va aloqalarini qamrab oladigan haqiqiy rivojlanish jarayonidir»[4;108]

Nutqni o'stirish bu to'g'ri nutqni o'zlashtirish, egallash jarayoni bo'lib, til vositalari (fonetika, leksika ya'ni lug'at va boshqalar) orqali o'z fikrlarini ifodalash, tushuntirish mexanizmlaridir. O'qituvchi dars jarayonida o'quvchilarning nutqni o'zlashtirishga qaratilgan faoliyatiga ko'proq e'tibor qaratish lozim.

Nutq – kishi faoliyatining turi, til vositalari (so'z, so'z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq bu shaxsda o'zaro aloqa va xabar funksiyasini, o'zaro fikrni his-hayajon bilan ifodalash va ta'sir etish vazifasini bajaradi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishining faol faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O'quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish qurolidir. Aynan shuning uchun ham biz boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini o'stirishga katta ahamiyat berishimiz lozim. Nutq o'stirish nima? Agar o'quvchi va uning tildan bajargan ishlari ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda, tilni har tomonlama (talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishini, bog'lanishli nutqni) aktiv amaliy o'zlashtirish tushuniladi.

– nutqning morfologik va sintaksis tomonlarini shakllantirishni davom ettirish;

– sodda va qo'shma gaplar tuzish, bunda barcha so'z turkumlaridan foydalanishga o'rgatish, bolalarni gapirganda sonni otga, sifatni otga, sifatni fe'lga to'g'ri ishlatish malakalarini takomillashtirish;

– tovush va so'zlarni to'g'ri talaffuz etishga, ravon gapirishga;

– mustaqil hikoya qilishga e'tibor beriladi.[5; 432]

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, nutq o'stirish metodikasining asosiy vazifasi tarbiyachilarni maktabgacha ta'limda nutq o'stirishning ilmiy pedagogik asoslangan, eng samarali natija beradigan omillari, vositalari va usullarini ishlab chiqish, tarbiyachi, pedagog, ota-onalarni nutq o'stirish usullari haqidagi bilimlar bilan qurollantirish, eng qulay usullardan foydalanish, nutq o'stirish mashg'ulotlarini tashkil etish samaradorligini oshirishga doir bilimlar bilan qurollantirishdan iboratdir. Shuningdek, nutqning ifodaliligi, nutq tovushlarini to'g'ri, aniq talaffuz etish, tilning grammatik shakllaridan nutqda to'g'ri foydalanish, badiiy asarni tinglash, tushunish, mazmunni eslab qolish va so'zlab berish, asar qahramonlari nutqi xususiyatlarini ajrata bilish, obrazli bayon etish kabi amaliy intellektga ega bo'lishni rivojlantiradi, maktabga nutqiy jihatdan tayyorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда кураимиз. – Т.: Ўзбекистон, 2016. – 14- б.
2. Karima Qosimova, Safo Matchonov v.b. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: "Nosir", 2009.351-b
3. Ergasheva M. Ona tili darslarida nutqni rivojlantirish usullari. Nauki ob obrazavaniya. 2023
4. Леонтьев А.Н. Проблема деятельности в психологии. // Ж. Вопросы философии. — 1972. -№ 9. С.95-108
5. D.R. Babayeva. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. (Darslik). – Т.: «Barkamol fayz media», 2018. 432-b.
6. Abdullayeva Q. Nutq o'stirish. – Т.: "O'qituvchi", 1980. 66-b.
7. Muhiddinov A. O'quv jarayonida nutq faoliyati. – Т., 1995. 78-b.

Gavhar RAHIMOVA,
 Uzun tumani 60 – maktab o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA KASBIY REFLEKSIYA TUSHUNCHASINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda o'qituvchining kasbiy refleksiya tushunchasi, uning mazmuni va ahamiyati nazariy-metodologik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Kasbiy refleksiya – o'qituvchining o'z pedagogik faoliyatini baholashi, tahlil qilishi va doimiy rivojlantirishga intilishi bilan bog'liq jarayondir. Tadqiqotda reflektiv yondashuvning boshlang'ich ta'lim sifatiga ta'siri va o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishdagi roli yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy ta'limda refleksiyaning dolzarbligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: ta'lim, refleksiya, pedagog, metodologiya, tahlil, o'qituvchi.

Annotation: this article analyzes the concept of professional reflection in primary education, its meaning, and significance from a theoretical and methodological perspective. Professional reflection involves a teacher's ability to evaluate, analyze, and continuously improve their pedagogical practices. The study highlights the impact of a reflective approach on the quality of primary education and its role in developing professional competence. The relevance of reflection in modern education systems is also substantiated, emphasizing its importance in teacher development and educational effectiveness.

Key words: education, reflection, pedagogue, methodology, analysis, teacher.

Аннотация: в данной статье рассматривается понятие профессиональной рефлексии в начальном образовании, её содержание и значение с теоретико-методологических позиций. Профессиональная рефлексия представляет собой процесс осмысления и анализа педагогом своей деятельности с целью её постоянного совершенствования. В исследовании раскрывается влияние рефлексивного подхода на качество начального образования и роль в формировании профессиональной компетентности учителя. Обоснована актуальность рефлексии в условиях современной образовательной системы.

Ключевые слова: образование, рефлексия, педагог, методология, анализ, учитель

Kirish. Biz yurtimizda yangi avlod, yangi tafakkur sohiblarini tarbiyalashdek mas'uliyatli vazifani ado etishda birinchi galda ana shu mashaqqatli kasb egalariga suyanamiz va tayanamiz, ertaga o'rnimizga keladigan yoshlarning ma'naviy dunyosini shakllantirishda ularning xizmati naqadar beqiyos ekanini yaxshi tasavvur qilamiz". Demak, bugungi kun o'qituvchisi o'z ustida tinimsiz ishlaydigan, har tomonlama keng fikrlaydigan, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini samarali qo'llay oladigan ijodkor shaxsga, yoshlarning yuragiga chuqur kirib boradigan yuksak fazilatlar egasiga aylanishini hayotning o'zi taqozo etmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, hozirgi kunda o'qituvchining pedagogik mahoratini yanada oshirish muammosi davr talabidir. Pedagogik mahorat qirralarining turli jarayonlarini ko'rib chiqar ekan, olimlar o'qituvchining pedagogik faoliyatida fikrlash hamda analitik qobiliyatlarini rivojlantirish

muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydilar. Bu qobiliyatlar asosini esa, o'qituvchining kasbiy refleksiya tashkil etadi.

Tahlil va natija. N.V.Kuzminaning fikricha, refleksiyaning "mazmuni, sherigining ichki dunyosini o'zaro hamkorlik asosida subyektiv qayta yaratishdan iborat bo'lgan individlar bir-birlarini ko'zgudagi kabi aks ettirishi, o'zaro aks ettirishning o'ziga xos ikki tomonlamalik jarayoni, qolaversa, bu ichki dunyoda, o'z navbatida, birinchi tadqiqotchining ichki dunyosi aks etishidir".

U refleksiyaning pedagogik qobiliyatlar nuqtayi nazaridan o'rganib, ilk bor o'qituvchining refleksiv-perseptiv qobiliyatlarini alohida komponent sifatida ajratadi. N.V.Kuzmina pedagogik intuitsiyaning shakllanishi refleksiv pedagogik qobiliyatlarning shakllanganlik darajasiga bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. "Yaxshi intuitsiya o'qituvchining izlangan natijalarga erishishida tayanishi mumkin bo'lgan

o'quvchining eng olijanob, ijobiy sifatleri haqidagi axborotlarni ekstrapolyatsiyalaganda namoyon bo'ladi"¹.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarini o'qitish jarayonidayoq refleksiya mexanizmlarini o'zlashtirishi o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi uchun yangi imkoniyatlar ochishi ta'kidlanadi. O'qituvchining refleksiv individualligi modelini yaratishni hozirgi kunda ko'plab olimlar taklif qilmoqdalar. Ma'lum pedagogik-psixologik sharoitlarda bo'lajak o'qituvchining shaxsiy kasbiy o'z-o'zini o'rganishini talqin qilishi boshlang'ich nazariy asos va jadval vazifasini o'taydi. Bo'lajak o'qituvchining professional refleksiyasini oliy pedagogik ta'lim muassasalari ta'lim-tarbiya jarayonini individualizatsiyalashtirish asosida rivojlantirish mumkin.

Kommunikativ va shaxsiy refleksiyani o'rgangan V.A.Krivosheevning ta'kidlashicha, o'qituvchi o'z faoliyatida pedagogik mahoratni o'zlashtirgani sari hamkasblari va o'quvchilar u haqida nima o'ylashlarini ancha yaxshi tushuna boshlaydi, chuqur o'zlashtirilgan bilim va pedagogik mahorat tufayli o'qituvchi o'z-o'zini baholashga kirishadi. Kommunikativ refleksiya shaxsiy refleksiyaning mazmunini, tizimini va aynan bir xilligini belgilaydi, degan xulosaga keladi muallif.

Ba'zan pedagogik kommunikatsiyada ro'y beradigan uzilishlar, ya'ni o'quvchilar jamoasidagi faoliyatni "tushunmaslik holatlari" tufayli davom ettira olmaslik, pedagogik faoliyatdan refleksiv chiqishga olib keladi, zero ikkinchi o'qituvchi, birinchisining faoliyati mazmunini anglay olmaydi va natijada ularning ikkalasi ham nizo sabablarini tahlil qilishlariga to'g'ri keladi. Individual refleksiya, individlararo refleksiyaning alohida maxsus shakli, deb hisoblaydi ba'zi olimlar.

A.A.Bizyaeva o'qituvchining kasbiy refleksiyasidagi o'ziga xos jihatlarni o'rganar ekan, diqqatini o'qituvchi refleksiyasining boshqa inson faoliyatini tahlil qilish va anglash, shuningdek o'zini tahlil qilish va o'z-o'zini baholash zaruriyati bilan bog'liq bo'lgan asosiy omillariga qaratadi. Olimaning tadqiqotlarida aniqlanishicha, o'qituvchilarning intellektual refleksiya darajasi ularning kasbiy refleksiyasiga bevosita emas, balki uning mahorat komponentlari orqali bilvosita bog'liq. Bu olimaga

intellektual refleksiyani o'qituvchilarning kasbiy refleksiyasi rivojlanishi uchun asos sifatida baholash imkoniyatlarini beradi. Bizningcha, bular o'qituvchining uzluksiz kasbiy o'sishini ta'minlash uchun tayanch sifatlar sanaladi.

Refleksiv qobiliyat o'qituvchiga pedagogik bilimlarni o'zlashtirish va amaliyotda undan foydalanish jarayonida muhim ahamiyatga ega. "Bu holda, - deb yozadi Yu.N.Kulyutkin, - o'qituvchi o'zining pedagogik mahoratidan foydalanib amaliy qarorlarni ishlab chiqishi va qabul qilishi jarayonlarini" refleksiya predmetiga aylantirishi lozim. "Buning uchun esa o'qituvchida bu jarayonlarni tahlil qilishning tegishli tafakkur usullari shakllangan bo'lishi kerak"².

Rivojlangan pedagogik refleksiyasiz, o'qituvchi doimiy tahlil va o'z-o'zini tahlilsiz amaliy va nazariy pedagogik faoliyatda yuzaga keladigan muammolarni va ziddiyatlarni chuqur anglashi, ularni doimiy tahlil qilishning yo'llarini to'g'ri tanlashi, olingan natijalarni tanqidiy baholashi va ularni korreksiyalashi mumkin emas.

G.M.Kodjaspirova pedagogik refleksiyani insonning o'z-o'zini anglashi deb, bunda "nafaqat o'qituvchi o'z xatti-harakatlariga to'g'ri baho berishi, balki, o'qituvchi bilan pedagogik muloqot chog'ida o'zaro hamkorlik qiladigan o'quvchilar jamoasi, pedagogik jamoa, ta'lim-tarbiyaga mas'ul shaxslar va ota-onalar uni qanday qabul qilishini tushuna olish qobiliyati hamdir", -deb ta'riflaydi. Demak, refleksiya - o'qituvchining o'z-o'zini anglashi o'zining kamchiligi va zaif tomonlarini bilib o'z-o'zini takomillashtirishga intilishi, o'z tarbiyalanuvchilarining hamda o'z-o'zini takomillashtirishga zarur shart-sharoitlar yaratishi uchun mavjud ichki imkoniyatlarini kashf etishidir.

Yu.N.Kulyutkina, Ya.S.Turbovskiy, P.V.Xudominskiy kabi tadqiqotchilarning fikricha, o'qituvchining pedagogik faoliyati, mazmunan refleksiv xususiyatga ega bo'lib, u barcha refleksiv jarayonlarni qamrab oladi. Qayd etish joizki, hozirgi kungacha pedagogik refleksiya tushunchasining mukammal tasnifi mavjud emas. Ehtimol mazkur hodisani o'rganish psixologiya, pedagogika, pedagogik psixologiya, falsafa kabi fanlarning o'zaro aloqadorligida amalga oshirilishi bilan bog'liq holda hal qilinar. B.Z.Vulfov, V.N.Xarkin kabi olimlar

¹ Ochilov M. Ochilova N. O'qituvchi odobi.— Toshkent: O'qituvchi, 1997.

² Ochilov M. Ochilova N. O'qituvchi odobi –Toshkent: O'qituvchi, 1997.

refleksiyani – insonning o'zini anglashi, kasbiy refleksiyani esa – o'zini kasbiy faoliyati davomida anglashi, o'qituvchi mahoratida pedagogik refleksiyani – pedagogik kasbiy omilkorlikda o'zini anglashi deb ta'riflaydilar.

G.M.Kodjaspirova o'qituvchining pedagogik faoliyati barcha qirralari bilan refleksiv hodisa bo'lsa, demak bu pedagogik refleksiya, degan nuqtayi nazarni ilgari suradi. Shu munosabat bilan ta'kidlash joizki, o'qituvchining kasbiy faoliyatida refleksiya muhim rol o'ynaydi. B.Z.Vulfovning fikriga ko'ra, kasbiy refleksiya jarayonida o'qituvchi o'zi tanlagan pedagogik kasbi talab qiladigan darajada o'z imkoniyatlarini, u haqidagi mavjud tasavvurlarini pedagogik tajribasining muhim jihatlari bilan nisbatlaydi, va "ixtiyoriy ravishda shaxsiy pedagogik mahorat zanjiri"ni hosil qiladi. Uning fikr mulohazasi L.S.Rubinshteynning pedagogik faoliyatdagi tashqi sabablarning ichki shart-sharoitlar asosida bilvosita harakati haqidagi mashhur qoidasini tasdiqlaydi.

O'qituvchi pedagogik mahoratning asosiy xususiyatlaridan biri uning rivojlanishida uzluksizlikning mavjudligidir. Demak, refleksiv jarayonda o'qituvchining kasbiy mahorati, kasbiy sifatleri mavjudmi yoki yo'qmi deb qayd etish kerak emas, balki ularning rivojlanishini, boyib borishini, kuchayishini rag'batlantirish inobatga olinishi lozim. Ta'lim jarayoni aynan shunga xizmat qilishi kerak, qachonki bilimlar, ko'nikma va malakalar ongli ravishda o'z-o'zini takomillashtirishga ichki undov bilan qabul qilinsagina u ishlanadi.

Pedagog olimlar G.A.Golitsin va G.P.Shedrovskiyning ishlarida refleksiyaga o'qituvchi pedagogik faoliyati rivojlanishining asosiy omili va tabiiy mexanizmi sifatida katta ahamiyat berilgan. G.P.Shedrovskiy refleksiyani insonning "ijobiy faoliyatlari majmuasi" nuqtayi nazaridan o'rganishni taklif qiladi. U qandaydir pedagogik faoliyatni amalga oshirish mumkin bo'lmasa, bu g'oya asosida ushbu faoliyat doirasidan tashqariga "refleksiv chiqish" tizimi quriladi, deb hisoblaydi. Bunda inson amalga oshirilmagan faoliyatdan, yangi faoliyat pozitsiyasiga o'tadi va "fikran ma'nolar qurish" vositalariga ega bo'ladi, ulardan kelib chiqib, birlamchi faoliyatni tushunadi va tavsiflaydi, bunda ikkinchi yangi faoliyatda birinchisidan muhim "material" sifatida foydalanadi.





Xulosa. Olimlarning bu kabi xulosalari **kasbiy refleksiya** o'qituvchining o'z-o'zini rivojlantirishda shijoati, kasbiy faoliyatiga oid yangiliklarni muntazam izlanishida, ijodkorligida namoyon bo'lishi bilan asoslanadi, demak refleksiya o'qituvchining o'z-o'zini kasbiy takomillashtirishiga ham asos bo'ladi, deb aytish mumkin.

O'qituvchining kasbiy refleksiyasiga pedagogik fikrlashning zarur tarkibiy qismi sifatida qarash mumkin, u o'qituvchiga o'z kasbiy faoliyatiga tahliliy yondashishni, o'zining pedagogik faoliyatdagi o'rnini aniqlash va rejalashtirilayotgan ishlarda ijobiy natijalarga erishish uchun pedagogik faoliyatni maqsadli o'zgartirishning optimal yo'llari va konstruktiv vositalarini topish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ochilov M. Ochilova N.O'qituvchi odobi. –Toshkent: O'qituvchi, 1997.
2. Kulmamatova, F. (2025, February). Yoshlarda Destruktiv Xulq-Atvor Shakllanishining Muammolari. In Innovate Conferences (pp. 6-10).
3. Sharafutdinova, K. G., Kulmamatova, F. K., & Haydarova, S. (2021). The role of cognitive psychology in the elimination of destructive behavior. Asian Journal Of Multidimensional Research, 10(4), 957-964.
4. Kulmamatova, F. (2025). Psychocorrectional Program For Eliminating Destructive Behavior In Youth. Interpretation and Researches. извлечено от <https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/3475>
5. Farmonova, s. Boshlang 'ich sinflarda ta'lim mazminini yangilash va ona tili o'qitishni ijodiy tashkil etish."педагогическая акмеология" международный научно-методический журнал,2022. 2(2).
6. Farmonova, S. (2021). Pedagogical and Innovative Activities in Project Education. International Journal of Culture and Modernity, 1(6), 176-180.

KICHIK TADQIQOT



Dilnoza UNGALOVA,
 Samarqand davlat chet tillar instituti magistri.
 Email: azizbek.ungalov111@mail.ru

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI TERMINLARINING TASNIFI VA TARJIMADA LINGVISTIK YONDASHUVLAR

Annotatsiya: mazkur maqolada zamonaviy axborot texnologiyalari (AT) sohasidagi terminlarning lingvistik xususiyatlari va ularning tarjima jarayonidagi yondashuvlari tahlil qilinadi. Maqolada AT terminlarining **tuzilmasi**, **kelib chiqishi** va **yasalish usuli** bo'yicha tasniflash hamda tarjimada qo'llaniladigan strategiyalar o'rganilgan. Ingliz tili AT sohasida **lingua franca** darajasiga ko'tarilgani sababli ko'plab terminlar xalqaro miqyosda bir xilda qo'llanmoqda. Shu bilan birga, o'zbek tilida ushbu terminlarning milliy ekvivalentlarini yaratish va tatbiq etish jarayoni kechmoqda. Maqolada terminlarning oddiy, murakkab va ko'p so'zli turlari ajratilib, ularning aksariyati ko'p so'zli birikmalar ekani aniqlangan. Termin yaratilishining asosiy usullari – affiksatsiya, so'z birikmasi yasash, qisqartma, begona tillardan o'zlashma, kalkalash va semantik kengayish – misollar asosida ko'rsatilgan. AT terminologiyasining rivojlanishi jarayonida **xalqaro unifikatsiya** va **mahalliyashtirish** o'rtasidagi muvozanatga, shuningdek, terminologiyada monosemiya tamoyiliga erishish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Tarjimonlik nuqtai nazaridan, maqolada terminlarni tarjima qilishda uchraydigan muammolar va ularni hal etish strategiyalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: axborot texnologiyalari, terminologiya, tarjima, xalqaro terminlar, mahalliyashtirish, lingvistik tahlil.

Аннотация: в данной статье рассматриваются лингвистические особенности терминов в сфере современных информационных технологий (ИТ) и подходы к их переводу. В статье изучена классификация ИТ-терминов по **структуре, происхождению и способу образования**, а также стратегии, применяемые при их переводе. Установлено, что английский язык фактически стал **lingua franca** в сфере ИТ, и многие термины в глобальном масштабе употребляются в унифицированном виде. Вместе с тем, в узбекском языке происходит процесс создания и внедрения национальных эквивалентов этих терминов. Выделяются простые, сложные и многословные типы терминов, причем большинство терминов состоит из нескольких слов. Показаны основные способы образования терминов – аффиксация, сложение слов, аббревиация, заимствование из других языков, калькирование и семантическое расширение – с примерами. В развитии ИТ-терминологии особое внимание уделяется балансу между **международной унификацией** и **локализацией**, а также принципу моносемии в терминологии. С точки зрения перевода, в статье освещаются проблемы, возникающие при переводе терминов, и стратегии их решения.

Ключевые слова: информационные технологии, терминология, перевод, международные термины, локализация, лингвистический анализ.

Annotation: this article examines the linguistic characteristics of modern information technology (IT) field terminology and approaches to their translation. The article explores the classification of IT terms by **structure, origin** and **word-formation method**, as well as strategies used in their translation. It is established that the English language has effectively become a **lingua franca** in the IT sphere, with many terms used in a unified form globally. At the same time, a process of creating and implementing national equivalents of these terms is underway in the Uzbek language. Simple, complex, and multi-word types of terms are distinguished, and it is found that the majority of IT terms consist of multiple words. The main term formation methods – affixation, compounding, abbreviation, borrowing, calque translation, and semantic extension – are demonstrated with examples. In the development of IT terminology, special attention is given to the balance between **international standardization** and **localization**, as well as to the principle of monosemy in terminology. From a translation perspective, the article highlights issues encountered in translating IT terms and the strategies to address them.

Keywords: information technology, terminology, translation, international terms, localization, linguistic analysis.

Kirish. Fan va texnika taraqqiyoti jarayonida yuzaga kelgan yangi atamalar – **terminlar** – tilning maxsus qatlamini hosil qiladi. Ilmiy adabiyotlarda “termin” tushunchasi aniq ta’riflangan bo’lib, u muayyan soha doirasidagi aniq bir tushunchani ifodalovchi so’z yoki iborani anglatadi [1, p. 1534]. Axborot texnologiyalari (AT) sohasidagi terminologiya, ayniqsa, jadal rivojlanmoqda va bu sohada ingliz tili jahonda asosiy manba tiliga aylangan. Natijada ko’plab tillarda ATga oid terminlar ingliz tilidan olingan holda qo’llanmoqda. Masalan, ispan tilida rasmiy AT atamaları lug’atida atigi 27,9% terminlar ingliz tilidan kelib chiqqan bo’lsa-da, kundalik qo’llanishda inglizcha terminlarning dominant saqlanib qolmoqda [2, p. 398–400]. Xuddi shuningdek, rus tilida ham ko’plab AT atamaları bevosita inglizchadan kirib kelgan va ular mahalliy til tizimiga moslashgan holda qo’llanmoqda [3, p. 32; 7, p. 1205]. Ingliz tilining AT sohasidagi ustunligi tufayli global miqyosda bir xil **xalqaro terminlar** shakllandi [3, p. 30]. Shu bilan birga, har bir milliy til, jumladan o’zbek tili, ushbu terminlarni o’zlashtirish va ularga muqobil yaratish jarayonini kechirmoqda. O’zbek tilida AT terminologiyasini shakllantirish XX asr o’rtalaridan boshlab rasmiy ravishda yo’lga qo’yilgan bo’lib [4, p. 28–29], mustaqillik davridan e’tiboran, ko’plab terminlarning ona tildagi ekvivalentlarini yaratishga intilish kuchaydi. Masalan, “informatsionnye texnologii” atamasi rus tilidan kalkalab **axborot texnologiyalari** shaklida qabul qilindi, “software” termini uchun **dasturiy ta’minot** kabi milliy atama joriy etildi. Shunday bo’lsa-da, ayni paytda o’zbek tilida **kompyuter, printer, internet** kabi ko’plab terminlar xalqaro shaklda qo’llanilmoqda.

Ushbu maqolaning maqsadi – tarjimashunoslik va terminologiya nuqtai nazaridan AT terminlarining yuqorida qayd etilgan tendensiyalarini tahlil qilish, ularni tasniflash va o’zbek tiliga tarjima qilishda qo’llaniladigan lingvistik yondashuvlarni yoritishdan iborat. Tadqiqot doirasida AT sohasiga oid asosiy terminlar va ularning o’zbek tilida qo’llanishi o’rganildi, turli tillardagi (ingliz, o’zbek, rus va boshq.) terminologik manbalar qiyosiy tahlil qilindi. Maqolada IMRAD formatiga muvofiq ravishda avvalo muammo va nazariy asoslar (Kirish), keyin tadqiqot usullari (Metodologiya), so’ngra asosiy topilmalar (Natijalar) hamda ularning muhokamasi (Munozara) bosqichma-bosqich bayon etiladi.

Metodologiya. Tadqiqotda **deskriptiv** (tasviriy) va **qiyosiy** tahlil usullari qo’llanildi. Avvalo, ingliz va o’zbek tillarida axborot texnologiyalari sohasida qo’llanadigan terminlarning korpusi shakllantirildi. Ushbu maqsadda rasmiy AT lug’atlari, standartlar

hamda ilmiy-texnik matnlardan olingan atamalar ro’yxati tuzildi. So’ng jamlangan terminlar **tuzilmasi** (leksemik tarkibi), **yasalish usuli** va **kelib chiqishi** jihatidan tasniflandi. Terminlarning o’zbek tiliga tarjimai jarayonida qo’llangan yondashuvlar – xorijiy atamani to’g’ridan to’g’ri qabul qilish, ma’nosini tarjima qilib berish, fonetik transkripsiya yoki tushunchani izohlash kabi usullar – aniqlanib, misollar yordamida tahlil qilindi. Xorijiy til manbalaridan olingan nazariy ma’lumotlar o’zbek tilidagi holat bilan qiyoslandi. Shuningdek, ilgari chop etilgan ilmiy tadqiqotlar (masalan, ispan, rus, arab, fransuz va boshqa tillardagi AT terminologiyasini o’rgangan ishlar) natijalari ham umumiy tahlilda hisobga olindi. **Statistik** usuldan foydalanib, terminlarning ayrim toifalari yuzasidan nisbiy miqdoriy xulosalar chiqarildi (masalan, birikmali terminlar ulushi, o’zlashma terminlar ulushi va hokazo). Tadqiqot natijalari keyingi bo’limda batafsil yoritiladi.

“Qaysi bir mamlakatda rasm chizishni o‘qish-yozish kabi bilsalar edi, bu mamlakat barcha sohalarda har qanday mamlakatni quvib yetadi va ortda qoldiradi” – degan edi [6:13].

Portret janri insonning ichki ruhiy olami bilan bog‘langan holda aniq bir obraz yaratilishi demakdir. Portretda insonning to‘la gavdasi, yarmi yoki yuz qiyofasining faqat o‘zi ham bo‘lishi mumkin. Portret yaratish o‘ziga xos murakkab jarayon bo‘lib, insonning anatomik tuzilishidan tortib ichki ruhiy, ma‘naviy, shuningdek, tashqi va ichki olamidagi barcha jihatlarini aks ettirishi bilan san‘at darajasiga teng. Yozuvchi tarjimaiy holini tasviriy san‘at fani bilan bog‘lab o‘rganish o‘qituvchi zimmasiga rangtasvirning zamiridagi ramziy ma‘nolarni aniqlash, asardagi har bir detalni tahlilga tortish, ijodkor ruhiyatiga uyg‘un jihatlarini ochib berishi zarur. Portret tasvirdagi rassom tasvirlagan odamlarga xos turli harakatlarni his qila bilmog‘i, ayniqsa, odamning qiyofasidagi samimiylilik yoki soxta jihatlarini tasvirlay bilish qobiliyatlariga ega bo‘lishi kerak [1:46].

Shuni ta‘kidlab o‘tish joizki, portret janri inson ma‘naviy qiyofasini o‘zida ifodalashi bilan san‘atning boshqa turlaridan birmuncha farq qiladi. Portret orqali inson obrazini mohirona ko‘rsata olgan buyuk rassomlar qatoriga jahon tasviriy san‘atida portret janrida Leonardo do Vinichi, Titsian, Rembrant, Repin singari iste‘dodli rassomlar mahorat bilan ijod qilishgan. O‘zbekistonda bu janr takomili A.Abdullayev, M.Nabiyev, Ch.Axmarov, J.Umarbekov, R.Ahmedov kabi mo‘yqalam ustalari faoliyati bilan chambarchas bog‘liq. Portret janridagi rangtasvir namunalarini yaratish, sohaning o‘ziga xos sir-asrorlarini mo‘yqalam vositasida yuzaga chiqarish uchun ijodkordan zarur amaliy ko‘nikmalar ta‘lab etiladi. Bir so‘z bilan aytganda, ijodkor hayotini u bilan bog‘liq badiiy asarlarni o‘qitishda mavzu jihatdan unga mos tasviriy portret, miniatyura yoki illyustratsiya janrlar bilan bog‘liqlikda o‘qitish asarni yanada chuqurroq anglashga zamin yaratadi. Ammo, kuzatishlarimizdan

ma‘lumki, o‘qitish davomida ulardan faqatgina didaktik vosita sifatida foydalanilmoqda. Ulardan shunchaki ko‘rsatma vositasi emas, balki ramziy ma‘nolarni anglatish, o‘quvchiga *ko‘rib anglash qobiliyatini*, dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi.

S. Kambarova adabiyot darslarida portret janrini tatbiq etish borasida quyidagi ilmiy yondashuvlarni ilgari suradi:

- ijodkor yashagan davr ruhini anglash;
- adabiyot va san‘atning taraqqiyot tendensiyalarini belgilash;
- adabiyotning boshqa sohalar bilan aloqasini o‘rganish;
- portret janridagi rangtasvir asarlarining rivojlanish bosqichlarini kuzatish;
- muallifning individualligi va mahoratini baholash;
- asardagi asosiy elementlarni o‘qish yo‘llarini o‘zlashtirish;
- portretdagi falsafiy-psixologik o‘qish yo‘llarini o‘zlashtirish;
- portretdagi falsafiy-psixologik mazmunni yoritish va h.k.”[4:28].

Badiiy adabiyotda yaratilgan eng go‘zal shaxs portretlaridan biri bu – shaxs portreti hisoblanib, uni quyida keltiramiz:

“quyuq jinggila kiprik ostidag‘i timqora ko‘zlari bir nuqtaga tikilganda, nimadir bir narsani ko‘rgani kabi... qop-qora kamon, o‘tib ketkan nafis, qiyig‘ qoshlari chimirilganda, nimadir bir narsadan cho‘chigan kabi... to‘lg‘an oydek g‘uborsiz oq yuzi bir oz qizilliqg‘a aylanganda, -kimdandir uyalg‘an kabi... Shu vaqt ko‘rpani qayirib ushlagan oq nozik qo‘llari bilan latif burnining o‘ng tomonida tabiatning nihoyatda usta qo‘li bilan qo‘ndirilg‘an qora xolini qashidi va boshini yostiqdan olib o‘lturdi”[8].

O‘quvchilarga yuqorida keltirilgan parcha portret janridan olingan namuna sifatida o‘qib eshittirilgach, ularga quyidagi ikki surat namoyish etiladi:





Kumush obrazi

Yuqorida keltirilgan suratlardan birinchisi Kumush obrazining sun'iy intellekt yordamida ishlangan surati, ikkinchisi esa "Otabek va Kumush" kinosidan olingan Kumush obrazidir. Endilikda o'quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qilish mumkin:

Keltirilgan portret janriga oid asarlardan qaysi biri Kumush obraziga yaqinroq, fikringizni izohlang.

Ushbu savolga javob berish orqali o'quvchilar

nafaqat vizual qobiliyatlarini rivojlantiradilar, balki suratlarining o'zaro qiyosini amalga oshirish ko'nikmalarini ham shakllantiradilar.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, badiiy asarlarni tasviriy san'atga xos peyzaj va portret kabi janrlardan foydalanish ushbu ikki fanning integrativ xususiyatlarini namoyon etishi bilan birgalikda, o'quvchilarning ijodiylik, kreativlik, qiyosiy tahlil ko'nikmalarini ham rivojlantirish qobiliyatlariga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdirasilov. S.F Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. – T.: Fan va texnologiya, 2012. 232- b.
2. Gafurov S. A. Analysis Of The Poem "Autumn Dreams". 2021. – P. 370.
3. Kambarova S. Ijodkor shaxsiyatini o'rganishda optimal yondashuvlar // O'zbekiston: til va madaniyat. 2022. 1 (4). 19– 28-b.
4. Kambarova S. Mutolaaga qiziqtirishga doir bir usul xususida // Til va adabiyot ta'limi. – Toshkent, 2018. – № 6.148-b.
5. Kuziyev T. va boshq. Tasviriy san'at. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. – Toshkent: O'zbekiston, 2015. 176-b.
6. Usmonov R.K. Yuqori sinflarda yozuvchi biografiyasini o'rganish. – T.: O'qituvchi, 1969. 480-b.
7. Ростоцев Н. Методика преподавания изобразительного искусства в школе. – М.: 1980. 250 с.
8. Otabek, Kumush, Umarshayx Mirzo – sun'iy intellekt o'zbek adabiyoti qahramonlari va tarixiy shaxslar qiyofalarini yaratdi
9. Peyzaj - Vikipediya
10. Абдулла Орипов. Сен баҳорни соғинмадингми? | Xurshid Davron kutubxonasi

Gulmira ASLONOVA,
Navoiy davlat universiteti
O'zbek tili va adabiyoti fakulteti
2-kurs magistranti
gulmiraaslonova30@gmail.com

SHUKUR QURBON IJODIDA AYOL OBRAZI VA UNING POETIK TALQINI

Annotatsiya: ushbu maqolada atqqli shoir Shukur Qurbon ijodidagi ayol obrazi va uning badiiy talqini tahlil qilinadi. Ayol siymosi shoir poetikasida turli badiiy ranglar orqali ifodalanib, ona, yor, fidoyi umr yo'ldosh kabi timsollar orqali o'ziga xos falsafiy va estetik yuklamaga ega bo'ladi. Ayol obrazining insoniylik mehr - oqibat, sadoqat va hayot go'zalligining ramzi sifatida talqin qilinishi maqolaning asosiy yo'nalishini tashkil etadi. Shuningdek shoirning ba'zi asarlari misolida ayol siymosining yuqori darajaga ko'tarilishi va zamonaviy ijtimoiy hayotdagi o'rni hamda qadri tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: *Shukur Qurbon, ayol obrazi, poetika, badiiy tafakkur, timsol, ona, yor, muhabbat, ramz, obrazlilik, badiiy foda, shoirlik mahorati.*

Annotation: this article analyzes the image of women and its artistic interpretation in the works of the prominent poet Shukur Qurbon. The female image in the poet's poetics is expressed through various artistic colors and acquires a unique philosophical and aesthetic meaning through such symbols as mother, beloved, and devoted life partner. The interpretation of the female figure as a symbol of humanity, compassion, loyalty, and the beauty of life forms the main direction of the article. In addition, based on some of the poet's works, the elevation of the female image, as well as its role and value in contemporary social life, are examined.

Key words: *Shukur Qurbon, female image, poetics, artistic thinking, symbol, mother, beloved, love, emblem, imagery, artistic expression, poetic mastery.*

Аннотация: в данной статье анализируется образ женщины и его художественная интерпретация в творчестве выдающегося поэта Шукура Курбона. Женский образ в поэтике поэта выражается через различные художественные краски и обретает особое философское и эстетическое значение в символах матери, возлюбленной и преданной спутницы жизни. Интерпретация женского образа как символа человечности, милосердия, верности и красоты жизни составляет основное направление статьи. Кроме того, на примере некоторых произведений поэта рассматривается возвышение женского образа, а также его роль и ценность в современной общественной жизни.

Ключевые слова: *Шукур Курбон, образ женщины, поэтика, художественное мышление, символ, мать, возлюбленная, любовь, символика, образность, художественное выражение, поэтическое мастерство.*

Adabiyot jamiyat hayotining in'ikosi bo'lib, unda inson, uning ichki olami, ijtimoiy mavqei, tarixiy-taqdiriy kechinmalari san'atkor nigohi bilan poetik badiiyatda ifoda topadi. Ayniqsa, she'riyatda ayol obrazi qadimdan murakkab va serqirra timsol sifatida gavdalanib kelgan. Ayol – onalik, mehr-oqibat, sadoqat, sabr-toqat timsoli bo'lishi bilan birga, insoniylik mezonlarining asosi sifatida adabiy tafakkurda alohida o'rin egallaydi. Turkiy adabiyotda, jumladan, o'zbek she'riyatida ayol qiyofasining poetik talqini

shoir ijodiy dunyoqarashi, estetik didi va ijtimoiy ongining mahsuli sifatida shakllanadi. O'tgan asrning dastlabki yillaridagi adabiyotida adiblarning ayollar ozodligiga bag'ishlangan asarlarining asosiy mazmun-mohiyati shakllandi. Mazkur yillar badiiyati nafaqat xotin - qizlarning erkinligiga erishish yo'llari masalasiga, balki ozod ayol timsolini yaratishga ham alohida e'tibor qaratdi. Bu davr ijodkorlarining asarlarida bu kabi meros namunalari anchagina uchraydi. Mustaqillik davridagi o'zbek adabiyoti esa janrlar

doirasida shakllangan tasavvurlarning o'zgarishi va yaratilayotgan asarlarning nazariy qoliplarga mos kelmasligi bilan ajralib turadi. Chunki ijod erkinligi degan tushuncha faqat qanday mavzuni qalamga olishga emas, balki qanday yozishga, ifodalashga ham bog'liqdir. O'zbek she'riyati tarixida ayol obrazining badiiy talqini doimo markaziy mavzulardan biri bo'lib kelgan. Bu obraz orqali shoirlar nafaqat ayolga bo'lgan hurmat va ehtiromni, balki jamiyatning ma'naviy-axloqiy holatini ham ifodalab kelishgan. Bugungi yangi O'zbekistonimizda ham ayollarimiz doim hurmatda va ardog'imizda, Prezidentimizning ayollarga bo'lgan munosabati va chiqarilayotgan qarorlari buning yaqqol namunasidir. Misol uchun, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning so'zlari buning yorqin dalilidir: "Mutafakkir bobomiz Alisher Navoiy buyuk ona siymosi, mo'tabar ayol zotini ulug'lab, ularning baxt-saodati yo'lida barchamizni fidokor bo'lishga da'vat etgani albatta bejiz emas. Chindan ham, mehr-oqibat, olijanoblik, muhabbat va sadoqat kabi yuksak insoniy qadriyatlarni kamol toptirishda, oila qo'rg'onini mustahkamlashda sizlarning xizmatigizni hech narsa bilan qiyoslab bo'lmaydi"¹ Qadriyatlarimiz ayol sha'nini ulug'laydi, Qur'onda Alloh taolo alohida bir surani nozil qildiki, u "Niso" (Ayollar) deb nomlangan. Bu surada ko'plab masalalar bayon

*Olamdagi barcha yo'llar boshida
Onajonlar o'ttirishar intizor.
Tog'lar yuki bor ular bardoshida,
Onajonlar intizorki, hayot bor.*³

Ushbu "Onajonlar intizor" nomli she'rining dastlabki bandida ona obrazi hayotning boshida turgan intizor timsol sifatida gavdalanadi. Shoir barcha yo'llarning boshida – ya'ni harakat va hayot yo'llarida onani kutish holatida aks ettiradi. Bu obraz orqali ayol-onaning bardoshi, quvvatga to'la ruhiyati ifoda topadi. "Tog'lar yuki bor ular bardoshida" misrasi esa ayolning kuchi, matonati, sabr-toqatini tog'ga qiyoslab obrazli tasvirlaydi. Shoir bu yerda ayol obrazini faqatgina mehr va muhabbat emas, balki

qilinishi asnosida, ayollarga taalluqli bo'lgan haq - huquqlar ham zikr qilingan. Onaning hurmati va darajasi naqadar ulug' va kattaligi haqida janob Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamdan bir qator hadisi shariflar rivoyat qilingan. Jumladan, Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi, bir kishi hazrat Rasul Akram sollallohu alayhi vasallam huzurlariga kelib: "Ey Allohning rasuli! Mening chiroyli muomala qilishim uchun insonlarning qaysi biri haqliroq?", deb so'raganlarida, u zoti sharif: "Onang", – dedilar. "Undan keyin kim", – dedi. "Onang", – dedilar. "Keyin kim?", – dedi. Yana: "Onang", – dedilar. "Keyin kim", – dedi. "Otang", – dedilar (Imom Buxoriy va Imom Muslim rivoyatlari). Shu o'rinda buyuk bobokalonimiz, g'azal mulkning sultoni Amir Alisher Navoiyning nazmiy va nasriy asarlarida ayol va ona obrazlari buyuk zot darajasida ko'rsatiladi:

*Onalarning oyog'i ostidadir,
Ravzai jannatu jinon bog'i.
Ravza bog'i visolin istar etsang ,
Bo'l onaning oyog'i tufrog'i.*²

Shukur Qurbonning poetik olami ham bundan mustasno emas. Uning she'riyatida ayol obrazi o'ziga xos poetik yuksaklikda tasvirlanadi. Shoir asarlarida ona, yor, mehr va sadoqat kabi tushunchalar bilan bog'liq ayol siymosi juda ko'p qatlamli va boy tasvirda namoyon bo'ladi.

*Onajonlar intizor,
Onajonlar bizga zor.
Yo'llarda to'rt ko'zlari,
Keldim, degan so'zga zor.*

bardosh va iroda ramzi sifatida ko'rsatmoqda.

Shoirning bu she'rining ikkinchi misrasida ona obrazining hissiy holati chuqur poetik ifodaga ega. "To'rt ko'z" ifodasi bilan onadagi kutish, sog'inch va umid tuyg'ulari jonli tarzda berilgan. Ona "Keldim" degan so'zga zor – bu orzu hayotiylik bilan kuylangan va o'z farzandini kutayotgan, har kun yo'llarga termulgan ona obrazini tasvirlaydi. Shoir onaning hissiy kechinmalarini bevosita ifodalash orqali uni insoniylikning nozik tuyg'ularini mujassamlashtiruvchi timsolga aylantiradi.

1 Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan//Xabar.uz 2025-yil, 7-mart

2 Shuhrat Sirojiddinov, Dilnavoz Yusupova, Olimjon Davlatov. Navoiyshunoslik [Матн] Q. 1: darslik/ Sh.Sirojiddinov[va boshqa.]. Toshkent: "TAMADDUN", 2018. 230 -b.

3 Shukur Qurbon. Ozoringni sog'indim(100 qo'shiq) "Sharq" nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, – Toshkent, 2007, 6-bet

*Onajonlar bedordirki, tun yorug',
Onajonlar mehri borki, alam yo'q.
Tong – onalar sochlaridan oqargan,
Shams – onalar yuragidan lahcha cho'g'.*

Uchinchi bandda ona obrazining falsafiy va tabiatga daxldor talqini beriladi. Shoir onaning bedorligi – ya'ni tunlarni uxlamay o'tkazishi bilan uni quyosh chiqishi, tong otishi, yulduzlar va nur bilan qiyoslaydi. "Tong – onalar sochlaridan oqargan" degan tasvir orqali ona mehnati, kecha-yu kunduz qilgan fidokorligi ramziy obrazga aylantiriladi. "Shams – onalar yuragidan lahcha cho'g'" misrasi esa quyosh nuri onaning yuragidagi mehr, joziba, hayotiy haroratdan paydo bo'ladi degan falsafiy fikrni ilgari suradi. Bu esa ayolning jamiyatdagi hayotbaxsh mavqeini anglatadi. Keyingi bandda ona va farzand orasidagi masofa, sog'inch, ajralish fojia holatda beriladi. "Yiroqlarda armon ulug'" degan misra bilan orzu-armonlar, kutishlarning og'irligi, ko'zdagi yosh, dilni o'rtayotgan dard kuylanadi. Shoir bu yerda ona obrazini faqat hissiyot emas, balki vijdon, armon, tavba, sog'inch bilan to'ldirilgan obraz sifatida ko'rsatadi. Bu intellektual

*Mehrning ta'mini yoddan chiqarib,
Dilgir uylar aro kezingmi yig'lab?
Dunyoning ayollik baxtidan nari,
Ketdingmi g'oyibdan qanoat tilab?⁴*

Birinchi bandda shoir ayol obrazini yetim, dardli ruh holatida tasvirlaydi. "Mehrning ta'mi" – insoniy ilqlik, oilaviy baxt va muhabbat timsoli. Ayol obrazining yig'lab kezishi – u ijtimoiy-siyosiy hayotdagi iztiroblardan charchaganini anglatadi. "Dunyoning ayollik baxtidan nari" degan satr orqali ayolga berilgan tabiiy tuyg'ular, onalik, baxt, muhabbatdan yiroqlik holati ifodalanadi. Bu band ayolning ruhan sinib, taslim bo'lganini emas, balki taqdirini sabr bilan yengayotganini

*Qaysi manzillarda kutdilar qandoq?
Kim seni nohaqdan-nohaq ranjitdi?
Daf etdimi senga tashlanib nogoh
Xushomad va hirsning bir ming bir iti*

Bu bandda shoir ayolning boshidan kechirgan og'ir voqealarini va uning ruhiy iztirobini ochadi. "Kim seni nohaqdan-nohaq ranjitdi?" – jamiyatdagi zo'ravonlik, og'zaki va ruhiy zulmlarga

*Yiroqlarda armon ulug', ko'zda nam,
Yiroqlarda yashar mening onam ham.
Har kun borib ko'rolmayman, yonar jon,
Har kun meni o'rtar sog'inch, o'rtar g'am.*

va ma'naviy darajadagi onalik timsoli bo'lib, u o'z farzandining yuragida hamisha yashab, unga ruhiy hayot beruvchi unsurga aylanadi.

Shukur Qurbonning ushbu she'ri – "Onajonlar intizor" orqali ona-ayol obrazi chuqur poetik, falsafiy va hissiy darajada talqin etiladi. Shoir onani bardosh, mehr, intizorlik, hayotbaxshlik singari ko'plab g'oyaviy belgilar bilan ta'riflaydi. Har bir bandda ona obrazining yangi qirasi, yangi fazilati ochiladi. Ayniqsa, sog'inch va yiroqlik motivi orqali shoir ona va farzand o'rtasidagi ruhiy bog'liqlikni badiiy kuch bilan yoritadi. Bu she'r orqali Shukur Qurbon ijodida ayol obrazining g'oyaviy-estetik darajadagi kengligi va poetik teranligi yaqqol namoyon bo'ladi. Shu bilan bir qatorda shoirning ayrim she'rlarida ayol qiyofasini ijtimoiy muhitda zulm ko'rgan, ruhan ezilgan ammo baribir ichki pokligini saqlab qolgan timsol sifatida gavdalanadi. Quyida tahlil qiladigan she'rimiz aynan shu mavzuda:

*U, bu yo'li! Bu yo'lining sinov -sinog'i!..
Devlarning-da, bukib qo'yadir qaddin!..
Yolg'iz ayol yurgan yo'lining so'l-sog'i
Tikonli simlarchay xavotir, hadik.*

bildiradi. Keyingi misrada "yo'li" metaforasi hayot yo'li, ayniqsa ayol uchun tanlangan mustaqil yo'lni anglatadi. "Devlarning-da bukib qo'yadir qaddin" – bu ifoda ayolga hayotning zo'ravonlik, zo'r-majburiy sharoitlar orqali qanday og'ir sinovlar qo'yishini ochadi. "Tikonli simlarchay" degan tasvir xavf, og'riq va yurakni titratadigan xatarlarni bildiradi. Bu band ayolga nisbatan ijtimoiy muhitdagi adolatsizlik, yolg'izlik va u duch keladigan shafqatsiz munosabatni ochadi.

*Ha, ular shunaqa, yetmaganiday
Haromdan bo'lgani, harom yeb o'sgan.
Kim – halol, pok, uni xor etgani shay,
Har daf'a, har yo'sin zanjirini uzgan.*

ishora. Bu satrlar Shukur Qurbonning ijtimoiy tanqidchi sifatidagi kuchli pozitsiyasini ko'rsatadi. Keyingi bandda shoir bu yerda halol, or-nomusli ayolning jamiyatda xor bo'lishi haqidagi achchiq

4 Qurbon, Shukur. Sizni xudo yetkazdi: She'rlar, she'rga tushgan hadislar, dostonlar. – T.: G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashr., 1994. 81-bet

haqiqatni tilga oladi. Ayolning “zanjirni uzishi” – bu erk, mustaqillik, o‘z yo‘lini tanlashi bo‘lsa-da, bu erkinlik doimiy kurash orqali qo‘lga keltiriladi. Haromda ulg‘ayganlarning halolni xor qilishga urinishi – ijtimoiy buzuvchilikning namoyonidir. Shoir ayolning ichki kuchi, pokligi, o‘zini asrashga intilishlarini ko‘rsatadi.

Lekin hayot o‘zga, hayoting – o‘zga...

Soylarga aytdingmi ko‘rganing tushing?

Sabab qoldirmay, deb g‘iybat gap-so‘zga,

Rangpar saylandingmi turish-turmushing?

Shoir bu yerda hayot bilan ichki kechinmalar konfliktligini ko‘rsatadi. Ayolning holatini “soylar”ga aytish – tabiatni guvoh tutish,

*Garchand yuragingda arslonday umid,
Garchand qalb har nafas tug‘adir havas,
Tushlaringga kirar o‘sha ming bir it,
O‘sha zanjirlarin uzib basma-bas.*

Shoir bu yerda ayol ruhiyati bilan kurashayotganini ko‘rsatadi: umid bor, lekin xavf va o‘tmish doimiy tushlarda qaytadi. “Arslonday umid” – kuchli irodani bildirsa, “tushlarga kiruvchi it” – yurakdagi yarani ramziy ifodalaydi. She‘r nihoyasida shoir ayolga sabr, mehr va umid orqali shifo topishni tilaydi. “Mehrning ta‘mini” yana his etishi – shifo, sog‘ayish, yangi hayotga ishora. Bu satrlar she‘rning ruhiy tozalash, xotirani yengish va ijobiylik bilan yakunlanishini anglatadi.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, Shukur Qurbon poetikasida ayol obrazi mehr-muhabbat, sabr, fidoyilik va iztirob ramzi sifatida talqin etiladi. “Onajonlar intizor” she‘rida onalar bardoshlilik

“rangpar saylanish” esa ichki ezilish, charchoq, ruhiy tanazzulning obrazidir. Ayol o‘zini jamiyat g‘iybatidan himoya qilish uchun hatto o‘zini inkor etishga-da tayyor.

Hayotingga kirib borurman sekin,

Yashaysan yangi dard, tashvishlarga g‘arq.

Birga ekanimdan quvonasan, lekin

O‘tmish dardlaringni etolmaysan tark.

Bu band sevgi, yaqinlik va ruhiy jarohatlarning birgalikda yashashini ko‘rsatadi. Ayol yangi hayot boshlamog‘chi, lekin eski dardlar undan ajralmaydi. Bu holat realistik va chuqur psixologik yondashuvni ko‘rsatadi. Ayolning o‘tmishdan xalos bo‘lolmasligi – hayotiylikni anglatadi.

*Bu hol davom etar meni tushinib,
Yitguncha ko‘nglingda g‘ashlik-tuguncha
Esingga mehrning ta‘mini tushirib,
Dilgir yillaringni unutguncha.*

va umid manbai tarzida yoritilgan bo‘lsa, ikkinchi she‘rda esa ijtimoiy muhit va shaxsiy fojealar girdobida qolgan ayol timsoli falsafiy-poetik yondashuv asosida tasvirlanadi. Umuman olganda, har ikkala she‘r ham Shukur Qurbon ijodida ayol obrazining poetik talqini yuksak badiiylik, ichki dard, va ijtimoiy ong bilan uyg‘un holda berilganligini ko‘rsatadi. Shoir nafaqat ayolning tashqi hayoti, balki uning ichki kechinmalarini, ko‘ngil to‘lqinlarini, sabrini va mehrini teran poetik uslubda ochib beradi. Bu esa Shukur Qurbon poetikasini faqat estetik emas, balki ijtimoiy-ma‘naviy jihatdan yuksak darajaga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan// Xabar.uz 2025-yil, 7-mart
2. Shuhrat Sirojiddinov, Dilnavoz Yusupova, Olimjon Davlatov. Navoiyshunoslik [Матн] Q. 1: darslik/ Sh. Sirojiddinov [va boshqa.]. – Toshkent: “TAMADDUN”, 2018.-520 b.
3. Qur‘oni Karim.
4. Karimov B. Ruhiyat alifbosi. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – Toshkent. 2018-y. 364-b.
5. Shukur Qurbon. Ozoringni sog‘indim (100 qo‘shiq) “Sharq” nashriyot- matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. – Toshkent, 2007, 73-bet.
6. Qurbon, Shukur. Sizni xudo yetkazdi: She‘rlar, she‘rga tushgan hadislar, dostonlar. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashr., 1994. 168-bet.
7. Қозоқбой Йўлдошев «Ёниқ сўз». «Янги асп авлоди», 2006 - йил. 548-б.
8. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

Manzura MUHIDDINOVA,
magistr
muhiddinovamanzura52@gmail.com

SHARQONA G'AZALLAR JANRI TAHLILI

Annotatsiya: ushbu maqolada sharq mumtoz adabiyotida eng ko'p tarqalgan va ijod qilingan lirik tur – g'azal janri va uning Yevropa, xususan, Amerika adabiyotidagi o'rni hamda ta'siri o'rganiladi. Shuningdek, ushbu janrda ijod qilgan sharqshunoslarning g'azallari keltirilib, ular mazmun va shakl jihatdan tahlil qilinadi. Yevropadagi g'azal janrining turlari va ulardan misollar keltiriladi.

Kalit so'zlar: g'azal, "Funun ul-balog'a", Gyote, transmadaniy sharqshunoslik, Agha Shahid Ali.

Аннотация: в этой статье исследуется жанр Газели, наиболее распространенный и созданный лирический тип в Восточной классической литературе, а также его роль и влияние в европейской и, в частности, в американской литературе. Также приводятся Газели востоковедов, работавших в этом жанре, которые анализируются по содержанию и форме. Будут представлены виды жанра Газель в Европе и примеры из них.

Ключевые слова: газель, "Фунун уль-балог", Гёте, транскультурный востоковед, Ага Шахид Али.

Annotation: this article explores the genre of ghazal, the most prevalent and invented lyrical type in eastern classical literature, and its place and influence in European – particular American literature. The ghazals of the Orientalists who created in this genre are also cited and analyzed in terms of content and form. Types of the ghazal genre in Europe and examples of them are given.

Key words: ghazal, "Funun ul-baloga", Goethe, transcultural Orientalism, Agha Shahid Ali.

G'azal lirikaning bir turi sifatida sharq adabiyotida eng ko'p tarqalgan va eng ko'p ijod qilingan janrlardan biri bo'lib, o'ziga xos qo'fiyalanish, taxallus qo'llash, hajm, kompozitsiya va g'oyaviy-tematik xususiyatlarga ega. G'azal atamasi dastlab, VI–VII asrlarda arab adabiyotida paydo bo'lgan va u "oshiqona so'z", "ayollarga xushomad" kabi ma'nolarni bildirgan. G'azal janri arab adabiyoti asosida shakllanib, keyinchalik forsiy va turkiy muhitda juda kuchli darajada rivojlandi. "Devonu lug'otit-turk" asari janrlarini o'rgangan rus olimasi L.Serikova bu asarda g'azal janrining betakror namunalari borligini ta'kidlaydi. Bundan ma'lum bo'ladiki, g'azal janri mumtoz adabiyotimizda X–XI asrlardan boshlab faol qo'llanilgan. O'zbek adabiyotida g'azalning 4 misra – 2 baytdan, 46 misra – 23 baytgacha bo'lgan namunalari kuzatiladi. G'azal sharq mumtoz adabiyotidagi eng faol va sayqallangan janrdir. Uning saralanishida Atoyi, Sakkokiy, Gadoiy, Lutfiy kabi o'zbek shoirlarining, xususan, Alisher Navoiyning hissasi ulkan. Navoiy mazkur janrni takomillashtirib, yuksak cho'qqiga ko'tardi. U o'zining eng sevimli janri sifatida, uning boshqa janrlarga nisbatan "dilosoroq va nishotafzoroq" ekanligini ta'kidlaydi. G'azalning hajmi haqida ham har xil qarashlar bor. Qabul Muhammad "Haft qulzum"ida g'azalning chegarasi 11 bayt bo'lishi kerakligini

ta'kidlar ekan, ammo amalda 12, 19, 21, hatto 27 baytli g'azalga ham duch kelganini e'tirof etadi. G'azal mulkining sultoni Navoiy esa bir qit'asida 7, 9, 11, 13 baytli g'azallar yozganini ko'rsatib o'tadi. Poetikaga doir asarlardagi ma'lumotlardan 5–15 baytli g'azallar hajmi jihatidan ma'qul sanalgani seziladi. Ammo o'zbek adabiyotida Ogahiy, Miriy kabi ijodkorlar 23 baytli g'azallar ham bitganligi ma'lum. G'azalda asosan, sevgi, ayriliq, ilohiy ishq, hayot falsafasi kabi mavzular kuylangan bo'lib, bu janr, ayniqsa, fors-tojik adabiyotida yuksak cho'qqilarga ko'tarilgan.

G'azallar uzoq asrlar mobaynida rivojlangan hamda ularning bir nechta turlari shakllangan:

1. Mustaqil baytlardan tuzilgan g'azal. Har bir baytdagi alohida-alohida mazmun yaxlit holda bunday g'azalning g'oyaviy mundarijasini tashkil etadi.

2. Musalsal g'azal. Tarkibida lirik voqea, manzara, fikr va kechinma satrlar silsilasida darajama-daraja (tadrijiy) rivojlanish xususiyatiga ega bo'lgan g'azal.

3. Yakpora g'azal. Har bir baytining mazmuni o'zidan oldingi va keyingi baytlarga izchil bog'langan g'azal.

4. Voqeband g'azal. Voqelikning bir bo'lagi ifodalanadigan, hamma baytlari bir mavzuni yoritishga, bir g'oyaviy mazmunni ilgari surishga qaratilgan g'azal.

O'zbek adabiyotida g'azal fors-tojik g'azalchilik zaminida paydo bo'lib, XIV asr o'rtalarida alohida janr sifatida shakllangan. G'azal janri haqida ko'plab nazariy manbalar mavjud bo'lib, bu janr haqida ilk turkiy nazariy manbalardan biri bu Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" asaridir. Asarda birgina g'azal janri haqida emas, boshqa lirik janrlar haqida ham qimmatli ma'lumotlar mavjud. Taroziy g'azal haqida uning yigirma baytdan iborat bo'lishi va g'azalning eng kami besh baytli bo'lishini yozadi. Misol tariqasida esa o'zining va boshqa shoirlarning g'azallaridan keltiradi. U g'azalning ba'zi qismlariga ham to'xtalib, tahlil qiladi. Taroziyning bu asari Yevropa olimlarning e'tiborini tortgan bo'lib, asar bo'yicha keng ko'lamli ish olib borgan olimlardan biri Indiana universiteti professori Devin de Uisdir. U bu asarni o'rganib, tahlil qilar ekan, uning sharq adabiyoti, xususan, she'riy janrlari, badiiy san'at hamda qofiya va aruzga oid bilimlari haqida yetarlicha ma'lumotga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Olim asarning har bir qismini tahlil qilib, asar qismlar tarkibidagi g'azallar yoki misol tariqasida keltirilgan boshqa lirik janrlarni ingliz tiliga tarjima qilib havola qilgan.

G'arb olimlari tomonidan sharq adabiyotiga qiziqish har bir zamonda mavjud bo'lib, sharq noyob qo'lyozmalari bilan tanishgan ko'pgina yevropa adabiyot vakillari bu asarlardan ilhomlanib, o'zlari ham ushbu uslubda ijod qilishgan. Misol uchun, XIX asrda mashhur olmon shoiri Yohann Volfgang Gyote (1749–1832) ayni sharq mavzusini o'zgacha talqinda taqdim etdiki, hozirgacha bu jahon adabiyotidagi jozibador va keng qamrovli asar sifatida qiymatga egadir. Ushbu asar "G'arb-u Sharq devoni" bo'lib, u 1819-yilda yozuvchi tomonidan e'lon qilingan. Ushbu asar e'lon qilingunga qadar Ovrupa adabiyotida orientalism (sharqni o'rganish) yo'nalishi shakllanib ulgurgan edi. Asarda g'azal, ruboiy va boshqa Sharqona janrlardagi bir qancha namunalar mavjud. Gyote fors shoiri Hofiz (Shamsiddin Muhammad Hofiz Sheroziy) g'azallaridan ilhomlangan hamda uning ijodiga katta qiziqish bildirgan. Uning ijodidan bir misol:

Und willst du dich meins Liedes freun,

So must du dich in Hafis vertiefen.

(Agar sen mening she'rimdan bahramand bo'lmoqchi bo'lsang,

Hofizga sho'ng'ishing kerak).

Shoir ushbu satrlar orqali Hofiz bilan qanchalik bog'liqligini ko'rsatadi.

Biroq Gyotegacha sharq adabiyotiga qiziqib, uni o'rgangan olimlar sharq belgilarini u yoki bu darajada aks ettirishga harakat qilgandi. Gyote esa sharq va g'arb madaniyat yutuqlarini alohida poetik

tarzda ifodalab bera olgan. Asar o'n ikki qismdan iborat hisoblanadi. XVIII asr oxirida Hofiz ijodi boshqa yevropa shoirlari, olimlari, faylasuflarining ham e'tiborini tortdi; birinchi tarjimalar paydo bo'ldi, uning ijodiga qiziqish boshlandi. 1791-yilda Sharq she'riyatining tanqidchisi Val Hofizning bir qancha g'azallarini nemis tilida nashr ettiradi. Bu shoir asarlarining yevropa tillariga birinchi tarjimasi edi. Shundan keyin Hofiz ijodiga qiziqish yanada kuchaydi. 1812-yilda mashhur sharqshunos olim Iosif fon Hammer shoir devonining to'liq tarjimasini yaratdi. Bu tarjima Hofiz shon-shuhratining butun yevropaga yoyilishiga sabab bo'ldi va nemis xalqida bu ijodkorga muhabbat uyg'otdi. Shoirlar va she'riyat muxlislari orasida o'ziga xos "Hofizga o'xshashlik", taqlidli she'r yozish keng tarqaldi. Tarjimon Doumer tuzgan va "Hofez" nomi bilan nashr etilgan to'plam ana shunday qiziqish samarasi edi. Doumer Hofizning ikki yuzdan ortiq g'azallariga qiyos yozgan. Bu she'rlarni Hofiz asarlari tarjimasini deb bo'lmaydi, albatta. Biroq uning she'rlaridagi teran lirik ma'nolarni talqin etuvchi bu majmua shoir ijodining nemislar orasida yanada kengroq tanilishiga va mashhur bo'lishiga katta turtki bo'ldi. Hammer nashriyoti va Doumer to'plami tufayli ular Gegel, Gyote va Hofiz ijodi bilan tanishishlari mumkin edi. Shoir g'azallaridagi chuqur falsafiy-ijtimoiy fikrlar Gegelni o'ziga maftun etib, u Hofizni "Zo'r ijodkor, go'zal, tinch va ayni paytda isyonkor she'rlar muallifi" deb ta'riflagan.

Boshqa ko'pgina G'arb olimlari ham sharq shoirlari ijod etgan g'azallarni tahlil qilib, ularni o'z tillariga tarjima qilishgan. Ular tarjima davomida bu g'azallarga katta qiziqish bildirishgan. Ayniqsa, XVIII–XIX asrlarda Amerika, Germaniya va Angliyada sharq mutafakkirlarining g'azallari ta'sirida ijod qilish boshlangan. Nemis shoiri Friedrich Ruckert ham sharq adabiyotiga mehr qo'ygan hamda arab, fors va hind she'riyati namunalarini, ayniqsa, g'azal janriga oid namunalarni nemis tiliga tarjima qilgan. Ingliz sharqshunosi, Hindiston hamda fors she'riyatining mashhur tadqiqotchisi – Sir William Jones fors shoirlari bo'lmish Sa'diy, Hofiz, Rudakiy g'azallarini o'z tiliga tarjima qilgan. O'zi ham ingliz tilida g'azal yozishga uringan. Amerikalik adabiyotshunos olim, shoir va yozuvchi Denis Deli esa Alisher Navoiyning yigirma bir g'azalini ingliz tiliga tarjima qilib, kitob holida nashr ettirdi. Alisher Navoiy ijodiga g'arb dunyosining qiziqishi hanuzgacha davom etib kelmoqda. Amerikalik islomshunos olim Barri Xoberman "Saudi Aramco World" jurnalida chop etilgan "Chaucer of Turks" nomli maqolasida Navoiyni sharq uyg'onish davri asoschilaridan biridir deb e'tirof etadi. G'arb

olimlari tomonidan nafaqat Alisher Navoiy ijodi, balki boshqa g'azalnavis shoirlarimiz asarlariga qiziqish hali - hamon davom etmoqda.

Edward Fitz Gerald. Angliyalik bo'lgan bu ijodkor Umar Xayyom ruboiylarini tarjima qilgan mashhur yozuvchi bo'lib, uning tarjimalari orasida g'azal janriga oid manbalar ham asosiy o'rinni egallaydi. Sharq madaniyati va adabiyotiga qiziqish nafaqat XVIII–XIX asrlarda, balki XX–XXI asrlarda ham birdek davom etgan. Bu davrlarda shoir va yozuvchilar tomonidan sharq qo'lyozma va manbalarining tarjimasi va ularga o'xshatib ijod qilish yanada rivojlandi. Nemis adabiyotida Hans Meinke, Kurt Scharf ingliz adabiyotida esa Adrienne Rich, Agha Shahid Ali tarjimalar bilan shug'ullanib, g'azal yozishga urinib ko'rishgan.

G'azal she'riyatini yevropada ham xuddi sharqdagidek ayriqliq, hijron va sevgilining go'zalligini ifodalovchi poetik janr sifatida bilishgan. Ushbu janr XX asr o'rtalarida urdu shoiri Mirzo G'olibning g'azallari ingliz tiliga tarjima qilingach, Amerika she'riyatiga kirib keldi. Aynan shu davrdan, ya'ni XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab zamonaviy amerikalik shoirlar tomonidan g'azal janrining moslashtirilishi boshlanadi. Bunga "transmadaniy sharqshunoslik" tushunchasi, ya'ni g'arb va sharq jamiyatlari o'rtasidagi madaniy integratsiya mahsuli zamonaviy Amerika g'azallarining paydo bo'lishi uchun asosiy sabab sifatida ko'rsatiladi. G'azalning Amerika versiyasi ko'proq ekzotik madaniy shakl orqali "boshqacha" bo'lgan dunyoqarashni egallashga va uni o'zlashtirishga intiladi. Shu bilan birga, bu shoirlar yangi poetik janr orqali madaniy muloqotni yuzaga keltirishga harakat qilishgan. Ammo, ko'plab amerikalik g'azal shoirlari ushbu shaklga yuzaki yondashib, uning badiiy va intellektual mohiyatini inkor etganlar. So'nggi yillarda ham g'azal janri Amerika she'riyatida ham o'ziga xos shaklda yashamoqda. Aslida, an'anaviy g'azallar qat'iy tuzilishga ega bo'lib, unda qofiya (qafiya), takrorlovchi so'z (radif), va mustaqil baytlar bo'lishi shart, ammo Amerikada bu qoidalarga har doim ham amal qilinmagan.

XX asrning o'rtalaridan boshlab Rumi, Hofiz va G'olib kabi shoirlarning tarjimalari orqali Amerikada g'azal janriga qiziqish ortdi. Biroq bu formani ingliz tilida haqiqiy ko'rinishda ommalashtirgan shoir Agha Shahid Ali bo'ldi. Uning "Ravishing Dis Unities: Real Ghazals in English" nomli antologiyasi bu shaklni o'ziga xos qoidalarga rioya qilgan holda yozishni targ'ib qildi. "Real Ghazals in English", ya'ni "Ingliz tilidagi haqiqiy g'azallar" nomi bilan Ali qofiya va radif kabi shakliy cheklovlar g'azalni g'azal qilishi haqida

signal bergan. Agha Shahid Ali "haqiqiy" va "soxta" g'azallar tushunchasini ilgari surgan. Haqiqiy g'azal, ya'ni g'azal yozish qoidalariga to'la amal qilgan holda yozish: An'anaviy tuzilishga qat'iy amal qilinadi, radif, qofiya, mustaqil baytlar va yakuniy baytda shoirning taxallusi. Soxta g'azal, ya'ni g'azalning barcha talablariga bo'ysunilmagan holda yaratish: erkin she'r tarzida yozilgan, ko'pincha g'azal qoidalaridan chetga chiqilgan. Ali bunday g'azallarni ba'zida qadrlagan bo'lsa-da, ularni "haqiqiy g'azal" deb hisoblanmagan.

G'azal qoidalaridan chetga chiqib ijod qilgan shoirlar:

Michael Collier: "Home" (Uy) she'rida qofiya yo'q, faqat radif ishlatilgan. She'r hissiy jihatdan kuchli va tuzilma jihatdan erkin.

Roger Sedarat: Eron-amerikalik shoir. Uning "Ghazal Games" to'plami g'azal formasini postmodern uslubda o'zgartiradi. Masalan, bir she'rda takrorlovchi so'z sifatida faqat "OOO" ishlatiladi.

Spencer Reece: "Florida Ghazals" to'plamida hech qanday qofiya yoki radif yo'q, ammo she'rlarning ohangi va mazmuni g'azalga xos.

Adrienne Rich: Ghazals: "Homage to Ghalib" she'rlar turkumi klassik formadan yiroq bo'lsa-da, ularni g'azalga xos parcha-parcha tuzilma va siyosiy-hissiy kuch birlashtirib turadi.

Amerikada yozilgan g'azallar fors va arab g'azallaridagi ilohiy ishq yoki sufiylik mavzularidan yiroq. Ular quyidagi mavzularni ko'proq o'rganadi:

- muhojirlik va shaxsiylik;
- gender masalalari;
- shahar hayoti va begonalashuv;
- siyosiy qarshilik va ruhiy sinish.

Bu mavzular ko'pincha zamonaviy Amerika adabiyotining muhim muammolariga to'g'ri keladi.

Amerikada g'azal she'riyati an'anani ham, yangilikni ham o'zida mujassam etadi. Agha Shahid Ali singari shaklga qat'iy amal qiluvchi shoirlar ham, uni yangicha ko'rinishda ifoda etayotganlar ham mavjud.

Agha Shahid Ali g'azal yozishda an'anaviylikni tanlagan shoirlardan biri. U hindistonlik musulmon shoir bo'lib, ingliz tilida she'rlar yozgan va g'azalni eng ko'p mashhur qilgan zamonaviy shoirlardan biridir. Uning "Call Me Ishmael Tonight: A Book of Ghazals" (2003) asarida u g'azalning barcha klassik elementlarini – radif, qofiya, matla' (birinchi bayt), maqta' (oxirgi bayt), taxallusni saqlab qolgan holda, zamonaviy mavzularni qamrab oladi. Masalan, Agha Shahid Ali quyidagi satrni yozadi:

"Tonight the moon is full, the sky is wild with fire – tonight,

I'll write a ghazal for you, not with tears, but with desire – tonight”.

Bu misrada radif so'zi “tonight” har bayt oxirida takrorlanadi, bu esa klassik g'azal strukturasi talablariga javob beradi. Shu bilan birga, she'rda zamonaviy his-tuyg'ular, muhabbatning ichki iztiroblari ifodalanadi.

G'azal shakli Amerikada, ayniqsa feministik she'riyatda keng o'rin oldi. Ko'plab shoirlar bu shakldan o'z jismoniy va ijtimoiy tajribalarini ifodalash vositasi sifatida foydalandilar. Masalan, Adrienne Rich va Marilyn Hacker kabi feministik shoirlar g'azal shaklida o'z shaxsiy kurashlari, sevgi va yo'qotish haqidagi dardlarini ifoda qilishdi. G'azal shaklining ingliz tiliga moslashtirilishi shunchaki tarjima emas, balki madaniy o'zlashtirishdir. Bu holatda shoirlar sharqiy an'anaviy shaklni o'z zamonaviy muammolari, g'oyalari va identitetlari orqali qayta yaratdilar. Bu “moslashtirish” (adaptation) deb ataluvchi jarayon intermadaniy muloqotning yorqin namunasidir.

Agha Shahid Ali g'azalni “tug'ilgan joyidan ajratib, lekin o'z jonini saqlab qolgan holda boshqa madaniyatga ko'chirib o'tkazish” deb biladi. Uning fikricha, g'azal shakli g'arbiy she'riyatda ham o'z hayotini davom ettirishi mumkin, biroq uning mohiyati – tuyg'ularning chuqurligi va estetikasi saqlanib qolishi shart. G'azal she'riyati Amerika poeziyasida

tobora ommalashib bormoqda. Bunga asosiy sabab transmadaniy sharqshunoslik (transcultural orientalism). Garchi g'azalning metrik murakkabligi va sirli tabiati uni moslashtirishni murakkablashtirsada, bu shaklning o'ziga xosligi uni ko'plab amerikalik shoirlar uchun o'ziga jalb qiladigan fenomenga aylantirdi. Ko'pgina amerikalik g'azal shoirlari asl shaklga sodiqlikni to'liq saqlay olmadi. Ular g'azalning tuzilmasi, simmetriyasi va mazmunini o'zlashtira olmadi, chunki uni ko'pincha tashqaridan turib, ya'ni g'arblik ko'z bilan idrok etishdi. Sharqiy adabiyotning chuqur estetik va madaniy qatlamlarini tushunmasdan, ular g'azalni o'z ehtiyojlariga mos shaklga keltirishga urinishdi. Shunga qaramay, zamonaviy amerikalik shoirlar o'z g'azallari orqali zamonaviy muammolarni – madaniyatlararo ziddiyatlar, izolyatsiya, muhabbat va yo'qotish, ijtimoiy tengsizlik – yoritishga harakat qildilar. Ular g'azalni o'z davrining muammolarini aks ettiradigan transmadaniy poetik janr sifatida qayta yaratishga harakat qilishdi.

Xulosa qilib aytganda, G'arb olimlari Sharq adabiyoti va madaniyatini o'rganibgina qolmasdan ushbu manbalar va adabiyotlardan ta'sirlanib, o'zlari ham ijod qilishgan. Ularning ba'zilar to'laqonli tarzda sharq an'alarini saqlagan holda ijod qilishgan bo'lsa, boshqalari ijod davomida sharq an'alaridan ma'no jihatdan ozgina yiroqlashishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oriental Pearls: Adaptation of Ghazals in Modern American Poetry GHAZAL POETRY IN THE WHEEL OF ADAPTATION Arwa Hussein
2. “In that Thicket of Bitter Roots”: The Ghazal in America. Devid Caplan
3. Unreal Ghazals in English Jason Schneiderman
4. O'zbek mumtoz adabiyotida harora g'azallar. Adizova I
5. Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға (Бодлиан кутубхонасида сақланувчи Eliott № 127 рақамли қўлёзма).
6. Devin DeWEESE. “The Predecessors of Nava'i in the “Funun al-balagah” of shaykh Ahmad b. Khudaydad Tarazi: a neglected source on Central Asian literary culture from the fifteenth century” – 279 “Ўзбекистонда хорижий тиллар” илмий-методик электрон журнал № 4 (23)/ 2018 “Journal of Turkish studies”, edited by Sinasi Tekin, published at Near Eastern Languages and Civilizations Harvard University, 2005, volume 29, P. 73 – 163.

Yulduz RO'ZIYEVA,
magistr

yruziyeva80@gmail.com

LUQMON BO'RIXONNING "TOKCHADAGI TUMOR" HIKOYASIDA OBRAZ RUHIY DUNYOSI TASVIRI

Annotatsiya: ushbu maqolada yangi davr adabiyotining yorqin vakili Luqmon Bo'rixonning "Tokchadagi tumor" hikoyasida qahramonlar ichki dunyosini tasvirlash masalasi ochib beriladi. Shuningdek, personajlar psixik kayfiyatining o'zgarishi, ruhiy tushkunlikdan chiqish uchun keskin botiniy kurashi tahlil qilinadi. Bundan tashqari, peyzaj bilan portret tasvirining ijodkor badiiy maqsadiga xizmat qilishi, badiiy tasvir vositalaridan shaxs ruhiy dunyosini chizishda foydalanish mahoratiga e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: *san'at, peyzaj, portret, detal, psixologik tasvir usullari.*

Аннотация: в данной статье раскрывается вопрос изображения внутреннего мира героев в рассказе "Амулет на полке" Лукмана Бурихона, яркого представителя литературы нового периода. Также анализируется изменение психологического состояния персонажей, их острая внутренняя борьба за выход из душевного кризиса. Кроме того, уделяется внимание тому, как изображение пейзажа и портрета служит художественной цели автора, и мастерству использования средств художественной выразительности для отображения духовного мира личности.

Ключевые слова: искусство, пейзаж, портрет, деталь, приемы психологического изображения.

Annotation: this article explores the depiction of the inner world of characters in "The Amulet on the Shelf," a short story by Lukmon Borikhon, a prominent representative of contemporary Uzbek literature. The study analyzes the shifts in the characters' psychological states and their intense inner struggle to overcome emotional distress. Additionally, attention is given to how landscape and portrait descriptions serve the author's artistic purpose and how literary devices are skillfully employed to illustrate the characters' spiritual and psychological depth.

Key words: *art, landscape, portrait, detail, psychological imaging techniques.*

Odamzod azaldan "yaratish"ga intiladi, orzular og'ushida yashaydi. Ana shu ikki jihat san'atning paydo bo'lishiga zamin yaratgan. Shu o'rinda "San'at insonga nima uchun kerak?" degan tabiiy savol tug'iladi. "San'at, jumladan, adabiyot ham o'quvchining ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik haqidagi qarashlarini, estetik didini, dunyoqarashini, iymon-e'tiqodini, olam va odamga munosabatini, go'zallik haqidagi tushunchalarini, hissiyotini, tuyg'ularini tarbiyalaydi. San'at tarbiyalamagan kimsa nafaqat odob-axloqsiz, balki tuyg'u va hissiyotlari ham qo'pol va tiyiqsiz bo'ladi"¹.

Yozuvchi Luqmon Bo'rixon asarlarini o'qir ekanmiz, yuqoridagi fikrlarning haqiqatga nechog'lik yaqin ekanini ko'rishimiz mumkin. Yana shuni alohida ta'kidlash kerakki, ijodkorning asosiy maqsadi kitobxonni tarbiyali shaxs bo'lishga undashgina emas, balki insonning murakkab va mukammal ruhiy dunyosini tasvirlashdan iboratdir. Muallif qahramonlarini olamshumul yangiliklar qilishga qodir yoxud olamshumul yangiliklar qilgan odamlar orasidan tanlamaydi. Luqmon Bo'rixon hikoyalarida hozirgi

jamiyatimizda yashaydigan va siz-u bizga o'xshagan oddiy kishilar tasvirini ko'ramiz. Ammo badiiy obrazga aylangan jamiyatning oddiy a'zolarining murakkab o'y-kechinmalari, betizgin xayollari hech bir kitobxonni befarq qoldirmaydi. Ijodkor bor-yo'qligi bilinmaydigan "kichik" odamlarning "katta" dunyosidan boxabar qilish orqali insonga "sirt"iga qarab baho bermaslik kerakligini uqtirganday bo'ladi. Shuningdek, yozuvchining jisman yaqin, qalban yiroq qahramonlari bilan tanishgan kitobxon insonning ma'naviy olamini tushunish va anglashning oson emasligiga ishonch hosil qiladi. Xususan, "Tokchadagi tumor" hikoyasida birgina voqea tufayli o'z hayotini taftish qilishga "majbur bo'lgan" qahramon ruhiyati aks ettiriladi. Ushbu hikoya "Ne-ne shonli, shavkatli, zafarli harb-u zarblaridan ko'ra nikohida birgina ayol bo'lganligi bois tarixda yorug' nom qoldirgan saljuqlar sulton"² Salim II va rafiqasi Duygu begimning buyuk muhabbati haqidagi muzey xodimasi tomonidan hikoya qilingan rivoyat bilan boshlangan. "Sulton rafiqasiga muhabbat va sadoqat ramzi bo'lgan tumor taqdim qilishi va bu tumorni suyukli ayoli butun umri davomida avaylab-asrashi, eri o'lganda ham unga vafodor bo'lib

¹ Eshonqul N. Ijod falsafasi ("Men" dan "men" gacha – 2). – Toshkent: Akademiya, 2018. 23-b.

² Bo'rixon L. Ovchi qismati. – Toshkent: Turon zamin, 2023. 27-b.

qolishi o'sha jajjigina tabarruk tumorning sulton saroyining eng bebaho mulki, ilohiy muhabbatning timsoli sifatida yillar, asrlar bo'yi ko'z qorachig'idek saqlanganligi rivoyatning asosiy mazmunini tashkil etadi³. Ayni shu go'zal muhabbat qissasini eshitgan To'liqin fermer botinida paydo bo'lgan po'rtanalarni muallif bevosita qahramon zohirida ko'rsatishga harakat qiladi: *"Tomoshatalablar to'pida toyranglab turgan kengsoylik To'liqin fermer achingannamo bosh chayqab, ustma-ust uf tortib, eh, attang deb yubordi. Xodimaning titroq to'la tovushidanmi yo o'n ikki kundan beri olislarda yurib, yurtini qo'msaganidanmi, ishqilib, ne-ne sevgi sahnalari, ishq mojarolari aks etgan hind kinolarini ko'raverib diydasi qotib ketgan bo'lishiga qaramay, mahzun muhabbat haqidagi hikoyadan u xiyla ta'sirlangan edi"*⁴.

Rivoyat ta'siriga tushib qolgan qahramon muzeyga va hattoki, bu mamlakatga nima maqsadda kelganini unutib qo'yadi. To'satdan tarjimonga muhabbat va sadoqat timsoli bo'lmish ushbu tumorni sotib olmoqchi ekanini aytadi. Lekin xodimadan rad javobini olsa ham, "boy" xaridor o'z niyatidan voz kechishni istamaydi. Quyidagi jumlada muallif To'liqin fermer obrazi misolida sodda va ushlagan joyini qo'yvormaydigan o'zbek xarakterini tasvirlashga uringan: *"Chiyal bozorida savdolashaverib ko'zi pishib ketgan To'liqin fermer kampirning tabassumini, bo'shashibgina bosh chayqashini o'zicha tushunib battar qizishdi.*

– Ikki barobar haq to'layman! – deb guvrandi.

Gap nima haqda borayotganini anglagan ba'zi bir chet sayyohlar To'liqin fermerga taajjublanib tikilishar, hoynahoy, yuksak insoniy tuyg'ularni qadrlay biluvchi shunday tanti boyvachchani ko'rib turishganidan hayratlanishar, o'zaro xayrixoh pichirlashar edi. Hatto, unda-munda fotoanjomlar kengsoylik mehmon tomon to'g'irlanib bir ikki yog'du sohib oldi⁵. Tumorning asl bahosidan xabar topgandan so'ng qahramon unga faqat xotini uchungina xaridor bo'lganini aytib, rahbari oldida o'zini oqlaganday bo'ladi:

"To'liqin shirakayf odamday suzildi:

– *Xotinimga olmoqchi edim"*⁶.

"Adabiyot falsafasi So'z, uning old-ort va qa'ridagi kichik va katta olamlar falsafasidir.

Badiiy falsafa ko'zi bilan qaralsa, muayyan asardagi oddiy, tuyqus ko'zga tashlanmaydigan jumla, qahramonga berilgan tavsif katta ma'no yuki tashib, xuddi sehrgar tayoqchasidek badiiy asarga yangi qiyofa kasb etishi mumkin⁷. Quyidagi dialogda nafaqat

chin muhabbat va uning asl bahosini bilmaydigan, balki rafiqasiga arzonroq taqinchoqlariga hadya qiladigan erkak obrazi tasvirlanadi:

– *O'sha matohning narxini bilasizmi o'zi? Lo'li ayollar to'p-to'p sotib yuradigan tumorlardan deb o'ylaysiz, shekilli.*

To'liqin fermer sarosimalanib qoldi. U chindan ham ziyoratgohlar tevaragida xotin-xalaj sotib yuradigan, har xil balo-qazodan saqlashga kafolat beruvchi taqinchoqlarni eslab, oynaband tokchadagi tumor bahosi ham xuddi o'shalarnikiday deb chamalagan edi⁸. Yuqoridagi tasvirni o'qigan kitobxon To'liqin fermer ruhiyatidagi evrilishga muhabbat haqidagi qissa sababchi bo'lganiga shubha bilan qaraydi.

Aslo gap ko'tara olmaydigan va kuchini mushti bilan ko'rsatadigan qahramonning rahbarining iddaolariga ayni chog'dagi munosabatini quyidagi tasvirlardan yaqqol sezish mumkin: *"... xuddi jodulanganday ko'zlari chaqnab, miyig'ida iljayib, jununvash tebranib turar, ko'z o'ngida sershovqin, serhasham shahar, mahobatli, muazzam muzey emas, bir - biriga yelka tutib ketgan behudud qiradirlar, biyday dala-dasht yastanib ko'rinar, oppoq yuziga hasrat soya solgan, quralay ko'zlari mungli, jingil sochlari to'zg'in, motamsaro malika u tomon talpinayotgandek tuyular, yuragida sog'inchga, intiq-intizorlikka o'xshash hislar charx urib aylanar, tinimsiz tanbeh berayotgan rahbarning, qo'llaridan tortqilab uni avtobus tomon yetaklayotgan hamrohlarining gap-so'zlari ham qulog'iga bamisli olis-olislardan, elas-elas, uzuq-yuluq eshitilar edi. Ne tongki, safar muddati tugab, kechki payt bahaybat Boing o'rindiqlariga yastanib ortga qaytishar ekan, hali-hanuz o'sha tilsimli, totli tuyg'ular taloshida tebranib, ich-u tashi serjilo ranglar jilvasidan yorishib, go'yoki uchoq ichida emas, o'zi qanot chiqarib, ukpar bulutlar bilan o'ynashib, yulduzlar bilan bo'ylashib parvoz etib borardi"*⁹. Yuqoridagi jumlada "bulut" va "yulduz" detallari lazzatli tuyg'ular og'ushidagi inson obrazini gavdalantirishga xizmat qilgan. Muallif xalqimizning baxtdan sarmast kishilarga nisbatan ishlatadigan *"yetinchi osmonda his qilmoq"* iborasi zamiridagi ma'noni detallar orqali berishga harakat qiladi.

Yozuvchi hikoyasida qahramon ruhiyatini ifodalashda peyzajdan unumli foydalangan. "Portretdan farq qilaroq, peyzajning semiotik funksiyasi turli odamlar hislarining bir xil tabiat manzarasini qabul qilishdagi umumiyli bilan bog'liq. O'zining turfa ko'rinishlarida tabiat odam tug'ilganidan boshlab unga hamrohlik qiladi. U olamni bilishning doimiy obyekti va tuyg'ular manbayi hisoblanadi.

3 Sadullayeva M. Luqmon Bo'rixonning qissa va hikoyalarida badiiy mahorat masalasi: Fil. fan. fals. dok. (PhD) ... diss. – Urganch, 2023. 82-b.

4 Bo'rixon L. Ovchi qismati. – Toshkent: Turon zamin, 2023. 28-b.

5 Shu manba: 29-b.

6 Shu manba: 29-b.

7 Мели С. Сўзу сўз ("Адабиёт фалсафаси"га чизгилар...): монография. –

Ташкент: Шапк, 2017. 9-6.

8 Bo'rixon L. Ovchi qismati. – Toshkent: Turon zamin, 2023. 30-b.

9 Bo'rixon L. Ovchi qismati. – Toshkent: Turon zamin, 2023. 30-b.

Muayyan tabiat manzarasi kishiga qachonlardir shunday holatda boshdan o'tkazgan kechinmalarni eslatadi. Badiiy asardagi peyzaj kitobxonda personaj bilan kechinmadoshlik hissini yuzaga keltirish va xotira qatlarida yotgan hislar qatlamini qo'zg'ab yuborish orqali unda kuchli emotsional ta'sir uyg'otadi. Tabiat hodisalarining turli shaxslar tomonidan bir xil qabul qilinishi uning yana bir vazifasini yuzaga chiqaradi: personaj, muallif va kitobxonlar umumiy tajribasiga tayanib, yuz berayotgan voqealarga emotsional-ruhiy bo'yoq beradi¹⁰. Masalan, qishlog'iga kirar-kirmas mashinadan tushib qolgan To'lqin fermerning ruhiy qiyofasi tabiat tasviri bilan hamohang holda chizilgan: *"Kun asrdan oqqan edi. Qish qahridan endigina qutilgan qir-adirlar quyoshning iliq taftiga yalang'och yag'rinlarini toblab yotardi. Nam tuproq isi, ko'klab qolgan maysalar ifori dimoqlarga xush uriladi"*¹¹. Yoki qirning qiyasida o'tirgan ayolning o'z xotini ekanini bilgan qahramon ongida quyoshning botishi ham o'zgacha ma'no kasb etadi: *"... go'yo quvvati qurib qo'nalg'asiga qo'nayotgan quyosh Matlubaning sarg'ish-qizg'ish libosidan qayta cho'g'lanayotgandek, cho'g'lar bir parcha alangaga aylanib uning yuragiga harorat, halovat indirayotgandek tuyuldi. Beixtiyor qiyqirib xotini tomon imo-ishora qilishga chog'landi"*¹².

"Tokchadagi tumor" hikoyasida birgina rivoyat tufayli tirikchilik tashvishlaridan boshqa "baxt"ni bilmaydigan kishilarning psixologik olamidagi o'zgarishlar To'lqin fermer obrazi misolida mahorat bilan chizib berilgan. Ushbu asar ro'zg'orni butlash, farzandlar tarbiyasi, mahalla va qo'ni-qo'shnichilik muammolaridan ortmaydigan insonlarni pokiza tuyg'ularga vaqt ajratishga va yaqinlarni yaqindan bilishga chaqiradi. Zero, haqiqiy baxt tashvishlar botqog'iga botganda emas, tuyg'ular osmoniga uchganda his qilinadi.

Ushbu hikoya qahramonining ruhiyatini tozartirgan xayoliy malakning o'zining rafiqasi ekaniga iqrori bilan yakunlanadi: *"To'lqin yer ostidan sekin xotiniga qarab*

*jilmaydi. Ayni chog'da... qarshisida nozlanib, sollanib turgan ayol necha kundan beri xayolida jonlanib, orom-u tinchini o'g'irlagan malikaning o'zginasi ekanligiga so'zsiz iqrar bo'ldi"*¹³.

"Asar asosini syujet, qiziqarli voqealar emas, ular ta'sirida paydo bo'ladigan oniy tuyg'u, lahzalik holat, muvaqqat kechinmalar tashkil etishi, o'quvchiga tasavvur qilish, mantiq va hissiyotni uyg'unlashtirish imkonini berishi lozim"¹⁴. Shuningdek, hikoyada tumor detali orqali qadr topgan va xor qilingan muhabbat o'rtasidagi tafovut aks ettirilgan. Ya'ni muzeydagi tumor buyuk muhabbat timsoli sifatida e'zozlanayotgan bir paytda tokchadagi tumor ter hidi kelishi sababli bir burchakka tashlab qo'yiladi. Muallif Salim II va To'lqin fermer obrazlarini bir-biriga kontrast qo'yish orqali ham hikoya badiiyatini yanada kuchaytiradi.

O'tgan asrning "70–80-yillarida adiblarimiz, asosan, shaxsning jamiyatda tutgan o'rni va qadr-qimmatini kabi muammolarni aks ettirishning o'ziga xos tamoyillarini vujudga keltirgan edi. Bugunga kelib esa bu muammoning mohiyati tubdan o'zgardi, endi yozuvchilarimiz ko'proq shaxsning ko'ngil kechinmalari orqali inson kim va u nimalarga qodir kabi savollarga javob izlab, insonning ichki olamini tadqiq qila boshladi. Bu xususiyat badiiy adabiyotda yangidan yangi tamoyillarni ro'yobga chiqardi"¹⁵.

Umuman olganda, Luqmon Bo'rixon ijodida ruhiyat manzaralarini tasvirlash masalasi markaziy o'rinda turadi. Uning hikoyalarida qahramonlar ichki dunyosi, ruhiy iztiroblari, hayotiy tanlovlar qarshisidagi psixologik holati tahlil etiladi. Xususan, "Tokchadagi tumor" hikoyasida personajning botiniy kechinmalari, ichki qarama-qarshiliklari va ruhiy azoblardan qutulish yo'lidagi kurashi badiiy tasvir vositalari yordamida chizib beriladi. Shuningdek, muallif peyzaj, portret va detallar orqali qahramonlar ruhiy holatini tasvirlashda mahorat bilan foydalanadi.

13 Shu manba: 35-b.

14 Sadullayeva M. Luqmon Bo'rixonning qissa va hikoyalarida badiiy mahorat masalasi: Fil. fan. fals. dok. (PhD) ... diss. – Urganch, 2023. 83-b.

15 Матякупов С. Инсон концепцияси ва шахс бадий талкини: фил. фан. ном... дисс. – Тошкент, 2006. 23-б.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bo'rixon L. *Ovchi qismati*. – T.: Turon zamin, 2023.
2. Бобохонов М. Ҳозирги ўзбек романларида психологизм муаммоси: Фил. фан. док. (DsC) ... дисс. С., 2022.
3. Eshonqul, N. *Ijod falsafasi ("Men" dan "men" gacha – 2)*. – T.: Akademnashr, 2018.
4. Матякупов С. Инсон концепцияси ва шахс бадий талкини: фил. фан. ном... дисс. – Т., 2006.
5. Мели, С. Сўзу сўз ("Адабиёт фалсафаси"га чизгилар...): монография. – Т.: Шарқ, 2017.
6. Рубинштейн С. Л. Основы общей психологии. – М.: Питер, 2000.
7. Sadullayeva M. *Luqmon Bo'rixonning qissa va hikoyalarida badiiy mahorat masalasi: Fil. fan. fals. dok. (PhD) ... diss.* – U., 2023.
8. Йўлдош, Қ. Очқич сўз. – Т.: Тафаккур, 2019.

Nodira ABDUKARIMOVA,

O'zbekiston Milliy universiteti Xorijiy filologiya fakulteti

Lingvistika yo'nalishi magistratura bitiruvchisi

Zarnigor BAXTIYOROVA,

Webster universiteti Boshqa tillarda so'zlovchilarga

ingliz tilini o'qitish (MA TESOL) yo'nalishi magistratura bitiruvchisi

Sevara UNGALOVA,

O'zbekiston Milliy universiteti Xorijiy filologiya fakulteti

Lingvistika yo'nalishi magistratura bitiruvchisi

“IKKI ESHIK ORASI” ASARIDA METAFORALAR ORQALI XARAKTER VA RUHIY HOLAT IFODASI

Annotatsiya: ushbu maqolada O'tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanidagi metaforalar tahlil qilinadi. Asarda metaforalar yordamida qahramonlar xarakteri va ruhiy holati ochib berilishi, shuningdek, ularning badiiy va konseptual funksiyalari yoritiladi. Tahlil jarayonida lingvistik-stilistik usullar asosida metaforalarning ma'no qatlamlari, obrazlilik darajasi va affektiv xususiyatlari o'rganiladi. Tadqiqot natijalari asarning ruhiy-estetik ta'sirini kuchaytiruvchi metaforalarning o'rnini aniqlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: “Ikki eshik orasi”, metafora, xarakter tasviri, ruhiy holat, lingvistik-stilistik tahlil, badiiy obraz, konseptual ma'no, stilistik vositalar, affektiv xususiyatlar.

Аннотация: в данной статье анализируются метафоры в романе Уткира Хошимова “Икки эшик ораси”. Рассматривается, как с помощью метафор раскрываются характеры и психологическое состояние персонажей, а также их художественные и концептуальные функции. В процессе анализа исследуются смысловые уровни метафор, степень образности и аффективные особенности с опорой на лингвистико-стилистические методы. Результаты исследования способствуют выявлению роли метафор в усилении психологико-эстетического воздействия произведения.

Ключевые слова: “Икки эшик ораси”, метафора, характеристика персонажей, психологическое состояние, лингвостиллистический анализ, художественный образ, концептуальное значение, стилистические средства, аффективные свойства.

Annotation: this article analyzes the use of metaphors in O'tkir Hoshimov's novel “Ikki eshik orasi”. It explores how metaphors reveal the characters' personalities and psychological states, as well as their artistic and conceptual functions. The analysis draws on linguistic and stylistic methods to examine the semantic layers, imagery, and affective qualities of the metaphors. The findings highlight the role of metaphors in enhancing the novel's emotional and aesthetic impact.

Key words: “Ikki eshik orasi”, metaphor, character portrayal, psychological state, linguistic-stylistic analysis, artistic imagery, conceptual meaning, stylistic devices, affective features.

Kirish. Tilshunoslikda metafora hodisasi til birliklarini qayta tahlil qilish jarayonida yangi ma'nolar paydo bo'lishi sifatida ham, allaqachon shakllangan ma'no ko'chish shakli sifatida ham o'rganilgan. Metafora so'zi esa nutqdagi hodisa bo'lib, unda biror leksema o'zining tashqi yoki zohiriy o'xshashligi tufayli boshqa ma'noni ifodalash uchun qo'llanadi.

Endi O'tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romaniga keladigan bo'lsak, ushbu asarda yozuvchi qariyb qirq yillik davrni qamrab olib, murakkab va chigal taqdirlar orqali xalqining tarixiy qismatini mahorat bilan yoritgan. Muallif, eng avvalo, urushning tinchlikka tahdid solishini ko'rsatib o'tadi. Ayniqsa, urush har bir ota-ona qalbini jarohatlab, ularga qanchalik og'ir zarba

bergani romanning asosiy ma'naviy yo'nalishini belgilaydi.

Asosiy qism. Tajribali yozuvchi har bir voqeani chuqur o'rganib, epizodlarni shunday tasvirlaydiki, o'quvchi har bir sahnani yurakdan his qiladi. Asarda hayotiy manzaralar, insonlararo munosabatlar va

yo'zuvchining o'ziga xos uslubi tabiiylik va samimiyligi bilan ajralib turadi. Yetti qism va qirq yetti bobdan iborat bu roman o'zining betakror kompozitsion qurilishi bilan ham diqqatga sazovor. Muallif asardagi voqealarni to'qqizta personaj orqali hikoya qilib, ularni mohirona bog'lab yuborgan.

Asarda keltirilgan ba'zi metaforalar tahlili:

1	Haligina biznikida "ma'lum oshi" berib quvongan odamlar uyga kirishi bilan boshiga <i>tog'dek kulfat</i> tushsa! (187-b.)	4	<i>Vatanimiz boshiga og'irsinov tushdi.</i> (105-b.)
2	Yurtga kelgan to'y... Hamma urushga borsa-yu, Kimsan <i>toshbaqadek boshini ichiga tortib o'tirsa</i> yarashadimi? (101-b.)	5	<i>Xijolatdan yuzlari lovullab</i> supa oldiga keldi. (105-b.)
3	U indamadi. Negadir jilmayib qo'ydi. Oraga <i>tushgan yurakni sirqiraturvchi sukunat</i> cho'kdi. (102-b.)	6	Kutasan-a! – Shunday dedi-yu, hamisha yuvosh, o'ychan boqadigan <i>ko'zlarida olov yarq etdi.</i> (102-b.)

1. **"Tog'dek kulfat"** iborasi og'ir sinov, juda katta musibat yoki yengib o'tish qiyin bo'lgan tashvish ma'nosini bildiradi. Ushbu ifoda, odatda, inson hayotidagi juda katta qiyinchiliklarni, kutilmagan falokatlarni yoki qattiq azob-uqubatlarni tasvirlash uchun ishlatiladi. Bu iborada "tog'" so'zi muammolar va tashvishlarning ulkanligi, ularni yengishning og'irligini bildiradi. Tog' qandayki o'zining ulug'vorligi va yengib bo'lmaz qiyin yo'llari bilan ajralib tursa, **"tog'dek kulfat"** ham inson hayotida ortga chekinish yoki yechimini topish juda mushkul bo'lgan vaziyatlarni tasvirlash uchun ishlatiladi.

2. **"Toshbaqadek boshini ichiga tortib o'tirmoq"** iborasi odamning o'zini chetga olish, himoyalaniish yoki sukut saqlash holatini ifodalaydi. Ma'nosi jihatidan, bu jumla insonning hayotdagi qiyin, noaniq yoki xavfli vaziyatlarda faol harakat qilish o'rniga, o'zini chetga olib, hech narsaga aralashmaslikni afzal ko'rishini bildiradi. Bunday holat qo'rquv, ishonchsizlik yoki ortiqcha muammolardan qochish istagi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shuningdek, odam o'zining fikrini yashirish yoki atrofdagilarning e'tiboridan qochish uchun ham shu holatda bo'lishi mumkin. Bunday tasvirlash usuli tabiatdagi toshbaqaning o'ziga xos xatti-harakatiga asoslanadi: u xavfni sezganda yoki o'zini himoya qilish zarurati

tug'ilganda, boshini va tanasini qobig'i ichiga tortib, tashqi ta'sirlardan yakkaolangan holda qoladi.

3. **"Yurakniezuvchisukunat"**—bu ovoznig yo'qligi bilan bog'liq chuqur hissiy og'irlikni ifodalaydi. U qayg'u, umidsizlik yoki hissiy uzoqlikdan kelib chiqishi mumkin, bu holatda so'zlar dardning yoki alamning chuqurligini ifoda etishga o'zlik qiladi. Bu sukunat og'ir, uzoq davom etuvchi va aytilmagan his-tuyg'ular bilan to'la bo'lib, yolg'izlik, afsus yoki yo'qotish tuyg'ularini yanada kuchaytiradi. Bu ibora sukunatni shunchaki tovushning yo'qligidan ko'ra chuqurroq ma'noga ega bo'lgan, qayg'u yoki sog'inchning kuchli ifodasiga aylantiradi.

4. Ushbu ibora yurt yoki xalq katta qiyinchilik, sinov yoki falokatga duch kelganini bildiradi. Bu sinov tabiiy ofatlar, iqtisodiy muammolar, urush, pandemiya yoki ijtimoiy tanglik kabi turli holatlarga ishora qilishi mumkin. "Vatanimiz boshiga" — bu qism yurt yoki xalqni anglatib, sinov aynan jamiyat yoki mamlakatga ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. "Og'ir sinov tushdi." — sinovning jiddiy, qiyin va og'ir ekanini bildiradi. Bu tasodifiy emas, balki katta ta'sir ko'rsatadigan voqea ekanini anglatadi. Ushbu ibora ko'proq rasmiy va ta'sirchan kontekstlarda ishlatiladi.



5. **“Xijolatdan yuzlari lovullab supa oldiga keldi”** jumlasini insonning ruhiy va jismoniy holatini tasvirlaydi. Bu jumla kishining uyalish yoki noqulaylik hissi tufayli ichki va tashqi reaksiyasini ifodalaydi. Xijolat – odamning o‘zini noqulay, noaniq yoki uyatli vaziyatda his qilishi, yuzining lovullashi esa uyalish natijasida yuzaga keladigan jismoniy o‘zgarishdir. “Yuzlari lovullab” – bu qism obrazli ifoda bo‘lib, odamning qizarib ketganini, issiqlikni his qilayotganini yoki ruhiy hayajonni anglatadi. Jumla o‘quvchida uyat,

noqulaylik yoki hayajon holatini tasavvur qilishga yordam beradi.

6. **“Ko‘zlarida olov yarq etmoq”** iborasi insonning ichki kechinmalarini, his-tuyg‘ularining kuchliligini yoki ruhiy jo‘shqinligini ifodalaydi. Bu ibora ko‘pincha kuchli ishtiyoq, g‘ayrat, motivatsiya yoki hayajonni tasvirlash uchun qo‘llanadi. Ko‘zlarning yaltirashi yoki porlashi insonning ichki olovini, shijoatini yoki ichki quvvatini ifodalashi mumkin. Shuningdek, bu ibora nafaqat ijobiy hissiyotlarni, balki g‘azab, qahr-g‘azab yoki qat‘iyatni ham anglatishi mumkin. Inson ichki dunyosidagi ehtiros yoki maqsadga intilish shu ibora orqali jonli tarzda ifodalanadi.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ushbu tadqiqot doirasida “Ikki eshik orasi” romanida ishlatilgan metaforalar tahlil qilinib, ularning affektiv xususiyatlari o‘rganildi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, roman matnidagi metaforalar asosan, inson ichki dunyosini, hissiyot va kechinmalarini chuqur aks ettirishga xizmat qiladi. Ular nafaqat badiiy tasvir vositasi, balki o‘quvchining his-tuyg‘ulariga ta’sir qiluvchi kuchli omil sifatida ham namoyon bo‘ladi. Tahlil qilingan metaforalar roman qahramonlarining hayotiy iztiroblarini, ruhiy holatlarini va dunyoqarashini yanada ta’sirchan ifodalashga yordam beradi. Bu esa metaforalar orqali adabiy matnda affektiv ta’sirning shakllanishini yaqqol namoyish etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Otkir Hoshimov, Ikki eshik orasi: Roman. – T.: “Sharq”, 2012.
2. Nurmonov “O‘zbek tilining nazariy grammatikasi”. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1995.
3. G‘ani Abduraxmonov. “O‘zbek tili grammatikasi”. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1996.
4. “O‘zbek tilining ilmiy grammatikasi”. – Toshkent: “Fan” nashriyoti, 1941.
5. Sh. Rahmatullayev. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”, 2006.



Dilnoza RUZIYEVA,
O'zbekiston -Finlandiya pedagogika instituti magistranti
mroziyev787@gmail.com

IBROHIM ADHAM: TARIXIY SHAXS VA TASAVVUFDAGI RIVOYATLAR

Annotatsiya : tasavvuf tarixidagi ilk zohidlik va sufiylikning mashhur namoyandalardan biri sifatida tilga olinadigan Ibrohim Adham islom dunyosida keng tarqalgan rivoyatlar va hikmatlar orqali adabiyot olamida mashhur obrazlardan biridir. Uning Balx shahrida tug'ilganligi, saroyda mashhur lavozimda faoliyat yuritganligi, keyinchalik saroy hayotidan voz kechib, riyozat va zohidlik yo'lini tutganligi haqida turli taxminiy fikrlar mavjud. Mazkur maqolada Ibrohim Adhamning tarixiy shaxsi, u haqidagi rivoyatlarning shakllanish jarayoni va turk ilmiy adabiyotidagi tadqiqotlarga nazar tashlanadi.

Kalit so'zlar : "Tazkirat ul-avliyo", Ibrohim Adham, hikmat, Robiya Adaviya, *Islâm Ansiklopedisi*

Аннотация: Ибрахим Адхам, упоминаемый как один из первых известных представителей аскетизма и суфизма в истории тасаввуфа, является одним из знаменитых образов в мире литературы благодаря преданиям и мудрым изречениям, широко распространенным в исламском мире. Существуют различные предположения о том, что он родился в городе Балх, занимал высокую должность во дворце, а позже отказался от придворной жизни и избрал путь аскетизма и отшельничества. В данной статье рассматривается историческая личность Ибрахима Адхама, процесс формирования легенд о нем и исследования в турецкой научной литературе.

Ключевые слова: "Тазкират уль-авлия", Ибрахим Адхам, хикмат, Рабия Адавия, *Исламская энциклопедия*

Annotation: Ibrahim Adham, renowned as one of the earliest prominent figures of asceticism and Sufism in the history of Islamic mysticism, is a famous character in literature through legends and wisdom sayings widely circulated in the Islamic world. Various conjectures exist about his birth in the city of Balkh, his holding a prominent position in the palace, and his later renunciation of palace life to pursue the path of austerity and asceticism. This article examines the historical figure of Ibrahim Adham, the process of legend formation about him, and research in Turkish scholarly literature.

Key words: "Tazkirat ul-awliya", Ibrahim Adham, wisdom saying, Rabia Adawiyya, *Encyclopedia of Islam*.

ASOSIY QISM. Taxminlarga ko'ra, Ibrohim Adham Xurosonning Balx shahridan bo'lib, VIII asrning birinchi yarmida yashagan. Uning zamondoshlari sifatida Shaqiq al-Balxiy va Fuzayl ibn Iyoz kabi mashhur zohidlar tilga olinadi. Fariddin Attorning "Tazkirat ul-avliyo" asarida u haqida ma'lumot keltiriladi. Uning halol mehnat qilib kun kechirgani, dehqonchilik, baliqchilik bilan turmush o'tkazgani aytiladi. Shom va Jazoir hududlarida yashagani qayd etiladi. Vafot etgan joyi esa Bizans chegarasidagi g'azot chog'ida, taxminan 777–782-yillar oralig'ida ekanligi zikr qilinadi.

Ibrohim Adham haqidagi eng mashhur rivoyatlardan biri – "podshohlikdan voz kechish" rivoyati bo'lib, unga ko'ra Ibrohim Adham Balx hukmdori edi. U ov paytida eshitgan ilohiy nidodan so'ng taxtni tashlab, zohidlik yo'liga kiradi. Tadqiqotchilar fikricha, bu rivoyat keyingi davrlarda shakllangan manqibiy qatlam bo'lib, Ibrohim Adhamni xalq ongida "taxtni tark etgan podshoh" sifatida yod ettirishga xizmat qilgan. Fariddin Attor "Tazkirat al-avliyo"sida bu rivoyat eng keng shaklda

berilgan. Bu asarda rivoyat qilinishicha, Ibrohim Adham Balx viloyatida podshohlik qilardi, uning shon-shuhrati shu qadar ediki, biror manzilga yo'l oladigan bo'lsa, qirq qalqon oltin oldida, qirq qalqon oltin so'ngida yarqirab borar, uning ta'rifi cheksiz edi. Bir kecha saltanat taxtida yotganida tun yarmida uyg'onib, "OLLOH" dedi. Shu payt tomida oyoq tovushi eshitildi. "Kimsan, bu vaqt podshoh saroyining ustida nima qilib yuribsan", – deb so'radi. – Tuyamni yo'qotdim axtarib yuribman, – dedi. Bu holatdan Ibrohim Adham kuldi va dedi : "Ey nodon, tun o'rtasida tom ustida nima uchun tuya izlaysan?". U dedi: "Ey nodon, Alloh taoloni oltin taxt-u atlas ko'rpalar ichidan izlaganingda, mening tom ustida tuya izlaganim ajabliroq tuyuldimi?". Bu so'zdan Ibrohim Adhamning dard-u alami ziyoda bo'lib, ko'zidan uyqu o'chdi va tonggacha tafakkur qilib o'tirdi. Shundan so'ng Ibrohim Adhamning hayotida va qalbida evrilish yuz berdi. U o'z ichki hissiyotlarini nazorat qilish va tushunish maqsadida ov qilishni ko'ngli tusadi. Ov jarayonida g'oyibdan unga "o'limdan ilgari uyg'on" degan ovoz eshitildi. Ovoz qayerdan

kelayotganini fahmlash uchun harakat qilayotganida ko'zi bir kiyikka tushdi va ovlamoqchi bo'ldi. Shunda kiyik tilga kirib: "Oллоh seni ovlamoq uchun yaratdimi yoki boshqa ishlar uchunmi?" deya so'zladi. Bu holdan so'ng uning ko'ziga ikki farishta ko'rindi va yig'lay boshladi. Shu darajada yig'ladiki, oti va to'ni ho'l bo'ldi. Yana g'oyibdan ovoz keldi: "Ey Ibrohim, qaytgin va tavba qil! Bu dunyo o'tkinchidir!". Bu gal Ibrohim qattiq tavba qildi. Yo'lda bir cho'ponga duch keldi, unga: "Ey cho'pon, bu shol to'ning va kigiz bo'kingni menga ber va mening atlas to'nimni va zarrin tojimni olgin. Men Balx podshohiman, sen mening qulimsan. Seni Oллоh haqi ozod qildim va bu qo'ylarni ham senga bag'ishladim". Shundan so'ng Ibrohim Adham nolon va giryon holda yo'l oldi, yo'lda bir ko'priikka duch keldi. Bir kishi ko'prikk o'rtasiga borganda boshi bilan quladi. Ibrohim u kishini omon saqlashni Oллоhdan so'radi. Uning duosi qabul bo'lib, qulayotgan kishi havoda muallaq qoldi. Suvga kelganlar uni arqon tashlab tortib oldilar.

Bunga o'xshash rivoyat va hikoyatlar zamirida haqiqat va badiiy to'qima qorishgan holda keladi. Ibrohim Adham haqidagi qissalar adabiyotdagi ko'plab asarlar tarkibida ham uchraydi. Jumladan, buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning "Xamsa" asaridagi "Hayrat ul abror" dostonining ikkinchi maqolati islomiy qonun- qoidalar haqida bo'lib, unga g'oyaviy qo'shimcha tarzda keltirilgan hikoyat ham Ibrohim Adham va Robiya Adaviya o'rtasidagi suhbatga bag'ishlangan. Unda keltirilishicha, Ibrohim Adham podshohlikni tark etgandan so'ng Ka'ba ziyoratiga yo'l oladi. Ka'baga olib boradigan dashtni o'n to'rt yil davomida har qadamda ikki rakat namoz o'qigan holatda bosib o'tdi. Uni madh etish uchun har bir tikan va giyohlar tilga kirdi. Ka'bani tavof etish uchun kirib kelar ekan, Baytul Haram o'z o'rnida yo'q edi. "Bu ne hol, ey Xudo", deya fig'on qildi. G'oyibdan kelgan ovoz: "Ey yo'lovchilarning piri! Bir qariya ayol cho'lni bosib o'tar ekan, Allohga bo'lgan shavq-u muhabbat yuki og'irligidan qaddi bukilibdi. Zaiflikdan u shunday kuchsizlanibdi, endi Ka'ba o'zi uni ziyorat qilishga ketdi", dedi. Bu voqea Adhamni hayron qoldirdi. U Robiya Adaviyadan bu holning sababini so'raganda Robiya dedi: "Tushun! Bir necha yil cho'lda barcha yo'llarni bosib o'tar ekansan, sening ishing namoz o'qimoq bo'ldi, xolos! Men esa Unga istagimni aytdim,

yalinib-yolvordim. Namoz o'qib, riyo qilib erishgan hosiling shudir. Menga esa yalinib-yolvorishim shu mevani berdi".

Ibrohim Adhamning hikmatlarida asosiy urg'u – qalb pokligi, halol mehnat va dunyoga berilmaslikdir. Ibrohim Adhamdan bir kishi o'git so'raganida, u shunday javob berdi: "Qo'lingni ochgil, og'zingni yopgil. Hayo eshigini ochgil, uyqu eshigini yopgil. Toat eshigini ochgil, g'aflat eshigini yopgil". Bu kabi hikmatlar keyingi asrlarda tasavvufiy adabiyot va xalq rivoyatlariga chuqur ta'sir ko'rsatgan.

Ibrohim Adham obrazi, uning afsona va haqiqatlarga yo'g'rilgan hayoti juda ko'p tadqiq etilgan. Jumladan, Turkiyada ham Ibrohim Adham obrazi keng ilmiy tadqiq etilgan:

- **TDV İslâm Ansiklopedisi**dagi "İbrâhim b. Edhem" maqolasi (Süleyman Uludağ) uning hayoti va rivoyatlarini tanqidiy tahlil qiladi.

- **Seydi Kiraz, "Türk Edebiyatında İbrâhîm bin Edhem"** (Hikmet Akademik Edebiyat Dergisi) maqolasi devon va xalq adabiyotida yaratilgan "Kıssa-i İbrâhim b. Edhem", "Edhem-nâme" kabi matnlarni tahlil qiladi.

- **YÖK Ulusal Tez Merkez**ida "Kıssa-i İbrâhim b. Edhem" asosida yozilgan magistrlik dissertatsiyalari mavjud.

- ****Fariddin Attor, "Tezkiretü'l-Evliyâ"*****ning turkcha tarjimalarida ham Ibrohim Adham rivoyatlari ilmiy izohlar bilan chop etilgan.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Ibrohim Adhamning tarixiy shaxsi — VIII asrda yashagan zohid-sufiy. Lekin uning podshohlikdan voz kechishi, karomatlari va manoqiblari – keyingi asrlarda shakllangan afsonaviy qatlamdir. Bu hodisa tasavvuf tarixida tez-tez uchraydigan jarayon bo'lib, tarixiy shaxs atrofida badiiy va didaktik rivoyatlar to'planadi.

Xulosa. Ibrohim Adham islom tasavvufi tarixida muhim o'rin tutadi. U o'z davrida zuhd va riyozat yo'lini tutgan zohid sifatida tanilgan bo'lsa-da, keyingi adabiyot va xalq rivoyatlarida "taxtdan voz kechgan podshoh" qiyofasida mashhur bo'ldi. Turk adabiyotida unga bag'ishlab yozilgan qissa va dostonlar esa uning tasavvufiy merosini yanada keng yoyilishiga xizmat qilgan. Shu bois, Ibrohim Adham shaxsini o'rganishda tarixiy manbalarni afsonaviy rivoyatlardan ajratish zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Attor, Fariddudin. Tazkirat ul-avliyè\ Ф.Аттор; нашрга тайёр. ва сўз боши муаллифи А.Мадраимов, ўзбек тилига айлантирувчилар М.Ҳасаний, Х.Аминов, А.Ҳасаний, А.Мадримов. – Тошкент: Гафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2013. 464-б.
2. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. – Тошкент: Гафур Гулом, 2011.
3. <https://share.google/g8OOYXW8hOLU48oEL>
4. <https://share.google/kmacykuXHnXeDOiXt>

Yulduz AVEZOVA,
Jondor tumanidagi 9-maktabning
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, magistrl

INGLIZ, RUS VA O'ZBEK TILLARIDA FARMATSEVTIK LEKSIKADA MA'NODOSHLIK

Annotatsiya: ushbu maqolada farmatsevtika sohasidagi so'zlar o'rtasida qanday qilib sinonimik hodisaning yuz berishi, bu borada tilshunoslarning keltirilgan fikrlari tahlili va sinonimik hodisa turlari haqida so'z boradi

Kalit so'zlar: *paradigmatik munosabat, sintagmatik munosabat, polisemiya, antonimiya, termin, signifikativ, distributiv, terminologiya, lug'atshunoslik, stilistik sinonimiya.*

Annotation: this article discusses how synonymous phenomena occur between words in the pharmaceutical field, an analysis of the opinions of linguists on this issue, and the types of synonymous phenomena.

Key words: *paradigmatic relationship, syntagmatic relationship, polysemy, antonymy, term, significative, distributive, terminology, lexicography, stylistic synonymy.*

Аннотация: в данной статье рассматривается, как возникают синонимические явления между словами в фармацевтической сфере, анализируется мнение лингвистов по этому вопросу, а также виды синонимических явлений.

Ключевые слова: *парадигматическое отношение, синтагматическое отношение, полисемия, антонимия, термин, сигнификативный, дистрибутивный, терминология, лексикография, стилистическая синонимия.*

Chog'ishtirilayotgan tillar farmatsevtika sohasiga oid hujjatlar matnlarida, adabiyotlarda, ilmiy maqolalarda va monografiyalarda qo'llanilgan terminlarni tahlil qilish natijasida ularning aksariyat qismi milliy tillarga lotin tilidan ingliz tili orqali kirib kelganini kuzatishimiz mumkin. Shu bilan bir qatorda o'zbek tili farmatsevtika terminologiyasining rivojlanishiga esa ushbu tillar bilan bir qatorda vositachi rus tili ham muayyan darajada ta'sir ko'rsatgan. Bu esa o'z navbatida farmatsevtik terminlar o'rtasida sinonimiya hodisasiga sabab bo'lmoqda. Shu ma'noda, qayd etish lozimki, soha matnlarida farmatsevtik terminlar o'zaro leksik-semantik shaklda o'zlashma qatlam birliklari hisobiga ma'nodoshlikni hosil qiladi. Quyida biz ularga muayyan nutq fragmentlari materiallarining tahlili asosida atroflicha to'xtalib o'tamiz.

Tilshunoslikda paradigmatik va sintagmatik munosabatlar masalasiga, xususan, turli soha terminologiyalaridagi sinonimiya hodisasi ko'plab olimlarni, mutaxassislarining e'tiborini o'ziga jalb qilgan. Vaholanki, terminologiyada sinonimlarning mavjudligi, ularga alohida terminologik birliklar sifatida qarash terminologiyaning asosiy kamchiliklari sifatida qabul qilingan. Shunga qaramasdan, sinonimiya har qanday soha leksikasida muayyan darajada pragmatik, sintaktik va paradigmatik aloqadorlik

xususiyatlarini o'zida namoyon etmoqda. Zamonaviy terminshunoslarning fikriga ko'ra, "termin-subsrati, ya'ni, asosiy manbai tabiiy til bo'lgan leksik birlik yordamida hosil bo'ladi. Natijada, u milliy tildagi leksik birliklarning umumiy xususiyatlarini saqlab qoladi va uning o'ziga xos xususiyatlarini subsrat asoslar vositasida leksik-semantik jihatdan o'zgarib boradi". Terminga nisbatan bunday yondashuv uning zamonaviy mohiyatiga to'la mos keladi, unga ko'ra terminlar maxsus so'zlar emas, balki tildagi umumiy leksik birliklarning barcha lisoniy xususiyatlariga ega bo'lgan maxsus funksiyadagi so'zlardir, degan izoh vujudga kelishi mumkin. Shunday qilib, zamonaviy terminologiya tilning asosiy quyi tizimlaridan biri bo'lganligi sababli, terminologiyani lingvistik va ekstralingvistik qonunlar va jarayonlardan, uning tadrijiy rivojlanishi qo'llanilishiga oid mezonlardan ajratib o'rganish muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Terminologik birliklarning sinonimiyasi (yunoncha *synonymia* – "bir xil nomga egalik, bir ma'noga ega") – bu turli xil termin va shunga o'xshash til birliklarining semantik jihatdan yagona tushunchani ifodalash qobiliyatiga asoslangan, uning turli xil qo'shimcha xususiyatlar, hissiy yoki uslubi bo'yoqdorligini boshqasi bilan mutanosibligini

anglatuvchi semantik munosabatlarning o'ziga xos turidir. A.A.Reformatskiyning fikriga ko'ra, sinonimlar semantik jihatdan bir xil bo'lgan har xil leksik shakldagi so'zlardir, dubletlar esa bir so'zning turli shakllaridir. Shunga ko'ra, olim biror soha terminologiyasini tartibga solishda sinonim va dubletlarni ajratib olish muhim vazifalardan biridir, deb ta'kidlaydi. Shu o'rinda o'zbek tili terminologiyasini atroflicha tadqiq qilgan R.Doniyorov sinonimlarga quyidagi ta'rifni bergan. "Sinonimlar – semantik jihatdan bir-biriga yaqin yoki o'xshash tushunchani ifodalaydigan va ma'no belgilariga yoxud uslubiy bo'yog'iga ko'ra o'zaro farqlanadigan leksemalardir."

Ingliz va o'zbek tillarida soliq – bojxona terminlarining lingvistik tahlili va tarjima muammolarini tadqiq etgan O.S.Axmedov tildagi sinonimiya va polisemiya hodisalari terminologiyalar uchun maqbul va me'yoriy holat ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra "Ingliz va o'zbek tili muloqoti jarayonida sinonimlar va polisemantik so'zlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, jonli so'zlashuv nutqini bezashga yordam bersa-da, terminlarga boy bo'lgan ilmiy uslubdagi tarjima jarayonida bir muncha muammoli vaziyatni yuzaga keltiradi. Chunki, sinonimik hamda polisemantik so'zlar biror bir soha qonunchiligida qo'llanadigan tushunchaning aniq ifodasi bo'la olmaydi. Xolbuki, amaliyotda ularning ma'nolari yetarlicha farqlanmayotgani bois bunday terminlar me'yoriy hujjatlarda turlicha sharhlanmoqda hamda tarjima adekvatligining yuzaga kelishiga monelik qilmoqda"

Biz buni ingliz, rus va o'zbek tillari farmatsevtika sohasiga oid termin va leksemalarning sinonimik xususiyatlarini tadqiq qilish jarayonida atroflicha isbotlashga harakat qilamiz.

Terminologiya sohasida keng tarqalgan sinonimiya hodisasi terminologik tizimlarning shakllanishi va rivojlanishi uchun xarakterlidir. Sohalar terminologik tizimlarida uchrovchi omonim so'zlarning asosiy sababi esa, birinchidan, muloqotda qo'llanadigan har bir tushunchani alohida maxsus termin bilan ifodalashga terminologiyaning imkoniyatlari chegaralanganligi, ikkinchidan, til birliklarining bir-biriga yaqin o'zaro tushunchalar o'rtasiga mazmuniy aniqlik kiritish muhimligi bilan izohlanadi. Buni ingliz va o'zbek tillari farmatsevtika sohasiga oid terminlarining semantik strukturasiga lingvistik jihatdan qaraladigan bo'lsa, mazkur soha terminlari ham xuddi umumiste'mol

so'zlaridek ko'p ma'nolilik (polisemantik) va ma'nodoshlik (sinonimlik), qarama-qarshi, ya'ni zid ma'noga ega bo'lish (antonimik) xususiyatga ega ekanligiga guvoh bo'lamiz. Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, tadqiqotimiz natijalari asosida "terminga xos bir ma'nolik" degan tushunchaning birmuncha nisbiy hodisa sifatida namoyon bo'lishi kuzatiladi.

Bugungi kunda tilshunoslik va terminologiya leksik birliklarini paradigmatic va sintagmatic munosabatlarda sinonimik xususiyatlarini tahlil va tadqiq qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Binobarin, hanuzgacha farmatsevtika faoliyati va dorixona xizmatiga bevosita aloqador mukammal tarjima ko'p tilli (inglizcha-o'zbekcha) lug'atlarini nashr etilmagani ham fikrimizning isbotidir. Chunki ushbu mazmundagi lug'at sohaga oid malumotlarni, terminlarning ma'no nozikliklarini ochib berish bilan bir qatorda ular yordamida asli lotin tilidan milliy tilimizga o'zlashgan til birliklarining mazmun-mohiyatini aniq ifodalash va batafsil izoh berish orqali foydalanuvchilarga qulaylik yaratadi. Bundan tashqari, u yoki bu sinonimik terminlarni qo'llashdagi murakkabliklar, sinonimlarning xilma-xilligi va ularning ilmiy nutqning turli janrlarida, shu jumladan, ilmiy va kasbiy soha matn (diskurs)lar ustida ishlash jarayonida o'ziga xos lisoniy xususiyatlarni namoyon etadi.

Chog'ishtirilayotgan tillar farmatsevtika terminologiyasi bilan bog'liq sinonimik nominatsiyalarning turli jihatlarini hisobga olgan holda o'rganish taqozo etiladi. Masalan: struktur (struktur sinonimiya), denotativ – signifikativ (semantik sinonimiya), uslubiy (stilistik sinonimiya), tarjima (tillararo sinonimiya), idiografik sinonimiya, distributiv, funksional va boshqa sinonimiya turlari shular jumlasidandir.

Chog'ishtirilayotgan tillardagi turli xil farmatsevtik manbalar (dori vositalari annotatsiyalari, yo'riqnomalari, adabiyotlar, monografiyalari, maqolalar)ga asoslangan holda ikki til farmatsevtika terminologiyasi mutlaqo bir xil ma'noga ega bo'lgan terminologik sinonimlar (mutlaq sinonimlar), dubletlar keng tarqalgan.

Soha terminologiyasidagi qisqartirishlar asosan juft sinonimik dubletlar tarkibida namoyon bo'ladi. Ular orasida ma'lum bir leksemalar soha terminining qisqartirilgan shaklida, ya'ni ko'p komponentli

terminning muhim qismlari qisqartirish hodisasi jarayonida ishtirok etadi va terminologik elementlarni o'z ichiga oladi. Quyida qisqartma terminologik sinonimlarning qo'llanilishi bilan bog'liq amaliy mezonlar keltirdik.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, chog'ishtirilayotgan tillar farmatsevtika sohasiga oid matnlar, ilmiy maqolalar, monografiyalarda qo'llaniladigan terminlarning aksariyat qismi barcha tillarga dastavval lotin va grek tillaridan vositachi ingliz tili orqali kirib kelgan. O'zbek tili farmatsevtika terminologiyasining shakllanishida rus tili ham muayyan darajada ta'sir o'tkazgan. Soha terminologiyasidagi o'zga tillardan so'z o'zlashtirish

hodisasi o'z navbatida farmatsevtika terminlari o'rtasida sinonimiya hodisasiga sabab bo'ldi.

Farmatsevtika sohasiga oid sinonimik nominatsiyalar soha terminologiyasining turli, ya'ni struktur (struktur sinonimiya) denotativ signifikativ (semantik sinonimiya), tarjima (tillararo sinonimiya), distributiv va funksional xususiyatlari singari jihatlarni hisobga olgan holda o'rganishni taqozo etadi. Farmatsevtika terminologiyasida mavjud leksik birliklar ma'nodoshlik xususiyatiga ko'ra absolyut sinonimlar yoki dubletlarga (to'liq soha ichidagi sinonimlar), nisbiy sinonimlar (to'liq bo'lmagan – sohalalararo sinonimlar) hamda qisqartma variantlar kabi guruhlariga ajratib tasniflash va tavsiflash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Гравченко Л.А.Б Геллер Л.Н .История фармации: учебно методические пособие. – Иркутск. ИГМУБ. 2014-111с.
2. Абдурахмонова М., Икромов Х. Юнон-лотин тилига асосланган тиббий атамаларнинг лингвистик таҳлили// Сўз санъати халқаро журнали (3-сон). – Тошкент, 2020. – Б. 708-713
3. Геселевич А.М., Гузов В.В. К вопросу об использовании иностранных терминов в медицинской литературе // Клиническая медицина, 1970 (5). – С. 148-150.
4. Иномов Қ.С. Ҳамширалик иши: Тиббиёт билим юртларининг талабалари учун дарслик (II нашри). – Тошкент: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 1998. 288-б.
5. Медведкова Е. Медицинская лингвистика// Преподавание и изучение иностранных языков в поликультурном образовательном пространстве (сборник научно-методологических статей). – Йошкар-Ола, 2018. – С. 16-20.
6. Палютина З. Медицинская лингвистика как новое научное направление: проблемы становления и развития// Медицинский вестник Башкортостана. Том 8, № 3, 2013. – С. 104-106.
7. Розикова Г. Маҳмуд Кошғарий “Девон”ида қўлланган тиббиётга доир сўз ва атамаларнинг лексик-семантик таҳлили// Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси, 2020, 9-сон. – Б.187-191
8. Селезиева Л.В., Тартунова И.А., Люликова А.В. Фармаконим как маркетинговый феномен информационно коммуникационного пространства // Верхневолжский филологический вестник, № 2, 2018. – С. 66-70.
9. Умиров С.Э. ва б. Безгакнинг этиологияси, клиникаси, ташхисоти, эпидемиологияси, эпидемиологик назорати ва профилактикаси. – Тошкент, 2009. 37-б.
10. Абдулхаирова Ф. Тиббий метафоралар изоҳли луғати. – Тошкент: Баёз, 2021. 387-б.
11. Ибодов Н., Лемпель Н. Анатомиядан қисқача лотинча-русча-ўзбекча луғат (2-нашр). – Тошкент: Медицина, 1982. 86-б.
12. Қосимов А. Тиббий терминлар изоҳли луғати (II жилд). – Тошкент: Абу Али ибн Сино, 2003. 568-б.
13. Ўзбек тилининг изоҳли луғати /Мадвалиев А. таҳрири остида/. 5 жилдли. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. 627-б.

Sevara OMONOVA,
 Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti 2-bosqich magistranti



INTERNETDA QO'LLANILUVCHI JUMLALARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqola internet muhitida qo'llaniladigan gaplarning o'ziga xos lingvistik xususiyatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Internet diskursiga xos bo'lgan sintaktik soddalik, elliptik konstruksiyalar, verballashgan gaplar, so'z tartibidagi o'zgarishlar, shuningdek, o'zbek tilidagi internet matnlarida kuzatiladigan tipik grammatik xatolar tahlil qilinib, misollar bilan ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: *internet diskursi, sintaksis, gap tuzilishi, elliptik konstruksiyalar, verballashgan gaplar, internet grammatikasi, o'zbek tili.*

Аннотация: статья посвящена анализу языковых особенностей предложений, используемых в интернет-среде. Приведены примеры синтаксической простоты, эллиптических конструкций, вербализованных предложений, изменений порядка слов и типичных грамматических ошибок, наблюдаемых в интернет-текстах на узбекском языке.

Ключевые слова: *интернет-дискурс, синтаксис, структура предложения, эллиптические конструкции, вербализованные предложения, интернет-грамматика, узбекский язык.*

Annotation: this article is devoted to the analysis of the specific linguistic features of sentences used in the Internet environment. The syntactic simplicity, elliptical constructions, verbalized sentences, word order changes characteristic of Internet discourse are shown with examples, as well as typical grammatical errors observed in Internet texts in the Uzbek language.

Key words: *Internet discourse, syntax, sentence structure, elliptical constructions, verbalized sentences, Internet grammar, Uzbek language.*

Bugungi kunda internet muloqoti kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Ijtimoiy tarmoqlar, messengerlar, forumlar va boshqa onlayn platformalarda millionlab odamlar o'z fikrlarini, yangiliklarini va kechinmalarini aytib o'tadi. Bu virtual muhit o'ziga xos til uslubini shakllantirib, an'anaviy til normalaridan chetga chiqish, soddalashtirilgan grammatik qoidalarga amal qilish tendensiyasini keltirib chiqaradi. Ushbu maqolaning maqsadi internetda qo'llaniladigan gaplarning lingvistik xususiyatlarini sintaktik nuqtai nazardan tahlil qilishdan iborat. Hozirgi vaqtda Internet asosan, matnga asoslangan, ammo Kristalning ta'kidlashicha, biz nutqni ishlab chiqish va tanib olish texnikasi rivojlanishi bilan nutqning tobora muhimroq bo'lishini tasavvur qilishimiz mumkin. Bu xususiyatlar bizga tili "sezilarli darajada o'ziga xos" bo'lgan "Internetdan foydalanishning 7 ta keng holatini" ajratishga yordam beradi: elektron pochta, chat guruhlar (ular ikki xil: sinxron va asinxron), virtual olamlar (yoki ko'p foydalanuvchili domenlar uchun MUD), World Wide Web (yaqinda paydo bo'lgan qo'shimcha bloglar va yaqinda paydo bo'lgan bloglar). Bu holat Internetni tilshunoslar uchun, ayniqsa, qiziqarli lingvistik maydonga aylantiradi, chunki "odamlar hali ham

ularga taqdim etilgan kommunikativ potensial bilan shug'ullanmoqdalar" degan fikrni ilgari suradi [1].

Internet diskursida gap tuzilishining soddalashuvi.

Internet makonida shakllanayotgan matnlar o'zining maxsus lingvistik xususiyatlariga ega bo'lib, ular an'anaviy yozma nutqdan bir qator jihatlari bilan farq qiladi. Avvalo, internet matnlari tezkorlik va qisqalik tamoyiliga asoslanadi. Foydalanuvchilar vaqtni tejash maqsadida ko'pincha sodda gap tuzilmalaridan, qisqartmalardan hamda imlo qoidalaridan chekinishlardan foydalanadilar. Masalan, ingliz tilida "u" ("you"), "r" ("are"), "lol" ("laughing out loud") kabi qisqartmalar keng qo'llanadi. O'zbek va rus internet makonida ham "qale", "ok", "spas" kabi qisqartirilgan shakllar faol ishlatiladi.

Bundan tashqari, internetdagi jumlar ko'pincha og'zaki nutqqa yaqin bo'lib, unda emotsional-ekspressiv vositalar keng qo'llanadi. Emoji va smayliklar jumlagi qo'shimcha ma'no, ohang va kayfiyat yuklaydi. Bu hodisa yozma matnda nutqning noverbal unsurlarini qisman qoplash vazifasini bajaradi.

Internet lingvistikasi uchun yana bir muhim xususiyat – interaktivlikdir. Jumalarda tez-tez

murojaat shakllari, so'roq gaplar va chaqiriqlar ishlatiladi, bu esa o'quvchini bevosita muloqotga jalb etadi. Masalan, bloglar, forumlar yoki ijtimoiy tarmoqlarda "siz qanday o'ylaysiz?", "fikringizni yozib qoldiring" kabi konstruksiyalar keng tarqalgan.

Shuningdek, internet jumllarida kod-aralashuv (code-switching) hodisasi ham ko'p kuzatiladi. Ayniqsa, ko'p tilli auditoriyada bir jumla ichida ikki yoki undan ortiq til elementlari qo'llanishi odatiy hol bo'lib qolgan. Masalan: "Bugun meeting bo'ldi, keyin choyxona gaplashdik." Bunday jumllar til tizimining moslashuvchanligini ham, internetdagi global muloqotning ta'sirini ham ko'rsatadi.

Internetda yozma muloqot tezkorligi va qulayligi bilan ajralib turadi. Bu esa gap tuzilishining soddalashuviga olib keladi. Murakkab qo'shma gaplar o'rniga, asosan, soddaga gaplar qo'llaniladi. Qo'shma gaplar ishlatilganda ham ular qisqa va tushunarli bo'lishga intiladi.

Misol:

- An'anaviy uslub: "Men bugun ishdan erta qaytdim, chunki ob-havo juda yomon edi va transport harakati qiyinlashgan edi".
- Internet uslubi: "Ishdan erta qaytdim. Ob-havo yomon. Transport qiyin".

Elliptik konstruksiyalarning qo'llanilishi.

Ellipsis – gapning ma'nosi uchun muhim bo'lmagan so'zlarning tushirib qoldirilishi. Internet diskursida bu usul keng tarqalgan bo'lib, matnni ixchamlashtirishga va muloqot tezligini oshirishga xizmat qiladi.

Misol:

- To'liq gap: "Siz qayerga boryapsiz?"
- Elliptik gap: "Qayerga?"

Verballashgan gaplar.

Verballashgan gaplar – faqat fe'ldan iborat bo'lgan yoki tarkibida boshqa so'zlar bo'lmagan gaplar. Ular internetda qisqa javoblar berish, rozilik bildirish yoki emotsiyalarni ifodalash uchun ishlatiladi.

Misol:

- "Tushundingizmi?" – "Tushundim".
- "Yaxshi yangilik!" – "Ajoyib!"
- "Zerikdim." – "Ha".

So'z tartibidagi o'zgarishlar.

Internetda norasmiy muloqot qoidalari hukmronligi sababli gapdagi so'z tartibi an'anaviy grammatik qoidalarga doim ham mos kelavermaydi. Inversiya (so'zlarning o'rnini almashtirish), so'roq gaplarda yordamchi fe'llarning tushib qolishi kabi holatlar ko'p uchraydi.

Misol:

- To'g'ri tartib: "Sen kelasanmi?"
- Internet uslubi: "Kelasan?"
- To'g'ri tartib: "Men buni bilmayman."
- Internet uslubi: "Men bilmayman".

O'zbek tilidagi internet matnlarida uchraydigan grammatik xatolar

O'zbek tilidagi internet matnlarida grammatik xatolar, imlo xatolari va tinish belgilarining noto'g'ri qo'llanilishi tez-tez uchraydi. Bunga sabab – tez yozishga intilish, savodxonlikka e'tibor bermaslik va norasmiy muloqot muhiti.

Misol:

- "Salom hammaga qaleslar" (To'g'ri: "Salom hammaga, qalaysizlar?").
- "Man bugun kinoga boraman" (To'g'ri: "Men bugun kinoga boraman demoqchiman").
- "Xursan bolganimdan yigladim" (To'g'ri: "Xursand bo'lganimdan yig'ladim").

Ko'rinib turibdiki, Internetda qo'llaniladigan gaplar o'ziga xos lingvistik xususiyatlarga ega bo'lib, an'anaviy til normalaridan chetga chiqish, soddalashtirish, ixchamlashtirish va emotsionallikni ifodalashga intilish tendensiyasi bilan ajralib turadi. O'zbek tilidagi internet matnlari ham bu tendensiyalardan mustasno emas, ammo ular o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlari va madaniy konteksti bilan belgilanadi.

Xulosa qilib aytganda, internetda qo'llaniladigan jumllar o'zining soddaligi, qisqaligi, ekspressivligi, ko'p hollarda imlo me'yorlaridan chekinishi, emoji va belgilar bilan boyitilishi, shuningdek ko'ptillilikni o'zida aks ettirishi bilan xarakterlanadi. Bu jihatlari internet tilining o'ziga xosligini belgilab, uni lingvistik tadqiqot uchun alohida qiziqarli obyektga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Crystal, David. Language and the Internet. Cambridge University Press, 2006.
2. Herring, Susan C. Computer-Mediated Communication: Linguistic, Social, and Cross-Cultural Perspectives. John Benjamins Publishing Company, 1996.
3. Baron, Naomi S. Alphabet to Email: How Written English Evolved and Where It's Heading. Routledge, 2000.
4. Lo, Sherry, and Dennis H. Loh. "If you smile, will they reciprocate? Emojis and perceived social attraction" Computers in Human Behavior, vol. 66, 2017, pp. 498-506.

ISMIY JUMLADA EGA VA KESIMNING IFODALANISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada arab tili grammatikasida ot kesim tarkibidagi ega va kesimning ifodalanishi haqida soʻz boradi. Ega va kesimning arab nahvidagi oʻrni oʻrganib chiqiladi.

Kalit soʻzlar: *ismiy jumla, muftado, xabar, foil.*

Annotation: this article discusses the expression of the subject and predicate in the grammar of the Arabic language. The role of the subject and predicate in Arabic syntax will be examined.

Key words: *nominal sentence, subject, predicate, verb.*

Аннотация: в данной статье рассматривается выражение подлежащего и сказуемого в грамматике арабского языка. Будет изучена роль подлежащего и сказуемого в арабском синтаксисе.

Ключевые слова: *именная конструкция, подлежащее, сказуемое, глагол.*

Arab tilida nahv ilmi soʻzlarni qoʻshish hamda soʻzlarning oxirgi harfining eʼrobi, yaʼni harakati maʼlum boʻladigan ilmdir. Bu ilmning maqsadi: insonlar arab tilida gapirganda, yozganda yoki oʻqiganda xatoliklarga yoʻl qoʻymaslikdir. Biz ushbu maqolamizda arab nahvida, yaʼni grammatikasida ot kesimli gapdagi ega va kesim mavzusiga toʻxtalmoqchimiz.

Gap kesimidan anglashilib turgan harakatning bajaruvchisini, belgining sohibini bildirgan boʻlak ega deyiladi. Ega asosan kim?, nima?, qayer? soʻroqlariga javob boʻladi. Ega doim bosh kelishik shaklida boʻladi.

Arab nahvida eganing ikki xil koʻrinishi bor:

1. Muftado – ismiy gapning egasi boʻlib, odatda, aniq holatda va bosh kelishikda keladi.

2. Foil – feʼliy gapning egasi boʻlib, doim feʼl kesimdan keyin bosh kelishikda keladi.

Kesim gapning markazi boʻlib, kesimsiz gap tugallanmagan hisoblanadi. Kesim ifodalanishiga koʻra feʼl kesim va ot kesimga boʻlinadi. Feʼl kesim faqat sof feʼl bilan ifodalanadi. Masalan: Gumon iymondan *ayiradi*. Ot kesim esa feʼldan boshqa soʻz turkumlari bilan ifodalanadi. Masalan: Otam davlatimdir (ot bilan). Biz oʻqigan kitob – shu (olmosh bilan). Ikki karra ikki toʻrtidir (son bilan).

Arab tilida gapning asosiy tarkibi, yaʼni “sintaktik birlikning strukturasi feʼliy va ismiy boʻlishiga” koʻra jumla ikki xil boʻladi: ismiy va feʼliy¹. Yuqoridagi maʼlumotlardan koʻrinib turibdiki, bu yerda ona tilimizdagi “ot-kesimli va feʼl-kesimli gaplar” haqida soʻz boryapti. Shuni aytib oʻtishimiz kerakki, arab tilida boshqa tillardan farqli ravishda ot-kesimli gapning bosh boʻlaklari bilan feʼl-kesimli gapning bosh boʻlaklari turlicha nomlanadi.

Koʻpgina tilshunos olimlar ot kesimli gap tarkibini oʻz asarlarining ربحل او أدتبم باب “Ega va kesim” mavzusida yoritib oʻtadilar va quyidagicha taʼrif beradilar:

دَيَّرَ: «لَشَيْءٍ، فَيَسِّرُ لَكَ مَجْعُوعًا، أَمْسَ لَوَّالًا مُعْزَجًا نَاكَ أَمْ
نَسْمُ يِنَاثَلًا مُعْزَجًا، أَدْتَبْتُ يَمْسِيَّوْ وَيَلَّيْ دَنْسُمُ لَوَّالًا مُعْزَجًا، «مَلَّاعِ
أَرْبَخَ يَمْسِيَّوْ»

1 Qosimova S.S. Hamiduddin Daririyning “Muqaddima” asari: matn va tadqiq. – Toshkent: ToshDShI, 2014. 102-bet.

Jumlaning avvalgi qismi ism soʻz turkumi bilan ifodalanган boʻladi va u “ismiy jumla” deb nomlanadi². Masalan: مَلَّاعِ دَيَّرَ – Zayd olimdir.

Jumladagi birinchi soʻz “musnad ilayhi” boʻlib, u “muftado”, deb nomlansa, ikkinchi soʻz “musnad”, yaʼni “xabar” deb ataladi.

Arab tilidagi ismiy jumla oʻzbek tilidagi ot kesimli gapga oʻxshab ketadi. Mirqobil Hasanov va Muborak Abzalovanning “Arab tili darslari” oʻquv qoʻllanmasida taʼkidlanishicha, kesimi ism turkumidagi soʻz bilan ifodalanган boʻlsa, ismiy gap va bunday kesimga ismiy kesim (yoki ot kesim) deyiladi. (Ism turkumiga ot, sifat, son, olmosh, masdar va taqlid soʻzlar kiradi.) Ismiy kesim vazifasida ot, sifat, son yoki olmosh kabi ismlardan biri keladi. Demak, ikki ismdan tuzilgan jumladagi birinchi ism, yaʼni ega “muftado”, ikkinchi ism boʻlgan kesim esa “xabar” deyiladi. Muftado aniq holatda, bosh kelishikda keladi. Xabar esa noaniq holatda va bosh kelishikda keladi. Agar ismiy kesim, yaʼni xabar ot bilan ifodalansa, u muftado bilan faqat kelishikda va sonda moslashadi. Gapda muftado oldin, xabar esa keyin keladi. Arab tilidan oʻzbek tiliga tarjima qilayotganda kesimga bogʻlama, yaʼni — dir qoʻshimchasi qoʻshib tarjima qilinadi. Ammo arab tilida bu kabi bogʻlamalar ishlatilmaydi. Masalan:

قَرِيْبِك سَمَشَلَا – Quyosh kattadir.

قَلَّيْمَج قَرَاتْسَلَا – Parda chiroylidir.

يَكَا ب لَفَطَلَا – Bola – yigʻloqi.

عَادُوس قُظْلَفَحَمَلَا – Sumka qoradir.

Ustoz Mahmudxon Usmon oʻzining “Mabdaʼul eʼrob” kitobida muftado faqatgina maʼrifa ismlardan yasalishi haqida aytib oʻtadi. Maʼrifa deb atoqli va aniq ismlarga aytiladi. Maʼrifa ismlarning olti turi mavjud boʻlib, ular quyidagilardan iborat³:

1. Alamlar – atoqli otlar yaʼni kishi ismlari va joy nomlari:

2 Qosimova S.S. Hamiduddin Daririyning “Muqaddima” asari: matn va tadqiq. – Toshkent: ToshDShI, 2014. 103-bet.

3 Mahmudxon Usmon. Mabdaʼul eʼrob. – Toshkent: “Bilim va intellektual salohiyat”, 2019. 11-b.

1. Xadicha – عديحة; Umar – رمع; Makka – مَكَّة; Madina – مَدِينَة.
2. Domirlar – kishilik olmoshlari: u – ه; biz – نحن; men – أنا.
3. Ismi ishoralar – ko'rsatish olmoshlari: bu – اذِه; bu ikkisi – هَاؤِه; bular – هَاؤِه.
4. Ismi mavsulalar – nisbiy olmoshlar: نازِلَا; يَتَلَا; يَزَلَا.
5. artikli bilan aniq bo'lgan ismlar: xat – خَاتِرَا; daftar – رَتْفَدَلَا; uy – تَيَبِلَا.
6. Izofadagi muzof:

Oллоhning kalomi; – مَلَا مَلَاك
Mahmudning kitobi; – دَوْمَحْم بَاتَك
onamning xati. – يَمَ قَلَسَر

Mubtado xabar bilan doim sonda moslashadi. Mubtado mufrad, ya'ni birlikda bo'lsa, xabar ham mufrad bo'ladi, tasniya, ya'ni ikkilikda bo'lsa, xabar ham tasniyada bo'ladi, jam, ya'ni ko'plikda bo'lsa, xabar ham jamda bo'ladi. Ammo mubtado g'ayrioqil ko'plikda bo'lsa, xabar muannas birlikda bo'ladi⁴. Masalan:

Kitob qiziqarlidir. – عَتَمَم بَاتَكَلَا
Ikki kitob qiziqarlidir. – نَاعَتَمَم نَابَاتَكَلَا
Kitoblar qiziqarlidir. – عَتَمَمم بَاتَكَلَا

Xabar jinsi o'zgaradigan so'zdan iborat bo'lsa, u mubtadoning jinsiga moslashadi. Masalan:

Muhammad o'qituvchidir – ذَاتَسْأ دَمَحْ
Oisha oqiladir – قَلَقَاع قَشَائِع
men dehqonman – حَالَف أَنَا
men dehqon qizman. – عَالَف أَنَا

Agar mubtado ko'rsatish olmoshlaridan iborat bo'lsa, u xabarning jinsiga mos ravishda keladi. Masalan:

Bu quyoshdir – بُو قُيُوشْدِير
Bu Ahmaddir – بُو أَحْمَادِير
Anavi partadir – أَنَاوِي پَارْتَادِير
Anavi koptokdir. – أَنَاوِي كُوپْتُوكْدِير

Ismiy gapda mubtado yuqoriroq, xabar esa pastroq ovozda talaffuz qilinadi.

Ismiy jumla kesimi, ya'ni xabar to'rt xil bo'lishi mumkin⁵, ular: ism, fe'l, hol va gapdan iborat bo'ladi. Ismiy jumlaning kesimi ism bilan ifodalanganiga misol: مَئَاق دِيْز so'zi mubtado, مَئَاق دِيْز so'zi ushbu gapda

xabar.

Ismiy jumlaning kesimi fe'l bo'lganiga misol: مَئَاق دِيْز – Zayd turdi, مَئَاق دِيْز – Zayd turadi. mubtado, uning kesimi esa fe'l bilan ifodalangan.

Ismiy jumlaning kesimi hol bo'lgan gap, ya'ni predlog ishtirok etgan ot kesimli gapga misol: مَئَاق دِيْز – Zayd hovlida, مَئَاق دِيْز – Zayd huzuringda. Keltirilgan birinchi misolda مَئَاق دِيْز – ismiy jumlaning mubtadosi, مَئَاق دِيْز – ismiy jumlaning xabari, ya'ni predlogli kesim.

Ismiy jumlaning kesimi jumladan iborat bo'lgan gapga misol: مَئَاق دِيْز – Zaydning otasi tik turuvchi (tik turibdi). Bu ismiy jumlada مَئَاق دِيْز so'zi birinchi ega, مَئَاق دِيْز – ikkinchi ega, مَئَاق دِيْز – esa ikkinchi egaga kesim bo'lib, jumla bosh kelishikdagi ismlardan iborat, ikkinchi ega o'zining kesimi bilan birgalikda birinchi egaga kesimdir. Unda birinchi egani eslatadigan kishilik olmoshi bor.

Biz mubtado va xabarni rof holatida, ya'ni bosh kelishikda kelishini ko'rib chiqdik. Ular rofdan boshqa o'rinlarda ham kelishi mumkin. Jumladan, مَئَاق دِيْز (Inna va uning axavatlari) va مَئَاق دِيْز (Kana va uning axavatlari) ni keltirishimiz mumkin.

Inna va uning axavatlari (egaga ta'sir qiluvchi yuklamalar)da mubtado nasbda, ya'ni tushum kelishigida, xabar esa rofda keladi⁶. Masalan:

Albatta, atirgul chiroylidir. – لَمِيْج دَرُوْلَا نَا
Albatta, tun qorong'udir. – قَمْلَظَم لَيْلِلَا نَا
Albatta, bola shirindir. – ذِيْذَل دَلُوْلَا نَا
Albatta, ilm nurdur. – رُوْن مَلْعَلَا نَا

Kana va uning axavatlari (egaga ta'sir qiluvchi yuklamalar)da esa Inna va uning axavatlari qoidaning teskarisi bo'ladi, ya'ni mubtado rofda, xabar esa nasbda keladi⁷. Masalan:

Talaba kasal edi. – اَصْنَيْرَم بُلْاَطْلَا نَا
Fotima talaba edi. – قُبْلَاط قُطَاف تَنَّاك
Biz o'quvchi bo'lgan edik. – دِيْمَالَت أَنَّاك

Demak, bosh bo'laklarni o'rganishda ismiy va fe'liy jumalardagi ega kesimlarni alohida ko'rib chiqishimiz kerak ekan. Yuqorida ko'rib chiqqanimizdek, ismiy jumladagi ega va kesim rof holatida kelarkan. Ammo "Inna va uning axavatlari" hamda "Kana va uning axavatlari"da biroz farqlar bo'lishini ko'rib chiqdik.

4 Mabda'ul e'rob. Mahmudxon Usmon. – Toshkent: "Bilim va intellektual salohiyat", 2019. 13-b.

5 Mabda'ul e'rob. Mahmudxon Usmon. – Toshkent: "Bilim va intellektual salohiyat", 2019. 14-b.

6 Ne'matulloh Ibrohimov, Muhammad Yusupov. Arab tili grammatikasi. I jild. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 1997.
7 Ne'matulloh Ibrohimov, Muhammad Yusupov. Arab tili grammatikasi. I jild. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 1997.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qosimova S.S. Hamiduddin Daririyning "Muqaddima" asari: matn va tadqiq. – Toshkent: ToshDSHl, 2014. 102-103-bet.
2. Mahmudxon Usmon. Mabda'ul e'rob. – Toshkent: "Bilim va intellektual salohiyat", 2019. 11-b., 13-14-b.
3. Ne'matulloh Ibrohimov, Muhammad Yusupov. Arab tili grammatikasi. I jild. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 1997.

Yulduz AVEZOVA,

Jondor tumani 9-umumta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, magistrant.

FARMASEVTIK LUG'AT TADQIQIDA LOTIN TILINING O'RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya: ushbu maqolada dorishunoslikka va tabobatga Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniyning qo'shgan hissasi, tanaga dorilarning terapevtik ta'sir qilish yo'llari, lotin tili o'lik til emas, balki boshqa sohalarda ham muhimlik darajasi, lotin tilining tibbiy ta'limdagi o'rni, boshqa davlatlarning adabiy tiliga muvofiqlashtirilishi misollar bilan yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: Avitsenna, YUNESKO, anesteziya, antidot, deodorizatsiya, fumigatsiya, Avesto, xaomi, laksativ, o'lik til, dori, doza, remedium, siripus, drug, aloe, romashka, malina.

Аннотация: в данной статье рассматривается вклад Абу Али ибн Сины и Абу Райхана аль-Бируни в фармакологию и медицину, терапевтическое воздействие лекарств на организм, значение латыни в других областях, роль латыни в медицинском образовании, ее адаптация к литературным языкам других стран и приводятся примеры.

Ключевые слова: Авиценна, ЮНЕСКО, анестезия, противоядие, дезодорация, окуривание, Авеста, хаоми, слабительное, мертвый язык, лекарство, доза, ремедиум, сироп, препарат, алоэ, ромашка, малина.

Annotation: this article discusses the contributions of Abu Ali ibn Sina and Abu Rayhan al-Biruni to pharmacology and medicine, the therapeutic effects of drugs on the body, the importance of Latin in other fields, the role of Latin in medical education, its adaptation to the literary languages of other countries, and examples.

Key words: Avicenna, UNESCO, anesthesia, antidote, deodorization, fumigation, Avesta, khaomi, laxative, dead language, medicine, dose, remedium, syrup, drug, aloe, chamomile, raspberry.

Ma'lumki, ilk renessans davrida farmasevtika sohasi bilan bevosita bog'liq bir qator salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Masalan, Abu Rayhon Beruniyning (973-1048) "Kitob as-saydana fi-t-tibb" ("Tabobatda dorishunoslik"), Ahmad ibn Muhammad al-G'ofikiyning (1165) "Aj-jomi fi-t-tibb fi-l-adviya al mufrada" ("Sodda dorilar haqida kitob") arab botanigi va dorishunosi Ziyovuddin Abu Muhammad ibn Al- Baytarning "Kitob al-jomi limufradod al-adviya va-l-ag'ziya" ("Sodda dorilar va ozuqa moddalar haqidagi kitob") nomli asarlarini keltirishimiz mumkin. Biroq shuni ham qayd etib o'tish joizki, Sharqda dorishunoslik, ya'ni farmasevtika sohasiga o'zlarining katta hissalarini qo'shgan yuqoridagi olimlargacha ham bir qator dorishunos olimlar yashab ijod etishgan. Sharqda yashab, ijod etgan ushbu olimlarning turli xastaliklarni davolash maqsadida qo'llagan dori vositalarining farmakologik ta'sirini zamonaviy farmakologiya nuqtayi nazaridan tahlil qilinganda, amaliyotda ishlatilgan dorilarning aksariyati tabiiy mahsulotlardan olinganligi, ular asosan, o'simlik va mevalar, shuningdek, hayvon nomlari bilan bog'liq nominativ birliklar ekanligini kuzatishimiz mumkin. Ularning inson tanasiga terapevtik ta'siri quyidagi turlarga ajratib, tasniflanadi:

1. Tibbiyotda og'riq qoldiruvchi, simptomatik davolash jarayonida yo'talga va yallig'lanishga qarshi qo'llaniladigan antibiral (virusga qarshi) va antipiretik vositalar.

2. Ko'knori urug'lari yordamida tinchlantiruvchi (sedativ) davolash.

3. Anesteziya va giyohvandlik vositalari – "portlash" deb nomlanadigan Hindiston kenevirining sharob va uyqu tabletkalari yordamida jarrohlikdan oldin yoki qattiq og'riq va sinishlar birikmasi uchun maxsus davolash muolajasi jarayonida qo'llaniladi.

4. Yumshatgichlar – shaftoli, kunjut, qaymoq, o'simlik va hayvon yog'lari.

5. Kuchaytiruvchi vositalar – rezavorlar, shakar, qand, lavlagi va asal.

6. Antidot - taryok, zaharga qarshi vosita.

7. Deodorizatsiya qiluvchi vositalar.

8. Dezinfektsiyalash vositalari – olov, kul, sirka, sharob.

9. Antiseptik vositalar – sirka, xaoma, piyoz, sarimsoq.

Ta'kidlash joizki, qadim zamonlardan O'rta Osiyoda turli xil *antidiyohal* (ich ketish), *laksativ* (surgi) va boshqa dorilar keng qo'llanilgan. Ko'knori uyqu tabletkalarini sharob bilan yuborish giyohvandlik uchun og'riq qoldiruvchi vosita sifatida ishlatilgan.

Chog'ishtirilayotgan tillar farmasevtik terminlarning tarixiy-genetik ildizlarini aniqlashda lotin tili muhim ahamiyatga ega. Jadallik bilan takomillashib va taraqqiy etib kelayotgan bugungi davrda ham lotin tili farmasevtika va tibbiyot sohaslarida o'zining dolzarbligini yo'qotganicha yo'q, aksincha, muhim vosita bo'lib kelmoqda. Yaqin o'tmishda ham aksariyat

mutaxassislar lotin tiliga “o‘lik til” sifatida munosabatda bo‘lishiga qaramasdan, hozirgi kunga kelib lotin tilini ko‘pgina soha leksikasi va bilimlar tarmog‘i ta‘siri yuqori ekani isbotlandi. A.V.Podosinovaning fikricha: “...Zero, lotin tili “o‘lik til” sanalsa-da, uning “o‘limi” maftunkor edi, u ming yillar oldin o‘lgan bo‘lsa ham, ko‘pgina Yevropa tillarining onasi sanaladi, yuzlab tillarga so‘z va terminlar tuhfa etgan til bu - lotin tili hisoblanadi, shuningdek, rus tili ham bundan mustasno emas. Umuman olganda, bugungi kunda amalda qo‘llanayotgan milliy yoxud xorijiy til bo‘lishidan qat‘iy nazar, biologiya, botanika, tibbiyot, klinika hamda farmatsiya sohalarida, shuningdek, farmakologiya, farmakognoziyada keng ko‘lamda lotin tilidan o‘zlashgan ko‘plab terminlar qo‘llanib kelinmoqda. Ushbu tildan milliy tillarga o‘zlashgan leksik birliklarning mavjudligi sababli butun jahon shifokorlari va farmasevtlari seminarlarda, jarrohlik amaliyotlarda, xalqaro konsiliumlarda, taqdimotlarda qo‘llanilgan termin va neologizmlarni qiyinchiliklarsiz tushuniladi. Shuningdek, lotin tili turli mamlakatlar tibbiy ta‘limini muvofiqlashtirish uchun ham muayyan darajada xizmat qilib kelmoqda. Bu borada N.I.Pirogov va I.P.Pavlov kabi katta olimlar o‘z ilmiy izlanishlari natijalarini kelajak avlodga lotin tilida yozib qoldirishgan. Qadimda tibbiyot sohasining salmoqli asarlari ham lotin tilida bitilgan. Farmasevtika va tibbiyot oliy ta‘lim muassasalarining fundamental fanlari dori vositalari va preparatlarining nomlari, dorivor o‘simliklar nomlari, terminologik birliklar va farmasevtik nomenklatura hamda retseplar xorijiy mutaxassislarga tushunarli bo‘lishi uchun lotin tilida yoziladi va rasmiylashtiriladi.

Farmasevtika ilmiy va rasmiy terminologiyasi lotin tili negizida vujudga kelgani bois xalqaro xarakterga ega hisoblanadi. Farmasevtika soha kontekstida faol ishlatiladigan leksik birliklarni, ya‘ni terminlarni ijtimoiy-siyosiy jabhada va kundalik turmush tarzimizda ham uchratishimiz mumkin. Masalan: *doza* –*dosis* (grekcha: *dosis letalis minima* –*doza smertelnaya minimalnaya* –*o‘ldiradigan kichik doza*), *ekstrakt* –*extractum* (lotincha –*extractum purum* – *chistiy ekstrakt* –*toza ekstrakt*) *nastoyka* (lotincha: *tincture*), *assistant* (lotincha: *assistantis* –*yordamchi*), *student* (lotincha: *studens* “mehnat va ilm bilan shug‘ullanadigan mehnatkash inson), *laborant* (lotincha *laborans* –*mehnatkash*) va *boshqalar*.

Farmasevtik terminshunoslik lingvistik va ekstralingvistik omillar sababli kishida alohida qiziqish uyg‘otadi. Ushbu sohada faol qo‘llaniladigan, asosiy termin hisoblangan “farmatsiya” va “farmasevtika” qadimgi yunon tilidan kirib kelgan “pharmakon”, “dori”, “dori-darmon” ma‘nolarini ifodalaydi. Bundan tashqari, *pharmakia* (yunon. “lekartstvo”) va *pharmakeutike* (yunon. “dorivor”)

“bemorlarni davolash uchun dori tayyorlash” ma‘nosida qo‘llaniladi. Uzoq o‘tmishda ham dori vositalarining (ingl. Medical product, medicinal preparation, medicina, drug, pharmaceutical composition) kelib chiqish tabiiy va sun‘iy yo‘l orqali bir yoki bir nechta dori moddalar hamda yordamchi moddalar asosida hosil qilingan. Kasallikning oldini olish, tashxish qo‘yish va davolash uchun qo‘llashga ruxsat etilgan vositalar jumlasiga immunobiologik, radiofarmasevtik va parafarmasevtik preparatlar, gomeopatik, tashxish qo‘yish va sterilizatsiya vositalari, shuningdek, dori vositalarini ishlab chiqarish va tayyorlash uchun mo‘ljallangan dori moddalari va (substansiyalar) (ingl. Pharmacopoeial item certified pharmacopoeial description) dori vositalari kiradi.

Tarixiy va zamonaviy farmasevtika sohasi terminologiyasi tarkibiga turli tillardagi dori vositalarining nomi, dori preparatlari, ularning shakllarini ifodalovchi nominativ birliklar, shuningdek, retseptlarda va qo‘llash uchun yo‘riqnomalarda keng ishlatiladigan leksik birliklar kiradi. Ular turli so‘z turkumlariga mansub bo‘lib struktur jihatdan yasaliish modellari, fe‘l, ot, sifatni tashkil etadi. Shuningdek, aniqllovchi, ravish va predloglar alohida termin yasash xususiyatiga ega emas. Biroq terminlarning muayyan yordamchi komponenti sifatida ishtirok etishlari mumkin.

Farmasevtika sohasida qo‘llaniladigan soha terminlari keyinchalik boshqa tillarga ham o‘zlashib, tarixiy-genetik ildizi lotin va yunon tillaridagi leksik birlik sifatida qaralmoqda. Buning isbotini quyidagi misollar orqali kuzatishimiz mumkin. Masalan: *medicamentum* (lot.) –*medicina, medication* (ingl.); *remedium* (lot.) –*remedy* (ingl.); *substantia farmaseutical substance* (ingl.); *forma medicamentorum* (lot.) *medicinal form* (ingl.); *preparatum* (lot.) – (*medicinal preparation* (ingl.); *tincture* (ingl.); *sirupus* (lot.) – *syrup, sirup* (ingl.); *herba* (lot.) –*herb, herbage* (ingl.); *fructus* (lot.) –*fruits* (ingl.); *baccae* (lot.) –*bacca* (ingl.); *flores* (lot.) –*flowers* (ingl.); *rhizome* (lot.); *cortex* (lot.) –*cortex* (ingl.) va bosh. Ingliz tili farmasevtika leksikasida faol qo‘llanadigan *drug* (dori, dori vositasi, dori preparati) terminining kelib chiqishi aralash, ya‘ni ingliz fransuz (XIV asr) tiliga borib taqalsa, boshqa tillardan olingan sof terminologik o‘zlashmalar qatoriga XII asrdan beri qo‘llanilib kelinayotgan *medicina* leksik birligini misol keltirishimiz mumkin. “*Tibbiy davolash, davolash, kasallikni davolash, tibbiyot*” ma‘nosida qadimgi fransuz tilidan kirib kelgan *medicina* (hozirgi fransuzcha *mydicina*) “*tibbiyot, shifo, tibbiy davolash san‘ati*” lot. *medicina* “davolash san‘ati, tibbiyot; kasallikni davolash vositasi” tushunchasi XIV asr o‘rtalarida ingliz tilida “*dori preparati*” termini ma‘nosida qo‘llanilgan.

Shuningdek, *pharmacy* termini ham XIV asrning oxiridan “dori”, (XIII asr.) qadimgi fransuz tilida

farmacie “*ich surgi*” termini ma’nosida, o’rta asr lotin tilida esa *pharmacia*, yunon tilida *pharmakeia* dori vositasini qo’llash, dori preparati, dori darmon, sehdodu yoki ruhiy ta’sir o’tkazish yordamida davolash; zaharlanish xastalikka qarshi dori vositasi terminlari ma’nolarida qo’llanilgan. XIV asrdan boshlab dori - darmon bilan davolash va uni boshqarish ma’nosida, 1833- yilda ilk bor “dori-darmon tayyorlash va tarqatish joyi” ma’nosida qo’llanilgan. *Pharmacia* leksemasi tarkibidagi **Ph** harf birikmasi XIV asrda fransuz tilida, XVII asrda esa ingliz tilida qayta tiklangan. 1540-yilda qo’llanilgan “**pharmaceuticus**” fonetik jihatdan biroz o’zgarishga uchragan va u leksik jihatdan 1640-yilga kelib “**pharmaceutic**” terminiga aylangan. Uning tarjimasi “*dori-darmonga taalluqli*” degan mazmunni anglatib, yunonchadan “*pharmakeutikos*, *pharmakeus*” dori-darmon tayyorlovchi termini ma’nosida keng qo’llanilgan.

Farmasevtika sohasiga oid terminlarning etimologik jihatdan qaysi tilga mansubligi va ularni chog’ishtirilayotgan tillar tarjimasida qanday berilishini aniqlash va taqqoslash maqsadida quyidagi misollarni berib o’tamiz.

Chog’ishtirilayotgan tillardagi farmasevtik terminlarning etimologiyasi va ularning turlari. Masalan:

Lotin tilida: Medicamentum remedium

Etimologiya kelib chiqish tarixi: fe’l. *medicari* (“dori yordamida davolash”+mentum (ot yas.qo’sh.); remedium-re+medeor (“davolamoq”)

Ingliz tilida: Medicine, medication, medicinal agent, drug, remedy, cure.

Rus tilida: Lekarstvennoye sredstvo.

O’zbek tilida: dori vositasi. Bu kabi misollarni jadval ko’rinishida ham shakllantirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, chog’ishtirilayotgan tillar farmasevtik terminlarining tarixiy-genetik ildizlarini aniqlashda lotin tili muhim ahamiyatga ega. Jadallik takomillashib taraqqiy etib kelayotgan bugungi davrda ham lotin tili Butunjahon sog’likni saqlash tashkilotining quyi tizimlarida, umuman, farmasevtika sohasida o’zining dolzarbligini yo’qotganicha yo’q. Aksincha, soha amaliyotida yuritilayotgan ko’plab rasmiy hujjatlarda, vrachlar va farmasevtlarning og’zaki va yozma ko’rsatmalari (retsept)larida muhim til vositalaridan biri bo’lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Гравченко Л.А.Б Геллер Л.Н .История фармации: учебно методические пособие.-Иркутск. ИГМУБ. 2014-111с.
2. Абдурахмонова М., Икромов Х. Юнон-лотин тилига асосланган тиббий атамаларнинг лингвистик таҳлили// Сўз санъати халқаро журнали (3-сон). – Тошкент, 2020. Б. 708-713
3. Геселевич А.М., Гузов В.В. К вопросу об использовании иностранных терминов в медицинской литературе // Клиническая медицина, 1970 (5). С. 148-150.
4. Иномов Қ.С. Ҳамширалик иши: Тиббиёт билим юртларининг талабалари учун дарслик (II нашри). – Тошкент: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 1998. 288 -б.
5. Медведкова Е. Медицинская лингвистика// Преподавание и изучение иностранных языков в поликультурном образовательном пространстве (сборник научно-методологических статей). – Йошкар-Ола, 2018. С. 16-20.
6. Палютина З. Медицинская лингвистика как новое научное направление: проблемы становления и развития// Медицинский вестник Башкортостана. Том 8, № 3, 2013. С. 104-106.
7. Розикова Г. Маҳмуд Кошғарий “Девон”ида қўлланган тиббиётга доир сўз ва атамаларнинг лексик-семантик таҳлили// Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси, 2020, 9-сон. Б.187-191
8. Селезиева Л.В., Тортуннова И.А., Люликова А.В. Фармаконим как маркетинговый феномен информационно коммуникационного пространства // Верхневолжский филологический вестник, № 2, 2018. С. 66-70.
9. Умиров С.Э. ва б. Безгакнинг этиологияси, клиникаси, ташхисоти, эпидемиологияси, эпидемиологик назорати ва профилактикаси. – Тошкент, 2009. 37-б.
10. Абдулхаирова Ф. Тиббий метафоралар изоҳли луғати. – Тошкент: Баёз, 2021.387-б.
11. Ибодов Н., Лемпель Н. Анатомиядан қисқача лотинча-русча-ўзбекча луғат (2-нашр). – Тошкент: Медицина, 1982. 86-б.
12. Қосимов А. Тиббий терминлар изоҳли луғати (II жилд). – Тошкент: Абу Али ибн Сино, 2003. 568-б.
13. Ўзбек тилининг изоҳли луғати /Мадвалиев А. таҳрири остида/. 5 жилдли. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2006. 627-б.

Nilufar ERGASHEVA,
O'zbekiston Milliy universiteti
Jurnalistika va o'zbek filologiyasi fakulteti talabasi,
Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindori.
ergashevanilufar482@gmail.com

NAVOIY DOSTONLARIDA HAMD, MUNOJOT VA NA'T MASALALARI

Annotatsiya: ushbu maqolada Alisher Navoiyning dostonlarida uchraydigan hamd, munojot va na't qismlari tahlil qilinadi. Va Alisher Navoiy qaysi diniy, dunyoviy manbalardan foydalangani, aynan qaysi kitoblarga tayanib hamd qismlarida ishoraviy g'azallar yozgani aniqlanadi.

Kalit so'zlar: hamd, munojot, na't, "Farhod va Shirin", "Allamal inson", "Xamsa", "G'aroyib us-sig'ar" va boshqalar.

Annotation: in this article, analyzes the parts of praise, supplication, and "na't" found in Alisher Navoi's epics. It also identifies which religious and secular sources Alisher Navoi used, and which books he used to write allusive ghazals in the parts of praise.

Key words: praise, supplication, "na't", "Farhod and Shirin", "Allamalen insone", "Khamasa", "Gharoyib us-sig'ar", etc.

Аннотация: в статье анализируются хвалебные, мольбовые и наятные части в эпосах Алишера Навои. Также определяется, какими религиозными и светскими источниками пользовался Алишер Навои и какие книги он использовал для написания газелей-аллюзий в хвалебных частях.

Ключевые слова: хвала, мольбовая, наятные части, "Фарход и Ширин", "Алламален инсоне", "Хамса", "Гарайиб ус-сигъар" и др.

Kirish (Introduction). So'z – dunyo ustuni. Olam so'z ila yaralgan. Shoir Erkin Vohidov yozganidek: "So'z zabarjad, so'z gavhar, oltin". Gavharni esa asl gavhardek ko'rsatish faqatgina mohir zargarining qo'lidan keladi. Alisher Navoiy o'z ijodi bilan dunyo adabiyotida yangi bir adabiy bosqichga asos solgan va uni fors she'riyatidan kam bo'lmagan darajaga olib chiqqan katta iste'dod – so'z zargaridir. Buyuk shoirning har bir bayti, har bir misrasi ham shaklan, ham mazmunan pishiq, tashqi va ichki jihatdan mukammal bo'lgan ijoddir. Alisher Navoiyning ijodida ham chin zar, gavhar asarlar uchraydi. Chindan Navoiy hazratlari katta zargar, so'z zargari. Navoiyning tubsiz ijodida aynan keltirilgan oyat va hadislar salmog'i sezilarli. Aynan keltirilgan oyat va hadislar deyilganda, she'rda arab tilida ifodalangan oyat va hadislarini tushunmog'imiz darkor. Navoiy she'r talablariga muvofiq talaygina hadislar va oyatlarni qisman keltirib, hatto ayrimlarining shaklini o'zgartirgan holda go'zal badiiylilik yaratadi.

2. Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Hamd, munojot va na't mavzusidagi oyatlar, g'azal shaklida asosan, dostonlarning muqaddimaviy boblarida qo'llanilishi bilan birga, ularni tuyuq va qit'alarda ham uchratish mumkin. Shu sababdan bunday oyat va hadislarini Navoiy she'riyatida eng ko'p qo'llanilgan iqtibos san'atining namunalari deb

atash mumkin¹. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin", "Favoyid ul-kibar", "Hayrat ul-abror", "Layli va Majnun", "Saddi Iskandariy" va "G'aroyib us-sig'ar" asarlarida hamd, munojot va na't masalalari atroflicha ko'riladi.

3. Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Insonlarni yaxshilik va ezgulik mazmunlari sari da'vat qilishda shoir axloqiy-didaktik parchalar bilan qanoatlanibgina qolmay, balki ishqiy-tasviriy va madhiyaviy she'rlarda ham oyat va hadislar yordamida qo'yilgan maqsadini amalga oshiradi.

4. Tahlil va natijalar (Analysis and results).

"Farhod va Shirin" dostoni matla'sining birinchi misrasi arab tilida yozilgan bo'lib, misrani tashkil etuvchi so'zlar Qur'onda-da kelgan:

Bihamdik fathu abvobil-maoniy

Nasib et ko'ngluma fath o'lmog' oni.

Baytning nasriy bayoni: Sening hamding bilan ma'nolar eshigi ochiladi, bunga muyassar bo'lishni menga ham nasib et. "Bihamdik" kalimasi "Fotiha" surasidagi "Alhamd"dan olingan. Fath so'zi "fataha" ochmoq ma'nosini bildiradi. "Fotiha" surasi ham aynan "ochuvchi" ma'nosidadir. "Fath" so'zi "fotiha" bilan o'zakdosh bo'lib, asosi "fataha"dir. Qur'onning "ochuvchi" surasi Allohga hamd bilan boshlanganidek, Navoiy ham hamd bilan ma'nolar xazinasini ochmoqqa urinadi va buni ochishni Rabbidan duo qilib so'raydi.

¹ Давлатов О. Алишер Навоий шеърларида Куръон оятлари ва хадисларнинг бадий талкини. Фил.ф.д...дис. С.: 2017. 22-б.

“Favoyid ul-kibar”ning hamd g‘azallaridan birida:
“Allamal inson”g‘a chun aylab musharraf yer berib,

Taxti toj-u ishrat uzra ravzai rizvon aro², –
 baytini o‘qishimiz mumkin.

“Allamal inson” – “insonga o‘rgatdi”, insonga “allamal” – amal, ma’nosini bildiradi. Inson Alloh yaratilari ichida eng sharifi, mukarrami, Uning ilmi va nuri aks etgan yagona mo‘jizaviy xilqatdir. Alloh taolo olamni inson uchun yaratdi, butun mavjudotga uni mas’ul qildi, borliq sir-u sinoatini bilish uchun insonga ilm-u irfon berdi. Hazrat Alisher Navoiy insonning paydo bo‘lish tarixi xususidagi islomiy bashoratga ishora qilarkan, uning “asli bir tomchi suvdan yaratilgan”ini ta’kidlash uchun ilohiy kitobga tayanadi³.

“Xamsa” tarkibiga kirgan har bir doston Alloh taologga hamd, munojot va Rasululloh (s.a.v)ga na’t bilan boshlanadi. Aqoid ilmiga oid haqiqatlar ana shu muqaddima qismlarining asosini tashkil etadi. Ulug‘ shoir har bir bayt, har bir misra zamiriga Qur’oni karim oyatlari va hadisi shariflar mazmunini mahorat bilan singdiradi, ulardan iqtiboslar keltiradi. Jumladan, “Hayrat ul-abror”ning avvalgi munojotida insonga mana bunday ta’rif beradi:

“Karramno” keldi manoqib ang,

“Ahsani taqvim”munosib ang⁴.

Baytdagi “Karramno” so‘zi “Isro” surasining

مَدَاءِ يَنْبِ أَنْ مَرْكَ ذُقَلْ وَ

2 Навоий Алишер. Мукаммал асарла тўплами. 2томлик. 6-том. Фавойид ул-кибар. – Т.: Фан, 1990. 3-б.

3 Бекова Н. Алишер Навоийнинг ҳамд ғазаллари ва “Рух ул-кудс” касидасининг бадияти. Фил.ф.н...дис. – Т., 2003. 61-б.

4 Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 7-том. Хамса. Ҳайрат ул-аброр. – Т.: Фан, 1991. 15-б.

{Va laqod *karromnaa* banii aadama}

“Batahqiq, Biz Bani Odamni aziz-u mukarram qilib qo‘ydik”⁵ mazmunidagi 70-oyatidan iqtibos.

“Ahsani taqvim” jumlasini “Tiyn” surasining “Batahqiq, Biz insonni yaxshi suratda yaratdik”⁶ mazmunidagi 4-oyatidan olingan:

مَيُوقُوتْ نَسْخُ أَ يَفِ نَسْنِ إِلَّا أَنْقُلْ خَ ذُقَلْ

{Laqod xolaqnal insaana fii ahsana taqviimin}

Shoir bu ikki iqtibosni keltirib, Alloh taolo insonni mukarram qilib qo‘ygani va yaxshi suratda yaratganiga munosib holda Odam bolasi bu ikki ilohiy xabarni his qilishi va unga munosib holda hayot kechirmog‘i, shu orqali oxiratdagi maqomini-da yuksaltirishiga urg‘u bergan.

4.Xulosa va takliflar (Conclusion/ Recommendations). So‘z mulking sultoni Alisher Navoiy ijodida oyat va hadislarini turli shakllarda uchratdik. Shoir oyat va hadislarining shaklini o‘zgartirmasdan nasriy asar tarkibida aynan qo‘llaydi; qofiya va vazn talabiga ko‘ra biroz o‘zgartiradi; arabiy izofalarni forsiy izofalar bilan almashtiradi; oyat yoki hadislar tarkibidagi ayrim so‘zlarni tushirib qoldirib, asosiy ma’noni ifodalovchi so‘zlardan foydalanadi. Navoiy she’riyatida aynan keltirilgan oyat va hadislarining salmog‘i sezilarli. Asosiy maqsad ham hamd, munojot, na’tlar orqali insonlarni yaxshilikka, ezgulikka, qora illatlardan yiroq yurishga da’vat qilishdir. “Bu mening va’dam emas, Haqning va’dasi” degan iddao bor. Va buning isboti sifatida Qur’on oyatlari va hadislariga tayangan.

5 Шайх Мухаммад Содиқ Мухаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. 4- жуз. – Т.: Hilol-nashr, 2022. 289-б.

6 Шайх Мухаммад Содиқ Мухаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. 6- жуз. – Т.: Hilol-nashr, 2022. 597-б.

Foydalanilgan adabiyotlar (References)

1. Имом Ғаззолий. Қирқ ҳадиси қудсий. – Тошкент: Тошкент ислом университети нашриёт-матбаа бишлашмаси, 2008. 20-б.
2. “Олтин силсила” – “Саҳиҳул Бухорий”. 1-жуз. Шайх Мухаммад Содиқ Мухаммад Юсуф ва таржимонлар гуруҳи. – Тошкент: Hilol-Nashr, 2023. 672-б.
3. Шайх Мухаммад Содиқ Мухаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. 1-жуз. – Т.: Hilol-nashr, 2022. 666-б.
4. Шайх Мухаммад Содиқ Мухаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. 2-жуз. – Т.: Hilol-nashr, 2022. 640-б.
5. Шайх Мухаммад Содиқ Мухаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. 3-жуз. – Т.: Hilol-nashr, 2022. 648-б.
6. Шайх Мухаммад Содиқ Мухаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. 4-жуз. – Т.: Hilol-nashr, 2022. 668-б.
7. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 томлик/ Э.Й.Фозилов таҳрири остида. 1-том. – Т.: Фан, 1983. 656-б.
8. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 томлик/ Э.Й.Фозилов таҳрири остида. 2-том. – Т.: Фан, 1983. 644-б.
9. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 томлик/ Э.Й.Фозилов таҳрири остида. 3-том. – Т.: Фан, 1984. 624-б.
10. Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 7-том. Хамса. Ҳайрат ул-аброр. – Т.: Фан, 1991. 392-б.
11. Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 8- б.

Maftuna ASKAROVA,
 Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
 o'zbek tili va adabiyoti universiteti
 1-kurs tayanch doktorantura talabasi
 Email: mrsmodest51@gmail.com

BADIIY MATNNING KOGNITIV TALQINI

Annotatsiya: ushbu maqolada badiiy asarda yuzaga chiquvchi kognitiv omillarning tahlili haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, kognitiv tahlil jarayonida ishtirok etuvchi kognitiv omillar, xususan, konsept, konseptual metafora, freymlar, bilim strukturalari, orqali badiiy asar parchalari tahlil qilinadi va ularning kognitiv talqini ochib beriladi.

Kalit so'zlar: *freym tahlil, konseptual metaforik tahlil, konsept, bilim tuzilmalari, antroposentrizm, obrazlilik*

Annotation: this article discusses the analysis of cognitive factors that emerge in a literary work. In addition, during the process of cognitive analysis, cognitive factors such as concept, conceptual metaphor, frames, and knowledge structures are applied to analyze excerpts from literary works, and their cognitive interpretation is revealed.

Key words: *frame analysis, conceptual metaphorical analysis, concept, knowledge structures, anthropocentrism, imagery*

Аннотация: в данной статье рассматривается анализ когнитивных факторов, проявляющихся в художественном произведении. Кроме того, в процессе когнитивного анализа применяются такие когнитивные факторы, как концепт, концептуальная метафора, фреймы, структуры знаний, с помощью которых анализируются фрагменты художественных произведений и раскрывается их когнитивная интерпретация.

Ключевые слова: *фрейм-анализ, концептуальный метафорический анализ, концепт, структуры знаний, антропоцентризм, образность*

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda antroposentrik paradigmanning rivoj topishi badiiy matnlarning kognitiv talqinini yuzaga chiqishiga sababchi bo'ldi. Antroposentrik paradigmada inson tadqiqotlarning markaziga qo'yilib, uning tafakkuri, ongida kechuvchi jarayonlar va madaniy qadriyatlar til hodisalarida aks etishi til bilan birgalikda o'rganila boshlandi. Badiiy matnning, ayniqsa, kognitiv talqini yuqoridagi xususiyatlarni tahlil qilish va amaliy manbalar asosida tadqiqot olib borishga imkon beradi.

Badiiy matnlarning lingvistik tahlili ko'pincha matnning grammatik va leksik qatlamlarida olib boriladi. Kognitiv tahlil esa matnni konseptlar, metaforalar, assotsiatsiyalar va ramzlar kabilarning tadqiqi orqali o'rganadi.

Badiiy matn nafaqat muallifning shaxsiy uslubini, balki unga tegishli bo'lgan xalqning dunyoqarashi, qadriyatlar va madaniyatini aks ettiradi. Kognitiv talqin orqali esa ushbu xususiyatlar tadqiq qilinadi va milliy-madaniy konseptlarni anglatadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Badiiy matn muallifning obrazli fikrlash mahsuli hisoblanadi. Unda til birliklari faqatgina estetik jihatdan emas, balki kognitiv ma'noga ham ega bo'ladi. Shu sababli ham, badiiy asardagi voqealar, obrazlar yoxus metaforalar inson ongida konseptlar, freymlar va skriptlar shaklida namoyon bo'ladi. Badiiy tahlil jarayonida konseptlarning o'rni va ularning voqelanishi haqida turli xil tadqiqotlarga e'tibor qaratishimiz mumkin. Ulardan biri G. Lakof va M. Jonsonlarning konseptlarni metaforik tahlil qilish va konseptual metaforalarning badiiy asarlarda tasvirni tushunarliroq qilib berish xususiyatlari haqidagi tadqiqotlaridir[3]. Bundan tashqari G. Lakof va M. Turnerlar konseptual metafora nazariyasining asoschilari hisoblanadi[4]. Rus olimlaridan E.S.Kubryakova ham

konseptual metafora mavzusida izlanishlar olib borgan va uning konseptlarni klassifikatsiya qilish borasidagi fikrlari muhim ahamiyat kasb etadi[8]. O'zbek tilshunos olimlaridan D. Ashurova, M. Galiyeva, N. Djusupovlarning kognitiv tilshunoslik borasida olib borayotgan izlanishlari tahsinga sazavor. D. Ashurovaning kognitiv stilistika borasida olib borayotgan izlanishlari badiiy diskurs tahlilini yana bir yangi pog'onaga ko'tardi[1]. M. Galiyeva esa konsept mavzusida utrli tadqiqot ishlarini amalga oshirganlar[2]. N. Djusupov tomonidan bir qancha ilmiy maqolalarda aks etgan kognitiv tamoyillar hamda lingvistik deviasiyalar aynan badiiy matnning kognitiv tahlilida muhim omillar hisoblanadi[7].

Badiiy matn tahlilida konseptual, konseptual metaforik, freym tahlil metodlaridan foydalanilib, badiiy matnning kognitiv xususiyatlari ochib beriladi.

Muhokama. Badiiy matnning kognitiv xususiyatlari quyidagicha aks etadi:

✓ Obrazlilik orqali; muallif til orqali yangi konseptual modellarni yarata oladi.

✓ Metaforiklik orqali; bunda muallif abstrakt tushunchalarni aniq konkret obrazlar orqali tasvirlashi mumkin.


✓ Madaniy konnotatsiya orqali; matnda muallif tomonidan taqdim qilingan konseptlar madaniy hamda milliy tajribalarga asoslanadi.

✓ Kognitiv muloqot orqali; muallif badiiy matn orqali o'quvchi ongida mavjud bilim strukturalarini faollashtirishi mumkin.

Quyidagi badiiy matn parchalarida tahlillar amalga oshirilib, ushbu xususiyatlar aks etishini ko'rishimiz mumkin. Ingliz adabiyotidan Uilyam Shekspiring "As you like it" dramasida keltirilgan quyidagi parchaga e'tibor qaratsak:

*"All the world's a stage,
And all the men and women merely players."*[6]


Bu parchada "hayot" konsepti "sahna" ga qiyoslanib konseptual metaforani yuzaga keltirmoqda. Ya'ni abstrakt tushunchani kundalik hayotda o'quvchiga ma'lum obraz bilan ifodalamoqda. Bu orqali sahnadagi jarayonlar, rollar vaqtinchalik ekanligidan hayotning o'tkinchi ekanligiga qiyoslanmoqda. Bu tahlilni freym orqali ifodalasak kognitiv tahlilimiz yanada oydinlashadi:



Bu kabi tahlilni o'zbek adabiyoti namunasida ham ko'rishimiz mumkin. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida quyidagi parcha keltiriladi:

"Odamning umri shamga o'xshaydi, sham yonadi, lekin oxir-oqibat o'chadi."[5]

Bu yerda esa "hayot" konsepti "sham" orqali tasvirlanmoqda. Sham konseptual modeli orqali hayot go'yo sham yonishi kabi abadiy davom etmasligi, o'chishi esa insonning umri tugashiga ishora qiladi.



Yuqoridagi har ikki misolda ham ko'rishimiz mumkinki, berilgan konseptual metaforalar o'quvchi ongida mavjud bilim tuzilmalarini faollashtiradi. Misol uchun hayotning sahnaga qiyoslanishi inson ongida ensiklopedik bilimlar ichidan sahna haqidagi barcha tuzilmalarni ishga soladi va yuqoridagi kabi freym shakllanib uning mohiyatini ochib beradi. Aynan shu kabi bilim strukturalarining faollashishi va berilgan tasvirning o'quvchi tomonidan anglanishi kognitiv tahlilning ahamiyatini ko'rsatib beradi.

Natijalar. Badiiy matnning kognitiv talqini o'quvchini passiv qabul qiluvchidan faol idrok qiluvchi va qayta quruvchi darajasiga ko'taradi. Zero, o'quvchi muallif konseptlarini o'z bilim strukturalari orqali taqqoslab, mazmunni chuqur anglay oladi.

Turli milliy adabiyotlarda konseptlar turlicha ifodalanadi va kognitiv talqin orqali ochib beriladi. Natijada esa qiyosiy tilshunoslik uchun muhim omil vazifasini bajaradi. Misol uchun ingliz va o'zbek badiiy matnlarini qiyosiy o'rganishga imkon yaratadi.

Tarjima jarayonida ham kognitiv tahlilning ahamiyati katta hisoblanadi. Zero, boshqa tillardan tarjima qilishda faqatgina so'zma-so'z tarjima yetarli emas. Tarjimonlarga matndagi konseptlar, konseptual metaforalar va madaniy kodlarni tushunish zaruriyati yuzaga keladi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlildan ko'rinib turibdiki, badiiy matnning kognitiv tahlil ilmiy jihatdan tilshunoslik, adabiyotshunoslik va madaniyatshunoslik kabi sohalarga bog'langan bo'lib, ularning rivoji uchun hissa qo'sha oladi.

Badiiy matnning kognitiv talqini faqatgina nazariy jihatdan muhim bo'libgina qolmay, amaliy jihatdan ham ahamiyat kasb etadi. Zero, u asarni to'liq anglash, muallif dunyoqarashini ochish, milliy va madaniy qadriyatlarni tushunishda katta ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashurova D. U. Cognitive Linguistics. – Tashkent: Tafakkur Qanoti, 2018.69–70-p.
2. Galieva, M. R. Verbalizatsiya kontseptosfery Word/Сўз/Слово v angliyskoy, uzbekskoy, russkoy yazykovykh kartinakh mira. Diss. ... k.f.n. – Tashkent, 2010.
3. Lakoff, G., Johnson, M. (1980). Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press.
4. Lakoff, G., Turner, M. (1989). More than Cool Reason: A Field Guide to Poetic Metaphor. – Chicago: University of Chicago Press.
5. Qodiriy, A. (1994). O'tkan kunlar. – Toshkent.
6. Shakespeare, W. (1998). As You Like It. – Oxford: Oxford University Press.
7. Джусупов, Н. М. (2006). Лингвокогнитивный аспект исследования символа в художественном тексте. Автореф. дис... к.ф.н. – Ташкент. – 29 с.
8. Кубрякова, Е. С. (1995). Эволюция лингвистических идей во второй половине XX века (опыт парадигмального анализа) // Язык и наука конца XX века. Москва: РГГУ. С. 144–238.

Mahliyo YOQUBJONOVA,
Master's student at the National Pedagogical
University of Uzbekistan named after Nizami

PRAGMATIC STUDY OF STEREOTYPES IN ENGLISH AND UZBEK LINGUISTICS

Annotation: stereotypes play a crucial role in shaping perceptions and attitudes towards various social groups. This study aims to discover the usage of stereotypes in English and Uzbek languages through comparative analysis. A corpus-based approach was used to gather and examine information from different sources like media and literature. The findings show that stereotypes in each languages are frequently used to categorize and generalize people primarily based totally on their social identities, including gender, ethnicity and occupation. However, there are also notable differences in the forms of stereotypes in both languages reflecting particular cultural and ancient contexts. This article contributes to our knowledge of how stereotypes are constructed and perpetuated in different linguistic and cultural settings.

Key words: *stereotypes, linguistics, comparative analysis, culture, gender, communication standards.*

Аннотация: стереотипы играют решающую роль в формировании восприятия и отношения к различным социальным группам. Цель данного исследования - выявить использование стереотипов в английском и узбекском языках путем сравнительного анализа. Для сбора и изучения информации из различных источников, таких как СМИ и литература, был использован корпусной подход. Результаты исследования показывают, что стереотипы в обоих языках часто используются для категоризации и обобщения людей, в первую очередь на основе их социальной идентичности, включая пол, этническую принадлежность и род занятий. Однако существуют также заметные различия в формах стереотипов в обоих языках, отражающие особый культурный и древний контекст. Эта статья расширяет наши знания о том, как стереотипы формируются и закрепляются в различных языковых и культурных средах.

Ключевые слова: *стереотипы, лингвистика, сравнительный анализ, культура, гендер, стандарты коммуникации.*

Annotatsiya: stereotiplar turli ijtimoiy guruhlarga nisbatan tushuncha va munosabatni shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu tadqiqot qiyosiy tahlil orqali ingliz va o'zbek tillarida stereotiplardan foydalanishni aniqlashga qaratilgan. Ommaviy axborot vositalari va adabiyot kabi turli manbalardan ma'lumotlarni to'plash va tekshirish uchun korpusga asoslangan yondashuv ishlatilgan. Topilmalar shuni ko'rsatadiki, har bir tilda stereotiplar ko'pincha odamlarni asosan ularning ijtimoiy o'ziga xosliklariga, shu jumladan jinsi, millati va kasbiga qarab tasniflash va umumlashtirish uchun ishlatiladi. Shu bilan birga, ikkala tilda ham ma'lum madaniy va qadimiy kontekstlarni aks ettiruvchi stereotiplar shakllarida sezilarli farqlar mavjud. Ushbu maqola stereotiplar turli til va madaniy sozlash bir abadiylashtirilgan qurilgan qanday bizning bilim hissa qo'shadi.

Kalit so'zlar: *stereotiplar, tilshunoslik, qiyosiy tahlil, madaniyat, jins, aloqa standartlari.*

Stereotype is a significant area of research in intercultural pragmatics and sociolinguistics. In addition to being cultural beliefs, they are also linguistic occurrences that are communicated through discourse, speech acts, idioms and words. Stereotypes are "pictures in our heads," as Walter Lippmann initially stated in 1922, highlighting their influence on how people perceive things. Stereotypes in English and Uzbek come from history, customs, and communication standards, and they affect how cultures perceive themselves and are perceived by others. This article examines the lexical, pragmatic and discursive manifestations of stereotypes in the English and Uzbek languages. The purpose of the study is to better understand how both similarities and differences affect intercultural communication by highlighting them.

The study of stereotypes in English linguistics plays a significant role in understanding how language contributes to the formation of social perceptions and the reinforcement of cultural norms. Linguistic expressions frequently embody implicit stereotypes that reproduce dominant attitudes,

